ISSN 2181-6833

PEDAGOGIK MAHORAT

5(3)
2026



ISSN 2181-6833
9 772181 683301

ISSN 2181-6883

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

5-son (2026-yil, may)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2026

PEDAGOGIK MAHORAT
Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
2026, № 5

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruriy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.
Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O‘zbekiston Respublikasi,Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy.
Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY’ATI:

Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Rahmonovich– pedagogika fanlari doktori, professor
Mas’ul kotib: Sayfullayeva Nigora Zakiraliyevna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Navro‘z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G‘arbiy Universitet, Bolgariya)
Satibekova Mayramkul Abdikulovna, Jusup Balasagin nomidagi Qirg‘iziston milliy universiteti professori, pedagogika fanlari doktori (DSc)
Azizov Abdulatif Abduxalimovich, Bobojon Gafurov nomidagi Xo’jand davlat universiteti professori, pedagogika fanlari doktori (DSc), akademik
Batchuluun Yembuu, Mongoliya davlat ta’lim universiteti professori, pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)
Andriyenko Yelena Vasilyevna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta’limi instituti, Novosibirsk, Rossiya)
Romm Tatyana Aleksandrovna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta’lim instituti, Novosibirsk, Rossiya)
Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)
Zotova Firuza Raxmatullovna, pedagogika fanlari doktori, professor (Volgabo‘yi davlat jismoniy tarbiya, sport va turizm universiteti, Rossiya)
Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor
Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)
Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor
Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor
O‘rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor
Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor
Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Ro‘ziyeva Dilnoza Isomjonovna, pedagogika fanlari doktori, professor
Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc)
To‘xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Nazarov Akmal Mardonovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Dilova Nargiza Gaybullayevna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Jumayev Rustam G‘aniyevich, siyosiy fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Abdullayev Mehriddin Junaydulloyevich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Adizova Nigora Baxtiyorovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Adizova Nodira Baxtiyorovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Sattorov Anvar Ergashovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
Nurulloyev Firuz No‘monjonovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
Navruz-Zoda Layli Baxtiyorovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Axmadova Umidaxon Shavkat qizi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Rasulova Zilola Durdimurotovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Fayziyeva Umida Asadovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xalikova Umida Mirovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО
Научно-теоретический и методический журнал
№ 5, 2026

Решением Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан от 29 декабря 2016 года журнал включён в перечень изданий, рекомендованных для публикации научных результатов статей по направлениям «**Педагогика»** и «**Психология»**.

Журнал основан в 2001 году.
Журнал выходит 12 раз в год.

Журнал зарегистрирован Бухарским управлением агентства по печати и массовой коммуникации Узбекистана.

Свидетельство о регистрации средства массовой информации № 05-072 от 22 февраля 2016 г.

Учредитель: Бухарский государственный университет

Адрес редакции: 200117, Узбекистан, г. Бухара, ул. Мухаммад Икбол, 11.
E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Главный редактор: Адизов Бахтиёр Рахманович – доктор педагогических наук, профессор
Ответственный редактор: Сайфуллаева Нигора Закиралиевна – доктор философии педагогических наук, доцент

Хамидов Обиджон Хафизович, доктор экономических наук, профессор
Бегимкулов Узакбай Шаимкулович, доктор педагогических наук, профессор
Навруз-заде Бахтиёр Нигматович, доктор экономических наук, профессор
Ибрагимов Холбой Ибрагимович, доктор педагогических наук, профессор
Янакиева Елка Кирилова, доктор педагогических наук, профессор (Болгария)
Сатыбекова Майрамкул Абдикуловна, доктор педагогических наук (DSc) профессор (Кыргызстан)
Азизов Абдулатиф Абдухалимович, доктор педагогических наук (DSc), профессор, академик (Таджикистан)
Батчулуун Ямбуу, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, профессор (Монголия)
Андриенко Елена Васильевна (Институт физико-математического, информационного и технологического образования НГПУ, Новосибирск, Россия)
Ромм Татьяна Александровна (Институт истории, гуманитарного, социального образования ФГБОУ ВО НГПУ, Новосибирск, Россия)
Чудакова Вера Петровна, кандидат психологических наук (Национальная академия педагогических наук Украины, Украина)
Зотова Фируза Рахматулловна, доктор педагогических наук, профессор (Поволжский государственный университет физической культуры , спорта и туризма, Россия)
Хамроев Алижон Рузикулович, доктор педагогических наук (DSc), профессор
Каххаров Сиддик Каххарович, доктор педагогических наук, профессор
Махмудова Муяссар, доктор педагогических наук, профессор
Козлов Владимир Васильевич, доктор психологических наук, профессор (Ярославль, Россия)
Таджиходжаев Закирходжа Абдусаттарович, доктор технических наук, профессор
Аманов Мухтор Рахматович, доктор технических наук, профессор
Ураева Дармоной Саиджановна, доктор филологических наук, профессор
Дурдиев Дурдимурад Каландарович, доктор физико-математических наук, профессор
Махмудов Насыр Махмудович, доктор экономических наук, профессор
Олимов Ширинбой Шарофович, доктор педагогических наук, профессор
Киямов Нишон Содикович, доктор педагогических наук, профессор
Шомирзаев Махматмурод Хурамович, доктор педагогических наук, профессор
Рузиева Дилноза Исомжоновна, доктор педагогических наук, профессор
Курбонова Гулноз Негматовна, доктор педагогических наук (DSc), профессор
Тухсанов Кахрамон Рахимбоевич, доктор филологических наук (DSc), профессор
Назаров Акмал Мардонович, доктор психологических наук (DSc), профессор
Дилова Наргиза Гайбуллаевна, доктор педагогических наук (DSc), профессор
Жумаев Рустам Ганиевич, доктор философии политических наук (PhD), доцент
Абдуллаев Мехриддин Жунайдуллоевич, доктор педагогических наук (DSc), профессор
Адизова Нигора Бахтиёровна, доктор педагогических наук (DSc), профессор
Адизова Нодира Бахтиёровна, доктор педагогических наук (DSc), профессор
Сатторов Анвар Эргашович, доктор философии педагогических наук (PhD), профессор
Нуруллоев Фируз Нумонжонович, доктор философии педагогических наук (PhD), профессор
Навруз-заде Лайли Бахтиёровна, доктор философии экономических наук (PhD), доцент
Ахмадова Умидахон Шавкат кизи, доктор филологических наук (DSc), доцент
Расулова Зилола Дурдимуротовна, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент
Файзиева Умида Асадовна, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент
Халикова Умида Мировна, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент

PEDAGOGICAL SKILLS
The scientific-theoretical and methodical journal
№ 5, 2026

By the decision of the Higher Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated December 29, 2016, the journal was included in the list of publications recommended for publishing scientific results of articles in the areas of «**Pedagogy**» and «**Psychology**».

The journal was founded in 2001.
The journal is published 12 times a year.

The journal is registered by the Bukhara Department of the Agency for Press and Mass Communication of Uzbekistan.

The certificate of registration of mass media № 05-072 of 22 February 2016

Founder: Bukhara State University

Publish house: 200117, Uzbekistan, Bukhara, Muhammad Ikbol Str., 11.
E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

EDITORIAL BOARD:

Chief Editor: Pedagogical Sciences of Pedagogy, Prof. Bakhtiyor R. Adizov.
Editor: Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Doc. Nigora Z. Sayfullaeva

Doctor of Economics Sciences Prof. Obidjon X. Xamidov
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Uzokboy Sh. Begimkulov
Doctor of Economics Sciences, Prof. Bakhtiyor N. Navruz-zade
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Holboy I.Ibragimov
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Yelka K. Yanakieva (Bulgaria)
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Mayramkul A. Satibekova (Kyrgyzstan)
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Azizov Abdulatif Abdukhalimovich, Academician (Tajikistan)
PhD in Pedagogical Sciences, Prof. Batchuluun Yumbuu (Mongolia)
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Andrienko Yelena Vasilyevna (Russia)
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Romm Tatyana Aleksandrovna (Russia)
Candidate of Psychology, Vera P. Chudakova (Kiev, Ukraina)
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Zotova Firuza Raxmatullovna (Russia)
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Alijon R. Hamroev
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Siddik K. Kahhorov
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof.M.Mahmudova
Doctor of Psychology, Prof. Vladimir V. Kozlov (Yaroslavl, Russia)
Doctor of Technical sciences, Prof. Zakirkhodja A. Tadjikhodjaev
Doctor of Technical sciences, Prof. Mukhtor R.Amanov
Doctor of Philology, Prof. Darmon S. Uraeva
Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. Durdimurod K. Durdiev
Doctor of Economics, Prof. Nasir N. Mahmudov
Doctor of Pedagogical Science, Prof. Shirinboy Sh. Olimov
Doctor of Pedagogical Science, Prof. Nishon S. Kiyamov
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Maxmatmurod X. Shomirzaev
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Dilnoza I. Ruzieva
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Gulnoz N. Qurbonova
Doctor of Philology, Prof. Qahramon R.Tuxsanov
Doctor of Psychology, Prof. Akmal M. Nazarov
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Nargiza G. Dilova
PhD in Political Sciences, Doc. Rustam G.Jumaev
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Mekhriddin J. Abdullaev
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Nigora B. Adizova
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Nodira B. Adizova
PhD in Pedagogical Sciences, Prof. Anvar E. Sattorov
PhD in Pedagogical Sciences, Prof. Firuz N. Nurulloev
PhD in Economics Sciences, Doc. Layli B. Navruz-zade
Doctor of Philology (DSc), Doc. Umidakhon Sh. Akhmadova
PhD in Pedagogical Sciences, Doc. Zilola D. Rasulova
PhD in Pedagogical Sciences, Doc. Umida A. Fayzieva
PhD in Pedagogical Sciences, Doc.Umida M. Khalikova

MUNDARIJA

	Familiya I.Sh.	Mavzu	Bet
JISMONIY MADANIYAT VA SPORT			
	ABDULLAYEV Zokir Nurmatovich, NURMETOV Adhambek Zokir o‘g‘li	Yengil atletikada ko‘pkurash mashg‘ulotlarini rejalashtirishning ilmiy-metodik asoslari	8
	ATAJONOVA Gulyor Komiljon qizi,	Yosh dzyudochilarda koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish uslubiyati	15
	KARIMOVA Sadoqat Mamaraimovna	Boshlang'ich sinf jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yinlarni qo'llash samaradorligi	19
	MASHARIPOVA Miyassar Ischanovna	Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish metodikasi	23
	RO‘ZIQULOV Mels	Qisqa masofaga yuguruvchilarda tezlik sifatini rivojlantirish usullarini takomillashtirish metodikasi	27
	SAIDOVA Mahbuba Ayubovna	Gimnastika vositalari asosida kasbiy kompetentlikni shakllantirishning metodologik asoslari	32
	SAIDOVA Sarvinoz Iskandar qizi	Bosqon uloqtirish texnikasini o‘rgatish metodikasini takomillashtirish (oliy o‘quv yurti talabalari misolida)	37
	XO‘JANIYOZOV Boboxon Ixtiyorovich	Yosh voleybolchilarni texnik-taktik harakatlarini shakllantirishda sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish samaradorligi	41
	SIROJEV Shoxrux Fayzullo o’g’li	Yengil atletika mashqlari orqali oliy o‘quv yurti talabalari jismoniy tayyorgarligini baholash	44
	JAKBAROVA Durdona Abdusamad qizi	Boccia sporti bilan shug‘ullanadigan imkoniyati cheklangan sportchilarning jismoniy, texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish usullari	50
	MAMATQULOV Xusanboy Baxtiyor o`g`li	Boksda hujum va qarshi hujum usullarini amalga oshirish taktikasida takomillashish	53
	BOYMUROTOV Samandar Ubaydulloyevich	11-12 yoshli voleybolchilarda maxsus tayyorgarligini harakatli o‘yinlar orqali rivojlantirish yo’llari	58
	ЯКИБЖОНОВ Бобур Бахтиёржон угли	Эффективность развития скоростно-силовой подготовленности юных борцов по поясная борьба на начальном этапе спортивной подготовки	63
	ABDUYEVA Sitorabonu Savriddin qizi	Talaba gandbolchi qizlarda psixologik tayyorgarlik va aqliy tayyorgarligini rivojlantirish	66
	NARZULLAYEV Sayfullo Sadullayevich	Qizlar o'rtasida yengil atletika to'garaklarini tashkil etish metodikasi	70
	Xaydarov Ulug’bek Rustamovich	Yengil atletika darslarida maxsus yugurish mashqlaridan oqilona foydalanish	75
SAN’AT			
	MIRSHAYEV Ulug‘bek Muzafarovich	San’at pedagogikasi orqali o‘quvchilar kreativligini rivojlantirishning pedagogik asoslari	81
	SAYFULLAYEVA Dilafro‘z Axmadovna, RIZOQULOVA Maftuna Mansur qizi	Talabalarga steam yondashuv asosida “xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash” fanini o‘qitish metodikasi	87
	SARIYEV Rabbim Shuhratovich	Umumiy o‘rta ta’lim maktablari chizmachilik darslarida o‘quvchilarga ijodiy loyihalashni o‘rgatish metodikasi	97
	SULAYMANOVA Sevaraxon	Maktabda tasviriy san’at darslarida ijodiy tafakkur va	103

	Bahodirjon qizi	tasavvurni rivojlantirish metodikasi	
	САБРИЕВ Алишер Аслиддинович	Дарснинг маъруза турида «лайли ва мажнун» достонини аудиовизуал воситалар ёрдамида ўқитиш	107
	DJALILOV Ergash Kenjaevich	Bolalarning yoshga oid musiqiy rivojlanish xususiyatlari	112
	SOBIROV Tolib Ro‘ziyevich, RAYIMBERDIYEVA E’zozaxon Mehriddin qizi	“Ilmi handasa”(chizmachilik) fanining xalq amaliy bezak sanatidagi o‘rni	117
IQTISODIY TA’LIM VA TARBIYA			
	BOYMURADOV Normurod Abdusadikovich	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qo‘shimcha ta’lim xizmatlarini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy va moliyaviy-boshqaruv asoslari	121
	BOLTAYEV Ahmad Rustamjonovich	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida budjet mablag‘laridan samarali foydalanish va budjetdan tashqari mablag‘larni shakllantirishda homiylik mexanizmlari	126
INKLYUZIV TA’LIM			
	АДИЗОВ Б.Р., САМИЕВА Ш.Х.	Инновационные подходы к развитию инклюзивного образования в высших учебных заведениях	131
	FAXRIDDINOVA Dilso‘z Ravshanovna	Inklyuziv ta’lim sharoitida autizm sindromli bolalarga korreksion yondashuvni takomillashtirish texnologiyalari	136
	JALG’ASOV Nurjan Maratovich, AZATBAYEVA Miyasar Satbayevna	Methods of teaching vocabulary to a2 level students in inclusive education	140
	BAKAYEVA Nilufar Baxriddinovna	Inklyuziv ta’limni joriy etishda kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari	145
	RAXIMOV Zokir Toshtemirovich	Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining metodik tayyorgarligini inklyuziv ta’lim sharoitida takomillashtirish	150
TA’LIM MENEJMENTI			
	AVEZOVA Rohila Ruzimboyevna	Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida o‘z-o‘zini boshqarish – samarali rahbarlik omili sifatida	154
	DONIYOROVA Shoxista Shodiyarovna	Oliy ta’lim muassasalari xalqarolashuvi jarayonining mohiyatini pedagogik kategoriya sifatida asoslash va ta’sir omillarini tahlil qilish	159
	MUXTAROV Shavkat Kadirovich	Oliy ta’lim tizimida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning strategik boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish	164
	XAKIMOVA Gulchehra Sayrixonovna	Nodavlat oliy ta’lim muassasalarida boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim sifatini takomillashtirishning ilmiy asoslari	169
	RO‘ZIYEVA To‘xtagul Jumaboy qizi	Ta’lim sifatini oshirishda pedagogik mahoratning o‘rni	173
	SULTANOV Anvarjon Shaymanovich	Hududiy oliy ta’lim tashkilotlarining raqobatbardoshligini ta’minlashda pedagogik shart-sharoitlarning nazariy asoslari	178
	ULUGOV Zafar Ataqulovich	Oliy ta’lim muassasalarida korporativ boshqaruv madaniyatini shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari	182
ILG’OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR			
	ABDULLAYEVA Gavhar	Talabalarni adekvat modellardan science fanlarni	

	Ro‘zimurod qizi	o’qitishda foydalanishga tayyorlashning ahamiyati va afzalliklari	186
	NE’MATOVA Ra’no Hazratovna, ULUG’BERDIYEVA Gulchexra Aliqulovna	Matematik modellashtirish asosida real jarayonlarni o‘rganishning didaktik imkoniyatlari	191
	NEKBOYEV Muhiddin Erkin o’g’li	Robototexnikani gibrid o‘qitish modeli va uning strukturasi	196
	MO’MINOV Dilshod Yaxshiboy o’g’li	Biologiyada o‘qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish	202
	MO’MINOV Dilshod Yaxshiboy o’g’li	Biologiya fanini o‘qitish jarayonida ilg‘or va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish	206
	RAHMONOVA Hojibuvi Rizojon qizi	Maktab repertuarini innovatsion texnologiyalar yordamida o‘rgatish	210
RAQAMLASHTIRILGAN TA’LIM			
	AZIMOVA Dilnoza Axmedjonovna	Raqamli ta’lim muhitida flipped classroom texnologiyasidan foydalanish	215
	JAMOLOVA Gulbanbegim Muzaffar qizi	Oliy ta’lim tizimida sun’iy intellekt: bibliometrik va kontent tahlil asosida istiqbolli tadqiqot yo‘nalishlarini aniqlash	219
	MELIYEV Ma’ruf Qiyomjonovich	Sun’iy intellekt vositalari yordamida talabalar mustaqil ta’lim jarayonini monitoring qilish va boshqarish metodikasi	227
	MUHAMMADJONOVA Durdonaxon Bahromjon qizi	Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining raqamli ta’lim sharoitida kasbiy kompetentligini rivojlantirishda pedagogik dasturiy vositalarning o‘rni	234
	RUSMATOV Hakim Sharipovich, MUXTOROV Javohirbek Zafar o‘g‘li, HAQQULOVA Nazokat Sherali qizi	Axborot texnologiyalari olimpiadalarini raqamlashtirishda mikroservisli veb-platforma arxitekturasi	238
	ERGASHOV Mansur Yarashovich, SOYIBOVA Maftuna Iskandar qizi	Kimyo darslarida sun’iy intellekt yordamida avtomatlashtirilgan topshiriqlar yaratish metodikasini takomillashtirish	246
	RUSTAMOV Hakim Sharipovich, HAQQULOVA Nazokat Sherali qizi, MUXTOROV Javohirbek Zafar o‘g‘li	Google classroom platformasida matematika fanidan tayyorlov kursini yaratish	250
	SUYAROVA Nigora Norbekovna	Milliy qadriyatlar asosida innovatsion texnologiyalardan foydalanish	255
	NURULLAYEV Nazarbek Alijonovich, ARABOV Jasur Olimboyevich	Raqamli texnologiyalar yordamida mehnat xavfsizligini nazorat qilish (sensorlar, kameralar, sun’iy intellekt orqali xavfli holatlarni aniqlash)	261
	KOMILOVA Shahrizoda Raxmatullo qizi	Oliy ta’limda o‘quv jarayonini tashkil etishda onlayn kollaborativ platformalardan foydalanishning zamonaviy yondashuvlari	266
	MAQSUDOV Odiljon Xusanovich, SALIYEVA Sevara Ma’mirbek qizi, BOTIROVA Mavluda To‘xtasin qizi	Sun’iy intellektning aksiologik neytralligi sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarda qadriyatlarni dekodlash kompetentligini rivojlantirish	270
	NORBOYEVA Shahnoza	The impact of digital reading on reading comprehension	276

	Jo‘rabekovna	and critical thinking skills	
	HOJIYEV Mirshod Jalilovich	Raqamli ta’lim muhitida musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashning zamonaviy yondashuvlari	280
	KARSHIBOYEV Shavkat Esirgapovich, NORQULOVA Matluba Mamatmurod qizi, NORBUTAYEVA Iqboloy Qobil qizi	Raqamli texnologiyalar asosida molekulyar fizika bo‘limini o‘qitishni takomillashtirish	285
	AXMEDOV Hasan Uzairovich	Bo‘lajak o‘qituvchilarning og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishda raqamli pedagogik texnologiyalarning didaktik imkoniyatlari	292
	АКРАМОВА Нозима Акрамовна	Цифровая зрелость медицинских университетов как фактор устойчивой трансформации системы высшего образования	298
MA‘NAVIYAT VA TARBIYA			
	OMONOVA Madina Obidovna	Talabalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda madaniy-ma’rifiy tadbirlar samaradorligini oshirish mexanizimlari	303
	RAXMONOVA Gullola Shavkatovna	Talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda ma’naviy-axloqiy fazilatlarning ahamiyati	308
	TEMIROV Nodirbek Ashur o‘g‘li	Alisher Navoiyning tarbiya haqidagi qarashlari va ularning bugungi ta’lim tizimidagi ahamiyati	313
	TURDIYEVA Nigora Saidovna	Jadidlar: millat tafakkurini uyg’otgan avlod	320
	BABOYEV A’lomirza To‘lamirzayevich	Oliy ta’lim muassasalari talabalarida vatanga sadoqat tuyg‘usini rivojlantirish mazmuni	325
	BAYRAMOVA Muattar Naimzoda	Ta’lim va ziyorat turizmi: ma’naviy hamda ilmiy taraqqiyot omili	330
	NE’MATOV Oybek Erkin o‘g‘li	Zamonaviy pedagogik paradigmada ma'naviy-axloqiy tarbiyaning mazmuniy-mohiyatli transformatsiyasi	334
	BANNAQULOV Mexroj Furqat o‘g‘li	Raqamli davr talabasi axloqiy-estetik madaniyatini aksiologik yondashuv asosida takomillashtirish muammolari	342
PEDAGOGIK TA’LIMOTLAR TARIXI			
	ABDUVOSITOV Husniddin Faxriddin o‘g‘li	Jadid ma’rifatchiligi tizimida vatanparvarlik tarbiyasi	348
	NAZAROV O’ktam Jo’rayevich	XIV-XVIII asrlarda markziy osiyodagi olima- ayollarning maktabdorlik faoliyati	352
	SOXIBOV Akram Rustamovich, NORBOYEVA Nadiya Allanazarovna	XIX asr oxiri xx asr boshida qoraqalpog‘istondagi tarixiy-madaniy sharoit va jadidchilik harakati	357
	SAIDOVA Yulduz Zamon qizi	Oliy ta’limda talabalarni ma’naviy tarbiyalashning innovatsion usullari	362
	QAXXAROVA Nazira Nuridillo qizi	Burhoniddin Zarnujiyning ilm, ustoz, sherik tanlash haqidagi g’oyalari va zamonaviy didaktik jarayonga mutanosibligi	368

JISMONIY MADANIYAT VA SPORT

YENGIL ATLETIKADA KO‘PKURASH MASHG‘ULOTLARINI REJALASHTIRISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI

Abdullayev Zokir Nurmatovich,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti,
Sport faoliyati, pedagogika va psixologiya fakulteti,
“Sporto‘yinlari” kafedrasi dotsenti
Nurmetov Adhambek Zokir o‘g‘li,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti,
Sport faoliyati, pedagogika va psixologiya fakulteti 23/01- Kurash guruhi talabasi

Mazkur maqolada yengil atletikaning murakkab yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan ko‘pkurash turlarida mashg‘ulot jarayonini rejalashtirishning ilmiy-metodik asoslari yoritilgan. Tadqiqotda ko‘pkurashchilarning jismoniy, texnik, taktik va psixologik tayyorgarligini kompleks rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Mashg‘ulotlarni yillik, oylik va haftalik rejalashtirish tamoyillari, yuklamalarni individuallashtirish, musobaqa faoliyatiga moslashtirish hamda tiklanish jarayonlarini boshqarish usullari ilmiy tahlil etilgan. Maqola sport maktablari, oliy ta’lim muassasalari va professional murabbiylar uchun metodik qo‘llanma sifatida xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *ko‘pkurash, yengil atletika, mashg‘ulotni rejalashtirish, sport tayyorgarligi, yuklama, periodizatsiya.*

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПЛАНИРОВАНИЯ ТРЕНИРОВОК В ЛЕГКОАТЛЕТИЧЕСКОМ МНОГОБОРЬЕ

В данной статье освещаются научно-методические основы планирования тренировочного процесса в многоборье — одном из наиболее сложных направлений лёгкой атлетики. В исследовании рассмотрены вопросы комплексного развития физической, технической, тактической и психологической подготовки многоборцев. Научно проанализированы принципы годового, месячного и недельного планирования тренировок, методы индивидуализации нагрузок, адаптации к соревновательной деятельности, а также управления процессами восстановления. Статья может служить методическим пособием для спортивных школ, высших учебных заведений и профессиональных тренеров.

Ключевые слова: *многоборье, лёгкая атлетика, планирование тренировок, спортивная подготовка, нагрузка, периодизация.*

SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF PLANNING TRAINING IN TRACK AND FIELD COMBINED EVENTS

This article highlights the scientific and methodological foundations of planning the training process in combined events, one of the most complex disciplines in track and field athletics. The study examines issues related to the comprehensive development of physical, technical, tactical, and psychological preparedness of combined events athletes. The principles of annual, monthly, and weekly training planning, methods of individualizing training loads, adapting athletes to competitive activity, and managing recovery processes are scientifically analyzed. The article serves as a methodological guide for sports schools, higher educational institutions, and professional coaches.

Keywords: *combined events, track and field athletics, training planning, sports preparation, workload, periodization.*

Kirish. Yengil atletika sport turlari tizimida eng qadimiy, ommaviy va universal yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. U insonning tabiiy harakat faoliyatlariga – yugurish, sakrash va uloqtirishga asoslangan bo‘lib, jismoniy sifatlarning kompleks rivojlanishini ta’minlaydi. Yengil atletika tarkibida ko‘pkurash turlari (erkaklar o‘rtasida o‘nkurash, ayollar o‘rtasida yettikurash va boshqa kombinatsiyalashgan mashqlar) alohida o‘rin egallaydi. Ushbu sport turi sportchidan bir vaqtning o‘zida yuqori darajada tezkorlik, kuch, chidamlilik,

chaqqonlik, muvofiqlashtirish qobiliyati hamda mukammal texnik tayyorgarlikni talab etishi bilan ajralib turadi.

Ko‘pkurashning o‘ziga xos jihati shundaki, sportchi qisqa vaqt oralig‘ida turli xarakterdagi mashqlarni bajarishga majbur bo‘ladi. Bu esa organizmning yurak-qon tomir, nafas olish, asab-mushak tizimlariga yuqori darajadagi funksional talablarni qo‘yadi. Shu sababli ko‘pkurash mashg‘ulotlarini rejalashtirish oddiy sport turlariga nisbatan ancha murakkab, ko‘p omilli va uzoq muddatli tayyorgarlikni talab qiluvchi jarayon hisoblanadi. Mashg‘ulot jarayonida jismoniy sifatlarni rivojlantirish bilan bir qatorda texnik harakatlarni takomillashtirish, psixologik barqarorlikni ta’minlash va tiklanish jarayonlarini boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy sport amaliyotida yuqori sport natijalariga erishish mashg‘ulot jarayonining ilmiy asoslangan holda rejalashtirilishiga bevosita bog‘liqdir. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mashg‘ulot yuklamalarini noto‘g‘ri rejalashtirish sportchining funksional holatining izdan chiqishiga, ortiqcha charchash (peretrenirovka), sport formasi pasayishi hamda jarohatlanish xavfining oshishiga olib keladi. Ayniqsa, ko‘pkurashda turli yo‘nalishdagi mashqlar bir mashg‘ulot sikliga birlashtirilgani sababli yuklamalarni oqilona taqsimlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shu bois, ko‘pkurash mashg‘ulotlarini rejalashtirish masalasi sport nazariyasi va metodikasining muhim ilmiy-amaliy muammolaridan biri hisoblanadi. Mashg‘ulot jarayonini makrotsikl, mezotsikl va mikrotsikllar asosida tashkil etish, yuklamalarning hajmi va intensivligini bosqichma-bosqich oshirish, sportchining individual xususiyatlarini hisobga olish hamda tiklanish vositalaridan samarali foydalanish yuqori sport natijalariga erishishning asosiy shartlaridan biri sanaladi. Mazkur jihatlar ko‘pkurash mashg‘ulotlarini rejalashtirishni ilmiy nuqtai nazardan chuqur o‘rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Ko‘pkurashning sport tizimidagi o‘rni va xususiyatlari. Ko‘pkurash yengil atletikaning sintezlashgan turi bo‘lib, unda sportchi bir necha xil harakat faoliyatini qisqa vaqt oralig‘ida bajaradi. Erkaklar o‘rtasida o‘nkurash, ayollar o‘rtasida yettikurash keng tarqalgan.

Ko‘pkurashning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

jismoniy sifatlarning kompleks rivoji;

yuqori darajadagi funksional tayyorgarlik;

texnik harakatlarning xilma-xilligi;

musobaqa jarayonida tez tiklanish zarurati.

Mazkur xususiyatlar mashg‘ulotlarni rejalashtirishda tizimli va integrativ yondashuvni talab etadi.

Ko‘pkurash mashg‘ulotlarini rejalashtirishning ilmiy tamoyillari. Ko‘pkurash mashg‘ulotlarini rejalashtirish sport tayyorgarligi nazariyasining asosiy qoidalariga tayanadi va sportchining ko‘p yillik rivojlanish dinamikasini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Ko‘pkurashning murakkab tuzilishi, unda bajariladigan mashqlar xilma-xilligi hamda yuqori darajadagi funksional yuklamalar mashg‘ulot jarayonini ilmiy asoslangan tamoyillar asosida tashkil etishni talab etadi. Mazkur tamoyillar mashg‘ulot jarayonining samaradorligini ta’minlash, sport natijalarini barqaror oshirish va sportchilarning sog‘lig‘ini saqlashga xizmat qiladi.

1. Uzluksizlik tamoyili

Uzluksizlik tamoyili sport mashg‘ulotlari jarayonining yil davomida muntazam va izchil olib borilishini nazarda tutadi. Ko‘pkurashda mashg‘ulotlar orasidagi uzoq tanaffuslar sportchining jismoniy tayyorgarligi pasayishiga, texnik ko‘nikmalarning yo‘qolishiga va funksional imkoniyatlarning qisqarishiga olib keladi. Shu sababli mashg‘ulot jarayoni o‘tish davrida ham faol dam olish, yengil mashqlar va tiklovchi vositalar orqali davom ettirilishi lozim.

Uzluksizlik tamoyili ko‘pkurash sportchilarining kuch, tezkorlik va chidamlilik sifatlarini bir maromda rivojlantirish imkonini beradi hamda sport formasi barqarorligini ta’minlaydi.

2. Bosqichlilik va periodizatsiya tamoyili

Bosqichlilik tamoyili mashg‘ulot jarayonini ma’lum davrlarga bo‘lib rejalashtirishni nazarda tutadi. Ko‘pkurashda mashg‘ulotlar odatda tayyorgarlik, musobaqa va o‘tish davrlariga ajratiladi. Har bir davr o‘zining maqsadi, vazifalari, mashg‘ulot vositalari va yuklama hajmi bilan farqlanadi.

Periodizatsiya tamoyili mashg‘ulot yuklamalarini bosqichma-bosqich oshirish va kamaytirish orqali sportchining organizmini optimal moslashuv holatiga olib kelishga xizmat qiladi. Ko‘pkurashda bir vaqtning o‘zida bir nechta jismoniy sifatlar rivojlantirilgani sababli periodizatsiya tamoyili ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Individuallashtirish tamoyili

Individuallashtirish tamoyili sportchining yoshiga, jinsiga, jismoniy tayyorgarlik darajasiga, funksional imkoniyatlariga hamda yetakchi jismoniy sifatlariga mos holda mashg‘ulotlarni rejalashtirishni

ko‘zda tutadi. Ko‘pkurash sportchilarida ayrim mashq turlariga moyillik yuqori, boshqalarida esa nisbatan past bo‘lishi mumkin.

Mazkur tamoyilga amal qilish sportchining zaif tomonlarini rivojlantirish va kuchli jihatlarini yanada mustahkamlash imkonini beradi. Natijada mashg‘ulot jarayoni yanada samarali va xavfsiz tashkil etiladi.

4. Komplekslik tamoyili

Komplekslik tamoyili ko‘pkurash mashg‘ulotlarida jismoniy, texnik, taktik va psixologik tayyorgarlikning o‘zaro uzviy bog‘liqligini ta’minlashni nazarda tutadi. Ko‘pkurashda faqatgina kuch yoki tezkorlikni rivojlantirish bilan cheklanib bo‘lmaydi, balki barcha jismoniy sifatlar birgalikda rivojlantirilishi lozim.

Mashg‘ulot jarayonida texnik mashqlar jismoniy tayyorgarlik mashqlari bilan uyg‘unlashtirilgan holda qo‘llanilganda sport natijalari sezilarli darajada oshadi.

5. Yuklamalarning to‘lqinsimonligi tamoyili

Yuklamalarning to‘lqinsimonligi tamoyili mashg‘ulot yuklamalarini bir tekisda emas, balki ma’lum ko‘tarilish va pasayishlar asosida rejalashtirishni ko‘zda tutadi. Bu tamoyil sportchining ortiqcha charchashini oldini oladi va organizmning moslashuv jarayonlarini faollashtiradi.

Ko‘pkurashda mashg‘ulot yuklamalarining hajmi va intensivligi haftalik va oylik mikrotsikllar doirasida to‘lqinsimon tarzda taqsimlanadi.

6. Tiklanish va nazorat tamoyili

Tiklanish jarayonlari mashg‘ulot rejasining ajralmas qismi hisoblanadi. Ko‘pkurashda tiklanish vositalaridan (faol dam olish, cho‘zilish mashqlari, massaj, suv muolajalari) samarali foydalanish sportchining ish qobiliyatini saqlab qolishga yordam beradi.

Nazorat mashg‘ulotlari va testlar sportchining jismoniy holatini baholash hamda mashg‘ulot jarayoniga zarur tuzatishlar kiritish imkonini beradi.

Yillik mashg‘ulot rejasini tuzish. Yillik reja (makrotsikl) ko‘pkurash mashg‘ulotlarining asosiy hujjati hisoblanadi. U quyidagi bosqichlardan iborat:

Tayyorgarlik davri (umumiy va maxsus bosqich);

Musobaqa davri;

O‘tish davri.

1. Tayyorgarlik davri

Bu bosqichda umumiy jismoniy tayyorgarlikka katta e’tibor qaratiladi. Kuch, chidamlilik va harakat koordinatsiyasi rivojlantiriladi.

2. Musobaqa davri

Texnik-taktik tayyorgarlik yetakchi o‘rin egallaydi. Mashg‘ulot hajmi kamayib, intensivlik oshiriladi.

3. O‘tish davri

Organizmni tiklash, psixologik bo‘shashish va jarohatlarning oldini olishga yo‘naltiriladi.

Oylik va haftalik rejalashtirish (mezotsikl va mikrotsikl). Ko‘pkurash mashg‘ulotlarini samarali tashkil etishda yillik rejalashtirish bilan bir qatorda oylik (mezotsikl) va haftalik (mikrotsikl) rejalashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ushbu rejalashtirish shakllari mashg‘ulot yuklamalarini aniq maqsadga yo‘naltirilgan holda taqsimlash, sportchining funksional holatini optimal darajada saqlash hamda musobaqa faoliyatiga bosqichma-bosqich tayyorlash imkonini beradi.

1. Mezotsikl tushunchasi va uning ahamiyati

Mezotsikl – bu, odatda, 3 – 6 hafta davom etadigan mashg‘ulotlar majmuasi bo‘lib, u ma’lum bir jismoniy sifatni rivojlantirish yoki sport formasini shakllantirishga qaratiladi. Ko‘pkurashda mezotsikllar sportchining umumiy va maxsus tayyorgarlik darajasiga qarab turlicha yo‘naltiriladi.

Ko‘pkurash mashg‘ulotlarida quyidagi mezotsikl turlari ajratiladi:

Rivojlantiruvchi mezotsikl – kuch, tezkorlik va chidamlilik sifatlarini oshirishga yo‘naltiriladi;

Barqarorlashtiruvchi mezotsikl – erishilgan jismoniy va texnik darajani mustahkamlashni ko‘zda tutadi;

Musobaqaga yaqinlashtiruvchi mezotsikl – mashg‘ulot yuklamalarining intensivligini oshirish va hajmini kamaytirish orqali sport formasini cho‘qqiga olib chiqishga xizmat qiladi;

Tiklovchi mezotsikl – organizmning funksional imkoniyatlarini tiklash va ortiqcha charchashni bartaraf etishga qaratiladi.

Mezotsikl doirasida mashg‘ulot yuklamalari hajmi va intensivligi to‘lqinsimon tarzda rejalashtiriladi, bu esa sportchining organizmida moslashuv jarayonlarining samarali kechishini ta’minlaydi.

2. Mezotsikl tarkibida yuklamalarni taqsimlash.

Ko‘pkurashda mezotsikl davomida texnik va jismoniy tayyorgarlik mashqlari uyg‘unlashtirilgan holda qo‘llaniladi. Masalan, mezotsiklning dastlabki bosqichlarida umumiy jismoniy tayyorgarlikka katta e’tibor qaratilib, keyingi haftalarda maxsus mashqlar ulushi oshiriladi.

Yuklamalarni taqsimlashda quyidagi omillar hisobga olinadi:

sportchining individual xususiyatlari;

mashg‘ulotlar chastotasi;

mashq turlarining energetik xarakteri;

tiklanish imkoniyatlari.

Mazkur yondashuv ko‘pkurash mashg‘ulotlarining maqsadga muvofiq va xavfsiz bo‘lishini ta’minlaydi.

3. Mikrotsikl tushunchasi va tuzilishi.

Mikrotsikl – bu odatda 5–7 kun davom etadigan mashg‘ulotlar majmuasi bo‘lib, u mezotsiklning tarkibiy qismi hisoblanadi. Mikrotsikl sportchining haftalik mashg‘ulot rejimini belgilaydi va mashg‘ulot yuklamalarining kundalik taqsimotini aks ettiradi.

Ko‘pkurash mashg‘ulotlarida mikrotsikllar quyidagi turlarga bo‘linadi:

Rivojlantiruvchi mikrotsikl – yuqori hajm va o‘rtacha intensivlikdagi yuklamalar bilan tavsiflanadi;

Intensiv mikrotsikl – mashg‘ulot intensivligi yuqori, hajmi esa nisbatan past bo‘ladi;

Nazorat mikrotsikli – sportchining jismoniy va texnik tayyorgarligi baholanadi;

Tiklovchi mikrotsikl – yuklamalar kamaytiriladi va tiklanish vositalari ustuvor bo‘ladi.

4. Haftalik mashg‘ulotlarni rejalashtirish xususiyatlari.

Ko‘pkurashda haftalik mashg‘ulotlarni rejalashtirishda mashq turlarining almashinuvi muhim ahamiyatga ega. Bir kunda yuqori intensivlikdagi mashqlar rejalashtirilgan bo‘lsa, keyingi mashg‘ulot kunlarida yuklama nisbatan kamaytiriladi yoki boshqa yo‘nalishga yo‘naltiriladi.

Haftalik rejalashtirishda quyidagi tamoyillarga amal qilinadi:

kuch va tezkorlik mashqlarini navbatlashtirish;

yuqori yuklamadan so‘ng tiklovchi mashg‘ulotlarni kiritish;

texnik mashqlarni sportchining optimal holatida bajarish.

Bu yondashuv sportchining mashg‘ulotlarga bo‘lgan moslashuvini oshirib, jarohatlar xavfini kamaytiradi.

5. Mezotsikl va mikrotsiklning o‘zaro bog‘liqligi.

Mezotsikl va mikrotsikl bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, haftalik mashg‘ulotlarning mazmuni oylik rejalashtirish maqsadlariga to‘liq mos kelishi lozim. Agar mikrotsikllar mezotsikl vazifalariga mos kelmasa, mashg‘ulot jarayonining umumiy samaradorligi pasayadi.

Shu bois, ko‘pkurash mashg‘ulotlarini rejalashtirishda mezotsikl va mikrotsikl o‘rtasidagi mantiqiy izchillikni ta’minlash yuqori sport natijalariga erishishning muhim sharti hisoblanadi.

Oylik reja (mezotsikl) yillik rejaning tarkibiy qismi bo‘lib, ma’lum bir jismoniy sifatni rivojlantirishga qaratiladi. Haftalik reja (mikrotsikl) esa mashg‘ulot yuklamalarining kundalik taqsimotini belgilaydi.

Haftalik mikrotsikl tarkibi:

rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar;

nazorat mashg‘ulotlari;

tiklovchi mashg‘ulotlar.

Ko‘pkurashda yuklamalarni boshqarish.

Yuklama quyidagi ko‘rsatkichlar orqali boshqariladi:

hajm (vaqt, masofa, takrorlar soni);

intensivlik (tezlik, og‘irlik);

tiklanish oralig‘i.

Yuklamalarni me’yoridan oshirish sportchining ortiqcha charchashiga olib kelishi mumkin.

Texnik tayyorgarlikni rejalashtirish. Ko‘pkurashda har bir mashq turining texnikasi alohida rejalashtiriladi. Texnik mashg‘ulotlar jismoniy yuklama bilan uyg‘unlashtirilgan holda olib boriladi.

Psixologik va taktik tayyorgarlik. Musobaqa sharoitida bir necha kun davomida yuqori natija ko‘rsatish sportchidan kuchli psixologik barqarorlikni talab qiladi. Shu bois, mashg‘ulot jarayonida diqqatni jamlash, stressga chidamlilik va motivatsiyani rivojlantirishga alohida e’tibor qaratiladi.

Jarohatlarning oldini olish va tiklanish. Qizish mashqlari, cho‘zilish, massaj va tiklovchi mashqlar mashg‘ulot rejasining ajralmas qismi bo‘lishi lozim. Mashg‘ulot yuklamasining me’yoridan oshirilishi sprintchilar faoliyatida jarohatlanishning eng keng tarqalgan va metodik jihatdan muhim sabablaridan biri hisoblanadi. Sprint yugurish yuqori intensivlik, maksimal tezlik va qisqa vaqt ichida katta kuch sarflashni talab qiluvchi sport turi bo‘lgani sababli, mashg‘ulot yuklamalarini noto‘g‘ri rejalashtirish mushak-tendon

apparati va asab tizimi faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, yuklama hajmi va intensivligining keskin oshirilishi sportchi organizmining moslashuv imkoniyatlaridan ortiqcha foydalanishga olib keladi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, musobaqa oldi davrida yoki qisqa muddat ichida sport natijalarini tez oshirishga intilish mashg‘ulot jarayonida intensivlikni sun’iy ravishda oshirish bilan kechadi. Bunday holatda sprint mashqlarining soni, tezlanishlar takroriyligi va maksimal tezlikdagi yugurishlar hajmi me’yoridan oshib ketadi. Natijada mushaklar, paylar va bo‘g‘imlar yetarli darajada tiklanishga ulgurmaydi, bu esa organizmda funksional charchoqning to‘planishiga sabab bo‘ladi.

Fiziologik jihatdan qaralganda, haddan tashqari yuklama mushak tolalarida mikroskopik darajadagi shikastlanishlar — mikrojarohatlarning yuzaga kelishiga olib keladi. Mazkur mikrojarohatlar normal sharoitda tiklanish jarayonida bartaraf etilishi mumkin bo‘lsa-da, tiklanish uchun yetarli vaqt ajratilmaganda ular ketma-ket yig‘ilib boradi. Bu holat mushak va pay to‘qimalarining elastikligi pasayishiga, kuch hosil qilish qobiliyatining susayishiga hamda harakat apparatida og‘riqli holatlarning paydo bo‘lishiga olib keladi.

Mikrojarohatlarning xavfi shundaki, ular dastlab klinik jihatdan yaqqol namoyon bo‘lmaydi. Sportchi mashg‘ulotlarni davom ettirar ekan, yengil noqulaylik yoki qisqa muddatli og‘riqlar e’tiborsiz qoldiriladi. Biroq ushbu holat o‘z vaqtida aniqlanmasa va mashg‘ulot yuklamasi moslashtirilmasa, mikrojarohatlar mushak cho‘zilishi, paylarning yallig‘lanishi (tendinit), bo‘g‘imlarning funksional buzilishlari kabi og‘ir jarohatlarga aylanib ketishi mumkin. Bu esa sportchining uzoq muddat mashg‘ulotlardan chetlanishiga va sport faoliyatining izdan chiqishiga olib keladi.

Pedagogik va metodik nuqtai nazardan, mashg‘ulot yuklamalarini rejalashtirishda bosqichma-bosqichlik tamoyiliga rioya qilmaslik jarohatlanish xavfini keskin oshiradi. Yuklama hajmi va intensivligi sportchining yoshi, tayyorgarlik darajasi, individual morfofunksional xususiyatlari hamda tiklanish imkoniyatlarini hisobga olgan holda oshirib borilishi lozim. Shuningdek, yuklamalar o‘rtasidagi nisbatning (ish va dam olish rejimi) buzilishi markaziy asab tizimining haddan tashqari zo‘riqishiga olib kelib, harakatlarni muvofiqlashtirish sifatini pasaytiradi.

Individuallik tamoyiliga rioya qilmaslik ham ortiqcha yuklama bilan bog‘liq jarohatlarning asosiy sabablaridan biridir. Bir xil mashg‘ulot yuklamasining barcha sportchilarga qo‘llanilishi ularning individual moslashuv darajalarini inobatga olmaslikka olib keladi. Natijada ayrim sportchilar uchun maqbul bo‘lgan yuklama boshqalar uchun ortiqcha zo‘riqish manbaiga aylanadi. Shu sababli mashg‘ulot jarayonida funksional holat monitoringi, charchoq darajasini baholash va tiklanish ko‘rsatkichlarini nazorat qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tiklanish jarayoniga yetarli e’tibor bermaslik. Sprint mashg‘ulotlaridan keyingi tiklanish jarayoni sportchilarning sog‘lig‘ini saqlash, funksional holatini barqarorlashtirish hamda keyingi mashg‘ulotlarga yuqori darajada tayyor holda kirishini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Sprint yugurish mashqlari maksimal tezlik va yuqori intensivlik bilan bajarilgani sababli, mashg‘ulot jarayonida mushak-tendon apparati, markaziy asab tizimi hamda yurak-qon tomir tizimi sezilarli darajada zo‘riqadi. Shu bois tiklanish jarayonining yetarli darajada tashkil etilmasligi sportchi organizmida charchoq holatining to‘planishiga va jarohatlanish xavfining ortishiga olib keladi.

Fiziologik nuqtai nazardan, intensiv sprint mashg‘ulotlaridan so‘ng mushaklarda energiya resurslari (ATP va glikogen) kamayadi, metabolik mahsulotlar (sut kislotasi va boshqa metabolitlar) to‘planadi hamda mushak tolalarida mikrojarohatlar yuzaga keladi. Agar dam olish va tiklanish jarayoni yetarli darajada amalga oshirilmasa, ushbu salbiy holatlar to‘liq bartaraf etilmaydi. Natijada mushaklarning kuch hosil qilish qobiliyati pasayadi, ularning elastikligi susayadi va mushak-tendon tizimida og‘riqli holatlar yuzaga keladi.

Uyqu tiklanish jarayonining eng muhim komponentlaridan biri hisoblanadi. Yetarli va sifatli uyqu vaqtida gormonal muvozanat tiklanadi, o‘sish gormoni sekretsiyasi faollashadi va to‘qimalarning qayta tiklanish jarayonlari jadallashadi. Uyqu yetishmasligi esa markaziy asab tizimining surunkali charchashiga olib kelib, harakat koordinatsiyasining buzilishi, reaksiya tezligining pasayishi va texnik xatolarning ko‘payishi bilan namoyon bo‘ladi. Bu holat sprint mashg‘ulotlarida jarohatlanish ehtimolini sezilarli darajada oshiradi.

Tiklanish mashqlarining yetarli darajada bajarilmasligi ham sportchi organizmida charchoqning to‘planishiga sabab bo‘ladi. Mashg‘ulotlardan keyin bajariladigan cho‘zish mashqlari mushaklarning tonusini pasaytiradi, qon aylanishini yaxshilaydi va mushak tolalarida yuzaga kelgan qisqarish holatlarini bartaraf etadi. Cho‘zish mashqlarisiz yakunlangan mashg‘ulotlar mushaklarning qattiqlashuviga olib kelib, keyingi mashg‘ulotlarda mushak cho‘zilishi va paylarning shikastlanish xavfini oshiradi.

Massaj tiklanish jarayonini tezlashtiruvchi samarali vositalardan biri hisoblanadi. U mushaklarda qon va limfa aylanishini faollashtirib, metabolik mahsulotlarning tezroq chiqarilishiga yordam beradi. Shu bilan birga, massaj mushak spazmlarini kamaytiradi va sportchining umumiy psixofunksional holatini yaxshilaydi.

Sprint mashg‘ulotlaridan so‘ng muntazam qo‘llaniladigan massaj mushak-tendon apparatining tiklanish jarayonlarini optimallashtiradi.

Suv muolajalari, xususan kontrast dush, sovuq vannalar yoki suvda yengil harakatlar bajarish ham tiklanish jarayonida muhim o‘rin tutadi. Suv muolajalari mushaklarda yallig‘lanish jarayonlarini kamaytiradi, shish va og‘riqni pasaytiradi hamda vegetativ asab tizimining muvozanatini tiklashga yordam beradi. Ayniqsa, musobaqa davrida suv muolajalarining qo‘llanilishi sportchining tezroq tiklanishini ta’minlaydi.Faol dam olish usullari ham tiklanish jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Yengil yugurish, velosiped haydash yoki suzish kabi past intensivlikdagi mashqlar qon aylanishini faollashtirib, mushaklarda tiklanish jarayonlarini tezlashtiradi. Faol dam olish passiv dam olishga nisbatan metabolik mahsulotlarning tezroq chiqarilishiga yordam berib, keyingi mashg‘ulotlarga tayyorgarlik darajasini oshiradi.

Sport anjomlari va qoplamaning sifati. Sprintchilarning foydalanadigan sport poyabzali va yugurish yo‘lakchasi sifati ham jarohatlanishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Noto‘g‘ri tanlangan poyabzal oyoq panjasi, to‘piq va tizza bo‘g‘imlariga ortiqcha bosim tushishiga sabab bo‘ladi. Shuningdek, yugurish yo‘lakchasining juda qattiq yoki sirpanchiq bo‘lishi mushak-pay apparatiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, shikastlanish xavfini oshiradi. Shu sababli sprint mashg‘ulotlari va musobaqalarini standart talablariga javob beradigan sport inshootlarida tashkil etish muhimdir.

Qisqa masofaga yugurishda jarohatlanishni oldini olish uchun kompleks va tizimli yondashuv zarur. Bu jarayon mashg‘ulotlarni ilmiy asosda rejalashtirish, texnik tayyorgarlikni takomillashtirish va sportchining jismoniy holatini doimiy nazorat qilishni o‘z ichiga oladi.

1. Qizish mashqlarini to‘liq va maqsadli tashkil etish

Mashg‘ulotdan oldin bajariladigan qizish mashqlari umumiy va maxsus bosqichlardan iborat bo‘lishi lozim. Umumiy qizish mashqlari organizmni faollashtirsa, maxsus qizish mashqlari sprintda faol ishtirok etadigan mushak guruhlarini yuklamaga tayyorlaydi.

2. Yugurish texnikasini muntazam takomillashtirish

Texnik tayyorgarlik jarohatlarning oldini olishda asosiy o‘rin tutadi. Murabbiy nazorati ostida yugurish texnikasini tahlil qilish va tuzatish mushak va bo‘g‘imlarga tushadigan ortiqcha yukni kamaytiradi.

3. Yuklamani individuallashtirish va bosqichma-bosqich oshirish

Har bir sportchining jismoniy imkoniyatlari turlicha bo‘lgani sababli mashg‘ulot yuklamasi individual tarzda belgilanishi kerak. Bu yondashuv jarohatlanish xavfini kamaytirib, sport natijalarining barqaror o‘sishini ta’minlaydi.

4. Kuch, tezlik va egiluvchanlik mashqlarini uyg‘unlashtirish Sprint mashg‘ulotlarida faqat tezlikka emas, balki mushak kuchi va egiluvchanligiga ham e’tibor qaratish zarur. Egiluvchanlik mashqlari mushaklarning cho‘zilish qobiliyatini oshirib, jarohatlarning oldini oladi.

5. Mashg‘ulotdan keyingi tiklanish tadbirlarini qo‘llash

Mashg‘ulotdan so‘ng bajariladigan cho‘zish mashqlari mushaklardagi zo‘riqishni kamaytiradi va tiklanish jarayonini tezlashtiradi. Bundan tashqari, faol dam olish va reabilitatsion mashqlar ham muhim ahamiyatga ega.

6. Tibbiy-pedagogik nazoratni kuchaytirish

Sportchilarning jismoniy holatini muntazam tibbiy-pedagogik nazoratdan o‘tkazish jarohatlanishning oldini olishda muhim hisoblanadi. Bu orqali charchoq va ortiqcha yuklanish belgilari erta aniqlanib, zarur choralar ko‘riladi.

Xulosa. Qisqa masofaga yugurishda jarohatlanish sportchilarning yuqori natijalarga erishishiga jiddiy to‘sqinlik qiluvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Jarohatlar nafaqat sport natijalarining pasayishiga, balki mashg‘ulot jarayonining buzilishiga, sportchining uzoq muddat mashg‘ulotlardan chetda qolishiga va ayrim holatlarda sport faoliyatining to‘liq to‘xtab qolishiga ham olib kelishi mumkin. Ayniqsa, sprint mashg‘ulotlarining yuqori intensivligi mushak-pay apparati va bo‘g‘imlarga katta yuklama tushirishi sababli jarohatlanish xavfi doimiy saqlanib qoladi.

Shu sababli qisqa masofaga yugurishda jarohatlarning oldini olishga qaratilgan kompleks va tizimli yondashuvni qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Bunday yondashuv mashg‘ulot yuklamasini ilmiy asosda rejalashtirish, yugurish texnikasini muntazam takomillashtirish, sportchining jismoniy va funksional tayyorgarligini oshirish hamda tiklanish jarayonlarini to‘g‘ri tashkil etishni o‘z ichiga olishi lozim. Mashg‘ulotdan oldingi qizish mashqlari, mashg‘ulotdan keyingi cho‘zish va tiklanish tadbirlari jarohat xavfini sezilarli darajada kamaytiradi.

Ilmiy asoslangan profilaktik choralarni amaliyotga joriy etish sportchilarning sog‘lig‘ini mustahkamlash, mashg‘ulotlar samaradorligini oshirish va yuqori sport natijalariga erishish imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada sprintchilar sport faoliyatining barqarorligini saqlab qolib, musobaqalarda yuqori natijalarni uzoq muddat davomida namoyon etish imkoniga ega bo‘ladilar.

Adabiyotlar:

1. Yusupov B. *Yengil atletika nazariyasi va metodikasi.* – Toshkent: O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti nashriyoti.
2. Salimov R., Qodirov A. *Yengil atletika sport turlari va ularni o‘qitish metodikasi.* – Toshkent: O‘quv qo‘llanma.
3. Toshpulatov A. *Yengil atletika mashg‘ulotlarini rejalashtirish asoslari.* – Toshkent: Fan va texnologiya.
4. Abdullayev F., Karimov M. *Yugurish turlarining texnikasi va o‘qitish metodikasi.* – Toshkent: O‘quv-uslubiy qo‘llanma.
5. Ismoilov J. *Yengil atletikada sportchilarni tayyorlash tizimi.* – Toshkent: Ilmiy-metodik qo‘llanma.
6. Rasulov B., Norboyev U. *Yengil atletikada tezkorlik va kuch sifatlarini rivojlantirish.* – Toshkent: Metodik tavsiyalar.
7. Rahmonov S. *Sport fiziologiyasi.* – Toshkent: Abu Ali ibn Sino nomidagi nashriyot.
8. Xolmatov D., Eshqulov O. *Sportchilarda jarohatlarning oldini olish asoslari.* – Toshkent: O‘quv qo‘llanma.
9. Nazarov K. *Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi.* – Toshkent: O‘zbekiston.
10. Olimov T., Sobirov A. *Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarida xavfsizlik qoidalari.* – Toshkent:

YOSH DZYUDOCHILARDA KOORDINATSION QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISH USLUBIYATI

Atajonova Gulyor Komiljon qizi,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti, Sport
faoliyati, pedagogika va psixologiya fakulteti dotsenti

Yosh dzyudochilarning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish uchun o‘quv dasturi ishlab chiqilgan bo‘lib, olingan natijalar va amaliy tavsiyalardan bolalar va o‘smirlar sport maktablarining dzyudo bo‘yicha o‘tkaziladigan o‘quv mashg‘ulotlari jarayonida, oliy ta’lim tizimidagi jismoniy madaniyat fakultetlarida ma’ruza mashg‘ulotlari jarayonida, xalq ta’limi tizimida faoliyat olib borayotgan jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining malaka oshirish kurslarida foydalanish mumkin. Bu dastur ilmiy tamonlama asoslanib borilmoqda.

Kalit so’zlar. *dzyudo, koordinatsiya , jismoniy qobilyat, jismoniy rivojlanish, sifatlar, mashg’ulot, dars, metodika.*

METHODOLOGY FOR DEVELOPING COORDINATION ABILITIES IN YOUNG JUDOKAS

A training program has been developed to develop the coordination abilities of young judoists, and the results and practical recommendations obtained can be used in the process of judo training sessions held in children's and youth sports schools, in the process of lecture sessions at physical culture faculties in the higher education system, and in advanced training courses for physical education teachers working in the public education system. This program is based on scientific research.

Keywords. *Judo, coordination, physical abilities, physical development, qualities, training, lesson, methodology.*

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ КООРДИНАЦИОННЫХ СПОСОБНОСТЕЙ У ЮНЫХ ДЗЮДОИСТОВ

Разработана программа тренировок для развития координационных способностей юных дзюдоистов, результаты и практические рекомендации которой могут быть использованы в процессе проведения тренировок по дзюдо в детских и юношеских спортивных школах, в процессе лекционных занятий на факультетах физической культуры в системе высшего образования, а также на курсах повышения квалификации для учителей физической культуры, работающих в системе государственного образования. Данная программа основана на научных исследованиях.

Ключевые слова: *дзюдо, координация, физические способности, физическое развитие, качества, тренировка, урок, методика.*

Kirish. Dzyudo - bu harakatlarning katta o‘zgaruvchanligi bilan ajralib turadigan murakkab koordinatsion, asiklik, tezlik-kuchli jang san’ati turlariga kiradi. Shu munosabat bilan, mashg‘ulot jarayonining dastlabki bosqichlarida, ishtirokchilarning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e’tibor berish kerak, buning natijasida sportchi keyinchalik turli harakatlarni muvofiqlashtirish va tartibga solish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu unga musobaqa faoliyatida qo‘yilgan vosita vazifasiga muvofiq yuqori ko‘rsatkichlarni egallashni ta’minlaydi. Shu sababli kichik maktab yoshidagi bolalarning dzyudo mashg‘ulotlarida koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish asosida o‘quv jarayonini takomillashtirish muammosining hal etilishi bugungi kunda dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi (tahlili). Sport sohasidagi ko‘plab mashhur olimlar (L.S. Dvorkina, L.P. Matveeva, A.A. Gujalovskiy, L.D. Nazarenko, V.N.Platonova va boshqalar) mashg‘ulotlar jarayonida jismoniy tayyorgarlikning turli jismoniy sifatlarni, jumladan, koordinatsiya qobiliyatlarini rivojlantirishning asosiy tamoyillari, usullari va vositalari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Shu bilan birga, S. D. Boychenko, R. M. Gorodnichev, A. V. Yeganov, V. M. Igumenov, I. D.Svishchev, J. Raczek va boshqalar tomonidan jang san’atlari nazariyasi va amaliyotida yuqori malakali sportchilar va o‘smirlar uchun jismoniy sifatlar va koordinatsion qobiliyatlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy ishlar olib borilganligi aniqlandi, biroq bu tadqiqotlarda dzyudo sportida koordinatsion tayyorgarlik

muammosi qisman taqdim etilgan hamda musobaqa faoliyatning hozirgi tendentsiyalari to‘liq hisobga olinmagan. Bu muammo yosh dzyudochilarni tayyorlash jarayonini tashkil etishda alohida ahamiyat kasb etadi, chunki aynan ushbu davrda insonning jismoniy faoliyatida amalga oshiriladigan koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish uchun eng sezgir hisoblanadi.

Shunday qilib, hozirgi vaqtda batafsilroq o‘rganish va ilmiy asoslashni talab qiladigan eng muhim masalalardan biri dzyudo bilan shug‘ullanadigan bolalarning sport-sog‘lomlashtirish bosqichida koordinatsiya qobiliyatlarini rivojlantirish uchun o‘quv jarayonida qo‘llaniladigan texnologiyalar bo‘lib, u yosh sportchilarning psixologik xususiyatlari, shuningdek, jismoniy sifatlari rivojlanishining sensitiv davrlari va yoshini hisobga olishi kerak.

Natija. Koordinatsion qobiliyatlar – bu sportchining harakatlarni aniq, tez, muvofiqlashtirilgan va samarali bajarish qobiliyatidir. Bu tushuncha Sport pedagogikasi va Biomekanika bilan chambarchas bog‘liq.

Koordinatsion qobiliyatlar quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi:

Harakatlarni muvofiqlashtirish

Muvozanatni saqlash

Fazoviy yo‘nalishni his qilish

Reaksiya tezligi

Ritmni his qilish

Harakatlarni qayta moslashtirish (adaptatsiya)

Dzyudo sportida koordinatsiya quyidagilar uchun asosiy rol o‘ynaydi:

Murakkab texnik usullarni (otishlar, yiqitishlar) bajarish

Qarshi harakatlarga tez moslashish

Raqibning harakatini oldindan sezish

Muvozanatni yo‘qotmaslik

Yosh sportchilarda koordinatsiya yaxshi rivojlangan bo‘lsa:

Texnikani tezroq o‘zlashtiradi, Jarohatlar kamayadi,

sport natijalari oshadi shu kabi faoliyatlar orqali biz tadqiqotimizni boshladik.

Nazorat guruhi Urganch tuman Bolalar o‘smirlar sport maktabi dasturi asosida mashg‘ulotlarga qatnashgan bo‘lsa, tadqiqot guruhi 4 oy davomida (2022- yilning noyabr oyidan 2023- yining fevral oyigacha) koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan uslublar qo‘llanildi. Mazkur usullar va vositalar dasturi II-bobda ko‘rsatilgan, mashg‘ulotning tayyorgarlik va asosiy qismlarida belgilangan reja asosida amalga oshirildi.

Dzyudochilarning koordinatsion qobiliyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan usullar va vositalarning samarasini oshirish uchun qo‘yidagi uslublar qo‘llanildi: takroriy kuchlanishlar; qisqa muddatli maksimal kuchlanishlar; tobora o‘sib boradigan og‘irliklar; zarbaviy; intervalli uslublari.

Sport va harakatli o‘yinlardan: joyidan turib uzunlikka sakrash, yugurib kelib uzunlikka sakrash, balandga sakrash, chuqurga sakrash va yuqoriga sapchish, maxsus koptokni uloqtirish, yadro uloqtirish, gir uloqtirish, ikki qo‘llab o‘zidan oldinga va orqaga uloqtirish, harakatli o‘yinlar tezkorlik bilan uzviy bor liq bo‘lgan, yugurish bilan bog‘liq bo‘lgan estafetalar, sakrash bilan bog‘liq bo‘lgan, to‘siqlardan o‘tish estafetalar, sport o‘yinlari (tennis, futbol, basketbol), bir oyoqda sakrash, ikki oyoqda sakrash, oldinga sakrash, ikki oyoqda sakrash, oldinga harakatlanish, orqaga, yonga sakrash (koptok bilan).

Kombinatsion harakatlarni amalga oshirishdagi koordinatsion qobiliyatni rivojlantirishning o‘ziga xos tomoni, asosiy metodik trenirovkalar davomiyligi maxsus jismoniy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgandir.

Trenirovka jarayonida quyidagilar koordinatsion qobiliyatning rivojlanishiga yordam berdi; 1).nagruzka hajmi 2). harakat tempi 3). ish davomiyligi va xarakteri 4). trenirovka darslar oralig‘i 5). trenirovkalar davrlarining teng bo‘linishi 6). boshlang‘ich daraja.

Koordinatsion qobiliyatni rivojlantirining asosiy yo‘llari, o`z vaznidan kichik bo‘lgan raqib bilan usullarni bajarish hamda ishni 25-50% og‘irlikda maksimal kuchda o‘rtacha temp bilan bajarildi. Bu ishda bir xil og‘irlikda, bir xil tempda kuch chidamliligini rivojlantirish uchun samara bo‘ladi, agar ish og‘ir toliqqanda bajarilsa (oxirgi kuchgacha) natija yaxshilanadi.

Nazorat va tadqiqot guruhlarida tadqiqot boshidagi va ohiridagi qayd etilgan ko‘rsatkichlar №3.1-3.2 jadvalda ko‘rsatilgan. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, nazorat va tadqiqot guruhlarida kuzatilgan natijalar dinamikasi tanlangan mavzuning asosiy va uning oldiga qo‘yilgan ilmiy faraz ijobiy hal etilganini isbot qildi.

Yuqorida qayd etilgan tadqiqot natijalari tadqiqot guruhida ishlab chiqilgan koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan dasturning afzalligidan dalolat beradi.

Tadqiqot guruhida qayd etilgan koordinatsion qobiliyat Dzyudo dzyudochilarida kuzatilgan natija darajasida rivojlanganligi tasdiqlandi.

Nazorat va tadqiqot guruhlari tarkibidagi dzyudochilar vestibulyar analizatorining aylanma tezlanish ta’siriga qarshi turg‘unligi yo‘naltirilgan jismoniy mashqlarni aylanma tezlanishlar ta’sirida qo‘llash natijasida shakllangan vestibulyar turg‘unlik (tadqiqot guruhida) muvozanat saqlash funksiyasini anchagina mukammalaganini tasdiqlaydi.

Bunday uslubiyat asosida muvozanat saqlash va gilamdagi turg‘unligini mashg‘ulotlar davomida orttira borish sport mahoratini shakllantirish, qolaversa musobaqa taqdirini ijobiy xal etish imkonini beradi.

Tadqiqotlar natijasida tadqiqot guruhi barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha nazorat guruhiga nisbatan yuqori natijalarga erishdi.

1. O‘z vazniga teng sherikni 60 sekund davomida “qo‘lidan tortib parterga o‘tkazish” ni bajarishda nazorat guruhidagi ko‘rsatkich 3,12% o‘sish bo‘lsa, tadqiqot guruhida esa bu ko‘rsatkich 9,29% ni tashkil etdi.

2. O‘z vazniga teng sherikni 60 sekund davomida “qo‘li ostidan sho‘ng‘ib parterga o‘tkazish”ni bajarish nazorat guruhida 2,28% o‘sish bo‘lsa, tadqiqot guruhida esa bu ko‘rsatkich 11,98% ni tashkil etdi..

3. O‘z vazniga teng sherikni 60 sekund davomida “qo‘l va bo‘yinni old-tepadan ushlab qayirib yiqitish”ni bajarish nazorat guruhida 2,02% o‘sish bo‘lsa, tadqiqot guruhida esa bu ko‘rsatkich 10,16% ni tashkil etdi.

4. O‘z vazniga teng sherikni 60 sekund davomida “qo‘l va belini ushlab beldan oshirib tashlash”ni bajarish nazorat guruhida 2,24% o‘sish bo‘lsa, tadqiqot guruhida esa bu ko‘rsatkich 9,21% ni tashkil etdi.

5. O‘z vazniga teng sherikni 60 sekund davomida “qo‘l va belini ushlab ko‘krakdan oshirib tashlash”ni bajarish nazorat guruhida 3,97% o‘sish bo‘lsa, tadqiqot guruhida esa bu ko‘rsatkich 14,75% ni tashkil etdi.

6. O‘z vazniga teng sherikni 60 sekund davomida “qo‘l va belini ushlab yelkalardan oshirib tashlash”ni bajarish nazorat guruhida 3,05% o‘sish bo‘lsa, tadqiqot guruhida esa bu ko‘rsatkich 9,09% ni tashkil etdi.

1-jadval.

Nazorat guruhidagi nazorat sinovlar ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi (n-10).

№	Nazorat sinovlari	Tadqiqot-dan oldin	Tadqiqot-dan keyin	O‘zgarish %
1	O‘z vazniga teng sherikni 60 sekund davomida “qo‘lidan tortib parterga o‘tkazish” (soni).	22,4	23,1	3.12
2	O‘z vazniga teng sherikni 60 sekund davomida “qo‘li ostidan sho‘ng‘ib parterga o‘tkazish” (soni).	21,9	22,4	2.28
3	O‘z vazniga teng sherikni 60 sekund davomida “qo‘l va bo‘yinni old-tepadan ushlab qayirib yiqitish” (soni).	24,7	25,2	2.02
4	O‘z vazniga teng sherikni 60 sekund davomida “qo‘l va belini ushlab beldan oshirib tashlash” (soni).	31,3	32,0	2.24
5	O‘z vazniga teng sherikni 60 sekund davomida “qo‘l va belini ushlab ko‘krakdan oshirib tashlash” (soni).	20,1	21,3	3.97
6	O‘z vazniga teng sherikni 60 sekund davomida “qo‘l va belini ushlab elkalardan oshirib tashlash” (soni).	28,6	28,9	3.05
	O‘rtacha foiz hisobidagi o‘zgarish			2.78**%**

Tadqiqot guruhidagi nazorat sinovlar ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi (n-10)

2-jadval.

№	Nazorat sinovlari	Tadqiqot-dan oldin	Tadqiqot-dan keyin	O‘zgarish %
1	O‘z vazniga teng sherikni 60 sekund davomida “qo‘lidan tortib parterga o‘tkazish” (soni).	22,6	24,7	9.29
2	O‘z vazniga teng sherikni 60 sekund davomida “qo‘li ostidan sho‘ng‘ib parterga o‘tkazish” (soni).	21,7	24,3	11.98
3	O‘z vazniga teng sherikni 60 sekund davomida “qo‘l va bo‘yinni old-tepadan ushlab qayirib yiqitish” (soni).	24,6	27,1	10.16
4	O‘z vazniga teng sherikni 60 sekund davomida “qo‘l va belini ushlab beldan oshirib tashlash” (soni).	31,5	34,4	9.21
5	O‘z vazniga teng sherikni 60 sekund davomida “qo‘l va belini ushlab ko‘krakdan oshirib tashlash” (soni).	20,3	23,7	14.75

6	O‘z vazniga teng sherikni 60 sekund davomida “qo‘l va belini ushlab elkalardan oshirib tashlash” (soni).	28,2	30,2	9.09
	O‘rtacha foiz hisobidagi o‘zgarish			10.75**%**

3 - jadval.

Tadqiqotda ko‘rsatilgan nazorat sinov natijalarining ahamiyatlilik darajasi

Guruhlar	**Tadqiqotning boshida ohirida**	**Nazorat sinovlari**					
		1 mashq	**2 mashq**	**3 mashq**	**4 mashq**	**5 mashq**	**6 mashq**
Nazorat	boshida	22,4	21,9	24,7	31,3	20,1	28,6
	ohirida	23,1	22,4	25,2	32,0	21,3	28,9
Tadqiqot	boshida	22,6	21,7	24,6	31,5	20,3	28,2
	ohirida	24,7	24,3	27,1	34,4	23,7	30,2

Xulosa.

1. O‘zgartirilgan shaklda umumtayyorlovchi va maxsus-tayyorlovchi koordinatsion mashqlarni o‘yin va musobaqa mashqlari (ayniqsa, yakkakurashlar, harakatli va sport o‘yinlari) shaklida o‘tkazish mumkin, ular muayyan koordinatsion qobiliyatlarni tarbiyalashni tasirchan vositalari sanaladi, chunki bu holatda ularni maksimal darajada va ba’zan kutilmagan tarzda namoyon bo‘lishi uchun sharoitlar yuzaga keladi.

2. Katta sportdagi tadqiqot natijalarininh dalolat berishicha, koordinatsion qobiliyatlar va jismoniy qobiliyatlarni, koordinatsion qobiliyatlar va texnik hamda texnik-taktik harakatlarning bosqichlarini, texnik va jismoniy tayyorgarlikni birgalikda yo‘naltirib takomillashtirish ancha istiqbolli hisoblanadi. Ammo bu usul maktab o‘quvchilari va yosh sportchilar jismoniy tarbiyasi amaliyotida yetarlicha maqsadga muvofiq tarzda qo‘llanilayapdi.

3. Pedagogik tajribadan oldin o‘tkazilgan testlash natijalari yosh dzyudochilarning jismoniy tayyorgarlik holatini aniqlashga imkon berdi. Jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarining qiyosiy tahlili pedagogik tajribadan oldin tajriba va nazorat guruhi sportchilarida ham shunday ishonchli stasistik farqlar aniqlanmadi (p>0,05). Bu bir xil jismoniy tayyorgarlik darajasiga ega bo‘lgan nazorat guruhi va tajriba guruhi o‘quvchilari tanlab olinganidan guvohlik bermoqda.

4. Tadqiqotdan keyingi ikkala guruhning qiyosiy statistik tahlili natijalari, biz tomonimizdan ishlab chiqilgan dasturning muhim ustunligini ko‘rsatdi.

Adabiyotlar:

1. Ашмарин Б.А. Теория и методика педагогичэских исследований в физическом воспитании. М., “ФиС”, 1987 г. 223-стр.

2. Быховская И.М., Скороходов В.В. Восточные единоборства в системе ценностей и досуговой деятелности в современной молодежной субкультуре. В сб. «Юбилейный сборник трудов ученых РГАФК, посвященный 80 летию академии». Том ИИ - М.: ФиС, 1998. -65с.

3. Jammatov J.Sh., Ruzmetov N.K. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi (Jismoniy qobiliyatlar), T., Barkamol fayz media 2020 y. 160 b.

4. Жбанов О.В., Петров Д.С., Головина В.А. Система контроля психофизического состояния процессом адаптации в спорта и учебном процессе Теория и практика физической культуры, М., 2003 год, № 2. стр. 20-23.

BOSHLANG'ICH SINF JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA HARAKATLI O'YINLARNI QO'LLASH SAMARADORLIGI

Karimova Sadoqat Mamaraimovna,
Termiz davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi
karimovasadoqat684@gmail.com

Maqolada boshlang‘ich sinf jismoniy tarbiya darslarida harakatli o‘yinlardan foydalanishning pedagogik samaradorligi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi – harakatli o‘yinlar asosida tashkil etilgan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining o‘quvchilarda asosiy harakat ko‘nikmalari, jismoniy sifatlar, o‘z-o‘zini baholash, hamkorlik va intizomni rivojlantirishga ta’sirini aniqlashdir. Buning uchun tizimli adabiyot sharhi, so‘rovnoma va kvazi-eksperimental yondashuv natijalari umumlashtiriladi. Xususan, o‘yinlarga asoslangan yondashuvlar o‘yin faoliyati samaradorligi, fundamental harakat ko‘nikmalari, jismoniy tayyorgarlik, motivatsiya va ijtimoiy ko‘nikmalarni sezilarli darajada yaxshilashi ko‘rsatiladi. Mahalliy va xorijiy tadqiqotlar harakatli va an’anaviy o‘yinlar bilan boyitilgan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari darsning jozibadorligini oshirishi, o‘quvchilar ishtiroki va o‘qish natijalarini yaxshilashini tasdiqlaydi. Shu bilan birga vaqt va resurslarning cheklanganligi, o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi kabi omillar samarali joriy etishga to‘sqinlik qilishi mumkinligi qayd etiladi. Maqolada boshlang‘ich sinf jismoniy tarbiya darslariga harakatli o‘yinlarni tizimli integratsiya qilish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *harakatli o‘yinlar, boshlang‘ich sinf, jismoniy tarbiya, fundamental harakat ko‘nikmalari, jismoniy sifatlar, o‘yin asosidagi ta’lim, o‘quv motivatsiyasi, hamkorlik va intizom.*

ФАКТОРЫ ДОСТИЖЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ НА УРОКАХ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

В статье рассматривается эффективность использования подвижных игр на уроках физической культуры в начальных классах. Цель исследования – определить воздействие игровой направленности уроков на развитие фундаментальных двигательных навыков, физических качеств, самооценки, кооперации и дисциплины младших школьников. На основе систематического анализа литературы и данных квази-экспериментальных и опросных исследований показано, что игровые подходы повышают результативность игровой деятельности, улучшают основные двигательные умения, мышечную подготовленность, а также способствуют росту внутренней мотивации и социальных навыков учащихся. Использование подвижных и традиционных игр делает уроки более привлекательными, увеличивает двигательную активность и учебные достижения учащихся . В то же время выявлены барьеры: ограниченность учебного времени, материально-технических ресурсов и потребность учителей в методической поддержке. В работе предложены практические рекомендации по системной интеграции подвижных игр в содержание уроков физической культуры в начальной школе.

Ключевые слова: *подвижные игры; начальная школа; уроки физической культуры; фундаментальные двигательные навыки; физическая подготовленность; игровое обучение; учебная мотивация; кооперация и дисциплина.*

FACTORS FOR ACHIEVING EFFECTIVENESS IN PRIMARY SCHOOL LESSONS

This article examines the effectiveness of using movement (active) games in primary school physical education lessons. The aim is to determine how game-based physical education influences the development of fundamental movement skills, physical fitness, self-perception, cooperation, and discipline among young pupils. Drawing on a systematic review of recent research and quasi-experimental evidence, the study shows that game-based approaches can significantly improve game performance, fundamental movement skills, muscular fitness, social and scholastic self-perception, as well as students’ engagement and learning outcomes. Integrating traditional and outdoor games into physical education increases lesson attractiveness, motor activity levels, and overall educational effectiveness. However, limited class time, insufficient resources, and the need for specialized teacher training may constrain large-scale implementation 13. The article concludes with practical guidelines for the systematic integration of movement games into primary physical education curricula to enhance both physical and psychosocial development.

Keywords: *movement games; primary school; physical education; fundamental movement skills; physical fitness; game-based learning; student motivation; cooperation and discipline.*

Kirish. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy salomatligi, harakat faolligi va motor ko'nikmalarining rivojlanishi zamonaviy ta'lim tizimida muhim dolzarb masala sifatida qaralmoqda. Hozirgi davrda maktab o'quvchilarining ko'pgina tadbirlariga tashriflari o'sib bormagan, ammo onlayn muhitga bo'lgan qiziqishi ortishi natijasida jismoniy tarbiya darslarining samaradorligi keskin so'ralayapdi. Bunga mos ravishda pedagog va psixologlar jismoniy tarbiya jarayonini interaktiv, o'yin elementlari aralashgan shaklga o'girish imkoniyatini izlayapdi.

Jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yinlarning roli bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar boshlang'ich sinflarda o'yin usullarini qo'llash o'quvchilarning motor ko'nikmalarini, koordinatsiyasini, og'irlikni boshqarish qobiliyatini, hamda to'pqa, raqibga va maydonga doimiy e'tiborli bo'lishni sezilarli darajada oshirishini ko'rsatib beradi. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarida musbat emotsiyalar, hamkorlik, do'stona munosabatlar va o'zini anglash kabi ijtimoiy-psixologik ko'nikmalar shakllanib boradi. Boshqa tomondan, ba'zi o'qituvchilar o'yinlarni "shashqo'ngarlik" sifatida qabul qilish, metodik ishlab chiqilmagan o'yinlarni tasodifiy jorilashtirish, shuning natijasida darsning maqsadga yo'naltirilganligi yo'qotilishi, o'quv materiali yetarlicha o'zlashtirilmay qolish, o'quvchilarning jismoniy yuklami va resurslari samarali foydalanishga olib kelmay qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili. Boshlang‘ich sinf jismoniy tarbiya darslarida harakatli o‘yinlarni qo‘llash samaradorligini aniqlash uchun kompleks, aralash (miqdoriy–sifat) yondashuv qo‘llanadi. Metodologik asos sifatida tizimli yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va o‘yin asosidagi o‘qitish konsepsiyasi tanlanadi.

Tadqiqot dizayni kvazi-eksperimental bo‘lib, tajriba va nazorat sinflari taqqoslanadi. Tajriba sinflarida jismoniy tarbiya darslari harakatli o‘yinlar yuqori ulushi asosida tashkil etiladi, nazorat sinflarida esa amaldagi davlat dasturi bo‘yicha an’anaviy usullar saqlab qolinadi.

Tanlanma tarkibiga 2–4-sinflarda tahsil olayotgan o‘quvchilar kiritilib, sog‘ligi bo‘yicha qarshi ko‘rsatmasi bo‘lmagan bolalar shifokor ruxsati bilan jalb qilinadi. Darslar haftasiga 2–3 marotaba, kamida 8–12 haftalik davr mobaynida o‘tkaziladi; bu yondashuv 5–7 yoshli gimnastikachilar va maktab o‘quvchilarini o‘rganishda qo‘llanilgan eksperimental dizaynga o‘xshash tarzda tashkil etiladi.

Asosiy tadqiqot usullari:

ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili;

pedagogik kuzatuv (dars jarayonida o‘quvchilarning faolligi va ishtiroki);

pedagogik tajriba (tajriba va nazorat guruhlarini taqqoslash);

testlar va normativ mashqlar orqali jismoniy tayyorgarlikni baholash;

so‘rovnoma va suhbatlar orqali o‘quvchilarning motivatsiyasi va darsga munosabatini o‘lchash;

natijalarni qayta ishlashda matematik-statistika usullari (o‘rtacha ko‘rsatkichlar, farqlar ishonchliligini aniqlash)

Umumta’lim maktablarida jismoniy tarbiya tizimi bo‘yicha tadqiqotlar majburiy dars soatlari bolalarning harakat faolligini yetarli darajada ta’minlamasligi, gipodinamiya va sog‘liq ko‘rsatkichlari yomonlashuvi xavfini ko‘rsatadi 16. Yuqori sinf o‘quvchilari va kichik maktab yoshidagi bolalar bo‘yicha ishlarda jismoniy sifatlarni kompleks rivojlantirish, yuklamani yoshga mos tabaqalashtirish zarurligi asoslab beriladi.

5–7 yoshli gimnastikachilar misolida olib borilgan tajribalar maxsus tanlangan mashqlar majmuasi jismoniy tayyorgarlik testlarida ishonchli ijobiy o‘zgarishlar berishini ko‘rsatadi, bu esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ham o‘yin va mashqlarning maqsadli tanlanishi muhimligini tasdiqlaydi.

11–13 yoshli o‘quvchilarda jismoniy madaniyatni harakatli o‘yinlar vositasida shakllantirish bo‘yicha ishlar o‘yinlar sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, jismoniy faollikni oshirish, milliy-ma’naviy qadriyatlarni singdirish va jismoniy tarbiya darslariga qiziqishni kuchaytirishda samarali ekanini ko‘rsatadi 9. Harakatli va milliy o‘yinlar jismoniy sifatlar bilan birga ijtimoiy ko‘nikmalar, intizom va hamkorlikni ham rivojlantirishi ta’kidlanadi.

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda aynan boshlang‘ich sinf jismoniy tarbiya darslarida harakatli o‘yinlar ulushi, ularning mazmuni va tuzilishi, o‘quv natijalari (fundamental harakat ko‘nikmalari, motivatsiya, darsga munosabat) bilan bog‘lanishi yetarlicha tizimli o‘rganilmagani ilmiy bo‘shliq sifatida qayd etilishi mumkin. Mazkur maqola ana shu bo‘shliqni qisman to‘ldirishga qaratiladi.

Tahlil va olingan natijalar. Tadqiqot davomida boshlang‘ich sinf jismoniy tarbiya darslarida harakatli o‘yinlardan foydalanishning o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligi va darsga bo‘lgan motivatsiyasiga ta’siri kompleks o‘rganildi. Tahlil jarayonida nafaqat sinov mashqlari ko‘rsatkichlari, balki

darsning tashkiliy-metodik jihatlari, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar ham inobatga olindi. Bu jarayonda harakatli o‘yinlarning didaktik imkoniyatlari, ularning mazmuni, dinamikasi va sinf sharoitiga moslashuv darajasi alohida ko‘rib chiqildi.

Olingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatdiki, an’anaviy mashqlar asosida tashkil etilgan darslar bilan taqqoslaganda, harakatli o‘yinlar muntazam va maqsadli qo‘llanilgan guruhlarda o‘quvchilarning darsdagi faolligi, topshiriqlarni bajarish tezligi hamda mashg‘ulot davomida intizomni saqlash ko‘rsatkichlari sezilarli darajada yuqoriroq bo‘ldi. Shu bilan birga, o‘quvchilarning darsga munosabati, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini kutish kayfiyati, darsdan so‘nggi charchoqni his etish darajasi ham sifat jihatidan ancha ijobiy tomonga o‘zgargani kuzatildi.

Tahlil jarayonida harakatli o‘yinlarning mazmun-mohiyatiga qarab, ularning ta’siri ham bir-biridan farq qilishi aniqlangan. Dinamik, tezkor qaror qabul qilishni talab qiluvchi o‘yinlar asosan tezkorlik, chaqqonlik, diqqatni jamlash kabi sifatlarni rivojlantirishi bilan ajralib turgan bo‘lsa, juftlik yoki kichik guruhlarda bajariladigan o‘yinlar ijtimoiy faollik, hamkorlik va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishda samaraliroq bo‘ldi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘yinlar mazmunini yosh xususiyatlari, dars maqsadi va sinfning tayyorgarlik darajasiga muvofiq tanlash harakatli o‘yinlar samaradorligini sezilarli oshiradi.

Shuningdek, o‘qituvchining metodik yondashuvi ham natijalarga bevosita ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. O‘yin qoidalarini aniq tushuntirish, xavfsizlik talablariga qat’iy rioya etish, o‘quvchilarni rag‘batlantirish va natijalarni baholash mezonlarini oldindan ma’lum qilish holatida o‘yinlar nafaqat jismoniy, balki tarbiyaviy va psixologik jihatdan ham samarali bo‘lib chiqdi. Tahlil davomida ayrim o‘qituvchilarning harakatli o‘yinlarni faqat “dam oldirish vositasi” sifatida qo‘llashi ularning potensialini to‘liq ro‘yobga chiqarishga to‘sqinlik qilishi mumkinligi ham qayd etildi.

Umumlashtirilgan tahlil natijalariga ko‘ra, harakatli o‘yinlar boshlang‘ich sinf jismoniy tarbiya darslarida o‘quv yuklamasini optimallashtirish, darsning emotsional fonini yaxshilash, o‘quvchilarda sog‘lom turmush tarziga ijobiy munosabatni shakllantirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘ldi. Bunda o‘yin elementlarini darsning barcha bosqichlariga tizimli integratsiya qilish, ularni rejalashtirish hujjatlarida alohida aks ettirish OAK talablari nuqtayi nazaridan ham ilmiy-amaliy asoslangan yondashuv sifatida qaraladi.

Olingan natijalar. Tadqiqot natijalari umumiy holda boshlang‘ich sinf jismoniy tarbiya darslarida harakatli o‘yinlardan foydalanish samaradorligi bir qator asosiy yo‘nalishlarda namoyon bo‘lganini ko‘rsatdi:

Jismoniy sifatlar rivojlanishi. Harakatli o‘yinlar muntazam qo‘llanilgan darslarda o‘quvchilarning tezkorlik, chaqqonlik va umumiy chidamlilik ko‘rsatkichlari an’anaviy mashg‘ulotlar ustuvor bo‘lgan sinflarga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘ldi. Bu farq, ayniqsa, dars davomida davomiy harakatni talab qiluvchi hamda turli yo‘nalishda tezkor harakat bajariladigan o‘yinlarda yaqqol ko‘zga tashlandi.

Darsga motivatsiya va qiziqish. O‘quvchilarning darsga tayyorgarligi, mashg‘ulotlarni intiqlik bilan kutishi va dars jarayonida faol qatnashish darajasi harakatli o‘yinlar asosida tashkil etilgan darslarda ancha yuqori bo‘ldi. Ko‘plab o‘quvchilar jismoniy tarbiya darsini “eng yoqimli fanlar” qatoriga kiritgani, darsdan so‘ng ijobiy emotsional holat saqlanib qolishi ta’kidlangan.

Ijtimoiy-psixologik ko‘rsatkichlar. Juftlik va guruh shaklidagi harakatli o‘yinlar o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro yordam, hamkorlik, jamoada harakat qilish, sherikning imkoniyatini inobatga olish kabi sifatlarning shakllanishiga xizmat qildi. Natijada jismoniy tarbiya darslarida konflikt holatlari kamaygani, o‘quvchilarning bir-biriga bo‘lgan hurmati ortgani kuzatildi.

Tarbiyaviy ta’sir. O‘yinlar jarayonida qoidalarga rioya qilish, halollik, tartib-intizom, o‘zini tuta bilish kabi sifatlar sistematik shakllandi. Ayniqsa, o‘yin natijalarini qabul qilish, yutqazgan holatda ham o‘zini boshqara bilish, raqibga nisbatan adolatli munosabatda bo‘lish ko‘nikmalarining rivojlangani alohida e’tiborga loyiqdir.

Metodik jihatlar. Tadqiqot natijalari o‘qituvchi tomonidan harakatli o‘yinlarni darsning maqsad va vazifalariga muvofiq rejalashtirish, ularning murakkablik darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish, qoidalarni yosh xususiyatlariga moslashtirish zarurligini tasdiqladi. Bunday yondashuv o‘yinlarning samaradorligini oshirish bilan birga, darsning umumiy metodik darajasini ham yuksaltiradi.

Munozara. Boshlang‘ich sinf jismoniy tarbiya darslarida harakatli o‘yinlardan foydalanish o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligi, darsga bo‘lgan qiziqishi va ijtimoiy ko‘nikmalarining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, harakatli o‘yinlar an’anaviy mashg‘ulotlarga nisbatan o‘quvchilarning faolligini oshirib, ularning motivatsiyasini kuchaytiradi va dars jarayonida intizomni yaxshilaydi. Shu bilan birga, o‘yinlarning mazmuni va shakli yosh xususiyatlari va dars maqsadlariga mos tanlanganida samaradorlik yanada oshadi. O‘yinlar ijtimoiy-psixologik jihatdan ham hamkorlik, hurmat va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq metodik

jihatdan harakatli o‘yinlarni to‘g‘ri tashkil etish va ularni faqat dam olish vositasi sifatida emas, balki maqsadli pedagogik vosita sifatida qo‘llash zarur. Umuman olganda, harakatli o‘yinlar boshlang‘ich sinf jismoniy tarbiya darslarining samaradorligini oshirishda muhim vosita bo‘lib, ularni tizimli ravishda integratsiya qilish tavsiya etiladi

Xulosa. Tadqiqot natijasi shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf jismoniy tarbiya darslarida harakatli o‘yinlarni tizimli va metodik tayyorlab qo‘llash o‘quvchilarning jismoniy ko‘nikmalarini, motor reflekslari, hamkorlik, diqqat va irodaviy ko‘nikmalari darajasini sezilarli oshirish hamda umumiy jismoniy salomatlik ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sir qiladi. O‘yinlar dars jarayonini qiziqarli, interaktiv va o‘quvchilarning faolligini oshiruvchi muhitga aylantirib, ta’limga jismoniy, ko‘nikma, ijtimoiy va psixologik bo‘yinchaliklarni qo‘shadi.

Shu asosda ushbu maqolada taklif etilgan metodik yondashuv sifatida:

boshlang‘ich sinflarda jismoniy tarbiya darslarini o‘yinlarga asoslangan tizimga o‘zgartirish, har bir o‘yinning maqsadli tuzilishi, jismoniy yuklama, vaqt rejasi va o‘quvchilarning yosh xususiyatlari e’tiborga olinishi, o‘yinlarning samaradorligi o‘lchashda motorik, test va kuzatuv ko‘rsatkichlaridan foydalanish, o‘yinlar orqali o‘quvchilarning ijtimoiy hamkorlik va psixologik barqarorlik ko‘nikmalarini shakllantirish amaliy tavsiya sifatida belgilanadi.

Adabiyotlar:

1. Karimov N. X. Boshlang‘ich sinflarda milliy harakatli o‘yinlarning o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishiga ta’siri // Pedagogik ilmiy-uslubiy jurnal – 2023. – № 4. – 12–18 b.
2. Mamadova D. S. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy tayyorgarligini oshirishda harakatli o‘yinlarning roli // Jismoniy tarbiya va sport – 2022. – № 3. – 25–32 b.
3. To‘xtayev R. A. Harakatli o‘yinlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga jismoniy tarbiya berishda sog‘lomlashtirish va tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishda ahamiyati // Boshlang‘ich ta’lim – 2021. – № 2. – 38–44 b.
4. Sobirov S. Sh. Jismoniy tarbiya darslarida harakatli o‘yinlarning pedagogik ta’siri // Jismoniy tarbiya va sport – 2020. – № 1. – 19–26 b.
5. Ustoyeva N. A. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida harakatli o‘yinlar orqali jismoniy salomatlik ko‘rsatkichlarini oshirish // Zamonaviy ta’lim – 2022. – № 4. – 30–37 b.
6. Husenov N. N. Bolalar jismoniy tarbiyasida turli yosh guruhlarida harakatli o‘yinlarni o‘tkazish metodikasi // Jismoniy tarbiya va sport – 2021. – № 3. – 45–52 b.
7. Abdullayev A. O. Jismoniy tarbiya darslarida milliy va harakatli o‘yinlardan foydalanishning yollari // Jismoniy tarbiya darslarida milliy va harakatli o‘yinlardan foydalanishning yollari – 2023. – 18–25 b.
8. Temurqulov B. M. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan olib boriladigan sport va harakatli o‘yinlar jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari // Zamonaviy fan va ta’lim – 2022. – № 5. – 61–68 b.
9. Nikitenko A. V. (Rossiya). Igrы dvizheniya v nachal'noy shkole i ikh vliyanie na fizicheskoe razvitiye detey // Teoriya i praktika fizicheskoy kul'tury – 2020. – № 8. – 33–40 s.
10. Safarov J. K. (Qozog‘iston). Nachal'nye klassy: ispol'zovaniye dvigatel'nykh igyr v uchebnom protsesse shkolyar // Pedagogika Kazakhstana – 2021. – № 4. – 48–55 s.

JISMONIY TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI FANINI O‘QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Masharipova Miyassar Ischanovna,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti professor (v.b.)

Bugungi kunda boshqa soxalar katorida ta’lim soxasida ham kompyuter texnologiyalari keng kirib keldi va bu ta’lim tarbiya jarayonini samaradorligini oshirishda va har tamonlama intellektual salohiyatni oshirishda muxim o‘rin tutadi. Bugungi kunda hayotni innovatsion vositalarsiz, jumladan, internetsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Kalit so‘lar: *Metodika, innovatsiya, mashg‘ulot, dars, uslub, vosita, ta’lim, tarbiya.*

МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ДИСЦИПЛИНЫ «ТЕОРИЯ И МЕТОДИКА ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ»

Сегодня компьютерные технологии стали широко использоваться как в образовании, так и в других сферах, и это играет важную роль в повышении эффективности учебного процесса и повышении интеллектуального потенциала. Сегодня жизнь невозможно представить без инновационных инструментов, в том числе Интернета.

Ключевые слова: *Методология, инновации, обучение, урок, метод, инструмент, образование, обучение.*

METHODOLOGY FOR USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING THE SUBJECT “THEORY AND METHODOLOGY OF PHYSICAL EDUCATION

Today, computer technologies have become widely used in education as well as in other fields, and this plays an important role in increasing the efficiency of the educational process and increasing intellectual potential. Today, life cannot be imagined without innovative tools, including the Internet.

Key words: *Methodology, innovation, training, lesson, method, tool, education, training.*

Kirish. Asrimiz globallashuv va innovatsion asri deb yuritilmoqda. Darhaqiqat, har tomonlama rivojlanayotgan jamiyat taraqqiyotini bugun innovatsion texnologiyalarisiz, ayniqsa, kompyuterlarsiz tasavvur etish qiyin. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan zamonaviy kompyuterlardan samarali foydalanishga doir bir qancha farmoyish va qarorlar qabul qilingan. Jumladan, 2017- yil 11-dekabrdagi “Innovatsionlashtirish to‘g‘risida”gi Qaror, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-maydagi “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va innovatsion-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to‘g‘risida”gi farmoni; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012- yil 6-iyundagi “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va innovatsion-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to‘g‘risida”gi Qarori ham mamlakatimizda kompyuterlashtirish va innovatsion-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirishga qaratilgan asosiy davlat hujjatlaridan hisoblanadi.

Zamonaviy kompyuter vositalari va multmediya texnologiyalari ta’lim jarayonida didaktik material tayyorlash vazifasini yengillashtiradi. Kompyuter bilan didaktik materiallarni uyg‘unlikda qo‘llash o‘rganilayotgan mavzuni talabalar tomonidan o‘zlashtirishda katta yordam beradi. Bundan 3500 yil muqaddam Konfutsiy «eshitganimni yodimdan chiqaraman, ko‘rganiimni eslab qolaman, mustaqil bajarsam tushunib yetaman», degan ekan. Ta’limda informatsion hamda pedagogik texnologiyalarni qo‘llaganda, o‘quvchi eshitish, ko‘rish, ko‘rganlari asosida mustaqil fikrlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bundan ko‘rinib turibdiki o‘qitishning yangi pedagogik texnologiyalari qatoriga, kompyuter texnologiyasini kiritish zarurati kundan kunga oshib bormoqda. Ta’lim jarayonida zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalangan holda darslarni tashkil etish uchun kerakli shart-sharoitlar va texnik vositalar mavjud bo‘lishi lozim.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Yuqori sifatdagi va yuqori texnologik innovatsion o‘qitish muxitini yaratish, asosan, ta’lim tizimining texnologik bazasini tubdan modernizatsiyalash, postindustrial jamiyat talablariga javob beradigan ochiq ta’lim tizimiga o‘tish imkoniyatini yaratadigan etarlicha murakkab bo‘lgan texnik masala sifatida ko‘riladi. Shu bilan birga, innovatsion ta’lim muxitini yaratish faqat texnik masala emasligini inkor etib bo‘lmaydi [5].Uni yaratish, rivojlantirish va undan foydalanish uchun barcha ta’lim tizimining ilmiy-uslubiy, tashkiliy va pedagogik potentsialini to‘liq ishga solish kerak bo‘ladi. Shu

munosabatda, zamonaviy innovatsion-ta’lim muxiti ishlatilayotgan sharoitda pedagogika munosabatlarini xam xisobga olmoq lozim.

Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi fanni o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning uslublari. Jismoniy madaniyat soxasida tadqiqotlarning hajmi muntazam ortib, ularning mavzui ham tobora kengayib bormoqda. Ilmiy tadqiqotlarning samaradorligi va sifatini oshirishda ularni yana ham jadallashtirish katta ahamiyatga egadir. Shu bilan birga, sport fanining turli muamolari bo‘yicha tadqiqot natijalarini tezlik bilan jismoniy tarbiya amaliyotiga tatbiq etish zarur. Bularning barchasi jismoniy tarbiya mutaxassislarining ilmiy - texnik innovatsiya bilan, ta’kidlash joizki, faqat jismoniy tarbiya va sportning xilma-xil jihatlari bo‘yicha emas, balki u bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita bog‘liq fanlar (fiziologiya, tibbiyot, pedagogika, ruhshunoslik, biomexanika va boshqalar) bo‘yicha ham innovatsiya bilan ta’minlanishini kuchaytirishni shart qilib qo‘yadi. Bunda mutahassisning zarur ilmiy-texnik innovatsionlarni etarlicha to‘liq va tezkorlik bilan olayotganiga qattiq ishonchi bo‘lishi lozim [1].

Hozirgi paytda ilmiy tadqiqotlar doirasida tashkiliy, nazariy va tajriba faoliyati bilan bir qatorda innovatsion faoliyati ham ajralib chiqib, mustaqil yo‘nalish bo‘lib shakllandi. Uning rivoji informatika deb atalmish ilmiy innovatsionning tuzilishi va xususiyatlarini, ilmiy-innovatsion faoliyatini. uning nazariyasi tarixi, usuliyati va tashkil etilishini o‘rganadigan yangi ilmiy fanning paydo bulishiga atab keldi. Informatikaning vazifalari orasida ilmiy innovatsionni takdim etish, yig‘ish, taxliliy-sintetik qayta ishlash, saqlash, izlash hamda tarqatishning eng maqbul yo‘llarini ishlab chiqishni alohida ayirib ko‘rsatish mumkin. Jismoniy tarbiya va sport sohasida foydalaniladigan ilmiy-texnik innovatsion har xil manbalarda bo‘lishi mumkin.

Ushbu manbalarni bilish, ulardan zarur ma’lumotlarni topa olish boshqaruv samaradorligini belgilaydigan omillardan hisoblanadi.

Jismoniy harakatning taraqqiyoti ko‘p jihatdan mazkur sohada ilmiy-texnik innovatsionni tashkil etish darajasiga, boshqaruv apparatini o‘z vaqtida innovatsion bilan to‘la ta’minlashga bog‘liqdir.

Jismoniy tarbiya harakatini boshqarish innovatsionsiz samarali tarzda amalga oshirilishi mumkin emas. Uning tashkil etilishi qanchalik mukammal bo‘lsa, boshqaruv shuncha sifatli bo‘ladi. Jismoniy tarbiya harakatining turli tizimchalari orasida, butun tizim bilan uning atrofini o‘rab turgan muhit orasida innovatsioniing muntazam almashinib turishi boshqaruvning zarur halqasi sanaladi. Innovatsion jarayonlarining mavjudligi tizimning o‘z butunligini saqlab qolishi va takomillashib borishi garovidir. Ilmiy-texnik innovatsionning aniq tashkil etilgan tizimi mavjud bo‘lmasa, murabbiylar sport fanining oldingi saflarida vaziyat qandayligini yaxshi tasavvur eta olmaydilar, ayrim tadqiqotlar amaliyotda qo‘llanilmaydi, shuning uchun mutaxassislar ilgarigidek faqat o‘z shaxsiy tajribalariga tayanib ishlayveradilar, ba’zan olimlar kanday muammolar ustida tadqiqot olib borayotganlarini, kanday yo‘nalishlarni tanlayotganlarini, qanday ilmiy asarlar chop etilayotganligini ham bilmaydilar.

Trenerlar, jismoniy tarbiya va sport sohadi olimlari ham mutaxassislarining innovatsion ta’minotini yaxshilash masalalarini an’anaviy kutubxona-bibliografiya usullari bilan hal etish mumkin emas. Ilmiy-texnik innovatsion oqimining muntazam ko‘payib borishi, ilmiy tadqiqot mavzularining kengayishi va shu bilan bog‘liq holda innovatsion ehtiyojlarining o‘sib, murakkablashib ketishi mazkur soha mutaxassislarini innovatsion bilan ta’minlashning yangi zamonaviy usul hamda vositalarini zudlik bilan joriy qilishni talab etadi. Ilmiy-texnik innovatsionni taqdim etish, saqlash, unga ishlov berishning elektron shakllariga o‘tish obyektiv reallikka aylanib, uni iste’molchiga etkazishning eng samarali vositasiga aylanmoqda. Internet orqali innovatsion topish yoki CD tashuvchilarda ma’lumotlar zahirasidan foydalanish an’anaviy qog‘oz texnologiyalari bilan qiyoslaganda, ish samaradorligini yuz va ming marotaba oshirib yuboradi.

Boshqaruvning eng muhim funktsiyalaridan biri jismoniy tarbiya tashkilotlari faoliyatining eng muhim yo‘nalishlari bo‘yicha boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish hisoblanadi. U yoki bu qarorni qabul qilish uchun boshqaruv subyekti echilishi zarur bo‘lgan muammoning turli jihatlariga oid innovatsionga ega bo‘lmog‘i kerak, Innovatsion boshqaruv qarorlarini tayyorlash va qabul qilish uchun dastlabki material bo‘lib xizmat kiladi. Qaror qabul kilish uchun foydalannladngan innovatsion ishonchli, tezkor. eng maqbul bo‘lishi va yana bir qancha sifatlarni o‘ziga jamlashi lozim.

Innovatsiyanning ta’sirchanligini, jismoniy tarbiya harakatini ilmiy boshqarishning muhim omili sifatidagi ahamiyatini oshirish bu innovatsiya nechog‘lik yuksak bilim va mahorat bilan yig‘ilishi, qayta ishlangani, tahlil etilgani va iste’molchiga taqdim etilgani bilan bog‘liq. Shu munosabat bilan innovatsion faoliyati informatika, kibernetika va boshqa fanlarning zamonaviy yutuqlariga, yangi kompyuter texnologiyalaridan foydalanish asosiga qurilgan bo‘lishi shart. Jismoniy tarbiya harakati boshqaruvining innovatsion ta’minoti bilan bir qatorda, bugungi kun sharoitida jismoniy tarbiya va sportning turli muammolari bo‘yicha ilmiy - tadqiqot ishlari uchun zarur ilmiy-texnik innovatsiyalar nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib mutaxassislarning innovatsion tehnologiyalarga bo‘lgan talablari bosqichdan bosqichga o‘tish jarayonida o‘zgarib turadi.

Internetni fizik jihatdan bir-biri bilan har xil aloqa chiziqlari orqali bog‘langan va innovatsion izlash, saqlash hamda uzatish uchun mo‘ljallangan bir necha million kompyuterlar ko‘rinishida tasavvur etish mumkin.

Internet – bu dohiyona birikma – bir tomondan juda kuchli innovatsion uskunasi, ikkinchi tomondan, o‘ta ishonchli va tezkor aloqa vositasi, uchinchidan, kelajak innovatsion texnologiyalari rivoji uchun asos hisoblanadi.

Internet, shuningdek, ijod uchun keng maydon hisoblanadi. Internet hozirda rivojlanmoqda, eng yangi istiqbolli texnologiyalar ishlab chiqilmoqda, yangi tarmoq ilovalari yaratilmoqda.

Internetning eng muhim jihati ilmiy-texnik innovatsionni izlab topishni osonlashtirganligidir. Lekin Internetda innovatsionni izlash uchun ham ko‘p narsalarni bilish kerak. Innovatsion izlash vositalarining 2 guruhi mavjud:

- Internetning izlash xizmati – zahiralarni (sayt va sahifalarni) izlashning universal vositalari bo‘lib, ular biror mavzu yo‘nalishi bilan chegaralanmagan;

- cheklangan izlash tizimi muayyan sohaga oid innovatsionni izlash uchun mo‘ljallangan bo‘lib, tizimga kutubxonalarning elektron kataloglari, ma’lumotlarning hujjatli zahiralari kiradi.

Izlash tizimining birinchi turini ko‘pincha *indeksli tizimlar* deb ataydilar va bunda “kalit so‘z” yordamida Internet sahifalarining hamma manzillarini izlab topish mumkin. Yo‘llovchi ko‘rsatmalar va manzillarning birligi izlash to‘g‘risidagi hisobot shaklida foydalanuvchiga jo‘natiladi.

Izlash tizimlarining ikkinchi xili katalog tuzuvchilardir. Bunday tizimlar ierarxiya belgilari bo‘yicha tartibga keltirlgan mavzu bo‘limlari asosida Web – sahifalarning manzillarini qidiradi.

Bugungi kunda izlash tizimlarining bu ikki turi bir-biriga yaqinlashib, ular orasidagi chegaralar tobora shartli tus olib bormoqda. Har ikki tizim endi talabnomaga javoban Internetda topilgan sahifaning katalogini beradigan bo‘ldi.

Izlash samarali bo‘lishi uchun, eng avvalo, uning maqsadini aniqlashtirish kerak. Keyin, izlash uchun zarur kalit so‘zlar ko‘rsatiladi. Kalit so‘zlarni tayin qilib olish juda muhim. Agar, kalit so‘z sifatida, masalan: “Sportdagi ilmiy tadqiqotlar” kabi keng tushuncha tanlab olinsa, u holda topilgan sahifalar hajmi shu qadar katta bo‘ladiki, ularning hammasini ko‘rib chiqish juda ko‘p mehnat talab qiladi. To‘g‘ri tanlangan kalit so‘zlar izlash sohasini toraytiradi, shu tariqa zarur innovatsionni topish uchun ketadigan vaqt va harakatlarni tejaydi. Internetda o‘nlab, yuzlab ming innovatsion bog‘lamlariga yo‘llovchi ko‘rsatmalari bo‘lgan ko‘p milionlab innovatsion materiallarini saqlovchi o‘nlab izlash tizimlari mavjud. Mazkur bobning oxirida ularning eng keng ommalashganlari keltirilgan.

Olimlar uchun Internet, birinchi navbatda, butun dunyodagi hamkasabalari bilan muloqot qilish vositasidir. Ilm-fan allaqachonlar milliy sarhadlardan oshib o‘tgan, ammo faqat Internetgina ishonchli, tezkor, qulay muloqot vositasi – elektron pochtadan foydalanish imkonini berdi. Aynan Internet elektron pochtasi ilm olamida keng ommalashgan. Elektron pochta (E–mail) innovatsion matnlarini Internet tarmog‘i orqali jo‘natish vositasi sifatida paydo bo‘ldi.

Elektron pochta tushunchasi odatdagi pochtani eslatadi. Chindan ham, E-mail jo‘natar ekansiz, oddiy xatdagidek, u qayerga va kimga yuborilayotganini, o‘z manzilingizni ko‘rsatasiz. Siz xatni bir necha manzilga yuborishingiz, unga fayl, multimedia innovatsioni, video hamda tovushli parchalar va hokazolarni qo‘shib yuborishingiz ham mumkin.

Pedagogik tajribalar. Biz tadqiqotimizni 2021-2022-o‘quv yili davomida boshladik. Tajriba jismoniy madaniyat fakulteti Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrasida jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi fanni o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning uslublari asosida olib borildi.

Tadqiqot uch uslub bo‘yicha olib borildi.

1. Prezentatsiya va slaydlar;
2. Audio va video lavhalar;
3. Auditoriya testlash;

Talabalarni ta’lim –tarbiya jarayonida yangi innovatsion texnologiyalaridan foydalanish to‘g‘risidagi bilim, ko‘nikma va malakalarda aniqlash maqsadida anketa savol-javoblari o‘tkazildi.

Anketa natijalariga ko‘ra talabalarning 85 nafari anketalashtirish jarayonida qatnashishdi. Unda 1-savol “*Sizga jismoniy tarbiya darsi innovatsion texnolgiyalar yordamida o‘qitilishi kerakmi?* degan savolga” 80 (69.1%) nafar talaba “XA” deb, 5(4.8%) nafar talaba “YO‘Q” deb 29 nafari qisman (27.6%) javob berdi. Javoblar taxlilini quyidagi tartibda

Anketa savol javoblari natijsiga ko‘ra quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Talabalarning innovatsion texnologiyalari asosida ta’lim berish haqidagi tushuncha va bilimlari etarli emas

Mashg‘ulotlarni innovatsion texnologiyalari asosida o‘tish muntazam qo‘llanilmagan

Pedagogik tajriba 2021-2022-o‘quv yili baxorgi semestrida jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi fani bo‘yicha o‘quv darslarini innovatsion texnologiyalari asosida olib borildi.

Tajribada quyidagi mavzular bo‘yicha pedagogik va innovatsion texnologiya uslublari qo‘llanildi.

	Semestr bo‘yicha o‘tiladigan ma’ruzalar	Qo‘lanilgan AT uslublari		
		prezintatsiya	Video lavxa	Interfaol metodlar
	Jismoniy madaniyat bo‘yicha DTS mazmuni va o‘quv materiallarining tasnifi	+		BBB
	Maktab jismoniy madaniyat bo‘yicha o‘quv ishlarini rejalashtirish	+		KLASTER
	Jismoniy madaniyat darsi		+	
	Jismoniy madaniyat darslarida pedagogik nazorat	+		FSMU
	Sog‘lig‘i zaif o‘quvchilarning jismoniy tarbiyasi	+		AKLIY XUJUM
	Jismoniy madaniyat bo‘yicha darsdan tashqari ishlar		+	
	Akademik-litsey va Kasb-xunar kollejlarida jismoniy madaniyat	+		NIMA UCHUN
	Oliy o‘quv yurtlarida jismoniy madaniyat		+	INSERT
	Harbiyga chaqiruv oldi va chaqiruvchilar jismoniy madaniyati	+		
	Katta yoshlilar jismoniy madaniyati		+	ZANJIR
	Sportning mohiyati va uning jamiyatdagi o‘rni, uning bazaviy qismlari va maxsus xizmat bo‘limi.	+		DARAXT
	Sport mashg‘ulotlarining tomoynlari.	+		
	Sport mashg‘ulotlarining vositalari.	+		BBB
	Sport mashg‘ulotlarining tamoyillari.	+		
	Sport mashg‘ulotlarining usuliyati.	+	+	FSMU
	Sportga yo‘naltirish va tanlov o‘tkazish.	+		
	Sport mashg‘ulotlarining tuzilishi	+		
	O‘zbekistonda bolalar sportining va uzluksiz sport tizimining rivojlanishi.	+		BBB

Biz tajriba boshida va ohirida talabalarning bilimlarining sifat ko‘rsatkichlari hamda o‘zlashtirishi bo‘yicha natijalarni 2ta fan bo‘yicha o‘rgandik va taqqosladik. Tadqiqot 2021-2022-o‘quv yilining kuzgi semestridan boshlanib 2021-2022 o‘quv yilining baxorgi semestrida yakunlandi.

Xulosa.

1. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi fanni o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning uslublari bo‘yicha barcha yo‘nalishlariga xos bo‘lgan adabiyotlarni o‘rganildi va tahlil qilindi.

2. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi fanni o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning uslublarini jismoniy tarbiya tizimida qo‘llashning nazariy va metodik asoslarini ishlab chiqildi. (Har bir innovatsion texnologiya metodlarini fan va o‘quv kurslarni xususiyatlari e’tiborga olindi texnologiyalarni pedagogik asoslarini, vositalari, usullarini qo‘llash va tajriba sinovdan o‘tkazildi).

3. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi fanni o‘qitishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash talabada eshitish, ko‘rish, ko‘rganlari asosida mustaqil fikrlash qiziquvchanlik, odob-ahloq, ijodkorlik, muloqot va estetik qobiliyatlarni rivojlantiradi.

4. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi darslarida pedagogik va innovatsion texnologiyalarini qo‘llash ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Abdullayev A, Xonkeldiyev Sh. Jismoniy madaniyat nazaryasi va metodikasi. Darslik.–Toshkent: O‘zDJTI, 2005, 300 bet.

2. Jismoniy tarbiya nazaryasi va metodikasi. –Toshkent: 1975.

3. Kerimov.F, Umarov.M. Sportda prognozlashtirish va modellashtirish. Darslik. –Toshkent: 2005.

4. Salomov. R.S. Jismoniy tarbiya nazaryasi va uslubiyati. 1 jild. Darslik. –Toshkent 2015 yil.

5. Goncharova.O.B. Yosh sportchilarning jismoniy qobilyatlarini rivojlantirish. O‘quv uslubiy qo‘llanma.–Toshkent: O‘zDJTI, 2005 yil. 171 bet.

QISQA MASOFAGA YUGURUVCHILARDA TEZLIK SIFATINI RIVOJLANTIRISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

Ro‘ziqulov Mels,
Buxoro davlat pedagogika instituti 2-kurs magistranti

Mazkur maqolada qisqa masofaga yuguruvchi sportchilarda tezlik sifatini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari keng yoritilgan. Tezlikni oshirishga xizmat qiluvchi maxsus mashqlar tizimi, shuningdek interval va takroriy mashg‘ulot usullarining samaradorligi tahlil qilingan. Mashg‘ulot jarayonida yuklamalarni maqsadga muvofiq taqsimlash, sportchilarning funksional imkoniyatlari va individual xususiyatlarini hisobga olish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Shu bilan birga, tezlik sifatini rivojlantirishda tiklanish jarayonlarini to‘g‘ri tashkil etishning ahamiyati asoslab berilgan. Olingan natijalar qisqa masofaga yuguruvchilarning sport natijalarini oshirishda kompleks yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *Qisqa masofaga yugurish, tezlik sifati, mashg‘ulot usullari, interval usuli, takroriy usul, sport tayyorgarligi, yuklama, funksional holat, tiklanish jarayoni, sport natijalari.*

МЕТОДИКА СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СПОСОБОВ РАЗВИТИЯ СКОРОСТНЫХ КАЧЕСТВ У БЕГУНОВ НА КОРОТКИЕ ДИСТАНЦИИ

В данной статье всесторонне освещаются научно-методические основы развития скоростных качеств у спортсменов, специализирующихся в беге на короткие дистанции. Проанализирована эффективность специальных упражнений, направленных на повышение скорости, а также методов интервальной и повторной тренировки. Особое внимание уделено вопросам рационального распределения тренировочных нагрузок с учётом функциональных возможностей и индивидуальных особенностей спортсменов. Наряду с этим обоснована значимость правильной организации восстановительных процессов в развитии скоростных качеств. Полученные результаты свидетельствуют о необходимости комплексного подхода для повышения спортивных достижений спринтеров.

Ключевые слова: *Бег на короткие дистанции, скоростные качества, методы тренировки, интервальный метод, повторный метод, спортивная подготовка, нагрузка, функциональное состояние, восстановительные процессы, спортивные результаты.*

METHODOLOGY FOR IMPROVING METHODS OF DEVELOPING SPEED ABILITIES IN SHORT-DISTANCE RUNNERS

This article comprehensively examines the scientific and methodological foundations for developing speed qualities in athletes specializing in short-distance running. The effectiveness of specific exercises aimed at enhancing speed, as well as interval and repeated training methods, is analyzed. Particular attention is paid to the rational distribution of training loads, taking into account the functional capabilities and individual characteristics of athletes. In addition, the importance of properly organizing recovery processes in the development of speed qualities is substantiated. The obtained results indicate the necessity of a comprehensive approach to improving the athletic performance of sprinters.

Keywords: *Short-distance running, speed qualities, training methods, interval training, repeated training method, sports training, load, functional state, recovery processes, athletic performance.*

Kirish. Jahon miqyosida sport sohasi, ayniqsa yengil atletikaning qisqa masofaga yugurish turi jadal sur’atlarda rivojlanib bormoqda. Bugungi kunda yuqori sport natijalariga erishish nafaqat tabiiy qobiliyat, balki ilmiy asoslangan tayyorgarlik tizimiga ham bevosita bog‘liq ekani amalda isbotlanmoqda. Qisqa masofaga yugurishda sport natijalarini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri – bu tezlik sifati hisoblanadi. Shu sababli, ushbu sifatni samarali rivojlantirish masalasi zamonaviy sport pedagogikasi va trenerlik amaliyotining dolzarb vazifalaridan biri sifatida qaralmoqda.

Qisqa masofaga yuguruvchilar uchun tezlik nafaqat harakat tezligi, balki reaksiya vaqti, startdan chiqish tezligi, qadamlar chastotasi va uzunligi, harakatlarni muvofiqlashtirish kabi bir qator murakkab omillarni o‘z ichiga oladi. Demak, tezlik sifatini rivojlantirish faqatgina tez yugurish mashqlari bilan cheklanib qolmaydi, balki u kompleks yondashuvni talab etadi. Bu esa mashg‘ulot jarayonini to‘g‘ri tashkil

etish, yuklamalarni ilmiy asosda rejalashtirish va sportchining individual xususiyatlarini hisobga olishni taqozo etadi.

Asosiy qism. So‘nggi yillarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, qisqa masofaga yuguruvchilarda tezlik sifatini rivojlantirishda interval va takroriy mashg‘ulot usullari, maxsus tezlik mashqlari hamda kuch va tezkorlikni uyg‘un rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar yuqori samara beradi. Shu bilan birga, zamonaviy sportda raqamli texnologiyalar, sensor qurilmalar va tahliliy dasturlar orqali sportchilarning funksional holatini kuzatish va mashg‘ulot jarayonini optimallashtirish imkoniyatlari kengaymoqda. Bu esa tezlik sifatini yanada aniq va maqsadli rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ayniqsa, talabalar sporti sharoitida mashg‘ulotlarni tashkil etish o‘ziga xos yondashuvni talab qiladi. Chunki talabalarda o‘quv yuklamasi, kun tartibi va jismoniy tayyorgarlik darajasi turlicha bo‘ladi. Shu sababli, ular uchun mashg‘ulot jarayonini individuallashtirish, ortiqcha charchoqning oldini olish va tiklanish jarayonlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyatga ega. Bu esa nafaqat tezlik sifatini rivojlantirish, balki umumiy sport natijalarini barqaror oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, tezlik sifatini rivojlantirish jarayonida fiziologik va biomexanik omillarni hisobga olish ham muhimdir. Masalan, mushak tolalarining turi, markaziy asab tizimining faoliyati, energiya ta’minoti tizimlari kabi omillar tezlik ko‘rsatkichlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Demak, zamonaviy mashg‘ulotlar nafaqat pedagogik, balki fiziologik va psixologik jihatdan ham puxta asoslangan bo‘lishi lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, qisqa masofaga yuguruvchilarda tezlik sifatini rivojlantirish usullarini o‘rganish, ularni takomillashtirish va amaliyotga joriy etish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolaning maqsadi – qisqa masofaga yuguruvchi sportchilarda tezlik sifatini samarali rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy usullar va yondashuvlarni tahlil qilish hamda ularning amaliy ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Zamonaviy sport amaliyotida qisqa masofaga yugurish (sprint) nafaqat jismoniy tayyorgarlik, balki yuqori darajadagi neyrofiziologik, biomexanik va psixologik uyg‘unlikni talab etadigan murakkab jarayon sifatida qaralmoqda. So‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, tezlik sifati faqat mushak kuchiga bog‘liq emas, balki markaziy nerv tizimi faoliyati, reaksiya tezligi, harakat koordinatsiyasi va energiya ta’minoti tizimi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Ayniqsa, 2020-yildan keyingi sport fiziologiyasi va biomexanika sohasidagi tadqiqotlar tezlikni rivojlantirishda integrativ yondashuv – ya’ni jismoniy, neyron va kognitiv komponentlarni birgalikda rivojlantirish muhim ekanligini ta’kidlamoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, an’anaviy mashg‘ulot usullarini zamonaviy texnologiyalar va ilmiy asoslangan metodikalar bilan boyitish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Tezlik sifatining mazmuni va uning tarkibiy qismlari. Tezlik sifati – bu sportchining qisqa vaqt ichida harakatni maksimal darajada tez bajarish qobiliyatidir. Ilmiy manbalarda tezlik quyidagi tarkibiy qismlarga ajratiladi:

- reaksiya tezligi
- yakka harakat tezligi
- harakat chastotasi
- maksimal tezlik
- tezlik-kuch qobiliyati

So‘nggi tadqiqotlarga ko‘ra (Bompa & Buzzichelli, 2021; Morin et al., 2022), sprinter tezligining asosiy belgilovchi omillari quyidagilardan iborat:

1. **Qadam uzunligi va chastotasi muvozanati**
2. **Gorizontal kuch ishlab chiqarish qobiliyati**
3. **nerv-mushak tizimining reaktivligi**

Bu esa tezlikni rivojlantirishda faqat yugurishni ko‘paytirish yetarli emasligini, balki maxsus mashqlar tizimini qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi.

Tezlikni rivojlantirishning an’anaviy usullari. An’anaviy sport amaliyotida tezlikni rivojlantirish uchun quyidagi usullar keng qo‘llaniladi:

1. Qisqa masofali takroriy yugurishlar

30–60 metrga maksimal tezlikda yugurishlar sprinterning asosiy mashqlaridan biri hisoblanadi. Bu usul nerv tizimini faollashtiradi va harakat avtomatizmini shakllantiradi.

2. Start tezligini oshirish mashqlari

Past startdan chiqish texnikasini takomillashtirish orqali birinchi 10–30 metrdagi tezlanish oshiriladi.

3. Qiyalikda yugurish

Yuqoriga yugurish kuchni, pastga yugurish esa harakat chastotasini oshiradi.

4. Pliometrik mashqlar

Sakrashlar, portlovchi harakatlar mushaklarning tezkor kuchini
rivojlantiradi.

Biroq, bu usullar zamonaviy talablar nuqtai nazaridan yetarli emas.

Shu bois yangi ilmiy yondashuvlar ishlab chiqilmoqda.

Zamonaviy tadqiqotlar asosida tezlikni rivojlantirish

Usullari. So‘nggi yillarda sport ilmida bir qator innovatsion usullar ishlab chiqildi. Ularning ayrimlari quyida keltiriladi:

1. Neyromushak tayyorgarligi (Neuromuscular training)

Zamonaviy tadqiqotlar (Behm, 2021) shuni ko‘rsatmoqdaki, tezlik nerv tizimining signal uzatish tezligiga bevosita bog‘liq. Shuning uchun:

- reaksiyani rivojlantiruvchi mashqlar
- vizual signallarga javob mashqlari
- koordinatsion treninglar

katta ahamiyatga ega.

2. Rezistiv va assistiv yugurish (Resisted & Assisted Sprinting)

Bu usulda:

- parashut bilan yugurish
- rezina tasmalar bilan qarshilikda yugurish
- maxsus qurilmalar orqali tezlikni oshirish

qo‘llaniladi.

Tadqiqotlarga ko‘ra (Petrakos et al., 2022), bu usullar gorizontal kuchni oshirish orqali maksimal tezlikni yaxshilaydi.

3. Biomexanik tahlil asosida mashg‘ulot

Hozirgi kunda videotahlil, sensorlar va AI texnologiyalari orqali sportchining harakat texnikasi tahlil qilinadi.

Bu orqali:

- qadam uzunligi
- yerga bosish vaqti
- kuch taqsimoti

aniqlanadi va individual mashg‘ulot dasturi tuziladi.

4. Sprint texnikasini mikrotahlil qilish

Morin va hamkorlari tadqiqotlariga ko‘ra, tezlikni oshirishda qadam texnikasini mayda detallarigacha tahlil qilish muhim:

- tana holati
- tizza burilishi
- qo‘l harakatlari

Energetik va fiziologik omillar

Qisqa masofaga yugurishda asosiy energiya manbai – **ATF-KF (fosfagen) tizimi** hisoblanadi. Shuning uchun:

- mashg‘ulotlar qisqa va intensiv bo‘lishi kerak
- dam olish intervallari to‘liq tiklanishga yo‘naltirilishi lozim

Zamonaviy fiziologik tadqiqotlar (Iaia & Bangsbo, 2021) shuni ko‘rsatadiki:

- yuqori intensivlikdagi interval mashg‘ulotlar
- mushak tolalari (II tip) faollashuvi

tezlikni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Psixologik omillarning ahamiyati

Sprinterlar uchun:

- diqqatni jamlash
- startda reaksiya
- stressni boshqarish

juda muhim.

Zamonaviy sport psixologiyasida “mental rehearsal” (aqliy mashqlar) usuli keng qo‘llanilmoqda. Bu usul orqali sportchi harakatni ongda tasavvur qilib, nerv tizimini tayyorlaydi. Qisqa masofaga yugurishda tezlik sifatini rivojlantirish ko‘p omilli va murakkab jarayon hisoblanadi. An’anaviy usullar muayyan darajada samara bersa-da, zamonaviy ilmiy tadqiqotlar ularni takomillashtirish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Ayniqsa, quyidagi yo‘nalishlar ustuvor ahamiyatga ega:

- neyromushak tayyorgarligini rivojlantirish
- biomexanik tahlil asosida individual mashg‘ulot
- rezistiv va assistiv yugurish usullarini qo‘llash
- psixologik tayyorgarlikni kuchaytirish

Shuningdek, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali mashg‘ulot jarayonini samarali tashkil etish imkoniyati kengaymoqda. Bu esa kelajakda sprinterlarni tayyorlashda yangi bosqichni shakllantiradi.

Tezlikni rivojlantirish usullarini ta’lim jarayoniga joriy etish yo‘nalishlari

Tezlikni rivojlantirish usullarini ta’lim jarayoniga tatbiq etishda quyidagi asosiy yo‘nalishlar ajratiladi:

1. Dars jarayonida tizimli qo‘llash

Jismoniy tarbiya darslarida tezlikni rivojlantirish mashqlari alohida bosqich sifatida emas, balki umumiy mashg‘ulot tizimiga integratsiya qilingan holda o‘tkazilishi lozim. Masalan:

- darsning kirish qismida reaksiya mashqlari
- asosiy qismida sprint yugurishlar
- yakun qismida tiklanish mashqlari

Bu yondashuv o‘quvchilarda tezlikni tabiiy va bosqichma-bosqich rivojlantirish imkonini beradi.

2. Yosh va individual xususiyatlarni hisobga olish

Zamonaviy tadqiqotlarga ko‘ra, tezlik qobiliyati ayniqsa 10–16 yosh oralig‘ida tez rivojlanadi. Shuning uchun ta’lim jarayonida:

- mashqlar hajmi va intensivligi individuallashtiriladi
- o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasi hisobga olinadi

Bu esa ortiqcha yuklamalarning oldini oladi va samaradorlikni oshiradi.

3. Innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish

Ta’lim jarayonida quyidagi texnologiyalar samarali hisoblanadi:

- video tahlil (harakat texnikasini ko‘rish va tahlil qilish)
- taymer va sensorlar orqali natijani o‘lchash
- raqobatli va o‘yin usullari

Bu usullar o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi va mashg‘ulot samaradorligini kuchaytiradi.

Tezlikni rivojlantirish usullarining natijadorligi

Tezlik mashqlarini ta’lim jarayonida to‘g‘ri qo‘llash quyidagi ijobiy natijalarga olib keladi:

1. Jismoniy ko‘rsatkichlarning oshishi

Ilmiy tadqiqotlar (2021–2023-yillar) natijalariga ko‘ra:

- 30 m va 60 m yugurish natijalari yaxshilanadi
- reaksiya vaqti qisqaradi
- harakat tezligi ortadi

Bu esa o‘quvchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligini oshiradi.

2. Nerv-mushak tizimining rivojlanishi

Tezlik mashqlari nerv tizimining faolligini oshiradi. Natijada:

- signal uzatish tezligi yaxshilanadi
- koordinatsiya rivojlanadi
- harakat aniqligi oshadi

Bu holat nafaqat sportda, balki kundalik hayotda ham muhim ahamiyatga ega.

3. Motivatsiya va qiziqishning oshishi

Tezlikka oid mashqlar, ayniqsa raqobat elementlari bilan birga qo‘llanilganda, o‘quvchilarda:

- sportga qiziqish
- o‘z ustida ishlash istagi
- raqobatbardoshlik

kabi sifatlarni shakllantiradi.

4. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish

Tezlik mashqlari orqali o‘quvchilarda:

- faol hayot tarzi
- intizom
- o‘zini nazorat qilish

kabi muhim ko‘nikmalar rivojlanadi.

Samaradorlikni oshirish shartlari

Tezlikni rivojlantirish usullarining ta’limda yuqori natija berishi quyidagi shartlarga bog‘liq:

1. Ilmiy asoslangan rejalashtirish

Mashg‘ulotlar tizimli va bosqichma-bosqich tashkil etilishi lozim.

2. To‘g‘ri yuklama taqsimoti

Ortiqcha charchashning oldini olish uchun dam olish intervallari hisobga olinadi.

3. Texnikaga e’tibor

Noto‘g‘ri texnika tezlikni cheklaydi, shuning uchun har bir harakat o‘rgatiladi.

4. Qayta aloqa (feedback)

O‘qituvchi tomonidan doimiy tahlil va tavsiyalar berilishi muhim.

5. Zamonaviy vositalardan foydalanish

Texnologiyalar orqali natijalarni aniq baholash samaradorlikni oshiradi.

Amaliy tavsiyalar

Ta’lim jarayonida quyidagi mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiq:

- 20–30 m maksimal tezlikda yugurish
- signal bo‘yicha start mashqlari
- qadam chastotasini oshirish mashqlari
- yengil qarshilik bilan yugurish
- pliometrik sakrashlar

Bu mashqlar kompleks ravishda qo‘llanilganda yuqori natija beradi.

Xulosa. Qisqa masofaga yuguruvchilarda tezlik sifatini rivojlantirish usullarini ta’lim jarayoniga samarali joriy etish – bu zamonaviy jismoniy tarbiya tizimining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, tizimli, individual va innovatsion yondashuv asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar yuqori natijalarga olib keladi.

Shuningdek, tezlik mashqlari nafaqat jismoniy sifatlarni, balki shaxsning irodaviy, psixologik va ijtimoiy xususiyatlarini ham rivojlantiradi. Bu esa ta’lim jarayonining umumiy samaradorligini oshiradi va sog‘lom, faol avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Usmanxodjayev T.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Toshkent 2021.
2. Karimov F.A. Yosh sportchilarda tezlik va kuch sifatlarini rivojlantirish metodikasi. –Toshkent: 2022.
3. Normurodov B.B. Sport mashg‘ulotlari nazariyasi. –Samarqand: 2020.
4. Raximov A.A. Yengil atletika va uni o‘qitish metodikasi. –Toshkent: 2021.
5. Abdullayev Sh.Sh. Jismoniy tarbiyada innovatsion texnologiyalardan foydalanish. –Toshkent: 2023.
6. Bompa, T.O., Buzzichelli, C. Periodization: Theory and Methodology of Training. Human Kinetics, 2021.
7. Morin J.B., Samozino P., Murata M. Sprint Acceleration Mechanics: The Major Role of Hamstrings in Horizontal Force Production. Frontiers in Physiology, 2022.
8. Petrakos G., Morin J.B., Egan B. Resisted Sled Sprint Training to Improve Sprint Performance: A Systematic Review. Sports Medicine 2022.
9. Behm D.G. Neuromuscular Training and Adaptations in Youth Athletes. Sports Medicine, 2021.
10. Iaia F.M., Bangsbo J. Speed Endurance Training is a Powerful Stimulus for Physiological Adaptations and Performance Improvements. Scandinavian Journal of Medicine & Science in Sports, 2021.
11. Loturco I., Jeffreys I. Acceleration Training: A Practical Approach to Enhance Sprint Performance. Strength & Conditioning Journal, 2021.
12. Haugen T., Tønnessen E., Seiler S. Speed and Sprint Training in Elite Athletes: Scientific Basis and Practical Applications. Sports Medicine, 2020.
13. Clark K.P., Weyand, P.G. Are Running Speeds Maximized with Simple-Spring Mechanics?. Journal of Applied Physiology, 2020.
14. Young W., Turner, B. Training for Speed, Agility, and Quickness. Human Kinetics, 2021.
15. Cross M.R., Brughelli M., Samozino P. Methods of Power-Force-Velocity Profiling in Sprinting. International Journal of Sports Physiology and Performance. 2022.

GIMNASTIKA VOSITALARI ASOSIDA KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Saidova Mahbuba Ayubovna,
Osiyo Xalqaro Universiteti Jismoniy madaniyat kafedrasi o‘qituvchisi
mahubasaidova@gmail.com

This article analyzes the methodological foundations of developing professional competence of future physical education teachers through the use of gymnastic equipment. The study is based on the integration of systemic, competency-based, and activity-oriented approaches, highlighting the didactic and pedagogical potential of gymnastic tools in the educational process. The components of professional competence, including cognitive (gnostic), motor, methodological, communicative, and reflective aspects, are identified and evaluated through experimental methods. The results demonstrate that the effective use of gymnastic equipment significantly enhances the professional training and pedagogical readiness of future teachers.

Keywords: *gymnastic equipment, professional competence, physical education teacher, methodological approach, didactic potential, motor competence, methodological competence, communicative competence, reflective competence, pedagogical process, learning effectiveness.*

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ НА ОСНОВЕ СРЕДСТВ ГИМНАСТИКИ

В данной статье анализируются методологические основы формирования профессиональной компетентности будущих учителей физической культуры на основе гимнастических средств. В исследовании на основе интеграции системного, компетентностного и деятельностного подходов раскрыты дидактические и педагогические возможности гимнастических средств. Определены гностический, моторный, методический, коммуникативный и рефлексивный компоненты профессиональной компетентности, а также проведена их экспериментальная оценка. Полученные результаты свидетельствуют о том, что эффективное использование гимнастических средств способствует повышению уровня профессиональной подготовки будущих учителей.

Ключевые слова: *гимнастические средства, профессиональная компетентность, учитель физической культуры, методологический подход, дидактические возможности, моторная компетенция, методическая компетенция, коммуникативная компетенция, рефлексивная компетенция, педагогический процесс, эффективность обучения.*

METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF FORMING PROFESSIONAL COMPETENCE BASED ON GYMNASTICS MEANS

Mazkur maqolada gimnastika vositalari asosida bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishning metodologik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda sistemali, kompetentli va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlar integratsiyasi asosida gimnastika vositalarining didaktik va pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Kasbiy kompetentlikning gnostik, motorik, metodik, kommunikativ va reflektiv komponentlari aniqlanib, ularning rivojlanish dinamikasi eksperimental asosda baholangan. Olingan natijalar gimnastika vositalaridan samarali foydalanish bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda muhim omil ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *gimnastika vositalari, kasbiy kompetentlik, jismoniy madaniyat o‘qituvchisi, metodologik yondashuv, didaktik imkoniyatlar, motorik kompetensiya, metodik kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, reflektiv kompetensiya, pedagogik jarayon, ta’lim samaradorligi.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish muammosi pedagogika fanining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida alohida ilmiy ahamiyat kasb etmoqda. Global ta’lim makonida kompetentlikka asoslangan yondashuvning keng joriy etilishi o‘qituvchi shaxsiga qo‘yilayotgan talablarni tubdan yangilab, uni nafaqat bilim beruvchi subyekt, balki pedagogik jarayonni loyihalovchi, boshqaruvchi va reflektiv tahlil qiluvchi faol shaxs sifatida talqin etishni taqozo etmoqda.

Jismoniy madaniyat ta’limi tizimida ushbu jarayon yanada murakkab xarakterga ega bo‘lib, o‘qituvchidan nazariy bilimlar bilan bir qatorda yuqori darajadagi amaliy-motorik tayyorgarlik, metodik kompetensiya, kommunikativ qobiliyat va pedagogik refleksiya talab etiladi. Shu nuqtai nazardan, kasbiy

kompetentlikni shakllantirish masalasi ko‘p komponentli, tizimli va integrativ yondashuvni talab qiluvchi murakkab pedagogik jarayon sifatida qaraladi.

Mazkur jarayonda gimnastika vositalari muhim pedagogik resurs sifatida namoyon bo‘lib, ular nafaqat jismoniy sifatlarni rivojlantirish, balki bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatiga xos metodik, tashkiliy va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, gimnastika vositalari orqali tashkil etilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarning harakat faolligini oshirish, o‘quv jarayoniga faol jalb etish hamda motivatsiyani kuchaytirishda yuqori samaradorlikka ega.

Gimnastika vositalarining pedagogik imkoniyatlari ularning ko‘p funksionalligi bilan belgilanadi. Ular didaktik jihatdan harakat malakalarini bosqichma-bosqich shakllantirishga xizmat qilsa, tarbiyaviy nuqtai nazardan intizom, mas’uliyat va jamoaviylik kabi sifatlarni rivojlantiradi. Shu bilan birga, sog‘lomlashtiruvchi funksiyasi orqali organizmning funksional holatini yaxshilaydi, motivatsion jihatdan esa o‘quvchilarda jismoniy faoliyatga nisbatan qiziqishni kuchaytiradi. Eng muhimi, gimnastika vositalari o‘qituvchining metodik faoliyatini boyitib, darsni ilmiy asosda loyihalash va samarali tashkil etish imkonini yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim va sport sohasida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar ham mazkur yo‘nalishning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Xususan, pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini yangi sifat darajasiga ko‘tarishni talab etmoqda.

Ilmiy manbalarda kasbiy kompetentlik tushunchasi o‘qituvchining bilim, ko‘nikma, malaka, qadriyat va shaxsiy sifatlarining integratsiyalashgan tizimi sifatida talqin etiladi. Xususan, zamonaviy tadqiqotlarda kasbiy kompetentlik gnostik, motorik, metodik, kommunikativ va reflektiv komponentlar birligida qaralib, ularning o‘zaro uyg‘unligi o‘qituvchi faoliyatining samaradorligini belgilovchi asosiy omil sifatida e’tirof etiladi. Bu esa kasbiy tayyorgarlik jarayonida nafaqat bilim berish, balki kompetensiyalarni kompleks shakllantirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy-pedagogik tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, gimnastika vositalarining kasbiy kompetentlikni shakllantirishdagi imkoniyatlari yetarli darajada tizimli va metodologik jihatdan to‘liq ochib berilmagan. Ayniqsa, ularning ta’lim jarayonidagi funksional o‘rni, metodik integratsiyasi va kompetensiyaviy natijalarga ta’siri masalalari chuqur ilmiy asoslashni talab etadi.

Mazkur holat, o‘z navbatida, gimnastika vositalari asosida bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishning metodologik asoslarini ishlab chiqish, ularning pedagogik imkoniyatlarini tizimli tahlil qilish hamda ta’lim amaliyotiga tatbiq etishning ilmiy zaruratini belgilaydi.

Shu asosda, ushbu maqolaning maqsadi – gimnastika vositalari asosida kasbiy kompetentlikni shakllantirishning metodologik asoslarini ilmiy jihatdan asoslash, ularning didaktik va pedagogik imkoniyatlarini aniqlash hamda zamonaviy ta’lim jarayonidagi o‘rnini tizimli tahlil qilishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili: Bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish muammosi zamonaviy pedagogika fanida keng qamrovli tadqiq etilayotgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mazkur muammo ko‘p komponentli yondashuv asosida o‘rganilib, o‘qituvchi faoliyatining samaradorligi uning kasbiy kompetentligining shakllanish darajasi bilan bevosita bog‘liqdir.

Xalqaro tadqiqotlarda kasbiy kompetentlik tushunchasi integrativ xarakterga ega bo‘lib, u bilim, amaliy ko‘nikma, shaxsiy sifatlar va reflektiv faoliyatning o‘zaro uyg‘unlashgan tizimi sifatida talqin etiladi. Jumladan, L. Baumgartner tomonidan ishlab chiqilgan Compe-PET modeli jismoniy madaniyat o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini gnostik, motorik, metodik, kommunikativ va reflektiv komponentlar birligida tizimlashtiradi. Mazkur model o‘qituvchining nafaqat nazariy tayyorgarligini, balki uning amaliy va pedagogik faoliyatini kompleks baholash imkonini beradi.

Sport pedagogikasi sohasidagi ilmiy ishlarda gimnastika vositalarining o‘quv jarayonidagi ahamiyati alohida ta’kidlangan. Xususan, K. Armour tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda gimnastika vositalari o‘quvchilarning motorik faolligini oshirish, dars jarayonida faol ishtirokni ta’minlash va motivatsiyani kuchaytiruvchi samarali pedagogik vosita sifatida baholanadi. Bu esa ularning nafaqat jismoniy rivojlanish, balki pedagogik kompetensiyalarni shakllantirishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi.

Mahalliy va MDH olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham gimnastika vositalarining didaktik va metodik imkoniyatlari keng yoritilgan. Jumladan, L.P. Matveev va V.P. Filin tomonidan gimnastikaning ta’limiy, tarbiyaviy va sog‘lomlashtiruvchi funksiyalari ilmiy asoslab berilgan bo‘lib, ular

gimnastika mashg‘ulotlari orqali o‘qituvchilarda koordinatsiya, xavfsizlik madaniyati va metodik aniqlikni shakllantirish mumkinligini ta’kidlaydi.

Shuningdek, A. Umarov va M. Fethullova tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy-metodik ishlarda gimnastika vositalarining turlari, ularning o‘quv jarayonidagi o‘rni hamda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishdagi roli nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotlarda predmetli va jihozli vositalardan foydalanish o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirishi, darsni tashkil etish samaradorligini kuchaytirishi hamda o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishi ilmiy jihatdan asoslangan.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishda sistemali, kompetentli va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlarning integratsiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Sistemali yondashuv o‘quv jarayonini yaxlit tizim sifatida tashkil etishni ta’minlasa, kompetentli yondashuv bilimlarni amaliyotga tatbiq etishga yo‘naltiradi, faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv esa real pedagogik vazifalarni bajarish orqali kasbiy ko‘nikmalarni mustahkamlaydi.

Xalqaro standartlar, xususan UNESCO va Yevropa malaka tizimi (EQF) doirasidagi tadqiqotlarda ham o‘qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar, reflektiv faoliyat va amaliy yo‘naltirilgan ta’lim muhim omil sifatida qayd etiladi. Bu esa gimnastika vositalaridan foydalanish orqali shakllanadigan kompetensiyalarning zamonaviy ta’lim talablariga to‘liq mos kelishini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda gimnastika vositalarining kasbiy kompetentlikni shakllantirishdagi metodologik asoslari yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Ayniqsa, ularning kompetensiyaviy komponentlarga ta’siri, pedagogik jarayondagi funksional integratsiyasi hamda o‘qituvchining kasbiy rivojlanishiga ta’sir mexanizmlari chuqur ilmiy tadqiqotni talab etadi.

Mazkur holat ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligi va dolzarbligini belgilab, gimnastika vositalari asosida kasbiy kompetentlikni shakllantirishning metodologik asoslarini ishlab chiqish zaruratini asoslaydi.

Muhokama va natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, gimnastika vositalari asosida tashkil etilgan o‘quv jarayoni bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega bo‘ldi. Ayniqsa, metodik jihatdan to‘g‘ri tanlangan vositalar va ularni tizimli qo‘llash talabalar faoliyatida sezilarli ijobiy o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi.

Eksperimental jarayonda gimnastika vositalaridan foydalanish asosida ishlab chiqilgan metodik yondashuvlar talabalar tomonidan amaliy faoliyatda muvaffaqiyatli qo‘llanildi. Natijada, ularning harakat faoliyati, mashqlarni bajarish texnikasi, darsni tashkil etish ko‘nikmalari hamda pedagogik qaror qabul qilish qobiliyati sezilarli darajada rivojlandi. Bu esa motorik va metodik kompetensiyalarning shakllanishi va mustahkamlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatdi.

Shuningdek, tadqiqot davomida gimnastika vositalari yordamida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalar o‘rtasida kommunikativ muhitni yaxshilash, jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda pedagogik muloqotni samarali tashkil etishga xizmat qilgani aniqlandi. Guruhli mashqlar, interaktiv topshiriqlar va vositalarga asoslangan faoliyat shakllari talabalar faolligini oshirib, ularning dars jarayonidagi ishtirokini kuchaytirdi.

Reflektiv kompetensiya ham tadqiqot natijasida sezilarli darajada rivojlangan komponentlardan biri sifatida namoyon bo‘ldi. Talabalar tomonidan dars jarayonini tahlil qilish, o‘z faoliyatini baholash, xatolarni aniqlash va kelgusidagi faoliyatni takomillashtirishga qaratilgan reflektiv yondashuvlar shakllandi. Bu esa ularning mustaqil pedagogik fikrlash va o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyatini oshirdi.

Olingan natijalar ilmiy adabiyotlarda keltirilgan nazariy qarashlar bilan hamohang ekanligi kuzatildi. Xususan, gimnastika vositalarining didaktik, tarbiyaviy, sog‘lomlashtiruvchi va motivatsion funksiyalari tadqiqot davomida amaliy jihatdan o‘z tasdig‘ini topdi. Ularning kompleks qo‘llanilishi o‘quv jarayonini yanada samarali tashkil etish, dars mazmunini boyitish hamda kompetensiyaviy natijalarga erishishda muhim omil bo‘lib xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari shuni ham ko‘rsatdiki, gimnastika vositalaridan foydalanish asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalar motivatsiyasini sezilarli darajada oshirdi. Amaliy faoliyatga asoslangan yondashuv, ko‘rgazmalilik va interaktivlik elementlarining mavjudligi talabalarni faol ishtirok etishga undadi hamda ularning kasbiy qiziqishini kuchaytirdi.

Shu bilan birga, natijalar tahlili gimnastika vositalarining pedagogik jarayonda faqat jismoniy rivojlantirish vositasi emas, balki kasbiy kompetensiyalarni shakllantiruvchi universal pedagogik resurs sifatida namoyon bo‘lishini tasdiqladi. Ayniqsa, ularning metodik jihatdan to‘g‘ri integratsiyasi o‘qituvchining kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari gimnastika vositalari asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini kompleks rivojlantirishga xizmat

qilishini, ularning pedagogik faoliyatga tayyorgarlik darajasini oshirishda samarali vosita ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

Tadqiqot jarayonida gimnastika vositalari asosida tashkil etilgan pedagogik ta’sirning samaradorligi kasbiy kompetentlikning asosiy komponentlari kesimida tahlil qilindi. Olingan natijalar eksperimental va nazorat guruhlari ko‘rsatkichlari asosida solishtirildi.

Kasbiy kompetentlik komponentlari bo‘yicha natijalar dinamikasi (%)

1-jadval.

№	Kompetentlik komponenti	Boshlang‘ich daraja	Yakuniy daraja	O‘sish (%)
1	Gnostik	52	71	+19
2	Motorik	48	76	+28
3	Metodik	46	74	+28
4	Kommunikativ	50	72	+22
5	Reflektiv	44	70	+26



Mazkur natijalar shuni ko‘rsatadiki, eng yuqori o‘sish **motorik va metodik kompetensiyalar**da kuzatildi. Bu holat gimnastika vositalarining amaliy yo‘naltirilganligi bilan izohlanadi

Kasbiy kompetentlik komponentlarining o‘sish dinamikasi

1-grafik.



(Boshlang‘ich → Yakuniy)

(GN–gnostik, MO–motorik, ME–metodik, KO–kommunikativ, RE–reflektiv)

Grafik tahlil shuni ko‘rsatadiki, barcha komponentlar bo‘yicha ijobiy o‘sish kuzatilgan bo‘lib, bu gimnastika vositalarining kompleks pedagogik ta’sirini tasdiqlaydi.

Gimnastika vositalarining kompetensiyalarga ta’siri

2-jadval.

Vosita turi	Asosiy ta’sir komponenti	Pedagogik natija
Predmetli vositalar	Motorik, metodik	Harakat aniqligi oshadi
Jihozli vositalar	Metodik, kommunikativ	Dars tashkiloti yaxshilanadi
Akrobatik mashqlar	Motorik, reflektiv	Koordinatsiya va nazorat rivojlanadi
Relaksatsion mashqlar	Reflektiv, sog‘lomlashtiruvchi	Psixofiziologik barqarorlik

Ushbu jadval gimnastika vositalarining har bir turi ma’lum kompetensiyaga yo‘naltirilganligini ko‘rsatadi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, gimnastika vositalari asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni kasbiy kompetentlikning barcha komponentlariga kompleks ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, metodik va motorik komponentlarda kuzatilgan yuqori o‘sish darajasi ushbu vositalarning amaliy va didaktik imkoniyatlari bilan izohlanadi.

Kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishi guruhli mashg‘ulotlar va interaktiv metodlar orqali ta’minlandi. Bu esa pedagogik muloqot va jamoaviy faoliyatni samarali tashkil etish ko‘nikmalarini shakllantirdi. Reflektiv kompetensiyaning o‘sishi esa darsdan keyingi tahlil, o‘z-o‘zini baholash va refleksiya elementlarining joriy etilishi bilan bog‘liq ekanligi aniqlandi.

Natijalar ilmiy manbalarda keltirilgan nazariy qarashlar bilan mos keladi. Xususan, gimnastika vositalarining didaktik, motivatsion va metodik funksiyalari amaliy tajribada o‘z tasdig‘ini topdi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari gimnastika vositalari bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda samarali pedagogik vosita ekanligini statistik va amaliy jihatdan tasdiqlaydi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

Birinchidan, bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u ko‘p komponentli va integrativ pedagogik jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Kasbiy kompetentlik gnostik, motorik, metodik, kommunikativ va reflektiv komponentlar birligida shakllanib, ularning o‘zaro uyg‘unligi pedagogik faoliyat samaradorligini belgilaydi.

Ikkinchidan, gimnastika vositalari ta’lim jarayonida universal pedagogik resurs sifatida namoyon bo‘lib, ular orqali nafaqat jismoniy sifatlar, balki kasbiy-pedagogik kompetensiyalarni ham kompleks rivojlantirish imkoniyati mavjud. Ularning didaktik, tarbiyaviy, sog‘lomlashtiruvchi, motivatsion va metodik funksiyalari o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, sistemali, kompetentli va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlarning integratsiyasi gimnastika vositalari asosida kasbiy kompetentlikni shakllantirishning metodologik asosini tashkil etadi. Mazkur yondashuvlar o‘quv jarayonini ilmiy asosda loyihalash, amaliy faoliyat bilan bog‘lash va reflektiv tahlilni ta’minlash imkonini beradi.

To‘rtinchidan, pedagogik eksperiment natijalari gimnastika vositalari asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalar kasbiy kompetentligining barcha komponentlari bo‘yicha sezilarli o‘sishni ta’minlaganligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, motorik va metodik kompetensiyalarda yuqori natijalar qayd etildi, bu esa mazkur vositalarning amaliy va metodik ahamiyatini tasdiqlaydi.

Beshinchidan, gimnastika vositalaridan foydalanish o‘quv jarayonida talabalar motivatsiyasini oshiradi, pedagogik muloqotni faollashtiradi hamda reflektiv faoliyatni rivojlantiradi. Bu esa o‘qituvchining mustaqil pedagogik fikrlash va kasbiy o‘sish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. (1997). Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.–Toshkent: “Ma’naviyat”/ 2010
2. Saidova M.A. O‘zbekiston oliy ta’limida gimnastika fanining bugungi holati va rivojlanish istiqbollari. – *Osiyo xalqaro universiteti axborotnomasi*, 2025.
3. Saidova M. A. (2023). Effects of gymnastics on fundamental motor skills (FMS). *Modern Science and Research*.
4. Saidova M. A. (2024). Principles and models of physical education. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*.
5. Saidova M. A. (2023). Physical education and sports training are an integral part of a healthy lifestyle. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies*.
6. Saidova M. A. (2023). The pedagogical category of physical exercise. Spatial exercises. *Research Journal of Trauma and Disability Studies*.
7. Saidova M. A. (2022). Features of application of sports games in preschool children. *International Journal of Culture and Modernity*.
8. Saidova M. A. (2021). Semantic analysis of literary terms. *Philology Matters*.
9. Saidova M. A. (2025). O‘zbekiston oliy ta’limida gimnastika fanining bugungi holati va rivojlanish istiqbollari. *Osiyo xalqaro universiteti axborotnomasi*.
10. Saidova M. A. (2025). Development of professional competence of future physical education teachers based on gymnastic means. *Development of Science*.
11. Saidova M. A. (2025). Psychological training in gymnastics. *Pedagogik tadqiqotlar jurnali*.
12. Saidova M. A. (2025). High in education gymnastics lessons education technology. *Pedagogik tadqiqotlar jurnali*.

BOSQON ULOQTIRISH TEXNIKASINI O‘RGATISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH (OLIY O‘QUV YURTI TALABALARI MISOLIDA)

Saidova Sarvinoz Iskandar qizi,
Osiyo Xalqaro Universiteti
Jismoniy madaniyat kafedrasi o‘qituvchisi
saidovasarvinoz@oxu.uz

Mazkur maqolada oliy o‘quv yurti talabalari uchun bosqon uloqtirish texnikasini o‘rgatish metodikasini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Tadqiqot jarayonida yengil atletika mashqlari asosida ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligi tajriba - sinov ishlari orqali asoslab berildi. Natijalar talabalarning texnik tayyorgarligi va jismoniy sifatlari sezilarli darajada oshganligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar. *bosqon uloqtirish, yengil atletika, jismoniy sifatlar, metodika, talabalar, texnik tayyorgarlik, pedagogik tajriba*

IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING HAMMER THROW TECHNIQUE (ON THE EXAMPLE OF UNIVERSITY STUDENTS)

This article discusses the improvement of the methodology for teaching hammer throw technique to university students. During the study, the effectiveness of the developed methodology based on athletics exercises was substantiated through pedagogical experimental research. The results showed a significant improvement in students’ technical performance and physical qualities.

Keywords: *Hammer throw, athletics, physical qualities, methodology, students, technical training, pedagogical experiment.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ОБУЧЕНИЯ ТЕХНИКЕ МЕТАНИЯ МОЛОТА (НА ПРИМЕРЕ СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ)

В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования методики обучения технике метания молота у студентов высших учебных заведений. В ходе исследования эффективность разработанной методики, основанной на легкоатлетических упражнениях, была обоснована с помощью педагогического эксперимента. Полученные результаты показали значительное улучшение технической подготовленности и физических качеств студентов.

Ключевые слова: *Метание молота, лёгкая атлетика, физические качества, методика, студенты, техническая подготовка, педагогический эксперимент.*

Kirish. Zamonaviy jismoniy tarbiya tizimida talabalar jismoniy tayyorgarligini oshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, yengil atletika mashqlari orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish samarali vosita sifatida e’tirof etiladi. Shu nuqtai nazardan bosqon uloqtirish texnikasini o‘rgatish metodikasini takomillashtirish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida qaraladi.

Amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, talabalar orasida bosqon uloqtirish texnikasini o‘zlashtirish darajasi yetarli emas. Bu esa mashg‘ulotlarning an’anaviy usullar asosida olib borilishi, individual yondashuvning yetishmasligi va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning kam qo‘llanilishi bilan izohlanadi.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning jismoniy tayyorgarlik darajasi ko‘p hollarda yetarli darajada emas. Ayniqsa, kuch, tezkorlik va koordinatsiya kabi jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasi pastligi kuzatilmoqda. Bu holat talabalarning jismoniy faolligining kamayishi, o‘quv yuklamalarining ortishi hamda mashg‘ulotlarda samarali metodik yondashuvlarning yetarli darajada qo‘llanilmasligi bilan izohlanadi.

Shu bilan birga, bosqon uloqtirish texnikasini o‘rgatish jarayoni murakkab koordinatsion harakatlar majmuasidan iborat bo‘lib, u nafaqat jismoniy sifatlarning rivojlanganligini, balki harakatlarni aniq boshqarish, fazoviy orientatsiya va muvozanatni saqlash kabi qobiliyatlarni ham talab etadi. Ushbu omillarni hisobga olgan holda texnikani o‘rgatish jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, mashg‘ulotlarda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bosqon uloqtirish texnikasini o‘rgatishda videoanaliz, biomekanik tahlil hamda individual yondashuv asosida mashg‘ulotlarni tashkil etish yuqori

samaradorlikni ta’minlaydi. Biroq ushbu yondashuvlar oliy o‘quv yurti talabalari bilan ishlash amaliyotida yetarli darajada joriy etilmagan.

Shu sababli oliy o‘quv yurti talabalariga bosqon uloqtirish texnikasini o‘rgatish metodikasini takomillashtirish, uni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish zarurati yuzaga keladi.

Ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, oliy o‘quv yurti talabalariga bosqon uloqtirish texnikasini o‘rgatishda videoanaliz, individual yondashuv hamda bosqichma-bosqich o‘qitish elementlarini o‘z ichiga olgan integratsiyalashgan metodik tizim ishlab chiqildi. Mazkur metodika texnik harakatlarni o‘zlashtirish jarayonini optimallashtirish hamda talabalar jismoniy va koordinatsion tayyorgarligini kompleks rivojlantirish imkonini beradi.

Tadqiqot maqsadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi oliy o‘quv yurti talabalariga bosqon uloqtirish texnikasini o‘rgatish jarayonini ilmiy-pedagogik asosda takomillashtirish, yengil atletika mashqlariga asoslangan samarali metodik tizimni ishlab chiqish hamda uning amaliy samaradorligini pedagogik tajriba-sinov ishlari orqali aniqlashdan iborat.

Shuningdek, tadqiqot doirasida talabalar jismoniy va texnik tayyorgarligini oshirishga qaratilgan metodik yondashuvlarni ishlab chiqish, texnik harakatlarni bosqichma-bosqich o‘zlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish hamda mashg‘ulot jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini integratsiya qilish orqali o‘quv-mashg‘ulotlar samaradorligini oshirish ko‘zda tutiladi.

Bundan tashqari, tadqiqotning maqsadi ishlab chiqilgan metodikaning talabalar jismoniy sifatlari (kuch, tezkorlik, koordinatsiya va chidamlilik) hamda texnik ko‘rsatkichlariga ta’sirini aniqlash, uning an’anaviy o‘qitish usullariga nisbatan ustunliklarini ilmiy asosda isbotlashdan iboratdir.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot jarayonida qo‘yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun o‘zaro uyg‘unlashgan ilmiy-pedagogik metodlar majmuasidan foydalanildi. Tanlangan metodlar tadqiqotning ishonchliligini ta’minlash, olingan natijalarni chuqur tahlil qilish hamda ilmiy xulosalar chiqarish imkonini berdi.

Pedagogik kuzatuv metodi orqali talabalarning mashg‘ulot jarayonidagi faoliyati, texnik harakatlarni bajarish darajasi hamda jismoniy tayyorgarlik holati muntazam ravishda o‘rganildi. Ushbu metod yordamida mashg‘ulotlar davomida yuzaga kelayotgan texnik xatolar aniqlanib, ularni bartaraf etish yo‘llari ishlab chiqildi.

Pedagogik tajriba (eksperiment) tadqiqotning asosiy metodlaridan biri bo‘lib, unda ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligi amaliy jihatdan sinovdan o‘tkazildi. Tajriba jarayonida talabalar nazorat va tajriba guruhlariga ajratilib, turli metodik yondashuvlar asosida mashg‘ulotlar tashkil etildi hamda ularning natijalari o‘zaro taqqoslandi.

Test sinovlari orqali talabalarning jismoniy sifatlari va texnik tayyorgarlik darajasi aniqlanib, ularning dinamikasi baholandi. Test natijalari tadqiqot boshida va yakunida qayd etilib, o‘zgarishlar miqdoriy ko‘rsatkichlar asosida tahlil qilindi.

Taqqoslash va tahlil metodlari yordamida olingan natijalar tizimli ravishda o‘rganildi, nazorat va tajriba guruhlari ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi farqlar aniqlanib, ilmiy xulosalar chiqarildi. Ushbu metodlar tadqiqot natijalarining ishonchliligini oshirish va ularni ilmiy asoslashda muhim ahamiyat kasb etdi.

№	Tadqiqot metodi	Mazmuni	Tadqiqotdagi vazifasi
1	Pedagogik kuzatuv	Mashg‘ulot jarayonida talabalar faoliyatini muntazam kuzatish	Texnik xatolarni aniqlash va tahlil qilish
2	Pedagogik tajriba	Nazorat va tajriba guruhlarida metodikani sinovdan o‘tkazish	Metodikaning samaradorligini aniqlash
3	Test sinovlari	Jismoniy sifatlar va texnik tayyorgarlikni baholash	Natijalarni miqdoriy baholash
4	Taqqoslash va tahlil	Olingan natijalarni solishtirish va ilmiy tahlil qilish	Nazorat va tajriba guruhlari farqini aniqlash

1-jadval

Mazkur jadvalda tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan asosiy metodlar va ularning mazmuni keltirilgan. Ushbu metodlar majmuasi tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta’minlash, olingan ma’lumotlarni chuqur tahlil qilish hamda ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkonini berdi.

Tadqiqot natijalari va muhokama. Tadqiqotda 18–22 yoshdagi jami 30 nafar talaba ishtirok etdi. Ular tasodifiy tanlash usuli asosida 2 guruhga ajratildi: nazorat guruhi (n=15) va tajriba guruhi (n=15). Tadqiqot davomida har ikkala guruh bir xil sharoitda mashg‘ulotlarda ishtirok etdi, biroq tajriba guruhida takomillashtirilgan metodika qo‘llanildi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari tajriba guruhida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar yuzaga kelganligini ko‘rsatdi. Xususan, tajriba guruhidagi talabalar tomonidan texnik harakatlarni bajarish aniqligi **15–20% ga oshganligi** qayd etildi. Bu esa ishlab chiqilgan metodikaning bosqon uloqtirish texnikasini o‘zlashtirish samaradorligini oshirishdagi yuqori ta’sirini ko‘rsatadi.

Shuningdek, tajriba guruhida uloqtirish masofasining sezilarli darajada ortganligi kuzatildi. Mazkur holat mushak kuchi, harakat koordinatsiyasi va texnik bajarish sifatining yaxshilanganligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, talabalar harakat fazalarini ongli ravishda tushunish va ularni to‘g‘ri bajarish ko‘nikmalarini egallaganliklari aniqlandi.

Nazorat guruhida esa ko‘rsatkichlarning o‘zgarishi nisbatan past darajada bo‘lib, bu an’anaviy metodikalarning samaradorligi cheklanganligini ko‘rsatadi. Taqqoslash natijalari shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, xususan, bosqichma-bosqich o‘rgatish, videoanaliz va individual yondashuv asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar texnik tayyorgarlikni sezilarli darajada oshiradi.

Fiziologik nuqtai nazardan qaraganda, kuzatilgan ijobiy o‘zgarishlar asab-mushak tizimi faoliyatining yaxshilanishi, mushaklararo koordinatsiyaning ortishi hamda harakatlarni boshqarish mexanizmlarining takomillashuvi bilan bog‘liqdir. Yengil atletika mashqlarining qo‘llanilishi kuch, tezkorlik va koordinatsiya kabi jismoniy sifatlarning kompleks rivojlanishiga xizmat qilgan.

Olingan natijalar ilgari o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar bilan hamohang bo‘lib, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni jismoniy tarbiya mashg‘ulotlariga integratsiya qilish samaradorligini yana bir bor tasdiqlaydi. Ayniqsa, videoanaliz vositalari orqali texnik xatolarni aniqlash va ularni tezkor bartaraf etish imkoniyati talabalar tomonidan texnikani chuqurroq o‘zlashtirishga yordam berdi.

Bundan tashqari, tajriba guruhidagi talabalarda mashg‘ulotlarga bo‘lgan qiziqish va motivatsiyaning ortganligi kuzatildi. Bu esa interaktiv va innovatsion yondashuvlarning nafaqat jismoniy, balki psixologik jihatdan ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, o‘tkazilgan tadqiqot natijalari ishlab chiqilgan metodikaning oliy o‘quv yurti talabalari uchun samarali ekanligini, ularning texnik va jismoniy tayyorgarligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilishini ko‘rsatdi.

2-jadval.

Ko‘rsatkichlar	Nazorat guruhi (boshlang‘ich)	Nazorat guruhi (yakuniy)	Tajriba guruhi (boshlang‘ich)	Tajriba guruhi (yakuniy)	O‘zgarish (%)
Texnik bajarish aniqligi (ball)	6.2	6.8	6.3	7.6	+15–20%
Uloqtirish masofasi (m)	6.5	6.9	6.4	7.8	+18–22%
Tezkorlik (30 m, sek)	5.2	5.0	5.1	4.6	+10–12%
Koordinatsiya (ball)	6.0	6.5	6.1	7.4	+15–18%
Kuch (max ko‘rsatkich)	70	75	72	85	+15–20%

2-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, tajriba guruhi ko‘rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori natijalarni qayd etgan. Ayniqsa, texnik bajarish aniqligi, uloqtirish masofasi va koordinatsiya ko‘rsatkichlarida sezilarli o‘sish kuzatildi. Bu esa ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini tasdiqlaydi.

Olingan natijalar matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlanib, guruhlar o‘rtasidagi farqlar statistik jihatdan ishonchli ekanligi aniqlandi ($p < 0.05$).

Qolaversa, Platonov (2020), Bompa (2018) va Zatsiorsky (2019) tadqiqotlari bilan mos keladi. Ushbu mualliflar sport texnikasini o‘rgatishda individual yondashuv va biomekanik tahlilning yuqori samaradorligini ta’kidlagan. Bizning tadqiqot natijalarimiz ham ushbu nazariy qarashlarni amaliy jihatdan tasdiqlaydi.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, oliy o‘quv yurti talabalariga bosqon uloqtirish texnikasini o‘rgatishda an’anaviy metodikalarga nisbatan yengil atletika mashqlariga asoslangan, bosqichma-bosqich va individual yondashuvga tayangan metodika yuqori samaradorlikni ta’minlaydi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari davomida tajriba guruhidagi talabalarda texnik harakatlarni bajarish aniqligi, uloqtirish masofasi hamda jismoniy sifatlar (kuch, tezkorlik va koordinatsiya) sezilarli darajada

yaxshilangani aniqlandi. Xususan, texnik bajarish ko‘rsatkichlarining 15–20% ga oshganligi ishlab chiqilgan metodikaning amaliy ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

- bosqon uloqtirish texnikasini o‘rgatishda tizimli va ilmiy asoslangan yondashuv zarur;
- mashg‘ulotlarda yengil atletika mashqlaridan kompleks foydalanish jismoniy sifatlarning uyg‘un rivojlanishini ta’minlaydi;
- individual yondashuv va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash texnik tayyorgarlikni sezilarli darajada oshiradi;
- videoanaliz va refleksiv yondashuv texnik xatolarni tezkor aniqlash va bartaraf etishda samarali vosita hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini takomillashtirish, talabalar jismoniy tayyorgarligini oshirish hamda bosqon uloqtirish texnikasini samarali o‘rgatish jarayonini tashkil etishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-noyabrdagi PQ-414-son Qarori.
3. Ашмарин Б.А. Теория и методика физического воспитания. – Москва, 2018.
4. Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры. – Москва, 2019.
5. Верхошанский Ю.В. Основы специальной физической подготовки спортсменов. – Москва, 2017.
6. Platonov V.N. System of athletes training. – Kyiv, 2020.
7. Bompa T.O. Theory and methodology of training. – USA, 2018.
8. Zatsiorsky V.M. Biomechanics of sport. – USA, 2019.
9. Ozolin N.G. Athletics. – Moscow, 2017.
10. Dick F.W. Sports training principles. – London, 2019.
11. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti ilmiy to‘plamlari. – Toshkent, 2022.
12. Karimov F.A. Yengil atletika nazariyasi va metodikasi. – Toshkent, 2021.
13. Rasulov A.A. Sport mashg‘ulotlari nazariyasi. – Toshkent, 2020.
14. Journal of Sports Science and Medicine. – 2023.
15. International Journal of Sports Physiology and Performance. – 2022.

YOSH VOLEYBOLCHILARNI TEXNIK-TAKTIK HARAKATLARINI SHAKLLANTIRISHDA SUN’IY INTELLEKT VOSITALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Xo‘janiyozov Boboxon Ixtiyorovich,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Sport o‘yinlari va uni o‘qitish metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

Ushbu maqolada yosh voleybolchilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda kompyuter ko‘rishi (Computer Vision), chuqur o‘rganish (Deep Learning), aqlli sensor tizimlari hamda virtual reallik texnologiyalarining sport mashg‘ulotlari jarayonida qo‘llanilishi ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari sun’iy intellekt texnologiyalarini voleybol mashg‘ulotlariga joriy etish sportchilarning texnik mahoratini oshirish, mashg‘ulot jarayonini optimallashtirish va sport natijalarini prognoz qilishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, voleybol, texnik tayyorgarlik, taktik tayyorgarlik, kompyuter ko‘rishi, virtual reallik, sport pedagogikasi, mashg‘ulot jarayoni.*

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СРЕДСТВ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ФОРМИРОВАНИИ ТЕХНИКО-ТАКТИЧЕСКИХ ДЕЙСТВИЙ У ЮНЫХ ВОЛЕЙБОЛИСТОВ

В данной статье рассматриваются научно-методические основы использования технологий искусственного интеллекта в процессе совершенствования технико-тактической подготовки юных волейболистов. В исследовании анализируется применение технологий компьютерного зрения, глубокого обучения, интеллектуальных сенсорных систем, а также виртуальной реальности в тренировочном процессе. Результаты исследования показывают, что внедрение технологий искусственного интеллекта в тренировочный процесс способствует повышению технического мастерства спортсменов, оптимизации тренировочных нагрузок и прогнозированию спортивных результатов.

Ключевые слова: *искусственный интеллект, волейбол, техническая подготовка, тактическая подготовка, компьютерное зрение, виртуальная реальность, спортивная педагогика, тренировочный процесс.*

THE EFFECTIVENESS OF USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE TOOLS IN DEVELOPING TECHNICAL AND TACTICAL SKILLS OF YOUNG VOLLEYBALL PLAYERS

This article analyzes the scientific and methodological foundations of using artificial intelligence technologies in improving the technical and tactical training of young volleyball players. The study examines the application of computer vision, deep learning, intelligent sensor systems, and virtual reality technologies in the training process. The research results indicate that the integration of artificial intelligence technologies into volleyball training contributes to improving athletes’ technical skills, optimizing the training process, and predicting sports performance.

Keywords: *artificial intelligence, volleyball, technical training, tactical training, computer vision, virtual reality, sports pedagogy, training process.*

Kirish. Zamonaviy voleybol turli o‘yin malakalari va taktik kombinatsiyalarga nihoyatda boy bo‘lib, o‘ta katta shiddat va tezlikda o‘tadi. Binobarin, voleybol sport turining yuqorida zikr etilgan o‘ziga xos xususiyatlari o‘yinchilardan mukammal takomillashgan texnik mahorat talab qiladi. Jismoniy tayyorgarlikni oshirish voleybol o`yinida g’alaba qilishga muhim omil bo`lib xizmat qiladi. Zamonaviy voleybol shug‘ullanuvchilardan nihoyatda katta kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamkorlik va egiluvchanlik sifatlarini talab qiluvchi sport o‘yinlari turiga mansubdir. O‘yinning mohiyati o‘yinchi harakatining turli yo‘nalish va o‘zgaruvchan vaziyatda o‘ta tezkor, aniq hamda qisqa vaqt ichida ijro etilishi bilan ta’riflanadi. Voleybolchining har bir o‘yin davomida ko‘pdan ko‘p to‘siq qo‘yish, zarba berish va to‘p kiritish uchun sakrashlari, yiqilishlar, yugurish, to‘xtash, burilish, egilish va boshqa harakatlarni yuqori tezlikda ijro etilishi katta jismoniy kuch, o‘ta chaqqonlik, mustahkam chidamkorlik va ruhiy uyg‘unlikni talab qiladi. Binobarin,

ushbu yuklama (nagruzka) ta’siri shug‘ullanuvchi organizmining funksional jihatdan mukammal shakllangan bo‘lishini taqozo etadi.

So‘nggi yillarda sport mashg‘ulotlari tizimida raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt (SI) vositalaridan foydalanish jadal rivojlanmoqda. Ayniqsa, yuqori natijalar talab qilinadigan sport turlarida sportchilar tayyorgarligini ilmiy asosda boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Voleybol sport turida texnik va taktik harakatlarning aniqligi, tezkor qaror qabul qilish hamda o‘yin vaziyatini to‘g‘ri baholash sportchining muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan hisoblanadi [1].

Zamonaviy sport ilmida sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash sportchining harakatlarini aniq tahlil qilish, mashg‘ulot jarayonini optimallashtirish va sport natijalarini prognoz qilish imkonini beradi. Bu esa murabbiylar faoliyatini yanada samarali tashkil etish hamda mashg‘ulot jarayonida individual yondashuvni ta’minlashga xizmat qiladi.

Yosh voleybolchilar tayyorgarligida texnik va taktik elementlarni mukammal o‘zlashtirish muhim vazifa hisoblanadi. Biroq an’anaviy mashg‘ulot usullarida murabbiy ko‘pincha sportchining harakatlarini vizual kuzatish asosida baholaydi. Bu esa ba’zan subyektiv xatolarga olib kelishi mumkin. Sun’iy intellekt asosidagi tizimlar esa harakatlarni aniq o‘lchash, tahlil qilish va baholash imkonini beradi [2].

Shu sababli yosh voleybolchilar tayyorgarligida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish masalasi sport pedagogikasi va sport texnologiyalari sohasida dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Yosh voleybolchilar tayyorgarligida sun’iy intellekt texnologiyalarining o‘rni. Sun’iy intellekt texnologiyalari sport mashg‘ulotlari jarayonida turli xil vazifalarni bajarishi mumkin. Ular sportchining jismoniy holatini nazorat qilish, texnik harakatlarni tahlil qilish, o‘yin strategiyasini modellashtirish hamda mashg‘ulot yuklamasini optimallashtirish imkonini beradi.

Sport mashg‘ulotlarida qo‘llaniladigan asosiy sun’iy intellekt texnologiyalariga quyidagilar kiradi: aqlli sensorlar va taqiladigan qurilmalar; kompyuter ko‘rishi texnologiyalari; virtual va kengaytirilgan reallik tizimlari; ma’lumotlarni tahlil qilish va modellashtirish algoritmlari.

Aqlli sensorlar sportchining harakat tezligi, sakrash balandligi, yurak urish tezligi va boshqa ko‘rsatkichlarini aniqlash imkonini beradi. Ushbu ma’lumotlar mashg‘ulot jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va sportchining jismoniy yuklamasini to‘g‘ri boshqarishga yordam beradi [3].

Kompyuter ko‘rishi texnologiyalari esa video tasvirlar orqali sportchining harakatlarini tahlil qiladi. Bunda sportchining bo‘g‘im burchaklari, tana holati va harakat trajektoriyasi aniqlanadi. Bu esa texnik xatolarni tez aniqlash va ularni tuzatish imkonini beradi.

Virtual reallik texnologiyalari yordamida esa o‘yin vaziyatlarini modellashtirish mumkin. Sportchi virtual muhitda turli o‘yin vaziyatlarini takrorlab mashq qilish orqali taktik fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.



Texnik harakatlarni tahlil qilishda kompyuter ko‘rishi texnologiyalari. Voleybol sportida texnik elementlar – to‘p uzatish, qabul qilish, zarba berish va blok qo‘yish – o‘yin samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan hisoblanadi. Ushbu harakatlarning texnik jihatdan to‘g‘ri bajarilishi sportchining o‘yin natijalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Kompyuter ko‘rishi texnologiyalari yordamida sportchining harakatlari video tasvirlar asosida tahlil qilinadi. Maxsus algoritmlar sportchining tana holatini aniqlab, harakat trajektoriyasini hisoblaydi. Natijada murabbiy sportchining texnik xatolarini aniq ko‘ra oladi.

Masalan, zarba berish jarayonida qo‘l harakatining tezligi, tana burilishi va sakrash balandligi tahlil qilinadi. Ushbu ko‘rsatkichlar asosida sportchining texnik tayyorgarlik darajasi baholanadi.





Taktik tayyorgarlikni rivojlantirishda virtual reallik texnologiyalari. Sport o‘yinlarida taktik tayyorgarlik muhim ahamiyatga ega. Voleybol o‘yinida sportchi o‘yin vaziyatini tez baholashi va to‘g‘ri qaror qabul qilishi kerak.

Virtual reallik texnologiyalari yordamida sportchilar turli o‘yin vaziyatlarini modellashtirilgan muhitda mashq qilishlari mumkin. Masalan, sportchi virtual muhitda raqib jamoaning hujum yoki himoya harakatlarini kuzatib, ularga mos ravishda qaror qabul qiladi. Bunday mashg‘ulotlar sportchining taktik fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va o‘yin jarayonida tezkor qaror qabul qilish ko‘nikmasini shakllantiradi. Shuningdek, virtual reallik tizimlari sportchilarning o‘yin strategiyasini ishlab chiqish va turli taktik variantlarni sinab ko‘rish imkonini beradi. Bu esa jamoaviy o‘yin samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish yosh voleybolchilarning texnik-taktik tayyorgarligini rivojlantirishda katta imkoniyatlarga ega. Kompyuter ko‘rishi, aqlli sensorlar va virtual reallik texnologiyalari sportchining harakatlarini aniq tahlil qilish, texnik xatolarni aniqlash va taktik fikrlashni rivojlantirish imkonini beradi.

Shuningdek, sun’iy intellekt asosida mashg‘ulot jarayonini modellashtirish sportchilar tayyorgarligini ilmiy asosda boshqarish imkonini yaratadi. Bu esa sport natijalarini oshirish hamda yosh sportchilarning professional rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Kelgusida sport mashg‘ulotlari tizimida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish yosh sportchilar tayyorgarligini yangi bosqichga olib chiqishi mumkin.

Adabiyotlar:

1.Baca A. Computer Science in Sport. London: Routledge, 2015.

2.Laporta L., Afonso J., Mesquita I. Performance Analysis in Volleyball. Journal of Sports Sciences, 2018.

3.Hughes M., Franks I. Notational Analysis of Sport. London: Routledge, 2016.

4.Gomes A. Artificial Intelligence in Sports Performance Analysis. Springer, 2021.

5.Li X., Chen Y. Deep Learning for Human Motion Analysis in Sports. IEEE Sports Engineering, 2020.

6. Po‘latov A.A. Yosh voleybolchilar tezkor kuch sifatlarini shakllantirish uslubiyoti. //o‘quv qo‘llanma. –T.: 2008. -38 b.

7. Po‘latov A.A., Kurbanova M.A., Nadjimov F.F. Voleybol turi bo‘yicha ta’lim muassasalarida sport to‘garak mashg‘ulotlarini tashkil etish yuzasidan o‘quv dasturi va metodik tavsiyalar. – T.: “Extremum press”, 2017. -136 b.

8. Болтаев Ш.Э. Ёш волейболчиларни инновацион ёндашув асосида машғулот жараёнини ташкил этиш. Муғаллим Ҳәм Үзликсиз Билимлендириў Нукус 2022 .-87 б

9. Smith J. Virtual Reality Training in Volleyball. International Journal of Sport Technology, 2019.

YENGIL ATLETIKA MASHQLARI ORQALI OLIY O‘QUV YURTI TALABALARI JISMONIY TAYYORGARLIGINI BAHOLASH

Sirojev Shoxrux Fayzullo o’g’li,
Osiyo Xalqaro Universiteti Jismoniy Madaniyat kafedrasi o’qituvchisi
sirojevshoxruxfayzullougli@oxu.uz

Mazkur tadqiqotning maqsadi yengil atletika mashqlari orqali Osiyo Xalqaro Universitetida tahsil olayotgan oliy o‘quv yurti talabalari jismoniy sifatlari hamda performans bilan bog‘liq jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash va ularni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat. Tadqiqotda 18–22 yosh oralig‘idagi 30 nafar talaba (15 nafar yigit va 15 nafar qiz) ishtirok etdi. Ishtirokchilar kamida 6 oy davomida muntazam ravishda yengil atletika mashg‘ulotlarida qatnashgan. Talabalarning antropometrik xususiyatlari 17 ta o‘lchov orqali aniqlanib, somatotip ko‘rsatkichlari belgilandi. Jismoniy tayyorgarlikni baholashda tezkorlik, kuch, chidamlilik va egiluvchanlikka oid testlar qo‘llanildi. Olingan natijalar One-Way ANOVA va Tukey post-hoc tahlil usullari yordamida tahlil qilindi. Natijalarga ko‘ra, antropometrik ko‘rsatkichlarning aksariyatida jinslar o‘rtasida statistik jihatdan ishonchli farqlar aniqlanmadi ($p>0,05$), biroq kuch va tezkor-kuch sifatlari bo‘yicha ahamiyatli farqlar qayd etildi ($p<0,05$). Somatotip tahlili yigit talabalarda mezomorfik-ektomorf, qiz talabalarda esa endomorfik-ektomorf tana tuzilishining ustunligini ko‘rsatdi. Xulosa qilib aytganda, yengil atletika mashqlari asosidagi mashg‘ulotlar oliy o‘quv yurti talabalari jismoniy sifatlarini rivojlantirishda samarali ekanligi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: *yengil atletika, talaba, jismoniy sifatlar, jismoniy tayyorgarlik, metodika.*

ОЦЕНКА ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЛЕГКОАТЛЕТИЧЕСКИХ УПРАЖНЕНИЙ

Целью данного исследования является оценка уровня физических качеств и физической подготовленности, связанных с двигательными возможностями, у студентов высших учебных заведений, обучающихся в Международном университете Осиё, на основе легкоатлетических упражнений, а также совершенствование методики их развития. В исследовании приняли участие 30 студентов в возрасте 18–22 лет (15 юношей и 15 девушек), регулярно занимающихся легкоатлетическими тренировками не менее 6 месяцев.

Антропометрические характеристики студентов были определены на основе 17 измерений, а также установлены показатели соматотипа. Для оценки физической подготовленности использовались тесты, направленные на определение быстроты, силы, выносливости и гибкости. Полученные данные были проанализированы с применением методов однофакторного дисперсионного анализа (One-Way ANOVA) и пост-хок теста Тьюки.

Результаты исследования показали, что по большинству антропометрических показателей статистически значимых различий между полами не выявлено ($p>0,05$), однако по показателям силы и скоростно-силовых качеств были зафиксированы значимые различия ($p<0,05$). Анализ соматотипа показал преобладание мезоморфно-эктоморфного типа телосложения у юношей и эндоморфно-эктоморфного типа у девушек. В заключение установлено, что тренировки на основе легкоатлетических упражнений являются эффективным средством развития физических качеств студентов высших учебных заведений.

Ключевые слова: *лёгкая атлетика, студент, физические качества, физическая подготовленность, методика.*

ASSESSMENT OF PHYSICAL FITNESS OF UNIVERSITY STUDENTS THROUGH ATHLETICS EXERCISES

The aim of this study was to assess the level of physical qualities and performance-related physical fitness of university students studying at Osiyo International University through athletics exercises, as well as to improve the methodology for their development. The study involved 30 students aged 18–22 years (15 males and 15 females) who had been regularly participating in athletics training for at least six months.

Anthropometric characteristics were determined using 17 measurements, and somatotype indicators were identified. Physical fitness was assessed using tests related to speed, strength, endurance, and flexibility. The obtained data were analyzed using One-Way ANOVA and Tukey post-hoc analysis.

The results indicated that no statistically significant gender differences were found in most anthropometric parameters (p>0.05); however, significant differences were observed in strength and speed-strength characteristics (p<0.05). Somatotype analysis revealed a predominance of the mesomorphic-ectomorphic body type in male students and the endomorphic-ectomorphic body type in female students. In conclusion, athletics-based training programs were found to be an effective means of developing physical qualities in university students.

Keywords: *athletics, student, physical qualities, physical fitness, methodology.*

Kirish. Bugungi kunda sportning dunyo miqyosida tutgan o‘rni tobora ortib borayotgani, shuningdek, sportchilar va mamlakatlar o‘rtasidagi raqobatning keskinlashuvi sport sohasida yuqori natijalarga erishish masalasini dolzarb etib qo‘ymoqda. Shu nuqtai nazardan, sportda muvaffaqiyatga erishish uchun jismoniy imkoniyatlar va harakat salohiyatini erta aniqlash, shuningdek, mashg‘ulot jarayonini ilmiy asosda rejalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Oliy o‘quv yurti talabalari bilan olib boriladigan mashg‘ulotlarda ularning jismoniy tayyorgarligi, tana tuzilishi va funksional imkoniyatlarini aniqlash hamda baholash sport mashg‘ulotlari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [1].

Umumiy ma’noda jismoniy tayyorgarlik jismoniy faoliyatlarni samarali va muvaffaqiyatli bajarish qobiliyati sifatida tavsiflanadi. Jismoniy tayyorgarlik sog‘liq bilan bog‘liq hamda harakat ko‘nikmalariga taalluqli komponentlarni o‘z ichiga oladi. U yurak-qon tomir tizimi chidamliligi, mushak kuchi va chidamliligi, tana kompozitsiyasi, egiluvchanlik, epchillik, kuch, tezkorlik va muvozanat kabi ko‘rsatkichlar orqali baholanadi. Mazkur sifatlarni aniqlash uchun turli test va o‘lchovlardan foydalaniladi [2].

Tana tuzilishini baholash jarayonida tana shakli, hajmi, proporsiyalari va tana kompozitsiyasi kabi ko‘rsatkichlar muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular muayyan sport turlari uchun optimal jismoniy xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi. Tana tuzilishini baholashdan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat: jismoniy imkoniyatlari yuqori bo‘lgan shaxslarni aniqlash, sportchi va talabalar jismoniy rivojlanishini nazorat qilish va baholash, mashg‘ulot hamda sport natijalarini tahlil qilish, shuningdek, tana vazni va mushak-yog‘ nisbatini optimallashtirish. Ilmiy adabiyotlarda turli sport turlari bilan shug‘ullanuvchi yuqori malakali sportchilarning jismoniy va fiziologik xususiyatlariga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlar mavjud. Biroq oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning, xususan yengil atletika mashqlari bilan shug‘ullanuvchi yoshlarning jismoniy sifatlari va tayyorgarlik darajasini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar soni nisbatan kam uchraydi [3].

Shu bois, mazkur tadqiqotda 30 nafar oliy o‘quv yurti talabalarining yengil atletika mashqlari asosida shakllanadigan ayrim jismoniy sifatlari va performans bilan bog‘liq jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini aniqlash, baholash hamda ularni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish maqsad qilib qo‘yildi.

Material va metod. Mazkur tadqiqotda tadqiqot obyekti sifatida Buxoro shahrida joylashgan Osiyo Xalqaro Universitetida tahsil olayotgan talabalar tanlab olindi. Tadqiqotda 18–22 yosh oralig‘idagi jami 30 nafar talaba, jumladan 15 nafar yigit va 15 nafar qiz ixtiyoriy ravishda ishtirok etdi. Ishtirokchilar yengil atletika mashqlari asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda kamida 6 oy davomida muntazam qatnashgan bo‘lib, mashg‘ulotlar haftasiga 3 marotaba, har biri 90 daqiqa davomida olib borildi. Tadqiqot boshlanishidan oldin barcha talabalarga o‘tkaziladigan o‘lchov va testlarning mazmuni, bajarilish tartibi hamda xavfsizlik qoidalari haqida batafsil tushuntirish berildi [4].

Antropometrik va jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini aniqlashga qaratilgan barcha o‘lchov va testlar Osiyo Xalqaro Universitetining sport majmuasi hamda yengil atletika maydonida amalga oshirildi. Talabalarning tana vazni 100 grammgacha aniqlikdagi tarozi yordamida, yengil sport kiyimida va yalangoyoq holda o‘lchandi. Bo‘y uzunligi standart antropometrik asbob yordamida aniqlandi va olingan ma’lumotlar asosida tana massasi indeksi hisoblab chiqildi.

Teri osti yog‘ qatlami ko‘rsatkichlari triseps, biseps, subskapula, suprailiak va boldir sohalaridan maxsus kaliper yordamida o‘lchandi. Tana yog‘ foizini aniqlashda Durning–Womersley formulasi qo‘llanildi. Tana diametrlari biakromial, biiliak, femur va humerus bikondilyar nuqtalaridan o‘lchandi. Tana aylanalarini aniqlashda biseps mushagi fleksiyadagi holatda va boldir mushagining eng keng qismidan o‘lchovlar olindi. Uzunlik o‘lchovlari sifatida kulaç uzunligi, qo‘l, tana va oyoq uzunliklari antropometrik kaliper yordamida qayd etildi.

Talabalarning tana tuzilishini baholash maqsadida Heath–Carter somatotiplash metodi qo‘llanildi. Tezkorlik ko‘rsatkichlarini aniqlash uchun yuqori start holatidan 30 metrga yugurish testi o‘tkazildi va natijalarni qayd etishda fotosel usulidan foydalanildi. Anaerob quvvat vertikal sakrash testi yordamida baholandi. Mushak kuchi va kuchga chidamlilikni aniqlashda o‘ng va chap qo‘l kaft kuchi dinamometr orqali, 1 daqiqalik qorin mushaklari testi, joyidan uzunlikka sakrash hamda 1 kg tibbiy to‘p uloqtirish testlari qo‘llanildi. Yurak-qon tomir tizimi chidamliligi 1 mil yugurish testi orqali baholandi [5].

Olingan natijalarni qayta ishlash va tahlil qilish jarayonida Excel va SPSS statistik dasturlaridan foydalanildi. Barcha o‘lchov natijalari bo‘yicha o‘rtacha qiymatlar va standart og‘ishlar hisoblandi. Guruhlar o‘rtasidagi farqlarni aniqlashda One-Way ANOVA va Tukey post-hoc tahlil usullari qo‘llanildi hamda statistik ishonchlilik darajasi $p<0,05$ va $p<0,01$ sifatida qabul qilindi.

Tadqiqotda ishtirok etgan 30 nafar oliy o‘quv yurti talabalari jins omiliga ko‘ra yigitlar va qizlar guruhlariga ajratildi. O‘tkazilgan antropometrik o‘lchovlar hamda jismoniy tayyorgarlik testlari natijalari asosida har bir ko‘rsatkich bo‘yicha o‘rtacha qiymatlar va standart og‘ishlar hisoblab chiqildi. Guruhlar o‘rtasidagi farqlarni aniqlash maqsadida One-Way ANOVA va Tukey post-hoc tahlil usullari qo‘llanildi.

Antropometrik ko‘rsatkichlar bo‘yicha olingan natijalar tahlili yigit va qiz talabalar o‘rtasida ayrim o‘lchovlarda miqdoriy farqlar mavjudligini ko‘rsatgan bo‘lsa-da, ushbu farqlarning aksariyati statistik jihatdan ishonchli emasligi aniqlandi ($p>0,05$). Somatotip komponentlari tahlili natijalariga ko‘ra, yigit talabalarda mezomorfik-ektomorf tana tuzilishi, qiz talabalarda esa endomorfik-ektomorf tuzilma nisbatan ustunligi kuzatildi, biroq bu ko‘rsatkichlar bo‘yicha ham guruhlar o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farqlar aniqlanmadi ($p>0,05$) [6].

Performans bilan bog‘liq jismoniy tayyorgarlik testlari natijalari tahlili shuni ko‘rsatdiki, tezkorlik, chidamlilik va kuch ko‘rsatkichlarida yigit talabalarning o‘rtacha natijalari qiz talabalar ko‘rsatkichlariga nisbatan yuqoriroq bo‘lgan. Biroq ushbu farqlar ko‘pchilik testlarda statistik jihatdan ishonchli darajaga yetmadi ($p>0,05$). Ayrim kuch va tezkor-kuch testlarida yigitlar foydasiga nisbiy ustunlik qayd etilgan bo‘lsa-da, umumiy natijalar jismoniy tayyorgarlik darajasi bo‘yicha guruhlar o‘rtasida keskin tafovutlar mavjud emasligini ko‘rsatdi.

Olingan natijalar yengil atletika mashqlari asosida olib borilgan mashg‘ulotlar talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda ijobiy ta’sir ko‘rsatganini, aniqlangan farqlar esa asosan individual rivojlanish xususiyatlari va jismoniy tayyorgarlik darajasi bilan bog‘liqligini tasdiqlaydi.

1-jadvalda tadqiqotda ishtirok etgan Osiyo Xalqaro Universitetining 30 nafar talabasining jinsiy guruhlar bo‘yicha ayrim antropometrik ko‘rsatkichlari, jumladan bo‘y uzunligi, tana vazni, tana massasi indeksi, umumiy teri osti yog‘ qatlami hamda tana yog‘ foizi bo‘yicha o‘rtacha qiymatlar va standart og‘ishlar keltirilgan. Jadval ma’lumotlari yigit va qiz talabalar o‘rtasidagi farqlarni aniqlash maqsadida One-Way ANOVA va Tukey post-hoc tahlil natijalari asosida baholangan. Natijalarga ko‘ra, bo‘y uzunligi va tana vazni ko‘rsatkichlari bo‘yicha yigit talabalarning o‘rtacha qiymatlari qiz talabalar ko‘rsatkichlariga nisbatan yuqoriroq bo‘lgan bo‘lsa-da, ushbu farqlar statistik jihatdan ishonchli darajaga yetmagan ($p>0,05$). Tana massasi indeksi ko‘rsatkichlarida ham jinsiy guruhlar o‘rtasida sezilarli statistik farq aniqlanmadi ($p>0,05$) [7].

Umumiy teri osti yog‘ qatlami va tana yog‘ foizi bo‘yicha qiz talabalar o‘rtacha ko‘rsatkichlarining yigitlarga nisbatan biroz yuqoriroq ekani kuzatilgan, biroq bu farqlar ham statistik jihatdan ahamiyatli emasligi aniqlandi ($p>0,05$). Ushbu holat tanlab olingan talabalarning yengil atletika mashqlari bilan muntazam shug‘ullanishi natijasida jismoniy tayyorgarlik darajalari o‘rtasida sezilarli tafovutlar yuzaga kelmaganini ko‘rsatadi. Umuman olganda, 1-jadvalda keltirilgan antropometrik ko‘rsatkichlar yengil atletika mashqlari bilan shug‘ullanuvchi oliy o‘quv yurti talabalari tana tuzilishining nisbatan barqaror ekanini, aniqlangan farqlar esa asosan individual rivojlanish xususiyatlari bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

1-jadval.

Osiyo Xalqaro Universiteti talabalarining jins bo‘yicha ayrim antropometrik ko‘rsatkichlari (n = 30)

Ko‘rsatkichlar	Yigitlar (n=15) Ort. ± SD	Qizlar (n=15) Ort. ± SD	ANOVA (F)
Bo‘y (cm)	175,2 ± 6,8	163,4 ± 5,9	18,42
Tana vazni (kg)	71,6 ± 8,4	58,9 ± 7,2	16,37
TMI (kg/m²)	23,3 ± 2,1	22,1 ± 2,4	2,11
Umumiy skinfold (mm)	38,7 ± 9,6	44,9 ± 10,8	2,84
Tana yog‘ foizi (%)	14,8 ± 3,9	18,6 ± 4,2	7,26
Fleksiyadagi biseps aylanasi (cm)	31,2 ± 3,1	27,6 ± 2,4	11,28
Boldir aylanasi (cm)	37,8 ± 2,9	34,1 ± 2,6	12,04
Biakromial diametr (cm)	39,6 ± 2,1	35,2 ± 1,8	18,73
Biiliak diametr (cm)	28,4 ± 1,9	27,1 ± 1,6	3,21
Büst uzunligi (cm)	92,3 ± 4,6	88,1 ± 4,2	6,14
Oyoq uzunligi (cm)	78,6 ± 4,9	72,4 ± 3,8	15,02
Kulaç uzunligi (cm)	182,7 ± 7,8	168,9 ± 6,4	22,91
To‘liq qo‘l uzunligi (cm)	70,8 ± 4,1	66,2 ± 3,5	9,47

1-jadvalda Osiyo Xalqaro Universitetida tahsil olayotgan 30 nafar talabaning (15 yigit va 15 qiz) jins bo‘yicha ayrim antropometrik ko‘rsatkichlari keltirilgan. Jadval ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, bo‘y uzunligi va tana vazni bo‘yicha yigit talabalarning o‘rtacha ko‘rsatkichlari qiz talabalarga nisbatan statistik jihatdan ishonchli darajada yuqori bo‘lgan ($p<0,01$). Bu holat yigit va qizlar o‘rtasidagi biologik va morfologik farqlar bilan izohlanadi. Tana massasi indeksi (TMI) ko‘rsatkichlari bo‘yicha guruhlar o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmagan ($p>0,05$), bu esa har ikki jins vakillarida tana vaznining bo‘y uzunligiga nisbatan muvozanatli ekanligini ko‘rsatadi. Umumiy teri osti yog‘ qatlami (skinfold) ko‘rsatkichlarida qiz talabalarning o‘rtacha qiymatlari yuqoriroq bo‘lgan bo‘lsa-da, mazkur farq statistik jihatdan ishonchli emas ($p>0,05$). Biroq tana yog‘ foizi bo‘yicha qiz talabalar ko‘rsatkichlari yigitlarga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘lib, bu farq statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi aniqlangan ($p<0,05$). Ushbu holat ayollarga xos fiziologik xususiyatlar bilan bog‘liq ekanligi ilmiy adabiyotlarda ham qayd etilgan [8].

Mushak aylanalariga oid ko‘rsatkichlar tahlili fleksiyadagi biseps va boldir aylanasi bo‘yicha yigit talabalarning ustunligini ko‘rsatdi va bu farqlar statistik jihatdan ishonchli darajada ekanligi aniqlangan ($p<0,01$). Shuningdek, biakromial diametr, büst uzunligi, oyoq uzunligi va quloch uzunligi kabi tana proporsiyalariga oid ko‘rsatkichlarda ham yigitlar foydasiga statistik jihatdan ahamiyatli farqlar qayd etildi ($p<0,05$; $p<0,01$). Biiliak diametr bo‘yicha esa guruhlar o‘rtasida sezilarli farq aniqlanmadi ($p>0,05$). Umuman olganda, jadvalda keltirilgan antropometrik ko‘rsatkichlar yengil atletika mashqlari bilan shug‘ullanuvchi oliy o‘quv yurti talabalari tana tuzilishida jinsga xos morfologik farqlar mavjudligini ko‘rsatadi. Aniqlangan farqlar asosan mushak massasi, tana proporsiyalari va yog‘ taqsimoti bilan bog‘liq bo‘lib, bu holat yigit va qiz talabalarning jismoniy tayyorgarlik hamda performans ko‘rsatkichlariga bevosita ta’sir etuvchi omil sifatida baholanishi mumkin.

2-jadval.

Osiyo Xalqaro Universiteti talabalarining jins bo‘yicha somatotip komponentlari (n = 30)

Somatotip komponentlari	Yigitlar (n=15) Ort. ± SD	Qizlar (n=15) Ort. ± SD	ANOVA (F)
Endomorfiya	2,4 ± 0,6	2,9 ± 0,7	2,11
Mezomorfiya	3,3 ± 0,8	2,8 ± 0,7	1,94
Ektomorfiya	4,7 ± 1,2	4,9 ± 1,1	0,38

2-jadvalda Osiyo Xalqaro Universitetida tahsil olayotgan 30 nafar talabaning (15 yigit va 15 qiz) jins bo‘yicha somatotip komponentlari – endomorfiya, mezomorfiya va ektomorfiya ko‘rsatkichlari aks ettirilgan. Jadval ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, har uchala somatotip komponenti bo‘yicha yigit va qiz talabalar o‘rtasida statistik jihatdan ishonchli farqlar aniqlanmagan ($p>0,05$).

Endomorfiya ko‘rsatkichlari qiz talabalar guruhida yigitlarga nisbatan biroz yuqoriroq bo‘lib, bu holat ayollarga xos bo‘lgan yog‘ to‘qimasining nisbatan ko‘proq bo‘lishi bilan izohlanadi. Mezomorfiya komponenti bo‘yicha esa yigit talabalarning o‘rtacha ko‘rsatkichlari qiz talabalar ko‘rsatkichlariga nisbatan yuqoriroq bo‘lib, bu mushak massasining rivojlanganligi bilan bog‘liq. Biroq ushbu farqlar statistik jihatdan ahamiyatli darajaga yetmagan. Ektomorfiya ko‘rsatkichlari har ikki jins vakillarida deyarli bir xil bo‘lib, talabalarning tana proporsiyalari va cho‘zilgan tana tuzilishiga moyilligi o‘xshash ekanligini ko‘rsatadi. Bu holat yengil atletika mashqlari bilan muntazam shug‘ullanish natijasida tana tuzilishining nisbatan muvozanatli shakllanganini tasdiqlaydi. Umuman olganda, 2-jadvalda keltirilgan somatotip ko‘rsatkichlari yengil atletika mashqlari bilan shug‘ullanuvchi oliy o‘quv yurti talabalari tana tuzilishida jinsga xos ayrim farqlar mavjud bo‘lsa-da, bu farqlar statistik jihatdan ahamiyatli emasligini ko‘rsatadi. Ushbu natijalar yengil atletika mashqlari asosida olib borilayotgan mashg‘ulotlar talabalarning morfologik rivojlanishida muvozanatli ta’sir ko‘rsatishini anglatadi [9].

3-jadval.

Osiyo Xalqaro Universiteti talabalarining jins bo‘yicha jismoniy tayyorgarlik (performans) testlari natijalari (n = 30)

Testlar	Yigitlar (n=15) Ort. ± SD	Qizlar (n=15) Ort. ± SD	ANOVA (F)
30 m tezlik yugurishi (soniya)	4,92 ± 0,28	5,31 ± 0,34	10,44
1 mil yugurish (daq:son)	7:54 ± 0:36	8:36 ± 0:42	12,61
O‘tirib-egilish (cm)	22,4 ± 5,8	25,6 ± 5,2	2,41
1 kg tibbiy to‘p uloqtirish (m)	7,8 ± 1,2	6,4 ± 1,0	11,62
Joyidan uzunlikka sakrash (cm)	182,6 ± 15,4	171,3 ± 17,8	5,37
Anaerob quvvat (kg·m/s)	52,1 ± 9,8	45,3 ± 10,2	11,65
O‘ng qo‘l kaft kuchi (kg)	23,6 ± 4,8	20,1 ± 4,2	11,14

Chap qo‘l kaft kuchi (kg)	21,4 ± 4,1	18,9 ± 4,6	8,38
1 daqiqalik mekik (takror)	39,1 ± 6,2	33,7 ± 6,4	2,29

3-jadvalda Osiyo Xalqaro Universitetida tahsil olayotgan 30 nafar talabaning (15 yigit va 15 qiz) jins bo‘yicha jismoniy tayyorgarlik (performans) testlari natijalari keltirilgan. Jadval ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, tezkorlik, chidamlilik va kuch bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarning aksariyatida yigit talabalarning o‘rtacha natijalari qiz talabalarga nisbatan yuqoriroq bo‘lgan. 30 metrga tezlik yugurishi natijalari bo‘yicha yigit talabalar qiz talabalar bilan solishtirilganda sezilarli ustunlikka ega bo‘lib, ushbu farq statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi aniqlangan ($p<0,01$). Xuddi shuningdek, 1 mil yugurish testida ham yigit talabalarning natijalari yaxshiroq bo‘lib, yurak-qon tomir tizimi chidamliligi bo‘yicha jinslar o‘rtasida statistik jihatdan ishonchli farq mavjudligi qayd etildi ($p<0,01$). Kuch va tezkor-kuch sifatlarini aks ettiruvchi testlar, jumladan 1 kg tibbiy to‘p uloqtirish, joyidan uzunlikka sakrash va anaerob quvvat ko‘rsatkichlari bo‘yicha yigit talabalarning natijalari qiz talabalarga nisbatan statistik jihatdan ahamiyatli darajada yuqori bo‘lgan ($p<0,01$). Bu holat yigit talabalarda mushak kuchi va portlovchi kuch salohiyatining nisbatan yuqori ekanligi bilan izohlanadi.

Qo‘l kaft kuchini baholash natijalari ham yigitlar foydasiga sezilarli ustunlikni ko‘rsatdi. O‘ng va chap qo‘l kaft kuchi ko‘rsatkichlari bo‘yicha jinslar o‘rtasidagi farqlar statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi aniqlangan ($p<0,01$). Qorin mushaklari kuchiga chidamliligini aks ettiruvchi 1 daqiqalik mekik testida ham yigit talabalarning o‘rtacha natijalari yuqoriroq bo‘lib, ushbu farq $p<0,05$ darajada statistik ahamiyatga ega bo‘lgan. Egiluvchanlikni baholovchi o‘tirib-egilish testida qiz talabalarning o‘rtacha ko‘rsatkichlari biroz yuqoriroq bo‘lsa-da, bu farq statistik jihatdan ishonchli emasligi aniqlangan ($p>0,05$). Bu holat qizlarda bo‘g‘imlarning harakatchanligi va mushak-tendon tizimi elastikligining nisbatan yuqori bo‘lishi bilan izohlanadi.

Umuman olganda, 3-jadvalda keltirilgan natijalar yengil atletika mashqlari bilan muntazam shug‘ullanish oliy o‘quv yurti talabalari jismoniy tayyorgarligini oshirishda samarali ekanini ko‘rsatadi. Aniqlangan jinsiy farqlar asosan biologik va funksional xususiyatlar bilan bog‘liq bo‘lib, mashg‘ulotlarning umumiy samaradorligini kamaytirmaydi, balki mashg‘ulot jarayonini individuallashtirish zarurligini ko‘rsatadi [10].

Xulosa. Mazkur tadqiqotda oliy o‘quv yurti talabalari ishtirokida o‘tkazilgan jismoniy va funksional testlar muntazam jismoniy faollikning jismoniy tayyorgarlik, tana tuzilishi va performans ko‘rsatkichlariga ta’sirini baholash imkonini berdi. Yengil atletika mashqlari asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish jarayonini ilmiy jihatdan tahlil qilishga xizmat qildi. Bunday testlar orqali nafaqat jismoniy tayyorgarlik darajasi, balki talabalarning mashg‘ulotlarga moslashuvchanligi va funksional imkoniyatlari ham aniqlanadi.

Ilmiy manbalarda morfologik omillar insonning jismoniy imkoniyatlari va sportdagi natijalariga bevosita ta’sir ko‘rsatishi ta’kidlanadi. Turli sport turlari bilan shug‘ullanuvchi sportchilarning tana tuzilishi o‘rtasidagi farqlar ularning mashg‘ulot yo‘nalishi va yuklama xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq ekanligi ko‘plab tadqiqotlarda qayd etilgan. Ushbu tadqiqot natijalari ham yengil atletika mashqlari bilan shug‘ullanuvchi talabalar tana tuzilishining muayyan xususiyatlarga ega ekanini ko‘rsatdi.

Antropometrik ko‘rsatkichlar tahlili natijasida yigit va qiz talabalar o‘rtasida ayrim ko‘rsatkichlar bo‘yicha miqdoriy farqlar kuzatilgan bo‘lsa-da, bu farqlarning aksariyati statistik jihatdan ishonchli darajada emasligi aniqlandi. O‘rtacha qiymatlarga ko‘ra, bo‘y uzunligi, tana vazni va ayrim diametr ko‘rsatkichlarida yigit talabalarning natijalari qiz talabalar ko‘rsatkichlariga nisbatan yuqoriroq bo‘lgan. Biroq teri osti yog‘ qatlami va tana yog‘ foizi bo‘yicha qiz talabalarda nisbatan yuqoriroq qiymatlar qayd etildi. Bu holat jinsiy farqlarga xos fiziologik xususiyatlar bilan izohlanadi. Umuman olganda, antropometrik ko‘rsatkichlar bo‘yicha aniqlangan farqlar talabalarning individual rivojlanish darajasi va mashg‘ulot tajribasi bilan bog‘liq ekanligi ko‘rinadi. Somatotip tahlili natijalari yigit talabalarda mezomorfik-ektomorf, qiz talabalarda esa endomorfik-ektomorf tana tuzilishining ustunligini ko‘rsatdi. Biroq somatotip komponentlari bo‘yicha jinslar o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farqlar aniqlanmadi. Ushbu natijalar yengil atletika mashqlari bilan muntazam shug‘ullanish tana tuzilishining nisbatan barqaror va muvozanatli shakllanishiga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Ilmiy adabiyotlarda ham yosh sportchilar va talabalarda mezomorf komponentning ko‘plab sport turlarida yetakchi ekanligi qayd etilgan bo‘lib, bu tadqiqot natijalari bilan hamohangdir.

Jismoniy tayyorgarlik va performans testlari natijalari tahlili shuni ko‘rsatdiki, tezkorlik, kuch va chidamlilik ko‘rsatkichlarida yigit talabalar natijalari qiz talabalar ko‘rsatkichlariga nisbatan yuqoriroq bo‘lgan. Ayniqsa, tibbiy to‘p uloqtirish, anaerob quvvat, qo‘l kaft kuchi va joyidan uzunlikka sakrash testlarida yigitlar foydasiga statistik jihatdan ahamiyatli farqlar qayd etildi. Biroq egiluvchanlik testida qiz talabalar nisbatan yuqori natijalar ko‘rsatdi. Bu holat jinsiy farqlarga xos bo‘lgan mushak tuzilishi va harakat

apparati xususiyatlari bilan izohlanadi. Olingan natijalar yengil atletika mashqlari asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar oliy o‘quv yurti talabalari jismoniy sifatlarini rivojlantirishda samarali vosita ekanini tasdiqlaydi. Tadqiqot davomida aniqlangan farqlar asosan jinsiy va individual xususiyatlar bilan bog‘liq bo‘lib, mashg‘ulotlarning umumiy samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmagan. Shuningdek, muntazam va ilmiy asoslangan mashg‘ulotlar talabalarning umumiy jismoniy tayyorgarligini yaxshilash, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish hamda sport faoliyatiga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qilishi aniqlandi.

Xulosa qilib aytganda, yengil atletika mashqlari asosida ishlab chiqilgan va qo‘llanilgan metodika oliy o‘quv yurti talabalari jismoniy sifatlarini rivojlantirishda samarali bo‘lib, uni oliy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari jarayoniga keng joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar:

1. Carter, J.E.L., & Heath, B.H. (1990). Somatotyping: Development and Applications. Cambridge: Cambridge University Press.
2. Malina, R.M., Bouchard, C., & Bar-Or, O. (2004). Growth, Maturation, and Physical Activity. 2nd ed. Champaign, IL: Human Kinetics.
3. Bompa, T.O., & Buzzichelli, C. (2019). Periodization: Theory and Methodology of Training. 6th ed. Champaign, IL: Human Kinetics.
4. Heyward, V.H., & Wagner, D.R. (2004). Applied Body Composition Assessment. 2nd ed. Champaign, IL: Human Kinetics.
5. Zatsiorsky, V.M., & Kraemer, W.J. (2006). Science and Practice of Strength Training. 2nd ed. Champaign, IL: Human Kinetics.
6. Wilmore, J.H., Costill, D.L., & Kenney, W.L. (2008). Physiology of Sport and Exercise. 4th ed. Champaign, IL: Human Kinetics.
7. Plowman, S.A., & Meredith, M.D. (2013). Fitnessgram/Activitygram Reference Guide. 4th ed. Dallas, TX: The Cooper Institute.
8. Beunen, G., & Malina, R.M. (2008). Growth and physical performance relative to the timing of the adolescent growth spurt. Exercise and Sport Sciences Reviews, 36(4), 181–189.
9. Slaughter, M.H., Lohman, T.G., Boileau, R.A., Horswill, C.A., Stillman, R.J., Van Loan, M.D., & Bemben, D.A. (1988). Skinfold equations for estimation of body fatness in children and youth. Human Biology, 60(5), 709–723.
10. Durnin, J.V.G.A., & Womersley, J. (1974). Body fat assessed from total body density and its estimation from skinfold thickness. British Journal of Nutrition, 32(1), 77–97.

BOCCIA SPORTI BILAN SHUG‘ULLANADIGAN IMKONIYATI CHEKLANGAN SPORTCHILARNING JISMONIY, TEXNIK-TAKTIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH USULLARI

Jakbarova Durdona Abdusamad qizi,
Farg‘ona davlat universiteti,
Sport faoliyati fakulteti Adaptiv jismoniy tarbiya va sport nazariyasi kafedrasi.
jakbarovadurdonaxon@gmail.com

Ushbu maqolada Boccia sporti bilan shug‘ullanuvchi tayanch-harakat a’zolari shikastlangan sportchilarning jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Sportchilarning individual imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda mashg‘ulot yuklamalarini taqsimlash va musobaqa faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: *Boccia, paralimpiya, jismoniy tayyorgarlik, texnik mahorat, taktik tafakkur, inkluziv sport, reabilitatsiya.*

METHODS FOR IMPROVING THE PHYSICAL AND TECHNICAL-TACTICAL TRAINING OF ATHLETES WITH DISABILITIES ENGAGED IN BOCCIA SPORT

This article discusses the issues of improving the physical, technical and tactical training of athletes with musculoskeletal disorders involved in Boccia. Recommendations are given on the distribution of training loads and increasing the effectiveness of competitive activity, based on the individual capabilities of athletes.

Keywords: *Boccia, paralympics, physical training, technical skill, tactical thinking, inclusive sport, rehabilitation.*

МЕТОДЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ФИЗИЧЕСКОЙ И ТЕХНИКО-ТАКТИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ СПОРТСМЕНОВ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ, ЗАНИМАЮЩИХСЯ СПОРТОМ БОЧЧА

В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования физической и технико-тактической подготовки спортсменов с поражением опорно-двигательного аппарата, занимающихся Бочча. Даны рекомендации по распределению тренировочных нагрузок и повышению эффективности соревновательной деятельности с учетом индивидуальных возможностей спортсменов.

Ключевые слова: *Бочча, паралимпиада, физическая подготовка, техническое мастерство, тактическое мышление, инклюзивный спорт, реабилитация.*

Kirish. Boccia — bu nafaqat sport turi, balki og‘ir jismoniy imkoniyati cheklangan insonlar uchun ijtimoiy adaptatsiya va o‘zini namoyon qilishning noyob vositasidir. Paralimpiya o‘yinlari dasturiga kiritilgan ushbu sport turi aniqlik, diqqatni jamlash va strategik fikrlashni talab etadi. O‘zbekistonda ham ushbu sport turiga e’tibor kuchayib borayotgan bir paytda, sportchilarning tayyorgarlik tizimini ilmiy asosda takomillashtirish dolzarb hisoblanadi.

Boccia sportining ildizlari qadimgi davrlarga borib taqaladi. U Qadimgi Rim va Yunoniston o‘yinlariga o‘xshash.

Zamonaviy boccia sporti 1970-yillarda Yevropada, xususan Daniya da rivojlana boshlagan.

Dastlab bu sport turi serebral falaj (miya falaji) bilan kasallangan insonlar uchun yaratilgan.

1984-yilda boccia Paralimpiya o'yinlari dasturiga kiritilgan (New York va Stoke Mandeville da o‘tkazilgan o‘yinlarda).

Boccia (italyancha "bocce" – "sharlar" so‘zidan olingan) — bu tayanch-harakat a’zolari og‘ir shikastlangan, ayniqsa serebral falaj (CP) bilan kasallangan insonlar uchun maxsus moslashtirilgan, aniqlik va strategiyaga asoslangan sport turidir.

Ushbu sport turi 1984-yildan buyon **Paralimpiya o‘yinlari** dasturiga kiritilgan va bugungi kunda dunyodagi eng tez rivojlanayotgan inkluziv sport turlaridan biri hisoblanadi.

1. O‘yinning asosiy maqsadi

Boccia o‘yini mazmunan "Kerling" yoki "Boulz" sportiga o‘xshash. O‘yindan maqsad — o‘z jamoasining charm to‘plarini (qizil yoki ko‘k) nishon hisoblangan oq to‘pga (**Jek** deb ataladi) imkon qadar yaqinroq joylashtirishdir.

2. Inventar va maydon

- **To‘plar:** O‘yinda 13 ta to‘pdan foydalaniladi (6 ta qizil, 6 ta ko‘k va 1 ta oq Jek). To‘plar yumshoq charmdan tayyorlangan bo‘lib, og‘irligi taxminan **275 gramm**, aylanasi esa **270 mm** bo‘ladi.
- **Maydon:** O‘lchami **12.5 x 6 metr** bo‘lgan tekis maydonda o‘ynaladi.
- **Vaqt:** Har bir o‘yinchi yoki jamoaga o‘z to‘plarini otish uchun ma’lum vaqt limiti beriladi.

3. Sportchilar klassifikatsiyasi

Boccia sportida adolatni ta’minlash uchun sportchilar jismoniy imkoniyatlariga qarab 4 ta klassga bo‘linadi:

1. **BC1:** Sportchilar to‘pni qo‘l yoki oyoq bilan otishadi. Ularga yordamchi (asistent) o‘rindiqni to‘g‘rilash yoki to‘pni berishda yordam berishi mumkin.
2. **BC2:** Sportchilar to‘pni qo‘l bilan mustaqil otishadi. Yordamchi xizmatidan foydalanishmaydi.
3. **BC3:** Qo‘llari bilan otish imkoniyati deyarli yo‘q sportchilar. Ular maxsus **nov (rampa)** va yordamchi kishidan foydalanishadi. Yordamchi maydonga teskari qarab turishi va o‘yinga aralashmasligi shart, u faqat sportchining ko‘rsatmasi bilan novni yo‘naltiradi.
4. **BC4:** Serebral falaj bo‘lmagan, lekin boshqa og‘ir mushak kasalliklari (masalan, mushak distrofiyasi) bor sportchilar uchun.

4. O‘yin qoidalari

- **Boshlanishi:** Qur’a tashlanadi va g‘olib qizil to‘plarni tanlaydi. U birinchi bo‘lib oq "Jek"ni maydonga tushiradi va ketidan o‘zining birinchi qizil to‘pini otadi.
- **Navbat:** Har doim "Jek"dan uzoqroq masofada turgan rang egasi navbatdagi to‘pni otadi. Bu to‘plar tugaguncha yoki raqibdan ko‘ra yaqinroq nuqtaga tushguncha davom etadi.
- **Ballar:** Barcha to‘plar otib bo‘lingach, oq to‘pga eng yaqin turgan rang sohibiga ball beriladi. Jekka raqibning eng yaqin to‘pidan ko‘ra yaqinroq turgan har bir to‘p uchun **1 ball** beriladi.

5. Boccia sportining ahamiyati

Bu sport turi shunchaki o‘yin emas, u og‘ir nogironligi bor shaxslar uchun:

- **Reabilitatsiya:** Mushaklarni nazorat qilish va koordinatsiyani yaxshilaydi.
- **Psixologik yordam:** O‘ziga bo‘lgan ishonchni oshiradi va depressiyadan chiqaradi.
- **Ijtimoiy integratsiya:** Sportchi jamiyatning bir qismi ekanligini his qiladi, sayohat qiladi va muloqotga kirishadi.

Boccia — bu og‘ir jismoniy nuqsoni bor insonlar professional darajada, xalqaro maydonlarda va hatto Olimpiya darajasida ishtirok eta oladigan kam sonli sport turlaridan biridir

Boccia sportida muvaffaqiyatga erishish uchun sportchi quyidagi uchta asosiy yo‘nalishda mukammallikka intilishi lozim:

1. **Jismoniy tayyorgarlik:** Muskul tonusini nazorat qilish va chidamlilik.
2. **Texnik tayyorgarlik:** To‘pni otish traektoriyasi va kuchini aniq hisoblash.
3. **Taktik tayyorgarlik:** O‘yin maydonidagi vaziyatni tahlil qilish va raqibga qarshi strategiya tuzish.

Boccia — aniqlik va strategiyaga asoslangan sport.

O‘yinning asosiy maqsadi — o‘z to‘plaringizni “jack” (oq nishon to‘p) ga iloji boricha yaqin joylashtirish.

Maydon:

O‘lchami: 12.5 m × 6 m

Maxsus chiziqlar bilan sektorlarga bo‘lingan.

Jihozlar:

1 ta oq to‘p — jack

6 ta qizil to‘p

6 ta ko‘k to‘p

To‘plar yumshoq materialdan tayyorlanadi.

Boccia sportchilari asosan o‘tirgan holatda (nogironlar aravachasida) harakat qilishlari sababli, ularning jismoniy tayyorgarligi o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

1. Statik va dinamik muvozanat

Sportchi to‘pni otish paytida tanasining barqarorligini saqlashi shart. Buning uchun maxsus mashqlar qo‘llaniladi:

- **Izometrik mashqlar:** Gavda muskullarini mustahkamlash uchun.

- **Nafas olish mashqlari:** To‘p otishdan oldin hayajonni bosish va muskullarni bo‘shashtirish uchun.

2. Koordinatsiya va egiluvchanlik

Tayanch-harakat tizimi cheklanganligi sababli, qo‘l bo‘g‘imlarining harakatchanligini saqlash muhimdir. Mashg‘ulotlar rejasiga mayda motorika mashqlarini kiritish tavsiya etiladi.

Texnik tayyorgarlik usullari.

Texnik tayyorgarlik — bu to‘pni nishonga (Jek-to‘pga) imkon qadar yaqin joylashtirish san’atidir.

1. Otish turlari va ularni shakllantirish

Boccia’da bir necha xil otish texnikalari mavjud:

- **Pastdan otish (Underhand):** Eng ko‘p qo‘llaniladigan, aniqlikni ta’minlovchi usul.
- **Tepadan otish (Overhand):** To‘pni to‘siqlar ustidan oshirib tashlash uchun.
- **Lobar otish:** To‘pni ma’lum bir nuqtada to‘xtatish uchun yuqori traektoriya bilan otish.

2. Texnikani takomillashtirishda innovatsiyalar

Zamonaviy tayyorgarlikda **video-tahlil (Video Analysis)** tizimidan foydalanish samarali. Sportchining otish burchagi, qo‘l harakati va to‘pning aylanish tezligi videokameralar yordamida o‘rganilib, xatolar ustida ishlanadi.

Taktik tayyorgarlikni rivojlantirish.

Boccia ko‘pincha "shaxmatning jismoniy ko‘rinishi" deb ataladi. Bu yerda har bir harakat strategik ahamiyatga ega.

1. O‘yin strategiyalari

- **Himoyaviy taktikalar:** Raqib to‘pi va "Jek" orasiga o‘z to‘pini qo‘yib, yo‘lni to‘sish.
- **Hujumkor taktikalar:** Raqib to‘pini urib chiqarib yuborish (Knock-out).
- **Kombinatsion o‘yin:** Bir nechta to‘plar yordamida "devor" hosil qilish.

2. Psixologik turg‘unlik

Taktik qaror qabul qilishda sportchining ruhiy holati katta rol o‘ynaydi. Stressli vaziyatlarda (masalan, oxirgi to‘p qolganda) sovuqqonlikni saqlash bo‘yicha maxsus psixologik treninglar o‘tkazilishi zarur.

Mashg‘ulotlarni tashkil etishning metodik asoslari.

Sportchilarning klassifikatsiyasiga (BC1, BC2, BC3, BC4) qarab mashg‘ulotlar individuallashtirilishi shart.

Klass	Xususiyati	Asosiy mashg‘ulot yo‘nalishi
BC1	Qo‘l va oyoq bilan otish mumkin, yordamchi kerak.	Umumiy koordinatsiya va yordamchi bilan sinxronlik.
BC2	Mustaqil otish qobiliyati yuqori.	Kuchli zarbalar va aniq nishon.
BC3	Maxsus rampa (nov) yordamida o‘ynaydi.	Geometrik hisob-kitob va rampa boshqaruvi.
BC4	Og‘ir jismoniy nuqson, lekin harakat dinamik.	Maksimal tejamkor harakat va texnik aniqlik.

Xulosa. Boccia sporti bilan shug‘ullanuvchi sportchilarning tayyorgarligini takomillashtirish kompleks yondashuvni talab etadi. Mashg‘ulotlar jarayoniga **biomexanik tahlil**, **individual reabilitatsiya dasturlari** va **taktik modellashtirish**ni tatbiq etish xalqaro maydonda yuqori natijalarga erishishning garovidir. Eng muhimi, ushbu sport turi imkoniyati cheklangan insonlarning jamiyatga integratsiyalashuvida eng kuchli ijtimoiy lift vazifasini o‘taydi.

Adabiyotlar:

1. International Boccia Committee (BISFed). (2024). *International Rules of Boccia*.
2. Soliev I.R. (2021). *Adaptiv jismoniy tarbiya va sport*. Toshkent: "O‘qituvchi".
3. Gordeeva M.A. (2019). *Методика подготовки спортсменов в Бочча*. Москва: Спорт.
4. Jakbarova.D. Bolalar o‘smirlar sportining organism rivojlanishiga ta’siri, Research and Implementation ,2024, 224-228 betlar.
5. O‘zbekiston Milliy Paralimpiya Qo‘mitasi. (2025). *Ilmiy-uslubiy qo‘llanmalar to‘plami*.

BOKSDA HUJUM VA QARSHI HUJUM USULLARINI AMALGA OSHIRISH TAKTIKASIDA TAKOMILLASHISH

Mamatqulov Xusanboy Baxtiyor o`g`li,
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi

Mazkur maqolada boks sportida hujum va qarshi hujum usullarini amalga oshirish taktikasini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida bokschilarning texnik-taktik tayyorgarligini oshirish, tezkor qaror qabul qilish va qarshi hujum strategiyalarini rivojlantirish usullari o‘rganildi. Eksperimental mashg‘ulotlar natijasida zarba aniqligi, qarshi hujum samaradorligi va reaksiya tezligida ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Olingan natijalar hujum va qarshi hujumni uyg‘unlashtirish hamda integratsiyalashgan mashg‘ulotlar yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: *boks, hujum, qarshi hujum, taktika, texnik tayyorgarlik, kombinatsiya, sport mahorati, ring strategiyasi, tezkorlik, reaksiya*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТАКТИКИ РЕАЛИЗАЦИИ АТАКУЮЩИХ И КОНТРАТАКУЮЩИХ ДЕЙСТВИЙ В БОКСЕ

В данной статье проанализированы вопросы совершенствования тактики применения атакующих и контратакующих действий в боксе. В ходе исследования изучены методы повышения технико-тактической подготовленности боксеров, развития навыков быстрого принятия решений и совершенствования стратегий контратаки. Результаты экспериментальных тренировок показали положительные изменения в точности ударов, эффективности контратак и скорости реакции. Полученные данные свидетельствуют о высокой эффективности интегрированных тренировочных методов и сочетания атакующих и контратакующих действий.

Ключевые слова: *бокс, атака, контратака, тактика, техническая подготовка, комбинация, спортивное мастерство, стратегия ведения боя, скорость, реакция*

IMPROVING THE TACTICS OF OFFENSIVE AND COUNTER-OFFENSIVE TECHNIQUES IN BOXING

This article analyzes the improvement of tactics for implementing offensive and counterattacking actions in boxing. The study examines methods for enhancing boxers’ technical and tactical preparedness, developing quick decision-making skills, and improving counterattack strategies. The results of experimental training demonstrated positive changes in punch accuracy, counterattack efficiency, and reaction speed. The findings confirm that integrating offensive and counterattacking actions, along with the use of combined training methods, leads to higher performance effectiveness.

Keywords: *boxing. attack, counterattack, tactics, technical training, combination, sports mastery, ring strategy, speed, reaction*

Kirish (Adabiyotlar tahlili) Boks sporti yuqori darajadagi texnik, jismoniy va taktik tayyorgarlikni talab qiluvchi murakkab sport turlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy boksda g‘alaba nafaqat kuch yoki chidamlilik, balki sportchining ringdagi fikrlashi, vaziyatni tez baholashi va mos taktika tanlashiga ham bog‘liq.

Ilmiy manbalarda hujum va qarshi hujum usullari boks taktikasining asosiy komponentlaridan biri sifatida qaraladi. Ko‘plab tadqiqotchilar (A.A. Novikov, V.I. Filimonov, L.P. Matveev va boshqalar) boksda muvaffaqiyatga erishishda aynan qarshi hujum texnikalarining samaradorligi yuqori ekanligini ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, qarshi hujumlar raqibning xatolaridan maksimal darajada foydalanish imkonini beradi.

So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yuqori malakali bokschilar jang davomida hujum va qarshi hujumni uyg‘unlashtira oladi. Bu esa ularning taktik fikrlash darajasi yuqori ekanligini bildiradi. Shuningdek, xorijiy adabiyotlarda (F. Hatton, J. Smith va boshqalar) qarshi hujumlar “reaktiv taktika” sifatida talqin qilinib, sportchining reflekslari va oldindan sezish qobiliyatiga katta e’tibor qaratiladi.

Mahalliy olimlar tomonidan ham boksda texnik-taktik tayyorgarlikni oshirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lib, ularda yosh bokschilarni o‘qitishda hujum va qarshi hujumni birgalikda o‘rgatish muhimligi qayd etilgan.

Hujum va qarshi hujum usullarini amalga oshirish taktikasida takomillashish usullarning asosiy vazifasi – yolg‘ondan harakatlar bilan raqib diqqatini susaytirish va u qarshi harakatlarga tayyor turmagan paytda shiddat bilan hujum yoki qarshi hujumni amalga oshirish.

Hujumga tayyorgarlik ko‘rish paytida va ayniqsa hujum vaqtida bokschi e’tiborli bo‘lishi hamda raqibning kutilmagan qarshi harakatlaridan himoyalanishga tayyor turishi lozim. Hujum qilayotgan o‘zi “tuzoqqa” tushib qomasligi uchun raqibining chinakam tayyorgarligini yolg‘ondakasidan farqlab olishi lozim. Buning uchun hujum va qarshi hujumlarni amalga oshirishda mustahkam diqqat, sovuqqonlik (shoshmaslik, payt poylash) hamda qat’iyatlilik zarur. Shu bilan bir vaqtda, bokschi doimo himoyalanishga tayyor turishi kerak.

Hujum usullari raqibni aldashga, haqiqiy zarbalardan uning e’tiborini chalg‘itishga qaratilgan. Bokschi raqibini ma’lum bir javob harakatga o‘rgatib qo‘yadi, so‘ngra esa zudlik bilan usul qo‘llaydi yoki kerakli daqiqada tezda usul qo‘llash maqsadida turli harakatlar bilan raqibini adashtiradi. Masalan:

1. Chap qo‘lda yondan boshga bir necha marta zarba beradi, so‘ngra, shu zarbani takrorlashga urinayotganday harakatlanib (siltanish uchun qo‘lini orqaga uzatadi), o‘ng qo‘lda zarba beradi.

2. O‘ng qo‘lda yondan boshga zarba berishga otlangandek ko‘rsatib (bungacha o‘ng qo‘lda bir necha marta zarba beradi), chap qo‘lda zarba beradi.

3. Raqibni chap qo‘lda yondan boshga bittalik zarbaga o‘rgatib, keyin chap qo‘lda gavdaga takroriy zarbani qo‘shib bajaradi, ya’ni boshga va gavdaga beriladigan zarbalarni navbatma-navbat bajaradi. Raqib o‘ng tomonini himoyalashga butun diqqatini jamlagan paytda, bokschi chap qo‘lda zarbalar bilan hujum qilayotganga o‘xshab harakatlanadi, aslida esa o‘ng qo‘lda yondan boshga shiddatli hujumni amalga oshiradi.

Bokschi zarba bermoqchi ekanligiga va shu sababli himoyalanayot-ganligiga raqib ishonishi kerak, aslida bu vaqtda bokschi fint (chalg‘itish) qo‘llab, boshqa qo‘lida zarba beradi. Bokschi qarama-qarshi tamoyil asosida qurilgan boshqa usullar guruhini ham

egallashi lozim: bokschi fint qo‘llamoqchi ekanligi va shuning uchun himoyalanayotganligiga raqib ishonadi, bu vaqtda esa hujum qilayotgan shundan foydalanib zarba beradi. Masalan:

1. Chap qo‘lda yondan boshga zarba berish bilan fint bajaradi va o‘ng qo‘lda boshga zarba berishga “intiladi”. Raqib bu manyovrga ishonadi va chap qo‘lda yondan boshga beriladigan zarbadan himoyalanmaydi. Bokschi chap qo‘lda yondan boshga zarba beradi.

2. Chap qo‘lda pastdan gavdaga zarba berish fintini qo‘llaydi va o‘ng qo‘lda boshga zarba berishga “intiladi”. Raqib chap qo‘lda gavdaga beriladigan zarbalardan himoyalanmaydi, chunki buni fint, deb o‘ylaydi. Bokschi chap qo‘lda pastdan gavdaga zarba beradi.

3. Chap qo‘lda gavdaga va boshga zarba berish fintini qo‘llaydi. Raqib, aldamchi manyovrga ishonib, gavdasining o‘ng tomonini himoya qilmaydi. Bokschi zarbalar beradi.

4. O‘ng qo‘lda to‘g‘ridan boshga zarba berish fintini qo‘llaydi va pastdan gavdaga zarba berishga “intiladi”. Raqib bu manyovrga ishonib, o‘ng qo‘lda berilgan zarbadan himoyalanmaydi. Bokschi o‘ng qo‘lda boshga zarba beradi.

Bokschi yanada murakkab usullarni egallab olishi zarur – fintlar va haqiqiyzarbalarni navbatma-navbat bajarish. Ushbu usullardan foydalanganda raqib qayerda fint, qayerda zarba ekanligini aniqlay olmaydi. Bunday noaniqlik unda ishonchsizlikni yuzaga keltiradi, bir qolipdan chiqaradi va u o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchni yo‘qotadi.

Hujum usullarida takomillashish uchun taxdaqiy mashqlar:

1. Bokschi fint qo‘llaydi – chap qo‘lda zarba, zarbani esa o‘ng qo‘lda beradi. Bunda chap qo‘lda zarbani ko‘rsatishni chap qo‘ldagi zarbalar bilan birga bajaradi.

2. Fint bajaradi – o‘ng qo‘lda yondan zarba, o‘ng qo‘lda zarbani ko‘rsatishni

o‘ng qo‘ldagi zarbalar bilan almashlab, chap qo‘lda zarba beradi. Fintlar nafaqat qo‘llar bilan, balki gavda, oyoqlar, shuningdek, bu harakatlarning kombinatsiyasi yordamida amalga oshiriladi.

3. Zarbalar seriyalari yordamida muvaffaqiyatli shiddatli hujumni amalga oshiradi. Raqib himoyalanishga ulgurmaydi. So‘ngra hujum qilayotgan, gavda, oyoqlar harakati bilan hujumni ishora qilib, shu hujumni amalga oshiradi. Raqib tezda himoyalanadi. Bokschi hujumni takroran ishora yordamida bajaradi, raqib endi ehtiyotsizroq himoyalanadi. Uchinchi martada bokschi endi haqiqiy hujumni bajaradi.

Uzoq himoya masofasidan turib hujum qilishdagi mashqlar guruhi ham samaralidir. Bunday hujumlar raqib uchun kutilmaganda bajariladi, chunki bokschi undan o‘ta uzoq masofada turadi, odatda, himoya masofasidan hujum qilinmaydi.

Odatda, bokschi hujum oldidan oldinga dastlabki qadamni tashlaydi (zarba masofasiga chiqish uchun). Bunday yaqinlashish payti himoyalanish uchun signal bo‘lib xizmat qiladi.

Taklif etilayotgan mashqlarda bokschi, qoidalarga qarshi, himoya (o‘ta uzoq) masofasidan hujum qilishi lozim. Agar hujum qiluvchi zarbalarni “qarama-qarshi nomlanadigan” oyoqlarda yoki “sakrashda” amalga oshirsa, buning uddasidan chiqish mumkin. Bokschining o‘z raqibini zarbalarning ma’lum bir tezligiga va zarba berish vaqtini (zarbalar tezligini keyinchalik almashlab turish bilan) sezishga o‘rgatishiga asoslangan usullar guruhi o‘rganish uchun juda muhimdir. Raqib sekin zarbalardan himoyalanishga o‘rganadi va tezkor zarbalardan himoyalanishga ulgurmaydi yoki tezkor zarbalardan himoyalanishga o‘rganib qolib, sekin zarbalarga (ularni fint, deb o‘ylab) e’tibor qilmaydi. Masalan:

1. Bokschi o‘ng qo‘lda pastdan (yondan) boshga sekin zarbalarni beradi. Raqib oson himoyalanadi. Raqibni bunday manyovrga o‘rgatib qo‘yib, bokschi xuddi o‘sha yerga shiddatli zarba beradi.

2. Chap qo‘lda to‘g‘ridan boshga tezkor zarbalarni chap qo‘lda sekin fintlarbilan almashlab bajaradi. Raqib tezkor zarbalardan himoyalanadi va sekin zarbalarga e’tibor qilmaydi. Shunda bokschi fint qo‘llaydiki, u zarba bilan yakunlanadi.

Qarshi hujum usullarida takomillashish uchun taxdaqiy mashqlar (ushbu mashqlarda bokschi haqiqiy qarshi hujumdan raqib e’tiborini chalg‘itadi):

1. Raqibning chap qo‘lda to‘g‘ridan boshga berilgan hujumidan bokschi bir necha marta chekinadi, so‘ngra chekinish o‘rniga chap (o‘ng) qo‘lda boshga to‘g‘ridan shiddatli qarshi zarba beradi.

2. Bokschi o‘zini shunday ko‘rsatadiki, raqibning chap qo‘lda to‘g‘ridan boshga qilingan hujumiga qarshi o‘ng qo‘lda boshga to‘g‘ridan qarshi zarba bilan javob qaytarmoqchi bo‘ladi va bir necha marta shu zarbani bajarishga “intiladi”. Raqib o‘ng qo‘lda berilgan zarbadan himoyalanishga o‘z diqqatini jamlaydi, shu paytda esa bokschi chap qo‘lda yondan boshga (chap qo‘lda pastdan gavdaga) zarba beradi.

3. Raqib chap qo‘lda to‘g‘ridan boshga hujum qiladi, bokschi gavdaga to‘g‘ridan qarshi zarbani amalga oshiradi. Raqib chekinadi. Uni shunga o‘rgatib, bokschi o‘ng qo‘lda gavdaga bittalik zarba o‘rniga zarba seriyasini beradi: o‘ng qo‘lda gavdaga va chap qo‘lda yondan, o‘ng qo‘lda qisqa to‘g‘ridan zarba va oldinga siljib yondan boshga zarba.

Raqibning faol hujum va qarshi hujum harakatlariga o‘zining yolg‘ondan hujumlari bilan chorlashga asoslangan mashqlar:

1. Bokschi, raqibini faol hujum harakatlariga da’vat etib, yengil zarbalar bilan hujum qiladi. Raqib ham hujum qiladi, bokschi himoyalanishga tayyor, himoyalanadi va javob qarshi hujumlarini amalga oshiradi.

2. Bokschi yengil zarbalar bilan hujum qiladi, raqibning o‘zi hujumga o‘tadi, bokschi qarshi hujumga tayyor hamda raqib hujumidan ilgarilab (yoki birinchi zarbadan qochib), qarshi hujum uyushtiradi.

3. Bokschi raqibini qarshi hujumga chorlab va majburlab yengil zarbalar bilan hujum qiladi. Raqib qarshi hujum qiladi. Bokschi himoyalanadi va javob qarshi hujumni qo‘llaydi.

4. Xuddi oldingi mashqdagi kabi, lekin bokschi raqib harakatlaridan ilgarilab yoki og‘ish bilan himoyalanib, javob qarshi hujumni bajaradi.

5. Bokschi yengil zarbalar bilan hujum qiladi. Raqib oldinga siljigan holda zarbalar seriyalari bilan qarshi hujumni amalga oshiradi. Bokschi orqaga harakatlangan holda qarshi hujum zarbalarini beradi.

Yolg‘ondan ochilishlar tamoyili bo‘yicha tuzilgan mashqlar:

1. Bokschi manyovr qiladi, o‘ng qo‘lini tushirib, o‘zining masofasiga chiqadi, raqib chap qo‘lda yondan boshga hujum qiladi. Bokschi sho‘ng‘ishni bajaradi va o‘ng qo‘lda yondan qarshi hujum uyushtiradi.

2. Raqibning o‘ng qo‘lda berilgan qarshi zarbasiga “ochilib”, bokschi chap qo‘lda to‘g‘ridan zarba bilan hujum qiladi. Raqib o‘ng qo‘lda boshga zarba bilan javob qaytaradi. Bokschi o‘ngga og‘adi va o‘ng qo‘lda boshqa javob zarbasini beradi.

3. Bokschi chap qo‘li tushirilgan holda o‘zining zarba berish masofasiga iradi.

Raqib o‘ng qo‘lda zarba beradi. Raqib harakatidan ilgari o‘ng qo‘lda boshga qarshi zarba yo‘llaydi.

4. Bokschi raqibning o‘ng qo‘lda berilgan qarshi zarbasiga ochilib, chap qo‘lda to‘g‘ridan boshga hujum qiladi. Raqib bu zarbani o‘ng qo‘lda to‘g‘ridan (yondan) boshga zarba bilan qarshi oladi. Bokschi chapga og‘adi (“sho‘ng‘iydi”) va yondan boshga (chap qo‘lda pastdan gavdaga) zarba bilan javob qaytaradi.

Ushbu usullarni hisobga olgan holda tadqiqot metodologiyasi ishlab chiqildi

Tadqiqot davomida quyidagi usullardan foydalanildi:

- ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish;
- sport mashg‘ulotlarini kuzatish;
- tajriba (eksperimental mashg‘ulotlar);
- solishtirma tahlil usuli.

Tadqiqot obyektini o‘rta va yuqori malakali bokschilar tashkil etdi.

Tadqiqot natijalari va muhokama

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, boksda hujum va qarshi hujum usullarini takomillashtirish quyidagi omillarga bog‘liq:

1. Hujum usullarini takomillashtirish

- To‘g‘ri masofa tanlash (distansiya nazorati)
- Kombinatsiyalangan zarbalardan foydalanish
- Raqibni chalg‘ituvchi harakatlar (feintlar)
- Tezlik va aniqlikni oshirish

Hujum taktikasida bir zarba emas, balki ketma-ket zarbalar tizimi samaraliroq hisoblanadi.

2. Qarshi hujum usullarini rivojlantirish

Qarshi hujum quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- To‘g‘ridan-to‘g‘ri qarshi hujum – raqib zarbasi vaqtida zarba berish
- Qaytuvchi qarshi hujum – himoyadan keyin darhol zarba berish
- Oldindan qarshi hujum – raqib harakatini oldindan sezib zarba berish

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, yuqori malakali bokschilar aynan qarshi hujum orqali ko‘proq ochko to‘playdi.

3. Taktik uyg‘unlik

Hujum va qarshi hujumni alohida emas, balki yagona tizim sifatida o‘rgatish muhim.

- Hujum → himoya → qarshi hujum ketma-ketligi
- Vaziyatga qarab taktika o‘zgartirish
- Raqib uslubiga moslashish

4. Psixologik va reaksiya tayyorgarligi

- Tez qaror qabul qilish
- Stressga chidamlilik
- Raqib harakatini oldindan sezish

Tadqiqot natijalari (jadval va diagrammalar bilan)

Tadqiqot sharoiti

1.Ishtirokchilar: 12 nafar bokschi
2.Davomiylik: 8 hafta
3.Haftasiga: 4 ta mashg‘ulot
4.Baholangan ko‘rsatkichlar:
a.Aniqlik (%)
b.Qarshi hujum samaradorligi (%)
c.Reaksiya vaqti (sekund)
d.G‘alaba holatlari (% sparringda)

1-jadval: Mashg‘ulot turlari va ularning ta’siri

№	Mashg‘ulot turi	Tavsifi	Qaysi ko‘rsatkichga ta’sir qildi
1	Shadow boxing (ko‘zgu oldida)	Kombinatsiyalarni takrorlash	Texnika, aniqlik
2	Pad (lapka) mashqlari	Murabbiy bilan tezkor zarbalar	Tezlik, aniqlik
3	Sparring (nazoratli)	Real jangga yaqin holat	Taktika, qaror qabul qilish
4	Qarshi hujum drilllari	Maxsus vaziyatli mashqlar	Qarshi hujum samaradorligi
5	Reaksiya mashqlari	Signalga javob berish	Reaksiya tezligi
6	Feint (aldov) mashqlari	Raqibni chalg‘itish	Taktik fikrlash

2-jadval: Mashg‘ulotdan oldin va keyin natijalar

Ko‘rsatkich	Boshlanish (1-hafta)	8-hafta	O‘zgarish (%)
Zarba aniqligi	62%	78%	+16%
Qarshi hujum samaradorligi	48%	71%	+23%
Reaksiya vaqti	0.62 sek	0.44 sek	-0.18 sek
Sparring g‘alabalari	50%	75%	+25%

3-jadval: Qaysi mashg‘ulot qaysi natijani oshirdi

Mashg‘ulot	Eng katta ta’sir	Izoh
Pad mashqlari	Zarba aniqligi +12%	Tez va aniq zarba rivojlandi

Mashg‘ulot	Eng katta ta’sir	Izoh
Qarshi hujum drilllari	Qarshi hujum +18%	Vaziyatli fikrlash oshdi
Sparring	G‘alaba +20%	Real tajriba berdi
Reaksiya mashqlari	Reaksiya -0.12 sek	Tez javob berish
Feint mashqlari	Taktika +	Raqibni chalg‘itish kuchaydi

Tahlil (ilmiy izoh)

Natijalar shuni ko‘rsatdiki:

- Eng katta o‘sish **qarshi hujum mashqlarida** kuzatildi (+23%)
- **Sparring** mashg‘ulotlari umumiy natijani keskin yaxshiladi
- **Reaksiya mashqlari** jang tezligini oshirdi

Kombinatsion mashqlar (pad + shadow) texnikani mustahkamladi

Xulosa. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, boks sportida hujum va qarshi hujum usullarini takomillashtirish sportchilarning umumiy texnik-taktik mahoratini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Eksperimental mashg‘ulotlar natijasida zarba aniqligi, qarshi hujum samaradorligi hamda reaksiya tezligida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Ayniqsa, qarshi hujumga yo‘naltirilgan maxsus mashqlar va sparring mashg‘ulotlari yuqori natija berishi aniqlandi. Tadqiqot shuni tasdiqladiki, hujum va qarshi hujumni alohida emas, balki yagona tizim sifatida o‘rgatish, shuningdek, fintlar, kombinatsiyalar va real jangga yaqin vaziyatlarda mashg‘ulotlar o‘tkazish bokschilarning taktika va tezkor fikrlash qobiliyatini sezilarli darajada rivojlantiradi. Shu bilan birga, sportchining psixologik tayyorgarligi, xususan, sovuqqonlik, diqqat va tez qaror qabul qilish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Platonov V.N. Sport trenirovkasi nazariyasi va metodikasi. – Kiyev: Olimpiyskaya literatura, 2015.
2. Matveyev L.P. Sport tayyorgarligi nazariyasi. – Moskva: Fizkultura i sport, 2010.
3. Verkhoshanskiy Yu.V. Maxsus jismoniy tayyorgarlik nazariyasi. – Moskva: Fizkultura i sport, 2008.
4. Filimonov V.I. Boks: nazariya va amaliyot. – Moskva: Sovetskiy sport, 2012.
5. Bompa T., Buzzichelli C. Periodization: Theory and Methodology of Training. – Champaign: Human Kinetics, 2019.
6. AIBA. Coaching Manual: Technical and Tactical Boxing. – 2020.
7. Xalmuxamedov R.D., Shin V.N., Tajibayev S.S., Rajabov G‘. Q., Anashov V.D. Bokschilarning sportpedagogik mahoratini oshirish. Darslik. – 2020yil. 593bet.
8. Tajibayev S.S., Abduhamidov R.N., Nadjimov F.F. Boks bo‘yicha ta’lim muassasalarida sport to‘garak mashg‘ulotlarini tashkil etish yuzasidan o‘quv dasturi va metodik tavsiyalar. – Toshkent, 2017yil.
9. Xalmuxamedov R.D., Tajibayev S.S., Rajabov G‘. Q. Yakkakurash sport turlari (BOKS). Darslik. – 2015yil.
10. Rajabov G., Mamatqulov X. Bokschilarning musobaqa faoliyati xususiyatlarini hisobga olgan holda texnik-taktik harakatlarini takomillashtirish //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 13. – С. 36-45.

11-12 YOSHLI VOLEYBOLCHILARDA MAXSUS TAYYORGARLIGINI HARAKATLI O‘YINLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH YO’LLARI

Boymurotov Samandar Ubaydulloyevich,
Buxoro davlat pedagogika instituti
Jismoniy tarbiya va sport kafedrasi o’qituvchisi

Mazkur maqolada 11–12 yoshli voleybolchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini harakatli o‘yinlar orqali rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Tadqiqot jarayonida yosh sportchilarning tezkorlik, chaqqonlik, koordinatsiya va sakrash qobiliyatlarini oshirishda harakatli o‘yinlarning samaradorligi tahlil qilindi. Shuningdek, mashg‘ulot jarayonida o‘yin metodlaridan foydalanish orqali sportchilarning qiziqishi va motivatsiyasini oshirish imkoniyatlari ko‘rib chiqildi. Olingan natijalar harakatli o‘yinlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar yosh voleybolchilarning maxsus tayyorgarligini samarali rivojlantirishini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: *Voleybol, yosh sportchilar, maxsus jismoniy tayyorgarlik, harakatli o‘yinlar, tezkorlik, chaqqonlik, koordinatsiya, sakrash qobiliyati, mashg‘ulot metodikasi, sport pedagogikasi.*

ПУТИ РАЗВИТИЯ СПЕЦИАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ У ВОЛЕЙБОЛИСТОВ 11–12 ЛЕТ ПОСРЕДСТВОМ ПОДВИЖНЫХ ИГР

В данной статье освещаются теоретические и практические основы развития специальной физической подготовки волейболистов 11–12 лет посредством подвижных игр. В ходе исследования была проанализирована эффективность подвижных игр в повышении скоростных качеств, ловкости, координации и прыгучести у юных спортсменов. Также рассмотрены возможности повышения интереса и мотивации спортсменов за счёт использования игровых методов в тренировочном процессе. Полученные результаты показали, что занятия, организованные на основе подвижных игр, способствуют эффективному развитию специальной подготовки юных волейболистов.

Ключевые слова: *волейбол, юные спортсмены, специальная физическая подготовка, подвижные игры, скорость, ловкость, координация, прыгучесть, методика тренировки, спортивная педагогика.*

WAYS TO DEVELOP SPECIAL TRAINING OF 11–12-YEAR-OLD VOLLEYBALL PLAYERS THROUGH ACTIVE GAMES

This article presents the theoretical and practical foundations for developing the special physical training of 11–12-year-old volleyball players through active games. The study analyzes the effectiveness of active games in improving speed, agility, coordination, and jumping ability in young athletes. It also examines the potential of using game-based methods in training sessions to increase athletes’ interest and motivation. The results obtained show that training organized on the basis of active games effectively enhances the special training of young volleyball players.

Keywords: *volleyball, young athletes, special physical training, active games, speed, agility, coordination, jumping ability, training methodology, sports pedagogy.*

Kirish. Hozirgi kunda sport tayyorgarligi tizimida yosh sportchilarni samarali tayyorlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, 11–12 yosh davri voleybolchilar uchun asosiy jismoniy sifatlar va maxsus ko‘nikmalar shakllanishida muhim bosqich hisoblanadi. Shu sababli, mashg‘ulot jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etish zarurati ortib bormoqda.

An’anaviy mashg‘ulot usullari bilan bir qatorda, harakatli o‘yinlardan foydalanish yosh sportchilarning jismoniy va psixologik rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Harakatli o‘yinlar orqali sportchilar nafaqat jismoniy sifatlarini rivojlantiradi, balki tez qaror qabul qilish, jamoaviy hamkorlik va taktik fikrlash ko‘nikmalarini ham shakllantiradi. Shu nuqtai nazardan, ushbu mavzuni ilmiy asosda o‘rganish dolzarb hisoblanadi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Yosh sportchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish masalasi ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Sport pedagogikasi va nazariyasida harakatli o‘yinlarning

o‘rni va ahamiyati keng yoritilgan. Tadqiqotlarda harakatli o‘yinlar yosh sportchilarning umumiy va maxsus jismoniy sifatlarini rivojlantirishda samarali vosita ekanligi ta’kidlangan.

Shu bilan birga, voleybol sport turiga ixtisoslashgan holda aynan 11–12 yoshdagi sportchilarning maxsus tayyorgarligini harakatli o‘yinlar orqali rivojlantirish masalasi yetarli darajada kompleks o‘rganilmagan. Mavjud ilmiy ishlarda asosan umumiy jismoniy tayyorgarlik yoki katta yoshdagi sportchilar ko‘proq tadqiq qilingan. Bu esa mazkur yo‘nalishda qo‘shimcha ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil. Insonning bolaligidagidek, odamzod tarixining dastlabki davrlarida o‘yinlar hayotida muhim o‘rin tutgan. O‘yinlar yordamida insoniyat o‘sgan ulg‘aygan, chiniqqan, jisman baquvvat bo‘lgan, aqlan, ruhan rivojlangan, ma’naviy kamol topgan. Xullas, o‘yin odamzod taraqqiyotida katta ahamiyat kasb etgan. Buning sabablari quyidagicha:

Birinchidan, insonda o‘yinga nisbatan tabiiy ehtiyoj bo‘lib, u hayotdagi bo‘shliqni to‘ldirgan, inson tanadagi ortiqcha kuchni sarflashga, yetishmagan kuchni to‘plashga yordam bergan.

Ikkinchidan, o‘yinlar insonning turmushi, mehnati, tajribasi, tashvishi, kurashi, yutuqlari aksini topadi. O‘yinlar orqali biz insoniyat tarixi, orzu-o‘yi muammolari, niyatlarini o‘rgansak bo‘ladi.

Uchinchidan, o‘yin inson madaniyatining eng qadimgi ko‘rinishi, ko‘pgina ma’naviy soha (raqs, tomosha-teatr, musiqa, sport marosim kabi) larning chashmasi sifatida xizmat qilgan.

To‘rtinchidan, o‘yinlar avlod-ajdodlarimizning sog‘lomlashtirish vositasi hisoblangan. Ota-bobolarimiz xalq o‘yinlari va musobaqalari yordamida aqlan raso, ruhan tetik, jismonan baquvvat bo‘lib kelgan. Sog‘lom avlodlarni shakllantirshda o‘yinlar asosiy omilga aylangan.

Beshinchidan, o‘yinlar eng samarali tarbiya vositasi. Bolalar o‘yinlar orqali hayotga tayyorgarlik ko‘rgan, turmushdagi qiyinchiliklarni yengishni, mashq qilgan, ish va kurashda g‘alaba qilishni o‘rgangan.

Oltinchidan, o‘yinlar ajdodlarimizning tajribasini o‘zida uyg‘unlishtiruvchi madaniy meros va zamondoshlarimizni, ayniqsa yosh avlodni aqliy, ruhiy va jismoniy barkamol bo‘lishiga xizmat qiluvchi bebaho manbadir.

Demak, o‘yinlar – xalqning tabiiy va tarixiy extiyoji asosida shakllangan ajdodlar turmushi, mehnati, tajribasi, kurashi, yutuqlarini boshqa shaklda aks ettiradigan, ko‘pgina ma’naviy sohalar chashmasi, sog‘lom avlodni shakllantiruvchi tarbiya vositasi va zamondoshlarimizning jismoniy ruxiy, aqliy rivojlanishga hizmat qiluvchi muhim omildir.

Madaniy merosimizning uzviy va ajralas qismi bo‘lgan, avlod ajdodlarimizga asrlar mobaynida ruh, jon va sog‘liq ato etib kelgan xalq o‘yinlarini tiklash va ulardan samarali foydalanish- milliy qiyofamiz, ma’naviyatimiz va qadriyatimizni yuksaltirish demakdir. Xalq o‘yinlari yangi sog‘lom avlodni shakllantrishda ham o‘ta muhim o‘rin tutgani uchun biz ularni ko‘z qorachig‘imizdek asrashimiz, e’zozlashimiz va ulardan oqilona foydalanishimiz zarur.

Mamlakatimizda o‘sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash o‘smirlarning yuksak ma’naviy va jismoniy sifatlarini shakllanishida eng muhim vositalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, o‘yinlar maktabgacha yoshdagi va kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy tarbiyasida katta o‘rin egallaydi, chunki bu o‘yinlar harakat malakalarining kompleks ravishda takomillashuviga, to‘g‘ri jismoniy rivojlanishiga, sog‘liqni mustahkamlash hamda saqlashni ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Umumta’lim maktabini isloh qilish yosh avlod tarbiyasi yanada kuchaytirish, ularni jamoachilik, mehnatsevarlik va jamiyat oldidagi burchini his etish ruhida tarbiyalashdek g‘oyat muhim vazifalar bilan bog‘liqdir. Buning ma’nosi bolalarda maktabda o‘qiy boshlagan birinchi kundanoq mehnatga muhabbat, uyushqoqlik, ishchanlik va boshlagan ishni oxiriga yetkazish xusisyatlarini tarbiyalash demakdir. Buning uchun tarbiyaning barcha vositalaridan, xususan bolalarning sevimli mashg‘ulot harakatli o‘yinlardan foydalanish ayni muddaodir.

Harakatli o‘yinlar turli qiyinchiliklarni yengish va har xil fazilat va qobiliyatlarni ko‘rsatishga doir jismoniy mashqlarni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari odatda bolalarga quvonch bag‘ishlaydigan musobaqalar ham harakatli o‘yinlar jumlasiga kiradi.

Harakatli o‘yinlar yurish, yugurish, sakrash, biror narsani irg‘itish yoki uloqtirish, biror narsaga tirmashib chiqish kabi mashqlarni o‘z ichiga oladi va bolaning xarakatlarini takomillashtiradi. Bundan tashqari o‘yinlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy sifatlarini ham rivojlantiradi. Bularga intizomlilik, do‘stlik, bir-biriga bo‘lgan munosabat, onglilik, jamoada o‘zini tuta bilish va uning shartlari, diqqatini, obro‘si uchun kurash, o‘rtoqlariga beg‘araz, yordam berish kabi fazilatlarni ham shakllantiradi. Masalan; «Epchil bolalar», «Quvlashmachoq», «Kim keldi» va hakozolar.

O‘yinni tashkil qilish va o‘tkazishda imkoni boricha o‘quvchilarning tashabbuskori bo‘lishi, faol ishtirok etishi uchun ularni rag‘batlantirish juda muhim.

Bolalar ijodiy faollik ko‘rsatib o‘yin o‘ynar ekanlar, tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo‘lib tarbiyalanadilar. Bir maqsad yo‘lida o‘rtog‘iga yordam berish, mustaqil ravishda yoki o‘rtoqlari bilan birga

biror masala yuzasidan qaror qabul qilish ijodiy tashabbuskorlik namunasi hisoblanadi. Agar bolalar o‘yinni ilgariroq o‘zlashtirib olgan bo‘lsalar, o‘yin paytida bolalarning faol bo‘lishi o‘qituvchining o‘yinni o‘tkazishga qanchalik tayyorlanganiga bog‘liq bo‘ladi. Ma’lumki, har bir o‘yinning o‘ziga xos xususiyatlari va qiyinchiliklari bo‘ladi.

To‘siq yoki qiyinchiliklarni yengish bilan bog‘liq bo‘lmagan, ya’ni ancha-muncha kuch-quvvat sarflashni talab qilmaydigan o‘yinlar bolalarda qiziqish uyg‘otmaydi.

Kichik maktab yoshi bilim ko‘nikma va malakalar tarkib topishining, tasavvur hamda tushunchalar hosil bo‘lishining boshlang‘ich davridir. Xuddi mana shu davrda o‘g‘il va qizlarni muntazam hamda izchil tarbiyalash uchun katta imkoniyatlar vujudga keladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash tizimida o‘yinlar alohida rol o‘ynaydi. Har xil o‘yinlar topog‘onlik va mehnatga munosabat hamda, bolalarning xarakteri va qobiliyatlari, dars usuliyati nuqtai nazaridan, hatto eng maqul bo‘lgan bir xil sharoitdagina nisbatan ancha yaqqolroq ko‘rinadi.

To‘g‘ri o‘tkazilgan o‘yin ko‘p narsani o‘rgatishga yordam beradi. Bolalarning barcha yosh bosqichlarida ularga ishonch va haqiqat sifatida xizmat qilgan hamda ularning zexni va bilimiga intilishi lozim bo‘lgan o‘yinlarga qiziqish susayib bormoqda. Vaholanki, bolalarni o‘yinlarning kuch-quvvat va kulgi baxsh etadigan xilma- xil, jo‘shkin va erkin vaziyatlariga olib kirish hamda jafokash pedegogikaning asriy savollariga tegishli javoblarni ana shu vaziyatlardan izlash kerak.

O‘yinlar jismoniy tarbiya tizimida foydali vosita hisoblanadi, ularning aniq tasniflanishini talab qiladi. Lekin ularning hajmi va yo‘nalishi har xilligi tasnifni aniq bir shaklga keltirishga yo‘l qo‘ymaydi (35). Mavjud bo‘lgan o‘yinlarni tizimga solish tashkiliy va pedagogik belgilari bo‘yicha ko‘rib chiqilmoqda (28). Usmonxo‘jaev (1995) harakatli o‘yinlarni shug‘ullanuvchilarning harakat faolligi darajasi shuningdek, organizmga fiziologik ta’siri ortishi bo‘yicha tasniflanishi taklif qilmoqda.

Harakatli o‘yinlarni tanlash yo‘nalishiga ko‘ra harakat sifatlarini tarbyalash xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi (27).

Kichik maktab yoshdagilarga chaqqonliy, tezokrlik, harakat aniqligi, muvozanat yuzaga chiqishning kuzatilishi xosdir (26,48).

Umuman olganda xalq o‘yinlari tobora ravnaq topmoqda. Shunday bo‘lsada o‘quvchi yoshlar faoliyatidan maqsadli foydalanishning yagona tizimi va uni talab darajasida qo‘yish mumkindir. Bu jihatlarni o‘rganish, ilmiy-nazariy tahlil qilish va amaliy takliflar asosida o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarni ishlab chiqarish davr taqqazosidir.

Bolaning o‘sishi va rivojlanishi bilan o‘yinlarning mazmuni ham o‘zgarib boradi: o‘yin faoliyati dastlabki bosqichlarda oddiy xarakterda bo‘lsa, keyinchalik u boyib boradi. P.F.Lesgaft o‘zining jismoniy mashqlar tizimida o‘yinlarni jismoniy tarbiya vositasi sifatida ifodalaydi. U o‘yin yordamida bolaning hayotga tayyorlanishiga e’tibor qaratadi. Uning harakatli o‘yinlarni o‘tkazish uchun qo‘ygan talablari bugungi kungacha o‘z qimmatini yo‘qotgani yo‘q. Masalan, u har bir o‘yin oldiga aniq maqsadlar qo‘yishi, o‘tkazilayotgan o‘yin qatnashuvchilarning kuch va qobiliyatlariga mos kelishi, o‘yin shug‘ullanuvchiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi lozimligini, ularni tizimli tarzda hamda muntazam o‘tkazish, o‘quvchilarning faolligi, mustaqilligini oshirishga harakat qilish zarurligini uqtirgan edi.

11-12 yoshli bolalar yoshiga mos o‘yinlarni jismoniy sifatlarni rivojlantirishiga ko‘ra quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Tezkorlikni tarbiyalovchi o‘yinlar;
2. Kuchni oshiruvchi o‘yinlar.
3. Chaqqonlikni rivojlantiruvchi o‘yinlar.
4. Chidamlilikni rivojlantiruvchi o‘yinlar.
5. Egiluvchanlikni tarbiyalovchi o‘yinlar;

Ayrim o‘yin turlari bolalarning barcha bo‘g‘inlariga mos kelishi mumkin, ya’ni jismoniy sifatlarni yaxlit holda tarbiyalashga qaratilgan o‘yinlar ko‘pchilikni tashkil etadi, ularda turli jismoniy sifatlar ketma-ket rivojlanishi mumkin. O‘yinlardagi bunday izchillik bolaning bilim saviyasi, turmush tajribasi kengayishi, katta yoshdagi odamlar turmushiga chuqurroq kirib borishi bilan bog‘liqdir. Darhaqiqat, o‘yinlarning oddiydan murakkabga tomon o‘sishi turmushning tobora yangi qirralarini aks ettirish bilan cheklanib qolmay, muayyan o‘yinning o‘ziga xos boshqa ko‘rinishlari bilan boyishi sababli amalga oshadi.

1. Tezkorlikni tarbiyalovchi o‘yinlar. Tezkorlikni tarbiyalash uchun mashqlar maksimal suratda bajarilishi lozim. Signalga binoan tezlikda javob berilishini muayyan vaqt birligi ichida ko‘p harakatlar bajarilishini hamda butun tana yoki uning bir qismini fazoda tezlik bilan harakat qilishini talab qiladigan o‘yinlar o‘quvchida tezkorlik sifatini rivojlantiradi. Bunda ko‘proq ikki guruhning faol musobaqalashishiga olib keladigan o‘yinlar o‘tkazishga e’tibor qaratiladi.

Harakatdagi ob’ektga nisbatan bo‘lgan reaksiyani tarbiyalovchi o‘yinlar bu o‘rinda yaxshi natija beradi. Bunday o‘yinlarga «Do‘ppi kiyishda kim g‘olib?», «To‘rt muyush», «Bo‘sh joy», «Kim tez o‘ynaydi» kabilarni kiritish mumkin.

Masalan, «Do‘ppi kiyishda kim g‘olib» o‘yini qadimgi o‘zbek xalqining milliy harakatli o‘yinlaridan hisoblanib, bolani tezkorlik, chaqqonlikka o‘rgatadi. O‘yinda o‘quvchilar ikki guruhga bo‘linadi. 30 metr masofani ikkita do‘ppi bilan belgilash kerak. Har ikkala guruhdan ikki bola shu masofaga yugurib borib kelishi va o‘yinni bajarishi-do‘ppi boshidan tushmasligi kerak. O‘yin guruhdagi bolalarning hammasining boshiga do‘ppi kiygizilgunga qadar davom etadi. qaysi guruh shartni tez bajarsa, o‘sha g‘olib sanaladi.

2. Kuchni rivojlantiruvchi o‘yinlar. Bunda o‘qituvchi kerakli mushak guruhlarining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan o‘yinlarni tanlashi lozim. Kuchni rivojlantiruvchi o‘yinlarda o‘quvchi o‘z tana og‘irligini, bironta tashqi og‘irlikni yoki raqib og‘irligini(qarshiligini) yengadi. Kuchni rivojlantirish uchun quyidagi o‘yinlar tavsiya etiladi: «Xo‘roz-xo‘roz» o‘yini, «Uloq», «Otdan ag‘darish» , «Oqsoq bo‘ri va qo‘ylar», «Chuqurga tushir» kabilar. Chunonchi, «Xo‘roz-xo‘roz» o‘yinida bolalar soni qancha ko‘p bo‘lsa, o‘yin shuncha qiziqarli bo‘ladi. Bu o‘yinda asosan o‘g‘il bolalar qatnashadi. Bolalar ikkiga bo‘linib o‘ynaydilar. Ikki tomonda guruh sardorlari saylanadi. O‘qituvchi sinf o‘quvchilarini ikki jamoaga bo‘ladi. Ular bir-birlariga yuzma-yuz qarab turadilar. O‘rtaga ikki jamoadan bittadan o‘quvchi chiqadi. Ular qo‘llarini orqaga tutib bir oyoqlab sakrashib, yelkalari bilan bir-birlarini itara boshlaydilar. Bunda birorta bola oldin oyog‘ini yerga qo‘yishi yoki orqasidagi qo‘lini bo‘shatib, o‘ynashi mumkin emas. O‘yinning asosiy maqsadi, o‘quvchilarning kuchini sinash, chidamlilikni oshirishdan iborat.

Bu o‘yinning yana bir boshqacha ko‘rinishi ham bor. Bunda ikkita o‘g‘il bola qatnashadi. Dastlab yerga doira shakli chiziladi. Shu doira ichida har ikkala bola ham qo‘llari orqasida, bir oyog‘ini ko‘tarib, ikkinchi oyog‘ida sakrab-sakrab bir-birini yelkasi bilan turtib, doira ichidan chiqib ketgan yoki ko‘tarilgan oyog‘ini yerga qo‘ygan bola yutqazgan hisoblanadi.

Tezkorlik va kuchni rivojlantiruvchi o‘yinlar ma’lum bir vazifani hal etishda katta yordam beradi.

3. Chaqqonlikni tarbiyalovchi o‘yinlar. Aniq harakat qilish zarur bo‘lgan, bajarish sharoitlari o‘zgaruvchan milliy o‘yinlarda chaqqonlik yaxshi rivojlangan bo‘lishi kerak. Shunga tayangan holda chaqqonlikni tarbiyalash uchun «Almash qadamlar», «Tiriltirishma», «Urdi-qochdi», «Olacha tovuq», «Kim chaqqon» kabi o‘yinlarni tavsiya etish mumkin.

Misol uchun «Almash qadamlar» o‘yinini ko‘rib o‘tish mumkin. O‘yinni butun sinf o‘quvchilari ikkiga bo‘lib o‘ynashi mumkin. O‘yinning qoidasi: bolalar uzunasiga saflanadilar, so‘ngra tartib bilan tortilgach, chiziq ustidan qadamlarini chillak qilib (ketma-ket) qo‘yib o‘tadilar. O‘yinning uch xilidan foydalanish mumkin:

1. Chiziq ustidan qo‘llarini yon tomonga uzatgan holda.

2. Qo‘llarni orqaga qilgan holda.

3. Qo‘llar bilan boshning orqasini ushlagan holda.

Kim shu o‘yinni chaqqon va xatosiz bajarsa, o‘sha g‘olib sanaladi. Chiziq ustidan yurishda harakatda kim muvozanatni buzsa, xato qilgan hisoblanadi va o‘yindan chiqadi. O‘yin shu zaylda davom etadi. O‘yinni dars vaqtida ham, tanaffusda ham bajarish mumkin. Bu o‘yinning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, u bolani ruhan sezgirlikka chaqiradi.

4. Chidamlilikni tarbiyalovchi o‘yinlar. Ko‘pchilik milliy xalq harakatli o‘yinlarida nihoyatda jadal bajariladigan mashqlar tufayli tezkorlik va chidamlilik kabi jismoniy sifatlar tarbiyalanadi. Bunday o‘yinlarda jismoniy yuk (nagruzka) ham asta-sekin oshirib boriladi. Masalan, maydonni kattalashtirish; maydonni kichraytirmay turib o‘yinchlarning sonini kamaytirish; o‘yin jihozlari sonini ko‘paytirish (tayoqcha, ro‘molcha, do‘ppi, chopon, to‘p v.h.) yugurish masofasini uzaytirish; to‘siqlar sonini oshirish; murakkab mashqlarni qo‘llash va ularning sonini ko‘paytirish va hokazo.

Ko‘rsatilgan bu usullar izchillik bilan qo‘llanilganda maqsadga tezroq erishiladi. Mazkur jismoniy sifatni tarbiyalovchi o‘yinlarga «Oqsoq qarg‘a», «Lanka», «Podachi» kabilarni misol qilib ko‘rsatish mumkin. Masalan, «Oqsoq qarg‘a»-estafeta tarzidagi harakatli o‘yin. O‘yinchilarning miqdori teng bo‘ladi, ikkita jamoada bir-biriga ro‘para turib, saf tortadi. O‘yinchilardan har biri navbat bilan o‘zining bitta oyog‘i bog‘ich (ro‘molcha yoki tasma) bilan boldiridan sonigacha bog‘laydi.

Har ikkala komandaning o‘yinchilari "Tayyorlan -Bajar!" buyrug‘i berilishi bilan qarshi jamoaning chizig‘iga qadar bir oyoqlab irg‘ishlab boradilar, undan keyin esa oyoqlaridagi bog‘ichni yechib olib, orqalariga qarab yuguradilar va uni o‘z jamoalaridagi navbatdagi o‘yinchiga beradilar. O‘yin bog‘ichini o‘qituvchiga keltirib beradigan so‘nggi o‘yinchiga qadar shu tariqa davom ettiriladi. Bog‘ichni birinchi bo‘lib o‘qituvchiga keltirib bergan jamoa g‘olib bo‘ladi.

5. Egiluvchanlikni tarbiyalash. 11-12 yoshli bolalarda egiluvchanlikni tarbiyalashga alohida e’tibor qaratish lozim, chunki yuqorida aytganimizdek, bu yoshdagi bolalarning egiluvchanlik sifatining o‘sishi

sekinlashadi. Egiluvchanlikni tarbiyalash maqsadida ayrim mushak guruh va bo‘g‘inlariga ta’sir ko‘rsatuvchi o‘yinlar tanlab olinadi. Bu o‘yinlar asosan maxsus sport jihozlari yordamida o‘tkaziladi. Og‘irliklar o‘rnida shug‘ullanuvchilarning o‘zlari ham qatnashishlari mumkin.

Faol egiluvchanlik mushaklarning kuchiga bog‘liq. Mushaklarning cho‘ziluvchanlik xususiyatlari esa markaziy nerv tizimining ta’sirida o‘zgaradi. Shuning uchun bu o‘yinlarga o‘quvchilar zavq-shavq bilan qatnashganda egiluvchanlik yuqori bo‘ladi. Egiluvchanlikni talab qiladigan o‘yinlardan oldin tegishli yengil jismoniy mashqlar bajarilishi lozim.

Egiluvchanlikni tarbiyalash uchun «Tizza ostida ro‘molcha», «Tayoqni davraga irg‘itish», «To‘siqdan sakrab o‘tish», «Tosh o‘yin» kabi o‘yinlar tavsiya etiladi. Masalan, biz 11-12 yoshli o‘quvchilar uchun qiziqarli va egiluvchanlik sifatini samarali ravishda oshiradigan «Tosh o‘yin» o‘yinini tavsiya etamiz. O‘yinda ishtirok etuvchilar doira bo‘ylab turadilar. Ularning har biri, bir o‘yinchidan tashqari, qo‘llariga beshtadan toshcha ushlab oladi.

O‘yinning qoidasi: O‘qituvchining birinchi signaliga binoan o‘ynovchilar o‘z toshlarini oldilariga tashlaydilar va doira markaziga orqa o‘girib turadilar. Ikkinchi signalga muvofiq keskin ravishda dastlabki holatga buriladilar va har bir o‘yinchi o‘z toshini olishga harakat qiladi. Toshni olib ulgurmagan o‘yinchi yutqazgan hisoblanadi va o‘yin boshqatdan boshlanadi. Eng epchil, chaqqon va tez harakat qiladigan, o‘z toshini vaqtida oladigan o‘yinchi g‘olib sanaladi. O‘yinchilarning toshni bekitishga yoki ularni bosib olishlariga ruxsat etilmaydi. O‘yinning boshlanishida sanash yo‘li bilan tosh berilmaydigan o‘quvchi aniqlaniladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, harakatli o‘yinlardan maqsadli va tizimli foydalanish 11–12 yoshli voleybolchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini sezilarli darajada oshiradi. Xususan, tezkorlik, chaqqonlik, koordinatsiya va sakrash qobiliyatlari samarali rivojlanadi.

Shuningdek, harakatli o‘yinlar mashg‘ulot jarayonining emotsional holatini yaxshilab, sportchilarning mashg‘ulotlarga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Natijada mashg‘ulot samaradorligi ortadi.

Amaliy jihatdan, trenerlar uchun harakatli o‘yinlarni mashg‘ulot jarayoniga to‘g‘ri integratsiya qilish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Kelgusida ushbu yo‘nalishda yanada chuqurroq ilmiy tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar:

1. Айранетьянц Л.Р. Тренировочные и соревновательные нагрузки в подготовке клубных команд мастеров по волейболу, методическое пособие, Т., 2003 г., 27 с.
2. Айрапетьянц Л.Р., Годик М.А. Спортивные игры, Т., Ибн Сино, 1991 г., 156 с.
3. Вилькин Я.Р. Белорусские народные игры второй половины XIX начала XX веков: Автореф. дисс. канд. пед. наук, Минск, 2001 г., 24 с.
4. Жан Хак. Методика совершенствования технической подготовленности юных волейболисток на основе педагогического контроля тренировочной и соревновательной деятельности. Автореф. дисс. ...канд. пед. наук, М., 2007 г., 22 с.
5. Железняк Ю.Д. Формирование двигательных навыков у юных волейболистов. Автореф. дисс. ...канд. пед. наук, М., 2002 г., 22 с.
6. Железняк Ю.Д. Возрастные аспекты подготовленности волейболистов, Учебное пособие для студентов физ.культ.спец. по волейболу, Смоленск, 2013 г., 52 с.
7. Усманхаджаев Т.С., Қосимова М.У. 500 машқ ва ҳаракатли ўйинлар. Т.: ЎзДЖТИ нашриёт бўлими. 1999. – 60 б .
8. Усманхаджаев Т.С. Ўзбек ҳалқ ўйинлари. // Илмий –амалий анжуманининг тезислари: Халқ ўйинлари миллий спорт турларини қайтадан тиклаш ва аҳолини жисмоний тарбиялашда улардан кенг фойдаланиш усуллари. Тошкент-Жиззах. 1991. 130 б.
9. Устиненко В.И. Игра эстетическая деятельность. Автореф. дисс. канд. пед. наук, М., 1999 г., 24 с.
10. Яковлев В.Г. Основные понятие В кн. Подвижные игры, Физкультура и спорт, М., 2004 г., 4-8 с.
11. Яковлев В.Г. Подвижные игры в теории в практике физического воспитания детей школьного возраста. Автореф. дисс. док. пед. наук, М., 2004 г., 32 с.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ РАЗВИТИЯ СКОРОСТНО-СИЛОВОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ ЮНЫХ БОРЦОВ ПО ПОЯСНАЯ БОРЬБА НА НАЧАЛЬНОМ ЭТАПЕ СПОРТИВНОЙ ПОДГОТОВКИ

Якибжонов Бобур Бахтиёржон угли,
преподаватель кафедры «Теория и методика единоборств»
Ферганского государственного университета
yakibjonovbobur@gmail.com

В статье рассматривается эффективность методики развития скоростно-силовой подготовленности юных борцов по белбогли кураш на начальном этапе спортивной подготовки. В исследовании участвовали 12 спортсменов в возрасте 10–12 лет, занимающихся в учебно-тренировочной группе начальной подготовки. Экспериментальная программа продолжалась 8 недель и включала специальные прыжковые упражнения, имитационные действия с поясом, упражнения на ускорение, бросковые движения без предельного сопротивления и подвижные игры скоростно-силовой направленности. Полученные результаты показали положительную динамику в показателях прыжковой подготовленности, стартовой скорости, взрывного усилия и качества выполнения базовых технических действий.

Ключевые слова: *белбогли кураш, юные борцы, скоростно-силовая подготовка, начальная подготовка, специальная физическая подготовка.*

SPORT TAYYORGARLIGINING BOSHLANG‘ICH BOSQICHIDA BELBOG‘LI KURASH BILAN SHUG‘ULLANUVCHI YOSH KURASHCHILARNING TEZLIK-KUCH TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI

Maqolada belbog‘li kurash bilan shug‘ullanuvchi 10–12 yoshli yosh sportchilarda boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida tezkor-kuch tayyorgarligini rivojlantirish metodikasining samaradorligi yoritilgan. Tadqiqotda 12 nafar sportchi ishtirok etgan. 8 haftalik dastur maxsus sakrash mashqlari, belbog‘ bilan imitatsion harakatlar, tezlanish mashqlari, chegaraviy bo‘lmagan qarshilikdagi tashlash harakatlari va tezkor-kuch yo‘nalishidagi harakatli o‘yinlardan iborat bo‘lgan. Natijalar sportchilarning portlovchi kuchi, start tezligi va texnik harakatlar sifatida ijobiy o‘zgarishlar kuzatilganini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: *belbog‘li kurash, yosh kurashchilar, tezkor-kuch tayyorgarligi, boshlang‘ich tayyorgarlik, maxsus jismoniy tayyorgarlik.*

EFFECTIVENESS OF DEVELOPING SPEED-STRENGTH FITNESS IN YOUNG BELT WRESTLERS AT THE INITIAL STAGE OF SPORTS TRAINING

The article examines the effectiveness of a methodology for developing speed-strength fitness in young belbogli kurash wrestlers at the initial stage of sports training. The study involved 12 athletes aged 10–12 years. The 8-week program included special jumping exercises, belt-based imitation drills, acceleration exercises, throwing actions without maximal resistance, and speed-strength games. The results showed positive changes in jumping ability, starting speed, explosive effort, and the quality of basic technical actions.

Key words: *belbogli kurash, young wrestlers, speed-strength training, initial training, special physical preparation.*

Введение. Белбогли кураш является одним из национальных видов спортивной борьбы, в котором результативность соревновательной деятельности во многом определяется способностью спортсмена быстро проявлять усилие в условиях захвата за пояс. На начальном этапе подготовки особое значение имеет не форсированное развитие максимальной силы, а формирование правильной двигательной основы, скоростно-силовых качеств и устойчивого интереса к тренировочному процессу.

В возрасте 10–12 лет у спортсменов активно формируются координационные механизмы, быстрота реакции, способность к ритмичному выполнению движений и элементарные предпосылки взрывного усилия. Поэтому тренеру важно подбирать такие средства, которые не перегружают

опорно-двигательный аппарат, но создают условия для развития быстрых мышечных сокращений, устойчивого равновесия и качественного выполнения базовых технических действий.

Актуальность исследования определяется необходимостью научного обоснования специальной методики, направленной на развитие скоростно-силовой подготовленности юных борцов по белбогли кураш с учетом возрастных особенностей, специфики захвата за пояс и требований начального этапа спортивной подготовки.

Анализ литературы. Анализ научно-методической литературы показывает, что скоростно-силовая подготовленность в борьбе рассматривается как интегральное качество, объединяющее быстроту двигательной реакции, способность к мощному отталкиванию, умение быстро изменять направление движения и выполнять технические действия в ограниченный промежуток времени. В национальных видах борьбы это качество проявляется особенно ярко при выполнении рывков, подсадов, переводов и бросков через бедро.

В исследованиях по спортивной борьбе подчеркивается, что на начальном этапе подготовки силовые упражнения должны носить преимущественно игровой, координационный и технически направленный характер. Применение чрезмерных отягощений в младшем школьном возрасте не является целесообразным, так как основная задача данного этапа заключается в формировании двигательной школы, правильной осанки, гибкости, равновесия и базовой силы.

Специалисты в области теории спорта отмечают, что развитие скоростно-силовых качеств должно сочетаться с обучением технике. Для белбогли кураш это особенно важно, поскольку силовое усилие без правильного положения корпуса, работы ног и сохранения захвата не дает высокого соревновательного эффекта. Следовательно, скоростно-силовая подготовка должна быть встроена в специальные упражнения с поясом, имитационные действия и облегченные бросковые ситуации.

Материалы и методы. В исследовании приняли участие 12 юных борцов по белбогли кураш в возрасте 10–12 лет. Все участники занимались на этапе начальной подготовки и имели примерно одинаковый тренировочный стаж. Эксперимент проводился в течение 8 недель. Занятия осуществлялись 3 раза в неделю, продолжительность одного занятия составляла 70–80 минут.

Maxsus yugurish mashqlari ma’lum bir ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Dastlab, past intensivlikdagi mashqlar bajariladi, so’ngra asta-sekin, mushaklarning tayyorligiga qarab, siz yuqori intensivlikdagi mashqlarni qo’shing. Yoki avval biz qila olamiz mashqlarni yarim kuch bilan bajaring, so’ngra ularni asta-sekin oshiring

intensivlik. Mashqlarni tanlash yukning asta-sekin minimaldan sezilarli darajada oshishini ta’minlashi kerak. Birinchidan, siz qadam - baqadam yugurish, qiyma yugurish kabi mashqlarni bajarishingiz mumkin, yonma-yon qadamlar bilan yonma-yon sakrash, pastki oyoq bilan yugurish, tovondan oyoq barmoqlariga dumalab sakrash, oldinga tekis yugurish, so’ngra kuchliroq – kestirib, baland ko’tarilish bilan yugurish, oldinga siljish bilan oyoqdan oyoqqa sakrash, qadamdan qadamga sakrash, sakrash va hk. [2].

Kuchli mashqlardan so’ng mushaklarni cho’zish va tinchlanish mashqlarini bajarish tavsiya etiladi. Sekin sur’atda yurish va yugurish ham mushaklarning tezroq tiklanishiga yordam beradi mashqdan keyin.

Ba’zi komplekslarga misollar keltiramiz.

Mavzu bo’yicha yengil atletikachilarning o’quv mashg’ulotlarining tayyorgarlik qismi uchun maxsus yugurish mashqlari to’plami:

qisqa masofalarga yugurish(dastlabki tayyorgarlik bosqichida):

To’piqdan oyoq barmog’iga 1 x 20 m kuch bilan sakrash.

O’rtacha tezlikda 2 x 20 m tezlikda yugurish.

Oyoqdan oyoqqa sakrash, 1 oyoqqa ko’tarilish bilan yuqoriga surish 1 x 20 m komplekslarga misollar keltiramiz.

Mavzu bo’yicha yengil atletikachilarning o’quv mashg’ulotlarining tayyorgarlik qismi uchun maxsus yugurish mashqlari to’plami:

qisqa masofalarga yugurish(dastlabki tayyorgarlik bosqichida):

To’piqdan oyoq barmog’iga 1 x 20 m kuch bilan sakrash.

O’rtacha tezlikda 2 x 20 m tezlikda yugurish.

Oyoqdan oyoqqa sakrash, 1 oyoqqa ko’tarilish bilan yuqoriga surish 1 x 20 m.

Oyoqdan oyoqqa sakrash, 2 oyoqqa ko’tarilish bilan yuqoriga surish 1 x 20 m.

1 x 20 m sekin sur’atda yuqori kestirib, yugurish.

O’rtacha 1 x 20 m tezlikda yuqori kestirib ko’tarish bilan yugurish.
Tovondan oyoqqa sakrash (80% intensivlik) 1 x 20 m.
1 x 20 m yuqori tezlikda yuqori kestirib, yugurish.
1 x 20 m oldinga itarib, oyoqdan oyoqqa sakrash.
Qisqa masofaga yuguruvchilar uchun mashg’ulotning tayyorgarlik qismi uchun maxsus yugurish mashqlari to’plami (tor ixtisoslashuv bosqichida)
O’rtacha 1 x 20 m tezlikda yuqori kestirib ko’tarish bilan yugurish.
Sekin sur’atda yugurish 1 x 20 m.
Oyoqdan oyoqqa sakrash, 1 - 1,5 oyoqning oldinga siljishi bilan yuqoriga surish
1 x 20 m.
Kestirib, oldinga 1 x 30 m olib tashlash bilan pastki oyoq bilan yugurish.
O’rtacha 1 x 20 m tezlikda yuqori kestirib, yugurish.
Oyoqdan oyoqqa sakrash 1 x 30 mkin sur’atda yugurish 1 x 20 m.
Oyoqdan oyoqqa sakrash, 1 1,5 oyoqning oldinga siljishi bilan yuqoriga surish
1 x 20 m.
Kestirib, oldinga 1 x 30 m olib tashlash bilan pastki oyoq bilan yugurish.
O’rtacha 1 x 20 m tezlikda yuqori kestirib, yugurish.
Oyoqdan oyoqqa sakrash 1 x 30 m.
1 x (10 m + 20 m) yugurish bilan yugurish.
1 x (10 m + 40 m) tezlashuv bilan yugurishga o’tish bilan yugurish.
Sekin-asta kestirib, oldinga siljish bilan pastki oyoq bilan yugurish
1 x (20 m + 30 m) tezlashuv bilan yugurishga o’tish bilan ortib borayotgan sur’at.
1 x tezlashuv bilan yugurishga o’tish bilan oldinga siljish bilan sakrash
(20 m + 30 m).
Yuqori kestirib ko’tarish bilan yugurish, pastki oyoqni oldinga olib chiqish
asta-sekin o’sib borayotgan sur’at 1 x 30 m.

Asta-sekin o’sib boradigan tezlik bilan yuqori kestirib, yugurish, tezlikni maksimal 1 x (30 m + 30 m) ga etkazish.

Trenerlar va o’qituvchilarga o’z amaliyotida foydalanishni tavsiya etamiz turli xil yugurish mashqlarining keng doirasi, chunki barcha mashqlar turli vazifalarni hal qiladi va o’quv jarayonini diversifikatsiya qilishga imkon beradi. Shu bilan birga, yangilarini o’rganishda bitta darsning tayyorgarlik qismida juda ko’p turli xil mashqlardan foydalanishning hojati yo’q. maxsus yugurish mashqlari. Agar mashq to’g’ri bajarilmasa, namoyish va uslubiy tavsiyalar yordamida kerak xatolarni tuzating va mashqni takrorlang. Trening davrida ishtirok etganlarni bajarishdan oldin ogohlantirish tavsiya etiladi mumkin bo’lgan xatolar haqida mashqlar. Shunday qilib, biz ularni oldindan qila olamiz ogohlantirish.

"Qisqa masofalarga yugurish"mavzusida 2-sinf uchun maktabda darsning tayyorgarlik qismi uchun maxsus yugurish mashqlari to’plami:
3 x 25 m uzunlikdagi pastki oyoq bilan yugurish.
To’g’ri oyoqlarni oldinga yugurish 3 x 25 m.
Kestirib, 3 x 25 m balandlikda yugurish.

Kichik zal maydoni bo’lgan maktabda boshlang’ich sinflar uchun siz quyidagilarni qilishingiz mumkin yugurish mashqlarini 10-12 (10-15 m) miqdorida bajaring. Ko’chada siz metr sonini (30 m gacha) oshirishingiz mumkin, ammo mashqlar sonini kamaytirish kerak.

"Qisqa masofalarga yugurish" mavzusida 3-sinf uchun maktabda darsning tayyorgarlik qismi uchun maxsus yugurish mashqlari to’plami (sport zalida o’tkaziladi):
O’ng (chap) tomondan 2 x 10 m masofada yonma-yon sakrashchik zal maydoni bo’lgan maktabda boshlang’ich sinflar uchun siz quyidagilarni qilishingiz mumkin
yugurish mashqlarini 10-12 (10-15 m) miqdorida bajaring. Ko’chada siz metr sonini (30 m gacha) oshirishingiz mumkin, ammo mashqlar sonini kamaytirish kerak.

"Qisqa masofalarga yugurish" mavzusida 3-sinf uchun maktabda darsning tayyorgarlik qismi uchun maxsus yugurish mashqlari to’plami (sport zalida o’tkaziladi):
O’ng (chap) tomondan 2 x 10 m masofada yonma-yon sakrash.
O’ng tomonda yon qadamlar bilan ikkita sakrash, chap tomonda yon qadamlar bilan ikkita sakrash 1 x 10 m.
Qo’llarni 2 x 10 m orqaga burish bilan tovondan oyoq barmoqlariga rulon bilan sakrash.
1 x 10 m uzunlikdagi pastki oyoq bilan yugurish
Kestirib, 2 x 10 m balandlikda yugurish.

Bitta darsda maxsus yugurish mashqlari soni yaqinlashib kelayotgan sport faoliyati turiga, ob-havoga, sharoitga, yoshga, ishtirokchilarning funktsional va psixologik holatiga bog’liq.

Yugurish mashqlari darsning turli qismlarida qo’llanilishi mumkin.

Bu dars oldiga qo’yilgan vazifalarga bog’liq.

Maxsus yugurish mashqlarining turli xil komplekslari qo’llaniladi turli mavzular va mazmundagi darslarga tayyorgarlik ko’rishda.

Uzunlikka sakrash bo’yicha o’quv mashg’ulotining tayyorgarlik qismi uchun maxsus yugurish mashqlari to’plami (tor yo’naltirilgan ixtisoslashuv bosqichida):

To’piqdan oyoq barmog’iga 1 x 30 m kuch bilan sakrash.

Oyoqdan oyoqqa sakrash, yuqoriga surish, (intensivlik 70%) 1 x 30 m.

Oyoqdan oyoqqa sakrash, 2 qadamdan keyin surish oyog’i bilan yuqoriga surish, (intensivligi 80 %) 1 x 30 munlikka sakrash bo’yicha o’quv masish.

1 x (25 m + 25 m) tezlashuv bilan yugurishga o’tish bilan kestirib va oldinga olib chiqish bilan pastki oyoq bilan yugurish.

1 x (15 m + 30 m) tezlashuv bilan yugurishga o’tish bilan yuqori kestirib, joyida yugurish.

Oyoqdan oyoqqa sakrash, oldinga - yuqoriga surish 1 x 25 m.

O’ng (chap) oldinga va yuqoriga surish orqali "qadam ichida" sakrash (25 m + 25 m) tezlashuv bilan yugurishga o’tish bilan kestirib va oldinga olib chiqish bilan pastki oyoq bilan yugurish.

1 x (15 m + 30 m) tezlashuv bilan yugurishga o’tish bilan yuqori kestirib, joyida yugurish.

Oyoqdan oyoqqa sakrash, oldinga - yuqoriga surish 1 x 25 m.

O‘ng (chap) oldinga va yuqoriga surish orqali "qadam ichida" sakrash

2 x 25 m.

3 qadamdan keyin "qadamda" sakrash, 1 x 40 m surish oyog‘i bilan itarish.

1 x 40 m surish oyog‘i bilan itarib, inertiya bo’ylab yugurish bilan "qadam ichida" sakrash.

Tayyorgarlik qismida maxsus yugurish mashqlaridan so‘ng sinflar tezlashuv bilan ishlaydi. Tezlanishlar soni va intensivligi darsda berilgan vazifalarga bog’liq.

Qisqa masofaga yuguruvchilar uchun mashg’ulotning tayyorgarlik qismi uchun maxsus yugurish mashqlari to‘plami (tor ixtisoslashuv bosqichida)

To’piqdan oyoq barmog’iga 1 x 25 m kuch bilan sakrash.

Kestirib, oldinga 1 x 30 m olib tashlash bilan pastki oyoq bilan yugurish.

1 x 30 m 2 yugurish qadamidan keyin yuqori kestirib, yugurish.

O’ng (chap) 2 x 40 m ni bosib, qadam bo‘ylab "qadam ichida" sakrash to‘piqdan oyoq barmog’iga 1 x 25 m kuch bilan sakrash.

Kestirib, 1 x 30 m olib tashlash bilan pastki oyoq bilan yugurish.

1 x 30 m 2 yugurish qadamidan keyin yuqori kestirib, yugurish.

O’ng (chap) 2 x 40 ni bosib, qadam bo‘ylab "qadam ichida" sakrash.

1 x 40 m tezlikda 2 qadamdan keyin pastki oyoq bilan yugurish.

Oyoqdan oyoqqa sakrash, 1 x 30 m oldinga surish.

1 x 20 m yuqori tezlikda yuqori kestirib, yugurish.

5 x 120 m tezlashuv bilan yugurish.

Xulosalar. Sportchining maxsus yugurish mashqlaridan foydalaniladi ko‘plab sport turlari vakillari. Ular ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan yugurish texnikasi, jismoniy fazilatlarni rivojlantirish, shuningdek ular darsning tayyorgarlik qismida qo‘llaniladi. Jismoniy tarbiya va sport bo’yicha bo’lajak o‘qituvchilar uchun talabalar uchun mashqlarning keng arsenaliga ega bo’lish, ularning terminologiyasi, texnikasi va turli xil mashg‘ulotlar uchun komplekslarni tuzish ko‘nikmalariga ega bo‘lish muhimdir. Uslubiy jihatdan malakali kompilyatsiya komplekslar mumkin bo‘lgan jarohatlarning oldini olishga yordam beradi va mashqlarning keng arsenali o‘quv jarayonini diversifikatsiya qiladi, bu esa o‘quvchilarga darslardan ko‘proq zavq olishga yordam beradi.

Maxsus yugurish mashqlaridan foydalanish boyicha ko‘rsatmalar:

1. **Isitish integratsiyasi:** MYMLAR har doim sekin yugurish va umumiy rivojlanish mashqlaridan so‘ng amalga oshiriladi. Bu mushak-ligament apparati yanada intensiv ishlashga tayyorligini ta’minlaydi va shikastlanish xavfini kamaytiradi.
2. **Texnika ustuvorligi:** MYM-ni dastlabki bosqichda bajarishda yuqori tezlik yoki intensivlikdan ko‘ra to‘g‘ri texnikaga rioya qilish muhimroqdir.
3. **Yukning asta-sekinligi:** segmentlarning intensivligi va uzunligi muammosiz o‘sishi kerak. Siz 30-40 metrdan boshlashingiz va 80-100 metrgacha oshirishingiz kerak, tayyorgarlik davridagi intensivlik maksimal 50% dan 90% gacha o‘zgarishi mumkin.

4. **Qayta tiklash mashqlari:** kuchli sbulardan so‘ng (ayniqsa, ko‘p chiziqlar va yuqori amplituda mashqlar) tiklanish jarayonlarini tezlashtirish va mushaklarning ohangini pasaytirish uchun cho'zish (cho‘zish) va yurish/sekin yugurish mashqlarini o‘z ichiga olishi kerak.

5. **Tanlovni konkretlashtirish:** MYM-ni tanlash mashg‘ulotning asosiy vazifasiga mos kelishi kerak. Masalan, sakrashdan oldin sakrash va ko‘p pog‘onalarga ko‘proq e’tibor berish kerak, yugurish segmentlaridan oldin — BVPB va pastki oyoq.

Adabiyotlar:

1. Xaydarov U. R. Oliy ta’lim muassasalarida talabalar uchun yengil atletika mashg ‘ulotlarining tashkiliy-uslubiy asoslari //Inter education & global study. – 2024. – №. 9 (1). – S. 148-154.

2. Khaidarov U. R. Technique of Movement of Sprinters' Legs Affecting the Increase in Sprint Speed //Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science. – 2022. – T. 1. – №. 6. – S. 49-54.

3. Khaydarov U. R. Features of the Training Process Aimed to Perfection Speed Qualities //Web of Scholars: Multidimensional Research Journal. – 2022. – T. 1. – №. 6. – S. 207-211.

4. Хайдаров У. Р. Экспериментaлное обоснование методики развития скоростных способностей спринтеров учебно-тренировочной группы: 10.53885/единрес. 2021.59. 33.029 Хайдаров Улугбек Рустамович Магистрант Бухарского государственного университета Научный руководител: Кадиров Рашид Хамидович Профессор кафедры Теории и методики физической культурык. п. н. Бухарского государственного университета //Научно-практическая конференция. – 2021.

5. Хайдаров У. Р. 7. УР Хайдаров Обоснование влияния правилной постановки стопы на увеличение скорости бега: УР Хайдаров, АУ Эргашев, РХ Кадиров //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2021. – №. 1. – С. 65-74.

6. Кадиров Р. Х., Хайдаров У. Р. Особенности тренировочного протсесса направленная на совершенствования скоростных качеств спринтеров: 10.53885/единрес. 2022.43. 80.022 РХ Кадиров Доцент кафедры Теории и методики физической культуры, к. п. н. УР Хайдаров Магистрант БГУ //Научно-практическая конференция. – 2022. – С. 493-496.

7. Karomatovich I. A. et al. Features of Development of Movement Coordination in Young Athletics //International Journal of Formal Education. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 56-59.

8. Karomatovich I. A. Methods of teaching children for movement activities in the process of physical education. – 2022.

9. Ibragimov A. K. Catalog of training tasks for training specialen durance of yonggrilh and boll players //Academical. An International Multidisciplenary Research Journal2.

10. Karomatovich I. A. et al. Stage of Selection and Orientation of Young Athletes in Athletics //International Journal of Formal Education. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 52-55.

11. Ibragimov A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini jismoniy rivojlantirish asoslari //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.

12. Ibragimov A. K. Yengil atletika sport turiga talabalarning munosabati //Inter education & global study. – 2024. – №. 9 (1). – С. 102-107.

13. Karamatovich I. A. Methodology for qualifying young athletes for the sport of kayaking and canoeing //Proximus Journal of Sports Science and Physical Education. – 2024. – Т. 1. – №. 4. – С. 41-44.

SAN’AT

SAN’AT PEDAGOGIKASI ORQALI O‘QUVCHILAR KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Mirshayev Ulug‘bek Muzafarovich,
Buxoro davlat universiteti “Tasviriy san’at va musiqa ijrochiligi” kafedrasi katta o‘qituvchisi
ulugbekmirshaev@gmail.com

Ushbu maqolada san'at pedagogikasi orqali o‘quvchilar kreativligini rivojlantirishning falsafiy va psixologik-pedagogik asoslari tahlil qilingan. Kreativlik tushunchasiga psixologiya va pedagogika nuqtayi nazarlaridan yondashuv ko‘rib chiqilgan. Xorijiy va o‘zbek olimlari tomonidan ishlab chiqilgan kreativlik ta’riflari, nazariyalari va tasniflar o‘rganilgan. Maqolada kreativlikni rivojlantirish uchun to‘rtta asosiy metodologik yondashuv — tizimli, faoliyatga asoslangan, shaxsga yo‘naltirilgan va madaniy yondashuvlar — tavsiflanib, ularning musiqa darslaridagi amaliy ahamiyati asoslab berilgan. Kreativlikning keng diqqat, kuzatuvchanlik, intuitivlik, assotsiativlik, bashorat qilish, improvizatsiya va komiklik hissi kabi namoyon bo‘lishlari tahlil qilingan. Xulosa sifatida musiqa darslarida ijodiy topshiriqlardan foydalanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativlikni samarali rivojlantirishi mumkinligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *kreativlik, san’at pedagogikasi, divergent fikrlash, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, faoliyatga asoslangan yondashuv, madaniy yondashuv, musiqa darslari, ijodiy qobiliyat, ijodiy rivojlanish.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ ПОСРЕДСТВОМ ПЕДАГОГИКИ ИСКУССТВА

В данной статье анализируются педагогические основы развития творческих способностей учащихся посредством педагогики искусства. Рассматривается подход к концепции творчества с позиций психологии и педагогики. Изучаются определения, теории и классификации творчества, разработанные зарубежными и узбекскими учеными. В статье описываются четыре основных методологических подхода к развитию творчества – системный, деятельностный, личностно-ориентированный и культурный – и обосновывается их практическое значение на уроках музыки. Анализируются такие проявления творчества, как широкое внимание, наблюдательность, интуиция, ассоциативность, предсказание, импровизация и чувство юмора. В заключение обосновывается, что использование творческих заданий на уроках музыки может эффективно развивать творческие способности учащихся начальной школы.

Ключевые слова: *творчество, педагогика искусства, дивергентное мышление, личностно-ориентированное образование, подход, основанный на деятельности, культурный подход, уроки музыки, творческие способности, развитие творческих способностей.*

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING STUDENTS' CREATIVITY THROUGH ART PEDAGOGY

This article analyzes the pedagogical foundations of developing students' creativity through art pedagogy. An approach to the concept of creativity from the perspectives of psychology and pedagogy is considered. Definitions, theories and classifications of creativity developed by foreign and Uzbek scientists are studied. The article describes four main methodological approaches to developing creativity - systematic, activity-based, person-oriented and cultural approaches - and substantiates their practical significance in music lessons. Such manifestations of creativity as broad attention, observation, intuition, associativity, prediction, improvisation and a sense of humor are analyzed. In conclusion, it is substantiated that the use of creative tasks in music lessons can effectively develop creativity in primary school students.

Keywords: *creativity, art pedagogy, divergent thinking, person-oriented education, activity-based approach, cultural approach, music lessons, creative abilities, creative development.*

Kirish. San’at, hayotni aks ettirishning o‘ziga xos shakli sifatida, shaxsni tarbiyalashga, o‘sib borayotgan insonning turli davrlar va mamlakatlar ijodkorlari hayotidagi qadriyatlar va ko‘rsatmalarni tushunishini kengaytirishga qodir. San’atning ijtimoiy hodisa sifatidagi bu xususiyati pedagogik bilimlarning bir tarmog‘i sifatida San’at pedagogikasining asosini tashkil etadi va musiqa, tasviriy san’at va jahon badiiy madaniyati o‘qituvchilarining pedagogik tadqiqotlarini birlashtirdi.

Musiqani idrok etish jarayoni - bu o‘z fikrlari va his-tuyg‘ularini tovush orqali ifodalaydigan kompozitor va bu tovush vositasi orqali yangrayotgan kuyni tushunadigan tinglovchi o‘rtasidagi hamkorlikdagi ijoddir. Ayniqsa, o‘quvchining shaxsiy salohiyati, o‘qituvchi bilan hamkorlikda kreativlik, o‘zini anglash va o‘zini takomillashtirishga bo‘lgan ehtiyoji va qobiliyati muhimdir. O‘qituvchining umuman San’at pedagogikasining asosiy tamoyillarini va umumta’lim maktablarida musiqani davr voqealari kontekstida kompozitorning his-tuyg‘ulari va mulohazalarini aks ettiruvchi San’at darsi sifatida o‘qitishni tushunishi va o‘zlashtirishi musiqa darslarida San’at pedagogikasi orqali o‘quvchilarning shaxsiyatini rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi.

Asosiy qism. Kreativlik mohiyatini tavsiflash va aniqlash, kreativlik nazariyalarini ishlab chiqish va ijodiy shaxsni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy izlanishlarda nafaqat xorijiy, balki rus hamda o‘zbek psixologlari ham ishtirok etishgan.

M.A. Xolodnaya o‘z tadqiqotida kreativlikni "divergent fikrlash, ya’ni insonning erkin faoliyat muhitida samarali fikrlashga va ko‘p sonli qiziqarli g‘oyalarni ilgari surishga tayyorligi" deb ta’riflaydi [9].

D.B. Bogoyavlenskaya kreativlikni "aqliy faoliyat intensivligi bilan sinonim sifatida tushuniladigan intellektual faoliyat" deb biladi.

Bizning fikrimizcha, kreativlik - bu shaxs va jamiyat manfaati uchun o‘zgaruvchan ijtimoiy va madaniy sharoitlar doirasida muammolarni hal qilishda insonning konstruktiv va o‘ziga xos fikrlashga tayyorligidir.

V. Karimova kreativlikni shaxsning yangi g‘oyalar yaratish, muammolarni yangicha hal qilish va ijodiy fikrlash qobiliyati bilan bog‘laydi. Uning fikricha, kreativlik shaxsning psixologik rivojlanishida muhim omil hisoblanadi [6].

Psixolog olima Lola Beknazarova kreativlikni ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida izohlaydi. Uning fikricha, kreativlik shaxsning innovatsion fikrlashi, muammolarni yangicha hal qilishi va jamiyat rivojiga xizmat qiladigan g‘oyalarni yaratish qobiliyatida namoyon bo‘ladi [2].

Tadqiqotimizda T.A. Barisheva va Y.A. Jigalovning kreativlikni rivojlantirish bo‘yicha [1] tadqiqotlari natijalaridan foydalanildi, ular ijodiy jarayonning rivojlanishidagi quyidagi bosqichlarni aniqladi:

1) ijodiy faoliyat asoslarini tayyorlash (hissiy va hissiy tajribani to‘plash, ya’ni "uyg‘onish");

2) ijodiy xulq-atvor uslubini rivojlantirish (shu jumladan, "imitatsiya" - ijodiy modellarni taqlid qilish, "implikatsiya" - o‘zlashtirilgan texnikalar va tajribalarning ahamiyatini tushunish, "transformatsiya" - ijodiy tajribani shaxsiy ahamiyatga ega sharoitlarda qo‘llash);

3) ijodiy xulq-atvorni takomillashtirish (ijodiy faoliyatni individuallashtirish, ya’ni uyg‘unlashtirish) [1].

Pedagogikada kreativlik tushunchasi. "Kreativlik" atamasi pedagogikada "kreativlik qobiliyati" deb ta’riflanadi va intellektual rivojlanish darajasi bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi.

Gumanistik pedagogika, gumanistik psixologiya g‘oyalarining timsoli sifatida, ta’lim jarayonida ishtirokchilarning individual qiziqishlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta’limni tuzishni taklif qiladi.

Shaxsiy ta’lim yo‘nalishi - bu talabaning tashkiliy, faoliyatga asoslangan, kognitiv, ijodiy va boshqa qobiliyatlarining umumiyligini amalga oshirishning shaxsiy yo‘lidir.

Talabaga yo‘naltirilgan ta’limning mazmuni turli xil tajribalardan iborat: yo‘naltirish (bilim), faoliyatga asoslangan (ko‘nikmalar), ijtimoiy va boshqalar. Bu tajriba turlarining barchasi oxir-oqibat talabaning shaxsiy tajribasining bir qismiga aylanishi kerak. Shaxsiy tajribaning mavjudligi quyidagi fazilatlar bilan tasdiqlanadi:

- ✓ tanlash (sheriklarni, qadriyatlarni va xulq-atvorni tanlash tabiati va usullarida namoyon bo‘ladi);
- ✓ reflekslash qobiliyati (etarli o‘zini o‘zi baholash, o‘zini tahlil qilish);
- ✓ mas'uliyat (subyektiv ravishda tanlangan mas'uliyat doirasini nazarda tutadigan universal, integrativ shaxsiy sifat);
- ✓ kreativlik (shaxsiy ahamiyatga ega ishga ijodiy yondashuv, o‘z faoliyat doirasiga ega bo‘lish istagi);
- ✓ ichki erkinlikka ehtiyoj (mustaqillik, o‘z hayotining subyekti sifatida o‘zini anglash).

Ijodiy pedagogika yoki ijodiy yo‘naltirilgan pedagogika har qanday fanda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik bilimlar tarmog‘i sifatida tushuniladi. Ushbu pedagogik yondashuv doirasida majburiy o‘quv materiali assimilyatsiya obyekti sifatida emas, balki evristik maqsadga erishish vositasi sifatida qaraladi, bu esa qo‘shimcha materialda keltirilgan evristik usullar va texnikalar bilan tanishmasdan imkonsizdir.

Bu yondashuv o‘quv jarayonida fikrlashni faollashtirish usullari va vositalarini tavsiflaydi: "aqliy hujum" usuli (muammoni hal qilish uchun bir nechta g‘oyalarni yaratish), inversiya usuli (qarama-qarshi protseduralardan foydalanish), empatiya usuli (ixtiro tasvirida "yashash"), agglyutinatsiya usuli (haqiqatda mos kelmaydigan fazilatlar yoki xususiyatlarni birlashtirish), ramziy ko‘rish usuli (obyekt yoki hodisani ifodalash uchun belgidan foydalanish) va mantiqiy ko‘rish usuli (obyekt ortidagi g‘oyalarni tushunishga urinish).

Kreativlikni rivojlantirish uchun turli xil metodologik yondashuvlardan foydalanish mumkin, biz tadqiqotimizda quyidagilarni qo‘lladik:

- ✓ tizimli yondashuv;
- ✓ faoliyatga asoslangan yondashuv;
- ✓ shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv;
- ✓ madaniy yondashuv.

Tizimli yondashuv. Bizning tadqiqotimiz uchun nafaqat umumta’lim maktablarida musiqa o‘rganish maqsadlarini tushunishda singdirilgan kreativlikni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni tushunish, balki individual metodologik usullar va didaktik o‘yinlardan iborat bosqichma-bosqich yondashuvni ishlab chiqish, shu bilan birga bolalarning taklif qilingan faoliyatga munosabati kreativlikni rivojlantirishda muhim omil bo‘lishini tan olish muhimdir.

Shu sababli, bizning tadqiqotimiz uchun tizim tahlili paytida qiziqish uyg‘otadigan hodisalarning sabablarini va natija va ushbu natijaga olib keladigan shartlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash juda muhimdir. Buning uchun biz tizim yondashuvining asosiy xususiyatlarini o‘rganishimiz kerak, uning mohiyati murakkab obyektlarning ishlashini tushunish uchun har bir komponentni shunchaki o‘rganish kifoya emas, balki bu komponentlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlarni tushuntirish kerak. Tizim yondashuvi S. I. Arxangelskiy, Y. K. Babanskiy, V. I. Zagvyazinskiy, T. A. Il’ina, V. V. Kraevskiy va boshqalar kabi tadqiqotchilarning asarlarida tasvirlangan.

V.I. Zagvyazinskiy [5] murakkab tizimlarni takomillashtirishning bir nechta usullarini ko‘radi:

- ✓ tizim va atrof-muhit o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlarni o‘rganish, bu tizimga qo‘yiladigan ijtimoiy talablar doirasini aniqlashga yordam beradi;
- ✓ yaxlitlikning individual elementlarini aniqlash va takomillashtirish;
- ✓ elementlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlarning tabiatini o‘rganish;
- ✓ tizim ichidagi ierarxiyani o‘rganish;
- ✓ natijalarni optimallashtirish uchun monitoring qilish va o‘zgartirishlar kiritishning muhimligini tushunish.

Biz boshlang‘ich maktab o‘quvchilarida kreativlikni rivojlantirish uchun tizimli yondashuvning eng muhim tamoyillari quyidagilar deb hisoblaymiz: keng qamrovli ta’lim jarayoni tamoyili va o‘qitishda tizimlilik va izchillik tamoyili.

Faoliyatga asoslangan yondashuv. Umumta’lim maktablarida musiqa darslari deyarli butunlay turli xil faoliyat turlari va shakllaridan iborat. Hatto reproduktiv faoliyatlar (masalan, qo‘shiq aytish) ham bolalar uchun kognitiv jihatdan tadqiqotchi hisoblanadi, chunki ular tasvirlar tuzilishini o‘rganishni va ifodali vositalar orqali eng yaxshi tovushni izlashni o‘z ichiga oladi. Shuning uchun, ushbu tadqiqot faoliyatga asoslangan yondashuv tamoyillaridan qochib bo‘lmaydi, uning mohiyati bolaning rivojlanishi va o‘sishi uchun faoliyatning ahamiyatini tushunish orqali ochib beriladi. D. Dyui tomonidan taklif qilingan "faoliyat orqali o‘rganish" konsepsiyasi, orttirilgan fikrlash qobiliyatlari va qobiliyatlari bolalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi real hayotdagi muammolarni hal qilishdagi ijodiy hamkorlik natijasi ekanligini ta’kidlaydi [8]. Ta’limga faoliyatga asoslangan yondashuvning asosiy tamoyillari L. S. Vygotskiy, A. N. Leontyev va S. L. Rubinshteyn kabi tadqiqotchilarning asarlarida tasvirlangan.

Bizning fikrimizcha, boshlang‘ich maktab o‘quvchilarida kreativlikni rivojlantirish uchun faoliyatga asoslangan yondashuvning eng muhim tamoyillari quyidagilardir:

- ✓ faoliyat orqali o‘rganish tamoyili,
- ✓ ijodiy loyihalar va topshiriqlar orqali o‘rganish tamoyili.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv. Kreativlik bo‘yicha psixologik tadqiqotlar natijalari shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv konsepsiyasida aks etadi, bunda nafaqat o‘quvchining shaxsiyati, balki o‘qituvchining shaxsiyati ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki darslardagi o‘zaro ta’sirlar shaxsiy tajriba va hissiy tajribalar almashinuvini o‘z ichiga oladi [8]. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv quyidagi olimlarning tadqiqotlarida o‘rganiladi:

- ✓ E.N. Shiyanov (shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim maqsadlarini aniqlashtirish);
- ✓ E.V. Bondarevskaya (shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda rivojlanish va o‘rganish o‘rtasidagi munosabatlar naqshlari);

- ✓ I.S. Yakimanskaya (darsning maqsadi o‘quvchilarning kognitiv faolligini namoyon qilish uchun sharoit yaratish);
- ✓ A.A. Plagin (yodlash samaradorligining bir jihati, masalan, semantikani hisobga olish, ya’ni tasvirlardan foydalanish, so‘z va tasvir o‘rtasidagi tafovutni bartaraf etishga, yodlash samaradorligini oshirishga olib keladi).

E.N. Shiyanovning tadqiqotlariga ko‘ra [10], ta’limning gumanistik maqsadi shaxsni o‘rganishni rivojlantirishda quyidagi maqsadlarni qo‘yadi:

- o‘quvchilarning o‘ziga xosligini anglashlarini va hayotning ma’nosini tushunishlarini ta’kidlash;
- har bir shaxsga xos bo‘lgan jismoniy va ma’naviy qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam berish va hayot yo‘lining natijalari uchun shaxsiy mas'uliyatni tarbiyalash;
- hayot rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda asosiy omil sifatida sog‘liqni saqlashning ahamiyati va zarurligini anglashga yordam berish;
- o‘quvchilarni madaniy qadriyatlar tizimiga jalb qilish va madaniy merosga oid shaxsiy fikrni shakllantirish uchun sharoit yaratish;
- axloqiy me’yorlar va o‘ziga xos hayotdagi mehr-shafqat, hamdardlik, bag‘rikenglik va boshqalarni tushunish uchun sharoit yaratish [10].

Kreativlikni rivojlantirish ustida ishlayotganda, biz o‘qitishimizni klassik kompozitorlarning musiqiy asarlariga asoslashni taklif qilamiz. Bu birinchi sinf o‘quvchilarining madaniy meros bilan aloqasini yengillashtiradi va ijodiy topshiriqlar o‘quvchilarga o‘z kreativliklarini ifoda etish uchun sharoit yaratadi.

Y.V. Bondarevskayaning [3] tomonidan olib borilgan tadqiqotlar o‘qitish va rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlik qonuniyatlarini ochib beradi. Ushbu qonuniyatlarni quyidagicha shakllantirish mumkin:

- o‘qitish va rivojlanishning asosiy maqsadi bolaning o‘quv faoliyati va o‘z hayotining sub'ekti sifatida shakllanishi;
- o‘qitish va rivojlanish shaxsiy faoliyat jarayonining o‘zaro bog‘liq jihatlari bo‘lib, bu yerda rivojlanish shaxs tuzilishidagi o‘zgarishlarni nazarda tutadi va o‘qitish rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi;
- shaxs rivojlanishi yaqin rivojlanish maydonida sodir bo‘ladi (ya’ni, o‘quvchi vazifani bajara oladi, lekin o‘qituvchining individual yordami bilan), lekin yaqin rivojlanish doirasi barcha o‘quvchilar uchun bir xil emas;
- shaxsiy o‘sish ko‘rsatkichlari subyektlikning namoyon bo‘lishini anglatadi [3].

I.S. Yakimanskaya o‘quvchiga yo‘naltirilgan darsning xususiyatlarini tavsiflab, darsning maqsadini o‘quvchilarning kognitiv faoliyat bilan shug‘ullanishi uchun sharoit yaratish sifatida tavsiflaydi. Ushbu maqsadga erishish vositalariga quyidagilar kiradi:

- o‘quvchilarning sub’ektiv tajribasini rivojlantirishga imkon beradigan o‘quv faoliyatini tashkil qilishning turli shakllari va usullaridan foydalanish;
- har bir o‘quvchining darsga qiziqishi muhitini yaratish;
- o‘quvchilarni xato qilishdan qo‘rqmasdan o‘zlarini ifoda etishga va topshiriqlarni bajarish uchun turli usullardan foydalanishga undash;
- o‘quvchilar faoliyatini baholashda ham yakuniy natijani, ham maqsadga erishish jarayonini hisobga olgan holda baholash;
- darsda har bir o‘quvchiga mustaqillikni namoyish etish imkonini beradigan pedagogik muloqot vaziyatlarini yaratish; va o‘quvchining tabiiy o‘zini ifoda etishi uchun muhit yaratish [11].

Biz musiqiy asarlar mazmunini tushunish uchun turli usullardan foydalanish, yoshga bog‘liq ehtiyojlarning psixologik xususiyatlariga tayanib, kreativlikning motivatsion-qadriyat komponentini rivojlantirishga hissa qo‘shishini taklif qilamiz.

A.A. Pligin[7] o‘quvchilarning kognitiv faolligini samarali rivojlantirishning quyidagi jihatidan foydalanishni taklif qildi: o‘quv jarayonida ularning semantikasini hisobga olish, bu ham o‘quvchiga yo‘naltirilgan o‘qitish yondashuvlarining eng muhim xususiyati hisoblanadi.

Semantik rasmlar maktab o‘quvchilarining shaxsiy tajribasi bilan ishlashning eng samarali usullaridan biri ekanligi isbotlangan. Bunday semantik rasm o‘quvchining ham mantiqini, ham shaxsiy idrokini aks ettiradi. O‘quvchilar tomonidan daftarlarda flomasterlar yoki rangli ruchkalardan foydalanilishi xotira faoliyatini yaxshilaydi. A.A. Pligin tajriba-sinov ishlari natijalariga asoslanib, rasmlardan foydalanish so‘z va obraz o‘rtasidagi uzilishni bartaraf etishga xizmat qilishini hamda eslab qolish samaradorligini oshirishini ta’kidlaydi. Buning natijasida bilish faoliyati ijodiy va subyekt-shaxsiy xarakterga ega bo‘la boshlaydi [7].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativlikni rivojlantirishga o‘quvchiga yo‘naltirilgan yondashuvning eng muhim tamoyillari quyidagilar deb hisoblaymiz:

- hamkorlik tamoyili,
- qiziquvchanlik tamoyili,
- Boshqalarning faoliyat natijalariga nisbatan hissiy-qadriyatli munosabatni rivojlantirish tamoyili.

Madaniy yondashuv. O‘z mamlakatining va dunyoning barcha turfa xillikdagi madaniy merosiga daxldor bo‘lgan insonni tarbiyalash ham D.B. Kabalevskiy dasturining, ham boshqa mualliflik jamoalari dasturlarining asosiy maqsadi bo‘lgan. Aynan shuning uchun mazkur tadqiqot doirasida bizni kulturologik yondashuv qiziqtiradi; Y.V. Bondarevskayaning fikricha [3], kulturologik yondashuvning mohiyati ta’limni madaniy merosga hamrohlik qilish (uni o‘zlashtirish) jarayoni sifatida tushunishdan iboratdir.

Ta’limdagi madaniy yondashuvning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- bolaga nisbatan madaniy o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘zini o‘zgartirishga qodir bo‘lgan ***hayot subyekti*** sifatida munosabatda bo‘lish;
- pedagogga nisbatan bola va madaniyat o‘rtasidagi ***vositachi***, uni madaniyat olamiga olib kira oladigan hamda bolaning madaniy qadriyatlar olamida o‘zligini anglashi (samopredeleniye) jarayonida uni qo‘llab-quvvatlay oladigan shaxs sifatida munosabatda bo‘lish;
- ta’limga nisbatan harakatlantiruvchi kuchlari ***shaxsiy ma’nolar***, ishtirokchilarning madaniy o‘z-o‘zini rivojlantirish maqsadlariga erishish yo‘lidagi muloqoti va hamkorligi bo‘lgan ***madaniy jarayon*** sifatida munosabatda bo‘lish;
- maktabga madaniy voqealar sodir bo‘ladigan, madaniyat yaratiladigan va insoni tarbiyalanadigan yaxlit ***madaniy-ma’rifiy makon*** sifatida munosabatda bo‘lish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativlikni rivojlantirishga madaniy yondashuvning eng muhim tamoyillari quyidagilar deb hisoblaymiz:

- madaniy fikrlash tamoyili
- badiiy madaniyatni o‘rganishda ijobiy motivatsiya tamoyili.

Kreativlikning namoyon bo‘lishi. Kreativlik - bu inson ma’naviyatining ajralmas qismi va ijodiy rivojlanishining zaruriy sharti bo‘lgan shaxsiy hamda ijodiy kategoriya bo‘lib, u yangi g‘oyalar orqali o‘zini namoyon qilish uchun zahira vazifasini bajaradi. A.V. Morozov va D.V. Chernilevskiy kabi olimlarning tadqiqotlari kreativlikning namoyon bo‘lishiga, jumladan, insonning hodisalar va jarayonlarni idrok etishga yuqori sezgirligiga, hayot muammolariga kutilmagan va original yechimlarni topish qobiliyatiga va mavjudlarini o‘zgartirish odatiga urg‘u beradi.

Kreativlikning rivojlanishini o‘rganishda kreativlikning quyidagi namoyon bo‘lishlarini ta’kidlash kerak: keng diqqat, kuzatuvchanlik, intuitivlik, assotsiativlik, bashorat qilish qobiliyati, o‘zgartirish qobiliyati, improvizatsiya qilish qobiliyati va kulgili tuyg‘u. Keling, har bir namoyonni batafsilroq ko‘rib chiqaylik.

Keng qamrovli diqqat markazida bo‘lish "shaxsning turli g‘oyalarni baholash va ijodiy birlashtirish qobiliyatining asosi" deb hisoblanadi [7]. Atrofdagi dunyodagi hodisalarga e'tiborning muhim roli K. Martinadell, S. Mednik va J. Mendelsohn tadqiqotlarida ta’kidlangan. Diqqat semantik tarmoqning ayrim tugunlari faollashtirilgan kognitiv tizimning holati sifatida talqin qilinadi. Keng qamrovli diqqat markazida eng ko‘p tugunlar faollashadi, ammo kamroq intensivlik bilan, bu esa ijodiy unumdorlikka ta’sir qiladi.

Kuzatuvchanlikni V.G. Kamenskaya va I.E. Melnikova farqlash va aniq idrok etish qobiliyati sifatida ta’riflaydilar. Muammolarni yechishda zukkolik ko‘rish sifatiga emas, balki insonning fikrlash xususiyatlariga bog‘liq [7].

Psixologlar intuitsiyani nafaqat ijodiy mexanizm, balki tasavvur va fikrlash ishi bilan bog‘liq bo‘lgan ijodkorlikning tarkibiy qismi deb ham hisoblashadi [7].

Assotsiativlikni amerikalik psixolog S. Mednik ta’riflagan, u "masofaviy assotsiatsiya"ning ijodiy salohiyatning tarkibiy qismi sifatidagi ahamiyatiga e'tibor qaratgan. T.A. Barisheva va Y.A. Jigalov S. Mednikning fikriga qo‘shilib, assotsiativ fikrlashni ijodkorlikning universal xususiyati deb hisoblashadi.

Bashorat qilish qobiliyati P.K. Anoxin, N.A. Bernshteyn, V. Vundt, L.S. Rubinshteyn va E.P. Torrens kabi olimlarning asarlarida ijodkorlikning namoyon bo‘lishi sifatida uchraydi. Ijodkorlikning ushbu namoyon bo‘lishining tavsifida ikkita nuqtayi nazar mavjud. T.A. Barisheva [1] V. Vundtning tadqiqotlariga qo‘shilib, "muammoning yechimini, harakatning mumkin bo‘lgan natijasini tasavvur qilish qobiliyati" formulasiga e'tibor qaratadi. Yana bir nuqtayi nazar "oldindan ko‘zdan kechirish" formulasi bilan bog‘liq, ya’ni tananing kelajakdagi vaziyatga tayyorgarlik ko‘rish qobiliyati. D.B. Bogoyavlenskaya ijodkorlik omillarini o‘rganib, bu qobiliyatni "mustaqil fikrlash" deb ataydi.

Improvizatsiya qilish qobiliyati E.P. Ilinning tadqiqotlarida tasvirlangan bo‘lib, u uni "neyron jarayonlari, tasavvur, xotira, aqliy ravonlik va sezgi yuqori labilligiga asoslangan ajralmas ijodiy qobiliyat" deb hisoblaydi [12].

Improvizatsiya oldindan tayyorgarliksiz, lahzali assotsiatsiyalarga asoslangan holda sodir bo‘ladi va paradoksal yoki original yondashuvda, g‘oyaning intuitiv paydo bo‘lishida ifodalanadi.

Komiklik hissi Y.B. Borev, A. Ziv, A.N. Luk, Rod Martin, Alan Feingold va boshqalar kabi psixologlarning tadqiqotlarida ijodkorlikning namoyon bo‘lishi sifatida ta’riflanadi. A. Ziv va Y.B. Borev kabi psixologlar hazil va kreativlik tushunchasini ham nomuvofiqlik, ajablanishlik va yangilik kabi axborot xususiyatlari bilan tavsiflanganligi va nuqtai nazarning o‘zgarishi va narsalarga yangicha qarashni anglatishi asosida bog‘laydilar.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda olimlar ijodkorlikning asosiy komponenti divergent fikrlash ekanligini ta’kidlaydilar, bu esa ko‘plab g‘oyalar va variantlarni yaratadi, bu esa bitta to‘g‘ri javobni topishga qaratilgan reproduktiv konvergent fikrlashdan farq qiladi. Divergent fikrlash spontanlik, moslashuvchanlik va o‘ziga xoslik bilan tavsiflanadi va aynan shu fikrlash xususiyatlari psixologik testlar yordamida tahlil qilinadi.

Tadqiqotimizda E.A. Travinaning nuqtai nazarini muhim deb hisobladik. U musiqa ijodkorlikni rivojlantirishi mumkin degan fikrni qo‘llab-quvvatlaydi, chunki ijodkorlikning quyidagi komponentlari musiqiy asarni idrok etish jarayonida namoyon bo‘ladi:

- *oldindan ko‘ra bilish* (sezgi) – talabalar musiqiy asarning rivojlanish mantig‘ini oldindan aytib bera oladilar;
- *ijodiy tasavvur* – talabalar musiqiy asar uchun nom o‘ylab topishlari mumkin;
- *fikrlash samaradorligi* – o‘quvchilar asarning intonatsion shaklini o‘rganishda ko‘plab g‘oyalar va gipotezalarni yaratadilar;
- *fikrlashning moslashuvchanligi* – o‘quvchilar musiqiy asarning rivojlanish mantig‘iga amal qila oladilar va uni tushunishga oid turli nuqtai nazarlarni tushunish o‘rtasida osongina o‘tishadi;
- *fikrlashning o‘ziga xosligi* o‘quvchilar hayotida mavjud bo‘lmagan his-tuyg‘ularning rivojlanish mantig‘i haqida ifodalangan g‘oyalarda namoyon bo‘ladi;
- *refleksiya* – musiqiy obrazga va o‘quvchilarning o‘z hayot tajribalariga nisbatan baholash harakatlari.

Bizning farazimizga ko‘ra, agar musiqa darslarini tashkil etishda ijodiy tasavvurni, tafakkurning mahsuldorligi, egiluvchanligi va o‘ziga xosligini (originalligini) rivojlantirishga qaratilgan ijodiy topshiriqlardan foydalanilsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativlikni rivojlantirish jarayoni samaraliroq kechadi.

Adabiyotlar:

1. Барышева Т.А. Психолого-педагогические основы развития креативности [Текст] / Барышева Т.А., Жигалов Ю.А. – СПб, 2006.

2. Beknazarova L. *Innovation and Creativity as a Socio-Psychological Phenomenon*. – Modern Science and Research jurnali, 2023.

3. Бондаревская Е.В. Гуманистическая парадигма личностноориентированного образования [Текст] / Е.В. Бондаревская // Педагогика. – 1997. – № 4.

4. Богоявленская Д. Б. Интеллектуальная активность как проблема творчества [Текст]/ Д. Б. Богоявленская. – Ростов-на-Дону, 1983.

5. Загвязинский В.И. Методология и методы психологопедагогического исследования [Текст]: учебное пособие для студентов высших учебных заведений / В. И. Загвязинский, Р. Атаханов. – 5-е издание, исправленное. – М.: Академия, 2008.

6. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: “Fan va texnologiyalar”, 2007.

7. Плигин, А.А. Личностно-ориентированное образование: история и практика [Текст]: монография / А.А. Плигин. – М.: КСП+, 2003.

8. Сериков В.В. Обучение как вид педагогической деятельности [Текст]: учебное пособие для студентов высших учебных заведений / В.В. Сериков. – М.: Академия, 2008.

9. Холодная М.А. Психология интеллекта: парадоксы исследований [Текст]/ М. А. Холодная. – СПб: Питер бук,2002.

10. Шиянов Е.Н. Развитие личности в обучении [Текст]/ Е.Н. Шиянов, И.Б. Котова. – М.: Академия, 1999.

11. Якиманская И. С. Личностно-ориентированное обучение в современной школе [Текст] / И. С. Якиманская. – М.: Сентябрь, 2000.

12. Ильин Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности [Текст]/ Е.П. Ильин. – СПб: Питер, 2009.

13. Миршаев У. М. Механизмы формирования музыкальных способностей школьников в семье //Наука, техника и образование. – 2021. – №. 2-1 (77). – С. 77-80.

TALABALARGA STEAM YONDASHUV ASOSIDA “XALQ HUNARMANDCHILIGI VA BADIIY LOYIHALASH” FANINI O‘QITISH METODIKASI

Sayfullayeva Dilafro‘z Axmadovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti, “Texnologik ta’lim” kafedrasi dotsenti,
Rizoqulova Maftuna Mansur qizi,
Buxoro davlat pedagogika instituti, “Texnologik ta’lim” kafedrasi 1-bosqich magistranti

Mazkur ishda STEAM yondashuvi asosida “Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash” fanini o‘qitishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Ushbu yondashuv talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash hamda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, quroqchilik san’atida, xususan, “Turna quroq” tikish jarayonida Stack-n-Whack texnikasidan foydalanishning afzalliklari ochib berilgan. QR-kod orqali taqdim etilgan interaktiv materiallar talabalarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg‘unlashtirishga yordam beradi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, STEAM yondashuvi fanlararo integratsiyani ta’minlab, talabalarni har tomonlama yetuk, innovatsion fikrlaydigan mutaxassis sifatida shakllantiradi.

Kalit so‘zlar: *STEAM yondashuv, xalq hunarmandchiligi, badiiy loyihalash, quroqchilik, Turna quroq, Stack-n-Whack texnikasi, patchwork, fanlararo integratsiya, ijodkorlik, innovatsion ta’lim, texnologiya, amaliy ko‘nikma, QR-kod, dizayn, milliy qadriyatlar.*

МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ДИСЦИПЛИНЫ «НАРОДНОЕ РЕМЕСЛЕННИЧЕСТВО И ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ПРОЕКТИРОВАНИЕ» СТУДЕНТАМ НА ОСНОВЕ STEAM-ПОДХОДА

В данной работе освещаются теоретические и практические аспекты преподавания дисциплины «Народное ремесло и художественное проектирование» на основе STEAM-подхода. Данный подход способствует развитию творческого мышления студентов, воспитанию уважения к национальным ценностям, а также формированию навыков применения современных технологий. Кроме того, раскрываются преимущества использования техники Stack-n-Whack в лоскутном шитье, в частности при создании узора «Turna quroq». Интерактивные материалы, представленные через QR-код, помогают студентам интегрировать теоретические знания с практикой. По результатам исследования установлено, что STEAM-подход обеспечивает междисциплинарную интеграцию и способствует формированию всесторонне развитых, инновационно мыслящих специалистов.

Ключевые слова: *STEAM-подход, народное ремесло, художественное проектирование, лоскутное шитье, Turna quroq, техника Stack-n-Whack, patchwork, междисциплинарная интеграция, творчество, инновационное образование, технология, практические навыки, QR-код, дизайн, национальные ценности.*

METHODOLOGY FOR TEACHING THE SUBJECT “FOLK CRAFTS AND ARTISTIC DESIGN” TO STUDENTS BASED ON THE STEAM APPROACH

This paper discusses the theoretical and practical aspects of teaching the subject “Folk Crafts and Artistic Design” based on the STEAM approach. This approach contributes to the development of students’ creative thinking, fosters respect for national values, and helps build skills in applying modern technologies. In addition, the advantages of using the Stack-n-Whack technique in patchwork, particularly in creating the “Turna quroq” pattern, are highlighted. Interactive materials presented through QR codes help students integrate theoretical knowledge with practical application. The results show that the STEAM approach ensures interdisciplinary integration and supports the development of well-rounded, innovative specialists.

Keywords: *STEAM approach, folk crafts, artistic design, patchwork, Turna quroq, Stack-n-Whack technique, interdisciplinary integration, creativity, innovative education, technology, practical skills, QR code, design, national values.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim jarayonida STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvi muhim ahamiyat kasb etib, u talabalarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. “Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash” fanini STEAM asosida o‘qitish esa milliy an’analarni

zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Ushbu yondashuv orqali talabalar nafaqat hunarmandchilik sirlarini o‘rganadilar, balki ularni ilmiy, texnologik va muhandislik jihatdan tahlil qilishni ham o‘zlashtiradilar.

Fan mazmuni avvalo xalq hunarmandchiligining turlari – zardo‘zlik, kashtachilik, kulolchilik, yog‘och o‘ymakorligi kabi yo‘nalishlarning nazariy asoslarini o‘rganishni qamrab oladi. Shu bilan birga, har bir yo‘nalishning tarixiy rivoji, milliy qadriyatlardagi o‘rni va estetik xususiyatlari tahlil qilinadi [4]. Bu jarayonda talabalar milliy merosga hurmat ruhida tarbiyalanadi hamda ularning badiiy didi shakllanadi.

STEAM yondashuvining “Science” qismi orqali materialshunoslik asoslari, ranglar uyg‘unligi, kompozitsiya qonuniyatlari o‘rganiladi. “Technology” yo‘nalishida zamonaviy tikuv mashinalari, dizayn dasturlari va raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalari shakllantiriladi. “Engineering” komponenti esa mahsulotni loyihalash, konstruktsiyalash va uni bosqichma-bosqich yaratish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. “Art” yo‘nalishi orqali milliy naqshlar, bezak elementlari va badiiy tafakkur rivojlantiriladi. “Mathematics” esa naqshlarda simmetriya, proporsiya, o‘lchov va hisob-kitob ishlarini bajarishda qo‘llaniladi [2].

Amaliy mashg‘ulotlar fan mazmunining asosiy qismini tashkil etadi. Talabalar o‘z loyihalarini ishlab chiqadilar, eskizlar tayyorlaydilar va yakuniy mahsulotni yaratadilar. Bu jarayonda ular mustaqil fikrlash, muammolarni hal etish va jamoa bilan ishlash ko‘nikmalarini egallaydilar. Shuningdek, loyiha asosida o‘qitish usuli orqali har bir talaba o‘z ijodiy g‘oyasini amaliy natijaga aylantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ta’lim jarayonida **loyiha asosida o‘qitish (Project-Based Learning)** muhim o‘rin tutadi. Talabalar ma’lum bir mavzu asosida o‘z loyihalarini ishlab chiqadilar: eskiz tayyorlaydilar, material tanlaydilar va yakuniy mahsulotni yaratadilar. Bu jarayonda ular mustaqil ishlash, muammoni hal etish va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Shuningdek, darslarda interfaol metodlardan foydalaniladi:

- guruhli ishlar va muhokamalar
- “aqliy hujum” (brainstorming)
- taqdimot va himoya qilish
- amaliy mashg‘ulotlar va master-klasslar

Baholash jarayoni ham an’anaviy emas, balki kompetensiyaga asoslangan bo‘ladi. Talabalar bilimlari faqat nazariy emas, balki amaliy loyiha, ijodiy ishlar va ularning taqdimoti orqali baholanadi.

“Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash” fanidan o’tiladigan Quroq tikish texnikasi mavzusi bo’yicha dars ishlanmasini keltiramiz.

Amaliy mashg’ulotining o’qitish texnologik modeli

Vaqti-2soat	O’quvchilar soni: 50 nafar
O’quv mashg’ulotining turi:	Amaliy va integratsiyalashgan (STEAM)
Mashg’ulotning rejasi:	1. Quroq tikish usullari. 2. Gazlama qoldiqlarini quroq tikishga tayyorlash. 3. Quroq kompozisiyasini tuzish. 4. Turna quroq tikish.
O’quv mashg’ulotining maqsadlari: ***Ta’limiy:*** Talabalarga quroq tikish texnikasi, naqsh turlari va ularni yaratish bosqichlarini o‘rgatish. ***Tarbiyaviy:*** Milliy qadriyatlarga hurmat ruhini shakllantirish, estetik did va mehnatsevarlikni tarbiyalash. ***Rivojlantiruvchi:*** Texnologik fikrlash, ijodkorlik va mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.	
Pedagogik vazifalar: • Quroq tikish texnikasi, uning tarixiy ildizlari, badiiy va amaliy ahamiyati haqida bilim berish. • Quroqning turlari (oddiy, geometrik, guldor, dekorativ) va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini tushuntirish. • Quroqlarda qo‘llaniladigan rang uyg‘unligi, mato fakturasi va kompozitsiya qonuniyatlarini tahlil qilishni o‘rgatish. • Prezentatsiya va videodarslar orqali quroq tikish jarayonini nazariy va amaliy jihatdan ko‘rsatib berish.	***Talaba faoliyati:*** Mavzuni o‘zlashtirish yakunida talabalar: • Quroq tikish texnikasi, uning tarixiy ildizlari, badiiy va amaliy ahamiyati haqida bilimlarga bo‘ladi. • Quroqning turlari (oddiy, geometrik, guldor, dekorativ) va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini tushunib oladi. • Quroqlarda qo‘llaniladigan rang uyg‘unligi, mato fakturasi va kompozitsiya qonuniyatlarini tahlil qilishni bilib oladi. • Prezentatsiya va videodarslar orqali quroq tikish jarayonini nazariy va amaliy jihatdan tushunib oladi.
O’qitish texnologiyasi va metodlari:	Interfaol muhit asosida o‘qitish (taqdimot, konferens

	usuli), “Prezentatsiya va videodars” metodi, “Keys-stady”, “Hamkorlikda o’qitish” “Muammoli vaziyat” metodi, “Xulosalash” metodi
O’qitish shakli:	Kichik guruhda ishlash
O’qitish vositalari:	Kompyuter, multimedia proyektor, Slayd-prezentatsiya (“Quroq tikish san’ati” PowerPoint fayli), Videodars (“Turna quroq” tikish texnikasi” 10 daqiqalik video), Grafik dasturlar: Adobe Photoshop, CorelDRAW, Canva
O’qitish shart-sharoiti:	Jihozlangan auditoriya

Ma’ruza mashg’ulotining o’qitish texnologik xaritasi

Bosqichlar, vaqti	**Faoliyat mazmuni**	
	O’qituvchi	**Talaba**
1-bosqich Tashkiliy qism (3daqiqa)	1.1Talabalarni mashg’ulotga tayyorgarligi davomatini tekshiradi. 1.2.Dars ketma-ketligini tushuntiradi va baholash me’zoni bilan tanishtiriladi.	Mashg’ulotga tayyorlanadilar
2-bosqich Motivatsiya (7 daqiqa)	2.1. Talabalarni e’tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o’tkazadi. (1-ilova) 2.2. Faol ishtirok etgan talabalarni bilim darajalarini baholab yangi mavzuga bog’laydi.	Eshitadilar, o’ylaydilar, savollarga javob beradilar.
Tasavvurni rivojlantirish maktabda tasviriy san’at darslarida muhim o‘rin tutadi. Natyurmort, tabiat motivlari, hayvon va inson figuralari bilan amaliy mashqlar o‘quvchilarning tasavvur doirasini kengaytiradi va fantaziyani rag‘batlantiradi. Guruh loyihalari tasavvurni ijtimoiy kontekstda rivojlantirishga yordam berib, o‘quvchilarga bir-birining ijodiy qarorlarini kuzatish va muhokama qilish imkonini yaratadi. Individual ishlarda esa o‘quvchi o‘z shaxsiy obrazlarini yaratib, fantaziya va tasavvurlarini mustahkamlaydi. Shuningdek, innovatsion pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar tasavvurni faollashtirishda muhim rol o‘ynaydi, darslarni qiziqarli va samarali qiladi. Natijada o‘quvchilarning vizual tafakkuri, ijodiy qaror qabul qilish qobiliyati va estetik didi sezilarli darajada rivojlanadi.

Ijodiy tafakkur va tasavvur maktab yoshidagi o‘quvchilarning intellektual, estetik va emotsional rivojlanishida muhim pedagogik vositalardan biri hisoblanadi. Ijodiy tafakkur – bu yangi, original va foydali g‘oyalarni ishlab chiqish, mavjud bilim va tajribalarni yangi kontekstda qo‘llash qobiliyati bo‘lsa, tasavvur – mavjud sezgi, bilim va tajribalar asosida yangi obrazlar va konsepsiyalarni yaratish salohiyatidir. Ijodiy tafakkur va tasavvur o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, tasviriy san’at darslarida o‘quvchilarning fantaziya va vizual tafakkurini rivojlantirishda birgalikda ishlaydi.

Tasviriy san’at darslarida ijodiy tafakkur va tasavvurni rivojlantirish chizma, rang, kompozitsiya va dizayn elementlarini o‘rganish orqali amalga oshiriladi. Natyurmort, tabiat motivlari, hayvon va inson figuralarini ishlash o‘quvchilarning fantaziyasi va tasavvur doirasini kengaytiradi. Individual ishlarda o‘quvchilar o‘z shaxsiy uslubini shakllantiradi, ijodiy qaror qabul qilish va muammolarni hal qilish qobiliyatini mustahkamlaydi. Guruh loyihalari esa ijodiy tafakkur va tasavvurni ijtimoiy kontekstda rivojlantiradi, o‘quvchilarga bir-birining fikrlarini kuzatish, konstruktiv baholash va hamkorlik qilish imkonini beradi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar ijodiy tafakkur va tasavvurni faollashtirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu metodlar darslarni qiziqarli va samarali qiladi, o‘quvchilarda mustaqil ijodiy faoliyatga qiziqishni uyg‘otadi va ularning vizual tafakkuri hamda estetik didini rivojlantiradi. Shu bilan birga, ijodiy tafakkur va tasavvurni rivojlantirish nafaqat san’atiy ko‘nikmalar, balki

o‘quvchilarning umumiy intellektual va emotsional rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, bu esa maktabda tasviriy san’at darslarining pedagogik samaradorligini oshiradi.

Maktabda tasviriy san’at darslarida ijodiy tafakkur va tasavvurni rivojlantirish masalasi ko‘plab zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda o‘rganilgan. Xalqaro va mahalliy adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, ijodiy tafakkur o‘quvchilarning umumiy intellektual rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uni shakllantirishning samarali yo‘llari turli san’at va dizayn texnikalaridan foydalanishga asoslanadi. Shuningdek, tadqiqotlar natijasida chizma, rang va kompozitsiya elementlarini tizimli o‘rganish orqali o‘quvchilar vizual tafakkurini rivojlantirishi va tasavvur doirasini kengaytirishi aniqlangan.

O‘zbekiston pedagogik adabiyotlarida ham tasviriy san’at darslarida ijodiy yondashuvni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, innovatsion pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarning qo‘llanilishi darslarni qiziqarli va samarali qilish imkonini beradi, bu esa o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini faollashtiradi [5; 74].

O‘quvchilarning ijodiy madaniyatini rivojlantirish va estetik didini shakllantirish bo‘yicha amaliy tadqiqotlar ham mavjud. Xususan, tasvir va rang ishlari orqali ijodiy fikrlashni mustahkamlash, shuningdek, guruh ishlari va individual loyihalar orqali o‘quvchilarning fantaziyasi va tasavvurini kengaytirish muhim pedagogik vazifa sifatida ko‘riladi. Shu bilan birga, adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, ijodiy tafakkurni rivojlantirish nafaqat san’atiy ko‘nikmalar, balki o‘quvchilarning umumiy bilim va tafakkur darajasiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [8; 53].

Ushbu tadqiqotning metodologik asosi sifatida maktabda tasviriy san’at darslarida ijodiy tafakkur va tasavvurni rivojlantirish jarayonini tizimli ravishda o‘rganish qabul qilindi. Tadqiqot metodlari sifatida nazariy va amaliy yondashuvlar birlashtirildi. Nazariy asos sifatida pedagogika, psixologiya va tasviriy san’at metodikasi bo‘yicha mavjud adabiyotlar, ilmiy maqolalar va o‘quv dasturlari tahlil qilindi. Ushbu tahlil o‘quv jarayonida ijodiy tafakkurning rivojlanishi, fantaziya va vizual tafakkur bilan bog‘liq metodik usullarni aniqlash imkonini berdi.

Amaliy qismda eksperimental-metodik tadqiqot yondashuvi qo‘llanildi. Tadqiqotning eksperimental bazasi sifatida maktab sinflari tanlandi. O‘quvchilarning ijodiy ko‘nikmalarini baholash va tasavvurlarini rivojlantirish uchun amaliy mashqlar, natyurmort va tabiat motivlari, hayvon va inson figuralarini ishlash, shuningdek, individual va guruh loyihalari qo‘llanildi. Eksperiment davomida o‘quvchilarning ijodiy yondashuvi va vizual tafakkur darajasi kuzatildi, natijalar test va baholash mezonlari orqali tahlil qilindi. Shuningdek, innovatsion pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar tadqiqot jarayonida sinovdan o‘tkazildi. Ushbu metodlar darslarni qiziqarli va samarali qilish, o‘quvchilarda ijodiy tafakkur va tasavvurni mustahkamlashga xizmat qildi. Tadqiqot natijalari asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqildi, bu esa maktabda tasviriy san’at darslarini yanada tizimli va maqsadga muvofiq tashkil etish imkonini beradi.

Eksperiment natijalari shuni ko‘rsatdiki, maktabda tasviriy san’at darslarida ijodiy tafakkur va tasavvurni rivojlantirish jarayoni tizimli yondashuvni talab qiladi. O‘quvchilarning chizma, rang va kompozitsiya bilan ishlash ko‘nikmalari, shuningdek, fantaziya va tasavvur doirasi darslarda qo‘llangan metodlarning samaradorligini aniq namoyon qildi. Analizga ko‘ra, o‘quvchilarga natyurmort va tabiat motivlari asosida amaliy mashqlar berish, hayvon va inson figuralarini chizish orqali individual tafakkurini rivojlantirish, ular orasida ijodiy qaror qabul qilish va muammolarni hal etish qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi. Shuningdek, guruh ishlari ijodiy yondashuv va ijtimoiy tajribani mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Guruh loyihalari orqali o‘quvchilar bir-birining ijodiy qarorlarini kuzatadi, konstruktiv fikr almashadi va natijada fantaziya va tasavvur doirasi kengayadi. Individual ishlar esa o‘quvchilarning shaxsiy ijodiy uslubini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, innovatsion pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarning qo‘llanishi darslarni qiziqarli va samarali qiladi, o‘quvchilarning vizual tafakkuri va estetik didini rivojlantiradi. Shu bilan birga, tadqiqot ijodiy tafakkur va tasavvurni rivojlantirishning maktab darslaridagi ahamiyatini va pedagogik qiymatini ilmiy asos bilan tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, maktabda tasviriy san’at darslarida ijodiy tafakkur va tasavvurni rivojlantirish o‘quvchilarning vizual madaniyati va fantaziya qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi. Eksperiment davomida o‘quvchilarning tasvir, rang va kompozitsiya bilan ishlash ko‘nikmalari tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarga amaliy mashqlar, natyurmort, tabiat motivlari hamda hayvon va inson figuralarini ishlash topshiriqlari berilganda, ularning ijodiy tafakkur va tasavvurlari sezilarli darajada rivojlanadi. Shuningdek, individual va guruh ishlari ijodiy yondashuvni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Guruh loyihalari orqali o‘quvchilar o‘zaro fikr almashadi, muammolarni birgalikda hal qiladi va fantaziya doirasini kengaytiradi. Individual ishlarda esa o‘quvchilar o‘z uslubini aniqlash va ijodiy qarorlar qabul qilish imkoniga ega bo‘ladi.

Eksperiment davomida innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va interaktiv mashqlar qo‘llanganda darslarning qiziqarli va samarali o‘tishi aniqlangan. O‘quvchilarning ijodiy tafakkurini baholash natijalari shuni ko‘rsatdiki, ularning vizual tafakkuri, rang va shakl uyg‘unligini tushunishi hamda kompozitsiya tuzish qobiliyati oshgan. Tadqiqot shuni ham ko‘rsatdiki, ijodiy tafakkur va tasavvurni rivojlantirish nafaqat san’atiy ko‘nikmalarni, balki o‘quvchilarning umumiy intellektual va estetik rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, maktabda tasviriy san’at darslarida ijodiy tafakkur va tasavvurni rivojlantirish o‘quvchilarning vizual madaniyati, fantaziya qobiliyati va estetik didini sezilarli darajada oshiradi. Tasvir, rang va kompozitsiya elementlarini o‘rganish, natyurmort va tabiat motivlarini ishlash, shuningdek, hayvon va inson figuralarini chizish orqali o‘quvchilar nafaqat texnik ko‘nikmalarini, balki ijodiy yondashuvini ham rivojlantiradi. Guruh va individual ishlarda berilgan topshiriqlar o‘quvchilarning fantaziya va tasavvur doirasini kengaytiradi, muammolarni hal qilish va ijodiy qaror qabul qilish qobiliyatini mustahkamlaydi.

Tasviriy san’at darslarida tasavvur, fantaziya va vizual tafakkurni rivojlantirish bilan bog‘liq metodik tavsiyalar quyidagicha:

1. Natyurmort va tabiat motivlari bilan ishlash: O‘quvchilarga oddiy va murakkab obyektlarni chizish bo‘yicha amaliy mashqlar berish, rang va shakllarni uyg‘unlashtirishni o‘rgatish orqali tasavvur va vizual tafakkur rivojlantiriladi. Obyektlarni turli burchaklardan ko‘rish va ularni chizma orqali aks ettirish ijodiy qarorlar qabul qilishni rag‘batlantiradi.
2. Hayvon va inson figuralarini ishlash: Shakllar, proporsiyalar va harakatlarni chizish orqali o‘quvchilarning fantaziya va vizual tafakkuri kengayadi. Individual ishlar o‘quvchilarga o‘z uslubini shakllantirish, guruh loyihalari esa ijtimoiy muhitda ijodiy tafakkur va fantaziyani rivojlantirish imkonini beradi.
3. Chizma va rang bilan interaktiv mashqlar: Rang va chizma elementlarini eksperiment orqali ishlash o‘quvchilarda fantaziya va vizual tafakkurni faollashtiradi. Masalan, turli ranglar bilan yangi kombinatsiyalar yaratish, abstrakt obrazlar chizish va rang qatlamlarini sinovdan o‘tkazish orqali ijodiy tafakkur mustahkamlanadi.
4. Guruh loyihalari va ijodiy topshiriqlar: Guruh ishlari o‘quvchilarga bir-birining ijodiy qarorlarini kuzatish, konstruktiv fikr almashish va ijodiy yechimlar ishlab chiqish imkonini yaratadi. Shu orqali fantaziya va tasavvur ijtimoiy kontekstda rivojlantiriladi, muammolarni hal qilish va ijodiy qaror qabul qilish qobiliyati oshadi.
5. Individual ishlarda fantaziyani rag‘batlantirish: O‘quvchilarga shaxsiy loyihalar berish, yangi obrazlar va kompozitsiyalar yaratishga imkon berish ijodiy tafakkur va tasavvurni mustahkamlashning samarali usuli hisoblanadi. Bu jarayonda o‘quvchilar o‘z fantaziyasi va tasavvurlarini erkin ifodalaydi, individual uslubini rivojlantiradi.
6. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash: Interfaol metodlar, multimediya vositalari va vizual materiallardan foydalanish darslarni qiziqarli qiladi, o‘quvchilarda ijodiy tafakkur va tasavvurni faollashtiradi, vizual tafakkur va estetik didni rivojlantiradi.
7. Tuzilgan baholash tizimi: O‘quvchilarning ijodiy ishlarini baholashda nafaqat texnik ko‘nikmalar, balki fantaziya, tasavvur va individual yondashuv asosiy mezon sifatida olinishi lozim. Bu o‘quvchilarda ijodiy jarayonga qiziqishni oshiradi va ijodiy tafakkur rivojlanishini rag‘batlantiradi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, innovatsion pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarni qo‘llash darslarning samaradorligini oshiradi, o‘quvchilarda mustaqil ijodiy faoliyatga qiziqishni uyg‘otadi va dars jarayonini yanada interaktiv qiladi. Shu sababli, maktablarda tasviriy san’at darslarini rejalashtirishda ijodiy tafakkur va tasavvurni rivojlantirishga qaratilgan amaliy mashqlar, individual va guruh loyihalari, shuningdek, innovatsion metodlar tizimli tarzda qo‘llanishi tavsiya etiladi. Ushbu metodik yondashuv o‘quvchilarning ijodiy ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan birga, ularning umumiy intellektual va estetik rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, natijada maktab ta’lim tizimida tasviriy san’at darslarining samaradorligi ortadi.

Adabiyotlar:

1. Qodirov B.R. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015.
2. Hasanov R**.** Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
3. Mirzayev A. Tasviriy san’at asoslari va o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020.
4. Rakhmatova D. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2019.
5. Tursunov S., Tursunova M. Pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017.
6. Кузнецова Л. Методика обучения изобразительному искусству. – Москва: Просвещение, 2016.
7. Smith R. Teaching Art and Creativity in Schools. – London: Routledge, 2020.
8. Johnson P. Creative Thinking in Education. – New York: Springer, 2018.
9. Lowenfeld V., Brittain W. Creative and Mental Growth. – New York: Macmillan, 1987.

УДК 37.012.7

ДАРСНИНГ МАЪРУЗА ТУРИДА «ЛАЙЛИ ВА МАЖНУН» ДОСТОНИНИ АУДИОВИЗУАЛ ВОСИТАЛАР ЁРДАМИДА ЎҚИТИШ

Сабриев Алишер Аслиддинович,
Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий таълимни ривожлантириш тадқиқотлари маркази таянч докторанти,
ТКХУ Самарқанд филиали ўқитувчиси
alisher.sabriyev95@gmail.com

Мақолада Алишер Навоийнинг «Лайли ва Мажнун» достонини олий таълим тизимида маъруза турида замонавий педагогик технологиялар, хусусан, аудиовизуал воситалар ёрдамида ўқитишнинг назарий ва амалий жиҳатлари таҳлил қилинади. Асарнинг поэтик тузилиши, бадиий-эстетик қиммати ҳамда мазмун-моҳиятини чуқур англашда аруз тизими, хусусан, вазн ва оҳангдорликни эшитиш ва ҳис қилиш орқали идрок этишнинг аҳамияти илмий асосланади. Шунингдек, достон матнини ўрганиш жараёнида слайд-презентациялар, визуал материаллар, видеофрагментлар ва аудиоматнлардан самарали фойдаланиш орқали талабаларда асарнинг мусиқийлиги, образлар тизими ва ғоявий мазмунини чуқур англаш кўникмаларини шакллантириш имкониятлари ёритиб берилади. Мақолада, шу билан бирга, маъруза машғулотларида мультимедиа воситаларидан фойдаланишнинг илмий-методик асослари ҳамда уларнинг таълим самарадорлигини оширишдаги ўрни кўрсатиб ўтилади.

Калит сўзлар: *Алишер Навоий, «Лайли ва Мажнун», аруз, аудиовизуал таълим, визуализация, мультимедиа, маъруза машғулоти, бадиий таҳлил.*

ПРЕПОДАВАНИЕ ПОЭМЫ «ЛАЙЛИ И МАДЖНУН» В ЛЕКЦИОННОЙ ФОРМЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ АУДИОВИЗУАЛЬНЫХ СРЕДСТВ

В статье анализируются теоретические и практические аспекты преподавания поэмы Алишера Навои «Лайли и Маджнун» в системе высшего образования в форме лекции с использованием современных педагогических технологий, в частности аудиовизуальных средств. Научно обосновывается значение восприятия поэтической структуры, художественно-эстетической ценности и содержательной сущности произведения через слушание и чувственное восприятие арузной системы, особенно метра и ритмической организации. Кроме того, раскрываются возможности формирования у студентов навыков глубокого понимания музыкальности текста, системы образов и идейного содержания произведения за счёт эффективного использования слайд-презентаций, визуальных материалов, видеофрагментов и аудиотекстов в процессе изучения поэмы. Также в статье рассматриваются научно-методические основы применения мультимедийных средств в лекционных занятиях и показана их роль в повышении эффективности образовательного процесса.

Ключевые слова: *Алишер Навои, «Лайли и Маджнун», аруз, аудиовизуальное обучение, визуализация, мультимедиа, лекционное занятие, художественный анализ.*

TEACHING THE EPIC “LAYLI AND MAJNUN” IN LECTURE FORMAT USING AUDIOVISUAL TOOLS

This article analyzes the theoretical and practical aspects of teaching Alisher Navoi’s epic “Layli and Majnun” in a lecture format within the higher education system using modern pedagogical technologies, particularly audiovisual tools. The study scientifically substantiates the importance of perceiving and understanding the poetic structure, artistic-aesthetic value, and semantic content of the work through listening to and feeling its aruz-based meter and rhythm. Furthermore, the article highlights the effectiveness of using slide presentations, visual materials, video fragments, and audio texts in the process of studying the epic. These tools contribute to developing students’ ability to deeply comprehend the musicality of the text, its system of imagery, and its ideological content. In addition, the paper discusses the scientific and

methodological foundations for the use of multimedia tools in lecture sessions and demonstrates their role in enhancing the overall effectiveness of the educational process.

Keywords: *Alisher Navoi, Layli and Majnun, aruz, audiovisual education, visualization, multimedia, lecture format, literary analysis.*

Кириш. Мумтоз поэзия намуналарини замонавий таълим воситалари орқали ўқитиш бугунги кунда долзарб вазифалардан бири ҳисобланади. Айниқса, Алишер Навоийнинг «Лайли ва Мажнун» достони бу борада алоҳида аҳамият касб этади. Ушбу асар ўзининг ишқий-фалсафий мазмуни, юксак бадиий савияси, образлар тизимининг мураккаблиги ҳамда поэтик шаклининг ўзига хослиги билан мумтоз адабиёт намуналари орасида муҳим ўрин тутади. Шу билан бирга, достоннинг аруз тизимига асосланган вазни ва оҳангдорлиги уни чуқур англашда фақат назарий эмас, балки амалий, хусусан, эшитиш ва ҳис этиш орқали ўрганишни ҳам талаб қилади. Бу эса уни замонавий аудиовизуал воситалар ёрдамида ўқитишнинг самарадорлигини янада оширади.

Навоийшунос олима Дилнавоз Юсупова айтмоқчи, “Алишер Навоийнинг «Лайли ва Мажнун» достони туркий тилда ушбу мавзуда яратилган илк достон бўлиб... ... у (яъни, Алишер Навоий — А.С.) ўзигача мавжуд анъаналардан ижодий фойдаланган ҳолда ўз достонига янгича руҳ бағишлайди, ўз даврининг талаб ва эҳтиёжларидан келиб чиқиб, “афсонага янги либос кийгизади” [1; с. 127]. Ушбу асар ишқий-фалсафий мазмуни, инсон руҳиятини чуқур тасвирлаши ва бадиий етуклиги билан ажралиб туради. «Лайли ва Мажнун» достони композицион жиҳатдан мукаммал тузилишга эга бўлиб, унда воқеалар изчиллик билан ривожланади, қаҳрамонлар ҳолу қоли орқали муҳаббат, вафо, сабр ва маънавий поклик каби ғоялар ёритилади. Асарнинг бундай мураккаб ва серқирра мазмуни уни ўқитишда анъанавий ёндашув билан чекланиб қолмасдан, замонавий педагогик воситалардан фойдаланишни тақозо этади.

Шундан келиб чиқиб, мазкур мақолада достоннинг айрим боб ва лавҳаларини махсус слайд-презентациялар асосида визуаллаштирган ҳолда, олий таълим муассасаларида маъруза машғулотларини самарали ташкил этиш масаласига эътибор қаратилади. Бунда слайдларда танлаб олинган байтларни арузий тақтеъ билан бирга бериш, мантиқий урғуларни аниқ кўрсатиш ва уларни аудио материаллар билан уйғунлаштириш орқали талабаларнинг матнни чуқурроқ англаш имкониятларини кенгайтириш йўллари асослаб берилади.

Тадқиқот методлари. Ушбу тадқиқотда асосий ёндашув сифатида интегратив-аудиовизуал таълим модели қўлланилди. Мазкур модель анъанавий маъруза шаклини замонавий рақамли воситалар билан уйғунлаштиришга асосланади. Унда талабаларнинг билиш фаолиятини фаоллаштириш учун кўриш ва эшитиш каналларидан биргаликда фойдаланишга устувор аҳамият берилади. Бундай ёндашув, айниқса, Алишер Навоийнинг «Лайли ва Мажнун» каби мураккаб поэтик тузилишга эга асарларини ўқитишда самарали бўлиб, талабаларга матннинг биргина мазмунини эмас, унинг ички оҳанги ва бадиий табиатини ҳам ҳис этиш имконини яратади.

Тадқиқот доирасида қуйидаги амалий усуллардан фойдаланилди:

1. Бадиий-эмоционал таъсирни кучайтириш усули. Маъруза жараёнида «Лайли ва Мажнун» достонининг энг драматизмга бой қисми олинди. Хусусан, “Мажнуннинг Каъба зиёратига борганлиги акс этган парча достоннинг энг таъсирли лавҳаларидан бири бўлиб, бунда Мажнун “муножот баҳонаси била кўнглидаги чирин ёзғони ва дуо қилмоқ таронаси била хотиридағи махфий мақосидин тилидин чиқорғони”нинг гувоҳи бўламиз. Қирқ уч байтдан иборат бу ўзига хос “муножотнома” Мажнуннинг Аллоҳдан ишқ ўтини зиёда қилишни сўраб қилган илтижосига бағишланган бўлиб, мазкур парчада йигирма тўрт ўринда “ишқ” сўзидан фойдаланилган” [2; с. 64]. Навоийшунос олим С.Тоҳиров тўғри таъкидлагандек, “Муножот матни бадиий жиҳатдан баркамол. Унда ташбеҳ, таносуб, тазод, такрир, ружуъ, тарсеъ, тажоҳули орифона, китобат, нидо, лафф ва нашр, тадриж каби кўплаб бадиий санъатларнинг мукаммал намуналари мавжуд. Бироқ муножот матнини таҳлил қилгандан кўра уни ҳис қилиш, лирик қаҳрамон вужудидаги туғён жунбушини қисман бўлсада туйиш муҳимроқдир” [3; с. 166]. Дарҳақиқат, ушбу туюмни ўз танасидан кечириш кишида асарни тўлароқ англаш, илмий ўзлаштиришга ҳам туртки бўлади. Бунинг учун эса байтлар мазмунидан келиб чиқиб анимация яратиш, асар матнини вазнига мувофиқ, мантиқий урғуларни тўғри қўйган ҳолда сифатли ёзиб олиш ҳамда асар ритмига мос фон мусиқа билан тўғри мутаносибликда анимацияга илова қилиш ва ниҳоят, маъруза дарси асосий қисмининг бошланишида фойдаланиш мақсадга мувофиқ кўрилди. Образларнинг визуал талқини, овоз ва ҳаракат уйғунлиги талабаларда кучли эмоционал таассурот уйғотади. Натижада, асар мазмунини фақат тушуниш эмас, уни ҳис қилиш, ички мазмунига чуқурроқ кириб бориш имконияти яратилади. Шу тариқа, қўлланилган

методлар мажмуаси анъанавий маъруза шаклини бойитиб, уни интерактив ва таъсирчан таълим муҳитига айлантиришга хизмат қилди.

2. Аруз назарияси асосидаги чизмалар ва жадваллар. Талабалар одатда мумтоз поэтикага оид дастлабки билимлар доирасида аруз тизими, рукнлар ва ҳижо турлари ҳақида умумий тасаввурга эга бўладилар. Бироқ Алишер Навоийнинг «Лайли ва Мажнун» достонини ўрганиш жараёнида ушбу назарий билимлар ҳар доим ҳам тўлиқ амалий тасдиғини топавермайди. Шуни ҳисобга олиб, слайд-презентация орқали байтларнинг тақтеъи кўрсатилди ҳамда уларнинг аудио ифодаси эшиттирилганда талабалар кутилган анъанавий ритмдан бироз фарқ қилувчи оҳанг ва тузилишларга дуч келишганини англашди. Бу ҳолат уларда қизиқиш уйғотиб, поэтик шаклдаги бундай ўзгаришларнинг сабабларини англашга интилишни кучайтирди. Айни шу босқичда вазн вариациялари, уларнинг бир асар доирасида алмашиниб келиш хусусияти ҳамда бу жараёнга таъсир этувчи омиллар ҳақида қисқача назарий маълумот бериш мақсадида қуйидаги жадваллар, схемалар ва инфографикалардан фойдаланилди ҳамда ушбу орқали мураккаб поэтик тушунчаларни соддалаштириб, визуал тарзда етказиш имконияти яратилди.



Аруз назариясига кўра, икки қисқа ҳижо ёнма-ён воқеъланса, шу икки қисқа ҳижо ўрнида битта чўзиқ ҳижо келиши мумкин. Чунки талаффуз қилганда икки қисқа ҳижо ва бир чўзиқ ҳижо бир хил вақтни қамраб олади.

Т/р	Афоъийл	Парадигма	Ҳижо турлари
1.	Маф-ъув-лу	– – v	чўзиқ+ чўзиқ+қисқа
2.	Маф-ъув-лун	– – –	чўзиқ+чўзиқ+чўзиқ
3.	Ма-фо-ъи-лун	v – v –	қисқа+чўзиқ+қисқа+чўзиқ
4.	Фо-ъи-лун	– v –	чўзиқ+қисқа+чўзиқ
5.	Фа-ув-лун	v – –	қисқа+чўзиқ+чўзиқ
6.	Ма-фо-ъийл	v – ~	қисқа+чўзиқ+ўта чўзиқ

Маърузадан мақсад аруз назариясини тўла тушунтириш бўлмаганлиги сабабли асар оҳангини ҳис қилишга шу қадар маълумот етади, чуқурроқ ўрганишни истайдиган талабалар учун керакли адабиётлар тавсия қилинади. Лекин ҳар бир вазн тақтеъига камида биттадан мисол кўрсатилиши лозим:

Эй ях-ши / о-тинг би-ла / са-ро-ғоз,
Ан-жо-ми- / ға-ким, е-тар / ҳар о-ғоз.
– – v / v – v – / v – ~
мафъувлу мафоъилун мафоъийл

Ёз-моқ-да / бу иш-қи жо- / ви-до-на,
Мақ-су-ду- / м+э-мас э-ди / фа-со-на.
– – v / v – v – / v – –
мафъувлу мафоъилун фаъувлун

“Бўтам” дебон айлар ул сифат печ
Ким, қол-мас / ру-ҳи-дин / а-сар ҳеч.
– – – / – v – / v – ~
мафъувлун фоъилун мафоъийл

Оқ-шом-дин / тонг-ға жо- / ни маҳ-зун,

Тонг-дин оқ- / шом-ға аш- / ки гул-гун.
– – – / – v – / v – –
мафъувлун фоъилун фаъувлун

Шу тариқа, визуаллаштириш усули талабаларнинг аввалги билимларини мустаҳкамлаш билан бирга, уларни янги поэтик ҳодисаларни мустақил таҳлил қилишга йўналтиради ва аруз тизимини чуқурроқ англашга хизмат қилади.

Асарнинг шакли ҳақида қисқача маълумот берилгандан кейин унинг мазмунига ўтиш мумкин бўлади. Мумтоз асарларнинг мазмунини қандай тушунтириш, қайси методларни қўллаш борасида самара кўрсатган кўпгина тадқиқотлар борлигини ва ҳар бир педагогнинг ҳам ўзига яраша кўникмаси, услуби мавжуд эканлигини инобатга олиб, бу масалага кўп ҳам тўхталишни лозим топмадик.

Натижалар. Алишер Навоийнинг «Лайли ва Мажнун» достонини олий таълим муассасаларида маъруза шаклида аудиовизуал воситалар асосида ўқитиш бўйича олиб борилган амалий тажрибалар қатор ижобий натижаларни намоён этди.

Биринчидан, талабаларда поэтик ритмни фақат назарий жиҳатдан англашгина эмас, уни бевосита ҳис қилиш қобилияти ҳам шаклланди. Аруз қоидалари аудио ва визуал материаллар уйғунлигида тақдим этилганда вазннинг амалий ифодаси янада равшанроқ идрок этилди. Талабалар байтларни тинглаш, уларнинг тақтеъини кузатиш ва талаффузини ҳис қилиш орқали ритмик тузилишни чуқурроқ англай бошладилар. Натижада рукн ва ҳижо каби тушунчалар назарий таъриф даражасида қолмай, шахсий тажриба орқали ўзлаштириладиган жонли поэтик ҳодисага айланди.

Иккинчидан, талабаларда ритм ва талаффузни тўғри қабул қилиш ва қайта ифодалаш кўникмалари сезиларли даражада ривожланди. Аудиоёзувлар билан бойитилган слайдлар орқали байтларнинг мантиқий урғуси, интонацион қурилиши ва орфоэпик хусусиятлари изчил тарзда ўрганилди. Бу жараёнда талабалар нафақат тингловчи сифатида, балки фаол иштирокчи сифатида ҳам қатнашиб, айрим байтларни мустақил равишда ифодали ўқишга ҳаракат қилдилар. Шу йўсинда поэтик нутқнинг ички қонуниятларини англаш ва уни амалда қўллаш кўникмаси шаклланди.

Учинчидан, достон мазмунини англаш жараёни янада чуқурлашди ва кўп қиррали тус олди. Ҳиссий-эмоционал жиҳатдан тўйинтирилган лавҳаларни видеоматериаллар орқали намойиш этиш талабаларга воқеаларни фақат матн орқали эмас, қўшимча визуал образлар орқали ҳам қабул қилиш имконини берди. Бу эса қаҳрамонлар характери, ҳис-туйғулари ва асарнинг умумий ғоявий йўналишини яхшироқ англашга хизмат қилди. Алалоқибат, талабаларда асар мазмунига нисбатан шахсий муносабат шаклланиб, таҳлилий фикрлаш фаоллашди.

Тўртинчидан, эстетик қабул ва бадиий завқ даражасида сезиларли ўсиш кузатилди. Матнни бир вақтнинг ўзида кўриш ва эшитиш орқали яратилган аудиовизуал муҳит талабаларда асарнинг ички мусиқийлиги ва бадиий жозибасини чуқурроқ ҳис этиш имконини берди. Оҳанг, пауза, ритм ва визуал тақдимотнинг уйғунлиги сатр ортидаги руҳий ҳолатни англашни осонлаштирди. Бу эса талабаларда мумтоз поэзияга нисбатан қизиқиш ва эстетик эҳтиёжнинг ортишига олиб келди.

Бешинчидан, онгли ўзлаштириш ва узоқ муддатли хотира механизмлари фаоллашди. Матнларни бир неча марта эшитиш, визуал равишда кузатиш ва айрим ҳолларда такрорлаш орқали талабаларда механик ёдлашдан кўра мазмунли, англанган ҳолда эслаб қолиш жараёни устуворлик қилди. Улар сатрларни ёдлаб олдилар, шу билан бир қаторда, уларнинг ритмик тузилиши, урғу тизими ва маънавий мазмунини ҳам бир бутун ҳолда қабул қилдилар. Бу ҳолат таълим жараёнида семантик хотирани ривожлантиришда муҳим омил сифатида намоён бўлди. Шу тариқа, аудиовизуал воситаларга асосланган маъруза машғулотлари мумтоз адабиёт намуналарини ўқитишда анъанавий усулларга нисбатан самаралироқ эканлиги амалда ўз тасдиғини топди ва уларни таълим амалиётига кенг жорий этиш зарурлигини кўрсатди.

Муҳокама. Арузий поэзияни фақат назарий асосда ўргатиш кўп ҳолларда кутилган самарани бермаслиги таълим амалиётида бир неча бор кузатилган. Чунки мумтоз шеъриятнинг ритмик ва фонологик табиати уни фақат қоидалар мажмуаси сифатида эмас, балки тинглаш ва ҳис қилиш орқали ўзлаштиришни талаб қилади. Шу нуқтаи назардан Алишер Навоийнинг «Лайли ва Мажнун» достонини ўқитишда аудиовизуал воситалардан фойдаланиш назарий билимни мустаҳкамлаш билан бирга, асарнинг ички руҳини англашга ҳам хизмат қилади.

Аудио ва визуал материалларнинг уйғунлиги талабаларда матнга нисбатан фаол муносабатни шакллантиради. Улар асарни шунчаки таҳлил объекти сифатида эмас, бадиий-эстетик қимматга эга бўлган, ҳис этиладиган ва идрок қилинадиган поэтик воқелик тарзида ҳам қабул қила бошлайдилар. Бу эса таълим жараёнида зерикарлиликнинг олдини олиб, ўқишга бўлган қизиқишни оширади.

Муфассал тақтеъ, байт ичидаги мантиқий урғуларни белгилаш, сатрларнинг ифодали овозли ўқилиши каби элементлар бир бутун тизим сифатида қўлланилганда таълим самарадорлиги сезиларли даражада ортади. Айниқса, аудиовизуал муҳитда тақдим этилган байтлар талабаларга ритм ва оҳангни бир вақтнинг ўзида кўриш ва эшитиш орқали қабул қилиш имконини беради. Шу билан бирга, достонда учрайдиган вазн вариациялари — турли рукнлар алмашинуви ва ритмик ўзгаришлар талабаларда алоҳида қизиқиш уйғотади. Улар илгари ўрганган назарий схемалар билан амалдаги поэтик тузилиш ўртасидаги ўхшашлик ва фарқларни мустақил равишда англай бошлайдилар. Бу жараён эса фақат билимни мустаҳкамлаш билан чекланиб қолмай, таҳлилий фикрлаш ва қиёсий ёндашувни ҳам ривожлантиради. Натижада, аудиовизуал ёндашув аруузий поэзияни ўқитишда назария ва амалиёт ўртасидаги узвий боғлиқликни таъминлаб, талабаларнинг билим олиш жараёнини янада мазмунли ва самарали қилади.

Хулоса. Алишер Навоийнинг «Лайли ва Мажнун» достонини олий таълим муассасаларида маъруза машғулотлари доирасида аудиовизуал воситалар ёрдамида ўқитиш талабаларда поэтик ритмни чуқур ҳис этиш, асар мазмунини теран англаш ва бадиий-эстетик завқни шакллантиришда самарали усул сифатида намоён бўлди. Таълим жараёнида кўриш, эшитиш ва нутқий фаолиятни уйғунлаштириш орқали талабалар фақат назарий билимларни эгаллабгина қолмай, уларни амалий жиҳатдан қўллаш кўникмаларига ҳам эга бўладилар. Бу эса мумтоз поэзияни ўрганишни анча осонлаштириб, унинг мураккаб жиҳатларини тушунарли ва қизиқарли шаклга келтиради. Шу билан бирга, аруз тизимига асосланган асарларни ўқитишда мультимедиа воситаларидан мунтазам фойдаланиш, турли вазнлар бўйича визуал ва аудио материаллар жамланмасини яратиш, ҳар бир асар учун махсус электрон ресурслар — слайдлар, видеолар ва инфографикалар тайёрлаш муҳим аҳамият касб этади. Ушбу ёндашувни биргина «Лайли ва Мажнун» достони эмас, балки бошқа мумтоз адабиёт намуналарига ҳам татбиқ этиш орқали таълим жараёнида инновацион усулларни кенг жорий этиш имкони пайдо бўлади. Бу эса, ўз навбатида, миллий адабий меросни замонавий педагогик технологиялар асосида самарали ўргатишга хизмат қилади.

Адабиётлар:

1. Юсупова Д. Ўзбек мумтоз ва миллий ууйғониш адабиёти (ўқув қўлланма) / Д.Юсупова. – Тошкент: «Tamaddun» нашриёти, 2016. – 304 б.

2. Истиқлол даври ўзбек навоийшунослиги: 30 жилдлик / Дилнавоз Юсупова: Алишер Навоий “Хамса”сида мазмун ва ритмнинг бадиий уйғунлиги; Мақолалар тўплами; Ғазаллар шарҳи; нашрга тайёрловчилар О.Давлатов, Д.Юсупова; Алишер Навоий номидаги халқаро жамоат фонди. – Т.: TAMADDUN, 2022. – 336 б.

3. Тоҳиров С.Қ. Темурийлар даврида хамсанавислик. Монография. – Т.: Tamaddun, 2021. – 248 б.

4. Alisher Navoiy. Layli va Majnun (doston). – Samarqand: “TURON NASHR”, 2021. – 256 b.

5. Tohirov S.Q. Aruz vazni qoidalari. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2019. – B. 148.

BOLALARNING YOSHGA OID MUSIQIY RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Djalilov Ergash Kenjaevich,
Samarqand davlat pedagogika instituti professori

Maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqiy ta’lim-tarbiyaning keng qamrovli darajada amalaga oshirib borilishi, bolalar ijrosi uchun musiqa asarlarini tanlashda ularning yoshga oid musiqiy rivojlanish xususiyatlari inobatga olishishi muhim ekanligi bayon etilgan. Bolalarning aqliy, estetik va jismoniy rivojida milliy raqs, musiqali o‘yin, qo‘shiqli o‘yin va musiqa jo’rligida ritmik harakatlarni bajarish katta ahamyatga egaligi ilmiy asoslab berilgan. O‘yinlarga mo‘ljallangan musiqa asarlarining badiiy mazmuni, xarakteri va ifoda vositalari bolalar yoah xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o‘yinning syujetiga mos tushishi shartligi misollarda bayon etilgan. Milliy o‘yinlarning syujeti esa maktabgacha ta’lim tashkilotlari hayotidan olingan bo‘lishi maqsadga muvofiqligi izohlab berilgan. Unda tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy hayot va tabiat bilan munosabati o‘z aksini topshi kerakligi, ayniqsa, o‘zbek xalq o‘yinlari maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini har tomonlama uyg’un tarbiyalash, ularga musiqiy ta’lim berishda nihoyatda katta hamiyatga ega ekanligi asoslangan.

Kalit so’zlar: *musiqa uquvi, ritmik tuyg‘u, musiqiy xotira, milliy o‘yinlar. musiqiy o‘yinlar, raqs, qo‘shiq, musiqali-sensor qobiliyat, musiqiy kechinmalar.*

ВОЗРАСТНЫЕ ОСОБЕННОСТИ МУЗЫКАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ДЕТЕЙ

В статье говорится о важности комплексного внедрения музыкального образования в дошкольных учреждениях и учета возрастных особенностей музыкального развития детей при выборе музыкальных произведений для их исполнения. Научно доказано, что исполнение национальных танцев, музыкальных игр, песенных игр и ритмичных движений под музыку имеет огромное значение для умственного, эстетического и физического развития детей. Приведенные примеры показывают, что художественное содержание, характер и средства выражения музыкальных произведений, предназначенных для игр, должны соответствовать сюжету игры, исходя из особенностей личности ребенка. Также поясняется, что сюжет национальных игр целесообразно брать из жизни дошкольных образовательных организаций. В основе этого лежит тот факт, что в нем должно отражаться отношение детей к общественной жизни и природе, и, в частности, узбекские народные игры играют чрезвычайно важную роль в всестороннем и гармоничном воспитании детей дошкольных образовательных организаций и в обеспечении их музыкального образования.

Ключевые слова: *музыкальное изучение, чувство ритма, музыкальная память, национальные игры, музыкальные игры, танец, песня, музыкально-сенсорные способности, музыкальный опыт.*

AGE-RELATED FEATURES OF CHILDREN'S MUSICAL DEVELOPMENT

The article discusses the importance of comprehensive implementation of music education in preschool institutions and taking into account the age-related characteristics of children's musical development when choosing musical works for their performance. It has been scientifically proven that performing national dances, musical games, song games and rhythmic movements to music is of great importance for the mental, aesthetic and physical development of children. The examples provided demonstrate that the artistic content, character, and means of expression of musical pieces intended for games should correspond to the game's plot, taking into account the child's personality. It is also explained that it is appropriate to draw the plot of national games from the life of preschool educational institutions. This is based on the fact that it should reflect children's attitudes towards social life and nature, and, in particular, Uzbek folk games play an extremely important role in the comprehensive and harmonious education of children in preschool educational institutions and in providing them with musical education.

Key words: *music learning, sense of rhythm, musical memory, national games, musical games, dance, song, musical sensory abilities, musical experience.*

Kirish. Musiqaga yoshlikdan uyg‘ongan qiziqish kishining keyingi musiqiy rivozida kuchi ta'sir o`tkazadi, boshqa ko`nikma va didlarning shakillanishini ta'minlaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, musiqa estetik va manaviy kayfiyatning ulkan manbayidir. Musiqiy ta’lim-tarbiyaning maktabgacha ta'lim

muassasalarida keng qamrovli darajada amalaga oshirib borilishining asosiq maqsadi ham o’ziga xos xususiyatlarga ega bo’lib bog'cha yoshidan boshlab bolalaming dunyoqarashini shakllantirish hamda musiqiy didini o`stirib natijasida ularni kelajak hayotida o'z aksini topishga undashdir. Musiqaning bola hissiyoti va intilishiga, mazmuniga va his etishiga katta ta'sirini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada haqqoniy va voqeylikni to`g'ri aks ettirgan musiqa asarlaridan o`rinli foydalanish alohida o`rin tutadi. Bolalar ijrosi uchun musiqa asarlarini tanlashda ularning yoshga oid musiqiy rivojlanish xususiyatlari inobatga olinishi muhim.

Asosiy qisam. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarning aqliy, estetik va jismoniy rivojida milliy raqs, musiqali o‘yin, qo‘shiqli o‘yin va musiqa jo’rligida ritmik harakatlarni bajarish katta ahamyatga ega. Musiqa faoliyatining bu turlari maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarning har tomonlama o‘sishga katta yordam beradi. Birinchidan, uning musiqa uquvi, ayniqsa, ritm tuyg‘usi va musiqa xotirasi yaxshi rivojlanadi, chunki har qanday harakat turi musiqa ritmi va ostida bajariladi hamda harakat bilan bog‘liq bo‘lgan musiqa ohanglari tarbiyalanuvchi xotirasida turg‘un saqlanadi. Ikkinchidan, yuqori aytganimizdek, raqs va musiqali harakatlar tarbiyalanuvchilar ta’lim-tarbiyasi rivojiga katta yordam beradi. Ushinchidan, musiqa asarlari maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarda turlicha emotsional hislar uyg‘otadi. Turlicha kayfiyatlar hosil qilib, uning ongida o‘ziga xos obrazlar yaratdiki, bular tarbiyalanuvchiga tana harakatlarini badiiy ishoralar bilan ifodalashga yordam berad. Demak, musiqa bilan harakat tarbiyalanuvchining aqliy va estetik qobilyatlarini hamda irodasini rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. Masalan, marsh musiqalari tarbiyalanuvchilarga g‘ayrat va tetiklik bag‘ishlaydi. Marsh musiqalarsiz bayram ertaliklari, hatto bog‘chaning oddiy bir kunlik hayotini ham tassavvur qilish qiyi. Raqsbob kuylar esa tarbiyalanuvchilarda ajoyib ichki his – tuyg‘ular, kechinmalar hosil etib, beixtiyor raqsga tushishga undaydi va uni behad zavqlantiradi, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Musiqa mashgulotlari jarayonida bajailadigan harakatlarni, ya’ni musiqali o‘yinlarni asosan ikki turga bo‘lish mumkin: raqs va ritmik harakatlar, musiqa sadolari ostidagi o‘yin. Bular maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilar ijodiy faoliyatining eng faol shaklidir. O‘yinlarga mo‘ljallangan musiqa asarlarining badiiy mazmuni, xarakteri va ifoda vositalari bolalar yoah xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o‘yinning syujetiga mos tushishi shart. Milliy o‘yinlarning syujeti esa maktabgacha ta’lim tashkilotlari hayotidan olingan bo‘lishi maqsadga muvofiq. Unda tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy hayot va tabiat bilan munosabati o‘z aksini topshi kerak. Ayniqsa, o‘zbek xalq o‘yinlari maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini har tomonlama uyg’un tarbiyalash, ularga musiqiy ta’lim berishda nihoyatda katta hamiyatga ega.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlardagi musiqali tarbiya metodikasida musiqali o‘yinning asosan uchta turi tavsiya etiladi:

1) cholg‘u musiqa asboblari sadolari ostida o‘ynash;
2) bolalar yosh xususiyati va ovoz diapazoniga mos qo‘shiqlarni kuylab o‘ynash;
3) milliy o‘yinlar sadolari ostida o‘ynash;

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari o‘z navbatida cholg‘u musiqali o‘yin syujetli va syujetsiz o‘yinlarga bo‘linadi. Syujetli o‘yinda aniq voqea tasvir etilib, syujetsiz o‘yinda esa turli harakat namunalari vositasida musiqa asarining xarakteri va badiiy shakli tasvir etiladi.

Bolalar qo‘shiqlarni kuylab o‘ynashi ko‘proq tarbiyalanuvchilarni turli insenirovkalarga jalb etish jihatlari bilan bog‘liq holda qo‘llaniladi. Ular o‘yinlarning mazmuni, o‘ynash joyi, o‘ziga xos xususiyatlari, ishtirokchilar soni, ularni yoshi va harakatchanligi kabi bir qator o‘yinga qo‘yiladigan talablardan kelib chiqqan holga qarab tuzilishi kerak. Ba’zi muiqali o‘yinlarda tarbiyalanuvchi o‘yinni boshlab, boshqalari unga ergashsa, boshqasida esa, guruh ikkiga bo‘linishi yoki juft bo‘lib o‘yinga tushishi mumkin. O‘yinni davra tuzib yoki ikki guruhga bo‘linib ijro etish kabi turli shakllarda o‘tkazish tavsiya qilinadi.

Musiqa mashg‘ulotlarida bajariladigan o‘yinlar ham asosan uchta turga bo‘linadi.

1. Qo‘shiqning mazmuniga mos musiqali ritmik o‘yinlar;
2. Musiqiy o‘yinlar (shuningdaek raqslar);
3. Qo‘shiq asosida o‘ynaladigan o‘yinlar.

Musiqiy o‘yinlar o‘z maqsad va vazifalariga ko‘ra, didaktik o‘yinlarga mansub bo‘lib, asosan ritmik harakat, yugurish, chopish, sakrash vositasida ijro etilishi bilan ifodalanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilar uchun musiqa quvnoq kechinmalar dunyosidir. Uning oldida bu dunyoning eshigini ochish uchun unda qobilyatlarini, eng avvalo musiqa ohanglarini to‘g‘ri qabul qilish va emotsional xis-tuyg‘ularini o‘stirish lozim. Aks holda musiqa o‘zining tarbiyaviy funksiyalarini bajara olmaydi. Kichik yoshdagi bolalar musiqani o‘z atrofidagi turli tovushlar, shovqinlardan farqlaydi. Ular o‘z e’tiborini tinglangan kuyga qaratadi, ma’lum vaqt jim qoladi, atrofdagi musiqiy, shovqinli

tovushlarni tinglaydi, unga qaraydi, e’tibor qaratadi, jilmayadi, qandaydir reaksiya hosil qiladi, o‘zining noaniq ayrim harakatlari bilan javob beradi, harakatlarini namoyon qiladi.

Katta guruh tarbiyalanuvchilar yosh jihatdan, ongining rivojlanganlik darajasiga ko’ra anchagina o‘sgan psixologik qobiliyatlarga ega bo‘ladilar. Ular hodisalar o‘rtasidagi ba’zi aloqalarni anglaydilar, oddiy umumlashtirishlarni amalga oshira oladilar. Misol tariqasida ijro etilgan qo‘shiq asarining musiqa xarakteri qaysi belgilariga ko‘ra quvnoq, shodon, sokin yoki g‘amgin ekanligini aytib bera oladilar. Ularga xarakteriga ko‘ra turlicha bo‘lgan qo‘shiqlarni qanday kuylash kerakligi, tinch va sokinlik yoki harakatli raqsda qanday faoliyat qilish kerakligi haqidagi talablar ham tushunarli bo‘ladi. Musiqaga, eshitilayotgan kuy-ohanglarga bo‘lgan qiziqishlari, milliy ohanglar ularning ongi va rivojlanayotgan tafakkuriga singib boradi, turli koloritli ohanglar shakllanadi. Faoliyatning u yoki bu turiga, musiqa janriga moyillik bildiriladi. Olti-yetti yoshga kelib, badiiy didning boshlang‘ich kurtaklarining namoyon bo‘lishi, musiqa asariga va uning ijrosiga baho bera bilish qobiliyati kuzatiladi. Bu yoshda maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida qo‘shiqlarni kuylashga xos ovoz jarangdorligi, ohangdorlik, harakatchanlik kasb etadi. Ovoz diapazoni sekin-asta o‘sadi, kengayadi, diofragmalar ishlay boshlaydi, faollashadi, tezlashadi, vokal ijrochiligi intonatsiyasi ancha barqarorlashadi. Agar to‘rt yoshli tarbiyalanuvchilar hali ham katta kishi qo‘llab-quvvatlab turishiga muhtoj bo‘lsalar, tizimli tarzda o‘qitish natijasida olti yoshli tarbiyalanuvchilarning ko‘pchiligi musiqa cholg‘usi jo‘rligisiz ham kuylay oladilar.

Musiqa mashg‘ulotlarida bolalarning xatti-harakatlari o‘quv va ijodiy topshiriqlarni bajarishga yo‘llanadi. Ular ijrochilik malakalarini egallaydilar va o‘zlarining sodda ohanglarini badihago‘ylik tarzida namoyon qiladilar, turli raqslarni ijro etishda esa turli-tuman raqs harakatlarini, musiqali o‘yin obrazlarini o‘zlaricha ifodalashga urinadilar.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilar shaxsining har tomonlama kamol topishi estetik tarbiyaning axloqiy, aqliy va jismoniy tarbiya bilan uzviy aloqasi tufayli ro‘yobga chiqariladi. G‘oyaviy-axloqiy ta’sirning amalga oshirilishiga to‘g‘ri ishlab chiqilgan va tarbiyalanuvchilarning yosh imkoniyatlariga muvofiq tanlangan dastur yordam beradi. Biroq, eng asosiysi – musiqaning o‘ziga xos xususiyati tufayli shakillanadigan “hissiyotlar maktabi” bo‘lib, tinglovchida birgalikda his qilish tuyg‘usini uyg‘otishdir.

Musiqa mashg‘ulotlarida bolalarning bilish va aqliy faoliyatlari ham faollashadi. Ular musiqani diqqat berib tinglar ekanlar musiqaning eng umumiy xususiyatlari, eng yorqin obrazlarini ma’im daralada idrok etadilar. Agar tarbiyalanuvchilarning oldiga musiqani e’tibor berib tinglash, uning ifoda vositalarini farqlash, qiyoslash, ajratish vazifalari qo‘yilgan bo‘lsa, emotsional munosabat o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi. Bu aqliy harakatlar tarbiyalanuvchilar hissiyoti va kechinmalari doirasini boyitadi hamda fikrlash doirasini kengaytiradi, ularga ongli tasavvur etish ko’nikmalarini shakllanishiga yordam beradi.

Musiqa san’ati, uning o‘ziga xos xususiyatlari pedagogning oldiga bir qator kasbiy mutaxassislik vazifalarni hal qilishni ko‘ndalang qilib qo‘yadi:

- birinchidan, musiqaga qiziqishni tarbiyalash. Faqat emotsional beriluvchanlik va moyillikni o‘stirishgina musiqaning tarbiyaviy ta’siridan keng foydalanish imkonini beradi;

- ikkinchidan, tarbiyalanuvchilarni muayyan uyushtirilgan tizimli ravishda yordamida turli xildagi musiqa asarlari hamda unda foydalanadigan ifoda vositalari bilan tanishtirib, ularning taassurotlarini boyitishga olib keladi;

- uchinchidan, tarbiyalanuvchilarda musiqa hamda qo‘shiqlarini aytish, ritmika, musiqa cholg‘ularini chalish sohasida eng oddiy ijrochilik ko‘nikmlalarini shakllantirib, ularni musiqa faoliyatining xilma – xil turlarida qatnashtirish. Bularning barchasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilariga ongli ravishda bevosita, ifodali harakat qilish imkonini beradi;

- to‘rtinchi, tarbiyalanuvchilarda umumiy musiqa qobilyatini (sensor yuqori ladda eshitish, ritmni his qilish qobilyatlarini) o‘stirish, xonandalik ovozi va harakatlarning ifodaligini tarkib toptirish. Agar mazkur yoshda foydalanuvchini faol amaliy faoliyatga o‘rgatilsa va qatnashtirilsa, uning barcha qobiliyatlari shakllanadi va o‘sadi;

- beshinchidan, boshlang‘ich musiqa didining kamol topishiga yordam berish. Musiqa haqida olingan ta’sir va tasavvurlar asosida avvalo ijro etilayotgan asarlarga nisbatan tanlash, so‘ngra esa baholash munosabatlari namoyon bo‘ladi.

- Oltinchidan, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarda musiqaga, eng avvalo ularning bunday faoliyatlari uchun qulay bo‘lgan musiqa o‘yinlari va ritmik harakatlarga obrazli ifodalash, tanish raqs harakatdagi yangi birikmalar qo‘llash, xirgoyi qilishlarni badiha qilish kabi faoliyatlarga ijodiy munosabatni o‘stirish.

Bu kundalik hayotda o‘rganilgan repertuardan foydalanish, musiqa cholg‘ularini chalish, bolalarda qo‘shiqlarni kuylah, raqsga tushishlarni qo‘llashdagi mustaqillikni, tashabbus, ishtiyoqni aniqlash imkonini

beradi. Albatta, yuqoridagilarning namoyon bo‘lishi ko‘proq umumiy o‘rta ta’lim maktablarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilari hamda maktabagacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilar o‘rta va katta maktabgacha tarbiya yoshidagi tarbiyalanuvchilar uchun xarakterlidir.

Musiqa tarbiyalanuvchilarga hayotining birinchi oylaridayoq ta’sir etuvchi vosita turlaridan biridir. Musiqaning emotsional ta’siri boshlang‘ich javob harakatlarining paydo bo‘lishiga imkon beradi. Bu harakatlarda musiqaga bo‘lgan asosiy qobiliyatlarning asta-sekin shakllanish asoslarini ko‘rish mumkin. Tarbiyalanuvchilarning bu yo‘nalishdagi o‘sishlarini muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun musiqa tarbiyasi bo‘yicha ishlarni musiqaning xususiyatini hamda maktabagacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarning yosh imkonytalarini hisobga olgan holda tashkil etish lozim.

Ma’lumki, tug‘ilgandan to to‘rt yoshgacha bo‘lgan tarbiyalanuvchilarni musiqa faoliyatining har xil turlariga jalb etish, ularda musiqaga e’tibor va qiziqshni tarkib toptirish, ularni ayrim ijrochilik malakalarini egallashga tayyorlash musiqa tarbiyasining mazmunini hisoblanadi. Ayrim mutaxassislar tarbiyalanuvchilarda yengil, tinglash oson, kuychan xarakterga ega bo‘lgan asarlarining audio yozuvlarini eshittirib turish yaxshi natijalarni berishni ta’kidlaydilar.

Musiqa rahbari-pedagog tarbiyalanuvchilar hayotining birinchi yillardayoq ularni musiqa bilan tanishtirar ekan, ularga eng oddiy kuylarni (kuylangan yoki tarbiyalanuvchilar musiqa cholg‘ularida ijro etilgan) tinglash tajribasini orttirib, bunga ovoz yoki harakat vositasida javob qaytarishga undaydi, tarbiyalanuvchilarda o‘sishning keying bosqichlarida faol musiqa faoliyati uchun zamin yaratdi. Ayni vaqtda asosiy musiqa qobilyatlari: musiqaga emotsional munosabar, musiqani tinglay bilish, ritmni his etish ifodalashham paydo bo‘la boshlaydi. Musiqa kechinmalari aslini olganda doimo sensor qobilyatga asoslanadi, chunki musiqa - eng oddiy hamohanglik, murakkab obrazlar eng avvalo hissiyot orqali idrok etiladi deb ta’kidlaydi. Shuning uchun sensor protsesslari asarni yaxlit idrok etishni, ifoda vositalarini differensiatsiya qilish hamda ilk tarbiyalanuvchilik va kichik maktabgacha tarbiya yoshidagi tarbiyalanuvchilar uchun juda muhim hisoblanuvchi musiqa tovushlarining ayrim xususiyatlarini idrok etish bilan bog‘liq bo‘lishlarini aks ettiradi.

Tarbiyalanuvchilarning musiqadagi sensor qobilyatlarini o‘stirish asosida tinglash, farqlash, tovushning to‘rt asosiy xususiyati: uzun, qisqa, past kabi tembr kuchini takror bera bilish yotadi. Didaktik xarakterda (o‘yin shaklida)gi bir qator topshiriqlar ishlab chiqilgan bo‘lib, ularning bajarishda musiqa tovushlarini eshitish, tinglash, qiyoslash va farqlash, ularni intonatsiyalarda kuylash, ritmik harakatlarda ifodalash orqali yodga tushirish, ba’zi musiqa cholg‘ularida ijro eta olish ko‘nikmalarini o‘zida singdirib borish kerak bo‘ladi. Bu topshiriqlarning eng oddiylarini tarbiyalanuvchilar ilk yoshlik vaqtlarida bajara oladilar.

Musiqali-sensor qobiliyatni o‘stiruvchi mashqlar qo‘yilgan didaktik vazifalarga muvofiq tarzda guruhlashtiriladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilariga tovushning yo‘g‘on-ingichkaligini farqlash topshiriqlarini qayta o‘zlashtirishlari nazorat qilib boriladi. Ikki yoshdagi tarbiyalanuvchilar uchun yo‘g‘on-ingichkaligi har xil bo‘lgan tovushlarni farqlash bo‘yicha birinchi topshiriq sifatida ovozli o‘yinchoqlar: katta va kichik xo‘roz o‘yinchoq tovushlari, mushuk va mushukcha, katta-kichik ayiq, qo‘g‘irchoqlar va shu kabi hayvonlarning ovoz-tovushlari qo‘llaniladi. Tarbiyalanuvchilar ikki yoshga to‘lish arafasida va uch yoshda bu topshiriq ular tomonidan musiqa cholg‘ularini qo‘llash vositasida bajariladi. Tarbiyalanuvchilar katta va kichik nog‘ora, childirma, turli xil rangda bo‘ylgan qo‘ng‘iroqchalarning yo‘g‘on va ingichka tovush chiqarishini tinglaydilar hamda farqlaydilar. Bunday sharoitda metallofondan ham foydalanish ko‘zlangan natijalarni beradi. Bolalarga musiqaiyb tovushlar ijro etib beriladi hamda ayni vaqtda katta yoki kichik qushcha tasvirlangan rasm yoki mos keluvchi qo‘g‘irchoqlar ko‘rsatiladi. Bu tovushlar takror eshittirilganda tarbiyalanuvchilar rasm yoki o‘yinchoqni ko‘rsatib, qaysi qushcha sayrayotganligini ko‘rsatib, o‘zlari yana bildirilgan javoblarini to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini tushunib oladilar.

Uch-to‘rt yoshdagi tarbiyalanuvchilar kontrast tovushlarni faqat farqlabgina qolmay, balki o‘zlari ham qayta ifodalay oladilar. “Kimning uyi?” musiqali-didaktik o‘yinida tarbiyalanuvchilarga mushuk yoki uning tarbiyalanuvchisining miyovlashiga yo‘g‘on yoki ingichka tovush bilan taqlid qiladi.

Tovush cho‘ziqligini farqlash topshirig‘i. Bu topshiriqlar ham oldingilari singari maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilar tomonidan biror obrazli harakatlar bilan bog‘liq bo‘lgan turli cho‘ziqlikdagi tovushlarni idrok qilish va qayta aytib berish asosida tuziladi. Masalan, childirmani ora-sira ijro etish “ayiq kelyapti”, tez-tez ijro etish “quyonchalar sakrayapti” o‘yin obrazlarini anglatishi mumkin. Ikki yoshli tarbiyalanuvchilar pedagogning childirma, doira, nog‘oralarni har ritmda urib, o‘yinchoqlar bilan harakat qilishini kuzatadilar, xolos. Uch yoshda o‘yin obrazi bilan bog‘liq bo‘lgan: “mushuk kelyapti”, “mushuk chopyapti” kontrastini bir tekis ritmda doira, nog‘oraga mustaqil urib mashq qildirish mumkin.

To‘rt yoshli tarbiyalanuvchiga musiqali-didaktik o‘yin “qo‘g‘irchoq yuryapti va yuguryapti” dan ancha murakkabroq vazifa beriladi, unda tarbiyalanuvchilar musiqani tinglab qo‘g‘irchoq nima qilayotganini aniqlashi va shunga muvofiq harakatni bajarishi lozim.

Tovushlarni tembr bo‘yicha farqlash topshiriqlari. Ikki yoshli maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarga tovushlarning tembr ohanglarini farqlashni mashq qildirish mumkin, chunki ularning eshitish tajribasida turli musiqa cholg‘ulari (surnaycha, metallofon, damli cholg‘ular, hushpillak, loydan yasalgan nay)ning ovozi haqida tasavvur mavjuddir. Bu topshiriqlar avval o‘yinchoqlar (mushukcha, xo‘rozcha, sigir va boshqalar)ni qo‘llab o‘tkaziladi, bolalar ularning tovushlaridan farqlaydilar va bilib oladilar. Katta guruh tarbiyalanuvchilar bunday topshiriqni musiqa cholg‘ulari bilan bajaradilar. Avval ular kontrastroq (surnaycha, nog‘ora, metallofon-doira), so‘ngra ancha o‘xshashroq (doira-nog‘ora, damli, garmoniy surnaycha, metallofon va boshqa shu kabilar) tovushlarni tanib olishlari kerak. Agarda tarbiyalanuvchilar qaysi cholg‘uda musiqa ohangi ijroi etilayotganligini eshitib topsa, musiqa rahbari unga shu cholg‘u ijro etishga ruxsat etadi.

Tovush kuchini farqlash topshiriqlari. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari pedagogning metallofon plastinkasiga qarab uning qanday urushini tinglaydilar (masalan,“yomg‘ir tomchilamoqda”, “kuchli yomg‘ir yog‘moqda”), musiqa qattiq eshitganda qo‘llarini ko‘rsatadilar, u past bo‘lganda, qo‘llarini berkitadilar, musiqa tovushiga muvofiq tarzda sekin yoki qattiq chapak chaladilar.

Xulosa. Yuqorida qayd qilingan barcha topshiriqlar maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining musiqali – sensor qobiliyatining izchil tarkib topishini ta’minlaydi. Bu o‘rinda bir narsaga, ya’ni barcha topshiriqlar musiqa tovushi xususiyatlarining ifodali ahamiyati tarbiyalanuvchilar tomonida to‘g‘ri idrok etiladigan qilib tuzilishi kerakligiga e’tibor berish lozim. Bu keyinchalik yaxlit musiqali obraz xususiyatlarini tushunioshga olib kelishi imkonini beradi.

Ayrim musiqa faoliyati turlarining paydo bo‘lishi va qaror topishi ilk yoshlikdanoq boshlanadi. Ilmiy tadqiqotlar tahlili musiqani his etishning zaminlarida tarbiyalanuvchi hayotining dastlabki oylarida paydo bo‘lishini ta’kidlab o‘tadilar. Tarbiyalanuvchi ma’lum yo‘g‘onlikdagi tovushlarni idrok qilar ekan bunga emotsional javob qiladi, sezilarli darajada harakatlanadi, mimikalari, kulish, jilmayish yoki ko‘zlarini katta qilib ochish va eng sodda qo‘shiq, kuylarni diqqat berib tinglaydilar. Tarbiyalanuvchilarning emotsional javobisiz unga musiqa tarbiyasi berish haqida gap ham bo‘lishi mumkin emas.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori, №PQ-4312, 2019-yil, 8-may

2. Namozova D.T., Nosirov D.T. “Maktabgacha ta’lim muassasalarida musiqiy ta’lim metodikasi”. Qo‘qon: 2006.

3. Sharipova G. «Maktabgacha ta’lim muassasalarida musiqa o‘qitish metodikasi» - T.: «Cho‘lpon», 2007.

4. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. –T.: “Fan va texnologiya”, 2012.

5. Ibragimova S. G., Muxammadjonova X. Kichik maktab yoshidagi bolalar aqliy taraqqiyoti rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 1.

“ILMI HANDASA”(ChIZMAChILIK) FANINING XALQ AMALIY BEZAK SANATIDAGI O‘RNI

Sobirov Tolib Ro‘ziyevich,
Buxoro davlat pedagogika instituti,
Musiqa va tasviriy san’at kafedrasi p.f.n professori
Rayimberdiyeva E’zozaxon Mehriddin qizi,
Buxoro davlat pedagogika instituti,
Muhandislik grafikasi va dizayn nazariyasi
mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Mazkur maqolada ilmi handasa (chizmachilik) fanining xalq amaliy bezak sanatidagi ahamiyati, uning milliy naqsh va ornamentlarni yaratishdagi o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, geometrik shakllar, simmetriya va mutanosiblik qoidalarining xalq amaliy sanati turlarida qo‘llanilishi yoritilgan. Tadqiqot davomida xalq amaliy bezak sanati namunalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan o‘rganilib, chizmachilik fanining estetik did va ijodiy tafakkurni shakllantirishdagi ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *Ilmi handasa, chizmachilik, xalq amaliy sanati, bezak sanati, geometrik naqsh, girix, islimiy naqsh, simmetriya, kompozitsiya, milliy meros, ganchkorlik, koshinkorlik.*

РОЛЬ ПРЕДМЕТА «ИЛМИ ХАНДАСА» (ЧЕРЧЕНИЕ) В НАРОДНОМ ДЕКОРАТИВНО-ПРИКЛАДНОМ ИСКУССТВЕ

В данной статье анализируется значение предмета «Илми хандаса» (черчение) в народном декоративно-прикладном искусстве, а также его роль в создании национальных узоров и орнаментов. Рассматривается применение геометрических форм, принципов симметрии и пропорциональности в различных видах народного прикладного искусства. В ходе исследования образцы народного декоративного искусства изучены с научно-теоретической и практической точек зрения, а также обоснована роль черчения в формировании эстетического вкуса и творческого мышления.

Ключевые слова: *«Илми хандаса», черчение, народное прикладное искусство, декоративное искусство, геометрический орнамент, гирих, исламий орнамент, симметрия, композиция, национальное наследие, ганчевая резьба, изразцовое искусство.*

THE ROLE OF THE SUBJECT “ILMI HANDASA” (TECHNICAL DRAWING) IN FOLK APPLIED DECORATIVE ART

This article analyzes the significance of the subject “Ilmi Handasa” (technical drawing) in folk applied decorative arts, as well as its role in the creation of national patterns and ornaments. It examines the use of geometric shapes, principles of symmetry, and proportionality in various types of folk applied arts. During the research, examples of folk decorative art were studied from both theoretical and practical perspectives, and the importance of technical drawing in developing aesthetic taste and creative thinking was substantiated.

Keywords: *Ilmi Handasa, technical drawing, folk applied art, decorative art, geometric ornament, girih, islimi ornament, symmetry, composition, national heritage, ganch carving, tile art.*

Kirish. O‘zbek xalq amaliy bezak sanati milliy madaniyatimizning ajralmas qismi hisoblanadi. Asrlar davomida shakllangan ushbu san’at turida geometrik aniqlik, mutanosiblik va estetik uyg‘unlik muhim ahamiyat kasb etgan. Ana shu jihatlarni ta’minlashda ilmi handasa, ya’ni chizmachilik fani asosiy o‘rin tutadi. Chizmachilik fani insonda fazoviy tasavvur, aniq fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantiradi. Xalq amaliy san’atidagi naqsh va ornamentlarni yaratishda geometrik qurilishlar muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularni ilmiy asosda bajarish handasaviy bilimlarni talab etadi. Shu sababli mazkur mavzuni o‘rganish xalq amaliy san’atini rivojlantirish va milliy qadriyatlarni asrab-avaylash nuqtai nazaridan dolzarb hisoblanadi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xalq amaliy bezak sanati va ilmi handasa masalalari ko‘plab sharq va o‘zbek olimlari tomonidan tadqiq qilingan. Jumladan, me’morchilik va naqsh san’ati bo‘yicha olib borilgan ilmiy ishlar geometrik shakllarning amaliy san’atdagi ahamiyatini ochib bergan. O‘zbek xalq amaliy san’atiga oid tadqiqotlarda ganchkorlik, koshinkorlik, yog‘och o‘ymakorligi va naqqoshlikda simmetriya

hamda geometrik kompozitsiyalardan keng foydalanilishi ta’kidlangan. Ayrim tadqiqotlarda islom me’morchiligidagi girix naqshlarining matematik asoslari o‘rganilgan bo‘lsa, boshqa ilmiy ishlarda chizmachilik fanining ta’lim jarayonidagi ahamiyati yoritilgan. Shu bilan birga, xalq amaliy bezak sanatida ilmi handasaning o‘rnini kompleks tarzda tahlil qilish, uning yoshlar estetik tarbiyasidagi ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslash bugungi kunda ham dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil. Empirik tahlil jarayonida o‘zbek xalq amaliy san’atining turli namunalari — ganch o‘ymakorligi, koshinkorlik, yog‘och o‘ymakorligi va kulolchilik ishlari tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, aksariyat naqshlar geometrik shakllar asosida qurilgan bo‘lib, ularda simmetriya va mutanosiblik qoidalariga qat’iy amal qilingan. Ayniqsa, Samarqand, Buxoro va Xiva me’moriy obidalaridagi bezaklarda ilmi handasaning murakkab usullari qo‘llanganligi aniqlandi. Geometrik naqshlarni qurishda doira, ko‘pburchak va yulduzsimon shakllardan keng foydalanilgan. Bu esa chizmachilik fanining xalq amaliy san’ati bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

XV asrlarda “Ilmi handasa” sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borgan Markaziy Osiyolik olimlarning faoliyatiga murojaat qilamiz. Abul-vafo Bo‘zjoniy (940-998) Hijriy-qamariy to‘rtinchi asrning astronomi va riyoziyot ilmining bilimdoni Abul-vafo Bo‘zjoniy nomi bilan tanilgan Muhammad bin Muhammad bin Yah’yo Xurosonda dunyoga keldi. Abul-Vafo Bo‘zjoniyning “Hunarmandlarga handasa-viy yasalmalardan nimalar zarurligi haqidagi kitob” nomli asari ayniqsa diqqatga sazovordir. Bu asarda Bo‘zjoniy o‘zi olib borgan tadqiqotlar bilan bir qatorda Geometrik chizmachilikka doir mualliflari noma’lum tadqiqotlarni ham jamlab to‘plam shakliga keltiradi. Ayni paytda bu to‘plamning fors tildagi nusxasi Fransiyaning Parij shaxridagi milliy kutubxonasida saqlanmoqda. Abul-vafo Bo‘zjoniyning bu asarida sirkul (pargor) yordamida bajariladigan geometrik chizmalarga alohida e’tibor qaratilgan. U o‘zining kitoblarida 200 ga yaqin geometrik naqshlar yechimi to‘g‘risida yozib qoldirgan. Bulardan girixning ba’zi oson yo‘llarini tushuntirib o‘tgan. Masalan, uning kitoblaridan birida qurilish va geometrik naqsh yechimi to‘g‘risida yozilgan.

O‘rta asrlarda arxitektorlar va quruvchilar chizmalarni qo‘lda geometrik asboblar yordamida tayyorlashgan. XVIII-XIX asrlarda chizmachilik, sanoat, muhandislik va texnika fanlarning ajralmas qismiga aylandi. XX asrda chizmachilik fan sifatida o‘quv dasturlariga kiritildi. AutoCAD (1982 yildan), SolidWorks kabi raqamli dasturlar paydo bo‘lishi bilan bu soha yanada rivojlanib bormoqda. Chizmachilik fani geometriya, trigonometriya, fizika, texnik grafika, mekhanika va muhandislik kabi fanlar bilan uzviy bog‘liq. AutoCAD, SolidWorks, CorelDRAW bu kabi grafik dasturlar chizmachilikni raqamlashtirib, uni interaktiv va tezkorlashtirishda samarali bo‘ldi.

Ilmi handasa (geometriya) va chizmachilik san’ati xalq amaliy bezak san’atining (gajakdor naqshlar, yog‘och va ganch o‘ymakorligi, gilamdo‘zlik, kashtachilik) **asosi** hisoblanadi. U naqsh va bezaklarda ideal simmetriya, proporsiya (mutanosiblik) va ritmni ta’minlab, butun kompozitsiyaga uyg‘unlik bag‘ishlaydi.

Handasaning amaliy bezak san’atidagi o‘rni va ahamiyati:

- **Murakkab kompozitsiyalar asosi:** Ilmi handasa qoidalari yordamida islomiy, girix va shulda naqshlari uchun dastlabki chiziqlar, ya’ni to‘rlar (setka) yaratiladi. Busiz murakkab geometrik shakllarni yasash mumkin emas.
- **Simmetriya va uyg‘unlik:** Ustalar naqsh chizishda simmetriya o‘qlari va parallel chiziqlardan foydalanib, bezakning har ikki tomoni bir-biriga aniq mos tushishini ta’minlaydi. Bu ko‘zga estetik zavq bag‘ishlaydi.
- **Matematik aniqlik:** Bugungi kunda chizmachilik fani va handasa qonuniyatlarini bilish (burchaklarni teng ikkiga bo‘lish, aylanani teng qismlarga ajratish) milliy hunarmandchilikda aniq o‘lchamlar, ya’ni mos mutanosiblik va proporsiyalarni saqlab qolishga xizmat qiladi.
- **Ritm va takrorlanish:** Handasa fani geometrik shakllarning muayyan tartibda takrorlanishini (ritm) o‘rgatadi. Amaliy san’atda bu usul gilamlar, so‘zanalar va ganchkorlik bezaklarida ritmik ketma-ketlikni hosil qiladi.

Xulosa qilib aytganda, chizmachilik va geometriya qoidalari milliy amaliy san’atimizni tartibsiz chiziqlardan qutqarib, ularni matematik jihatdan puxta, ko‘zni quvontiradigan mukammal san’at asari darajasiga ko‘taradi.

Ilmi handasa (geometriya) va chizmachilikning o‘zbek xalq amaliy bezak san’atidagi o‘rnini yanada chuqurroq tushunish uchun uning tarixiy ildizlari, konkret qo‘llanilish sohalari va nazariy asoslarini ko‘rib chiqish lozim.

Tarixiy ildizlar va Sharq Renessansi

O‘rta asrlarda Sharq mutafakkirlari (Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, G‘iyosiddin Jamshid al-Koshiy) geometriya va matematika rivojiga ulkan hissa qo‘shganlar. Bu davrda ilm-fan va san’at ajralmas edi. Me’morlar (me’mor-muhandislar) va naqqoshlar o‘z asarlarida geometrik

qonuniyatlardan mukammal foydalanishgan. Natijada Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabzdagi tarixiy obidalarning betakror mozaika va koshinlari yaratilgan.

1. Girix san’ati — Geometrik naqshlar cho‘qqisi

Xalq amaliy san’atida naqshning ikki asosiy turi mavjud: **islimiy** (o‘simlikkapo‘sht) va **girix** (geometrik).

- **Tarkibi:** Girix (forscha "tugun") — to‘g‘ri chiziqlar, ko‘pburchaklar (uchburchak, kvadrat, romb, oltiburchak, sakkizburchak) va aylana yoylarining o‘zaro qat’iy matematik kesishuvidan hosil bo‘ladi.
- **Yasalish siri:** Girixlarni pargor (sirkul) va chizg‘ichsiz chizib bo‘lmaydi. Bunda aylana ichiga ko‘pburchaklarni chizish, burchaklarni teng bo‘lish va nuqtalar proeksiyasi kabi chizmachilik qoidalari ishlatiladi.

2. Sohalar bo‘yicha amaliy qo‘llanilishi

- **Ganch va yog‘och o‘ymakorligi:** Ustalar devor va eshiklarga naqsh solishdan oldin yuzani «taxta» (setka)larga bo‘lib chiqadilar. Keyin perpendikulyar chiziqlar va simmetriya markazlarini belgilashadi. Bu chizmachilikdagi masshtab va koordinatalar tizimiga to‘g‘ri keladi.
- **Me’morchilik va koshinkorlik (Mozaika):** Binolarning gumbazlarini loyihalash va ularga plitkalarni terish kub, konus, silindr kabi uch o‘lchamli ($3D$) geometrik jismlarning fazoviy tasavvuriga asoslanadi.
- **Kulolchilik (Keramika):** Rishton yoki G‘ijduvon kulolchilik likoplariga naqsh chizishda aylanani markaz orqali $4, 6, 8, 12$ yoki undan ko‘p teng bo‘laklarga bo‘lish (radial simmetriya) usuli qo‘llaniladi.
- **Milliy kashtachilik va gilamdo‘zlik:** So‘zana va gilamlardagi "mehrob", "gul", "paloh" nusxalari ma’lum bir geometrik chizma asosida, iplar sonini aniq hisoblash (matematik matritsa kabi) orqali tikiladi.

3. Altin nisbat (Oltin kesim) qonuniyati

Xalq ustalari intuitiv tarzda yoki ustoz-shogird an’analari orqali **Oltin kesim** ($\Phi \approx 1.618$) qonuniyatiga amal qilishgan. Binolarning bo‘yi va eni, eshiklarning proporsiyalari, naqsh elementlarining katta-kichikligi mana shu nisbatga asoslangan. Bu esa asarlarning asrlar davomida inson ko‘ziga go‘zal va batartib ko‘rinishini ta’minlaydi.

Chizmachilik fanining bugungi ahamiyati

Bugungi kunda ushbu fan san’atkor va hunarmandlarga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

1. **Loyihalash:** Yangi bezak namunalarini qog‘ozda yoki kompyuter dasturlarida (AutoCAD, CorelDraw) aniq o‘lchamlar bilan chizish.
2. **Tiklash (Restavratsiya):** Varaqlanib ketgan yoki shikastlangan qadimiy naqshlarni geometrik qonuniyatlarini aniqlash orqali qayta tiklash.

Ilmi handasa, ya’ni chizmachilik fani xalq amaliy bezak sanatining muhim nazariy va amaliy asoslaridan biri hisoblanadi. U turli naqshlar, geometrik shakllar, kompozitsiyalar va bezak elementlarini aniq va mutanosib tarzda yaratishda katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, o‘zbek xalq amaliy sanatida handasaviy bilimlar asrlar davomida me’morchilik, kulolchilik, ganchkorlik, yog‘och o‘ymakorligi, kashtachilik va zargarlik kabi sohalarda keng qo‘llanilgan.

Ilmi handasaning mazmuni

“Handasa” so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, geometriya ma’nosini anglatadi. Chizmachilik esa geometrik shakllarni qoida asosida tasvirlash, o‘lchash va loyihalash usullarini o‘rgatadi. Bu fan orqali inson:

- shakl va nisbatlarni to‘g‘ri ifodalash;
- simmetriya va mutanosiblikni saqlash;
- naqsh va ornamentlarni aniq chizish;
- fazoviy tasavvurni rivojlantirish imkoniga ega bo‘ladi.

Xalq amaliy bezak sanatidagi ahamiyati

O‘zbek xalq amaliy sanatida geometrik naqshlar asosiy o‘rinlardan birini egallaydi. Masalan, islom me’morchiligidagi girix naqshlari, muqarnaslar va islimiy bezaklar handasaviy qonun-qoidalar asosida ishlangan.

Asosiy vazifalari:

1. **Naqshlarni tuzishda asos bo‘ladi**
   - Girix va islimiy naqshlar doira, uchburchak, kvadrat va ko‘pburchaklar asosida quriladi.
2. **Simmetriya va mutanosiblikni ta’minlaydi**
   - Bezaklardagi chiroy va uyg‘unlik geometrik aniqlik orqali yuzaga keladi.
3. **Kompozitsiya yaratishga yordam beradi**
   - Nafis san’at asarlarida elementlarni joylashtirishda chizmachilik qoidalari muhim ahamiyat kasb etadi.
4. **Amaliyotda aniqlikni ta’minlaydi**

- Koshin, ganch, yog‘och yoki metallga naqsh tushirishda o‘lchov va hisob-kitob zarur bo‘ladi.

Amaliy san’at turlarida qo‘llanilishi

Ganchkorlik

Ganch o‘ymakorligida murakkab geometrik va islimiy naqshlar handasaviy yechimlar asosida chiziladi.

Kulolchilik

Kosalar va idishlardagi ornamentlar aylana va simmetriya qoidalariga asoslanadi.

Yog‘och o‘ymakorligi

Eshik, ustun va sandiqlardagi naqshlarda geometrik aniqlik muhim ahamiyatga ega.

Koshinkorlik

Masjid va madrasalardagi mozaika va koshin naqshlari murakkab handasaviy hisob-kitoblar asosida ishlangan.

Yosh avlod tarbiyasidagi o‘rni

Ilmi handasa o‘quvchilarda:

- estetik didni;
- ijodkorlik qobiliyatini;
- diqqat va aniqlikni;
- fazoviy fikrlashni rivojlantiradi.

Bu fan orqali milliy qadriyatlar va xalq amaliy sanati an’analari yoshlarga yetkaziladi.

Xulosa. Ilmi handasa xalq amaliy bezak sanatining muhim nazariy va amaliy asosi hisoblanadi. U orqali naqsh va ornamentlardagi aniqlik, mutanosiblik va estetik uyg‘unlik ta’minlanadi. Tadqiqot natijalari xalq amaliy san’ati namunalarida geometrik qurilishlar muhim o‘rin tutishini ko‘rsatdi. Shuningdek, chizmachilik fanini o‘qitish orqali yoshlarda milliy qadriyatlarga hurmat, estetik did va ijodiy fikrlash qobiliyati shakllanadi. Bu esa xalq amaliy san’atini asrash va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Bulatov S.S. O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati. — Toshkent: O‘qituvchi, 1991. Ushbu adabiyotda o‘zbek xalq amaliy san’atining turlari, naqsh kompozitsiyalari va ularning badiiy xususiyatlari keng yoritilgan.
2. Pulatov X.P. Chizmachilik asoslari. — Toshkent, 2005. Asarda chizmachilik fanining nazariy asoslari, geometrik yasash usullari va amaliy ahamiyati bayon qilingan.
3. Rahmonov N. Milliy naqsh va ornament san’ati. — Samarqand, 2010. Muallif milliy naqshlardagi simmetriya va geometrik shakllarning o‘ziga xos jihatlarini tahlil qilgan.
4. Azimov I. Me’morchilik va handasa san’ati. — Buxoro, 2014. Kitobda sharq me’morchiligida ilmi handasaning qo‘llanilishi va uning amaliy ahamiyati yoritilgan.
5. Karimov U. Applied Arts of Uzbekistan. — Tashkent, 2018.

IQTISODIY TA’LIM VA TARBIYA

UO’K 373,2

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA QO‘SHIMCHA TA’LIM XIZMATLARINI TASHKIL ETISHNING TASHKILIY-HUQUQIY VA MOLIYAVIY-BOSHQARUV ASOSLARI

Boymuradov Normurod Abdusadikovich,
MTTDMQTMOI mustaqil tadqiqotchisi

Mazkur maqolada davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qo‘shimcha pullik ta’lim-tarbiya xizmatlarini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy, pedagogik va moliyaviy-boshqaruv asoslari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Unda qo‘shimcha ta’lim xizmatlarining bolalar qobiliyati va qiziqishlarini erta aniqlash, ularning intellektual, jismoniy, ijodiy hamda ijtimoiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘larini shakllantirish, pedagog xodimlarni moddiy rag‘batlantirish, moddiy-texnika bazani mustahkamlash va ta’lim sifati samaradorligini oshirishda qo‘shimcha xizmatlarning ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim, qo‘shimcha ta’lim xizmati, pullik xizmatlar, byudjetdan tashqari mablag‘, moliyaviy boshqaruv, Kuzatuv kengashi, ta’lim sifati, moddiy rag‘batlantirish.*

ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВЫЕ И ФИНАНСОВО-УПРАВЛЕНЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ ДОПОЛНИТЕЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УСЛУГ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

В данной статье научно проанализированы организационно-правовые, педагогические и финансово-управленческие основы организации дополнительных платных образовательных и воспитательных услуг в государственных дошкольных образовательных организациях. Раскрыта роль дополнительных образовательных услуг в раннем выявлении способностей и интересов детей, а также в поддержке их интеллектуального, физического, творческого и социального развития. Кроме того, обосновано значение дополнительных услуг в формировании внебюджетных средств дошкольных образовательных организаций, материальном стимулировании педагогических работников, укреплении материально-технической базы и повышении эффективности качества образования.

Ключевые слова: *дошкольное образование, дополнительная образовательная услуга, платные услуги, внебюджетные средства, финансовое управление, Наблюдательный совет, качество образования, материальное стимулирование.*

ORGANIZATIONAL-LEGAL AND FINANCIAL-MANAGEMENT FOUNDATIONS FOR ORGANIZING ADDITIONAL EDUCATIONAL SERVICES IN PRESCHOOL EDUCATION INSTITUTIONS

This article provides a scientific analysis of the organizational, legal, pedagogical, financial, and managerial foundations for organizing additional paid educational and upbringing services in state preschool education organizations. It highlights the role of additional educational services in the early identification of children’s abilities and interests, as well as in supporting their intellectual, physical, creative, and social development. The article also substantiates the importance of additional services in generating extra-budgetary funds for preschool education organizations, providing material incentives for teaching staff, strengthening the material and technical base, and improving the effectiveness of education quality.

Keywords: *preschool education, additional educational service, paid services, extra-budgetary funds, financial management, Supervisory Board, quality of education, material incentives.*

Kirish. Jahon ta’lim makonida maktabgacha ta’lim inson kapitalini shakllantirishning eng muhim va mas’uliyatli bosqichlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Chunki aynan maktabgacha yosh davrida bolaning shaxsiy, ijtimoiy, intellektual, kommunikativ, ijodiy va jismoniy rivojlanishiga asos bo‘luvchi fundamental

sifatlar tarkib topadi. Shu bois zamonaviy ta’lim siyosatida maktabgacha ta’lim nafaqat bolani maktabga tayyorlash bosqichi, balki uning butun hayoti davomida muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi va ta’lim olishi uchun poydevor yaratadigan strategik tizim sifatida qaralmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham maktabgacha ta’lim tizimini uzluksiz ta’limning ajralmas bo‘g‘ini sifatida rivojlantirish, ta’lim xizmatlari sifatini oshirish, bolalarning individual qobiliyat va qiziqishlarini erta aniqlash hamda ularni har tomonlama rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ta’lim-tarbiya jarayonini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish va ota-onalar ehtiyojiga mos qo‘shimcha xizmatlarni joriy etish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bu jarayonda davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qo‘shimcha pullik ta’lim-tarbiya xizmatlarini tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur xizmatlar, bir tomondan, bolalarning qobiliyatlarini rivojlantirish, iqtidorini aniqlash va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini oshirishda muhim byudjetdan tashqari manba sifatida namoyon bo‘ladi.

Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qo‘shimcha pullik ta’lim-tarbiya xizmatlarini tashkil etish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3955-son qarori hamda 3123-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan “Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qo‘shimcha pullik ta’lim-tarbiya xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom asosida tartibga solinadi. Ushbu hujjatlar qo‘shimcha xizmatlarni tashkil etish, moliyalashtirish, narxlarni belgilash, shartnomaviy munosabatlar va nazorat mexanizmlarini huquqiy jihatdan mustahkamlaydi.

Tadqiqot metodlari. Maqolani tayyorlashda normativ-huquqiy hujjatlar tahlili, tizimli yondashuv, mantiqiy umumlashtirish, ilmiy-nazariy tahlil, boshqaruv jarayonlarini modellashtirish va pedagogik jarayonlarni funksional tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Qo‘shimcha ta’lim xizmatlari maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyatining pedagogik, iqtisodiy va boshqaruv jihatlari bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganildi.

Natijalar va muhokama. Qo‘shimcha ta’lim xizmatlarining pedagogik mohiyati. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qo‘shimcha ta’lim xizmatlari bolaning yosh xususiyatlari, individual ehtiyojlari, qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan ta’lim-tarbiyaviy faoliyat shaklidir. Ushbu xizmatlar asosiy davlat o‘quv dasturini almashtirmaydi, balki uni mazmunan boyituvchi, bolaning rivojlanish imkoniyatlarini kengaytiruvchi qo‘shimcha pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Qo‘shimcha xizmatlarning pedagogik ahamiyati quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

birinchidan, bolalarning qiziqish va qobiliyatlarini erta aniqlash imkonini beradi;

ikkinchidan, maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy, intellektual, estetik, ijodiy va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qiladi;

uchinchidan, bolalarda mustaqil fikrlash, muloqotga kirishish, jamoada harakat qilish, ijodiy yondashuv va o‘zini namoyon etish ko‘nikmalarini shakllantiradi;

to‘rtinchidan, ota-onalarning ta’lim xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish orqali maktabgacha ta’lim tashkiloti va oila o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi.

Shu nuqtayi nazardan, qo‘shimcha ta’lim xizmatlari maktabgacha ta’lim tashkilotida bolaga yo‘naltirilgan, moslashuvchan va ehtiyojga asoslangan ta’lim muhitini yaratishning muhim omili hisoblanadi.

Qo‘shimcha pullik xizmatlarni tashkil etishning huquqiy asoslari

Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qo‘shimcha pullik xizmatlarni tashkil etish huquqiy jihatdan aniq me’yorlar asosida tartibga solinadi. PQ-3955-son qarorda davlat maktabgacha ta’lim muassasalari tomonidan dam olish kunlari va ish kuni yakunlangandan keyin bolani parvarishlash, unga qarab turish va o‘qitish, shuningdek, sport-sog‘lomlashtirish, badiiy-estetik va fanlar bo‘yicha to‘garaklarni tashkil etish orqali qo‘shimcha pullik xizmatlar ko‘rsatish nazarda tutilgan.

3123-son Nizomda esa davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qo‘shimcha pullik ta’lim-tarbiya xizmatlarini tashkil etish tartibi, shartlari, zarur hujjatlar, ota-onalar bilan shartnoma tuzish, xizmatlar narxini belgilash va guruhlarni shakllantirish mexanizmlari belgilangan. Mazkur Nizomning amaldagi nomi 2021-yil 5-avgustdagi 153-sonli buyruq bilan kiritilgan o‘zgartirishlar asosida tahrirlangan.

Qo‘shimcha xizmatlarni joriy etishda quyidagi asosiy talablar muhim hisoblanadi:

1. Xizmat turiga mos moddiy-texnik baza mavjud bo‘lishi;
2. Tegishli yo‘nalish bo‘yicha malakali pedagog yoki mutaxassis jalb etilishi;
3. Qo‘shimcha mashg‘ulotlar asosiy ta’lim-tarbiya jarayoniga xalaqit bermasligi;
4. Ota-onalar bilan shartnomaviy munosabatlar qonuniy rasmiylashtirilishi;

5. Xizmatlar narxi belgilangan tartibda kelishilishi va tasdiqlanishi;

6. Tushgan mablag‘lar maqsadli va shaffof sarflanishi.

Demak, qo‘shimcha pullik xizmatlar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faqat iqtisodiy faoliyat shakli emas, balki qat’iy huquqiy, pedagogik va boshqaruv talablariga asoslangan kompleks jarayon hisoblanadi.

Qo‘shimcha xizmatlarning asosiy yo‘nalishlari

Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qo‘shimcha pullik ta’lim-tarbiya xizmatlari turli yo‘nalishlarda tashkil etilishi mumkin. Ularni mazmuniga ko‘ra quyidagi guruhlarga ajratish maqsadga muvofiq:

1. Bolani parvarishlash va qarab turish xizmatlari.

Bunda dam olish kunlari yoki ish kuni yakunlangandan keyin bolalarni parvarishlash, qarab turish, tarbiyalash va o‘qitish xizmatlari nazarda tutiladi. Ushbu xizmat, ayniqsa, ishlaydigan ota-onalar uchun ijtimoiy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

2. Sport-sog‘lomlashtirish yo‘nalishidagi xizmatlar.

Karate, taekvondo, suzish, gimnastika, shaxmat, shashka, massaj va boshqa sport-sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlari bolalarning jismoniy rivojlanishi, koordinatsiyasi, iroda sifati va sog‘lom turmush ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

3. Badiiy-estetik yo‘nalishdagi xizmatlar.

Xor, raqs, tasviriy san’at, musiqa, sahna ko‘rinishlari va ijodiy mashg‘ulotlar bolalarning estetik didi, tasavvuri, ijodkorligi va emotsional ifoda imkoniyatlarini rivojlantiradi.

4. Fanlar bo‘yicha qo‘shimcha mashg‘ulotlar.

Chet tillari, matematika, aqliy arifmetika, mantiq, informatika va boshqa yo‘nalishdagi mashg‘ulotlar bolalarda mantiqiy fikrlash, nutqiy faollik, kognitiv qiziqish va maktab ta’limiga tayyorgarlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

5. Erta yoshdagi bolalar uchun xizmatlar.

To‘liq quvvat bilan ishlamayotgan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida 2 yoshdan 3 yoshgacha bo‘lgan bolalarga qo‘shimcha xizmatlar tashkil etilishi mumkin. Bu esa bolalarni erta ijtimoiylashuv jarayoniga jalb etish, ota-onalarga qo‘shimcha qulaylik yaratish hamda muassasa quvvatidan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Tashkiliy mexanizm va boshqaruv jarayoni

Qo‘shimcha ta’lim xizmatlarini tashkil etish maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbaridan puxta rejalashtirish, huquqiy savodxonlik, moliyaviy mas’uliyat va boshqaruv madaniyatini talab qiladi. Xizmatlarni joriy etish quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

Birinchi bosqich — ehtiyojni aniqlash.

Ota-onalar, pedagoglar va bolalar qiziqishlari o‘rganiladi. Qaysi yo‘nalishdagi xizmatlarga talab yuqoriligi aniqlanadi.

Ikkinchi bosqich — imkoniyatlarni baholash.

Muassasaning moddiy-texnika bazasi, mavjud xonalar, jihozlar, pedagog kadrlar salohiyati va tashqi mutaxassislarni jalb etish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Uchinchi bosqich — xizmat turini belgilash.

Bolalar yosh xususiyatlari, ota-onalar ehtiyoji va muassasa imkoniyatlaridan kelib chiqib qo‘shimcha xizmat yo‘nalishlari tanlanadi.

To‘rtinchi bosqich — hujjatlarni rasmiylashtirish.

Qo‘shimcha xizmatning ish rejasi, mashg‘ulotlar jadvali, narxlar preyskuranti, ota-onalar bilan tuziladigan shartnoma hamda direktor buyrug‘i tayyorlanadi.

Beshinchi bosqich — Kuzatuv kengashida muhokama qilish.

Xizmat turlari, ularning maqsadi, narxlari va tashkil etish tartibi Kuzatuv kengashi yig‘ilishida ko‘rib chiqiladi.

Oltinchi bosqich — xizmatni amaliyotga joriy etish.

Guruhlar shakllantiriladi, mashg‘ulotlar jadval asosida yo‘lga qo‘yiladi, bolalar qatnashuvi va xizmat sifati monitoring qilinadi.

Yettinchi bosqich — monitoring va tahlil.

Qo‘shimcha xizmatlarning samaradorligi, ota-onalar qoniqishi, bolalarning rivojlanish dinamikasi va moliyaviy natijalar tahlil qilinadi.

Mazkur bosqichlar qo‘shimcha ta’lim xizmatlarini tartibli, shaffof va natijador tashkil etishga xizmat qiladi.

Bolalarni guruhlarga qabul qilish tartibi

Qo‘shimcha pullik xizmatlarga bolalarni qabul qilish ota-onaning arizasi va maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori bilan tuziladigan ikki tomonlama shartnoma asosida amalga oshiriladi. Shartnomada xizmat turi, mashg‘ulotlar jadvali, to‘lov miqdori, tomonlarning huquq va majburiyatlari aniq ko‘rsatilishi lozim.

Bolani qo‘shimcha xizmat guruhiga qabul qilish direktor buyrug‘i bilan rasmiylashtiriladi. Buyruqda bolaning familiyasi, ismi, yoshi, guruhi, xizmat turi va qatnashish muddati ko‘rsatiladi. Guruhlarda bolalar soni belgilangan me’yorlardan oshmasligi zarur. Bu talab pedagogik jarayon sifati, bolalar xavfsizligi va individual yondashuvni ta’minlash uchun muhimdir.

Mablag‘larni taqsimlash va moliyaviy boshqaruv

Qo‘shimcha pullik xizmatlar maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun byudjetdan tashqari mablag‘larni shakllantirishning muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Ushbu mablag‘lar tashkilotning moddiy-texnika bazasini rivojlantirish, zarur jihozlar xarid qilish, ta’mirlash ishlarini amalga oshirish, ta’lim muhitini boyitish hamda xodimlarni moddiy rag‘batlantirishga xizmat qiladi.

Qo‘shimcha xizmatlardan tushgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi moliyaviy intizom, shaffoflik va hisobdorlik tamoyillariga asoslanishi lozim. Mablag‘lar, avvalo, xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq xarajatlarni qoplashga yo‘naltiriladi. Xarajatlar qoplanganidan so‘ng qolgan mablag‘larning ma’lum qismi maktabgacha ta’lim tashkiloti xodimlarini rag‘batlantirish va muassasaning moddiy-texnika bazasini yaxshilashga sarflanishi mumkin.

Bu jarayonda MTT rahbarining moliyaviy menejment kompetensiyasi alohida ahamiyatga ega. Chunki qo‘shimcha xizmatlarni tashkil etish faqat pedagogik jarayon emas, balki moliyaviy rejalashtirish, buxgalteriya hisobini yuritish, ichki nazorat, narx siyosatini belgilash, shartnomalarni boshqarish va mablag‘lardan samarali foydalanish bilan bog‘liq murakkab boshqaruv faoliyatidir.

Kuzatuv kengashining roli va jamoatchilik nazorati

Qo‘shimcha pullik xizmatlarni tashkil etishda Kuzatuv kengashining ishtiroki shaffoflik, ochiqlik va jamoatchilik nazoratini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Xizmat turlari, narxlar preyskuranti, ota-onalar takliflari va xizmatlarning zarurligi Kuzatuv kengashi yig‘ilishida muhokama qilinishi maqsadga muvofiq.

Kuzatuv kengashi orqali ota-onalar va jamoatchilik vakillari muassasa faoliyatida bevosita ishtirok etadi. Bu esa qo‘shimcha xizmatlarning faqat daromad olish vositasi sifatida emas, balki bolalar manfaatiga yo‘naltirilgan ijtimoiy-pedagogik faoliyat shakli sifatida tashkil etilishini ta’minlaydi.

Shuningdek, preyskurant narxlarining e’lonlar taxtasiga joylashtirilishi, ota-onalar bilan shartnoma tuzilishi, xizmat jadvalining ochiq bo‘lishi va mablag‘lar sarfi yuzasidan hisobdorlikni yo‘lga qo‘yish qo‘shimcha xizmatlarga nisbatan ishonchni oshiradi.

Raqamlashtirish va bbit tizimining ahamiyati. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qo‘shimcha xizmatlarni samarali boshqarishda raqamlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Tarbiyalanuvchilar haqidagi ma’lumotlarni Maktabgacha ta’limni boshqarish axborot tizimiga kiritib borish xizmatlar ko‘lamini, bolalar qatnashuvini, guruhlar shakllanishini va monitoring jarayonlarini tizimli nazorat qilish imkonini beradi. bbit tizimi orqali qo‘shimcha xizmatlar bo‘yicha ma’lumotlarning yagona axborot maydonida yuritilishi quyidagi natijalarni ta’minlaydi:

birinchidan, xizmatlar bo‘yicha aniq statistik ma’lumotlar shakllanadi;

ikkinchidan, rahbar va mas’ul xodimlarning hisobdorligi kuchayadi;

uchinchidan, bolalar qatnashuvi va xizmat sifati monitoring qilinadi;

to‘rtinchidan, litsenziya talablariga rioya etilishi nazorat qilinadi;

beshinchidan, boshqaruv qarorlarini ma’lumotlarga asoslangan holda qabul qilish imkoniyati kengayadi.

Demak, qo‘shimcha ta’lim xizmatlarini raqamli monitoring asosida boshqarish zamonaviy maktabgacha ta’lim menejmentining muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Ilmiy-amaliy takliflar

Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qo‘shimcha ta’lim xizmatlarini samarali tashkil etish uchun quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Har bir MTTda ota-onalar ehtiyoji, bolalar qiziqishi va muassasa imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda qo‘shimcha xizmatlar xaritasini ishlab chiqish lozim.

2. Qo‘shimcha xizmatlar faqat moliyaviy daromad manbai sifatida emas, balki bolalarning individual rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi pedagogik mexanizm sifatida tashkil etilishi zarur.

3. Narxlarni belgilashda ota-onalarning to‘lov qobiliyati, xizmat sifati, mutaxassis malakasi va moddiy xarajatlar mutanosib hisobga olinishi kerak.

4. Qo‘shimcha xizmatlar bo‘yicha pedagog va mutaxassislar uchun qisqa muddatli metodik seminarlar tashkil etish maqsadga muvofiq.

5. Kuzatuv kengashlari qo‘shimcha xizmatlar sifati, narxlarning asoslanganligi va mablag‘lardan foydalanish shaffofligini ta’minlashda faol ishtirok etishi lozim.

6. EMIS tizimida qo‘shimcha xizmatlar bo‘yicha alohida monitoring indikatorlarini shakllantirish maqsadga muvofiq.

7. Qo‘shimcha xizmatlar natijadorligini baholashda faqat moliyaviy ko‘rsatkichlar emas, balki bolalarning rivojlanish dinamikasi, ota-onalar qoniqishi va pedagogik samaradorlik mezonlari ham hisobga olinishi zarur.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qo‘shimcha pullik ta’lim-tarbiya xizmatlarini tashkil etish O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, ta’lim xizmatlari sifatini oshirish va muassasalarning moliyaviy barqarorligini ta’minlashga qaratilgan muhim tashkiliy-boshqaruv mexanizmidir.

Mazkur xizmatlar bolalarning qobiliyat va qiziqishlarini erta aniqlash, ularning jismoniy, intellektual, ijodiy va ijtimoiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, ota-onalar ehtiyojini qondirish hamda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Qo‘shimcha xizmatlarni samarali tashkil etish uchun huquqiy me’yorlarga qat’iy rioya qilish, shaffof narx siyosatini yuritish, ota-onalar bilan shartnomaviy munosabatlarni to‘g‘ri rasmiylashtirish, Kuzatuv kengashi orqali jamoatchilik nazoratini ta’minlash va mablag‘lardan maqsadli foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, mazkur jarayonda MTT rahbarining moliyaviy menejment kompetensiyasi, huquqiy savodxonligi, tashabbuskorligi va boshqaruv madaniyati hal qiluvchi omil hisoblanadi. Chunki qo‘shimcha pullik xizmatlar nafaqat iqtisodiy daromad manbai, balki ta’lim sifatiga investitsiya kiritish, pedagoglarni rag‘batlantirish va bolalar manfaatlariga yo‘naltirilgan raqobatbardosh ta’lim muhitini shakllantirish vositasidir.

Umuman olganda, qo‘shimcha ta’lim xizmatlarini ilmiy asoslangan, huquqiy tartibga solingan va shaffof boshqaruv mexanizmlari asosida tashkil etish davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining barqaror rivojlanishi, ta’lim sifati va pedagogik jarayon samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentyabrdagi PQ-3955-son “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

2. Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qo‘shimcha pullik ta’lim-tarbiya xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi Nizom. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 3123-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

3. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi O‘RQ-595-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni..

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi 802-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori.

6. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun takomillashtirilgan o‘quv dasturi.

7. Levacic R., Ross K. Needs-based Resource Allocation in Education via Formula Funding of Schools. Paris: UNESCO, 1999.

8. OECD. Starting Strong V: Transitions from Early Childhood Education and Care to Primary Education. Paris: OECD Publishing, 2017.

UO’K 373.2

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA BUDJET MABLAG‘LARIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA BUDJETDAN TASHQARI MABLAG‘LARNI SHAKLLANTIRISHDA HOMIYLIK MEXANIZMLARI

Boltayev Ahmad Rustamjonovich,
MTTDMQTMOI mustaqil tadqiqotchisi

Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida budjet mablag‘laridan samarali foydalanish, moliyaviy resurslarni maqsadli rejalashtirish, xodimlarni moddiy rag‘batlantirish hamda budjetdan tashqari mablag‘larni shakllantirishning tashkiliy-huquqiy asoslari tahlil qilingan. Shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbarlarining moliyaviy menejment kompetensiyasi, homiylarni jalb etish mexanizmlari, qo‘shimcha pullik xizmatlar, mol-mulk ijarasi va rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘laridan foydalanish yo‘nalishlari ilmiy-uslubiy jihatdan yoritilgan. Maqolada budjet mablag‘larining maqsadliligi, shaffofligi, natijadorligi va jamoatchilik nazoratiga asoslangan boshqaruv yondashuvi maktabgacha ta’lim tashkilotlari barqaror rivojlanishining muhim omili sifatida asoslangan.

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim tashkiloti, budjet mablag‘lari, budjetdan tashqari mablag‘lar, moliyaviy menejment, homiylik, rivojlantirish jamg‘armasi, moddiy rag‘batlantirish, shaffof boshqaruv, moliyaviy mustaqillik.*

ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ БЮДЖЕТНЫХ СРЕДСТВ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ И МЕХАНИЗМЫ СПОНСОРСТВА ПРИ ФОРМИРОВАНИИ ВНЕБЮДЖЕТНЫХ СРЕДСТВ

В данной статье проанализированы организационно-правовые основы эффективного использования бюджетных средств в дошкольных образовательных организациях, целевого планирования финансовых ресурсов, материального стимулирования сотрудников, а также формирования внебюджетных средств. Кроме того, с научно-методической точки зрения освещены вопросы компетентности руководителей дошкольных образовательных организаций в области финансового менеджмента, механизмы привлечения спонсоров, предоставление дополнительных платных услуг, сдача имущества в аренду и направления использования средств фонда развития. В статье обосновано, что управленческий подход, основанный на целевом, прозрачном и результативном использовании бюджетных средств, а также на общественном контроле, является важным фактором устойчивого развития дошкольных образовательных организаций.

Ключевые слова: *дошкольная образовательная организация, бюджетные средства, внебюджетные средства, финансовый менеджмент, спонсорство, фонд развития, материальное стимулирование, прозрачное управление, финансовая самостоятельность.*

EFFICIENT USE OF BUDGET FUNDS IN PRESCHOOL EDUCATION INSTITUTIONS AND SPONSORSHIP MECHANISMS FOR THE FORMATION OF EXTRABUDGETARY FUNDS

This article analyzes the organizational and legal foundations for the effective use of budget funds in preschool educational organizations, targeted planning of financial resources, material incentives for employees, and the formation of extra-budgetary funds. In addition, the article provides a scientific and methodological analysis of the financial management competencies of heads of preschool educational organizations, mechanisms for attracting sponsors, additional paid services, property leasing, and the main areas of using development fund resources. The article substantiates that a management approach based on the targeted, transparent, and effective use of budget funds, as well as public oversight, is an important factor in ensuring the sustainable development of preschool educational organizations.

Keywords: *preschool educational organization, budget funds, extra-budgetary funds, financial management, sponsorship, development fund, material incentives, transparent management, financial independence.*

Kirish. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, ta’lim-tarbiya sifatini oshirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va boshqaruv samaradorligini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

“Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonunda davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari davlat ta’lim dasturida nazarda tutilganidan tashqari qo‘shimcha pullik ta’lim xizmatlari ko‘rsatishi mumkinligi, shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va sohaga malakali mutaxassislarni jalb qilish maqsadida Maktabgacha ta’limni rivojlantirish jamg‘armasi faoliyat yuritishi belgilangan.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining samarali faoliyati faqat pedagogik jarayonning mazmuni bilan emas, balki mavjud moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, qo‘shimcha mablag‘ manbalarini izlash, xodimlarni munosib rag‘batlantirish va xarajatlarning natijadorligini ta’minlash bilan ham bevosita bog‘liqdir. Amaliyotda davlat budjeti hisobidan ajratilayotgan mablag‘larning asosiy qismi ish haqi, majburiy to‘lovlar, oziq-ovqat, kommunal xarajatlar va tashkilot faoliyatini ta’minlashga yo‘naltiriladi. Shu sababli ta’lim muhitini zamonaviylashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, rivojlantiruvchi markazlarni jihozlash hamda pedagog xodimlarning tashabbuskorligini qo‘llab-quvvatlashda budjetdan tashqari mablag‘larni jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur masala MTT rahbaridan nafaqat ma’muriy boshqaruv, balki moliyaviy rejalashtirish, resurslarni diversifikatsiya qilish, homiylar bilan ijtimoiy sheriklikni yo‘lga qo‘yish, ochiq hisobot yuritish va mablag‘lardan maqsadli foydalanish bo‘yicha zamonaviy menejerlik kompetensiyalarini talab etadi.

Budjet mablag‘laridan samarali foydalanishning boshqaruv mohiyati

Maktabgacha ta’lim tashkilotida budjet mablag‘laridan samarali foydalanish — bu ajratilgan moliyaviy resurslarni belgilangan smeta doirasida, qonunchilik talablariga muvofiq, ta’lim-tarbiya jarayoni sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan ustuvor yo‘nalishlarga yo‘naltirish jarayonidir. Bunda samaradorlik faqat mablag‘ni tejash bilan emas, balki xarajatlarning pedagogik, ijtimoiy va boshqaruv natijadorligi bilan baholanadi.

Budjet mablag‘laridan foydalanishda quyidagi prinsiplar muhim hisoblanadi:

birinchidan, **maqsadlilik prinsipi** — har bir xarajat tasdiqlangan smeta, ish rejasi va tashkilotning rivojlanish ehtiyojlariga mos bo‘lishi lozim;

ikkinchidan, **tejamkorlik prinsipi** — xaridlar, xizmatlar va xo‘jalik xarajatlari ortiqcha sarf-xarajatlarsiz, real ehtiyojlar asosida amalga oshirilishi kerak;

uchinchidan, **natijadorlik prinsipi** — moliyaviy xarajatlar ta’lim sifati, bolalar xavfsizligi, moddiy-texnik baza, pedagoglar mehnat sharoiti va ota-onalar bilan hamkorlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatishi zarur;

to‘rtinchidan, **shaffoflik prinsipi** — mablag‘larning tushumi, sarflanishi va iqtisod qilinishi bo‘yicha ma’lumotlar ichki nazorat, kuzatuv kengashi hamda yuqori turuvchi organlar oldida ochiq bo‘lishi kerak.

Shu jihatdan budjet mablag‘laridan samarali foydalanish MTTda moliyaviy intizomni mustahkamlash, resurslarning samarasiz sarflanishining oldini olish va tashkilotning strategik rivojlanish dasturini moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Xodimlarni moddiy rag‘batlantirish fondidan foydalanish

MTT faoliyatida inson resurslarini qo‘llab-quvvatlash va xodimlarning kasbiy faolligini oshirishda moddiy rag‘batlantirish mexanizmlari alohida o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 19-sentabrdagi 176-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan hamda 2024-yil 22-oktabrda 3561-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan Nizom budjet tashkilotlari xodimlarini moddiy rag‘batlantirish maxsus fondidan foydalanish tartibini belgilaydi. Mazkur Nizomga ko‘ra, tegishli budjet tashkilotlarida Moddiy rag‘batlantirish maxsus fondi mehnat haqi fondining 15 foizi miqdorida tashkil etiladi.

Ushbu fond budjet mablag‘lari hisobidan shakllantiriladi, xarajatlar smetasida va shtatlar jadvalida alohida satrda ko‘rsatiladi. Fond mablag‘lari xodimlarning ish haqiga ustamalar belgilash hamda ularni mukofotlashga yo‘naltiriladi. Yuqori malakali, tashabbuskor va vazifalarini vijdonan bajarayotgan xodimlarga tarif stavkasi yoki lavozim maoshining 50 foizidan oshmagan miqdorda shaxsiy ustamalar belgilanishi mumkin; budjet tashkilotlarining boshqaruv xodimlari uchun esa ushbu ustamalarning eng yuqori miqdori chegaralanmaydi.

Moddiy rag‘batlantirish tizimining samarali ishlashi MTT rahbaridan adolatli baholash mezonlarini ishlab chiqishni talab qiladi. Ustama va mukofotlar xodimning ish natijasi, ta’lim-tarbiya jarayoniga qo‘shgan hissasi, innovatsion tashabbuslari, ota-onalar bilan hamkorligi, metodik faolligi va jamoaviy natijalarga ta’siri asosida belgilangandagina u real motivatsion kuchga ega bo‘ladi. Aksincha, rag‘batlantirish jarayonida subyektivlik, norasmiy yondashuv yoki shaffoflikning yetishmasligi jamoada ishonchsizlikni kuchaytirishi mumkin.

Shu bois MTTda moddiy rag‘batlantirish tizimi quyidagi boshqaruv mezonlariga asoslanishi maqsadga muvofiq:

xodim faoliyatini baholashda aniq indikatorlardan foydalanish;

ustama va mukofotlarni pedagogik natija bilan bog‘lash;

rag‘batlantirish qarorlarini jamoa manfaatlari va qonunchilik talablari asosida qabul qilish;

ijro intizomi buzilganda yoki ish sifati pasayganda ustamalarni qayta ko‘rib chiqish;

fond mablag‘laridan maqsadli foydalanish bo‘yicha rahbar mas’uliyatini kuchaytirish.

Nizomda moddiy rag‘batlantirish maxsus fondi mablag‘laridan maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat budjet tashkilotlari rahbarlariga yuklatilishi belgilangan. Bu esa MTT direktorining moliyaviy qarorlar qabul qilishdagi shaxsiy javobgarligini oshiradi.

Budjetdan tashqari mablag‘larni shakllantirish manbalari

Budjetdan tashqari mablag‘lar MTTning iqtisodiy barqarorligini ta’minlash, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, rivojlantiruvchi muhitni boyitish va pedagog xodimlarni qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlashda muhim resurs hisoblanadi. Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 21-maydagi 325-son qarorida Budjet tashkilotining rivojlantirish jamg‘armasini shakllantirish va uning mablag‘laridan foydalanish tartibi belgilangan. Qarorga ko‘ra, rivojlantirish jamg‘armasi daromadlari hisobot choragining so‘nggi ish kuni oxirida xarajatlar smetasi bo‘yicha tejalgan mablag‘lar, faoliyat ixtisosligi bo‘yicha tovarlar, ishlar va xizmatlarni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar, balansdagi mol-mulkni ijaraga berishdan tushgan mablag‘larning bir qismi, jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan shakllantirilishi mumkin.

MTT sharoitida budjetdan tashqari mablag‘larni shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Qo‘shimcha pullik ta’lim xizmatlari. MTT davlat ta’lim dasturida nazarda tutilgan asosiy xizmatlarga zarar yetkazmagan holda, ota-onalar bilan shartnoma asosida qo‘shimcha rivojlantiruvchi to‘garaklar, til o‘rganish, san’at, sport, STEAM, robototexnika yoki ijodiy mashg‘ulotlar tashkil etishi mumkin. Bunda xizmatlar ixtiyoriylik, shaffof narxlash va sifat nazorati asosida yo‘lga qo‘yilishi lozim.

2. Mol-mulkni ijaraga berish. Bo‘sh turgan bino, xona yoki boshqa mulkiy obyektlardan qonuniy asosda foydalanish MTT uchun qo‘shimcha daromad manbai bo‘lishi mumkin. Prezidentning 2025-yil 19-martdagi PF-51-son Farmoni bilan maktabgacha va maktab ta’limi tizimidagi muassasa va tashkilotlar mulki ijarasidan tushadigan mablag‘larning 75 foizi davlat mulkini balans saqlovchisiga, 25 foizi esa tegishli mahalliy budjet daromadiga yo‘naltirilishi belgilangan.

3. Homiylik xayriyalari. Jismoniy va yuridik shaxslar, tadbirkorlik subyektlari, mahalliy hamjamiyat vakillari hamda xalqaro donor tashkilotlarning beg‘araz ko‘magi MTT rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Homiylik mablag‘lari, avvalo, bolalar uchun xavfsiz, qulay va rivojlantiruvchi muhit yaratish, o‘quv-metodik materiallar xarid qilish, o‘yin maydonchalarini jihozlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish kabi yo‘nalishlarga xizmat qilishi maqsadga muvofiq.

4. Shartnoma intizomi bo‘yicha tushumlar. Davlat xaridlarida shartnoma shartlarini bajarmagan yetkazib beruvchilardan undiriladigan penya va zararlarni qoplash mablag‘lari ham rivojlantirish jamg‘armasiga yo‘naltirilishi mumkin. 325-son qarorda davlat xaridlari budjet mablag‘lari hisobidan amalga oshirilganda undirilgan mablag‘larning 75 foizi rivojlantirish jamg‘armasiga, budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan amalga oshirilganda esa 100 foizi rivojlantirish jamg‘armasiga yo‘naltirilishi ko‘rsatilgan.

Homiylarni jalb etishning tashkiliy-pedagogik mexanizmlari

Maktabgacha ta’lim tashkilotida homiylarni jalb etish tasodifiy yoki bir martalik xayriya jarayoni sifatida emas, balki strategik rejalashtirilgan ijtimoiy sheriklik mexanizmi sifatida tashkil etilishi lozim. Bunda MTT rahbari homiylikni faqat moliyaviy yordam deb emas, balki ta’lim sifatini oshirish, bolalar uchun rivojlantiruvchi muhit yaratish va mahalla–oila–ta’lim tashkiloti hamkorligini kuchaytirish vositasi sifatida ko‘rishi zarur.

Homiylarni jalb etish quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

Birinchi bosqich — ehtiyojlarni aniqlash. MTTning moddiy-texnik holati, rivojlantiruvchi markazlar, o‘yin jihozlari, metodik vositalar, sanitariya-gigiyena sharoitlari, xavfsizlik infratuzilmasi va pedagogik texnologiyalarga bo‘lgan ehtiyojlar tahlil qilinadi.

Ikkinchi bosqich — homiylik loyihasi pasportini ishlab chiqish. Har bir ehtiyoj bo‘yicha aniq loyiha shakllantiriladi: maqsad, kutilayotgan natija, xarajatlar smetasi, muddat, mas’ullar va monitoring mexanizmlari belgilanadi.

Uchinchi bosqich — potensial homiylar xaritasini tuzish. Hududdagi korxona va tashkilotlar, tadbirkorlar, ota-onalar, nodavlat notijorat tashkilotlari, mahalla faollari va ijtimoiy mas’uliyatga ega yuridik shaxslar aniqlanadi.

To‘rtinchi bosqich — shaffof hamkorlik taklifini taqdim etish. Homiyga umumiy murojaat emas, balki aniq ijtimoiy-pedagogik natijaga yo‘naltirilgan loyiha taklif qilinadi. Masalan: “Rivojlantiruvchi markazlarni jihozlash”, “Xavfsiz o‘yin maydonchasi”, “Kitobxon bola”, “STEAM burchagi”, “Inklyuziv muhit uchun moslashtirilgan jihozlar” kabi loyihalar.

Beshinchi bosqich — huquqiy rasmiylashtirish va hisobdorlik. Homiylik mablag‘lari yoki moddiy yordam belgilangan tartibda qabul qilinadi, tegishli hujjatlar rasmiylashtiriladi, tushum va sarflanish bo‘yicha alohida hisob yuritiladi. Budjet tashkilotlarida homiylik xayriyalari tushumi va sarflanishining alohida shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida yuritilishi hamda homiylik xayriyalarini qabul qilish va ulardan foydalanish bo‘yicha ma’lumotlarning chorak yakuni bo‘yicha rasmiy veb-sahifalarda e’lon qilib borilishi shaffoflik talabini kuchaytiradi.

Oltinchi bosqich — natijalarni jamoatchilikka taqdim etish. Homiylik asosida amalga oshirilgan ishlar pedagogik kengash, kuzatuv kengashi, ota-onalar va mahalliy hamjamiyat oldida ochiq yoritiladi. “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonunda davlat MTT kuzatuv kengashi rahbarning moliya-xo‘jalik holati, daromadlar va xarajatlar, budjetdan tashqari, homiylik va boshqa mablag‘lardan foydalanish to‘g‘risidagi hisobotlarini eshitishi belgilangan.

MTT rahbarining moliyaviy menejment kompetensiyasi

Budjet va budjetdan tashqari mablag‘larni samarali boshqarish MTT rahbarining moliyaviy menejment kompetensiyasiga bevosita bog‘liq. Rahbar budjet intizomi, smeta rejalashtirish, xarajatlarni ustuvorlashtirish, ichki nazorat, homiylik munosabatlari, shartnoma intizomi, davlat xaridlari va jamoatchilik oldida hisobdorlik bo‘yicha yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi zarur.

MTT rahbarining moliyaviy menejment kompetensiyasi quyidagi tarkibiy komponentlarni qamrab oladi:

strategik rejalashtirish kompetensiyasi — tashkilot ehtiyojlarini uzoq muddatli rivojlanish dasturi bilan bog‘lash;

resurslarni diversifikatsiya qilish kompetensiyasi — budjetdan tashqari qonuniy manbalarni izlash va jalb etish;

moliyaviy intizom kompetensiyasi — smeta, g‘azna, shartnoma va hisobot talablariga rioya qilish;

ijtimoiy sheriklik kompetensiyasi — homiylar, ota-onalar, mahalla va tadbirkorlik subyektlari bilan manfaatli hamkorlikni tashkil etish;

shaffoflik va hisobdorlik kompetensiyasi — mablag‘larning tushumi va sarflanishi bo‘yicha jamoatchilikka ochiq ma’lumot berish;

pedagogik natijadorlik kompetensiyasi — har bir moliyaviy xarajatni bolalar rivojlanishi, ta’lim sifati va pedagogik jarayon samaradorligi bilan bog‘lash.

Shu jihatdan MTT rahbarining moliyaviy boshqaruvdagi asosiy vazifasi mablag‘ topish bilan cheklanmaydi. U mavjud resurslarni pedagogik maqsadlarga yo‘naltirish, xodimlarni adolatli rag‘batlantirish, homiylik munosabatlarida manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik va har bir moliyaviy qarorning ijtimoiy-pedagogik natijasini ta’minlashdan iborat.

Xulosa. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida budjet mablag‘laridan samarali foydalanish va budjetdan tashqari mablag‘larni shakllantirish ta’lim sifatini oshirish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, pedagog xodimlarning mehnatini rag‘batlantirish hamda bolalar uchun xavfsiz va rivojlantiruvchi muhit yaratishning muhim shartidir. Davlat budjeti hisobidan ajratiladigan mablag‘lar MTT faoliyatining barqarorligini ta’minlasa, budjetdan tashqari manbalar tashkilotning rivojlanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, MTTlarda moliyaviy boshqaruvning samaradorligi uchta asosiy omilga bog‘liq: birinchidan, budjet mablag‘laridan maqsadli va natijador foydalanish; ikkinchidan, qonuniy budjetdan tashqari manbalarni tizimli jalb etish; uchinchidan, mablag‘larning tushumi va sarflanishi bo‘yicha shaffof hisobdorlikni ta’minlash. Ayniqsa, homiylik mablag‘larini jalb etishda ixtiyoriylik, ochiqlik, maqsadlilik va jamoatchilik nazorati asosiy boshqaruv mezonlari bo‘lishi zarur.

Shunday qilib, maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbari zamonaviy sharoitda nafaqat pedagogik jarayon tashkilotchisi, balki moliyaviy resurslarni oqilona boshqaruvchi, ijtimoiy sheriklikni yo‘lga qo‘yuvchi va tashkilot rivojlanishini strategik rejalashtiruvchi menejer sifatida faoliyat yuritishi lozim. Bu esa MTTlarning moliyaviy mustaqilligini mustahkamlash, ta’lim sifati va boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019-yil 16-dekabr, O‘RQ-595-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi sohasida boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. 2025-yil 19-mart, PF-51-son.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Budjet tashkilotlari xarajatlarini moliyalashtirish va budjetdan tashqari jamg‘armalarni shakllantirish tartibini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori. 2025-yil 21-may, 325-son.

4. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining “Budjet tashkilotlari xodimlarini moddiy rag‘batlantirish maxsus fondi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrug‘i. 2024-yil 19-sentabr, 176-son; davlat ro‘yxati: 2024-yil 22-oktabr, 3561-son.

5. O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi.

6. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi.

INKLYUZIV TA’LIM

УДК 37.378
26.01.2026

ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Адизов Б.Р.
доктор *педагогических наук, профессор,*
директор регионального центра переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров при Бухарском государственном университете
adizov1960@mail.ru
Самиева Ш.Х.
доктор педагогических наук, профессор,
профессор Бухарского государственного технического университета
samieva-1978@mail.ru
DOI: 10.56163/2072-2524-2025-5-32-37

В современном образовательном дискурсе инклюзивное образование признается ключевым компонентом качества высшего образования. Настоящее исследование направлено на анализ современных научных источников по инновационным подходам к реализации инклюзивного образования в высших учебных заведениях и выявление основных тенденций, актуальных проблем и перспектив развития в данной области. Результаты показывают, что инновационные подходы в высшем образовании включают принципы универсального дизайна обучения, межкультурного взаимодействия, STEAM-образования, цифровой инклюзии, интеграции технологических инструментов, развития центров инклюзивного образования, подготовки преподавателей к инклюзивным практикам, персонализации образовательных траекторий, поддержки инклюзивной инфраструктуры и использования аналитики больших данных.
Ключевые слова: *инклюзивное образование, высшее образование, инновационные подходы, педагогические технологии, цифровая инклюзия, универсальный дизайн обучения, подготовка преподавателей, образовательная инфраструктура, межкультурное взаимодействие.*

INNOVATIVE APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF INCLUSIVE EDUCATION IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

In contemporary educational discourse, inclusive education is recognized as a key component of quality higher education. This study aims to analyze recent scientific sources on innovative approaches to implementing inclusive education in higher education institutions and to identify major trends, current challenges, and prospects for development in this field. The results indicate that innovative approaches in higher education include principles such as Universal Design for Learning, intercultural cooperation, STEAM education, digital inclusion, integration of technological tools, development of inclusive education centers, teacher training for inclusive practices, personalization of learning paths, support for inclusive infrastructure, and the use of big data analytics.
Keywords: *inclusive education, higher education, innovative approaches, pedagogical technologies, digital inclusion, Universal Design for Learning, teacher training, educational infrastructure, intercultural cooperation.*

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA INKLYUZIV TA’LIMNI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI

Zamonaviy ta’lim diskursida inklyuziv ta’lim oliy ta’lim sifatining muhim tarkibiy qismi sifatida e’tirof etiladi. Mazkur tadqiqot oliy ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’limni amalga oshirishning innovatsion yondashuvlariga oid zamonaviy ilmiy manbalarni tahlil qilish hamda ushbu sohadagi asosiy tendensiyalar, dolzarb muammolar va rivojlanish istiqbollarini aniqlashga qaratilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, oliy

ta’limdagi innovatsion yondashuvlar universal ta’lim dizayni tamoyillari, madaniyatlararo hamkorlik, STEAM ta’limi, raqamli inklyuziya, texnologik vositalarni integratsiya qilish, inklyuziv ta’lim markazlarini rivojlantirish, o‘qituvchilarni inklyuziv amaliyotlarga tayyorlash, ta’lim trayektoriyalarini individuallashtirish, inklyuziv infratuzilmani qo‘llab-quvvatlash va katta ma’lumotlar (Big Data) tahlilidan foydalanishni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: *inklyuziv ta’lim, oliy ta’lim, innovatsion yondashuvlar, pedagogik texnologiyalar, raqamli inklyuziya, universal ta’lim dizayni, o‘qituvchilarni tayyorlash, ta’lim infratuzilmasi, madaniyatlararo hamkorlik.*

XXI век характеризуется социальными процессами, тесно связанными с глобализацией, цифровой трансформацией, информационными технологиями и правами человека**.** Сегодня система образования рассматривается как одно из важнейших и приоритетных направлений общества, выполняющая не только функцию передачи знаний, но и способствующая раскрытию человеческого потенциала, обеспечению социальной инклюзии и равных возможностей. В частности, на глобальном уровне активно развиваются подходы, основанные на демократизации системы образования, полном обеспечении прав человека и принципах социальной справедливости. Это, в свою очередь, продвигает в сфере образования идеи гуманизма, равенства, разнообразия возможностей и личностно-ориентированные методики.

В последние годы в Узбекистане осуществляются масштабные реформы по развитию инклюзивного образования. В частности, в Стратегии «Узбекистан – 2030», утверждённой Указом Президента Республики Узбекистан №PF–158 от 11 сентября 2023 года, вопросам инклюзивного образования уделено особое внимание. В направлении “Создание достойных условий для реализации потенциала каждого человека” предусмотрены меры по обеспечению инклюзивной образовательной системы, повышению потенциала педагогических кадров, расширению охвата всех детей образованием и созданию специальных условий для учащихся с ограниченными возможностями [1].

Кроме того, на видеоконференции, состоявшейся 13 декабря 2024 года, глава государства обозначил меры по дальнейшему развитию инклюзивного образования в 2025 году. В частности, планируется организовать инклюзивные группы в дошкольных образовательных учреждениях каждого района, открыть инклюзивные классы в 954 общеобразовательных школах и создать условия для обучения 1,8 тыс. детей с инвалидностью.

Несмотря на то, что Узбекистан имеет многолетний опыт в продвижении инклюзивного образования, 20 лет назад оно не имело официального статуса педагогического эксперимента с правовой точки зрения. Однако теперь инклюзивное образование официально признано моделью обучения.

Одна из главных культурных тенденций последнего десятилетия — это идея безусловного равенства между людьми, из которой вытекает необходимость борьбы с любыми формами дискриминации (расовой, гендерной и другими). В XXI веке подходы к образованию, основанные на социальной справедливости, правах человека и демократических ценностях, претерпевают значительные изменения. В этом контексте понятие “инклюзивное образование”, ранее предназначенное для лиц с особыми потребностями, сегодня стало стратегическим направлением для всей образовательной системы. Инклюзивность необходима не только для лиц с инвалидностью, но и для всех групп, сталкивающихся с различными барьерами в получении образования: этнические меньшинства, социально уязвимые слои населения, лица, страдающие от гендерного неравенства и другие [5].

Цели инклюзивного образования, определённые ООН, ЮНИСЕФ и ЮНЕСКО, включают:

-полную интеграцию каждого ребёнка в общество;

-полное соблюдение прав человека в образовании;

-превращение образовательных учреждений в открытые и адаптированные системы для всех;

- предотвращение дискриминации и укрепление принципа равенства.

В принятой в 2006 году Конвенции ООН «О правах инвалидов» указано:

«Система инклюзивного образования должна обеспечивать возможность получения образования на всех этапах, и эта возможность должна быть равной для всех граждан».

Также, как отмечено ЮНЕСКО: “Инклюзивное образование — это не только реформа образовательной системы, но и масштабное движение, направленное на социальное единство, равенство и устойчивое развитие” [3].

А. Аврамидис и М. Норвич определяют инклюзивное образование как “учебную среду, направленную на максимальное развитие возможностей каждого ребенка” [2;3].

Инклюзия — это динамичный процесс, который постоянно развивается вместе с местной культурой и является частью более широкой стратегии по формированию инклюзивного общества. Этот процесс обеспечивает расширение возможностей участия детей, молодежи и взрослых в образовании, культуре и социальной жизни, способствуя решению возникающих проблем.

Образовательный процесс и система образования работают с целью минимизации и предотвращения исключения. Продвижение инклюзивности способствует формированию положительного отношения, улучшает образовательную и социальную сферу.

Инклюзивное образование — это подход, направленный на создание равных и качественных возможностей получения образования для всех детей, включая детей с инвалидностью, отстающих в развитии или имеющих другие особые потребности, в рамках общей образовательной системы.

Важным условием успешного обучения, развития культуры общения и ориентации на ценности является создание образовательной среды, в которой учащийся чувствует свою способность к достижению, с возможностью индивидуальной и групповой работы в комфортной и оптимистичной атмосфере.

Интеграция детей с различными потребностями в единую образовательную систему требует выбора и применения теоретических основ, методов, принципов и стратегий, направленных на обучение, воспитание и развитие, с соответствующим отношением к ним.

Теория “зоны ближайшего развития” Л.С. Выготского является одной из основ инклюзивного подхода. По мнению Выготского, темпы и потенциал развития каждого ребенка различны, и необходимо соответствующее образовательное метод.

Инклюзивное образование создает чувство безопасности, а также предоставляет каждому возможность пробовать, ошибаться и учиться на ошибках. Это повышает требования к участникам образовательного процесса.

Европейское агентство по развитию специального образования разработало профиль инклюзивного учителя и выделило четыре основных ценности обучения и преподавания, которые служат основой для деятельности учителей в инклюзивном образовании:

1. **Ценить и принимать разнообразие учеников** означает уважать и положительно воспринимать уникальные особенности каждого ребёнка, независимо от его возраста, пола, национальности, языка, возможностей, темпа обучения, социального происхождения или состояния здоровья. Такой подход способствует созданию в школе атмосферы дружбы, равенства и толерантности, в которой каждый ученик чувствует себя ценным и признанным.
2. **Поддержка всех учащихся** — это создание необходимых условий, предоставление ресурсов и применение индивидуального подхода для обеспечения успеха и развития каждого ученика. Такая поддержка охватывает не только академические, но и социально-эмоциональные, психологические и культурные аспекты. Учитель должен создавать среду, в которой каждый учащийся получает возможность для успешного обучения.
3. **Работа с другими учителями** — это эффективное командное взаимодействие в инклюзивной образовательной среде, обмен опытом, совместное решение проблем и предоставление комплексной поддержки учащимся. Такой подход основывается на сотрудничестве, открытом общении и взаимном уважении между педагогами.
4. **Личностное профессиональное саморазвитие** — это осознанное и постоянное стремление педагога к повышению своей квалификации, освоению новых знаний и навыков, обновлению педагогических подходов и работе над собой.

Предмет инклюзивного образования — это обеспечение качественного обучения с учетом индивидуальных особенностей каждого ребёнка посредством адаптированных педагогических подходов. То есть основное внимание уделяется потребностям учащегося.

Инклюзивное образование ставит перед собой ряд целей. В частности:

1. Обеспечение качественного образования с учетом индивидуальных потребностей каждого ребёнка.
2. Интеграция детей с инвалидностью или другими особенностями развития в общество.
3. Снижение уровня дискриминации и создание равных возможностей.
4. Формирование гуманной и справедливой образовательной среды, основанной на правах человека.

Основная цель инклюзивного образования — создать для каждого ребёнка возможность получения качественного образования, независимо от его потребностей и возможностей. Это направлено на достижение социальной справедливости и равенства, а также устранение

дискриминации в образовании, возникающей на основе инвалидности, социального происхождения или других различий.

Основные задачи инклюзивного образования связаны с вкладом в развитие общества, привлечением детей с особыми потребностями к образовательному процессу и созданием для них необходимых условий для учёбы. С учётом этих задач инклюзивное образование достигает следующих результатов:

1. Поддержка индивидуального развития детей с различными потребностями.
2. Организация специальной педагогической помощи (логопедическая, дефектологическая, психологическая служба).
3. Совершенствование материально-технической базы, методического обеспечения и кадрового потенциала системы образования.
4. Усиление сотрудничества с родителями, местными сообществами, обществом и неправительственными организациями.
5. Переподготовка учителей в области инклюзивного образования и повышение их квалификации.
6. Выявление и устранение дискриминационных подходов в системе.
7. Раскрытие и развитие потенциала каждого ученика.

По мнению местных специалистов (М.Б. Шарипова, 2021): “Главная задача системы инклюзивного образования — привить педагогическое сознание, рассматривающее ребёнка не как “проблему”, а как “личность””.

Предмет инклюзивного образования не ограничивается только педагогикой. Он развивается в связке с рядом других наук:

-психология для выявления эмоциональных и психических потребностей;

-медицина для адаптации с учётом состояния здоровья;

-социология для анализа социальной адаптации и дискриминации;

-право для обеспечения прав человека.

Таким образом, цели и задачи инклюзивного образования служат одному из важнейших показателей развития современного общества — обеспечению социальной инклюзии через образование [3].

В таких условиях понятие инклюзивного образования признаётся неотъемлемой частью современной образовательной политики.

Это направление образования, наряду с повышением уровня инклюзивной социальной среды, требует и обновления педагогических подходов. С этой точки зрения **инклюзивная педагогика** представляет собой специальный подход, направленный на обеспечение качественным образованием детей, находящихся на длительном медицинском лечении, страдающих хроническими заболеваниями или проживающих в условиях больничной среды.

Педагоги, работающие в этой системе, должны обладать высокой степенью адаптивности, эмпатии, устойчивостью к стрессу и способностью применять инновационные методики. В данном учебнике подробно анализируются теоретические основы инклюзивного образования и госпитальной педагогики, международные и национальные правовые документы, передовой опыт, а также современные практические подходы.

На сегодняшний день существует ряд нерешенных проблем связанной системой образования, сюда же относиться и инклюзивное образование. Актуальными проблемами в инклюзивном образовании является:

- учебные заведения не оснащены всеми техническими оборудованиями;
- дефицит квалифицированных кадров в этой области;
- неготовность общества к детям с особенностями;
- несоответствие учебного материла;
- недостаточное финансирование инклюзивных учебных заведений;
- материальная поддержка от государства ориентирована на учреждение, а не на ученика с ОВЗ.

Инклюзивное образование должно развиваться на основе широкой социальной поддержки, что требует обеспечения целенаправленного просвещения, консультирования, информирования родительской общественности, населения, специалистов системы здравоохранения, социальной защиты, молодежной политики и других заинтересованных ведомств по всем вопросам образовательной инклюзии.

Литература:

1. Стратегия «Узбекистан – 2030», Указ Президента Республики Узбекистан №PF–158 от 11 сентября 2023 года.

2. Avramidis E., Norwich B. Teachers’ Attitudes Towards Integration / Inclusion: a Review of the Literature. European Journal of Special Needs Education, 2002, vol. 17, no. 2, pp. 129–14

3. Olimov, S., Samiyeva, S., Ibragimov, U. B., Mirzoeva, S., & Sharopov, S. (2024, December). Methodology for Developing Students’ Information and Communication Competence in the Process of Distance Learning in the Modern Educational Environment. In International Workshop Hybrid methods of modeling and optimization in complex systems (pp. 305-318). Cham: Springer Nature Switzerland.

4. Yuldasheva, D. S. (2021). Special education methods for children with developmental disabilities. Psychology and Education, 3(4), С.112–118.

5. В.А. Лаптев, “Педагогика и инклюзия”, 2018.

6. Самиева Ш. Х. Этапы развития педагогического творческого мастерства преподавателей высшей школы //фундаментальные и прикладные научные исследования в области инклюзивного дизайна и технологий: опыт, практика и перспективы. – 2023. – С. 215-218.

7. Фаизова, Ф. Ш. (2021). Вопросы изучения статейных списков. Наука и инновации в XXI веке: Материалы Международной, С.126.

8. Фаизова, Ф. Ш. (2022). Статейные списки российских посланников в Среднюю Азию XVII в. как лингвистический источник (Doctoral dissertation, автореф. дис.… д-ра филос. (PhD) по филол. наукам. Ташкент).

INKLYUZIV TA’LIM SHAROITIDA AUTIZM SINDROMLI BOLALARGA KORREKSION YONDASHUVNI TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Faxriddinova Dilso‘z Ravshanovna,
Navoiy davlat universiteti, “Pedagogika” kafedrasi magistranti
faxriddinova@gmail.com

Mazkur maqolada inklyuziv ta’lim sharoitida autizm sindromli bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlarning zamonaviy texnologiyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, ularning ijtimoiylashuvi, kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish va individual yondashuvni takomillashtirish masalalari yoritiladi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, samarali pedagogik usullar va innovatsion texnologiyalar tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: *inklyuziv ta’lim, autizm, korreksion pedagogika, individual yondashuv, innovatsion texnologiyalar, ijtimoiy moslashuv.*

ТЕХНОЛОГИИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ КОРРЕКЦИОННОГО ПОДХОДА К ДЕТЯМ С АУТИЗМОМ В УСЛОВИЯХ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

В данной статье анализируются современные технологии коррекционной работы с детьми с аутизмом в условиях инклюзивного образования. Также рассматриваются вопросы их социализации, развития коммуникативных навыков и повышения индивидуального подхода. На основе результатов исследования предлагаются эффективные педагогические методы и инновационные технологии.

Ключевые слова: *инклюзивное образование, аутизм, коррекционная педагогика, индивидуальный подход, инновационные технологии, социальная адаптация.*

TECHNOLOGIES FOR IMPROVING CORRECTIVE APPROACH TO CHILDREN WITH AUTISM SYNDROME IN THE CONDITIONS OF INCLUSIVE EDUCATION.

This article analyzes modern technologies of corrective work with children with autism syndrome in the conditions of inclusive education. It also covers the issues of their socialization, development of communication skills and improvement of an individual approach. Based on the results of the study, effective pedagogical methods and innovative technologies are recommended.

Keywords: *inclusive education, autism, corrective pedagogy, individual approach, innovative technologies, social adaptation.*

Kirish. Jahonda autizm sindromi qayd qilingan insonlar soni 10 milliondan ortiqni tashkil qilmoqda. Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti (JSST) ning 2016-yildagi ma’lumotlariga ko‘ra, autizm spektrining buzilishi 160 nafar boladan l (bir) nafarida uchragan bo‘lsa, 2022- yilga kelib bu ko‘rsatkich 100 nafar bolaning l (bir) nafarida uchrayotgani qayd qilingan. Dunyo miqyosida ushbu ko‘rsatkichlarga nazar soladigan bo‘lsak, 1995-yilda 1:5000, 2000-yilda 1:2000, 2005-yilda 1:300, 2008-yilda 1:150, 2012-yilda 1:88, 2017-yilda 1:50 2020-yilda 1:30 nisbatda ekanligini ko‘rish mumkin. Bunday toifadagi bolalar sonining oshishi, ular voyaga yetayotgan oilalarda ota-ona-farzand munosabatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatish bilan birga, autist bolaning shaxs xususiyatlari shakllanishi va uning jamiyatga moslashishi jarayonini qiyinlashtirib boradi. Bu borada, autizm tashxisli farzandni tarbiyalayotgan oilaga tibbiy, psixologik, pedagogik, ma’naviy va ijtimoiy himoya yordamlarini tashkil qilish dolzarb muammolardan bo‘lib qolmoqda. Jahon ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida autizm sindromli bolalarga o‘ziga xos tibbiy-psixologik yordam ko‘rsatish, ularni kognitiv, emotsional, xulq- atvor buzilishlarini tiklash, ularning ota-onalarini psixologik qo‘llab-quvvatlash, oila va jamiyat munosabatlarida yuzaga keladigan ijtimoiy-psixologik aloqalar namoyon bo‘lishini ilmiy o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, autizm sindromli bolalarni tarbiyalayotgan ota-onalarning rivojlanishdagi nuqsonlari bor boshqa bolalarning ota-onalariga nisbatan ko‘proq stressni boshdan kechirishi sababli autizm sindromli bolalar va ota-ona munosabatlariga yondashuvlari ilmiy tahlil qilish, ekstensiv, intensiv va proyektiv usullar orqali oila a’zolarining o‘zaro munosabatlarini aniqlash, ularga psixologik targ‘ibot-tashviqot, tibbiy, reabilitatsion choralarni joriy etish zarurati yuzaga kelmoqda. Respublikamizda so‘nggi yillarda psixologik xizmat sohasini rivojlantirish, ijtimoiy-psixologik xizmat ko‘rsatishni yanada yuqori darajalarga olib chiqish, alohida yordamga muhtoj va nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab quvvatlash borasida zarur

huquqiy-me’yoriy asoslar yaratildi: «...mamlakatimizda nogironligi bo‘lgan shaxslarning manzilli ijtimoiy muhofazasini kuchaytirish, ularning uy-joy, maishiy va boshqa yashash sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan tibbiy-ijtimoiy va moddiy yordamni kengaytirish, ularni tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya qilish...» vazifalari ustuvor etib belgilangan. Shu sababli, autizm sindromli bolalarni aniqlash, davolash usullarini tanlash, ularning ota-onalari bilan reabilitatsion tadbirlarni erta boshlash samarali natijalar olishga imkon beradi. Ota-ona va bola munosabatlarini shakllantirish, ularga psixologik yordam ko‘rsatish choralari tashkil qilish yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borishga qaratilgan yangicha nazariy yechimlarni topish imkoniyatlari yaratildi.

Asosiy qism. XXI asr ta’lim tizimida inklyuziv yondashuv inson huquqlari va teng imkoniyatlar tamoyiliga asoslangan holda shakllanmoqda. Nogironligi bo‘lgan bolalarni, xususan, autizm spektr buzilishlariga ega o‘quvchilarni umumta’lim tizimiga integratsiya qilish dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biridir.

Autizm spektr buzilishlari — bu nevropsixologik rivojlanishdagi murakkab buzilish bo‘lib, u ijtimoiy kommunikatsiya, xulq-atvor va moslashuv faoliyatining o‘ziga xos o‘zgarishlari bilan tavsiflanadi. Shu sababli, bunday bolalar bilan ishlashda an’anaviy pedagogik metodlar yetarli samara bermaydi.

Inklyuziv ta’lim sharoitida autizmli bolalar bilan ishlashda ilmiy asoslangan, tizimli va texnologik yondashuvni takomillashtirish zarur.

Autizm (grekcha-autos-o‘zi) odamovilik, muloqotga ehtiyojni yo‘qligi, o‘zining ichki olamini atrofidagilardan afzal ko‘rishda namoyon bo‘ladigan psixika holatidir. Autizm bilan bog‘liq masalalar mamlakatimizda nisbatan kam o‘rganilgan bo‘lib, asosan, tibbiyot, defektologiya va pedagogika olimlari tomonidan ilmiy tadqiq etilgan. Tadqiqotimizda farzandiga autizm tashxisi qo‘yilgan ota-onalarning bolasiga bo‘lgan munosabatini tadqiq qilinishi bir qator ijtimoiy muammolarni yechimi uchun imkon beradi. Ota-onalar tomonidan farzandini holatini to‘g‘ri qabul qilish, stress va xavotirlanishni kamaytirish orqali autizm sindromli bolalarni jamiyatga integratsiyasini ta’minlashga erishish mumkin. Shaxs kamolotida dastlabki ijtimoiy institut oila hisoblanar ekan, bu yacheykani sog‘lomlashtirish, uning psixoterapevtik imkoniyatlaridan foydalanish orqali autizm bolani individual xususiyatlarini rivojlantirish zarurati mavjud. Oilada nogiron farzandni tug‘ilishi oilaning boshqa a’zolari, jumladan, er-xotin munosabatlariga ham salbiy ta’sir qilishi kuzatilgan. Shu sababli ota-onalarning ushbu sindrom haqidagi bilimlarini oshirish, bolaning imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda katta ahamiyat kasb etadi. Tarixdan ma’lumki, dastlab oila muammolari qadimgi yunon faylasuflaridan Plutarx, Gerodot, Platon va Aristotel asarlarida o‘rganilgan bo‘lib, ular oila va davlat munosabatlari, jamiyat taraqqiyotida oilaning o‘rni bo‘yicha o‘z qarashlarini bildirganlar. Zardushtiylikning muqaddas kitobi «Avesto»da oila odoblari, ota-onalar va farzandlar munosabati, ularning burch va vazifalari xususidagi fikrlar keltirilgan. Islom dinida ham oila muqaddas ekanligi, oilada er-xotin munosabatlari, farzand tarbiyalashning o‘ziga xos tomonlari bo‘yicha fikrlar berilgan. Sharq allomalaridan Abu Nasr Farobiy o‘zining «Fozil odamlar shahri» asari orqali inson kamoloti, baxti, ta’lim va tarbiyasi, axloqi, dinga munosabati haqidagi fikrlami ilgari surgan. Abu Rayhon Beruniyning oilaviy munosabatlar haqidagi qarashlari ham alohida e’tiborga loyiqdir. Beruniy o‘z qarashlarida, ayniqsa, xotin-qizlar tarbiyasiga alohida e'tibor qaratadi. Abu Ali ibn Sino o‘zining «Tadbiri manzil» asarida oilaviy munosabatlarga urg‘u berib, oilada ayollarning yaxshi xulqli bo‘lishi, bilimli, dinga ishonishi, sharm-hayoli, jasur, eriga itoat qiluvchi, to‘g‘riso‘z, kamtar, farosatli, o‘z sha’niga dog’ tushirmaydigan, xushmuomalali bo‘lishi kerakligini ta’kidlab o‘tgan. Xorij olimlaridan I.Y.Baxovena, D .F.Mak-Lennana, E.Dyurkgeym, Ch.Darvin. F.L.Ple, Z.Freyd, E.Fromm, R.A.Shpis,V.Satirning ilmiy tadqiqotlarida oila va oilaviy munosabatlar ilmiy tadqiq etilgan. Jumladan, ilmiy yondashuvlarda ko‘ra, L.B.Shneyder shaxsning shakllanishida oilaning roli muhim ekanligini ta’kidlagan xolda, oila va oilaviy munosabatlar nazariyasining umumiy masalalari, oiladagi o‘zaro munosabatlar, nikoh muammolari, ota-ona va farzand tarbiyasiga alohida e’tibor qaratgan. O‘zbek psixolog olimlaridan F.A.Akramova, D.U.Abdullayeva, Sh.R.Baratov, M.G.Davletshin, M .X.Fayziyeva, V.M.Karimova, X.K.Karimov, Z.T.Nishonova, L.V.Nazirova, G.A.Qurbonova, N.A.Sogmnov, N.N.Salayeva, M.S.Salayeva, R.S.Samarov, S.X.Tadjiyeva, E.G‘.G‘oziyev, G‘.B.Shoumarov, O‘.B.Shamsiyev, A.Sh.Shojalilov, O.R.Shamiyevalar ilmiy tadqiqotlarida oiladagi o‘zaro munosabatlar, oilaviy hayot psixologiyasi, oila-nikoh munosabatlari, undagi ziddiyatlar, ajralishlar va uning oqibatlari bo‘yicha keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilgan. Pedagog olimlardan M.Y.Ayupova, Sh.M.Amirsaidova, U.Y.Fayziyeva, M.U.Hamidova, L.R.Mo‘minova, D.A.Nurkeldiyeva, L.Sh.Nurmuhamedova, M.P.Po‘latova, V.S. Raxmonova, Sh.T.Shermuhamedovalar tomonidan autizm spektrida buzilishi bo‘lgan va alohida ehtiyojga muhtoj bolalam ing o‘ziga xos xususiyatlari ilmiy tadqiq etilgan.

Muhokamalar va natijalar. Inklyuziv ta’lim zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, barcha bolalar uchun teng ta’lim imkoniyatlarini yaratishni nazarda tutadi. Ayniqsa, autizm spektr

buzilishlari bo‘lgan bolalarni umumiy ta’lim tizimiga integratsiya qilish muhim ijtimoiy-pedagogik muammo hisoblanadi [1].

Autizm ilk bor bolalik davridagi murakkab psixik rivojlanish buzilishi sifatida tavsiflangan bo‘lib, unda ijtimoiy aloqa, muloqot va xulq-atvor sohalarida o‘ziga xos cheklanishlar kuzatiladi [2]. Zamonaviy tadqiqotlar autizmni neyropsixologik rivojlanish buzilishi sifatida izohlaydi [8].

Shuningdek, autizmli bolalarda “theory of mind” – boshqalarning hissiy va kognitiv holatini tushunish qobiliyati yetishmasligi aniqlangan bo‘lib, bu ularning muloqotida jiddiy qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi [3].

Autizm atamasi fanga dastlab, bundan 40 yil oldin kirib kelgan. Ushbu atama birinchi bor shveysar psixiatri Eygen Bleyler tomonidan 1910- yilda shizofreniya kasalligining belgilaridan biri sifatida ishlatilgan. 1943-yilda esa ingliz psixiatri Leo Kenner davolash amaliyotida 11 bolaning xulq-atvori, yurish-turishidagi o‘xshash belgilarni kuzatib, “Ilk yoshdagi bolalar autizmi” atamasini fanga kiritgan. U kuzatgan barcha bolalardagi belgilar hozirgi kunda ham autizm belgilari sifatida o‘rganilmoqda. Faqatgina 1981-yildan boshlab “bolalar autizmi” mustaqil nuqson sifatida qabul etildi. Hozirgi kunda bolalar autizmi bosh miyaning rivojlanishidagi kamchiliklardan kelib chiqadigan mustaqil nuqson sifatida o‘rganilmoqda.

Xulosa. Olib borilgan nazariy va amaliy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’lim sharoitida autizm spektr buzilishlari bo‘lgan bolalarga korreksion-pedagogik yordam ko‘rsatish murakkab, ko‘p komponentli va tizimli yondashuvni talab etadi. Autizmli bolalarning rivojlanishidagi o‘ziga xosliklar – ijtimoiy kommunikatsiya buzilishlari, xulq-atvor stereotiplari hamda sensor integratsiya muammolari – ularni o‘qitish va tarbiyalash jarayonini individual yondashuv asosida tashkil etishni zaruratga aylantiradi.

Tadqiqot natijalari asosida shuni ta’kidlash mumkinki, an’anaviy pedagogik usullar autizmli bolalar bilan ishlashda yetarli darajada samarali emas. Shu bois, zamonaviy korreksion texnologiyalar, xususan, ABA (xulq-atvorni tahlil qilish), TEACCH (strukturali o‘qitish), PECS (alternativ kommunikatsiya tizimi) hamda sensor integratsiya terapiyasi – kompleks tarzda qo‘llanilganda yuqori natijadorlikni ta’minlaydi. Ushbu texnologiyalar bolalarda ijtimoiylashuv, kommunikativ ko‘nikmalar va mustaqil faoliyatni rivojlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, tadqiqot davomida korreksion yondashuv samaradorligi ko‘p jihatdan individual ta’lim dasturlarining sifatiga, pedagog va mutaxassislarning kasbiy kompetentligiga hamda ta’lim jarayonining to‘g‘ri tashkil etilishiga bog‘liq ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, multidisiplinar yondashuv, ya’ni pedagog, psixolog, logoped va ota-onalarning o‘zaro hamkorligi – bolalarning rivojlanishida barqaror ijobiy natijalarga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, inklyuziv ta’lim muhitining o‘zi ham muhim omil hisoblanadi. Ijobiy psixologik muhit, tengdoshlar bilan o‘zaro ta’sir, vizual va interaktiv vositalardan foydalanish autizmli bolalarning ta’lim jarayoniga moslashuvini sezilarli darajada yengillashtiradi. Raqamli texnologiyalar va interaktiv platformalarning joriy etilishi esa korreksion ishlarning samaradorligini yanada oshirish imkonini beradi.

Umuman olganda, inklyuziv ta’lim sharoitida autizm spektr buzilishlari bo‘lgan bolalar bilan ishlashda quyidagi ustuvor yo‘nalishlarga e’tibor qaratish zarur:

- individual yondashuv asosida ta’limni tashkil etish;
- zamonaviy korreksion texnologiyalarni integratsiyalash;
- pedagoglarning maxsus malakasini oshirish;
- ota-onalar bilan tizimli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;
- ta’lim jarayoniga innovatsion va raqamli vositalarni keng joriy etish.

Shu bilan birga, kelgusida ushbu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish, milliy ta’lim tizimiga moslashtirilgan korreksion dasturlarni ishlab chiqish hamda inklyuziv ta’lim amaliyotini takomillashtirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Adabiyotlar:

1. Цветкова Л.С. (ред.). Актуальные проблемы нейропсихологии детского возраста**.** – Москва: НПО «МОДЭК», 2001.
2. Asperger H. Die autistischen Psychopathen im Kindesalter**.** – Archiv für Psychiatrie und Nervenkrankheiten.
3. Baron-Cohen S. Without a theory of mind one cannot participate in a conversation // Cognition, 2007.
4. Frith U. What is Autism? // *Autism: Explaining the Enigma*. – Blackwell Publishing, 2003.
5. Gillberg C. Autism spectrum disorders // 16th World Congress of IACAPAP. – Darmstadt, 2004.

6. Никольская О.С., Баенская Е.Р., Либлинг М.М. Аутичный ребенок: пути помощи**.** – Москва, 2011.

7. Ремшмидт Х. Аутизм: клинические проявления, причины и лечение**.** – Москва: Медицина, 2003.

8. Симашкова Н.В. Расстройства аутистического спектра у детей**.** – Москва: Авторская академия, 2013.

9. Лебединский В.В. Нарушения психического развития в детском возрасте**.** – Москва, 2008.

10. Муминова Л.Р. Аутизм синдроми, унинг сабаблари, турлари ва бартараф этиш методикалари**.** – Тошкент: Spektrum Media Group, 2015.

UO’K 37.026.6

METHODS OF TEACHING VOCABULARY TO A2 LEVEL STUDENTS IN INCLUSIVE EDUCATION

Jalg’asov Nurjan Maratovich,
associate professor at NSPI named after Ajiniyaz, PhD,
Nukus, Uzbekistan,
jnurik83@mail.ru,
Azatbayeva Miyasar Satbayevna,
post-graduate student at NSPI named after Ajiniyaz,
Nukus, Uzbekitsan,
miyasarazatbaeva@gmail.com,

This article explores effective methods for teaching vocabulary to A2 level students within inclusive education settings. It examines strategies that cater to diverse learning needs, emphasizing interactive, student-centered, and multisensory approaches. The study highlights the importance of adapting teaching techniques to accommodate learners with different abilities, promoting engagement, retention, and language development. Practical classroom applications, including visual aids, collaborative activities, and technology-assisted instruction, are analyzed to demonstrate how vocabulary acquisition can be enhanced for all students in inclusive classrooms. The findings aim to provide educators with actionable insights for creating supportive and effective learning environments.

Key words: *Vocabulary teaching, A2 level, inclusive education, language learning strategies, differentiated instruction, multisensory learning, student-centered approach.*

МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ЛЕКСИКЕ УЧАЩИХСЯ УРОВНЯ А2 В УСЛОВИЯХ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

В этой статье рассматриваются эффективные методы обучения лексике учащихся уровня А2 в условиях инклюзивного образования. В ней рассматриваются стратегии, учитывающие различные потребности в обучении, с акцентом на интерактивный, ориентированный на учащихся и мультисенсорный подходы. В исследовании подчеркивается важность адаптации методов обучения для учащихся с различными способностями, способствуя вовлечению, удержанию и развитию языка. Анализируются практические применения в классе, включая наглядные пособия, совместные занятия и обучение с использованием технологий, чтобы продемонстрировать, как можно улучшить усвоение словарного запаса всеми учащимися в инклюзивных классах. Полученные результаты призваны дать преподавателям практическую информацию для создания благоприятной и эффективной среды обучения.

Ключевые слова: *Обучение лексике, уровень А2, инклюзивное образование, стратегии изучения языка, дифференцированное обучение, мультисенсорное обучение, личностно-ориентированный подход.*

ИНКЛЮЗИВ ТАЪЛИМДА А2 ДАРАЖАЛИ ТАЛАБАЛАРГА СЎЗ БОЙЛИГИНИ ЎРГАТИШ УСУЛЛАРИ

Ушбу мақолада инклюзив таълимда А2 даражасидаги талабаларга сўз бойлигини ўргатишнинг самарали усуллари муҳокама қилинади. У интерфаол, талабаларга йўналтирилган ва мултисенсорли ёндашувларга еътибор қаратиб, турли хил таълим еҳтиёжларини қондирадиган стратегияларни ўрганади. Тадқиқот турли қобилиятларга ега бўлган талабалар учун ўқитиш усулларини мослаштириш, тилни жалб қилиш, сақлаш ва ривожлантиришга ҳисса қўшиш муҳимлигини таъкидлайди. Амалий синф дастурлари, шу жумладан кўргазмали қуроллар, ҳамкорликдаги фаолият ва технологияга асосланган таълим, инклюзив синфлардаги барча талабалар томонидан сўз бойлигини қандай яхшилаш мумкинлигини намойиш етиш учун таҳлил қилинади. Олинган натижалар ўқитувчиларга қулай ва самарали ўқув муҳитини яратиш учун амалий маълумот беришга мўлжалланган.

Калит сўзлар: *луғат ўқитиш, А2 даражаси, инклюзив таълим, тил ўрганиш стратегияси, табақалаштирилган таълим, мултисенсорй таълим, талаба-марказли ёндашув.*

Introduction. Vocabulary plays a fundamental role in second language acquisition, serving as the foundation for communication, comprehension, and academic success. For A2 level learners—who are at the elementary stage of language development—vocabulary learning is essential to progress toward higher levels of proficiency. In inclusive education settings, where students with diverse learning abilities and needs study together, vocabulary teaching requires specially designed methods that ensure equal participation and meaningful learning for all. Inclusive education promotes the idea that every student, regardless of physical, cognitive, or linguistic differences, deserves access to quality instruction. Therefore, language teachers must adopt flexible, learner-centered strategies that respect individual differences while maintaining the integrity of language learning goals. Traditional methods that rely solely on rote memorization or translation are often insufficient for inclusive classrooms; instead, more dynamic and multisensory approaches, such as visual aids, interactive games, technology-based tools, and contextualized activities, are required to engage all learners effectively. Research in recent years has emphasized the significance of creating a supportive and motivating environment where learners can associate new words with real-life contexts, emotions, and experiences. The teacher’s role in inclusive vocabulary instruction extends beyond providing input; it includes scaffolding learning, facilitating collaboration, and offering individualized support to ensure comprehension and retention. Furthermore, the integration of digital technologies and adaptive tools has made it possible to personalize learning experiences according to each student’s pace and ability. Thus, this article aims to examine the most effective methods and strategies for teaching vocabulary to A2 level students in inclusive education, exploring practical ways to enhance motivation, participation, and long-term vocabulary mastery among diverse learners. Vocabulary learning is one of the most essential components of language acquisition, serving as the foundation upon which all communication skills are built. Without sufficient vocabulary knowledge, learners find it difficult to express ideas, understand texts, or engage in meaningful interaction. For A2 level students, who are at the elementary stage of language development, vocabulary instruction plays a crucial role in helping them transition from basic to more complex linguistic proficiency. In recent years, the emphasis on inclusive education has transformed the way teachers approach language teaching, as classrooms now consist of students with diverse linguistic, cognitive, and physical abilities. Inclusive education is based on the principle that every learner, regardless of their individual differences or learning challenges, has the right to access quality education and participate actively in the learning process. Therefore, teaching vocabulary in such settings requires flexible, adaptive, and student-centered methodologies that respond to varying learning styles and abilities. Traditional teaching approaches, which rely on rote memorization, translation, and teacher-centered instruction, often fail to meet the needs of all learners, especially those who require additional support or alternative learning strategies. In contrast, inclusive teaching methods emphasize interaction, collaboration, multisensory engagement, and the integration of modern educational technologies. These approaches create opportunities for students to learn through visual, auditory, and kinesthetic activities that make vocabulary acquisition more meaningful and enjoyable. Moreover, inclusive education promotes not only academic success but also social integration, empathy, and mutual respect among learners. In this context, the teacher’s role becomes that of a facilitator who designs lessons that cater to the diverse needs of students while maintaining clear learning objectives and fostering motivation. The integration of digital tools, visual supports, and cooperative learning tasks further strengthens vocabulary retention and student confidence. Therefore, this article aims to analyze the most effective methods for teaching vocabulary to A2 level students within inclusive education, highlighting strategies that enhance engagement, retention, and equal participation in the language learning process.

Literature review. Vocabulary development has long been considered a cornerstone of successful language acquisition, as it provides the foundation for communication and comprehension in both spoken and written contexts [1]. Nation (2001) emphasizes that vocabulary learning requires repeated exposure and active engagement in meaningful contexts to ensure long-term retention and practical application of new words [2]. Thornbury (2002) argues that vocabulary teaching should move beyond memorization and translation by incorporating communicative and contextualized techniques that promote learner autonomy and interaction [3]. Tomlinson (2014) highlights the importance of differentiated instruction in inclusive classrooms, where teachers must adapt materials and teaching methods to suit diverse learning needs, abilities, and preferences [4]. Gass and Selinker (2019) note that second language acquisition benefits greatly from interactive, learner-centered approaches that integrate both input and output activities, allowing students to internalize vocabulary through meaningful use [5]. Harmer (2015) supports the view that combining visual, auditory, and kinesthetic elements in vocabulary lessons increases learner engagement and motivation, particularly for students at beginner or A2 levels [6]. Ur (2012) further emphasizes the teacher’s role in facilitating vocabulary acquisition through careful planning, scaffolding, and providing multiple

opportunities for practice and recycling of new words [7]. Collectively, these studies underscore that effective vocabulary instruction in inclusive education settings must rely on adaptive, multisensory, and communicative strategies that foster active learning, collaboration, and equal participation among all learners.

Research methodology. The research employed a qualitative and quantitative mixed-methods approach to analyze effective strategies for teaching vocabulary to A2 level students in inclusive education environments. The study was conducted at an academic institution where learners with diverse abilities, including students with mild learning difficulties, studied together in English language classes. A total of 40 A2 level students participated, divided into two groups: an experimental group taught through inclusive, interactive, and multisensory techniques, and a control group instructed through traditional methods. Data collection tools included classroom observations, teacher interviews, student surveys, and vocabulary achievement tests administered before and after the intervention. The experimental lessons incorporated visual aids, role-playing, group discussions, flashcards, and digital applications to enhance vocabulary understanding and retention. Statistical analysis was used to compare pre-test and post-test results, while qualitative analysis focused on student engagement, motivation, and participation levels. Ethical considerations such as consent, anonymity, and respect for diverse learners’ needs were maintained throughout the study. The methodology aimed to identify how inclusive teaching practices influence vocabulary learning outcomes and to evaluate which techniques are most effective for supporting A2 level learners in inclusive classroom settings.

1-Table. Comparison of traditional and inclusive vocabulary teaching methods

Teaching Aspect	Traditional Method	Inclusive Method
Teaching Style	Teacher-centered, lecture-based	Learner-centered, interactive
Learning Activities	Memorization, translation, drills	Visual aids, games, group work, digital tools
Student Participation	Passive, limited engagement	Active, collaborative, diverse participation
Adaptation for Abilities	One-size-fits-all	Differentiated by needs and abilities
Learning Environment	Competitive and formal	Supportive and inclusive

This table illustrates the main differences between conventional vocabulary teaching and inclusive approaches, highlighting the importance of flexibility and learner engagement. Table 1 presents a comparative analysis of traditional and inclusive vocabulary teaching methods. The data clearly demonstrate that inclusive instruction offers more learner-centered and flexible approaches, while traditional methods tend to rely heavily on teacher control and memorization techniques. Inclusive methods emphasize interaction, collaboration, and adaptation to different learning needs, which create a more supportive and engaging classroom environment. This comparison highlights how inclusive education allows all students, including those with learning difficulties, to participate actively and progress according to their individual abilities.

2-Jadval. Results of vocabulary learning outcomes between control and experimental groups

Group	Number of Students	Average Pre-test Score	Average Post-test Score	Improvement Percentage
Control Group (Traditional)	20	55%	68%	+13%
Experimental Group (Inclusive)	20	54%	82%	+28%

This table shows that students taught through inclusive and multisensory methods achieved significantly higher vocabulary gains compared to those taught by traditional methods. Table 2 shows the results of vocabulary learning outcomes between the control and experimental groups. The experimental group, which received instruction through inclusive and multisensory methods, achieved significantly higher post-test scores compared to the control group taught with traditional techniques. The 28% improvement in the experimental group’s performance demonstrates the effectiveness of inclusive strategies in enhancing vocabulary retention and understanding. These findings confirm that when teaching methods are adapted to diverse learning styles and supported by interactive and technological tools, students become more motivated, confident, and successful in acquiring new vocabulary.

Research discussion. The findings of the research revealed that teaching vocabulary to A2 level students through inclusive and multisensory approaches significantly enhanced their engagement, comprehension, and retention compared to traditional instruction methods. Students in the experimental

group, who were exposed to varied visual, auditory, and kinesthetic activities, demonstrated higher motivation and greater improvement in vocabulary tests than those in the control group. The results showed that when lessons were adapted to meet different learning styles and abilities, students felt more confident and involved in the learning process. For instance, the use of flashcards, pictures, and multimedia presentations helped visual learners, while interactive games, pronunciation drills, and group discussions supported auditory and social learners. Additionally, incorporating movement-based and tactile activities such as matching games and object labeling proved especially beneficial for kinesthetic learners, helping them remember new words more effectively. Inclusive strategies also fostered collaboration and peer learning, as students with higher abilities supported their classmates through pair and group work, creating a positive classroom atmosphere based on mutual respect and cooperation. Teachers reported that differentiated lesson plans, clear instructions, and scaffolding techniques minimized learning barriers and improved participation among students with mild learning difficulties. The use of digital tools, including online quizzes and vocabulary apps, allowed students to practice independently at their own pace, reinforcing the inclusive nature of the learning environment. Furthermore, the qualitative data revealed that students expressed increased enthusiasm for vocabulary learning when lessons were linked to real-life contexts and personal experiences, which made the learning process more meaningful and memorable. These results align with previous studies emphasizing the importance of student-centered, technology-integrated, and adaptive teaching practices in inclusive education. Overall, the discussion highlights that successful vocabulary instruction for A2 level learners in inclusive classrooms depends on creating flexible, engaging, and supportive learning conditions that accommodate individual differences while promoting collective growth and language proficiency. The discussion of the research findings reveals that inclusive vocabulary teaching methods significantly enhance both learning outcomes and student engagement among A2 level learners. The experimental group that experienced multisensory, interactive, and differentiated instruction showed greater progress in vocabulary acquisition compared to the control group that received traditional, lecture-based teaching. The inclusion of visual aids, real-life contexts, and collaborative activities allowed students to connect new words with meaningful experiences, leading to deeper understanding and longer retention. Students were more motivated when they could participate in hands-on activities such as role plays, picture-based storytelling, and digital flashcard exercises, which catered to different learning preferences. Inclusive education principles ensured that all learners, regardless of their learning pace or ability level, were able to contribute actively during lessons. Teachers noted that when lessons were adapted to individual needs—such as providing simplified instructions, visual supports, and peer assistance—students with learning difficulties showed noticeable improvement and increased confidence. Additionally, the use of technology tools such as interactive quizzes, online dictionaries, and educational applications provided students with opportunities for self-paced learning and immediate feedback, further enhancing their vocabulary development. The positive classroom atmosphere created through cooperative learning fostered empathy and mutual support, where stronger learners naturally helped peers who required additional assistance. These findings support the idea that inclusive teaching benefits all students, not only those with special educational needs, by encouraging collaboration, creativity, and social learning. Furthermore, the results align with existing literature emphasizing the importance of differentiated and learner-centered approaches in language education. It can be concluded that the effectiveness of vocabulary teaching in inclusive environments depends largely on the teacher’s ability to integrate visual, auditory, and kinesthetic elements into lessons while ensuring that every learner has an equal opportunity to succeed. Hence, inclusive vocabulary teaching not only strengthens linguistic skills but also promotes emotional, social, and cognitive development among A2 level students, making it a vital component of modern language education. The results of this study clearly indicate that inclusive vocabulary teaching methods produce more effective and sustainable learning outcomes for A2 level students compared to traditional instruction. In inclusive classrooms, where students possess different learning abilities, backgrounds, and interests, the teacher’s ability to adapt and personalize instruction becomes a decisive factor in achieving success. The experimental group’s improved test results and observed engagement demonstrated that multisensory and interactive teaching methods—such as using visual aids, technology-based applications, real-life examples, and cooperative group work—enhanced comprehension and memory retention. Students were more attentive and enthusiastic when learning activities allowed them to see, hear, and use new vocabulary in meaningful communication rather than through mechanical memorization.

Conclusion. The research concludes that vocabulary teaching for A2 level students in inclusive education environments is most effective when based on learner-centered, differentiated, and multisensory approaches. The study demonstrated that using visual, auditory, and kinesthetic methods not only enhances vocabulary retention but also increases motivation, participation, and confidence among students with

diverse learning needs. Inclusive practices—such as group collaboration, digital learning tools, and real-life contextualization—help bridge gaps between learners of different abilities and create a supportive classroom atmosphere where every student can succeed. Traditional, one-size-fits-all teaching methods proved less effective in engaging all learners, whereas adaptive strategies allowed each student to learn at their own pace and through their preferred learning style. Therefore, teachers in inclusive settings should integrate interactive activities, technological resources, and differentiated materials to make vocabulary instruction accessible and engaging for all. The findings suggest that inclusive education, when supported by thoughtful and flexible teaching methods, promotes not only linguistic competence but also social inclusion, empathy, and cooperative learning among A2 level students. The findings of this research confirm that inclusive teaching methods significantly improve the vocabulary acquisition process for A2 level students by creating a supportive, interactive, and motivating learning environment. Unlike traditional teacher-centered approaches, inclusive education emphasizes the individuality of each learner, ensuring that differences in ability, learning style, and pace are not seen as barriers but as opportunities to enrich the classroom experience. The study demonstrated that when vocabulary lessons incorporate multisensory activities—such as visual aids, listening tasks, movement-based exercises, and digital tools—students develop stronger comprehension, better memory retention, and higher levels of participation. These inclusive techniques also foster social skills like collaboration, empathy, and mutual respect, which are vital in modern education.

References:

1. Nation I. S. P. (2001). Learning Vocabulary in Another Language. Cambridge University Press.
2. Thornbury S. (2002). How to Teach Vocabulary. Pearson Education Limited.
3. Tomlinson C. A. (2014). The Differentiated Classroom: Responding to the Needs of All Learners. ASCD.
4. Gass S. M., & Selinker, L. (2019). Second Language Acquisition: An Introductory Course. Routledge.
5. Harmer J. (2015). The Practice of English Language Teaching. Pearson Education.
6. Ur P. (2012). A Course in Language Teaching: Practice and Theory. Cambridge University Press.
7. Richards J. C., & Renandya W. A. (2002). Methodology in Language Teaching: An Anthology of Current Practice. Cambridge University Press.

INKLYUZIV TA’LIMNI JORIY ETISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING NAZARIY ASOSLARI

Bakayeva Nilufar Baxriddinovna,
Buxoro shahar 19-maktab direktori

Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan inkluziv ta’limni joriy etishda kompetensiyaviy yondashuvning nazariy va metodologik asoslari tadqiq etilgan. Inkluziv ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning shakllanishi lozim bo‘lgan kompetensiyalari, ularning o‘zaro aloqadorligi hamda ta’lim sifatini oshirishdagi ochiq va yopiq mexanizmlari tahlil qilingan. Maqolada imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiy moslashuvi uchun zarur bo‘lgan hayotiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari yoritilgan. Shuningdek, xalqaro tajriba va milliy ta’lim standartlari asosida inkluziv muhitni yaratishda akmeologik va tizimli yondashuvlarning o‘rni asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *inklyuziv ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik kompetentlik, ijtimoiy integratsiya, imkoniyati cheklangan bolalar, differensial ta’lim, ta’lim paradigmasi, metodologiya, inklyuziv muhit, hayotiy ko‘nikmalar.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА ПРИ ВНЕДРЕНИИ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

В данной статье исследованы теоретические и методологические основы компетентностного подхода к внедрению инклюзивного образования как одного из приоритетных направлений современной системы образования. Проанализированы компетенции, которые должны формироваться у учителей и обучающихся в процессе инклюзивного образования, их взаимосвязь, а также открытые и закрытые механизмы повышения качества образования. В статье освещены педагогические условия развития жизненных компетенций, необходимых для социальной адаптации детей с ограниченными возможностями. Кроме того, обоснована роль акмеологического и системного подходов в создании инклюзивной среды на основе международного опыта и национальных образовательных стандартов.

Ключевые слова: *инклюзивное образование, компетентностный подход, педагогическая компетентность, социальная интеграция, дети с ограниченными возможностями, дифференцированное обучение, образовательная парадигма, методология, инклюзивная среда, жизненные навыки.*

THE THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE COMPETENCY-BASED APPROACH IN THE IMPLEMENTATION OF INCLUSIVE EDUCATION

This article examines the theoretical and methodological foundations of the competency-based approach in implementing inclusive education, which is considered one of the priority directions of the modern education system. The study analyzes the competencies that should be developed in teachers and students within the inclusive education process, their interrelationship, as well as the open and closed mechanisms for improving educational quality. The article also highlights the pedagogical conditions necessary for developing life competencies required for the social adaptation of children with disabilities. Furthermore, the role of acmeological and systemic approaches in creating an inclusive environment is substantiated based on international experience and national educational standards.

Keywords: *inclusive education, competency-based approach, pedagogical competence, social integration, children with disabilities, differentiated instruction, educational paradigm, methodology, inclusive environment, life skills.*

Kirish. Zamonaviy dunyoda ta’lim tizimining asosiy vazifasi nafaqat bilim berish, balki shaxsni jamiyatning faol va mustaqil a’zosiga aylantirishdan iboratdir. Ayniqsa, inklyuziv ta’limni joriy etish jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslarini o‘rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri sanaladi. Inklyuziv ta’lim — bu har qanday bolaning jismoniy, intellektual, ijtimoiy, hissiy yoki boshqa xususiyatlaridan qat’i nazar, umumta’lim maktablarida teng huquqli bilim olishini ta’minlaydigan jarayondir. Ushbu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun an’anaviy "bilim-

ko‘nikma-malaka" (BKM) paradigmasidan voz kechib, shaxsning o‘zgaruvchan vaziyatlarda bilimlarini samarali qo‘llay olish qobiliyatini ifodalovchi kompetensiyaviy yondashuvga o‘tish talab etiladi.

Dolzarblik. Nazariy jihatdan kompetensiyaviy yondashuv inklyuziv ta’lim sharoitida o‘quvchining shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini belgilashda asosiy o‘rin tutadi. Bu yondashuvning mohiyati shundaki, ta’lim natijasi sifatida o‘quvchi tomonidan o‘zlashtirilgan ma’lumotlar miqdori emas, balki uning ijtimoiy va kasbiy hayotda duch keladigan muammolarni hal qilishga tayyorligi olinadi. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun bu ko‘proq "hayotiy kompetensiya" (life skills) tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lib, u o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish, muloqotga kirishish, hissiyotlarni boshqarish va qaror qabul qilish kabi hayotiy zaruriy qobiliyatlarni o‘z ichiga oladi. Nazariy asoslarda kompetensiya tushunchasi ko‘p qirrali bo‘lib, u kognitiv, motivatsion, axloqiy va ijtimoiy tarkibiy qismlardan tashkil topadi. Inklyuziv ta’limda ushbu tarkibiy qismlar har bir bolaning individual ehtiyojlariga moslashtirilishi lozim. Pedagogika fanida kompetensiyaviy yondashuvning shakllanishi L.S.Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u bolaning mavjud imkoniyatlari va pedagog ko‘magida erishishi mumkin bo‘lgan natijalar o‘rtasidagi farqni aniqlashga xizmat qiladi. Inklyuziv sharoitda bu nazariya o‘quvchining individual rivojlanish dasturini tuzishda nazariy poydevor bo‘ladi.

Kompetensiyaviy yondashuvning inklyuziv ta’limdagi ahamiyati pedagogning kasbiy tayyorgarligida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Inklyuziv sinfda ishlaydigan o‘qituvchi nafaqat o‘z fanini bilishi, balki maxsus pedagogika va psixologiya asoslarini egallagan, bolalarning individual farqlarini tushunadigan va ularga moslashuvchan yondasha oladigan "inklyuziv kompetentlik"ka ega bo‘lishi shart. Bu kompetentlik tarkibiga emansipatsiya (ozod qilish), tolerantlik, empatiya va hamkorlikda ishlash qobiliyatlari kiradi. Nazariy manbalarda ta’kidlanishicha, o‘qituvchining kompetentligi o‘quv jarayonini differensiallashtirish va individuallashtirish qobiliyati orqali baholanadi. Masalan, o‘qituvchi bir vaqtning o‘zida ham me’yorda rivojlanayotgan, ham alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan o‘quvchilar uchun umumiy dars maqsadini saqlagan holda, topshiriqlarni murakkablik darajasi bo‘yicha taqsimlay olishi kerak. Bu jarayonda ta’lim texnologiyalari, xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va yordamchi texnik vositalardan foydalanish kompetensiyasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Inklyuziv ta’limning nazariy modellari qatoriga "tibbiy model"dan "ijtimoiy model"ga o‘tishni kiritish mumkin. Agar tibbiy modelda asosiy e’tibor bolaning nuqsonini davolashga qaratilgan bo‘lsa, ijtimoiy modelda va kompetensiyaviy yondashuvda asosiy e’tibor to‘siqlarni bartaraf etish va bolaning ijtimoiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga qaratiladi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim muhitini "bolaga moslashtirish" tamoyilini (1-rasmga qarang) ilgari suradi.

1-rasm. Ta’lim muhitini bolaga moslashtirish tamoyili

Mazkur ta’lim muhitini “bolaga moslashtirish” tamoyilining nazariy va amaliy asoslarini kompleks tarzda yoritib beradi. Unda inkluziv ta’limning asosiy maqsadi sifatida har bir bolaning individual ehtiyojlari, qobiliyatlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda xavfsiz, qulay hamda qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim muhitini yaratish zarurligi ilmiy jihatdan asoslangan. Model markazida “bolaga moslashtirilgan ta’lim muhiti” tushunchasi joylashtirilgan bo‘lib, u pedagogik jarayonning barcha tarkibiy qismlarini bolaning rivojlanish ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etishni nazarda tutadi. Rasmda ta’lim muhitining bir nechta o‘zaro integratsiyalashgan komponentlari aks ettirilgan. Jumladan, jismoniy muhit komponenti nogironligi bo‘lgan bolalar uchun moslashtirilgan infratuzilma, ergonomik jihozlar, xavfsizlik va sanitariya talablariga javob beruvchi sharoitlarni yaratishga qaratilgan. Bu yondashuv universal dizayn tamoyillari asosida barcha bolalar uchun teng imkoniyatlarni ta’minlashga xizmat qiladi. Psixologik muhit esa bolani hurmat qilish,

qo‘llab-quvvatlash, ijobiy emotsional atmosfera yaratish hamda stresssiz ta’lim jarayonini tashkil etishga yo‘naltirilgan. Pedagogik muhit komponentida differensial va individual yondashuv asosida o‘qitish metodlari, interaktiv texnologiyalar hamda o‘quvchilarning muvaffaqiyatini rag‘batlantirish mexanizmlari yoritilgan. Bu esa har bir bolaning ta’lim olish sur’ati va imkoniyatlariga mos metodlarni qo‘llash orqali inkluziv ta’lim samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Axborot muhiti komponentida esa ko‘rgazmali, raqamli va multisensor vositalardan foydalanish orqali o‘quv materiallarining barcha o‘quvchilar uchun tushunarli va qulay bo‘lishi ta’minlanadi.

Shuningdek, modelda ijtimoiy muhit va emotsional qo‘llab-quvvatlash alohida komponent sifatida ko‘rsatilgan. Ijtimoiy muhit o‘zaro hurmat, hamkorlik, diskriminatsiyaning oldini olish va jamiyat bilan integratsiyani rivojlantirishga xizmat qilsa, emotsional qo‘llab-quvvatlash bolaning ehtiyoj va hissiyotlarini anglash, oila va maktab hamkorligini mustahkamlash hamda o‘quvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishga qaratilgan.

Mazkur jarayonning ilmiy ahamiyati shundaki, u inkluziv ta’limni tashkil etishda “muhit bolaga emas, bola uchun moslashtiriladi” degan zamonaviy pedagogik paradigmani asoslaydi. Ushbu yondashuv bolaning individual rivojlanish trayektoriyasini qo‘llab-quvvatlash, uning ijtimoiy moslashuvi va mustaqil hayotga tayyorligini ta’minlashning samarali mexanizmlarini ochib beradi. Ushbu tamoyilning amaliy ahamiyati esa ta’lim muassasalarida universal, moslashuvchan va insonparvar inkluziv muhitni shakllantirish orqali barcha bolalar uchun sifatli ta’lim imkoniyatlarini yaratishga xizmat qilishida namoyon bo‘ladi.

Inkluziv ta’limning metodologik asosi sifatida tizimli yondashuv ham muhimdir. Bunda ta’lim jarayoni o‘quvchi, o‘qituvchi, ota-ona va ijtimoiy muhitning uzviy hamkorligi sifatida ko‘riladi. Kompetensiyaviy yondashuv ushbu sub’ektlar o‘rtasidagi muloqotni samarali tashkil etishni talab qiladi. Bolada ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun avvalo unda o‘ziga bo‘lgan ishonchni uyg‘otish, tengdoshlari bilan muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish lozim. Bunga erishish uchun pedagogik jarayonda interfaol metodlar, loyihaviy o‘qitish va "ustoz-shogird" tizimidan foydalaniladi.

Inklyuziv ta’limning nazariy asoslarida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim (person-centered education) kontsepsiyasi ham markaziy o‘rin egallaydi. Ushbu kontsepsiyaga ko‘ra, ta’limning maqsadi bolani standart qoliplarga solish emas, balki uning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olgan holda maksimal darajada kamol toptirishdir. Kompetensiyaviy yondashuv bu jarayonda "o‘lchov asbobi" vazifasini bajaradi, ya’ni bola qaysi darajada jamiyatga integratsiyalasha olganligi uning shakllangan kompetensiyalari orqali aniqlanadi. Mazkur yondashuvda baholash tizimi ham o‘zgaradi. An’anaviy baholashdan voz kechilib, o‘quvchining kechagi natijasi bilan bugungi natijasi o‘rtasidagi farqni (dinamikani) baholashga asoslangan formativ baholash tizimi joriy etiladi. Bu esa alohida ehtiyojli bolalarda o‘qishga bo‘lgan motivatsiyani pasaytirmaslikka xizmat qiladi. Nazariy jihatdan, inklyuziv ta’limda kompetensiyalarni tasniflashda universal va maxsus kompetensiyalar ajratib ko‘rsatiladi. Universal kompetensiyalar barcha o‘quvchilar uchun umumiy bo‘lsa (masalan, o‘qish, yozish, hisoblash), maxsus kompetensiyalar ma’lum bir nuqson turi bilan bog‘liq bo‘lgan (masalan, ko‘zi ojiz bolalar uchun Brayl yozuvida o‘qish yoki eshitishida nuqsoni borlar uchun ishora tili) ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Kompetensiyaviy yondashuvning yana bir muhim jihati - bu ta’limning hayotiyligi. O‘quvchi maktabda olgan bilimlarini kundalik hayotida ishlata olishi kerak. Bu ayniqsa autizm spektri buzilgan yoki aqliy rivojlanishi biroz orqada qolgan bolalar uchun o‘ta muhimdir. Ularda "ijtimoiy moslashuv kompetensiyasi"ni shakllantirish maqsadida ta’lim jarayoni real hayotiy vaziyatlarga yaqinlashtiriladi.

Pedagogik tadqiqotlarda kompetensiyaviy yondashuvning axloqiy-estetik asoslariga ham alohida e’tibor qaratiladi. Inklyuziv ta’lim shunchaki texnik jarayon emas, balki jamiyatning insonparvarlik darajasini ko‘rsatuvchi ma’naviy hodisadir. Bunda o‘quvchilarda "bag‘rikenglik kompetensiyasi"ni shakllantirish - boshqalarning farqliligini qabul qilish, yordamga muhtojlarga ko‘maklashish va jamoada hamma teng ekanligini anglash kabi sifatlarni tarbiyalashni ko‘zda tutadi. Bu jarayonda maktab ma’muriyati, o‘qituvchilar va ota-onalarning birdamligi o‘ta muhim. Shuningdek, inklyuziv ta’limni huquqiy-nazariy jihatdan asoslashda BMTning "Nogironlar huquqlari to‘g‘risida"gi konvensiyasi va "Salamanka deklaratsiyasi" kabi hujjatlar poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu hujjatlarda ta’limning hamma uchun ochiqligi kompetensiyaviy rivojlanishning asosi sifatida keltirilgan. Kompetensiyaviy yondashuvning nazariy modellarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’lim samaradorligi o‘quv dasturlarining moslashuvchanligiga bog‘liq. "Universal Design for Learning" (O‘qitishning universal dizayni) tamoyili bunga yorqin misol bo‘la oladi. Bu tamoyilga ko‘ra, ta’lim materiallari shunday ishlab chiqilishi kerakki, u hamma uchun (ham sog‘lom, ham imkoniyati cheklangan bolalar uchun) tushunarli va qulay bo‘lsin. Masalan, matnli ma’lumotlarning audio yoki video shakllari bilan to‘ldirilishi turli idrok etish xususiyatiga ega bolalarning kompetensiyalarini birdek rivojlantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy o‘zbek pedagogikasida ham inklyuziv ta’limni takomillashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi qonuni va tegishli prezident farmonlarida inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari belgilab berilgan. Kompetensiyaviy yondashuv bu strategiyaning o‘zagini tashkil etadi. Maqsad - har bir bolaning jamiyatda o‘z o‘rnini topishi uchun zarur bo‘lgan tayanch kompetensiyalarni shakllantirishdir. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, inklyuziv ta’limda muvaffaqiyatga erishish uchun pedagoglar jamoasi "multipofessional hamkorlik" modelida ishlashi kerak. Bunda umumta’lim o‘qituvchisi, maxsus pedagog (defektolog), psixolog, tyutor (yordamchi o‘qituvchi) va ota-onalar birgalikda bolaning kompetensiyaviy profilini yaratadilar. Ushbu profil bolaning kuchli tomonlarini aniqlash va zaif tomonlarini kompensatsiya qilishga yo‘naltiriladi. Nazariy jihatdan bu "resursli yondashuv" deb atalib, u bolaning nuqsoniga emas, balki uning imkoniyatlariga tayanishni anglatadi. Inklyuziv ta’limda kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari shuni tasdiqlaydiki, ta’lim jarayoni dinamik va transformatsiyalanuvchi xarakterga ega. U doimiy ravishda jamiyat ehtiyojlari va fan-texnika taraqqiyotiga mos ravishda yangilanib boradi. Shunday qilib, inklyuziv ta’limda kompetensiyaviy yondashuv — bu nafaqat metodika, balki yangi pedagogik falsafa bo‘lib, u inson qadr-qimmati, teng huquqlilik va har bir shaxsning cheksiz imkoniyatlariga ishonch tamoyillariga asoslanadi. Kelajakda ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlar raqamli ta’lim muhitida inklyuziv kompetensiyalarni rivojlantirish va masofaviy inklyuziv ta’lim modellarini yaratish bilan bog‘liq bo‘lishi kutilmoqda. Bu esa ta’lim tizimining yanada ochiq va demokratik bo‘lishini ta’minlaydi.

Inklyuziv ta’lim muhitida kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishda pedagogik diagnostikaning o‘rni ham beqiyosdir. Diagnostika nafaqat bolaning bilim darajasini, balki uning ijtimoiy-psixologik tayyorgarligini, hissiy holatini va muloqot qilish qobiliyatini ham qamrab olishi lozim. Bu nazariy jihatdan "ekosistemali yondashuv" deb ataladi, bunda bola o‘zini o‘rab turgan muhit bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganiladi. Inklyuziv sinflarda o‘quvchilarning bir-biridan o‘rganishi (peer learning) ham kompetensiyalarni shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Sog‘lom bolalar hamdardlik va yordam berish ko‘nikmalarini egallasalar, alohida ehtiyojli bolalar o‘z tengdoshlaridan ijtimoiy xulq-atvor namunalarini o‘zlashtiradilar. Nazariy qarashlarda bu jarayon "ijtimoiy o‘rganish nazariyasi" (A.Bandura) orqali asoslanadi. Shunday qilib, inklyuziv ta’limda kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari ko‘p qirrali bo‘lib, u falsafiy, psixologik, pedagogik va huquqiy jihatlarni o‘zida mujassam etadi. Ushbu asoslarni chuqur tushunish va amaliyotda to‘g‘ri qo‘llash har bir bolaning sifatli ta’lim olish va jamiyatda o‘z salohiyatini namoyon etish huquqini kafolatlaydi. Ta’lim tizimidagi bunday islohotlar pirovard natijada inson kapitalining rivojlanishiga va ijtimoiy barqarorlikning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Kompetensiyaviy yondashuv inklyuziv ta’limning shunchaki bir qismi emas, balki uning muvaffaqiyatini belgilovchi bosh omildir. Zero, bilim hamma narsa emas, balki o‘sha bilim bilan nima qila olish - hayotning haqiqiy imtihonidir.

O‘rganishlar va adabiyotlar tahlili asosida inkluziv ta’limni joriy etishda kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslarini quyidagicha talqin etdik (2-rasmga qarang).

2-rasm. Inkluziv ta’limni joriy etishda kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari

Inklyuziv ta’limni joriy etishda kompetensiyaviy yondashuv zamonaviy pedagogika va ta’lim menejmentining ustuvor metodologik yo‘nalishlaridan biri sifatida muhim ilmiy-amaliy аҳамият kasb etadi. Mazkur yondashuv ta’lim jarayonini faqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish bilan cheklab qolmasdan, balki o‘quvchilarda real hayotiy vaziyatlarda mustaqil faoliyat yurita olish, muammolarni hal qilish, ijtimoiy moslashuv va kommunikativ hamkorlik kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltiriladi. Shu jihatdan kompetensiyaviy yondashuv inklyuziv ta’limning mazmun-mohiyatini zamonaviy ta’lim paradigmasi asosida qayta talqin etishga xizmat qiladi.

Mazkur yondashuvning ilmiy аҳамияти shundaki, u inklyuziv ta’lim jarayonida o‘qituvchi, o‘quvchi va ta’lim muhiti o‘rtasidagi o‘zaro integratsiyani tizimli ravishda asoslaydi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida inklyuziv ta’limning pedagogik, psixologik, ijtimoiy va akmeologik komponentlari yagona metodologik tizim sifatida tadqiq qilinadi. Natijada imkoniyati cheklangan bolalarni ta’lim jarayoniga samarali integratsiya qilish, ularning individual ehtiyojlarini aniqlash va rivojlantirishning innovatsion mexanizmlari ishlab chiqiladi. Ushbu yondashuv shaxsga yo‘naltirilgan, differensial va adaptiv ta’lim texnologiyalarining ilmiy asoslarini boyitadi hamda inklyuziv pedagogikaning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Kompetensiyaviy yondashuvning amaliy аҳамияти esa ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, barcha o‘quvchilar uchun teng imkoniyat yaratish va ijtimoiy adolat tamoyillarini ta’minlash bilan belgilanadi. Ushbu yondashuv asosida o‘qituvchilarning pedagogik kompetentligi, kommunikativ madaniyati va refleksiv faoliyati rivojlanadi, o‘quvchilarda esa hayotiy ko‘nikmalar, mustaqil fikrlash va ijtimoiy faollik shakllanadi. Natijada inklyuziv ta’lim muhiti vujudga kelib, o‘quvchilarning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi ta’minlanadi.

Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv inklyuziv ta’limni boshqarish jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalar, raqamli monitoring, individual rivojlanish dasturlari va differensial baholash tizimlarini joriy etish imkonini beradi. Bu esa ta’lim sifatini nazorat qilish, o‘quvchilarning rivojlanish dinamikasini baholash va pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, xalqaro tajriba va milliy ta’lim standartlari integratsiyasi asosida inklyuziv muhitni yaratishda kompetensiyaviy yondashuv muhim metodik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Umuman olganda, kompetensiyaviy yondashuv inklyuziv ta’lim tizimining nazariy-metodologik poydevorini mustahkamlash, ta’lim jarayonini insonparvarlashtirish hamda ijtimoiy faol, raqobatbardosh va hayotiy kompetensiyalarga ega shaxsni tarbiyalashda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, inklyuziv ta’limni joriy etishda kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari zamonaviy pedagogikaning eng ilg‘or g‘oyalarini o‘zida birlashtirgan. U o‘qituvchidan yuksak professionallikni, o‘quvchidan esa faollik va moslashuvchanlikni talab qiladi. Ushbu tizimning nazariy jihatdan mustahkam bo‘lishi amaliyotdagi xatolarni kamaytirishga va har bir bolaning shaxs sifatida kamol topishiga imkon beradi. Ta’limdagi kompetensiyaviy yondashuv insonparvarlik tamoyillarini amalga oshirishning eng samarali mexanizmi bo‘lib, u inklyuziv jamiyat qurish yo‘lidagi muhim qadamdir. Biz o‘rganayotgan nazariy asoslar kelajakda yanada takomillashib, inklyuziv ta’limni jahon standartlari darajasiga ko‘tarishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Amonashvili Sh. A. (1990). Pedagogika sotrudnichestva. Prosveshcheniye.
2. Djalolova S. (2021). Inklyuziv ta’limda kompetensiyaviy yondashuvning metodologik asoslari. O‘zbekiston pedagogikasi jurnali, 3(2), 45-52.
3. UNESCO. (1994). The Salamanca Statement and Framework for Action on Special Needs Education. UNESCO Publishing.
4. Vygotskiy L. S. (2005). Psixologiya razvitiya cheloveka. Smisl.
5. Hordiyev A. N. (2018). Kompetentnostniy podxod v obrazovanii: Teoriya i praktika. Nauka.
6. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonuni. (2020).
7. Zimnyaya I. A. (2003). Klyuchevыe kompetensii — novaya paradigma rezultata obrazovaniya. Visshee obrazovanie segodnya, (5), 34-42.
8. Booth T., & Ainscow M. (2002). Index for Inclusion: Developing learning and participation in schools. CSIE.
9. Muminova, L. R. (2019). Inklyuziv ta’lim: muammo va yechimlar. Fan va texnologiya.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son "Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Qarori. (2020).

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHISINING METODIK TAYYORGARLIGINI INKLYUZIV TA’LIM SHAROITIDA TAKOMILLASHTIRISH

Raximov Zokir Toshtemirovich,
pedagogika fanlari doktori (DSc), Renessans ta’lim universiteti professori
z_raximov@renessans-edu.uz

Inklyuziv ta’lim sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining metodik tayyorgarligini rivojlantirish zamonaviy pedagogika tizimining dolzarb masalalaridan biridir. Ushbu jarayon o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini oshirish, maxsus ehtiyojli bolalar bilan samarali ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishni taqozo etadi. Maqolada inklyuziv ta’lim mazmuni, metodik tayyorgarlikning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar hamda empatiya va tolerantlikni rivojlantirish omillari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *inklyuziv ta’lim, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, metodik tayyorgarlik, maxsus ehtiyoj, pedagogik texnologiya, kompetensiya.*

РАЗВИТИЕ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В УСЛОВИЯХ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Развитие методической подготовки будущего учителя начальных классов в условиях инклюзивного образования является одной из актуальных задач современной педагогики. Этот процесс направлен на повышение профессиональной компетентности педагога и формирование умений эффективно работать с детьми с особыми образовательными потребностями. В статье раскрываются сущность инклюзивного образования, теоретические основы и практические механизмы методической подготовки. Также анализируются инновационные педагогические технологии, интерактивные методы, эмпатия и толерантность.

Ключевые слова: *инклюзивное образование, учитель начальных классов, методическая подготовка, особые потребности, педагогические технологии, компетентность.*

DEVELOPING THE METHODOLOGICAL TRAINING OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS IN THE CONTEXT OF INCLUSIVE EDUCATION

Developing the methodological training of future primary school teachers in the context of inclusive education is one of the key challenges of modern pedagogy. This process aims to enhance teachers’ professional competence and develop skills for effectively working with students with special educational needs. The article discusses the concept of inclusive education, the theoretical foundations, and the practical mechanisms of methodological preparation. It also analyzes innovative teaching technologies, interactive methods, and the development of empathy and tolerance.

Keywords: *inclusive education, primary school teacher, methodological training, special needs, teaching technology, competence.*

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimida inklyuzivlik tamoyili jahon miqyosida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Inson huquqlarini e’tirof etish, teng imkoniyatlarni ta’minlash hamda har bir bolaning ta’lim olish huquqini ro‘yobga chiqarish zamonaviy demokratik jamiyatning asosiy mezonlaridan biri sanaladi. Inklyuziv ta’lim tizimi esa nafaqat alohida ehtiyojga ega bo‘lgan bolalar, balki barcha o‘quvchilar uchun qulay va samarali ta’lim muhitini yaratishga xizmat qiladi. Shu bois inklyuziv sharoitda faoliyat olib boradigan o‘qituvchining metodik tayyorgarligi bugungi pedagogik amaliyotning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Inklyuziv ta’lim — har bir bolaning individual xususiyatlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan tizim bo‘lib, unda sog‘lom hamda maxsus ehtiyojli bolalar birgalikda ta’lim oladi. Bunday muhitni samarali tashkil etish uchun o‘qituvchi faqatgina didaktik bilimlar bilan cheklanib qolmay, balki psixologik sezgirlik, empatiya, bag‘rikenglik, kommunikativ malaka hamda maxsus metodik yondashuvlarga ham ega bo‘lishi zarur. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining metodik tayyorgarligini rivojlantirish esa uning kasbiy shakllanishining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, pedagogik faoliyat samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi bolalarning shaxs sifatida shakllanishida, o‘z-o‘ziga ishonchni rivojlantirishda va ijtimoiy integratsiyada katta rol o‘ynaydi. Shu sababli, aynan boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi har bir bolaning o‘z qobiliyatini to‘liq namoyon etishiga imkon beradigan pedagogik sharoitni

yaratishi lozim. Inklyuziv ta’lim jarayonida o‘qituvchi o‘z metodikasini bolalarning individual rivojlanish darajasiga moslashtiradi, ta’limda differensial va individual yondashuvlarni amalga oshiradi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni inklyuziv muhitga tayyorlashda metodik tayyorgarlikning mazmuni, shakli va usullari alohida ahamiyatga ega. Bu tayyorgarlik pedagogik oliy ta’lim muassasalarida nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy mashg‘ulotlar, kuzatuvlar va tajriba almashish orqali shakllanadi. Bo‘lajak o‘qituvchi inklyuziv ta’limning mohiyatini chuqur anglab, maxsus ehtiyojli bolalarning rivojlanish xususiyatlarini o‘rganishi, ularning ijtimoiy moslashuvi va ta’lim jarayoniga to‘laqonli qo‘shilishini ta’minlash bo‘yicha aniq metodik yondashuvlarga ega bo‘lishi kerak.

Metodik tayyorgarlikni rivojlantirish o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini kengaytirish, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llay olish qobiliyatini shakllantirish, o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilgan refleksiv fikrlashni kuchaytirishga xizmat qiladi. Inklyuziv ta’limda qo‘llaniladigan interfaol metodlar, differensial topshiriqlar, o‘yin texnologiyalari va ijodiy yondashuvlar orqali o‘quvchilar o‘z imkoniyatlariga mos tarzda ta’lim oladilar. Shu jihatdan, o‘qituvchining metodik tayyorgarligi faqat dars jarayonini o‘tkazish bilan chegaralanmay, balki sinfdagi psixologik muhitni boshqarish, o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish va ijtimoiy faollikni oshirishni ham o‘z ichiga oladi.

Zamonaviy ta’lim islohotlari, xususan, O‘zbekiston Respublikasida “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va “Inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi” asosida har bir bola uchun teng ta’lim imkoniyatlari yaratish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda. Shu jarayonda pedagogik oliy ta’lim muassasalarida o‘qituvchilarni tayyorlash tizimi ham yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Endilikda bo‘lajak o‘qituvchi nafaqat fan asoslarini puxta biluvchi mutaxassis, balki turli toifadagi bolalar bilan ishlashga metodik jihatdan tayyor bo‘lgan shaxs sifatida shakllanishi zarur.[1, 121]

Inklyuziv ta’lim sharoitida metodik tayyorgarlikni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan biri — bu o‘qituvchini innovatsion texnologiyalarni, axborot-kommunikatsiya vositalarini, raqamli o‘quv platformalarini to‘g‘ri qo‘llashga o‘rgatishdir. Bunday yondashuv o‘qituvchi faoliyatini zamonaviylashtiradi, ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi va o‘quvchilarning o‘zaro muloqotini mustahkamlaydi.

Shu bilan birga, pedagogik refleksiya va o‘z faoliyatini tahlil qilish ko‘nikmalari o‘qituvchiga o‘z metodikasini doimiy takomillashtirib borish imkonini beradi.

Inklyuziv ta’lim sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining metodik tayyorgarligini rivojlantirish – bu nafaqat o‘qituvchining kasbiy shakllanish jarayoni, balki butun ta’lim tizimining sifatini oshirishga qaratilgan dolzarb masaladir. Chunki har bir bola, u qanday imkoniyatlarga ega bo‘lishidan qat’i nazar, sifatli ta’lim olish va jamiyat hayotida faol ishtirok etish huquqiga ega. Shunday ekan, pedagog kadrlarni tayyorlashda inklyuziv yondashuvni chuqur o‘rganish, metodik tayyorgarlikni zamon talablariga mos tarzda rivojlantirish — bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biridir.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. So‘nggi yillarda inklyuziv ta’lim masalasi nafaqat jahon miqyosida, balki O‘zbekiston ta’lim tizimida ham ilmiy-pedagogik izlanishlarning eng muhim va dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Bu boradagi tadqiqotlar, asosan, alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bolalarni ta’lim tizimiga samarali qo‘shish, o‘qituvchilarning kasbiy va metodik tayyorgarligini rivojlantirish hamda inklyuziv ta’lim muhitida samarali pedagogik yondashuvlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan.

Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, xorijiy olimlardan S. Salamanka (Salamanka deklaratsiyasi, 1994), T. Booth va M. Ainscow kabi tadqiqotchilar inklyuziv ta’limni inson huquqlari tamoyillariga asoslangan demokratik tizim sifatida talqin etadilar. Ularning fikricha, har bir bola ta’lim olish huquqiga ega bo‘lib, o‘quv muhitida individual farqlari hisobga olinishi zarur. Shuningdek, rus olimlaridan L.S. Vygotskiy, A.A. Leontyev va V.V. Davыdovlarning ilmiy qarashlari inklyuziv ta’lim nazariyasining psixologik asoslarini tashkil etadi. Ular o‘qituvchi faoliyatida bolalarning shaxsiy rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish, ijtimoiy moslashuvni ta’minlash va o‘quv faoliyatini individuallashtirish zarurligini ta’kidlaydilar.[2, 145]

O‘zbekistonlik olimlar — R. Jo‘raev, N. G‘aybullayeva, M. Ochilov, S. Axmedov va boshqalar inklyuziv ta’limni rivojlantirishda o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi, pedagogik refleksiya, empatiya va tolerantlik sifatlarini shakllantirish masalalariga alohida e’tibor qaratadilar. Ularning ilmiy ishlarida bo‘lajak o‘qituvchilarni inklyuziv muhitda ishlashga tayyorlash jarayonida nazariy bilimlar bilan bir qatorda, amaliy tajribaning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, metodik tayyorgarlikni rivojlantirishda interfaol usullar, treninglar, kuzatuv darslari va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash muhim omil sifatida qayd etilgan.[3, 132]

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’limning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi o‘qituvchining metodik, psixologik va kommunikativ tayyorgarligiga bevosita bog‘liqdir. Shu boisdan, tadqiqotda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining metodik tayyorgarligini tizimli tahlil qilish hamda uni amaliy faoliyatga yo‘naltirish mexanizmlarini ishlab chiqish zarurati mavjud.

Tadqiqotda nazariy tahlil, taqqoslash, tizimli yondashuv, anketalashtirish va pedagogik kuzatuv metodlaridan foydalaniladi. Nazariy tahlil orqali inklyuziv ta’limning mazmuni, maqsadi va prinsiplariga oid ilmiy manbalar o‘rganiladi, mavjud yondashuvlar solishtiriladi. Tizimli tahlil metodik tayyorgarlik jarayonini tashkil etuvchi tarkibiy qismlarni – bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni o‘zaro aloqadorlikda ko‘rib chiqishga imkon beradi.

Amaliy bosqichda esa bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining inklyuziv ta’limga tayyorlik darajasi maxsus tuzilgan so‘rovnomalar, suhbatlar va kuzatuvlar orqali aniqlanadi. Bu jarayon natijasida o‘qituvchilarning metodik kompetensiyasi, o‘quv jarayonida differensial yondashuvni qo‘llash, hamkorlik va empatiya ko‘nikmalari baholanadi. Shuningdek, tajriba-sinov ishlari orqali pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va raqamli ta’lim vositalarining samaradorligi aniqlanadi.

Tahlil va natijalar. Inklyuziv ta’lim sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining metodik tayyorgarligini rivojlantirish masalasi chuqur tahlilni talab etadigan ko‘p qirrali pedagogik jarayondir. Tadqiqot davomida to‘plangan nazariy ma’lumotlar va amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchi shaxsining inklyuziv ta’limga tayyorlik darajasi uning kasbiy kompetensiyasi, pedagogik mahorati, shaxsiy qadriyatlari hamda metodik yondashuvlar tizimi bilan chambarchas bog‘liqdir. Bo‘lajak o‘qituvchining metodik tayyorgarligi nafaqat o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, balki ijtimoiy-psixologik muhitni sog‘lom saqlash, o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish va tolerantlikni targ‘ib etish kabi jihatlarni ham o‘z ichiga oladi.

O‘tkazilgan tahlillar natijalariga ko‘ra, inklyuziv ta’lim tizimida samarali faoliyat yuritish uchun o‘qituvchi quyidagi asosiy komponentlarga ega bo‘lishi lozim:

1) metodik kompetensiya – ta’lim mazmunini moslashtira olish, o‘quv dasturini individual ehtiyojlarga qarab differensiallashtirish qobiliyati;

2) psixologik tayyorgarlik – o‘quvchilarning ruhiy holatini tushunish, empatiya va ijobiy muloqot ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

3) pedagogik texnologiyalarni qo‘llay olish – interfaol metodlar, zamonaviy o‘quv vositalari va raqamli platformalardan samarali foydalanish malakasi;

4) axloqiy-ijtimoiy mas’uliyat – har bir bolaga individual yondashuvni ta’minlash, inklyuziv qadriyatlarni amaliyotda qo‘llay bilish.[4, 118]

Amaliy kuzatuvlar asosida shuni ta’kidlash mumkinki, metodik tayyorgarlikni oshirish uchun oliy ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’limga oid maxsus kurslar, treninglar, seminarlar va tajriba almashish dasturlarini yo‘lga qo‘yish samarali natija beradi. Xususan, talabalarning dars jarayonlarida real inklyuziv muhit bilan tanishishi, turli toifadagi o‘quvchilar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishi ularda amaliy metodik tayyorgarlikni mustahkamlaydi.

Metodik tayyorgarlikni rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar muhim o‘rin tutadi. Multimedia vositalari, raqamli ta’lim platformalari, interfaol dars modellarining qo‘llanilishi o‘qituvchining darsni tashkil etishdagi kreativlik darajasini oshiradi, o‘quvchilarni jarayonga faol jalb etadi. Shu bilan birga, “peer learning” – ya’ni o‘zaro o‘rganish modeli ham bo‘lajak o‘qituvchilar orasida inklyuziv yondashuvni mustahkamlaydi. Bu jarayonda talabalar bir-birining tajribasini tahlil qiladi, o‘z dars modellarini baholaydi va takomillashtiradi.

Inklyuziv ta’limda refleksiya – bu o‘qituvchining o‘z dars faoliyatini tahlil qilish, o‘z xatti-harakatlarini baholash, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish jarayonidir. Refleksiya orqali o‘qituvchi o‘zining metodik qarashlarini qayta ko‘rib chiqadi, ta’lim jarayonini yanada individuallashtirish imkoniyatlarini izlaydi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘z faoliyatini muntazam tahlil qiluvchi o‘qituvchilar inklyuziv darslarda yuqori samaradorlikka erishgan.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning inklyuziv ta’limga munosabati ijobiy bo‘lsa-da, ularning metodik salohiyati, kommunikativ malakasi va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash darajasi o‘rtasida farqlar mavjud.

Bu holat shuni anglatadiki, oliy ta’lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy mashg‘ulotlarga, real tajriba asosidagi metodik tahlillarga keng o‘rin berish zarur.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining metodik tayyorgarligini rivojlantirish quyidagi yo‘nalishlar orqali amalga oshirilsa samarali bo‘ladi:

Amaliy treninglar tizimini kuchaytirish – inklyuziv ta’lim jarayonida turli holatlarni modellashtirish, maxsus ehtiyojli o‘quvchilar bilan ishlash tajribasini boyitish.

Pedagogik innovatsiyalarni integratsiya qilish – raqamli o‘qitish vositalaridan foydalanish, interfaol metodlarni qo‘llash.

Psixologik tayyorgarlikni oshirish – empatiya, stressni boshqarish, kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish.

Kasbiy refleksiya va o‘z-o‘zini rivojlantirish madaniyatini shakllantirish – o‘qituvchining o‘z faoliyatini tahlil qila olish qobiliyatini mustahkamlash.

Hamkorlik muhitini yaratish – o‘qituvchi, ota-ona va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro ishonch va muloqotni yo‘lga qo‘yish.[6, 99]

Inklyuziv ta’lim sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining metodik tayyorgarligini rivojlantirish — bu ta’lim sifatini oshirish, har bir bola uchun qulay o‘quv muhitini yaratish va pedagogik jarayonda insonparvarlik tamoyillarini mustahkamlashning eng muhim omilidir. Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, samarali metodik tayyorgarlik tizimi o‘qituvchini nafaqat o‘quv jarayonining rahbari, balki har bir bolaning shaxsiy rivojlanish yo‘lida yo‘lchi yulduzga aylantiradi.

Xulosa. Inklyuziv ta’lim sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining metodik tayyorgarligini rivojlantirish bugungi ta’lim tizimining eng dolzarb masalalaridan biridir. Tadqiqot davomida olib borilgan nazariy tahlillar, amaliy kuzatuvlar va ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatdiki, metodik tayyorgarlik o‘qituvchining kasbiy shakllanishida markaziy o‘rin egallaydi. U nafaqat bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, balki o‘quv jarayonida individual yondashuvni ta’minlash, har bir bolaning o‘z imkoniyatlariga ko‘ra rivojlanishiga sharoit yaratish, ijtimoiy integratsiyani qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Inklyuziv ta’lim sharoitida o‘qituvchining metodik tayyorgarligi uch asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi: nazariy, amaliy va refleksiv. Nazariy tayyorgarlik — bu o‘qituvchining inklyuziv ta’lim mazmuni, maqsadi, tamoyillari hamda qonuniy asoslarini bilishi; amaliy tayyorgarlik esa turli toifadagi bolalar bilan samarali ishlash, o‘quv jarayonini moslashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. Refleksiv tayyorgarlik esa o‘qituvchining o‘z faoliyatini tahlil qilish, o‘z ustida ishlash, kamchiliklarni bartaraf etish va yangiliklarga ochiqligini bildiradi.

Inklyuziv ta’limda muvaffaqiyatga erishish uchun bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini rivojlantirishda quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega: birinchidan, pedagogik oliy ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’limga oid maxsus fanlar va modullarni joriy etish; ikkinchidan, amaliyot darslarini real inklyuziv maktab muhitida tashkil etish; uchinchidan, empatiya, tolerantlik, kommunikativlik va pedagogik refleksiya ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan treninglarni yo‘lga qo‘yish.

Metodik tayyorgarlikning rivojlanishi o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini kengaytiradi, o‘quvchilarga individual yondashuvni kuchaytiradi va dars jarayonining samaradorligini oshiradi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar, interfaol o‘qitish metodlari va innovatsion yondashuvlar yordamida o‘qituvchining kasbiy faoliyati yanada sifatli va ijodiy tus oladi. Shu boisdan, pedagogik ta’limda nazariya va amaliyotning uzviyligini ta’minlash, metodik mashg‘ulotlarni zamonaviy ta’lim talablariga moslashtirish bugungi kunda muhim vazifa hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta’lim sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining metodik tayyorgarligini rivojlantirish — bu har bir bolaning ta’lim olish huquqini ta’minlash, insonparvarlik tamoyillarini ro‘yobga chiqarish va ta’lim sifatini oshirishning kafolatidir. O‘qituvchining chuqur bilimga ega, innovatsion fikrlovchi, empatik va bag‘rikeng shaxs sifatida shakllanishi inklyuziv ta’limni amalda muvaffaqiyatli amalga oshirishning eng muhim sharti hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Axmedov S. O‘qituvchi kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning innovatsion yo‘llari. Namangan: Davlat universiteti nashriyoti. 2022 — 121 b.

2. Jo‘raev R. Inklyuziv ta’lim nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti nashriyoti. 2020 — 145 b.

3. G‘aybullayeva N. Pedagogik innovatsiyalar va inklyuziv ta’lim. Toshkent: Fan va texnologiya. 2021— 132 b.

4. Ochilov M. Boshlang‘ich ta’limda individual yondashuv metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti. 2019— 118 b.

5. Tursunova M. Boshlang‘ich ta’limda pedagogik diagnostika va monitoring asoslari. Toshkent: TDPU nashriyoti. 2019— 130 b.

6. Raximova Z. O‘quvchilarning psixologik holatini inobatga olgan holda o‘qitish metodlari. Toshkent: Innovatsiya nashriyoti. 2020— 99 b.

7. Nizamov A. Inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirishda o‘qituvchining roli. Andijon: AndDU nashriyoti. 2022— 88 b.

TA’LIM MENEJMENTI

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA O‘Z-O‘ZINI BOSHQARISH – SAMARALI RAHBARLIK OMILI SIFATIDA

Avezova Rohila Ruzimboyevna,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti katta o‘qituvchisi

Mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida o‘z-o‘zini boshqarish kompetensiyasini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. O‘z-o‘zini boshqarish pedagogik faoliyatda samarali rahbarlikni ta’minlovchi muhim omil sifatida tahlil qilinadi. Maqolada o‘z-o‘zini boshqarishning asosiy tarkibiy qismlari – maqsad qo‘yish, rejalashtirish, o‘z faoliyatini nazorat qilish, refleksiya va o‘zini baholash jarayonlari ilmiy jihatdan tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, o‘z-o‘zini boshqarish, maqsad qo‘yish, rejalashtirish, o‘z-o‘zini anglash, empatiya, o‘z -o‘zini rivojlantirish.*

САМОУПРАВЛЕНИЕ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ КАК ФАКТОР ЭФФЕКТИВНОГО ЛИДЕРСТВА

В данной статье освещаются теоретические и практические основы формирования компетенции самоуправления у будущих учителей начальных классов.Самоуправление рассматривается как важный фактор, обеспечивающий эффективное руководство в педагогической деятельности. В статье с научной точки зрения проанализированы основные компоненты самоуправления — постановка целей, планирование, контроль собственной деятельности, рефлексия и самооценка.

Ключевые слова: *учитель начальных классов, самоуправление, целеполагание, планирование, самосознание, эмпатия, саморазвитие.*

SELF-MANAGEMENT IN FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS AS A FACTOR OF EFFECTIVE LEADERSHIP

This article highlights the theoretical and practical foundations for developing self-management competence in future primary school teachers. Self-management is analyzed as an important factor ensuring effective leadership in pedagogical activity. The main components of self-management — goal setting, planning, self-monitoring, reflection, and self-assessment — are scientifically examined in the article.

Keywords: *primary school teacher, self-management, goal setting, planning, self-awareness, empathy, self-development.*

Kirish. Hozirgi zamon jamiyati ta’lim tizimi zimmasiga har tomonlama yetuk, boshqaruv qobiliyatiga ega, intiluvchan, raqobatbardosh, tashabbuskor va ijodiy fikrlaydigan, shuningdek, ma’naviy hamda jismoniy jihatdan sog‘lom shaxslarni shakllantirish vazifasini yuklamoqda. Buning uchun, albatta, har bir talaba o‘z-o‘zini boshqarish va rivojlantirishi muhimdir. O‘z-o‘zini boshqarish – bu boshqaruv nazariyasida nisbatan yangi tushuncha bo‘lib, u inson faoliyatining mazmunini qayta anglash, shaxsning ichki o‘zini tashkil etish jarayonlarini chuqurroq tushunish bilan bog‘liq holda shakllangan. Tashkilot ichida insonning o‘z faoliyatini mustaqil boshqarish jarayonlari tadqiq etilishi o‘z-o‘zini boshqarishni alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanishiga olib keldi. O‘z-o‘zini boshqarish fani rivojlanish jarayonida uning ta’rifi, qo‘llanish sohasi va instrumentariysi (vositalari) bir necha bor o‘zgargan. Shu bois bugungi kunda ham bu sohadagi asosiy tushunchalar turlicha talqin qilinadi va yakdil ilmiy ta’rifga ega emas. Dastlab o‘z-o‘zini boshqarish vaqtni boshqarish texnologiyalarining yig‘indisi sifatida qaralgan. Bu yondashuv asosan nemis olimi L. Zayvertning “Sizning vaqtingiz – sizning qo‘lingizda” nomli asari orqali keng tarqalgan. Unga ko‘ra, o‘z-o‘zini boshqarish – bu “vaqtni mazmunli va samarali o‘tkazish maqsadida sinovdan o‘tgan ish usullarini izchil va maqsadli qo‘llash” jarayonidir. Shu bois XX asr oxirigacha o‘z-o‘zini boshqarish va taym-menedjment tushunchalari ko‘pincha bir xil ma’noda qo‘llanilgan. Hatto, hozirgacha ham xorijiy manbalarda bu ikki atama bir-biriga yaqin ma’noda ishlatiladi.

Zamonaviy yondashuvga ko‘ra, o‘z-o‘zini boshqarish – bu shaxsning o‘z resurslarini (vaqt, energiya, bilim, salomatlik, irodaviy kuch va boshqalar) boshqarish qobiliyatidir. Ya’ni inson o‘z resurslarini oqilona rejalashtirib, ularni egallash, saqlash, rivojlantirish va samarali qo‘llash orqali muvaffaqiyatli va o‘ziga tayanadigan shaxs bo‘lishni o‘rganadi.

Muhokama va natija. Rahbar shaxsining o‘z-o‘zini boshqarishiga alohida e’tibor qaratilishi bejiz emas. Chunki rahbar o‘z vaqtini va kuchini to‘g‘ri taqsimlay olmasa, jamoani samarali boshqara olmaydi. O‘zini tahlil qila olish, stressga bardosh berish, ustuvor maqsadlarni belgilash kabi ko‘nikmalarga ega bo‘lmasa, boshqaruv qarorlarining sifati pasayadi. Bo‘lajak boshlang’ich sinf o'qituvchisining boshqaruvchilik kompetentligining samaradorligini oshirish uchun quyidagi usullar asosida tashkil qilish maqsadlidir. Bugungi boshqaruv psixologiyasi va pedagogikasida o‘z-o‘zini boshqarish tushunchasi shunchaki vaqtni taqsimlash emas, balki shaxsning o‘zini rivojlantirish strategiyasi sifatida qaraladi. U quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

- Motivatsion boshqaruv – shaxsiy va kasbiy maqsadlarni uyg‘unlashtirish;
- Kognitiv boshqaruv – o‘z fikrlash jarayonini nazorat qilish, muammolarni tahlil etish;
- Emotsional boshqaruv – hissiy barqarorlikni saqlash, stressni yengish;
- Iroda boshqaruvi – qaror qabul qilishda qat’iyatlilik;
- Kommunikativ boshqaruv – muloqot madaniyatini rivojlantirish.

Shunday qilib, rahbarning o‘z-o‘zini boshqarishi – bu nafaqat vaqtni rejalashtirish, balki o‘zini anglash, o‘z imkoniyatlarini samarali yo‘naltirish, stress va ziddiyatlarni boshqarish hamda kasbiy o‘sishga yo‘naltirilgan ichki boshqaruv tizimidir. Rahbar faoliyatini tashkil etish va o‘z-o‘zini boshqarish texnologiyasi. Rahbar ishining to‘g‘ri tashkil etilishi nafaqat uning shaxsiy samaradorligini, balki butun jamoa faoliyatining natijadorligini belgilovchi muhim omildir. Ilmiy nuqtayi nazardan, rahbarning o‘zini boshqarish qobiliyati – bu kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning poydevori hisoblanadi.

Rahbar faoliyatining samaradorligini belgilovchi omillar:

1. Rahbar ishining tashkil etilishi – uning mehnat faoliyati natijadorligi va boshqaruv samaradorligining asosiy mezonidir.

2. Rahbarning faoliyati nafaqat o‘z ishining, balki unga bo‘ysunuvchi xodimlar, mutaxassislar va bo‘lim rahbarlarining mehnat unumdorligiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

3. Rahbar boshchiligidagi tashkilot yoki bo‘linmaning umumiy natijalari, asosan, rahbarning boshqaruv uslubi, o‘zini va boshqalarni boshqarish darajasi bilan belgilanadi.

4. Rahbar mehnatiga haq to‘lash odatda boshqa xodimlarga nisbatan yuqoriroq bo‘lgani uchun, bu mehnatning yuqori samaradorlik va oqilona boshqaruv tamoyillariga asoslanishi talab etiladi.

5. O‘z-o‘zini boshqarishning qo‘llanishi rahbar faoliyatini rasional tashkil etish, vaqt va resurslarni optimallashtirish, hamda stressni boshqarishga xizmat qiladi. Rahbarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda. O‘z-o‘zini boshqarish texnologiyasi muhim hisoblanadi.

O‘zini motivatsiya qilish – bu o‘z-o‘zini boshqarishning boshlang‘ich nuqtasidir. Shaxsning o‘z faoliyatiga, kasbiy o‘sishiga va hayotiy maqsadlariga ichki rag‘bat bilan yondashuvi o‘zini boshqarish jarayonining asosi hisoblanadi. Rahbar o‘zida ichki motivlar tizimini shakllantirmas ekan, u tashqi nazoratga tayanadi va mustaqil qarorlar qabul qilishda qiyinchiliklarga duch keladi. Shuning uchun o‘z-o‘zini boshqarishning birinchi qadami – o‘zini ilhomlantira olish va ichki energiyani yo‘naltirish san’atidir.

O‘zini anglash – o‘z-o‘zini boshqarishning eng muhim bosqichi

O‘zini anglash – bu insonning o‘z imkoniyatlari, kuchli va zaif tomonlarini tan olishi, o‘z resurslarini tanqidiy baholay olishi jarayonidir. Ayniqsa, rahbar uchun bu jarayon kasbiy refleksiya sifatida muhim ahamiyatga ega. Rahbar o‘zini tahlil qilayotganda unga yetishmayotgan fazilatlar muloqotchanlik, yetarli bilim, tahliliy fikrlash, dadillik, qaror qabul qilish jasorati, mavjud imkoniyatlarni tajriba, bilim, malaka, intellektual salohiyat baholash, o‘z faoliyatini takomillashtirish uchun ustuvor yo‘nalishlarni belgilash. Faqatgina rahbar o‘z salohiyatini halol va tanqidiy baholagan taqdirdagina, u o‘ziga xos o‘z-o‘zini boshqarish strategiyasini shakllantira oladi. Bu jarayon shaxsni “o‘z ustida ishlovchi rahbar” darajasiga olib chiqadi, ya’ni tashqi rahbarlikdan ichki rahbarlikka o‘tish bosqichini boshlab beradi.

O‘z-o‘zini rivojlantirishning samarali yo‘llari.

Oliy ta’lim muassasalari talabalarini boshqaruv faoliyatiga tayyorlashda o‘z- o‘zini boshqarishni o‘rgatish muhimdir. Bu o‘z-o‘zini boshqarish, o‘z-o‘zini tashkil etish, o‘z vaqtini boshqarish, stressni boshqarish, maqsad qo‘yish, o‘ziga bo‘lgan etibor va boshqalar kabi bir qator jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Har bir shaxs har doim o‘z-o‘zini rivojlantirib borishi muhimdir.Rivojlantirish yo‘llari quyidagilardan iborat:

1. Maqsad va reja tuzish. O‘z-o‘zini rivojlantirish samaradorligi aniq maqsadlar va rejalashtirish orqali oshadi. SMART texnologiya (aniq, o‘lchanadigan, erishiladigan, muvofiq, vaqt bilan belgilanadigan) maqsad qo‘yishning ilmiy asoslangan uslubidir [1].

SMART - (aqlli, aql-idrokli, texnologik) qisqartma so‘zini dastlab1954-yili Avstriyadan chiqqan amerikalik olim, iqtisodchi, publitsist, pedagog, XX asr menejment nazariyachilaridan biri Piter Ferdinand Druker kiritgan.

SMART - menejment va loyihaviy boshqaruvda maqsadni aniqlash va masalalarni qo‘yish uchun foydalaniladigan mnemonik abbreviaturadir. SMART quyidagi so‘zlarning bosh harflaridan tashkil topgan:

S - specific — aniq. Maqsad maksimal darajada aniq bo‘lishi va siz hamda atrofdagilar tomonidan bir xil tushunilishi lozim. SMART texnologiyasi bo‘yicha u: Bevosita nima qilinishi kerak? Qachon? Qanday miqdoriy ko‘rsatgichlarda? kabi savollarga javob berishni ko‘zda tutadi.

M - measurable — o‘lchovli. Siz va maqsadga erishishni topshirgan kishilar, maqsad erishilganligi aniq bo‘ladigan mezonlarni tushunishlari kerak. SMART texnologiyasi shaxsni, u erishiladigan natijalarda o‘zining foydasini ko‘radigan darajada motivatsiya qiladi.

A — achievable, ambitious, agresive, attractive — erishiladigan, ehtirosli, tajovuzkor, jozibador.Achievable - erishiladigan. Texnologiyaning bunday mezoni ko‘proq yollangan (taklif etilgan, jalb etilgan mutaxassis) xodimlarga to‘g‘ri keladi. Mutaxassislarga maqsadni uzatadi, lekin ularning harakatlari egallagan lavozimlari doirasida chegaralangan.

Ambitious - ehtirosli. SMART texnologiyaning ushbu talqin qilinishi tashkilotning TOPmenejer (ish egasi, yaratuvchisi va mafkuraviy rahbar yoki yollangan menejeri - yollangan malakali boshqaruvchi)lari uchundir. Ular avvalgidek egasining ixtiyori bilan chegaralangan bo‘lsalarda, lekin endi loyiha doirasida fikrlaydilar. Shuning uchun, ularning maqsadlari katta murakablikka egadir, lekin har qalay bu maqsad texnologiya doirasida erishiladigandir.

Aggressive - tajovuzkor. SMART texnologiyasi bo‘yicha maqsadga erishilganlikni baholash mezoni tadbirkorlar uchundir. Maqsad, atrofdigilarning fikri bo‘yicha sog‘lom ma’no doirasidan chiqib ketganda, egasi natijaga erishish uchun barcha harakatlarni amalga oshiradi.

Attractive - jozibador. Yakuniy natija nafaqat egasiga, balki maqsadlarga erishish uchun topshirilgan barcha shaxs(mutaxassis va xodim)larga ham erishish istiqbollarini qamrab olishi kerak.

R - relevant, resours - muvofiq, resurs. Relevant - muvofiq, ushbu vaziyatga mos. Demak tanlagan maqsad, ushbu vaziyatga mos bo‘lishi lozim. U Sizning vazifangiz qo‘shilib ketmasligi va boshqa maqsadlar hamda ustivorliklarning muvozanatiga xalaqit qilmasligi lozim [2]. SMART texnologiyasi rahbar yordamchilari tomonidan ham xodimlarni boshqarish va ularga vazifalar qo‘yilishida ham ishlatiladi. Shu sababali ular maqsadga erishishga shaxsan qiziqishlari uchun yakuniy natijani xodimlarning motivatsiyasiga bog‘lash kerak . CROW ya’ni “5.E” metodi bu- xodimga teskari aloqa berish yondashuvlaridan biri. Ushbu usul Jeyms Kuizes va Barri Poznerning "The Leadership Challenge" kitobida taklif qilingan bo‘lib, u etakchilik sohasida klassikaga aylandi [3]. CROW bu - maqsad, reallik, imkoniyat, yo‘lidir [4].

BOFF (Behavior Observation Feedback and Follow-up) - bu rahbar va xodim o‘rtasida samarali muloqotni ta’minlash uchun ishlab chiqilgan teskari aloqa usuli. Ushbu usul xodimning ish joyidagi xatti-harakatlarini kuzatish, uning samaradorligi bo‘yicha fikr-mulohazalar bildirish va keyingi o‘zgarishlar va taraqqiyotni kuzatishga qaratilgan.

Decision Tree (qarorlar daraxti)-boshqaruv jarayonlaridagi murakkab vaziyatlarda boshqaruvdagi qarorlar daraxtini tuzish yoki fikr xaritalari yaratish orqali strategik fiklashni rivojlantiradi [5].

Design Thinking -bu innovatsion liderlik, xodimlarni rivojlantirish va kreativ muammolarni hal qilish yondashuvi–yangi g’oyalarni ishlab chiqish [6].

Keys-stady” (ingl. “case” – chemodan, metod, “study” –muammoli vaziyat; vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) – talabalarda aniq, real yoki sun'iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan texnologiya - deya e'tirof etiladi [7]. Talabalarda talab qilinadigan kompetensiyani shakllantirish jarayonining har bir bosqichi tamoyillar, shakllar, usullar va ta'lim texnologiyalarining yaxlit tizimi bilan ifodalanadi.

2.O‘qish va doimiy bilimlarni yangilab borish. Adabiyotlar, ilmiy maqolalar va mutaxassislar e’tirof etgan manbalarni o‘rganish fikr yuritishni chuqur va tizimli tahlil qilish. Bu – kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish uchun asosiy yo‘l [8]. Uilyam A. Uard ta’kidlaganidek, “Muvaffaqiyat siri- bu boshqalar hali uxlayotgan paytda o‘qing, boshqalar bekorchilik bilan shugullanayotgan paytda ishlang, boshqalar o‘ynayotgan paytda tayyorlaning va boshqalar istayotgan vaqtda orzu qiling” [9]. Bill Geytsning bir intervyusida, jurnalist unga savol bilan murojaat qildi: Janob Geyts, doim sizning yangilik qilishingizga ko‘nikib bormoqdamiz. Faqat savol, ushbu yangiliklarni qayerdan olasiz?” Javob juda oddiy bo‘lgandi: “Men har kuni oz bo‘lsa ham, kitob mutolaa qilaman. Bu mening har doim fikrlarim tiniqligiga va yangilik kelishga kuch beradi. Agar men kitob mutolaa qilmasam, demak yangilik qilishdan to‘xtayman. Bu kompaniyamda innovatsiya to‘xtaydi, degani”- deyishi bejiz emas. Har bir o‘qituvchi doimiy o‘z sohasiga

oid adabiyotlarni o‘qib, tahlil qilib, o‘ziga to‘g‘ri xulosa chiqarishi orqali ta’lim va tarbiya jarayoni samarali tashkil qila oladi.

3.O‘z-o‘zini tahlil qilish. Bu o‘z fikr, his-tuyg‘ulari va xulq-atvorini tahlil qilish jarayoni bo‘lib, shaxsiy o‘sishning muhim qismidir. Bu shaxsiy kompetensiyalarni kuchaytiradi[10]. Har kunlik, haftalik, oylik tahlillarni olib borish orqali u o ‘z xató kamchiliklari ustida ishlashni boshlaydi.

4.Vaqtni boshqarish. Vaqtni samarali boshqarish stressni kamaytirib, vazifalarni puxta bajarishga yordam beradi. Bu metodlar shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantiradi [11]. Vaqtni boshqarish– samaradorlikning asosiy kalitidir. Taym-menedjment g‘oyasi ilg‘or menejment tizimiga ega mamlakatlarda XX asr o‘rtalaridan buyon faol qo‘llanilib kelinadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, agar rahbar o‘z ish kunini to‘liq rejalashtirsa, u holda kasbiy faoliyatga sarflanadigan vaqt 20% gacha qisqaradi, natijada samaradorlik oshadi.

Rahbarning o‘zini motivatsiya qilishi, o‘z imkoniyatlarini tahlil qilishi, axborot bilan samarali ishlashi va vaqtni oqilona boshqarishi – bu zamonaviy boshqaruv madaniyatining to‘rtta ustunidir. Ushbu ko‘nikmalar shaxsda metakompetentlikni, ya’ni o‘z faoliyatini anglab boshqarish, doimiy o‘sish va o‘zini rivojlantirish qobiliyatini shakllantiradi. Rahbar uchun asosiy jihat o‘zini boshqarish qoidalariga amal qilishi muhimdir. Bular ishni uyga olib ketmang – professional faoliyatni shaxsiy hayotdan ajratish zarur. Dam olish kunlarini oilangizga bag‘ishlang – bu psixologik tiklanishni ta’minlaydi.Imkon qadar erta yoting va yetarli uxlang – bu ish unumdorligini oshiradi. Sog‘lom turmush tarzini olib boring – bu rahbarning jismoniy va ruhiy barqarorligini mustahkamlaydi.

5.Muloqot va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish. Fokus-guruhlar, treninglar, yoki mentorlar bilan ishlash shaxsaro aloqalarni yaxshilaydi va kommunikativ kompetensiyani oshiradi [12]. O‘qituvchi o‘z-o‘zini rivojlantish orqali o‘quvchilar, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali muloqot qiladi. Jamoa bilan ishlash va liderlik qobiliyatini rivojlantiradi.

6.Mentorlik va coaching (maslahatchilik). Maslahatchi yoki mentor bilan ishlash shaxsning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash va ularda ishlash imkonini beradi. Bu jarayon professional o‘sish uchun samarali vositadir [13].O‘quv-uslubiy ishlar va innovatsion loyihalarda faol ishtirok etadi. Kuchli va kuchsiz tamonlarini tahlil qila olish qobiliyati rivojlanadi.

7.O‘z ustida yaxshi odatlarni shakllantirish. Yangi ijobiy odatlarni shakllantirish orqali shaxsiy samaradorlik oshadi. Bu yondashuv neurologik va psixologik asosga ega bo‘lib, uni odatga aylantirish uchun kichik qadamlarni belgilash tavsiya etiladi [14]. Buning uchun yomon odatlar sekin-asta voz kechib, yaxshi odatlarni shakllantirish muhim hisoblanadi.

8. Sog‘lom turmush tarzini yo‘lga qo‘yish. Jismoniy salomatlik, uyqu sifati va stress boshqaruvi — kognitiv resurslar va umumiy samaradorlikni oshiradi [15].

9.Innovatsion fikrlashni rivojlantirish. Ijodiy yondashuv va muammolarni innovatsion hal qilish shaxs rivojlanishining ilmiy asoslangan yo‘llaridan biridir [16].

10.O‘zgarishlarni baholash va moslashuvchanlik. Natijalarni tahlil qilib, uslub va yondashuvlarni moslashtirish shaxsiy rivojlanish strategiyasini yanada samaraliroq qiladi [17]. “Kreativlik otasi” nomi bilan mashhur Pol Torrens to‘rtta kreativlik ko‘nikmasini aniqlagan (1987a). Uning olib borgan tadqiqotlari shundan dalolat beradiki, mazkur kreativ ko‘nikmalarni shakllantirish va ularni baholash mumkin.

1. Ravonlik. Ko‘plab g‘oyalarni o‘ylab topish ko‘nikmasi ko‘p degan so‘zga asoslanadi.

2. Moslashuvchanlik. Turli g‘oyalarni o‘ylab topish ko‘nikmasi o‘zgartirish degan so‘zga asoslanadi.

3. O‘ziga xoslik. Boshqalarga o‘xshamagan, ajralib turuvchi g‘oyani o‘ylab topish ko‘nikmasi noyob degan so‘zga asoslanadi.

4. Yaratuvchanlik. G‘oyalarni kengaytirish ko‘nikmasi qo‘shish degan so‘zga asoslanadi. Talabalardan ajoyib g‘oyalarni o‘ylab topish (o‘ziga xoslik), ularni kengaytirish (ishlab chiqish), yoki boshqa g‘oyalar bilan solishtirish va ulardagi bog‘liqlikni topish (moslashuvchanlik) talab etilganda, mazkur ko‘nikmalar bir-biri bilan kesishadi [18].

Ko‘p yillar avval Aleks Osborn moslashuvchanlik bilan fikrlashni kuchaytiruvchi savollar toifasini tuzib chiqqan (1963). Eberlening 1971- yilda ishlab chiqqan SCAMPER mnemonik sxemasi substitute (almashtirmoq/o‘zgartirmoq), combine (birlashtirmoq), adapt (moslashtirmoq), modify (o‘zgartirmoq/boshqa shakl bermoq), maximize/minimize (maksimallashtirmoq/minimallashtirmoq), put to other uses (boshqa soha/usulda qo‘llash), eliminate (oldini olmoq) va rearrange (qo‘llanilishini o‘zgartirish) kabi tushunchalar asosida ishlab chiqilgan [19]. Darhaqiqat, yuqoridagi tahlillar shunu ko ‘rsatadiki, o‘z-o‘zini rivojlantirish – bu rejalashtirish, bilim orttirish, o‘zini tahlil qilish va muntazam amaliyot orqali amalga oshadigan murakkab, lekin ilmiy asosli jarayondir. Yuqoridagi yo‘llar nafaqat shaxsiy o‘sish, balki kasbiy va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun ham muhimdir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish ularning boshqaruv kompetentligini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Maqsad qo‘yish, rejalashtirish, o‘z-o‘zini anglash, empatiya va uzluksiz o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonlari samarali rahbarlik sifatlarini tarkib toptiradi. Shu bois, pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida o‘z-o‘zini boshqarish mexanizmlarini tizimli ravishda rivojlantirish zarurligini ko‘rishimiz mumkin.

Adabiyotlar:

1. Doran G.T. There’s a S.M.A.R.T. way to write management’s goals and objectives // Management Review. – 1981. – Vol. 70, №11. – P. 35–36. – P. 35.

2. Yo‘ldashev O.T. Smart texnologiyasini texnologiya darslaridagi talqini // “Yangi O‘zbekiston: moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etishda muvaffaqiyatli xalqaro tajriba” respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2022. – B. 337–338. – B. 337.

3. CROW feedback modeli haqida ma’lumot. – URL: https://agaltsovav.ru/docs/people-managment/feedback-types/crow/ (murojaat qilingan sana: 31.03.2026).

4. Shirinov M.K. Tabiatshunoslik fanini o‘qitish uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash mexanizmlarini takomillashtirish (boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi misolida): dis. avtoreferati. – Toshkent, 2021. – 54 b.–B. 8.

5. Decision tree (qarorlar daraxti) haqida // Wikipedia. – URL: https://en.wikipedia.org/wiki/Decision_tree (murojaat qilingan sana: 31.03.2026).

6. Abduxalilov A.A., Boyjigitov S.K. Boshqaruv qarorlari samaradorligini oshirishning innovatsion usullari // “Integration of innovation and investment processes in science and education, production and economy: problems and solutions” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – 2025. – B. 11.

7. Usmonboyeva M., To‘rayev A. Kreativ pedagogika asoslari: o‘quv-uslubiy majmua. – Toshkent, 2016. – 193 b. – B. 20.

8. Dewey J. How We Think: A Restatement of the Relation of Reflective Thinking to the Educative Process. – New York: D.C. Heath and Company, 1933. – 301 p. – P. 104.

9. Ward W.A. Selected quotations on success and learning. –

10. Hasanov O. Liderlar kitobi. – Toshkent, 2020. – 277 b. – B. 150.

11. Schön D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. – New York: Basic Books, 1983. – 374 p. – P. 68.

12. Covey S.R. The 7 Habits of Highly Effective People. – New York: Free Press, 1989. – 381 p. – P. 85.

13. Goleman D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. – New York: Bantam Books, 1995. – 352 p. – P. 43.

14. Whitmore J. Coaching for Performance. – London: Nicholas Brealey Publishing, 2002. – 240 p. – P. 25.

15. Clear J. Atomic Habits. – New York: Avery, 2018. – 320 p. – P. 67.

16. Selye H. The Stress of Life. – New York: McGraw-Hill, 1956. – 324 p. – P. 112.

17. Guilford J.P. Creativity // American Psychologist. – 1950. – Vol. 5, №9. – P. 444–454. – P. 445.

18. Bandura A. Self-efficacy: The Exercise of Control. – New York: W.H. Freeman, 1997. – 604 p. – P. 191.

19. Usmonboyeva M., To‘rayev A. Kreativ pedagogika asoslari: O‘quv-uslubiy majmua. – Toshkent, 2016. – 193 b. – B. 51.

OLIY TA’LIM MUASSASALARI XALQAROLASHUVI JARAYONINING MOHIYATINI PEDAGOGIK KATEGORIYA SIFATIDA ASOSLASH VA TA’SIR OMILLARINI TAHLIL QILISH

Doniyorova Shoxista Shodiyarovna,
Samarqand davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
indefenit@gmail.ru

Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalari xalqarolashuvi jarayonining mohiyati pedagogik kategoriya sifatida aniqlashtiriladi va tizimli-tahliliy yondashuv asosida tasniflanadi. Tadqiqotda konseptual tahlil, qiyosiy sharhlash va kategoriyalash usullari qo‘llanildi. Natijada yo‘nalishlar akademik mobillik, qo‘shma dasturlar, xalqaro ilmiy hamkorlik va raqamli integratsiya kesimida, omillar esa institutsional, ijtimoiy-madaniy, normativ-huquqiy, iqtisodiy va texnologik bloklarda asoslandi. Ilmiy yangilik xalqarolashuvning pedagogik mazmuni va boshqaruvga yo‘naltirilgan tasnif modelidadir.

Kalit so‘zlar: *oliy ta’lim, xalqarolashuv, pedagogik kategoriya, akademik mobillik, qo‘shma ta’lim dasturlari, xalqaro ilmiy hamkorlik, raqamli integratsiya.*

ОБОСНОВАНИЕ СУЩНОСТИ ПРОЦЕССА ИНТЕРНАЦИОНАЛИЗАЦИИ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КАТЕГОРИИ И АНАЛИЗ ФАКТОРОВ ВЛИЯНИЯ

В данной статье уточняется сущность процесса интернационализации высших образовательных учреждений как педагогической категории и проводится её классификация на основе системно-аналитического подхода. В исследовании применены методы концептуального анализа, сравнительного обзора и категоризации. В результате направления интернационализации обоснованы в разрезе академической мобильности, совместных образовательных программ, международного научного сотрудничества и цифровой интеграции, а факторы влияния - в институциональном, социокультурном, нормативно-правовом, экономическом и технологическом блоках. Научная новизна заключается в раскрытии педагогического содержания интернационализации и разработке модели классификации, ориентированной на управление.

Ключевые слова: *высшее образование, интернационализация, педагогическая категория, академическая мобильность, совместные образовательные программы, международное научное сотрудничество, цифровая интеграция.*

SUBSTANTIATION OF THE ESSENCE OF THE INTERNATIONALIZATION PROCESS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS AS A PEDAGOGICAL CATEGORY AND ANALYSIS OF INFLUENCING FACTORS

This article clarifies the essence of the internationalization process of higher education institutions as a pedagogical category and classifies it based on a systemic-analytical approach. The study employs methods such as conceptual analysis, comparative review, and categorization. As a result, the directions of internationalization are substantiated in terms of academic mobility, joint educational programs, international scientific cooperation, and digital integration, while influencing factors are structured into institutional, socio-cultural, legal-regulatory, economic, and technological blocks. The scientific novelty lies in revealing the pedagogical content of internationalization and proposing a management-oriented classification model.

Keywords: *higher education, internationalization, pedagogical category, academic mobility, joint educational programs, international scientific cooperation, digital integration.*

Kirish. Oliy ta’lim tizimida xalqarolashuv so‘nggi o‘n yilliklarda tashkiliy yangilanish, ta’lim sifatini ta’minlash va raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida mustahkamlandi. Biroq xalqarolashuv amaliyotda ko‘pincha alohida tadbirlar majmui, masalan, talabalar almashinuvi yoki qo‘shma dasturlarni joriy etish bilan cheklanib qoladi, natijada uning pedagogik mohiyati, ta’lim mazmuni va o‘qitish jarayoniga ta’sir mexanizmlari yetarli darajada konseptuallashtirilmaydi. Xalqaro tajribada xalqarolashuv oliy ta’limning ichki funksiyalariga singdiriladigan, ta’lim, tadqiqot va xizmat ko‘rsatish missiyalarini qayta tashkil etadigan tizimli jarayon sifatida talqin qilinadi [1]. Shu bilan birga, mahalliy ilmiy-

munosabatda xalqarolashuvni pedagogik kategoriya sifatida aniqlash, uning strukturasi, yo‘nalishlari va omillarini bir butun modelda tasniflashga doir izlanishlar segmentar xarakterda qolmoqda; alohida yo‘nalishlar tahlil qilinsa-da, ularni yagona tizimli-tahliliy asosda birlashtirish yetarlicha ishlanmagan.

Mavjud ilmiy adabiyotlarda xalqarolashuvning ta’riflari, maqsadlari hamda boshqaruv mexanizmlari turlicha yondashuvlar orqali yoritiladi. Xususan, xalqarolashuvni oliy ta’limning maqsad va funksiyalariga xalqaro, madaniyatlararo hamda global o‘lchamni integratsiya qilish jarayoni sifatida ta’riflovchi yondashuv keng tarqalgan [2]. Boshqa tomondan, xalqarolashuvning “tashqi” shakllari (mobillik, transmilliy ta’lim) va “ichki” shakllari (o‘quv reja va kampus muhitining internatsionallashuvi) o‘rtasidagi farq pedagogik natijalarni tushuntirishda muhim hisoblanadi [3]. Raqamli transformatsiya esa xalqarolashuvni yangi texnologik kanallar orqali jadallashtirib, hamkorlik va ta’lim resurslari almashinuvining geografik cheklovlarini kamaytirmoqda [4]. Shunga qaramay, tadqiqotlar ko‘pincha xalqarolashuvning yo‘nalishlari va omillarini bir-biridan ajratib o‘rganadi, ularning o‘zaro bog‘liqligi, pedagogik jarayon ichidagi vazifalari hamda natija indikatorlari o‘rtasidagi munosabatlar tizimli tasnif ko‘rinishida yetarlicha asoslanmaydi.

Mazkur maqolaning muammosi shundan iboratki, oliy ta’lim muassasalari xalqarolashuvi amaliyotini samarali boshqarish uchun zarur bo‘lgan pedagogik-kategoriyaviy aniqlik va tizimli tasnif yetarli emas; bu esa yo‘nalishlar o‘rtasidagi ustuvorliklarni belgilash, resurslarni taqsimlash hamda sifatni baholashda metodologik noaniqliklarni yuzaga keltiradi. Tadqiqot bo‘shlig‘i xalqarolashuvning mohiyatini pedagogik kategoriya sifatida aniqlash, uning asosiy yo‘nalishlari va ta’sir omillarini tizimli-tahliliy yondashuv orqali yagona tasnif modeliga keltirish zaruratida namoyon bo‘ladi.

Maqolaning maqsadi oliy ta’lim muassasalari xalqarolashuvi jarayonining mohiyatini pedagogik kategoriya sifatida konseptual aniqlash hamda uning asosiy yo‘nalishlari va ta’sir omillarini tizimli-tahliliy yondashuv asosida tasniflashdan iborat. Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar qo‘yildi: birinchidan, xalqarolashuvning pedagogik mazmuni va kategoriya sifatidagi belgilari aniqlanadi; ikkinchidan, xalqarolashuvning asosiy yo‘nalishlari akademik mobillik, qo‘shma ta’lim dasturlari, xalqaro ilmiy hamkorlik va ta’limning raqamli integratsiyasi kesimida tavsiflanadi; uchinchidan, ta’sir omillari institutsional, ijtimoiy-madaniy, normativ-huquqiy, iqtisodiy va texnologik bloklarda tizimlashtiriladi; to‘rtinchidan, yo‘nalishlar va omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatuvchi tasnifiy mantiq ishlab chiqiladi.

Metodlar. Tadqiqot metodologik jihatdan tizimli-tahliliy yondashuvga tayandi, chunki xalqarolashuv ko‘p tarkibli, ko‘p darajali va turli aktorlar faoliyatiga bog‘liq jarayon sifatida faqat fragmentar tavsif bilan izohlab bo‘lmaydi. Tizimli-tahliliy yondashuv xalqarolashuvning maqsad, mazmun, jarayon, vosita va natijalarini yagona mantiqiy tuzilma sifatida ko‘rishga, yo‘nalishlar va omillarni o‘zaro ta’sirda talqin qilishga imkon beradi. Tadqiqotning nazariy poydevori xalqarolashuvni oliy ta’limning ichki funksiyalariga integratsiya qilinadigan strategik jarayon sifatida ko‘ruvchi konsepsiyalar bilan asoslandi [1; 2]. Shu bilan birga, “ichki” va “tashqi” xalqarolashuvning farqlanishi hamda ularning pedagogik natijalarga ta’siri haqidagi yondashuvlar tahlil qilindi [3]. Raqamli ta’lim muhitining kengayishi sharoitida xalqarolashuvning texnologik kanallari va ta’lim resurslari integratsiyasi bo‘yicha qarashlar ham konseptual manba sifatida jalb etildi [4].

Empirik komponent sifatida normativ-huquqiy hujjatlarning mazmuniy tahlili, oliy ta’lim boshqaruvida qo‘llanilayotgan institutsional amaliyotlar bo‘yicha ikkilamchi ma’lumotlarni sharhlash hamda ilmiy adabiyotlar asosida qiyosiy umumlashtirish usullari qo‘llanildi. Metodlar tanlovi tadqiqot maqsadiga mos ravishda konseptual aniqlik va tasnifiy model yaratishga yo‘naltirildi: konseptual tahlil xalqarolashuvning kategoriya sifatidagi belgilari va chegaralarini aniqlashga xizmat qildi; qiyosiy tahlil turli ilmiy maktablar qarashlaridagi umumiy va farqli jihatlarni ajratishga yordam berdi; kategoriyalash va tipologiyalash esa yo‘nalishlar hamda omillarni mantiqiy bloklar asosida guruhlash imkonini berdi. Shuningdek, ta’lim jarayonida yuzaga keladigan pedagogik natijalarni (kompetensiyalar, akademik madaniyat, tadqiqot ko‘nikmalari, raqamli savodxonlik va integratsion tajriba) yo‘nalishlar bilan bog‘lovchi analitik matritsa mantiqi qo‘llanildi, biroq u vizual shaklda emas, matnli asosda asoslab berildi. Tadqiqotda xulosalar ishonchliligini ta’minlash uchun manbalar xilma-xilligi saqlandi, ya’ni xalqaro, rus va mahalliy ilmiy adabiyotlar o‘rtasida muvozanat ko‘zlandi [5; 6; 7].

Natijalar. Birinchi natija sifatida oliy ta’lim muassasalari xalqarolashuvi jarayonining mohiyati pedagogik kategoriya sifatida aniqlashtirildi. Pedagogik kategoriya sifatida xalqarolashuv ta’lim maqsadlari, mazmuni, metodlari, baholash amaliyoti va ta’lim subyektlari o‘rtasidagi munosabatlarga xalqaro hamda madaniyatlararo o‘lchamni mazmunan singdiradigan, shu orqali bitiruvchi kompetensiyalarini global akademik va kasbiy standartlar bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladigan tizimli jarayon sifatida talqin qilindi. Ushbu ta’rifda xalqarolashuv faqat tashqi aloqalar ko‘rsatkichi emas, balki o‘qitish va o‘rganishning ichki mexanizmlarini o‘zgartiradigan pedagogik transformatsiya ekanligi asosiy belgi sifatida ajratildi. Shuningdek, kategoriya sifatida xalqarolashuvning chegaralari belgilandi: u transmilliy marketing yoki oddiy

“xorijiy hamkor”lar soni bilan cheklanmaydi, balki ta’lim natijalari va akademik muhitning sifat ko‘rsatkichlariga ta’sir qilgan taqdirdagina pedagogik mazmun kasb etadi.

Ikkinchi natija xalqarolashuvning asosiy yo‘nalishlari tizimlashtirilgan tasnifidir. Akademik mobillik yo‘nalishi talaba, magistrant, doktorant hamda professor-o‘qituvchilarning qisqa va o‘rta muddatli ta’lim yoki ilmiy faoliyat uchun boshqa muassasaga borishi orqali bilim, ko‘nikma va akademik madaniyat almashinuvini ta’minlovchi mexanizm sifatida ajratildi. Bu yo‘nalishning pedagogik natijasi shaxsiy ta’lim trayektoriyasini boyitish, o‘quv motivatsiyasini kuchaytirish, til va madaniyatlararo kommunikatsiya kompetensiyalarini rivojlantirish bilan bog‘landi. Qo‘shma ta’lim dasturlari yo‘nalishi o‘quv rejalari, ta’lim natijalari va baholash mezonlarining muvofiqlashtirilgan holda ishlab chiqilishi, resurslarning birgalikda safarbar etilishi hamda yakuniy kvalifikatsiyaning o‘zaro tan olinishiga yo‘naltirilgan institutlararo hamkorlik shakli sifatida tavsiflandi. Uning pedagogik natijasi o‘quv mazmunining komparativ boyishi, o‘qitish metodlarining diversifikatsiyasi hamda sifatni ta’minlash mexanizmlarining standartlashuviga yaqinlashish bilan izohlandi. Xalqaro ilmiy hamkorlik yo‘nalishi esa birgalikdagi tadqiqot loyihalari, hammualliflik, laboratoriyalararo kooperatsiya va ilmiy maktablararo metodologik almashinuv orqali ilmiy salohiyatni oshiruvchi omil sifatida ajratildi; bunda pedagogik komponent ilmiy tadqiqotga asoslangan ta’lim, ilmiy rahbarlik madaniyati va yosh tadqiqotchilar tayyorlash sifatining yaxshilanishi bilan bog‘landi. Ta’limning raqamli integratsiyasi yo‘nalishi global raqamli platformalar, ochiq ta’lim resurslari, masofaviy hamkorlik va onlayn qo‘shma kurslar orqali xalqarolashuvni geografik cheklovlardan xoli shaklda amalga oshirish imkonini beruvchi yo‘nalish sifatida belgilandi; bu yo‘nalishning pedagogik natijasi raqamli didaktika, akademik halollikning raqamli muhitdagi amaliyoti va ta’lim analitikasi orqali individualizatsiya imkoniyatlarining kengayishi bilan asoslandi.

Uchinchi natija sifatida xalqarolashuvga ta’sir etuvchi omillar besh blokda tasniflandi va har bir blokning yo‘nalishlar bilan bog‘lanish mexanizmlari aniqlandi. Institutsional omillar tarkibiga universitetning strategik boshqaruvi, xalqaro bo‘linmalar faoliyati, kadrlar siyosati, sifatni ta’minlash tizimi va ichki resurslarni qayta taqsimlash imkoniyatlari kiritildi. Bu omillar mobillik kvotalari, qo‘shma dasturlarni akkreditatsiyadan o‘tkazish, hamkorlik shartnomalarini natijadorlik asosida yuritish kabi jarayonlarda hal qiluvchi bo‘lib chiqdi. Ijtimoiy-madaniy omillar akademik hamjamiyatning ochiqligi, til muhiti, madaniyatlararo muloqotga tayyorgarlik, talaba va o‘qituvchilarning qadriyat yo‘nalishlari hamda inklyuziv akademik muhitning mavjudligi bilan bog‘landi; bu omillar ayniqsa mobillik va qo‘shma kurslarning ta’limiy samaradorligini belgilashi qayd etildi. Normativ-huquqiy omillar diplom va kreditlarning tan olinishi, ta’lim standartlari muvofiqligi, viza va migratsiya tartiblari, intellektual mulk hamda akademik halollikni tartibga soluvchi me’yorlar kabi elementlar bilan ifodalandi; mazkur blok qo‘shma dasturlar hamda xalqaro ilmiy hamkorlikning barqarorligini ta’minlashda markaziy rol o‘ynashi ko‘rsatildi. Iqtisodiy omillar moliyalashtirish modellari, grantlar, stipendiyalar, kontrakt siyosati, infratuzilma investitsiyalari va hamkorlikning iqtisodiy rag‘batlari orqali izohlandi; bu omillar mobillikning ommaviyligi va raqamli integratsiyaning texnik ta’minoti bilan bevosita bog‘liqligi asoslandi. Texnologik omillar raqamli platformalarning mavjudligi, axborot xavfsizligi, ma’lumotlar boshqaruvi, onlayn baholashning ishonchliligi hamda raqamli pedagogik kompetensiyalar bilan belgilandi; bu blok ta’limning raqamli integratsiyasini asosiy “tezlatkich” omil sifatida, qolgan yo‘nalishlarning ham samaradorligini oshiruvchi kesishuvchi resurs sifatida ko‘rsatdi.

To‘rtinchi natija xalqarolashuv yo‘nalishlari va ta’sir omillari o‘rtasidagi tizimli bog‘lanishni tushuntiruvchi tasnifiy mantiqning ishlab chiqilganidir. Yo‘nalishlar “pedagogik natija zanjiri” bo‘yicha o‘zaro uzviy: mobillik individual tajribani boyitadi, qo‘shma dasturlar o‘quv reja va baholashni institutsional darajada uyg‘unlashtiradi, ilmiy hamkorlik ilmiy-tadqiqot komponentini kuchaytiradi, raqamli integratsiya esa ushbu uch yo‘nalishni ko‘lam va barqarorlik jihatidan qo‘llab-quvvatlaydi. Omillar esa “ta’minlovchi shartlar” sifatida har bir yo‘nalishning kirish resurslari, jarayon sifati va chiqish natijalarini belgilaydi: institutsional va normativ-huquqiy bloklar tizim barqarorligini ta’minlasa, ijtimoiy-madaniy blok pedagogik o‘zlashtirish va moslashuv sifatini belgilaydi, iqtisodiy blok ko‘lam va uzluksizlikni ta’minlaydi, texnologik blok esa integratsiya tezligi hamda masofaviy hamkorlikning didaktik imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu tariqa xalqarolashuvni boshqarish uchun yo‘nalishlar va omillarni alohida emas, balki o‘zaro ta’sirda ko‘ruvchi tizimli tasnif modeli shakllantirildi.

Muhokama. Olingan natijalar xalqarolashuvni pedagogik kategoriya sifatida aniqlash zaruratini ilmiy adabiyotlarda shakllangan konseptual yondashuvlar bilan uyg‘un holda, biroq ta’lim jarayonining ichki mexanizmlariga yo‘naltirilgan talqin orqali chuqurlashtiradi. Xususan, xalqarolashuvning ta’lim, tadqiqot va xizmat ko‘rsatish missiyalariga singdirilishi haqidagi qarashlar [1] mazkur maqolada pedagogik natijalar bilan bog‘lab berildi: integratsiya faqat strategik hujjatlarda emas, o‘quv mazmuni, metod va baholash amaliyotida ko‘rinish topganida pedagogik kategoriya sifatida mazmun kasb etadi. Bu yondashuv xalqarolashuvni

ko‘rsatkichlar to‘plamiga aylantirib qo‘yish xavfini kamaytiradi, chunki u “nima uchun” va “qanday natija beradi” degan savollarni markazga qo‘yadi.

Xalqarolashuvning ta’rifiga doir xalqaro konsepsiyalarda global va madaniyatlararo o‘lchamni oliy ta’lim funksiyalariga integratsiya qilish g‘oyasi ustuvor [2]. Mazkur tadqiqot ushbu g‘oyani qabul qilgan holda, integratsiyaning pedagogik mezonini aniqlashtiradi: agar integratsiya bitiruvchi kompetensiyalari va akademik madaniyatning sifat o‘zgarishlariga olib kelmasa, u tashkiliy faoliyat darajasida qoladi. Bu yerda muhim farq shundaki, pedagogik kategoriya sifatidagi xalqarolashuv o‘qituvchi va talabaning o‘zaro ta’siri, o‘quv vazifalarining mazmuni, baholashning shaffofligi hamda refleksiv o‘rganish tajribasida namoyon bo‘ladi. Natijada xalqarolashuvni didaktik jarayonning “ichki” komponentlariga bog‘lash uni ta’lim sifati diskursi bilan bevosita tutashtiradi.

“Ichki” va “tashqi” xalqarolashuv farqlanishi haqidagi ilmiy pozitsiya [3] mazkur maqolada taklif etilgan yo‘nalishlar tasnifida yangi mantiqiy uyg‘unlik kasb etdi. Akademik mobillik va qo‘shma dasturlar ko‘pincha “tashqi” shakllar sifatida ko‘riladi, biroq ularning pedagogik samarasi “ichki” o‘zgarishlar, ya’ni o‘quv rejalari modernizatsiyasi, baholash standartlarining uyg‘unlashuvi va kampus muhitidagi madaniyatlararo hamkorlik rivojiga bog‘liq. Shuning uchun taklif etilgan tasnif mobillikni faqat harakatlanish fakti bilan emas, balki o‘quv natijalari va kompetensiyalardagi o‘zgarishlar bilan o‘lchash zarurligini ko‘rsatadi. Bu holat, o‘z navbatida, mobillik dasturlarini rejalashtirishda tayyorgarlik modullari, akademik maslahat va qayta integratsiya mexanizmlarini pedagogik dizaynning ajralmas qismi sifatida ko‘rishni talab qiladi.

Raqamli integratsiya yo‘nalishi natijalari zamonaviy oliy ta’limda texnologiyalar xalqarolashuvning “yordamchi” vositasidan ko‘ra ko‘proq, uning mustaqil infrastruktura asosiga aylanayotganini ko‘rsatadi. Raqamli ta’lim bo‘yicha tadqiqotlar ochiq resurslar va onlayn hamkorlik transchegaraviy ta’limni jadallashtirishini qayd etadi [4]. Mazkur maqolada esa bu tezlashuvning pedagogik oqibatlari ajratildi: raqamli integratsiya didaktik dizayn, baholashning ishonchliligi, akademik halollik va ma’lumotlar boshqaruvi kabi komponentlar orqali ta’lim sifatiga bevosita ta’sir qiladi. Shuning uchun texnologik omillar blokini alohida tasniflash nafaqat texnik ta’minot masalasi, balki raqamli pedagogik kompetensiyalarni institutsional rivojlantirish masalasi ekanini ko‘rsatadi.

Ta’sir omillarini besh blokda tizimlashtirish natijasi boshqaruv va pedagogika tutashgan nuqtani aniqroq ko‘rsatadi. Rus ilmiy maktabida oliy ta’limning modernizatsiyasi va integratsiya jarayonlari ko‘pincha institutsional va normativ ramkalar bilan izohlanadi [6], bu esa taklif etilgan modeldagi institutsional hamda normativ-huquqiy bloklarning markaziyligini asoslaydi. Biroq mazkur tadqiqot ushbu bloklarni ijtimoiy-madaniy omillar bilan muvozanatlashtiradi: akademik hamjamiyatning ochiqligi, til muhiti va madaniyatlararo tayyorgarlik bo‘lmasa, eng mukammal normativ baza ham pedagogik natijani kafolatlamaydi. Xalqaro adabiyotda internatsionallashuvning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan “institutsional madaniyat” va inson kapitaliga bog‘liq ekani ta’kidlanadi [5]; shu nuqtai nazardan, ijtimoiy-madaniy blokni alohida ajratish konseptual jihatdan o‘zini oqlaydi.

Mahalliy ilmiy an’anada oliy ta’lim sifatini oshirish, kompetensiyaviy yondashuv va ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish masalalari ustuvor yo‘nalish sifatida yoritiladi [7; 8]. Mazkur maqola ushbu yo‘nalishlarni xalqarolashuv bilan bog‘lab, metodologik qo‘shimcha beradi: xalqarolashuv kompetensiyaviy yondashuvni xalqaro va madaniyatlararo komponentlar bilan boyitadi, shu bilan birga sifatni ta’minlash tizimini transchegaraviy tan olinadigan mezonlarga moslashtirish zaruratini kuchaytiradi. Bu yerda muhim masala shundaki, xalqarolashuv “tayyor model”ni ko‘chirib olish emas, balki o‘quv mazmunini mahalliy ehtiyojlar bilan uyg‘un holda global standartlar bilan qiyosiy moslashtirish jarayonidir. Taklif etilgan tasnif modeli aynan shu moslashtirishning yo‘nalishlari va shartlarini bir tizimda ko‘rsatishi bilan nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, mazkur tadqiqot natijalari xalqarolashuvni baholashda oddiy kvant ko‘rsatkichlar bilan cheklanmaslik kerakligini anglatadi. Ilmiy hamkorlikni faqat maqolalar soni bilan o‘lchash, qo‘shma dasturlarni faqat shartnomalar soni bilan baholash yoki mobillikni faqat qatnashchilar oqimi bilan ifodalash pedagogik natijalarni yashirishi mumkin. Xalqarolashuv pedagogik kategoriya sifatida qaralganda, indikatorlar ta’lim natijalari, o‘qitish metodlari yangilanishi, akademik madaniyat va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalaridagi o‘zgarishlar bilan bog‘lanishi zarur. Bu yondashuv amaliy boshqaruvda resurslarni oqilona yo‘naltirish, xavflarni kamaytirish va barqaror hamkorlikni shakllantirish uchun ham metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. Maqolada oliy ta’lim muassasalari xalqarolashuvi jarayoni pedagogik kategoriya sifatida konseptual aniqlashtirildi va uning mazmuni ta’lim maqsadlari, mazmuni, metodlari hamda natijalariga xalqaro va madaniyatlararo o‘lchamni integratsiya qiluvchi tizimli transformatsiya sifatida asoslandi. Tizimli-tahliliy yondashuv orqali xalqarolashuvning asosiy yo‘nalishlari akademik mobillik, qo‘shma ta’lim

dasturlari, xalqaro ilmiy hamkorlik va ta’limning raqamli integratsiyasi kesimida tasniflandi hamda ularning pedagogik natijalar bilan bog‘lanish mantiqi ochib berildi. Shuningdek, xalqarolashuvga ta’sir etuvchi omillar institutsional, ijtimoiy-madaniy, normativ-huquqiy, iqtisodiy va texnologik bloklarda tizimlashtirilib, yo‘nalishlarning barqarorligi va samaradorligini belgilovchi shartlar sifatida talqin qilindi. Tadqiqotning ilmiy hissasi xalqarolashuv amaliyotini alohida tashkiliy tadbirlar majmui sifatida emas, balki pedagogik jarayonning ichki sifat ko‘rsatkichlariga ta’sir qiladigan integrativ tizim sifatida tushuntiruvchi tasnif modelini taklif etganidadir. Amaliy jihatdan mazkur model oliy ta’lim muassasalarida xalqarolashuv strategiyasini loyihalash, ustuvor yo‘nalishlarni tanlash, resurslarni taqsimlash va sifatni baholash mezonlarini pedagogik natijalarga bog‘lash uchun metodologik asos bo‘la oladi. Kelgusida tadqiqotlar ushbu tasnif modelining empirik validatsiyasi, yo‘nalishlar bo‘yicha indikatorlar tizimini ishlab chiqish hamda raqamli integratsiya sharoitida akademik halollik va baholash ishonchliligining pedagogik mexanizmlarini chuqurlashtirishga qaratilishi maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar:

1. Knight J. Internationalization of Higher Education: An Evolving Landscape, Internationalization of Higher Education. New York: Routledge, 2012. 248 p.

2. de Wit H. Internationalisation of Higher Education in Europe and its Assessment, Trends and Issues. Amsterdam: European Association for International Education, 2011. 196 p.

3. Hudzik J.K. Comprehensive Internationalization: From Concept to Action. Washington, DC: NAFSA: Association of International Educators, 2011. 132 p.

4. Bates T. Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning. Vancouver: Tony Bates Associates Ltd, 2019. 520 p.

5. Altbach P.G., Reisberg L., Rumbley L.E. Trends in Global Higher Education: Tracking an Academic Revolution. Paris: UNESCO, 2009. 254 p.

6. Филиппов В.М. Интернационализация высшего образования: тенденции и перспективы. Москва: РУДН, 2010. 240 с.

7. Abdullaeva M. Oliy ta’limda sifatni ta’minlashning pedagogik asoslari. Toshkent: Fan, 2018. 180 b.

8. Karimov U. Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash metodikasi. Samarqand: Samarqand universiteti nashriyoti, 2020. 156 b.

OLIY TA’LIM TIZIMIDA RAQOBATBARDOSH KADRLAR TAYYORLASHNING STRATEGIK BOSHQARUV MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Muxtarov Shavkat Kadirovich,
Buxoro davlat universiteti o‘qituvchisi

Ushbu maqolada oliy ta’lim tizimida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning strategik boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish masalasi tahlil qilingan. Tadqiqotda O‘zbekiston oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, oliy ta’limni isloh qilish bo‘yicha so‘nggi institusional o‘zgarishlar, mehnat bozori talablari, ta’lim sifati menejmenti, universitet avtonomiyasi, raqamli transformatsiya va ish beruvchilar bilan hamkorlik kabi omillar kompleks ko‘rib chiqildi. Shuningdek, HR-amaliyotlar, sifat menejmenti modellari, ECTS, xalqaro reytinglar va Germaniya hamda Niderlandiya tajribasi asosida oliy ta’lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiluvchi boshqaruv yechimlari yoritildi. Tahlil natijasida raqobatbardosh kadr tayyorlashda strategik boshqaruvning asosiy yo‘nalishlari sifatida universitet avtonomiyasi, natijaga asoslangan boshqaruv, mehnat bozori bilan integratsiya, akademik kadrlar salohiyatini rivojlantirish, ichki sifat kafolati va raqamli boshqaruv infratuzilmasini kuchaytirish zarurligi asoslab berildi.

Kalit so’zlar: *oliy ta’lim, raqobatbardosh kadrlar, strategik boshqaruv, universitet avtonomiyasi, ta’lim sifati, HR-strategiya, mehnat bozori, xalqaro tajriba.*

УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СТРАТЕГИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ УПРАВЛЕНИЯ ДЛЯ ПОДГОТОВКИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОГО ПЕРСОНАЛА В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

В данной статье анализируется вопрос совершенствования механизмов стратегического управления подготовкой конкурентоспособных кадров в системе высшего образования. В исследовании всесторонне рассмотрены такие факторы, как Концепция развития системы высшего образования Узбекистана до 2030 года, последние институциональные изменения в реформе высшего образования, требования рынка труда, управление качеством образования, автономия университетов, цифровая трансформация и сотрудничество с работодателями. Также рассмотрены управленческие решения, способствующие повышению конкурентоспособности высших учебных заведений на основе кадровой практики, моделей управления качеством, ECTS, международных рейтингов, а также опыта Германии и Нидерландов. В результате анализа обоснованы основные направления стратегического управления подготовкой конкурентоспособных кадров: автономия университетов, управление, ориентированное на результат, интеграция с рынком труда, развитие потенциала академического персонала, внутреннее обеспечение качества и укрепление цифровой управленческой инфраструктуры.

Ключевые слова: *Высшее образование, конкурентоспособный персонал, стратегическое управление, автономия университета, качество образования, кадровая стратегия, рынок труда, международный опыт.*

HEAT PUMP TECHNOLOGY AND POSSIBILITIES OF ITS APPLICATION IN PRACTICE

This article analyzes the issue of improving strategic management mechanisms for training competitive personnel in the higher education system. The study comprehensively considered factors such as the Concept for the Development of the Higher Education System of Uzbekistan until 2030, recent institutional changes in higher education reform, labor market requirements, education quality management, university autonomy, digital transformation, and cooperation with employers. It also covered management solutions that serve to increase the competitiveness of higher education institutions based on HR practices, quality management models, ECTS, international ratings, and the experience of Germany and the Netherlands. As a result of the analysis, the main areas of strategic management in training competitive personnel were justified: university autonomy, results-based management, integration with the labor market, development of academic personnel potential, internal quality assurance, and strengthening the digital management infrastructure.

Keywords: *higher education, competitive personnel, strategic management, university autonomy, quality of education, HR strategy, labor market, international experience.*

Kirish. Bugungi globallashuv, raqamli iqtisodiyot, innovasion taraqqiyot va mehnat bozoridagi keskin o‘zgarishlar sharoitida oliy ta’lim muassasalarining vazifasi faqat diplom berish bilan cheklanmay, balki mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan, amaliy ko‘nikmalarga ega, raqamli savodxon, mustaqil fikrlaydigan va raqobat muhitiga moslasha oladigan kadrlarni tayyorlashdan iborat bo‘lib bormoqda [1; 3]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son farmoni bilan tasdiqlangan 2030-yilgacha oliy ta’limni rivojlantirish konsepsiyasida ham oliy ta’lim sifati, amaliy ko‘nikmalarga yo‘naltirilgan ta’lim, kadrlar buyurtmachilarini faol jalb etish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va boshqaruvni takomillashtirish ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan [1]. Xususan, konsepsiyada oliy ta’lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, kamida 10 ta OTMni QS, THE yoki ARWU reytinglarining top-1000 taligiga kiritish va o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazish vazifalari qayd etilgan [1].

Shu nuqtayi nazardan, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash muammosi strategik boshqaruv bilan bevosita bog‘liqdir. Agar ta’lim dasturlari mehnat bozori talablariga mos tarzda muntazam yangilanmasa, professor-o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi tizimli yo‘lga qo‘yilmasa, ta’lim sifatini baholash va monitoring qilish mexanizmlari samarali ishlamasa, ish beruvchilar bilan hamkorlik institusional tus olmasa, bitiruvchilarning raqobatbardoshligini barqaror ta’minlash qiyinlashadi [3–5]. Milliy tadqiqotlarda ham raqobatbardosh bitiruvchi tayyorlashga ta’sir etuvchi tashqi va ichki omillar — institusional muhit, mehnat bozoridagi talab va taklif, innovasion faollik, universitet moslashuvchanligi va pedagogik strategiya — alohida ajratib ko‘rsatilgan [4].

So‘nggi yillarda O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida sezilarli institusional o‘zgarishlar kuzatildi. 2024 yilgi rasmiy materiallarga ko‘ra, oliy ta’lim va ilmiy-innovasion faoliyatni integratsiya qilish doirasida vazirlik tuzilmasi yangilangan, 40 ta OTMga akademik va moliyaviy avtonomiya berilgan, xalqaro reytinglarda ilk bor qator universitetlar top-1000 ro‘yxatga kirgani ta’kidlangan [2]. Bu jarayonlar oliy ta’lim muassasalarini an’anaviy ma’muriy tuzilmadan strategik rivojlanuvchi institutga aylantirishga xizmat qilayotganini ko‘rsatadi [1; 2].

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda oliy ta’lim tizimining raqobatbardoshligi, avvalo, HR-innovatsiyalar, akademik kadrlarni jalb etish va ularni institutsional tizimda saqlab qolish, kasbiy rivojlanishni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash, faoliyat natijalarini baholash hamda rag‘batlantirish mexanizmlari, shuningdek, oliy ta’lim va biznes hamkorligi bilan uzviy bog‘liq ekani alohida ta’kidlanadi [3]. 2024-yilda HR yo‘nalishida o‘tkazilgan tadqiqotlarda ham oliy ta’lim muassasalarining global raqobatbardoshligini ta’minlashda iste’dodlarni samarali boshqarish, qo‘llab-quvvatlovchi akademik muhitni shakllantirish va ma’lumotlarga asoslangan rag‘batlantirish tizimlarini joriy etish muhim omillar sifatida e’tirof etilgan [3]. Shu nuqtayi nazardan, mazkur maqolaning maqsadi oliy ta’lim tizimida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning strategik boshqaruv mexanizmlarini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish, milliy va xorijiy tajribani qiyosiy baholash hamda ushbu yo‘nalish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat [1–5].

Metod: Mazkur tadqiqotda sifat tahliliga asoslangan kompleks yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot predmetining ko‘p qirrali xususiyati — huquqiy-normativ asoslar, institusional rivojlanish, ta’lim sifati, mehnat bozori bilan integratsiya, akademik kadrlar siyosati va xalqaro tajribaning bir vaqtda ishtirok etishi — masalani birgina statistik yoki tor sohaviy usul bilan emas, balki o‘zaro bog‘liq tahlil usullari orqali o‘rganishni taqozo etdi [1; 3–5]. Shu sababli tadqiqotda normativ-huquqiy tahlil, qiyosiy tahlil, institusional tahlil va kontent-tahlil usullaridan foydalanildi [1; 4; 5].

Empirik baza sifatida, birinchi navbatda, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi olindi. Unda oliy ta’limni modernizatsiya qilish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini yangi bosqichga ko‘tarish, kadrlar buyurtmachilarini faol jalb etish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, ilmiy-innovasion infratuzilmani shakllantirish va OTMlar boshqaruvini takomillashtirish vazifalari belgilab berilgan [1]. Ikkinchi guruh manbalarni 2024–2025-yillardagi rasmiy islohotlar haqidagi ma’lumotlar tashkil qildi [2; 6]. Uchinchi guruhga milliy ilmiy maqolalar, to‘rtinchi guruhga esa oliy ta’limda HR-amaliyotlar va ishchi kuchini rivojlantirishga bag‘ishlangan xalqaro tadqiqotlar kiritildi [3–5].

Normativ-huquqiy tahlil yordamida davlat siyosati darajasida raqobatbardosh kadr tayyorlash uchun qanday ustuvor yo‘nalishlar belgilangani o‘rganildi [1]. Qiyosiy tahlil orqali milliy islohotlar xalqaro HR va universitet boshqaruvi tendensiyalari bilan taqqoslandi [2;3;6]. Institusional tahlilda raqobatbardosh bitiruvchini shakllantiruvchi tashqi va ichki omillar — institusional muhit, mehnat bozoridagi talab va taklif, davlat-xususiy sheriklik, universitet avtonomiyasi, innovasion va investision faollik, moslashuvchanlik, imidj — asosiy analitik mezonlar sifatida qabul qilindi [4]. Kontent-tahlilda “raqobatbardosh kadr”, “sifat

menejmenti”, “strategik boshqaruv”, “talant menejmenti”, “akademik muhit” kabi tushunchalar mazmuni o‘rganildi [3–5].

Metodologik jihatdan tadqiqot to‘rt bosqichda tashkil etildi: avval raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga ta’sir etuvchi omillar aniqlandi; keyin ushbu omillarga mos strategik boshqaruv mexanizmlari tasniflandi; so‘ng milliy va xorijiy amaliyot qiyosiy baholandi; yakunda olingan natijalar sintez qilinib, amaliy boshqaruv takliflari ishlab chiqildi [1; 3–5]. Mazkur bosqichma-bosqich yondashuv tadqiqot xulosalarining izchilligi va mantiqiy yaxlitligini ta’minladi [1].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, oliy ta’lim tizimida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash samaradorligi alohida bir omilga emas, balki o‘zaro bog‘liq strategik boshqaruv mexanizmlari majmuasiga tayanadi [1–5]. Tahlil qilingan manbalar asosida bu mexanizmlar quyidagi asosiy yo‘nalishlarda namoyon bo‘ldi: institusional avtonomiya va boshqaruvni modernizatsiya qilish, ta’lim sifati menejmentini kuchaytirish, akademik HR-strategiyani rivojlantirish, mehnat bozori va ish beruvchilar bilan integratsiyani chuqurlashtirish, raqamli transformatsiya hamda innovasion ekotizimni kuchaytirish [1–3; 5].

Birinchi muhim natija universitet avtonomiyasining hal qiluvchi institusional omil sifatida namoyon bo‘lganidir. 2024-yilgi rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 40 ta oliy ta’lim muassasasiga akademik va moliyaviy avtonomiya berilgan [2]. Bu ularga o‘quv rejalari va dasturlarini tasdiqlash, kvalifikatsiya talablarini shakllantirish, ta’lim muddati va qiymatini belgilash, akademik mobillikni yo‘lga qo‘yish kabi masalalarda mustaqil qaror qabul qilish imkonini bergan [2]. Bu holat strategik boshqaruv nuqtayi nazaridan universitetlarning mehnat bozori talablariga tezroq moslashishiga xizmat qiladi [1; 2].

Ikkinchi natija ta’lim dasturlarini xalqaro mezonlar asosida qayta ko‘rib chiqish amaliyoti kuchayganini ko‘rsatdi. Rasmiy manbada 183 ta bakalavriat kvalifikatsiya talablari ishlab chiqilib tasdiqlangani, ularni tayyorlashda yetakchi xorijiy universitetlar dasturlari inobatga olingani va qator dasturlar xalqaro akkreditatsiyadan o‘tgani qayd etilgan [2]. Bu raqobatbardosh kadr tayyorlash faqat ichki islohot emas, balki xalqaro sifat mezonlari bilan uyg‘unlashtirilayotgan jarayon ekanini ko‘rsatadi [1; 2].

Uchinchi natija mehnat bozori va ish beruvchilar bilan munosabatlar darajasi raqobatbardosh kadr tayyorlashga bevosita ta’sir qilishini tasdiqladi [2; 4]. Milliy tadqiqotda tashqi omillar sifatida institusional muhit, mehnat bozoridagi talab va taklif munosabatlari hamda ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi qayd etilgan [4]. Rasmiy ma’lumotlarda esa 5000 dan ortiq kasb bo‘yicha malaka standartlarini ishlab chiqish, “sanoat–korxona–universitet” zanjirini rivojlantirish, dual ta’lim va hamkor korxonalarda kafedralar ochish rejalari keltirilgan [2].

To‘rtinchi natija ta’lim sifati menejmenti raqobatbardosh kadr tayyorlashning markaziy institusional asosi ekanini ko‘rsatdi [5]. Sifat menejmenti bo‘yicha milliy manbada TQM tamoyillarini qo‘llash, hujjatlarni boshqarish, monitoring tizimini yaratish, ichki tekshiruvlar, o‘zini o‘zi baholash va doimiy takomillashtirishning ahamiyati alohida ta’kidlangan [5]. Universitet sifat menejmenti tizimi samaradorligi uning qanday modellashtirilganiga bog‘liqligi qayd etilgan [5].

Beshinchi natija akademik kadrlar siyosati va HR-amaliyotlari oliy ta’lim muassasalari raqobatbardoshligining muhim strategik omili ekanini tasdiqladi [3]. Xalqaro tadqiqotlarda akademik muassasa va HR boshqaruvi o‘rtasidagi strategik uyg‘unlikni ta’minlash, ta’lim maqsadlarini sanoat ehtiyojlari bilan moslashtirish, martaba o‘sishini qo‘llab-quvvatlash, ijobiy akademik muhit yaratish, kasbiy rivojlanish mexanizmlarini takomillashtirish hamda samaradorlik va rag‘batlantirish tizimlarini joriy etish akademik ustunlikning asosiy shartlaridan biri sifatida baholangan [3]. Shu bois professor-o‘qituvchilarni jalb qilish, saqlab qolish va rivojlantirishga qaratilgan strategik yondashuvlar universitetning institutsional barqarorligi va raqobat mavqeini belgilovchi muhim omil hisoblanadi [3].

Oltinchi natija raqamli transformatsiya va innovatsion rivojlanishning ahamiyatini yorqin namoyon qildi. Konsepsiyada raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni ta’lim jarayoniga joriy etish alohida ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan [1]. 2024–2025 yilgi rasmiy va ilmiy manbalarda esa universitetlarning ilmiy va innovasion faoliyatini kuchaytirish, “University 3.0” modeli, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish tendensiyalari qayd etilgan [2; 6].

Tadqiqot natijalari muhokamasi shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim tizimida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalasi faqat o‘quv rejalarini yangilash bilan cheklanmaydi; u oliy ta’lim muassasasining strategik boshqaruv modeli qay darajada zamonaviy talablarga mos ekani bilan belgilanadi [1; 4; 5]. Strategik boshqaruv bu yerda ichki ma’muriy funksiya emas, balki universitetning institusional raqobatbardoshligini ta’minlovchi asosiy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi [1]. O‘zbekistonning 2030-yilgacha rivojlanish konsepsiyasida boshqaruvni takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, kadrlar buyurtmachilarini jalb qilish va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish bir tizim doirasida ko‘rilgani ham shu xulosani tasdiqlaydi [1].

Avtonomiyaning ahamiyatiga kelsak, natijalar universitet mustaqilligini faqat huquqiy erkinlik emas, balki raqobatbardosh kadr tayyorlashning amaliy sharti sifatida ko‘rsatdi [2; 4]. Ta’lim dasturlarini tez yangilash, yangi mutaxassisliklar ochish, o‘quv shakllarini diversifikatsiya qilish va mehnat bozori talablariga mos qaror qabul qilish uchun universitetga muayyan darajada mustaqillik zarur [1; 2]. Biroq avtonomiya ichki sifat kafolati, KPI, ochiq monitoring va tashqi baholash bilan mustahkamlanmasa, u samarasiz bo‘lishi mumkin [1; 5]. Shu bois avtonomiya va hisobdorlik muvozanati strategik boshqaruvning markaziy masalasi hisoblanadi [1; 2].

Sifat menejmentiga oid natijalardan kelib chiqib aytish mumkinki, raqobatbardosh kadr tayyorlash uchun universitetlarda sifatni rejalashtirish, monitoring, tahlil, ichki tekshiruv, o‘zini o‘zi baholash va doimiy takomillashtirishning uzluksiz sikli shakllanishi kerak [5]. TQM tamoyillarini qo‘llash, ISO 9001, EFQM, CHEPS, VSNU kabi modellardan foydalanish haqidagi fikrlar ta’lim muassasalarida sifat siyosatini tizimlashtirish zarurligini ko‘rsatadi [5]. Demak, sifat menejmenti raqobatbardosh kadr tayyorlashning texnik emas, strategik qismi hisoblanadi [5].

Mehnat bozori bilan integratsiya bo‘yicha natijalar ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va yangilashda ish beruvchilar ishtirokini institusionallashtirish zarurligini ko‘rsatdi [2; 4]. Milliy tadqiqotda tashqi omillar orasida mehnat bozori kon’yunkturasi va ta’lim–ishlab chiqarish integratsiyasi alohida ko‘rsatilgan [4], xalqaro HR tadqiqotida esa academia-business cooperation adaptiv va skilled workforce yaratishda muhim mexanizm sifatida talqin etilgan [3]. Bu ikki yondashuv bir nuqtada tutashadi: ta’lim muassasasi faqat bilim beruvchi emas, balki iqtisodiyotga qiymat qo‘shuvchi inson kapitalini tayyorlovchi institut bo‘lishi kerak [2–4].

Akademik kadrlar siyosatiga oid natijalar oliy ta’lim muassasasining umumiy rivojlanishida inson resurslarini boshqarish tizimi hal qiluvchi o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Jumladan, kasbiy rivojlanish, samaradorlikni baholash va rag‘batlantirish tizimlari, ijobiy akademik muhit hamda iste’dodlarni boshqarish universitetning institutsional natijadorligini belgilovchi muhim omillar sifatida namoyon bo‘ladi [3]. Ushbu holat milliy amaliyot uchun ham dolzarb bo‘lib, raqobatbardosh bitiruvchini tayyorlash jarayoni, avvalo, raqobatbardosh professor-o‘qituvchilar korpusini shakllantirish va rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liqdir [3; 5]. Binobarin, HR-boshqaruv oliy ta’lim tizimida yordamchi ma’muriy faoliyat emas, balki strategik rivojlanish va sifatli kadrlar tayyorlashni ta’minlovchi ustuvor boshqaruv yo‘nalishi sifatida qaralishi lozim [3].

Shu tariqa, tadqiqot muhokamasi raqobatbardosh kadr tayyorlashni ta’minlovchi mexanizmlar parchalangan emas, balki integral tizim sifatida ishlaganda samara berishini ko‘rsatdi [1–5]. Avtonomiya, sifat kafolati, HR-strategiya, ish beruvchilar bilan hamkorlik va raqamli boshqaruv o‘zaro uyg‘unlashgandagina universitet milliy va xalqaro mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kadrlar tayyorlashga qodir bo‘ladi [1–3; 5].

Xulosa: Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, oliy ta’lim tizimida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni ta’minlash alohida islohotlar bilan emas, balki strategik boshqaruvning o‘zaro bog‘liq mexanizmlarini shakllantirish orqali amalga oshirilishi mumkin [1–5]. Zamonaviy oliy ta’lim muassasasi ta’lim beruvchi institut bo‘lish bilan birga inson kapitalini rivojlantiruvchi, mehnat bozori talablariga tez moslashuvchi, innovatsiya va tadqiqotni qo‘llab-quvvatlovchi, raqamli boshqaruvga tayanuvchi va tashqi manfaatdor tomonlar bilan uzviy hamkorlik qiluvchi institusional tizim bo‘lishi lozim [1; 2; 6].

Tadqiqot xulosalariga ko‘ra, universitet avtonomiyasi raqobatbardosh kadr tayyorlashning muhim institusional asosidir, ammo u hisobdorlik, ichki sifat kafolati va tashqi baholash mexanizmlari bilan uyg‘unlashtirilganda yuqori samara beradi [1; 2; 5]. Shuningdek, TQM va doimiy monitoringga tayangan sifat menejmenti tizimi, mehnat bozoriga yo‘naltirilgan dasturlar, ish beruvchilar bilan institutsional hamkorlik va akademik kadrlarni strategik boshqarish raqobatbardosh bitiruvchi tayyorlashning asosiy sharti hisoblanadi [3–5].

Amaliy jihatdan, har bir oliy ta’lim muassasasida “bitiruvchi kompetensiyasi — ta’lim dasturi — o‘qitish jarayoni — baholash tizimi — bandlik natijasi” zanjiri asosida integrallashgan boshqaruv modelini shakllantirish zarur [2; 4]. Ushbu model doirasida bitiruvchilarni kuzatib borish tizimi, ish beruvchilar bahosi, samaradorlikning asosiy ko‘rsatkichlari (KPI), raqamli analitika, individual kasbiy rivojlanish trayektoriyalari hamda xalqaro standartlar bilan qiyosiy baholash instrumentlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi [1–3; 5]. Natijada oliy ta’lim muassasalarining institutsional natijadorligi ortadi, ta’lim jarayonining boshqaruv sifati takomillashadi va milliy iqtisodiyot uchun yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash imkoniyatlari kengayadi [1; 2].Shunday qilib, oliy ta’limni modernizatsiya qilishning keyingi bosqichi avtonomiya, sifat menejmenti, HR-strategiya, mehnat bozori bilan integratsiya va raqamli transformatsiyani institusional jihatdan mustahkamlash bilan bog‘liq bo‘lishi kerak [1–5]. Aynan shu holatda

oliy ta’lim tizimi milliy va xalqaro mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash vazifasini to‘liq bajara oladi [1; 2; 6].

Adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, PF-5847-son, 8 oktyabr 2019 yil. https://lex.uz/docs/4545884

2.Generalnoye konsulstvo Respubliki Uzbekistan v gorode Aktau. “Reforms in the Higher Education System of Uzbekistan Aimed at Preparing Competitive Personnel”, 2024. https://uzconsulate-aktau.kz/en/2024/reforms-in-the-higher-education-system-of-uzbekistan-aimed-at-preparing-competitive-personnel/

3.Al-Hamad, N., et al. “Innovative HR Practices in Higher Education for Global Competitiveness.” *Education Sustainability & Society*, 2024. https://educationsustability.com/paper/1ess2024/1ess2024-21-30.pdf

4.Qahhorov O.S, “Oliy ta’lim muassasalarida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga ta’sir etuvchi omillar tahlili.” *Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar*. https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/4_Kaxxorov_.pdf

5.Askarov A.D. “Raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda oliy ta’lim sifati menejmentining zamonaviy tendensiyalari.” https://hp.jdpu.uz/index.php/phys-tech/article/download/6084/4315/

6.Qayumova M. “Enhancing Uzbekistan's Higher Education System for Sustainable Workforce Development.” *American Journal of Economics and Business Management*, Vol. 8, No. 4, 2025. https://globalresearchnetwork.us/index.php/ajebm/article/view/3457

7.HR in Asia. “The Best HR Talents Come from These Top 10 Universities: Survey.” https://www.hrinasia.com/general/the-best-hr-talents-comes-from-these-top-10-universities-survey/

NODAVLAT OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA BOSHLANG‘ICH TA’LIM YO‘NALISHI BO‘YICHA TA’LIM SIFATINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY ASOSLARI

Xakimova Gulchehra Sayrixonovna,
Buxoro xalqaro unversiteti tayanch doktoranti
gulchehraxakimova746@gmail.com

Maqolada nodavlat oliy ta’lim muassasalarida boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim sifatini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda sifat menejmentining zamonaviy modellari (TQM, SBM, RBM), ichki va tashqi sifat ta’minoti mexanizmlari, hamda boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarini tayyorlashning o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Muallif tomonidan nodavlat oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirishning ilmiy asoslangan uch bosqichli modeli taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: *nodavlat oliy ta’lim, boshlang‘ich ta’lim, ta’lim sifati, sifat ta’minoti, TQM, akkreditatsiya, pedagogik mahorat, sifat menejmenti.*

НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ ПО НАПРАВЛЕНИЮ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

В статье анализируются научно-теоретические основы совершенствования качества образования по направлению начального образования в негосударственных высших учебных заведениях. В исследовании освещены современные модели менеджмента качества (TQM, SBM, RBM), механизмы внутреннего и внешнего обеспечения качества, а также особенности подготовки студентов направления начального образования. Автором предложена научно обоснованная трехэтапная модель повышения качества образования в негосударственных высших учебных заведениях.

Ключевые слова: *негосударственное высшее образование, начальное образование, качество образования, обеспечение качества, TQM, аккредитация, педагогическое мастерство, менеджмент качества.*

SCIENTIFIC FOUNDATIONS FOR IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION IN PRIMARY EDUCATION PROGRAMS AT NON-GOVERNMENTAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

The article analyzes the scientific and theoretical foundations of improving the quality of education in the field of primary education in non-state higher education institutions. The study highlights modern quality management models (TQM, SBM, RBM), mechanisms of internal and external quality assurance, as well as the specifics of training students in the field of primary education. The author proposes a scientifically based three-stage model for improving the quality of education in non-state higher education institutions.

Keywords: *non-state higher education, primary education, quality of education, quality assurance, TQM, accreditation, pedagogical skills, quality management.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan oliy ta’lim islohotlari natijasida nodavlat oliy ta’lim muassasalarining (NOTM) soni va ularning ta’lim xizmatlaridagi ulushi sezilarli darajada oshdi. 2025-yilga kelib, mamlakatimizda 30 dan ortiq nodavlat universitet va institutlar faoliyat yuritmoqda, ularning aksariyatida pedagogik yo‘nalishlar, xususan, boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi mavjud. Biroq NOTMda ta’lim sifatini baholash va uni kafolatlash tizimi hali to‘liq shakllanmagan. Jamiyatda nodavlat oliy ta’lim sifatiga nisbatan turli xil qarashlar va ishonchsizlik mavjud bo‘lib, ularni ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida bartaraf etish zarurati tug‘ilmoqda [1].

Boshlang‘ich ta’lim pedagog kadrlarini tayyorlash alohida mas’uliyatni talab qiladi. Xalqaro tadqiqotlar (PIRLS, TIMSS) natijalari shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining tayyorgarlik darajasi o‘quvchilarning keyingi ta’lim muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi [2]. Shu sababli, NOTMda boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim sifatini takomillashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ham dolzarb hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda oliy ta’limda sifat menejmentining turli modellari keng yoritilgan. Deming (1986) tomonidan ishlab chiqilgan Total Quality Management (TQM) modeli ta’lim jarayonining barcha

ishtirokchilarini sifatni ta’minlashga jalb qilishni nazarda tutadi [3]. Harvey va Green (1993) ta’lim sifatini besh xil nuqtayi nazardan (mukammallik, izchillik, maqsadga muvofiqlik, pulga teng qiymat va transformatsiya) talqin qilishni taklif qilgan [4]. Biroq ushbu modellarning NOTM, xususan, boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi kontekstida qo‘llanilishi bo‘yicha maxsus tadqiqotlar yetarli emas.

Maqolaning maqsadi – nodavlat oliy ta’lim muassasalarida boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim sifatini takomillashtirishning ilmiy asoslangan modelini ishlab chiqish va uning tarkibiy elementlarini asoslashdan iborat.

Asosiy qism.

Nodavlat oliy ta’limda sifat menejmentining nazariy asoslari.

1. Sifat tushunchasi va uning ta’limdagi talqini.

Ta’lim sifati murakkab va ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, uning yagona ta’rifi mavjud emas. Harvey va Green (1993) ta’lim sifatini besh xil nuqtayi nazardan talqin qilishni taklif qilgan: sifat mukammallik sifatida, sifat izchillik sifatida, sifat maqsadga muvofiqlik sifatida, sifat pulga teng qiymat sifatida va sifat transformatsiya (o‘zgarish) sifatida [4]. Nodavlat oliy ta’lim muassasalari kontekstida sifat ko‘pincha “iste’molchilar ehtiyojlarini qondirish” va “bozor talablariga javob berish” nuqtayi nazaridan talqin qilinadi.

Ta’lim sifatini ta’minlash tizimi – bu ta’lim muassasasining barcha faoliyat yo‘nalishlarini qamrab oluvchi, uzluksiz takomillashtirishga qaratilgan mexanizmlar majmuidir. Ushbu tizimning asosiy vazifasi – ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida belgilangan standartlar va talablarga rioya etilishini kafolatlashdan iborat.

2. Sifat ta’minotining asosiy modellari.

Xalqaro tajribada oliy ta’limda sifat ta’minotining bir qancha modellari ishlab chiqilgan:

Total Quality Management (TQM) – Deming (1986) tomonidan ishlab chiqilgan ushbu model ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini (talabalar, o‘qituvchilar, ma’muriyat, ish beruvchilar) sifatni ta’minlash jarayoniga jalb qilishni nazarda tutadi [3]. TQM modelining ta’limdagi qo‘llanilishi uzluksiz takomillashtirish falsafasiga asoslanadi. Modelning asosiy tamoyillari: iste’molchiga yo‘naltirilganlik, barcha xodimlarni jalb qilish, jarayonli yondashuv, tizimli boshqaruv, uzluksiz takomillashtirish, faktlarga asoslangan qarorlar qabul qilish va o‘zaro manfaatli hamkorlik.

School-Based Management (SBM) – bu model ta’lim muassasalariga keng avtonomiya berish, ularning mahalliy ehtiyojlar va sharoitlardan kelib chiqib o‘z rivojlanish strategiyasini belgilash imkoniyatini yaratadi. SBM modelida qarorlar qabul qilish vakolati markaziy hokimiyat organlaridan ta’lim muassasasiga beriladi, bu esa muassasaning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda samarali boshqaruvni ta’minlaydi.

Results-Based Management (RBM) – natijalarga asoslangan boshqaruv modeli bo‘lib, ta’lim faoliyatining samaradorligini aniq, o‘lchanadigan natijalar orqali baholashga qaratilgan. Ushbu modelda maqsadlar aniq belgilanadi, resurslar natijalarga erishish uchun yo‘naltiriladi va samaradorlik muntazam ravishda baholanadi.

Nodavlat oliy ta’lim muassasalari uchun ushbu modellarning uyg‘unlashgan shakli eng maqbul hisoblanadi, chunki ular bir vaqtning o‘zida bozor talablariga moslashish, muassasa avtonomiyasi va natijaviylikni ta’minlash imkonini beradi.

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida sifat ta’minotining o‘ziga xos xususiyatlari.

1. Boshlang‘ich ta’lim pedagoglari tayyorlashning mazmuniy jihatlari

Boshlang‘ich ta’lim fakultetlari va yo‘nalishlarida ta’lim sifati ikki darajada namoyon bo‘ladi: birinchidan, talabalarning o‘z bilim va ko‘nikmalarining sifati; ikkinchidan, ular kelajakda boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta’lim berish jarayonini tashkil etishdagi kompetentligi.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Boshlang‘ich ta’lim fakulteti tajribasiga ko‘ra, boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishidagi sifatni ta’minlash quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi [5]:

- boshlang‘ich ta’lim metodikasi va nazariyasini jamiyat rivojiga mos ravishda rivojlantirish;
- boshlang‘ich ta’lim o‘quv va ilmiy muammolari bo‘yicha texnologik ilmiy-metodik ishlanmalar yaratish;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini bilimini baholashning xalqaro standartlarga mos tizimini joriy etish.

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarini tayyorlash jarayonida quyidagi kompetensiyalarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratiladi: o‘quv fanlarini integratsiyalashgan holda o‘qitish metodikasi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini loyihalash, o‘quvchilarni baholashning zamonaviy usullarini qo‘llash, inklyuziv ta’limni tashkil etish, ota-onalar bilan samarali hamkorlik qilish ko‘nikmalari.

2. Amaliyotga yo‘naltirilganlik tamoyili.

Nodavlat oliy ta’lim muassasalarining muhim afzalliklaridan biri ularning amaliyotga yo‘naltirilganligidir. Yangi asr universiteti tajribasida bitiruvchilarning ish bilan ta’minlanishi masalasi o‘quv jarayonining ajralmas qismi sifatida qaraladi: universitet o‘z bitiruvchilarini o‘z tarkibidagi ta’lim maskanlarida ish bilan ta’minlash imkoniyatini yaratadi [6]. Bu esa o‘quv dasturlarini amaliyot talablariga moslashtirish, amaliy mashg‘ulotlar va pedagogik amaliyotlarning samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Ugandagi boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlash kollejlari tajribasini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, sifat ta’minotining asosiy omillari sifatida “uzluksiz takomillashtirish”, “akkreditatsiya”, “o‘z-o‘zini baholash”, “tashqi imtihonlar” va “talabalarni sifat ta’minotiga jalb qilish” belgilangan [7]. Ushbu omillar boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi kontekstida alohida ahamiyat kasb etadi.

Nodavlat oliy ta’lim muassasalarida sifatni takomillashtirishning ilmiy asoslangan modeli. Tadqiqot natijalariga asoslanib, nodavlat oliy ta’lim muassasalarida boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim sifatini takomillashtirishning quyidagi uch bosqichli modeli taklif etiladi:

1 Modelning strukturaviy elementlari

1-bosqich: Tayyorgarlik bosqichi

Ushbu bosqichda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- SBM (maktabga asoslangan boshqaruv) tamoyillari asosida muassasa rivojlanish strategiyasini belgilash;
- RBM (natijalarga asoslangan boshqaruv) mexanizmlarini joriy etish;
- TQM (umumiy sifat menejmenti) falsafasini qabul qilish;
- Sifat madaniyatini shakllantirish bo‘yicha treninglar tashkil etish;
- Professor-o‘qituvchilar va xodimlarning sifat ta’minoti bo‘yicha malakasini oshirish.

2-bosqich: Sifat ta’minoti tizimini joriy etish bosqichi

Ushbu bosqichda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- Ichki sifat ta’minoti tizimini ishlab chiqish va tasdiqlash;
- Akkreditatsiya talablariga moslashtirilgan o‘quv dasturlarini yaratish;
- Talabalar ishtirokini ta’minlovchi mexanizmlarni joriy etish;
- Doimiy monitoring va baholash tizimini yo‘lga qo‘yish;
- Ish beruvchilar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;
- Elektron ta’lim resurslari va axborot tizimlarini joriy etish.

3-bosqich: Takomillashtirish bosqichi

Ushbu bosqichda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- Monitoring natijalari asosida tuzatishlar kiritish;
- Xalqaro tajribani o‘rganish va adaptatsiya qilish;
- Ilmiy tadqiqotlar asosida metodikani yangilash;
- Sifat tizimining samaradorligini baholash;
- Eng yaxshi tajribalarni tarqatish va ommalashtirish.

2. Modelni amalga oshirishning asosiy shartlari.

Taklif etilayotgan model samaradorligini ta’minlash uchun quyidagi shartlarning bajarilishi zarur:

Birinchi shart – professor-o‘qituvchilar tarkibining yuqori malakasi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, “sifat ta’minotiga nisbatan salbiy munosabat”, “sifat ta’minoti bo‘yicha malakali kadrlarning yetishmasligi” va “sifat ta’minotini amalga oshirishda moliyaviy resurslarning yetishmasligi” sifatni takomillashtirishdagi asosiy to‘siqlar hisoblanadi [7]. Ushbu to‘siqlarni bartaraf etish uchun professor-o‘qituvchilarning malakasini muntazam oshirib borish, ularni sifat jarayonlariga faol jalb qilish va moddiy rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish zarur.

Ikkinchi shart – kommunikatsiya tizimining samaradorligi. “Noto‘g‘ri kommunikatsiya” sifat ta’minoti jarayonlarining samaradorligini pasaytiruvchi muhim omil sifatida aniqlangan. Muassasa ichida ma’lumotlar almashinuvining samarali tizimini yaratish, barcha ishtirokchilarning o‘zaro hamkorligini ta’minlash modelni amalga oshirishning muhim shartidir.

Uchinchi shart – talabalarni sifat ta’minotiga faol jalb qilish. Talabalar fikr-mulohazalari ta’lim sifatini baholashning muhim manbai hisoblanadi. Talabalar ishtirokini ta’minlash uchun ularni ichki sifat ta’minoti tizimining barcha jarayonlariga (o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, baholash, monitoring va boshqalar) jalb qilish zarur.

Xulosa. Nodavlat oliy ta’lim muassasalarida boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim sifatini takomillashtirish kompleks ilmiy asoslangan yondashuvni talab qiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. **Nazariy jihatdan:** Sifat menejmentining zamonaviy modellari (TQM, SBM, RBM) nodavlat oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini ta’minlashning nazariy asosini tashkil etadi. Ushbu modellarning

uyg‘unlashgan shakli – gibrid model – muassasa avtonomiyasi, natijaviylik va barcha ishtirokchilarni jalb qilishni bir vaqtda ta’minlaydi.

2. **Amaliy jihatdan:** Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida sifatni ta’minlash o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ular metodik tayyorgarlik, amaliyotga yo‘naltirilganlik va bolalar psixologiyasini chuqur bilishni talab qiladi. Ushbu xususiyatlarni hisobga olgan holda o‘quv dasturlari va pedagogik amaliyot tizimini takomillashtirish zarur.

3. **Metodik jihatdan:** Taklif etilgan uch bosqichli model (tayyorgarlik – joriy etish – takomillashtirish) nodavlat oliy ta’lim muassasalarining o‘ziga xos shart-sharoitlarini hisobga olgan holda ta’lim sifatini uzluksiz yaxshilash imkonini beradi. Modelning asosiy farqlovchi xususiyati boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishining amaliyotga yo‘naltirilganligini ta’kidlash va talabalarni sifat jarayonlariga faol jalb qilishdir.

4. **Amalga oshirish shartlari:** Modelni amalga oshirishning muhim shartlari sifatida malakali kadrlar, samarali kommunikatsiya va talabalar ishtiroki belgilangan. Ushbu shartlarning bajarilishi modelning samaradorligini ta’minlaydi.

Nodavlat oliy ta’lim muassasalarida boshlang‘ich ta’lim sifatini takomillashtirish bo‘yicha keyingi tadqiqotlar modelni turli muassasalar sharoitida amaliy sinovdan o‘tkazish va uning samaradorligini empirik baholashga qaratilishi zarur.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. (2025). Oliy ta’lim muassasalari reytingi va statistik ma’lumotlar. Toshkent.
2. Mullis, I. V. S., & Martin, M. O. (2019). PIRLS 2021 Assessment Frameworks. TIMSS & PIRLS International Study Center, Boston College.
3. Deming, W. E. (1986). Out of the Crisis. MIT Press.
4. Harvey, L., & Green, D. (1993). Defining quality. Assessment & Evaluation in Higher Education, 18(1), 9-34.
5. Chirchiq davlat pedagogika universiteti. (2024). Boshlang‘ich ta’lim fakulteti faoliyati. https://cspu.uz/
6. Yangi asr universiteti. (2024). Universitet haqida. https://yangiasr.uz/
7. Kigozi, E. (2020). Quality Assurance Practices Applied in PTTCs: Listening to the Student Teachers’ Voice through Focus Group Discussion. Educational Process: International Journal, 9(1), 23-42.
8. Sukseethong, S., Muangman, P., & Srimakutphun, N. (2019). Developing of Internal Quality Assurance System Model in Private School Under Nonthaburi Primary Education Service Area Office 1. Ph.D. in Social Sciences Journal, 9(3), 775–788.
9. Tursunboyeva, S. (2024). Universitetning nufuzli nomi muhimmi yoki u yerdagi ta'lim sifati? UBSLIKLAR blogi. https://ubsu.uz/
10. Oliygoh.uz. (2024). Nodavlat universitetlar haqidagi eng keng tarqalgan 10 afsona. https://oliygoh.uz/

TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK MAHORATNING O‘RNI

Ro‘ziyeva To‘xtagul Jumaboy qizi,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
NTM Matematika kafedrasi assistenti
ruziyevatuxtagul2498@gmail.com

Mazkur maqolada ta’lim sifati tushunchasining mazmuni va uni oshirishda pedagogik mahoratning determinant omil sifatidagi roli ilmiy-nazariy va amaliy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Pedagogik mahorat tarkibiy komponentlari (predmet va didaktik bilimlar, metodik kompetensiya, kommunikativ madaniyat, refleksiya, baholash savodxonligi hamda innovatsion faoliyat) ta’lim natijalariga ta’sir etuvchi mexanizmlar sifatida asoslanadi. Maqolada dars dizayni, o‘quvchilar motivatsiyasi, formatif baholash, differensial yondashuv va raqamli didaktika vositalari orqali ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha metodik tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: *ta’lim sifati, pedagogik mahorat, kasbiy kompetensiya, didaktika, formatif baholash, o‘quv motivatsiyasi, refleksiya, innovatsion pedagogika, raqamli didaktika.*

РОЛІ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО МАСТЕРСТВА В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ

В данной стате на основе научно-теоретических и практических подходов анализируется содержание понятия качества образования и рол педагогического мастерства как детерминирующего фактора его повышения. Обосновываются структурные компоненты педагогического мастерства (предметные и дидактические знания, методическая компетентност, коммуникативная культура, рефлексия, оценочная грамотност, а также инноватsionная деятелност) как механизмы, влияющие на образовательные результаты. В стате представлены методические рекомендатsiu по повышению качества образования посредством проектирования урока, мотиватsiu обучающихся, формативного оценивания, дифференцированного подхода и исползования средств цифровой дидактики.

Ключевые слова: *Качество образования, педагогическое мастерство, профессионалная компетентност, дидактика, формативное оценивание, учебная мотиватsiя, рефлексия, инноватsionная педагогика, цифровая дидактика.*

THE ROLE OF PEDAGOGICAL MASTERY IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION

This article analyzes the content of the concept of education quality and the role of pedagogical mastery as a determining factor in its improvement, based on scientific-theoretical and practical approaches. The structural components of pedagogical mastery (subject and didactic knowledge, methodological competence, communicative culture, reflection, assessment literacy, and innovative activity) are substantiated as mechanisms influencing educational outcomes. The article provides methodological recommendations for improving education quality through lesson design, student motivation, formative assessment, differentiated instruction, and the use of digital didactic tools.

Keywords: *Education quality, pedagogical mastery, professional competence, didactics, formative assessment, learning motivation, reflection, innovative pedagogy, digital didactics.*

Kirish. Ta’lim sifati masalasi zamonaviy ta’lim siyosati va pedagogika ilmida eng muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lib, u nafaqat o‘quvchilarning bilim hajmi, balki kompetensiyalar, qadriyatlar, mustaqil fikrlash, muloqot va muammolarni hal etish ko‘nikmalarining shakllanishi bilan ham belgilanadi. Ta’lim sifati ko‘p omilli tizim sifatida ta’lim mazmuni, ta’lim muhitining resurslari, boshqaruv, baholash tizimi va eng avvalo pedagog faoliyatining sifatiga tayanadi. Shu ma’noda pedagogik mahorat ta’lim jarayonining “ichki dvigateli” bo‘lib, u o‘quvchilar ta’limiy yutuqlarining barqarorligi va chuqurligini ta’minlaydi.

Pedagogik mahorat – bu o‘qituvchining nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarga moslashtira olishi, o‘quvchi ehtiyojlarini diagnostika qilishi, darsni maqsadga yo‘naltirilgan tarzda loyihalashi va o‘qitish jarayonini refleksiv boshqara olishi bilan namoyon bo‘ladigan kompleks kasbiy sifatdir. Shulman (1986)

ta’kidlagan “pedagogik mazmuniy bilim” (pedagogical content knowledge) konsepsiyasi o‘qituvchining predmetni bilishi bilan bir qatorda uni o‘rgatishning eng samarali yo‘llarini bilishi zarurligini ko‘rsatadi. Demak, ta’lim sifatini oshirish masalasida pedagogik mahoratni rivojlantirish strategik vazifa sifatida qaraladi [4].

Ta’lim sifati tushunchasining ilmiy talqini. Ta’lim sifati atamasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Bir yondashuvda u kutilgan o‘quv natijalariga erishish darajasi sifatida, boshqa yondashuvda esa ta’lim jarayonining standartlar, me’yorlar va jamiyat ehtiyojlariga mosligi sifatida izohlanadi. Zamonaviy kompetensiyaviy paradigma sharoitida ta’lim sifati o‘quvchining real hayotiy vaziyatlarda bilimdan foydalanish qobiliyati, ya’ni transfer va metakognitiv ko‘nikmalar bilan o‘lchanadi. Bu esa an’anaviy “bilimni qayta aytish” modelidan “bilimni qo‘llash va yaratish” modeliga o‘tishni talab qiladi.

Ta’lim sifati ko‘rsatkichlari odatda quyidagi yo‘nalishlarda guruhlanadi: (a) kirish resurslari (kadrlar salohiyati, o‘quv-metodik ta’minot, infratuzilma), (b) jarayon ko‘rsatkichlari (darslarning metodik darajasi, o‘quvchi faolligi, tarbiyaviy muhit), (c) chiqish natijalari (baholash natijalari, kompetensiyalar, keyingi bosqichga tayyorgarlik). Ularning barchasida o‘qituvchi faoliyati markaziy o‘rin egallaydi, chunki resurslarning ta’siri ham ko‘pincha pedagogik mahorat orqali “faollashadi”.

Pedagogik mahoratning tuzilmasi va komponentlari. Pedagogik mahoratning strukturaviy modeli odatda bir nechta o‘zaro bog‘liq komponentlarni o‘z ichiga oladi. Birinchidan, predmet va didaktik bilimlar: o‘qituvchi mavzuni chuqur bilishi bilan birga, uni qanday ketma-ketlikda, qanday misollar va modellar orqali tushuntirishni ham puxta rejalashi zarur. Ikkinchidan, metodik kompetensiya: dars maqsadlarini Bloom taksonomiyasi kabi kognitiv darajalar bilan uyg‘unlashtirish, o‘quv topshiriqlarini murakkablik bo‘yicha gradatsiya qilish, differensial va inklyuziv yondashuvni ta’minlash. Uchinchi komponent – kommunikativ madaniyat: aniq, mantiqiy, motivatsion nutq, konstruktiv fikr bildirish, sinfdagi o‘zaro hurmat va psixologik xavfsiz muhitni yaratish [1].

To‘rtinchi komponent – diagnostik va baholash savodxonligi. Format baholash (Black & Wiliam, 1998) tamoyillari asosida o‘quvchi xatolarini “jazolash” emas, balki o‘qish jarayonining tabiiy qismi sifatida ko‘rib, o‘z vaqtida teskari aloqa berish, aniq mezonlar asosida rubrika va chek-listlardan foydalanish o‘qituvchining mahoratini ko‘rsatadi. Beshinchi komponent – refleksiya va o‘zini rivojlantirish: darsdan so‘ng o‘z faoliyatini tahlil qilish, “nimasi ishladi – nimasi ishlamadi – nima o‘zgartiraman?” savollariga dalillar asosida javob topish. Oltinchi komponent – innovatsion faoliyat: raqamli vositalar, interfaol metodlar, loyiha va tadqiqotga yo‘naltirilgan ta’limni maqsadga muvofiq qo‘llash [2].

Pedagogik mahorat ta’lim sifatiga qanday ta’sir qiladi. Pedagogik mahorat ta’lim sifatiga bir nechta mexanizmlar orqali ta’sir ko‘rsatadi. Avvalo, dars dizayni mexanizmi: mahoratli o‘qituvchi dars maqsadini aniq belgilaydi, ularni kutiladigan natijalar bilan bog‘laydi va darsni kirish–asosiy–yakun bosqichlari bo‘yicha mantiqan quradi. Bunday darsda faol o‘qitish strategiyalari (muammoli savollar, munozara, “think–pair–share”, keys, mini-loyihalar) o‘quvchi faolligini oshiradi. Ikkinchi mexanizm – motivatsion mexanizm: o‘quvchi o‘z muvaffaqiyatini his qilsa, o‘qishga ichki motivatsiya kuchayadi; bu esa o‘qituvchining qo‘llab-quvvatlovchi teskari aloqasi va adolatli baholashiga bog‘liq [6].

Uchinchi mexanizm – differensial yondashuv: sinfda o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi, o‘rganish uslubi va ehtiyojlari turlicha bo‘ladi. Pedagogik mahorat o‘quv topshiriqlarini bir necha darajada berish, skafolding (qo‘llab-quvvatlovchi ko‘rsatmalar), moslashtirilgan resurslar va individual konsultatsiyalar orqali har bir o‘quvchining rivojlanish sur’atini ta’minlashda namoyon bo‘ladi. Vygotskiy konsepsiyasidagi “yaqin rivojlanish zonasi”ga mos ta’lim tashkil etilganda o‘quvchi imkoniyatlari maksimal darajada ochiladi.

To‘rtinchi mexanizm – baholash orqali o‘qitish: formatif baholash vositalari o‘quvchining qayerda xato qilayotganini aniqlab, o‘qitishga tuzatish kiritish imkonini beradi. Beshinchi mexanizm – sinf boshqaruvi va pedagogik takt: aniq qoidalar, vaqtni boshqarish, hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish o‘quv vaqtining samaradorligini oshiradi. Shuningdek, Hattie (2009) sintez tadqiqotlarida teskari aloqa, o‘qituvchi aniqligi va o‘quvchi kutilmalarining ravshanligi yuqori ta’sir kuchiga ega omillar sifatida ko‘rsatiladi [3].

Zamonaviy ta’lim sharoitida pedagogik mahorat: raqamli didaktika. Raqamli transformatsiya ta’limning mazmuni va shakliga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunda pedagogik mahoratning muhim qismi – raqamli didaktika: platforma va servislarni tanlash, ularni metodik maqsadga muvofiq integratsiya qilish, o‘quvchini axborot oqimida yo‘naltirish va akademik halollikni ta’minlashdan iborat. Raqamli vositalar o‘z-o‘zidan sifatni oshirmaydi; ular faqat pedagogik maqsad va metodika bilan uyg‘unlashganda samarali natija beradi. Shuning uchun “texnologiya” emas, “pedagogika” boshqaruvchi omil bo‘lishi zarur.

Masofaviy yoki aralash ta’lim sharoitida o‘qituvchi o‘quv kontentini mikro-modullarga ajratish, qisqa video yoki interaktiv materiallar bilan tushuntirish, forum va chatlarda muloqotni moderatsiya qilish, o‘quvchilar faoliyatini analitika orqali kuzatish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak. Shu bilan birga,

o‘quvchilarning raqamli gigiyenasi, axborot xavfsizligi va media savodxonligi bo‘yicha tarbiyaviy ishlar ham pedagogik mahoratning tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

Pedagogik mahoratni rivojlantirish strategiyalari. Pedagogik mahoratni rivojlantirish tizimli yondashuvni talab qiladi. Birinchidan, uzluksiz kasbiy rivojlanish modeli: qisqa muddatli seminarlar bilan cheklanmasdan, amaliyotga yo‘naltirilgan kurslar, dars kuzatuvi, ko‘p darajali mentorlik va “lesson study” kabi hamkorlikdagi o‘rganish formatlari joriy etilishi maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, refleksiv amaliyot: o‘qituvchi dars video yozuvlarini tahlil qilishi, o‘quvchi javoblari va baholash natijalari asosida o‘z usullarini qayta ko‘rib chiqishi lozim [5].

Uchinchidan, metodik portfel va dalillarga asoslangan o‘qitish: dars ishlanmalari, rubrikalar, o‘quvchi ishlari namunasi, formatif baholash natijalari va o‘z tahlillari jamlangan portfel pedagogning o‘sishini ko‘rsatadi. To‘rtinchidan, tadqiqotga yo‘naltirilgan yondashuv: kichik amaliy tadqiqotlar (action research) orqali o‘qituvchi o‘z sinfida muammo tanlab, intervensiya rejasini sinab ko‘radi va natijalarni tahlil qiladi. Beshinchidan, professional hamjamiyat: fan metodbirlashmalari, onlayn hamjamiyatlar, konferensiya va metodik platformalar tajriba almashish imkonini kengaytiradi.

- Dars maqsadlarini “aniq natija” ko‘rinishida yozing (o‘quvchi nima qila oladi?), har bir faoliyatni shu maqsadga bog‘lang.
- Har bir mavzuda kamida bitta muammoli savol va bitta real hayotiy keys qo‘llang; o‘quvchilarni dalil bilan fikr bildirishga o‘rgating.
- Formatif baholashni tizimli yo‘lga qo‘ying: qisqa diagnostik test, “exit ticket”, tezkor rubrika, o‘zaro baholash va og‘zaki teskari aloqa.
- Differensial topshiriqlar bankini yarating: minimal, standart va yuqori darajadagi topshiriqlar; iqtidorli va qiynalayotgan o‘quvchilar bilan alohida ishlash rejasi.
- Raqamli vositalarni metodik maqsad bilan tanlang: vizuallashtirish, trening, hamkorlik va baholash uchun alohida servislar.
- Sinfda psixologik xavfsizlikni mustahkamlang: xatoni o‘rganish manbai sifatida qabul qiling, hurmatli muloqot qoidalarini doimiy qo‘llang.
- Har oy kamida bir marta o‘zingizning darsingizni kuzatish (peer-observation) va refleksiya protokoli asosida tahlil qiling.

Pedagogik mahorat tushunchasi va mohiyati

Pedagogik mahorat – o‘qituvchining kasbiy bilimlari, metodik tayyorgarligi, pedagogik texnikasi, kommunikativ qobiliyati va ijodkorlik salohiyatining uyg‘unligidir.

U quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- Kasbiy bilim va metodik tayyorgarlik
- Pedagogik texnika (nutq, mimika, harakat, darsni boshqarish)
- Kommunikativ kompetensiya
- Psixologik sezgirlik va empatiya
- Refleksiya va o‘z ustida ishlash ko‘nikmasi

Pedagogik mahorat o‘qituvchining dars jarayonida ijodkorlik bilan yondashishini, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undashini ta’minlaydi.

Ta’lim sifatini belgilovchi omil sifatida pedagogik mahorat

Ta’lim sifati o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini shakllantirish darajasi bilan belgilanadi. Bu jarayonda o‘qituvchining:

- darsni samarali tashkil etishi;
- interfaol metodlardan foydalanishi;
- individual yondashuvni qo‘llashi;
- baholashning adolatli va shaffof tizimini yo‘lga qo‘yishi;
- motivatsiyani shakllantirishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Masalan, xalqaro baholash dasturlari – PISA, TIMSS, PIRLS – o‘quvchilarning faqat nazariy bilimini emas, balki amaliy qo‘llay olish kompetensiyasini ham baholaydi. Bunday talablarni bajarish uchun o‘qituvchi yuqori pedagogik mahoratga ega bo‘lishi zarur.

Zamonaviy o‘qituvchi kompetensiyalari

Bugungi pedagog quyidagi kompetensiyalarga ega bo‘lishi lozim:

- Axborot-kommunikatsion texnologiyalarni qo‘llash
- Tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantirish
- Muammoli vaziyatlar yaratish va modellashtirish
- Differensial va individual ta’limni tashkil etish
- Hamkorlik pedagogikasini yo‘lga qo‘yish

Pedagogik mahorat o‘qituvchining kasbiy o‘sish jarayonida muntazam rivojlanib boradi. Seminarlar, treninglar, malaka oshirish kurslari va o‘z-o‘zini tahlil qilish bu jarayonning muhim vositalaridir.

Pedagogik mahoratni rivojlantirish yo‘llari

Ta’lim sifatini oshirish maqsadida pedagogik mahoratni rivojlantirish uchun quyidagilar muhim:

1. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni o‘rganish
2. Ilmiy-metodik tadqiqotlar bilan shug‘ullanish
3. O‘z darslarini tahlil qilish va refleksiya
4. Hamkasblar bilan tajriba almashish
5. O‘quvchilar fikrini inobatga olish

O‘qituvchining shaxsiy namunasi, madaniyati va pedagogik etikasi ham ta’lim sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Pedagogik mahoratning nazariy asoslari

Pedagogik mahorat – bu o‘qituvchining kasbiy faoliyatni yuqori saviyada tashkil eta olish qobiliyati bo‘lib, u nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarning uyg‘unlashuvida namoyon bo‘ladi.

Pedagogik mahorat quyidagi komponentlardan tashkil topadi:

Kasbiy bilimlar

- Fan bo‘yicha chuqur nazariy tayyorgarlik
- Davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlarini bilish
- Pedagogika va psixologiya asoslarini egallash

Metodik mahorat

- Darsni loyihalash
- Interfaol metodlardan foydalanish
- O‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish

Pedagogik texnika

- Nutq madaniyati
- Ovoz tembri va intonatsiya
- Mimika va pantomimika
- Sinfni boshqarish ko‘nikmasi

Kommunikativ kompetensiya

- O‘quvchilar bilan samarali muloqot
- Empatiya va psixologik qo‘llab-quvvatlash
- Konfliktlarni konstruktiv hal etish

Refleksiv faoliyat

- O‘z faoliyatini tahlil qilish
- Xatolar ustida ishlash
- Doimiy kasbiy o‘sishga intilish

Ta’lim sifati va pedagogik mahorat o‘rtasidagi bog‘liqlik

Ta’lim sifati — bu o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarining shakllanganlik darajasidir. Yuqori pedagogik mahoratga ega o‘qituvchi:

- o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatadi;
- muammoli vaziyatlar yaratadi;
- nazariy bilimni amaliyot bilan bog‘laydi;
- differensial yondashuvni qo‘llaydi;
- baholashning shaffof va adolatli tizimini yo‘lga qo‘yadi.

Bugungi kunda ta’lim sifati xalqaro mezonlar asosida ham baholanmoqda. Jumladan, PISA dasturi o‘quvchilarning funksional savodxonligini aniqlaydi. TIMSS matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha bilimlarni baholaydi. PIRLS esa o‘qish savodxonligini tekshiradi.

Ushbu dasturlar talablari o‘qituvchidan faqat bilim berishni emas, balki kompetensiyaviy yondashuv asosida dars tashkil etishni talab etadi. Bu esa pedagogik mahoratning yuqori darajada bo‘lishini taqozo etadi.

Zamonaviy ta’lim sharoitida pedagogik mahorat

Raqamlashtirish va innovatsiyalar davrida o‘qituvchi quyidagi yangi vazifalarni bajarishi lozim:

- AKTdan samarali foydalanish
- Raqamli ta’lim resurslarini qo‘llash
- Onlayn va aralash ta’limni tashkil etish
- Tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantirish
- STEAM yondashuvini joriy etish

Zamonaviy o‘qituvchi bilim manbai emas, balki yo‘naltiruvchi va fasilitator vazifasini bajaradi. U o‘quvchilarni mustaqil izlanishga undaydi, ularning qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlaydi va ijobiy ta’lim muhitini yaratadi.

Pedagogik mahoratni rivojlantirishning samarali mexanizmlari

Pedagogik mahorat doimiy ravishda rivojlantirib boriladigan jarayondir. Uni takomillashtirish quyidagi yo‘llar orqali amalga oshiriladi:

Malaka oshirish va treninglar

Kasbiy rivojlanish kurslari, seminar va konferensiyalar o‘qituvchining metodik saviyasini oshiradi.

Ilmiy-tadqiqot faoliyati

Ilmiy maqolalar yozish, tajriba-sinov ishlari olib borish pedagogik tafakkurni kengaytiradi.

O‘zaro tajriba almashish

Metodik birlashmalar va ustoz-shogird an’analari pedagogik mahoratni boyitadi.

Refleksiya va monitoring

Darslarni tahlil qilish, o‘quvchilar natijalarini monitoring qilish sifatni oshirishga xizmat qiladi.

Innovatsion metodlarni joriy etish

- “Aqliy hujum”
- “Klaster”
- “Insert”
- “Keys-stadi”
- Loyiha metodi

Pedagogik mahorat va shaxsiy fazilatlar uyg‘unligi

Pedagogik mahorat faqat kasbiy bilim bilan cheklanmaydi. O‘qituvchining:

- sabr-toqati
- adolatliligi
- mehribonligi
- mas’uliyati
- ma’naviy yetukligi

ham ta’lim sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Shaxsiy namuna o‘quvchilarning tarbiyasida muhim omil hisoblanadi. O‘qituvchining madaniyati va axloqiy qiyofasi ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Xulosa. Ta’lim sifatini oshirish masalasi ko‘p omilli bo‘lsa-da, uning markazida pedagogik mahorat turadi. Pedagogik mahorat – predmet va didaktik bilimlarning integratsiyasi, metodik kompetensiya, kommunikativ madaniyat, baholash savodxonligi, refleksiya va innovatsion yondashuvning yaxlit tizimidir. Mazkur komponentlar dars dizayni, motivatsiya, differensial yondashuv va teskari aloqa mexanizmlari orqali o‘quvchilarning ta’limiy yutuqlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun pedagoglarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimida amaliyotga yo‘naltirilgan, dalillarga asoslangan kasbiy rivojlanish modellari ustuvor bo‘lishi zarur.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2008.
2. To‘xtaxodjayeva M.X. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2010.
3. Qodirov B.R. Pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012.
4. Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2008.
5. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2015.
6. Musurmonova O. O‘qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirish asoslari. – Toshkent: Fan, 2017.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Ta’lim sifatini oshirishga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar to‘plami. – Toshkent, 2020.
8. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti. – Toshkent, 2022.

HUDUDIY OLIY TA’LIM TASHKILOTLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI TA’MINLASHDA PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARNING NAZARIY ASOSLARI

Sultanov Anvarjon Shaymanovich,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti,
anvar.sultanov72@gmail.com

Ushbu maqolada hududiy oliy ta’lim tashkilotlarining raqobatbardoshligini ta’minlashda pedagogik shart-sharoitlarning nazariy asoslari tahlil qilingan. Raqobatbardoshlik tushunchasining mohiyati, tasnifi va pedagogik shart-sharoitlar bilan bog‘liqligi o‘rganilgan. Hududiy oliy ta’lim tashkilotlarining o‘ziga xos xususiyatlari va ularga xos pedagogik muammolar aniqlangan. Oliy ta’lim tizimida raqobatbardoshlik omillarini tizimli tadqiq etishning metodologik yondashuvlari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: *raqobatbardoshlik, pedagogik shart-sharoitlar, hududiy oliy ta’lim tashkiloti, ta’lim sifati, oliy ta’lim, nazariy asoslar.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ УСЛОВИЙ ОБЕСПЕЧЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ РЕГИОНАЛЬНЫХ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ

В данной статье проанализированы теоретические основы педагогических условий обеспечения конкурентоспособности региональных высших образовательных организаций. Изучены сущность и классификация понятия конкурентоспособности, а также его взаимосвязь с педагогическими условиями. Определены специфические особенности региональных высших образовательных организаций и характерные для них педагогические проблемы. Предложены методологические подходы к системному исследованию факторов конкурентоспособности в системе высшего образования.

Ключевие слова: *конкурентоспособность, педагогические условия, региональная высшая образовательная организация, качество образования, высшее образование, теоретические основы.*

THEORETICAL FOUNDATIONS OF PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR ENSURING THE COMPETITIVENESS OF REGIONAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

This article analyzes the theoretical foundations of pedagogical conditions for ensuring the competitiveness of regional higher education institutions. The essence and classification of the concept of competitiveness, as well as its relationship with pedagogical conditions, are examined. The specific characteristics of regional higher education institutions and their inherent pedagogical problems are identified. Methodological approaches to the systematic study of competitiveness factors in the higher education system are proposed.

Keywords: *competitiveness, pedagogical conditions, regional higher education institution, quality of education, higher education, theoretical foundations.*

Kirish. Globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta’lim tizimiga nisbatan talablar tubdan o‘zgarmoqda. Jahon ta’lim bozorida kuchayib borayotgan raqobat muhitida oliy ta’lim tashkilotlari — ayniqsa, hududiy oliy ta’lim tashkilotlari — oldiga yangilanish va rivojlanishning mutlaqo yangi vazifalarini qo‘ymoqda [1]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni va «Yangi O‘zbekiston» Strategiyasida oliy ta’lim tizimini isloh qilish, ta’lim sifatini oshirish va tashkilotlarning raqobatbardoshligini ta’minlash masalalari alohida ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan.

Hozirgi globallashuv, raqamlashtirish va iqtisodiyot jadal rivojlanayotgan sharoitda oliy ta’lim tizimi mamlakat taraqqiyotining asosiy drayverlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, hududiy oliy ta’lim tashkilotlarining raqobatbardoshligini ta’minlash masalasi nafaqat ta’lim sifati, balki hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, inson kapitali salohiyatining oshishi va mehnat bozori ehtiyojlarini qondirish nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki hududiy oliy ta’lim tashkilotlari mahalliy mehnat bozori uchun kadrlar tayyorlaydi, hududiy innovatsion muhitni shakllantiradi, aholi bandligi va ijtimoiy faolligini ta’minlashga xizmat qiladi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda oliy ta’lim tizimini isloh qilish, ta’lim sifatini oshirish, oliy ta’lim muassasalarining akademik va moliyaviy mustaqilligini kengaytirish, xalqaro reytinglarda ishtirokini rag‘batlantirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda hududiy oliy ta’lim tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, hududiy oliy ta’lim tashkilotlarining raqobatbardoshligini ta’minlashda

mavjud moddiy-texnik baza, professor-o‘qituvchilarning ilmiy salohiyati, ta’lim jarayonining zamonaviy tashkil etilishi, innovatsion yondashuvlardan foydalanish darajasi, xalqaro hamkorlik imkoniyatlari va bitiruvchilarning mehnat bozoridagi o‘rni kabi omillar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda hududiy oliy ta’lim tashkilotlarida raqobatbardoshlikni ta’minlash masalasi faqat iqtisodiy yoki tashkiliy omillar bilan emas, balki pedagogik shart-sharoitlar bilan ham chambarchas bog‘liq ekanligi yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Jumladan, ta’lim jarayonini talabalar ehtiyojlari asosida tashkil etish, kompetensiyaviy yondashuvni keng joriy qilish, raqamli ta’lim muhitini shakllantirish, innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish, talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini ta’minlash va ta’lim-tarbiya jarayonini integratsiyalash raqobatbardoshlikni oshirishning muhim pedagogik asoslari hisoblanadi.

Ayniqsa, hududiy oliy ta’lim tashkilotlarida pedagogik shart-sharoitlarning yetarli darajada shakllanmaganligi, ta’lim jarayonida zamonaviy yondashuvlarning cheklanganligi, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatning yetarlicha rivojlanmaganligi, xalqaro tajribaning kam joriy etilganligi hamda ta’lim mazmuni bilan mehnat bozori talablari o‘rtasidagi tafovutlar ularning raqobatbardoshligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli mazkur muammoning nazariy asoslarini tadqiq etish, pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash va ularni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Hududiy oliy ta’lim tashkilotlari poytaxt oliy ta’lim tashkilotlariga nisbatan resurs, moliya va infratuzilma jihatidan cheklangan imkoniyatlarga ega bo‘lgani holda, ular uchun raqobatbardoshlikning pedagogik omillari alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, ta’lim jarayonining sifati, professor-o‘qituvchilar malakasi, zamonaviy o‘qitish metodlari va ta’lim muhiti — bularning barchasi moliyaviy investitsiyalarsiz ham ma’lum darajada takomillashtirish mumkin bo‘lgan pedagogik shart-sharoitlar hisoblanadi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Biroq pedagogik adabiyotlarda «hududiy oliy ta’lim tashkiloti», «raqobatbardoshlik» va «pedagogik shart-sharoitlar» tushunchalari o‘rtasidagi munosabat hali tizimli va yetarlicha ishlanmagan. Mazkur maqola ushbu nazariy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

«Raqobatbardoshlik» tushunchasi iqtisodiyot fanida M. Porter tomonidan ishlab chiqilgan «raqobat ustunliklari» nazariyasiga tayanadi [2]. Keyinchalik bu tushuncha ta’lim sohasiga ko‘chirilib, D. Salmon, J. Nayt, F. Altbax kabi xorijiy tadqiqotchilar tomonidan oliy ta’lim kontekstida tahlil qilingan [3, 4]. Mazkur tadqiqotlarda raqobatbardoshlik asosan reyting ko‘rsatkichlari, nashrlar soni, xalqaro aloqalar va moliyaviy jalb qilish qobiliyati orqali o‘lchanadi.

Pedagogik shart-sharoitlar masalasiga kelsak, ushbu sohada rus pedagogikasi maktabi katta hissa qo‘shgan. V.A. Belikov, N.M. Yakovleva, A.A. Nayn va boshqa olimlar pedagogik shart-sharoitlarni «ta’lim-tarbiya jarayonining maqsadga muvofiq samarali kechishini ta’minlovchi obyektiv imkoniyatlar majmui» sifatida ta’riflagan [5]. O‘zbekistonda esa N.N. Azizxo‘jayeva, B.L. Farberman, R.A. Mavlonova kabi tadqiqotchilar pedagogik shart-sharoitlarni milliy ta’lim tizimi kontekstida tadqiq etishgan [6].

Shu bilan birga, hududiy oliy ta’lim tashkilotlari raqobatbardoshligini pedagogik shart-sharoitlar prizmasidan o‘rganuvchi kompleks tadqiqotlar hali kamchillik qilmoqda. Mavjud ishlarning aksariyati yoki umumiy raqobatbardoshlik omillarini, yoki pedagogik shart-sharoitlarni alohida-alohida ko‘rib chiqadi. Ikkala tushunchaning sintezini o‘z ichiga oluvchi nazariy model ishlab chiqish esa dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Tadqiqotda quyidagi ilmiy usullardan foydalanilgan: nazariy tahlil va sintez, tizimli yondashuv, qiyosiy-pedagogik tahlil, tushunchalarni konseptual modellashtirish. Adabiyotlarning bibliometrik tahlili uchun 2000-2024 yillar davomida Scopus, Web of Science va eLIBRARY.RU bazalarida chop etilgan ilmiy manbalar ko‘rib chiqilgan.

Tizimli yondashuv doirasida hududiy oliy ta’lim tashkiloti «kirish — jarayon — chiqish» modeli orqali o‘rganildi: kirish omillari — talabalar kontingenti, moliyaviy va kadrlar resurslari; jarayon omillari — pedagogik shart-sharoitlar; chiqish omillari — bitiruvchilar sifati, jamiyat bilan integratsiya va institutsional obro‘.

Raqobatbardoshlik tushunchasining pedagogik talqini. Ta’lim bozorida raqobat kuchayib borayotgan bugungi kunda «raqobatbardoshlik» tushunchasining mazmun-mohiyatini aniqlash alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyot fanida ushbu tushuncha M. Porter tomonidan «raqobat ustunliklari» nazariyasi doirasida ishlab chiqilgan bo‘lib, tashkilotning bozorda nisbiy afzalliklar asosida mavqe egallash va uni saqlab qolish qobiliyati sifatida ta’riflanadi [2]. Keyinchalik bu konsepsiya ta’lim sohasiga moslashtirilib, bir qator tadqiqotchilar tomonidan yangicha tarzdagi talqinlar berilgan.

Jumladan, J. Salmi «jahon darajasidagi universitet» modelini taklif etib, raqobatbardoshlikni iste’dodli talabalar va olimlarni jalb qilish, moliyaviy mustaqillik va samarali boshqaruv tizimi orqali erishiladigan natija sifatida talqin qiladi [3]. F. Altbax va J. Nayt esa raqobatbardoshlikni «institutsional jozibadorlik» tushunchasi orqali ifodalab, uni tashkilotning xalqaro miqyosda e’tirof etilish darajasi bilan bog‘laydi [4].

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimi kontekstida «raqobatbardoshlik» tushunchasini tadqiq etgan R.A. Mavlonova va T.S. Rasulov ushbu tushunchani «ta’lim tashkilotining o‘z segmentida yuqori pozitsiyani egallash va uni uzluksiz mustahkamlab borish qobiliyati» sifatida ta’riflaydi, va bunda pedagogik jarayonlarning rolini alohida ta’kidlaydi [8].

Ushbu tadqiqot doirasida «oliy ta’lim tashkilotining raqobatbardoshligi» tushunchasi quyidagicha ta’riflanadi: tashkilotning mavjud ta’lim bozorida o‘ziga xos ustuvorliklar asosida uzluksiz ravishda yuqori sifatli ta’lim xizmatlari ko‘rsatish, ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish va o‘z mavqeini saqlab qolish qobiliyati. Ushbu ta’rif uchta komponentni o‘z ichiga oladi: (1) sifat komponenti — ta’lim jarayoni va natijalarining yuqori darajasi; (2) jozibadorlik komponenti — ishtirokchilar nazaridagi imidj; (3) barqarorlik komponenti — uzluksiz rivojlanish salohiyati. Yuqorida keltirilgan ta’rif mavjud adabiyotlardagi yondashuvlardan bir qator jihatlar bilan farqlanadi. Birinchidan, u faqat reyting va ko‘rsatkichlar emas, balki uzluksilik va barqarorlik tamoyilini markazga qo‘yadi. Ikkinchidan, «ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish» tarkibiy elementi hududiy oliy ta’lim tashkilotlarining jamiyatdagi o‘rnini alohida aks ettiradi. Uchinchidan, mazkur ta’rif pedagogik omillarga nisbatan neytral emas — u raqobatbardoshlikni ta’minlovchi jarayonlarning pedagogik tabiatini tan oladi.

Pedagogik shart-sharoitlarning tasnifi va tuzilmasi. «Pedagogik shart-sharoitlar» tushunchasi pedagogika fanida keng qo‘llanilsa-da, uning mazmun-mohiyati va tasnifi masalasida yagona yondashuv mavjud emas. V.A. Belikov pedagogik shart-sharoitlarni «pedagogik jarayonning maqsadga muvofiq kechishini ta’minlovchi obyektiv imkoniyatlar majmui» deb ta’riflasa [5], N.M. Yakovleva ularni «muayyan pedagogik maqsadga erishishni tezlashtiruvchi yoki unga sharoit yaratuvchi pedagogik jarayonning tarkibiy qismlari» sifatida belgilaydi [7].

Yuqoridagi yondashuvlarni umumlashtirib, ushbu tadqiqotda pedagogik shart-sharoitlar quyidagicha ta’riflanadi: oliy ta’lim tashkilotida ta’lim-tarbiya jarayonining sifatli va samarali tashkil etilishini ta’minlovchi, tashkilotning raqobatbardoshligiga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatuvchi obyektiv va subyektiv omillar tizimi.

Adabiyotlar tahlili va muallif konsepsiyasiga ko‘ra, raqobatbardoshlikni ta’minlovchi pedagogik shart-sharoitlar uch asosiy guruhga bo‘linadi:

1) Tashkiliy-metodik shart-sharoitlar: zamonaviy o‘quv rejalari va dasturlari, modulli va kredit-modul tizimi, ta’lim sifatini boshqarish tizimi;

2) Kadlar-kompetentlik shart-sharoitlari: professor-o‘qituvchilar malakasi va kasbiy rivojlanishi, innovatsion o‘qitish texnologiyalarini qo‘llash, tadqiqotchilik madaniyatini shakllantirish;

3) Muhit-motivatsion shart-sharoitlar: ta’lim muhitining innovatsion xarakteri, talaba-markazli ta’lim tamoyillari, akademik shaffoflik va demokratik boshqaruv madaniyati.

Birinchi guruh — tashkiliy-metodik shart-sharoitlar — ta’lim jarayonini rejalashtirish, tashkil etish va boshqarishning meyoriy-uslubiy bazasini tashkil etadi. Ushbu guruh shart-sharoitlarning samarali joriy etilishi ta’lim dasturlari va davr talablari orasidagi mutanosiblikni ta’minlaydi.

Ikkinchi guruh — kadlat-kompetentlik shart-sharoitlari — oliy ta’lim jarayonining «inson omili»ga oid jihatini qamrab oladi. Professor-o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligi nafaqat bilim uzatish, balki talabalarda mustaqil tafakkur, tadqiqotchilik ko‘nikmalari va kasbiy identifikatsiyani shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Finlyandiya, Singapur va Janubiy Koreya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilarning muntazam malaka oshirishi va kasbiy rivojlanish dasturlari oliy ta’lim tashkilotlari raqobatbardoshligiga eng kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi pedagogik omillardan biridir [4].

Uchinchi guruh — muhit-motivatsion shart-sharoitlar — ta’lim tashkilotidagi psixologik iqlim, o‘zaro munosabatlar madaniyati va innovatsion faollikni nazarda tutadi. Talaba-markazli yondashuv va akademik demokratiya tamoyillari joriy etilgan muhitda talabalarning o‘quv faolligi, mustaqilligi va ijodiy tafakkuri keskin oshadi. Ushbu guruh shart-sharoitlari ko‘pincha «ko‘rinmas» pedagogik resurs sifatida bir oz e’tibordan chetda qoladi, ammo tadqiqotlar ularning raqobatbardoshlikka ta’siri birinchi ikki guruhdan kam emasligini ko‘rsatadi [7].

Ushbu uch guruhning integral ta’siri hududiy oliy ta’lim tashkilotining raqobatbardoshligini tizimli ravishda ta’minlaydi. Shu bilan birga, birinchi va ikkinchi guruh shart-sharoitlar ta’lim jarayonining ichki sifatini, uchinchisi esa tashqi jozibadorligini belgilashi aniqlangan. Uch guruhning o‘zaro bog‘liqligi quyidagi model orqali ifodalanadi: tashkiliy-metodik shart-sharoitlar «platforma» vazifasini o‘tasa, kadlar-kompetentlik shart-sharoitlari «dvigatel», muhit-motivatsion shart-sharoitlar esa «katalizator» funksiyasini bajaradi. Taklif etilayotgan tasnifning amaliy ahamiyati shundaki, u hududiy oliy ta’lim tashkiloti rahbarlari uchun raqobatbardoshlikni oshirish chora-tadbirlarini rejalashtirishda aniq oriyentir vazifasini o‘taydi — har bir guruh bo‘yicha alohida diagnostika o‘tkazish va maqsadli ta’sir ko‘rsatish imkonini beradi.

Hududiy oliy ta’lim tashkilotlarining o‘ziga xos xususiyatlari. Hududiy oliy ta’lim tashkilotlari o‘ziga xos institutsional va pedagogik o‘ziga xosliklarga ega bo‘lib, ular raqobatbardoshlik omillariga nisbatan poytaxt yoki xalqaro oliy ta’lim tashkilotlaridan sezilarli darajada farq qiladi. Ushbu farqni tushunish — hududiy oliy ta’lim tashkilotlari uchun moslashtirilgan pedagogik strategiyalar ishlab chiqishning asosiy sharti hisoblanadi.

Hududiy oliy ta’lim tashkilotlari uchun xos bo‘lgan va raqobatbardoshlikka bevosita ta’sir etuvchi bir qator pedagogik xususiyatlar aniqlangan. Birinchidan, mintaqa iqtisodiyotiga moslashgan ta’lim dasturlari — bu raqobatdoshlik ustunligi ham, cheklovchi omil ham bo‘lishi mumkin. Ikkinchidan, kichik ma’muriy tuzilma va qaror qabul qilishning tezkorligi — bu innovatsion o‘zgarishlarni joriy etishni osonlashtiradi. Uchinchidan, mahalliy jamoat va ish beruvchilar bilan yaqin aloqa — bu amaliy ta’lim tashkil etishning samarali bazasini yaratadi.

Hududiy oliy ta’lim tashkilotlarining raqobatbardoshlik potensialini aniqroq tushunish uchun ularning afzalliklari va cheklovlari alohida tahlil qilinishi maqsadga muvofiq. Mazkur tahlil SWOT metodologiyasi asosida amalga oshirilgan bo‘lib, pedagogik shart-sharoitlarga oid ichki omillar alohida ajratib ko‘rsatilgan.

Ichki kuchli tomonlar jumlasiga: mahalliy talabalar kontingentini yaxshi bilish va ularga moslashgan ta’lim tashkil etish; mahalliy ish beruvchilar bilan amaliyot bazasini samarali shakllantirish; ma’muriy boshqaruvning nisbatan tezkorligi; jamoachilik ruhi va korporativ madaniyatning yuqoriligi kiradi. Ichki zaif tomonlar sifatida esa: malakali pedagog kadrlarning poytaxt yoki xususiy sektorga ketishi tendensiyasi; zamonaviy ta’lim texnologiyalari va resurslarga cheklangan kirish imkoniyati; ilmiy nashrlar va tadqiqot madaniyatining nisbatan past darajasi; raqamli infratuzilmaning rivojlanmaganligi ko‘rsatilishi mumkin.

Tashqi imkoniyatlar orasida: davlat tomonidan hududiy oliy ta’lim tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlash siyosati; mahalliy sanoat va agrosektorning ta’lim bilan integratsiyasiga bo‘lgan ehtiyojning oshishi; raqamli ta’lim texnologiyalari orqali resurs cheklovlarini qisman bartaraf etish imkoni; hududiy rivojlanish dasturlari doirasidagi moliyalashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Tahdidlar jumlasiga esa poytaxt oliy ta’lim tashkilotlari yoki onlayn-platformalarning hududiy bozorga kirishi; demografik tebranishlar natijasida arizachilar sonining kamayishi; va raqamlashuv jarayonida orqada qolish xavfi kiradi.

Ayni paytda hududiy oliy ta’lim tashkilotlari uchun xos bo‘lgan pedagogik muammolar ham mavjud: yuqori malakali kadrlarning poytaxt oliy ta’lim tashkilotlariga ketishi, zamonaviy ta’lim texnologiyalariga yetarli kirish imkoniyatining yo‘qligi va xalqaro tajriba almashuvi jarayonlaridan chetda qolish tendensiyasi.

Ushbu muammolarni bartaraf etishga qaratilgan pedagogik strategiyalar — o‘qituvchilarni mahalliy jamoat loyihalariga jalb qilish orqali ularni mahalliy mehnat bozoriga «bog‘lash», distansion va gibrid ta’lim texnologiyalarini keng joriy etish, shuningdek, ish beruvchilar bilan hamkorlik asosidagi «dual ta’lim» modelini rivojlantirish — hududiy oliy ta’lim tashkilotlari uchun raqobatbardoshlikni oshirish yo‘lidagi pedagogik shart-sharoitlarning amaliy mazmunini tashkil etadi.

Amalga oshirilgan nazariy tahlil natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Hududiy oliy ta’lim tashkilotlari raqobatbardoshligi — bu faqat iqtisodiy emas, balki pedagogik hodisa sifatida tushunilishi lozim bo‘lgan ko‘p o‘lchamli tushuncha.

2. Pedagogik shart-sharoitlar tashkiliy-metodik, kadrlar kompetentligi va muhit-motivatsion guruhlarga tasniflanib, ular sinergetik ta’sir ko‘rsatadi.

3. Hududiy oliy ta’lim tashkilotlarining o‘ziga xos pedagogik potensiali mavjud bo‘lib, uni samarali boshqarish orqali raqobatbardoshlikni oshirish mumkin.

4. Mazkur nazariy asoslar keyingi tadqiqot bosqichlari — diagnostika, modellashtirish va tajriba-sinov ishlari uchun konseptual poydevor vazifasini o‘taydi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «Yangi O‘zbekiston» strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. — Toshkent, 2022.

2. Porter M.E. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. — New York: Free Press, 1985. — 557 p.

3. Salmi J. The Challenge of Establishing World-Class Universities. Washington: World Bank, 2009. 115p.

4. Altbach P.G., Knight J. The Internationalization of Higher Education: Motivations and Realities // Journal of Studies in International Education. — 2007. — Vol. 11, No. 3–4. — P. 290–305.

5. Беликов В.А. Философия образования личности. — М.: Владос, 2004. — 357 с.

6. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: TDPU, 2006. — 160 b.

7. Yacheistova N.M. Pedagogical Conditions as a Category of Pedagogical Research // Vestnik of Chelyabinsk State Pedagogical University. — 2012. — No. 9. — P. 227–235.

8. Mavlonova R.A., Rasulov T.S. Oliy ta’lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirishning pedagogik omillari // Pedagogika fanlari. — 2021. — №2. — B. 45–52.

9. Сенашенко В.С. О конкурентоспособности вузов на рынке образовательных услуг // Высшее образование в России. — 2004. — №3. — С. 17–24.

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA KORPORATIV BOSHQARUV MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Ulugov Zafar Ataqulovich,
EMU University
https://orcid.org/0009-0000-3685-9202

Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida korporativ boshqaruv madaniyatini shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilingan. Korporativ boshqaruv madaniyatining mazmun-mohiyati, uning ta’lim menejmentidagi o‘rni hamda zamonaviy universitet boshqaruvi rivojlanishidagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot davomida tizimli, aksiologik, kompetensiyaviy va institutsional yondashuvlar asosida korporativ boshqaruv madaniyatining tarkibiy komponentlari aniqlashtirilgan. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida samarali boshqaruv muhitini shakllantirishga xizmat qiluvchi metodologik tamoyillar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *korporativ boshqaruv, boshqaruv madaniyati, oliy ta’lim, ta’lim menejmenti, tashkiliy madaniyat, akademik boshqaruv, strategik menejment.*

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

В данной статье проанализированы теоретико-методологические основы формирования культуры корпоративного управления в высших образовательных учреждениях. Раскрыты сущность культуры корпоративного управления, её роль в образовательном менеджменте, а также значение в развитии современной системы управления университетом. В ходе исследования на основе системного, аксиологического, компетентностного и институционального подходов были определены структурные компоненты культуры корпоративного управления. Кроме того, разработаны методологические принципы, направленные на формирование эффективной управленческой среды в высших образовательных учреждениях.

Ключевые слова: *корпоративное управление, культура управления, высшее образование, образовательный менеджмент, организационная культура, академическое управление, стратегический менеджмент.*

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR THE FORMATION OF CORPORATE GOVERNANCE CULTURE IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

This article analyzes the theoretical and methodological foundations of forming a corporate governance culture in higher education institutions. The essence of corporate governance culture, its role in educational management, and its significance in the development of modern university governance are highlighted. During the research, the structural components of corporate governance culture were identified based on systemic, axiological, competency-based, and institutional approaches. In addition, methodological principles aimed at creating an effective management environment in higher education institutions were developed.

Keywords: *corporate governance, management culture, higher education, educational management, organizational culture, academic governance, strategic management.*

Kirish. Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan transformatsion jarayonlar universitetlar boshqaruviga zamonaviy yondashuvlarni joriy etishni talab qilmoqda. Xususan, oliy ta’lim muassasalarining akademik va institutsional mustaqilligini kengaytirish, xalqaro reytinglarda raqobatbardoshlikni oshirish hamda ta’lim sifatini ta’minlash masalalari korporativ boshqaruv madaniyatini shakllantirish zaruratini kuchaytirmoqda [1; 2].

Korporativ boshqaruv madaniyati tashkilotning strategik maqsadlari, ichki qadriyatlari, boshqaruv etikasi va kommunikativ munosabatlarini o‘zida mujassamlashtiruvchi murakkab ijtimoiy-pedagogik tizim hisoblanadi. Universitet boshqaruvida mazkur madaniyatning shakllanishi professor-o‘qituvchilar, talabalar va ma’muriy boshqaruv subyektlari o‘rtasidagi samarali hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ta’lim menejmenti nazariyasida boshqaruv samaradorligi ko‘p jihatdan tashkiliy madaniyat va liderlik sifatiga bog‘liqligi qayd etiladi [3]. Shu bois zamonaviy universitetlarni boshqarishda korporativ qadriyatlar, akademik etika va jamoaviy mas’uliyat muhim omil sifatida qaralmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi oliy ta’lim muassasalarida korporativ boshqaruv madaniyatini shakllantirishning nazariy-metodologik asoslarini aniqlash va uni rivojlantirishning ilmiy yondashuvlarini asoslashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Korporativ boshqaruv va tashkiliy madaniyat masalalari xorijiy tadqiqotchilar tomonidan keng o‘rganilgan. Jumladan, Piter Druker boshqaruv samaradorligini inson kapitali va strategik rejalashtirish bilan bog‘laydi [8]. Nazarimizda mazkur yondashuv oliy ta’lim muassasalarida korporativ boshqaruv madaniyatini shakllantirishda inson resurslarini strategik rivojlantirish muhim ustuvor yo‘nalish ekanligini ko‘rsatadi. Chunki zamonaviy universitet boshqaruvida professor-o‘qituvchilar va boshqaruv xodimlarining professional kompetensiyasi institutsional samaradorlikning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Edgar Schein esa tashkiliy madaniyatni tashkilot a’zolari tomonidan shakllantiriladigan qadriyatlar, me’yorlar va xulq-atvor tizimi sifatida talqin qiladi [9]. Ushbu ilmiy qarash universitetlarda korporativ boshqaruv madaniyatini rivojlantirishda akademik qadriyatlar, etik me’yorlar va ichki kommunikatsiya muhitining ustuvorligini anglashga metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Henry Mintzberg tashkilot boshqaruvida strukturaviy yondashuvning muhimligini asoslab bergan bo‘lib, universitet boshqaruvi kabi murakkab tizimlarda boshqaruv strukturasining samaradorligi tashkiliy madaniyat bilan uzviy bog‘liqligini ta’kidlaydi [10]. Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, oliy ta’lim muassasalarida boshqaruvning markazlashgan va moslashuvchan modellari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash korporativ boshqaruv madaniyatining barqaror rivojlanishiga xizmat qilishi aniqlashtirildi.

Ta’lim menejmenti sohasida universitet boshqaruvi va akademik liderlik masalalari Bush tomonidan chuqur tadqiq etilgan bo‘lib, u zamonaviy universitet boshqaruvida liderlik, kommunikatsiya va strategik boshqaruvning ustuvorligini asoslaydi [4]. Ushbu yondashuv oliy ta’lim muassasalarida transformatsion liderlikni rivojlantirish va jamoaviy boshqaruv tamoyillarini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Bolden, Petrov va Gosling tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa oliy ta’lim muassasalarida “distributed leadership” modeli samarali boshqaruv omili sifatida tavsiflangan [5]. Fikrimizcha, mazkur model universitet boshqaruvida vakolatlarni taqsimlash, jamoaviy mas’uliyat va hamkorlik muhitini rivojlantirish orqali korporativ boshqaruv madaniyatini takomillashtirish imkonini beradi.

Kezar va Eckel oliy ta’lim muassasalarida institutsional madaniyat o‘zgarishlar samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini ilmiy jihatdan asoslab bergan [6]. Ushbu qarash zamonaviy universitetlarda innovatsion islohotlarni amalga oshirish jarayonida tashkiliy madaniyatni transformatsiya qilish zaruratini ko‘rsatadi. Terney esa universitetlarda akademik hamjamiyat va korporativ qadriyatlar integratsiyasining muhimligini ta’kidlaydi [7].

Milliy tadqiqotlarda ta’lim menejmenti va boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari S. Turg‘unov tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, unda ta’lim boshqaruvining zamonaviy mexanizmlari yoritilgan [3]. Mazkur ilmiy qarashlar O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida korporativ boshqaruv madaniyatini milliy ta’lim siyosati va zamonaviy menejment yondashuvlari asosida rivojlantirish uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, M.Axmedov tomonidan xalq ta’limi rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy standartlarini joriy etishning xalqaro amaliyoti va milliy tendensiyalari tahlil qilingan bo‘lib, mazkur tadqiqot boshqaruv madaniyatini kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirishda muhim metodologik manba hisoblanadi [11]. Ayniqsa, boshqaruv kompetensiyalarini standartlashtirish va baholash tizimini joriy etish korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishning muhim sharti sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tizimli, aksiologik, kompetensiyaviy va institutsional yondashuvlardan foydalanildi.

Korporativ boshqaruv madaniyati o‘zaro bog‘liq komponentlardan tashkil topgan yaxlit tizim sifatida tahlil qilindi. Ushbu yondashuv universitet boshqaruvining strategik, kommunikativ va refleksiv jihatlarini kompleks baholash imkonini berdi [10].

Rahbar va pedagog kadrlarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish korporativ madaniyatni shakllantirishning muhim omili sifatida qaraldi [11].

Akademik halollik, mas’uliyat, shaffoflik va korporativ qadriyatlarning boshqaruv jarayonidagi ustuvorligi asos qilib olindi [9].

Oliy ta’lim muassasasining tashkiliy muhiti, normativ-huquqiy bazasi va boshqaruv tizimining korporativ madaniyatga ta’siri tahlil qilindi [1; 2].

Tadqiqot davomida qiyosiy tahlil, ilmiy umumlashtirish, pedagogik modellashtirish va tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalar. Tadqiqot natijasida oliy ta’lim muassasalarida korporativ boshqaruv madaniyatining quyidagi tarkibiy komponentlari aniqlashtirildi (1-rasm):

1. Strategik-kommunikativ komponent – universitet missiyasi va strategik maqsadlarini jamoaga yetkazish hamda samarali kommunikatsiyani rivojlantirish [4].
2. Aksiologik komponent – akademik etika, adolat, mas’uliyat va korporativ qadriyatlarni shakllantirish [9].
3. Liderlik va motivatsion komponent – rahbarlarning innovatsion boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish va jamoani motivatsiyalash [5].
4. Integrativ-hamkorlik komponenti – professor-o‘qituvchilar, talabalar va boshqaruv xodimlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish [7].
5. Monitoring-refleksiv komponent – boshqaruv samaradorligini baholash va doimiy takomillashtirish mexanizmlarini joriy etish [6].



1-rasm. Oliy ta’lim muassasalarida korporativ boshqaruv madaniyatining quyidagi tarkibiy komponentlari.

Shuningdek, korporativ boshqaruv madaniyatini rivojlantirishning quyidagi metodologik tamoyillari ishlab chiqildi:

- tizimlilik;
- shaffoflik;
- akademik erkinlik;
- strategik yo‘naltirilganlik;
- manfaatdor tomonlar integratsiyasi;
- refleksivlik;
- innovatsion boshqaruv.

Muhokama. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, korporativ boshqaruv madaniyati universitet boshqaruvining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Kuchli tashkiliy madaniyat shakllangan universitetlarda akademik motivatsiya, jamoaviy hamkorlik va innovatsion faoliyat samaradorligi yuqori bo‘ladi [6].

Shuningdek, korporativ boshqaruv madaniyati universitetlarning xalqaro reytinglardagi o‘rniga ham ta’sir ko‘rsatadi. Chunki zamonaviy oliy ta’lim tizimida boshqaruv sifati, akademik halollik va institutsional barqarorlik muhim mezon sifatida baholanmoqda [2].

Tadqiqot davomida korporativ boshqaruv madaniyatini rivojlantirishga salbiy ta’sir qiluvchi quyidagi omillar ham aniqlashtirildi:

- avtoritar boshqaruv usullarining ustunligi;
- ichki kommunikatsiyaning sustligi;
- motivatsion mexanizmlarning yetarli emasligi;
- strategik boshqaruv kompetensiyalarining pastligi;
- akademik hamkorlik muhitining sust rivojlanganligi.

Mazkur muammolarni bartaraf etishda zamonaviy pedagogik menejment texnologiyalarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi [3].

Xulosa. Oliy ta’lim muassasalarida korporativ boshqaruv madaniyatini shakllantirish universitetlarning strategik rivojlanishini ta’minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Tadqiqot

natijasida korporativ boshqaruv madaniyatining nazariy mohiyati hamda uni rivojlantirishning tizimli, kompetensiyaviy, aksiologik va institutsional metodologik asoslari aniqlashtirildi.

Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida korporativ boshqaruv madaniyatini rivojlantirish quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni talab qilishi asoslandi:

- strategik boshqaruvni takomillashtirish;
- akademik etika tamoyillarini kuchaytirish;
- liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish;
- jamoaviy hamkorlikni rag‘batlantirish;
- monitoring va refleksiv tahlil tizimini joriy etish.

Mazkur ilmiy natijalar zamonaviy universitet boshqaruvini takomillashtirish hamda ta’lim menejmenti tizimini rivojlantirish uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – O‘RQ-637-son. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. Turg‘unov S. Ta’lim menejmenti nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2021. – 356 b.
4. Bush T. Educational Leadership and Management: Theory, Policy, and Practice. – London: Sage Publications, 2011. – 232 p.
5. Bolden R., Petrov G., Gosling J. Distributed Leadership in Higher Education // Educational Management Administration & Leadership. – 2009. – Vol. 37(2). – P. 257–277.
6. Kezar A., Eckel P. The Effect of Institutional Culture on Change Strategies in Higher Education // The Journal of Higher Education. – 2002. – Vol. 73(4). – P. 435–460.
7. Tierney W. Building Communities of Difference in Higher Education. – Westport: Bergin & Garvey, 1993. – 184 p.
8. Drucker P. Management: Tasks, Responsibilities, Practices. – New York: Harper & Row, 1973. – 839 p.
9. Schein E. Organizational Culture and Leadership. – 4th ed. – San Francisco: Jossey-Bass, 2010. – 464 p.
10. Mintzberg H. Structure in Fives: Designing Effective Organizations. – Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1983. – 312 p.
11. Axmedov M. O‘zbekistonda xalq ta'limi rahbar va pedagog kadrlarning kasbiy standartlarini joriy etish: xalqaro amaliyot va milliy tendensiyalar // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. – Toshkent, 2024. – №4. – B. 67–74.

ILG’OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

UO’K 372.85:004.94

TALABALARNI ADEKVAT MODELLARDAN SCIENCE FANLARNI O’QITISHDA FOYDALANISHGA TAYYORLASHNING AHAMIYATI VA AFZALLIKLARI

Abdullayeva Gavhar Ro‘zimurod qizi,
Axborot texnologiyalari va menejmint universiteti
Pedagogika kafedrasi assistenti,
abdulayvagavxar@gmail.com

Mazkur maqolada talabalarni adekvat modellardan science fanlarni o‘qitish jarayonida samarali foydalanishga tayyorlash masalasi kompleks tarzda tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim tizimida modellashtirish metodlari muhim didaktik vosita sifatida qaralib, ularning nazariy asoslari va amaliy ahamiyati yoritiladi. Adekvat model tushunchasi, uning turlari va tabiiy fanlarni o‘zlashtirishdagi o‘rni ochib beriladi. Shuningdek, talabalarni modellashtirish faoliyatiga jalb etish, ularda analitik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, ilmiy tafakkurni shakllantirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Maqolada adekvat modellarni tanlash, yaratish va o‘quv jarayonida qo‘llashning metodik jihatlari hamda samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari ta’lim sifatini oshirish va talabalar kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar:*adekvat model, modellashtirish, tabiiy fanlar, pedagogik texnologiyalar, ta’lim samaradorligi, metodika, ilmiy tafakkur, kompetensiya, didaktik vositalar.*

ПУТИ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ К ИСПОЛЬЗОВАНИЮ АДЕКВАТНЫХ МОДЕЛЕЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ ЕСТЕСТВЕННЫМ НАУКАМ

Muhokama. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni pedagogik-psixologik jihatdan tahlil qilish ta’lim samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish hamda ularning individual ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo‘ladi. Bunday tahlil jarayonida o‘quvchilarning kognitiv, emotsional va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, shuningdek, ularning o‘rganish uslublari va individual yondashuvlari inobatga olinadi. Muhim jihatlardan biri shundaki, innovatsion texnologiyalarni joriy etish nafaqat o‘quvchilarning, balki o‘qituvchilarning ham psixologik tayyorgarligi va kasbiy kompetensiyasini doimiy ravishda rivojlantirishni talab etadi. Innovatsion pedagogik texnologiyalarning samaradorligini aniqlashda ularning o‘quv maqsadlariga mosligi, ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvi, o‘quvchilarning faol ishtiroki hamda bilimlarni o‘zlashtirishdagi natijalari kabi bir qator omillar chuqur tahlil

qilinadi. Xususan, interfaol o‘yinlar, simulyatsion mashg‘ulotlar va loyiha asosida o‘qitish metodlaridan foydalanish o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlash, muammolarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda jamoada ishlash malakasini shakllantirishga xizmat qiladi. Biroq ushbu texnologiyalarning haqiqiy samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qituvchining pedagogik mahorati, o‘quv materiallarining sifati va zarur texnik vositalarning mavjudligiga bog‘liqdir.

Pedagogik-psixologik nuqtayi nazardan qaraganda, innovatsion pedagogik texnologiyalar faqat texnik vositalardan foydalanish bilan cheklanmaydi, balki ta’lim jarayonini tubdan yangilash va uni o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirishga qaratilgan strategik yondashuv hisoblanadi. Bu esa o‘qituvchilardan zamonaviy pedagogik metodlarni o‘zlashtirish, dars jarayonini samarali rejalashtirish va boshqarish bo‘yicha yangi kompetensiyalarni rivojlantirishni talab etadi. Shu sababli, innovatsion texnologiyalarni amaliyotga joriy etish bilan bir qatorda, o‘qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish va ularni doimiy qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish ham muhim vazifa sifatida qaraladi.

Xulosa. Innovatsion pedagogik texnologiyalar zamonaviy ta’lim tizimining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ular o‘quv jarayonini takomillashtirish va samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan. Ushbu texnologiyalarning pedagogik-psixologik jihatdan tahlili o‘quvchilarning individual xususiyatlari, kognitiv faoliyat uslublari hamda motivatsion holatini hisobga olgan holda ta’lim mazmuni va metodlarini optimallashtirishga qaratiladi. Bu jarayonda o‘qitish texnologiyalarining samaradorligi, o‘quvchilarning dars jarayoniga faol jalb etilishi, ularning mustaqil fikrlash hamda muammolarni hal etish ko‘nikmalarining rivojlanish darajasi o‘rganiladi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion texnologiyalarning psixologik ta’siri ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u o‘quvchilarning bilim darajasi, o‘z-o‘zini baholash qobiliyati va o‘ziga ishonch hissining shakllanishida namoyon bo‘ladi. Ushbu tahlillar natijalari ta’lim jarayonini yanada takomillashtirish, yangi pedagogik texnologiyalarni samarali joriy etish hamda o‘quv natijalarini yaxshilash uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Asosiy maqsad esa ta’lim jarayonini individuallashtirish va differensiallashtirish orqali har bir o‘quvchining mavjud imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarishdan iboratdir.

Adabiyotlar:

1. R.Mavlonova, N.Voxidova, N.Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi.T.: «Fan va texnologiya», 464 bet.

2. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova, M.K.Shirinov, S.Hafizov Umumiy pedagogika. –T.: «Fan va texnologiya»,2018, 528 b. ISBN 978–9943–11–882–9.

3. Z.F. Sharopova, «Ta’lim Texnologiyalari» darslik. – T.: «Navro‘z» nashiryoti, 2019, 340 bet.

4. H.T.Omonov, N.X.Xo‘jayev, S.A.Madyarova, E.U.Eshchonov Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat: 5A340605 - «Xalqaro moliya» mutaxassisligining magistrantlari uchun darslik / CTzbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Toshkent Moliya instituti. - T.: «Iqtisod-moliya». 2009. -240 b.

5. Зайцев В.С. Современные педагогические технологии: учебное пособие. - В 2-х книгах. - Книга 1. - Челуабинск, ЧГПУ, 2012 - 411 с.

6. Бадагуева О.Р. Формирование готовности будущего учителуа к инновацонной деуателности в условиуах педагогического колледжа: Автореф. … дисс.пед.наук. – Улан-Удэ: 2006. – 24 с.

7. Davletshin M.G. Qobiliyat va uning diagnostikasi. – T.: O‘qituvchi, 1997. – 134 b.

8. Т.В.Погребнауа, А.В.Козлов, О.В.Сидоркина Инновацонное образование. Обучение в процессе созданиуа новых знаний: Учебно-методическое пособие /. - Красноуарск: ККИПКиППРО, 2008.\

MAKTAB REPERTUARINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA O‘RGATISH

Rahmonova Hojibuvi Rizojon qizi,
Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

*Maqolada maktab repertuarini innovatsion texnologiyalar yordamida o‘rgatish masalalari yoritilgan. Jumladan, boshlang‘ich sinflarda maktab repertuarini o‘rgatish o‘ziga xosligi bilan ajralib turishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni o‘z ichig olishi, qo‘shiqlarni tinglash va o‘rganish uchun multimedia taqdimotlari, video materiallar va yuqori sifatli audio jihozlardan foydalanishi bayon etilgan. O‘yinlashtirish va o‘yin texnologiyalari jarayoni ham alohida ahamiyat kasb etishi, repertuarni o‘ynoqi tarzda o‘rganishga yordam beruvchi interaktiv musiqa o‘yinlari va viktorinalardan iborat bo‘lishi bo‘yicha uslubiy tavsiyalar berilgan. Shuningdek, **m**aktab repertuarini o‘rgatishda individual yondashuv texnologiyasidan foydalanishning samarali bo‘ishi, bu texnologiya asarlarni har bir bolaga moslashtirish imkonini berishi, repertuarni o‘rgatishda har bir o‘quvchiga individual yondashuv muhim ahamiyat kasb etishi ham maqolada bayon etilgan. Bu pedagogik tamoyilga ko‘ra, guruh bilan o‘quv-tarbiyaviy ish jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilar bilan individual model bo‘yicha, ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘zaro munosabatda bo‘lishi haqida uslubiy tavsiyalar ifoda etilgan.*

Kalit so‘zlar: *repertuar, multimedia, interfaol doska, o‘yin texnologiyalari, innovatsiya, **i**ndividual yondashuv, dastur, ijodiy qobiliyat, kompozitsiya.*

ПРЕПОДАВАНИЕ ШКОЛЬНОГО РЕПЕРТУАРА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

В статье рассматриваются вопросы преподавания школьного репертуара с использованием инновационных технологий. В частности, описывается, что преподавание школьного репертуара в начальных классах отличается своей уникальностью, использованием информационно-коммуникационных технологий, применением мультимедийных презентаций, видеоматериалов и высококачественной аудиоаппаратуры для прослушивания и разучивания песен. В статье даны методические рекомендации о важности процесса геймификации и игровых технологий, которые должны включать интерактивные музыкальные игры и викторины, способствующие изучению репертуара в игровой форме. Также описывается эффективность использования технологии индивидуального подхода в обучении школьному репертуару, тот факт, что эта технология позволяет адаптировать произведения к каждому ребенку, и важность индивидуального подхода к каждому ученику в обучении репертуару. В соответствии с этим педагогическим принципом выражены методические рекомендации, согласно которым в процессе групповой учебной работы учитель должен взаимодействовать со учениками по индивидуальной модели, учитывая их личностные особенности.

Ключевые слова: *репертуар, мультимедиа, интерактивная доска, игровые технологии, инновации, индивидуальный подход, программа, творческие способности, композиция.*

TEACHING SCHOOL REPERTOIRE USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES

This article examines the teaching of school repertoire using innovative technologies. Specifically, it describes how teaching school repertoire in elementary grades is unique, embracing information and communication technologies, multimedia presentations, video materials, and high-quality audio equipment for listening to and learning songs. The article provides methodological recommendations on the importance of gamification and gaming technologies, which should include interactive music games and quizzes that facilitate the learning of repertoire through play. It also describes the effectiveness of using individualized approaches in teaching school repertoire, the fact that this technology allows for the adaptation of works to each child, and the importance of an individualized approach to each student in teaching repertoire. In accordance with this pedagogical principle, methodological recommendations are expressed, according to which, during group learning, the teacher should interact with students individually, taking into account their personal characteristics.

Keywords: *repertoire, multimedia, interactive whiteboard, gaming technologies, innovation, individual approach, program, creativity, composition.*

Kirish. Boshlang‘ich ta’lim yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan pedagogik jarayon murakkab, shu bilan birga rangbarangdir. Ta’lim-tarbiya samaradorligiga erishishda boshlang‘ich ta’limdagi har bir faoliyat turini to‘g‘ri tashkil etish lozim. Hozirgi davr ta’lim taraqqiyoti yangi yo‘nalish - innovatsion pedagogikani maydonga olib chiqdi. Innovatsion - bu yangilik kiritish, yangilik degan ma’noni anglatadi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda pedagog faoliyatiga yangilik bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan to‘liq foydalaniladi. Interfaol metodlar - bu jamoa bo‘lib fikrlash deb yuritiladi, ya’ni pedagogik ta’sir etish usullari bo‘lib ta’lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta’lim-tarbiya berishda iterfaol usullardan foydalanishdan maqsad shundaki, bolalarni ijodiy fikrlashga o‘rgatish, muammoli vaziyatlarni yecha olish ko‘nikmasini rivojlantirish, bolalarni faollashtirish va ularda do‘stona munosabatlarni shakllantirishdir.

Bugungi kunda musiqa darsiga qo‘yiladigan talablar o‘zgardi. Endi dars yangi shakllarni izlash tamoyiliga asoslanadi. Ushbu jarayonlarni chuqur his etgan o‘qituvchi har bir darsga innovatsion tarzda yondashadi. Zamonaviy o‘qituvchi -kelajak bunyodkori, yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ‘ibotchisidir.

Musiqa va innovatsiya o‘quvchilarga kreativlik va yaratuvchanlik qobiliyatini rivojlantirishda katta ahamiyatga kasb etadi. Innovatsion texnologiyalar, musiqa madaniyati darslarini o‘zlashtirish va o‘quvchilarni yangi texnologiyalar orqali musiqaga qiziqishlarini oshirishda keng imkoniyatlarni ochadi.

Asosiy qism. Maktab repertuarini innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda o‘qitish interfaol doskalar, musiqa dasturlari (nota muharrirlari, musiqada biror kuy yoki garmonik ohangning turli balandlikdagi pog‘onalarda (yuqoriga yoki pastga) izchil takrorlashlar), virtual sayohatlar va raqamli ta’lim resurslaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Bu faollikni oshiradi, materialni tasavvur qiladi, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiradi va o‘quv jarayonini zamonaviy hamda interaktiv qiladi.

Boshlang‘ich sinflarda maktab repertuarini o‘rgatish o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Multimedia, interfaol doska, o‘yin texnologiyalari va loyiha asosidagi faoliyatdan foydalangan holda o‘rgatish o‘quvchilar motivatsiyasini oshiradi. Innovatsiyalar kontsertlar, virtual sayohatlar, raqamli portfel yaratish va ta’lim platformalari(orqa trek)dan foydalanish, o‘rganishni vizual va zamonaviy qilish uchun fonogrammalardan foydalanishni o‘z ichiga oladi.

Maktab repertuarini o‘qitishning asosiy innovatsion texnologiyalari axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni o‘z ichiga oladi. Bunda qo‘shiqlarni tinglash va o‘rganish uchun multimedia taqdimotlari, video materiallar va yuqori sifatli audio jihozlardan foydalaniladi. O‘yinlashtirish va o‘yin texnologiyalari jarayoni ham alohida ahamiyat kasb etib, repertuarni o‘ynoqi tarzda o‘rganishga yordam beruvchi interaktiv musiqali o‘yinlar va viktorinalardan iborat bo‘ladi. Musiqiy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish jarayonida mustaqil ish uchun fonogrammadan foydalanish, uy konsertlari va spektakllarni yaratish uchun qo‘l keladi. Ijodiy loyihalar yaratish, masalan, “Mening sevimli qo‘shig‘im”, “Musiqiy asarning yaratilish tarixi” kabi texnologiyalar darsni qiziqarli o‘tishini ta’minlaydi. Dars jarayonida multimedia texnologiyalaridan foydalanishning afzalligi ko‘proq. Bu jarayonda teatrlar, musiqa asboblari muzeylariga virtual sayohatlar uyushtirish mumkin bo‘ladi.

Maktab repertuarini organish jarayonida innovatsion texnologiyalar asosida yondashuvning afzalliklari shundaki, ular motivatsiyaning oshishirishda zamin yaratadi. Bolalar zamonaviy gadjetlardan, ya’ni, smartfonlar, planshetlar, noutbuklar, aqlli soatlar va elektron kitoblar kabi kundalik hayotning ajralmas qismiga aylangan vositalardan hamda texnologiyalardan foydalanadigan darslarga ko‘proq qiziqishadi. Ayniqsa, gadjetlaningr ko‘pincha o‘ziga xos dizayni va yuqori texnologik qulayligi bilan ajralib turishi bolalar uchun qiziqarli. Vizual multimedialar o‘quv jarayonini yanada tushunarli va esda qolarli qiladi.

Maktab repertuarini o‘rgatishda individual yondashuv texnologiyasidan foydalanish samarali bo‘ladi. Bu texnologiya asarlarni har bir bolaga moslashtirish imkonini beradi. Ma’limki, individual yondashuv – bu pedagogik tamoyil, unga ko‘ra, guruh bilan o‘quv-tarbiyaviy ish jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilar bilan individual model bo‘yicha, ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘zaro munosabatda bo‘ladi. Bola bilan muloqotda bolaning individual xususiyatlariga e'tibor qaratiladi. Repertuarni o‘rgatishda nafaqat barcha o‘quvchilarning rivojlanishi, balki har bir bolaning individual rivojlanishi uchun psixologik-pedagogik sharoit yaratish kerak.

Maktab repertuarini o‘rgatishda ta'limni individuallashtirishda o‘quv jarayonini tashkil etish, unda usullar, uslublar va o‘rganish tezligini tanlash o‘quvchilarning individual xususiyatlari bilan belgilanadi. Shaxsiy yondashuvni ta'minlaydigan turli xil o‘quv, uslubiy, psixologik, pedagogik va tashkiliy tadbirlarna amalga oshirish talab etiladi. Maktab repertuarini o‘rgatishda individuallashtirilgan ta'lim talablaridan

foydalanish - bu individual yondashuv va o‘qitishning individual shakli ustuvor bo‘lgan ta’lim jarayonini tashkil etishdir.

Innovatsion texhologiyalardan foydalanish ijodkorlikni rivojlantirishga da’vat etadi. Innovatsiyalar mustaqil ishlashga va repertuarni o‘zlashtirishga ijodiy yondashishga undaydi. Innovatsion texnologiyalar an’anaviy usullarni almashtirmaydi, aksincha uyg‘un ravishda to‘ldiradi, bu esa o‘quv jarayonini yanada qulay va qiziqarli qiladi.

Maktab repertuarini o‘rgatishda innovatsion texhologiyalardan foydalanishning asosiy yo‘nalishlaridan biri - musiqiy-kompyuter texnologiyalari bo‘lib, u interfaol shaklda aranjirovkalar yaratish, tovush bilan ishlash va nota yozuvlarini o‘rganish uchun dasturlardan foydalanishda xizmat ko‘rsatadi. Multimedia texnologiyalaridan foydalanish ham ahamiyatli bo‘lib, u tomoshabinlarni ijro etilayotgan repertuar kontekstiga jalb qilish uchun videokliplar, taqdimotlar va virtual konsert zallaridan foydalanishda qo‘l keladi.

Maktab repertuarini o‘rgatishda innovatsion texhologiyalardan foydalanishning asosiy usullar mavjud bo‘lib ularga misol - interfaol usullarni keltirish mumkin. Viktorinalar, o‘yinlar va musiqiy asarlarni vizualizatsiya qilish uchun interfaol doskalardan foydalanish mumkin. Loyiha asosida o‘qitish ham innovatsion usullardan hisoblanadi. Bunda o‘quvchilar o‘rganilgan repertuar asosida o‘zlarining ijodiy loyihalarini (musiqiy video, elektron kompozitsiyalar) yaratadilar. Innovatsion texnologiyalardan foydalanishda musiqadagi virtual haqiqat texnologiyasini bilish ham ahamiyatli. Musiqadagi virtual haqiqat - bu tinglovchilar va ijodkorlarni jalb qilish uchun uch o‘lchamli raqamli makon yaratuvchi texnologiya bo‘lib, konsert yoki studiyada hozir bo‘lish hissini beradi. U turli chiqishlar, atrof-muhit tovushini yaratish va musiqa asboblari bilan interaktiv o‘zaro ta’sir qilish imkonini beradi. Innovatsion texnologiyalar ko‘proq har xil ko‘rinishdagi ta'lim tajribasiga imkon beradi, bu esa o‘quvchilar uchun yanada qiziqarli va samarali bo‘ladi.

Bugungu kunda maktab repertuarini innovatsion texnologiyalari yordamida o‘rgatish maxasus dasturlar ishlab chiqilgan.

Masalan, **“Listen”** dasturi. Bu musiqani “tinglash”, “eshitmoq” yoki “tinglamoq” degan ma’nolarni anglatadi (ko‘pincha “musiqa tinglash” so‘zi bilan birgalikda ishlatiladi). Bu tovushlarni idrok etish, diqqatni jamlash va tushunishga qaratilgan faol, ongli harakatdir.

Intervals dasturi. Bu dastur musiqadagi intervallar orasidagi masofani aiqlashga yordam ko‘rsatadi. Tovushlar bir vaqtning o‘zida (garmonik) yoki ketma-ket (melodik) jaranglashi mumkin bo‘lgan ikkita notaning chastota munosabatini aniqlaydi. Intervallar garmoniya, ohang va solfedjioning asosi bo‘lib, akkordlar yaratish va musiqaning kayfiyatini aniqlash imkonini beradi.

Scales (skeylz) dasturi. Musiqada gamma, tovushqator yoki musiqiy o‘lchovlarni, tovushlar balandligining ko‘tarilish yoki kamayish tartibida joylashganlik ketma-ketligini anglatadi. Ular ohang va garmoniyalarni yaratish uchun asos bo‘lib, tonallikda mavjud notalar to‘plamini belgilaydi.

Chords (akkordlar). Musiqadagi akkordlar har xil balandlikdagi uch yoki undan ortiq notalarning bir vaqtda jaranglashi bo‘lib, garmonik birlikni hosil qiladi. Ular asarning uyg‘unligi, hamrohligi va hissiy ranglanishining asosini tashkil qiladi. Odatda, akkorddagi notalar uchdan birida tartibga solinadi yoki tuziladi.

Melody Race (Melodiya poygasi). Musiqada ohang - bu tovushlar ketma-ketligi bo‘lib, balandlik va ritm bo‘yicha tartibga solingan, yaxlit musiqiy g‘oyani tashkil qiladi. Bu kompozitsiyaning asosiy, eng esda qolarli elementi (vokal yoki yetakchi cholg‘u asbobi), ko‘pincha hamrohlikdan farq qiladi. Bu atama yunoncha "qo‘shiq" yoki " kuylash " so‘zlaridan kelib chiqqan.

Musical Stairs (Musiqadagi musiqiy zinapoyalar) - bu tovushqatorning metaforik belgisi bo‘lib, unda har bir alohida tovush yoki nota ko‘tarilish yoki pasayish ketma-ketligida "qadam" (pog‘ona) hisoblanadi. Bu kontseptsiya ohangdagi harakatni anglatadi: gamma bo‘yicha yuqoriga ko‘tarilish, pastga tushish - pasayish.

Play It By Ear. Musiqada bu notalarni ishlatmasdan yoki oldindan tayyorgarlik ko‘rmasdan, quloq orqali eshitish bilan ijro etishni anglatadi

Musiqachi eshitgan narsasini improvizatsiya qiladi yoki takrorlaydi, ayni paytdagi tovushga moslashadi. Majoziy ma’noda idioma "vaziyatga qarab harakat qilish" yoki tezda qaror qabul qilish degan ma’noni anglatadi.

Pitch. Musiqada ovoz balandligini anglatadi - tovush to‘lqinining idrok etilgan chastotasi Gertz bilan o‘lchanadi. Ushbu asosiy tushuncha tovushning qanchalik baland yoki pastligini aniqlaydi, bu notalarga ma’lum qiymatlarni belgilash imkonini beradi.

The Ear Gym (Musiqadagi Ear Gym quloqni mashq qilish) - bu intervallarni, akkordlarni, gammalarni va ohanglarni quloq orqali eshitib olish orqali musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan

maxsus ilova yoki eshitishni o‘rgatish usuli. Bu musiqachilarga musiqani notalarsiz tanib olishni, intonatsiyani yaxshilashni va uyg‘unlikni tushunishni o‘rganishga yordam beradi.

GNU Solfege. Bu musiqa eshitishni rivojlantirish uchun bepul kompyuter dasturi (GNU loyihasining bir qismi). Bu intervallarni, akkordlarni va ritmik shakllarni tanib olish ko‘nikmalarini o‘rgatishda yordam beradi, shuningdek, o‘quvchilar va musiqachilar uchun solfedjio mashqlarini o‘z ichiga oladi. Dastur intervallarni kuylash va darslarni sozlash imkonini beradi.

MuseScore. Bu musiqa yozuvlarini yaratish, tahrirlash, oldindan ko‘rish va chop etish uchun mo‘ljallangan bepul, ochiq manbali professional nota muharriri. U sichqoncha, klaviatura yoki MIDI qurilmalari orqali nota kiritishni qo‘llab-quvvatlaydigan har qanday cholg‘u asbobini (dutor, rubob, g‘ijjak, orkestr) qo‘llab-quvvatlaydi.

Midisoft Sound Explorer — 1990-yillarda mashhur bo‘lgan ShK (Musiqada shaxsiy kompyuter - ПК) tomonidan ishlab chiqarilgan, tovushni yaratish, qayta ishlash, yozib olish va ijro etish uchun asosiy vositadir. U ovoz yozish studiyasi (DAW), sintezator va sekvenser sifatida ishlatiladi.

Music Mentor (Musiqachi uztoz) - bu nafaqat texnik bilimlar, balki martaba bo‘yicha maslahatlar, qo‘llab-quvvatlash va sanoat aloqalari orqali intiluvchan musiqachilarning rivojlanishiga yordam beradigan tajribali mutaxassis. Bu rol oddiy o‘qituvchidan ko‘ra kengroq bo‘lib, musiqachining shaxsiy va kasbiy o‘sishiga qaratilgan.

Midisoft Sound Explorer - 1990-yillarda mashhur bo‘lgan kompyuterlar uchun eskiroq, ammo klassik, MIDI (Musiqa asboblari raqamli interfeysi) dasturi. U tovushni sintez qiladigan ovoz kartasiga nota ma’lumotlarini (nota balandligi, davomiylik, ovoz balandligi) yuborish orqali musiqa yaratish, tahrirlash va ijro etish uchun ishlatilgan.

Blank Sheet Music (Blank Sheet Music) — bo‘sh musiqa qog‘ozi, oldindan bosilgan nota chiziqlari bo‘lgan, lekin notalari bo‘lmagan qog‘oz. U qo‘lda musiqiy asarlar yozish, nusxalash yoki yozish uchun mo‘ljallangan.

Flat.io. Flat.io - bu musiqa yozuvlarini yaratish, tahrirlash, hamkorlik qilish va onlayn nashr qilish uchun bulutga asoslangan mashhur nota muharriri (veb ilova). U barcha mahorat darajasidagi musiqachilarga musiqa yozish, jadvallar yaratish, yaratilgan kompozitsiyalarni ijro etish va ma’lumotlarni qurilmalar (veb, Android, iOS) o‘rtasida sinxronlashtirish imkonini beradi.

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiruvchi dasturlar. Bular, odatda, umumiy rivojlanishga qaratilgan o‘yinga asoslangan ta'lim dasturlari. Ularning yordami bilan bolalar bastalashni yoki, masalan, oddiy ohanglarni yaratishni, turli ritmlar va asboblar bilan chalishni, o‘z kompozitsiyalarini yaratishni o‘rganadilar.

Birlashtirilgan dasturlar. Ular musiqa tarixi, nazariyasi va kompozitsiya asoslarini qamrab oladi. Ular ma’ruzalar, mashqlar va o‘yinlarni o‘z ichiga oladi va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiradi.

Sinov texnologiyasi asosida tuzilgan diagnostika dasturlari ham mavjud, ular bilim, ko‘nikma, ta’lim yutuqlarini sinovdan o‘tkazadi, reytinglar, monitoring va natijalar statistikasini o‘tkazadi (masalan, "Musiqa darslari" musiqa nazariyasining barcha asosiy bo‘limlari uchun test dasturi).

Internet resurslaridan o‘quvchilarning uy vazifalarini bajarishlari, yangi test topshiriqlarini ishlab chiqishlari va ulardan foydalanishlari, shuningdek, o‘quvchilarning AKTdan foydalangan holda ijodiy topshiriqlarni bajarishlari uchun foydalanish.

Umuman olganda, musiqa ta’limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari alohida ahamiyatga ega. Jumladan, multimedia taqdimotlari hissiy va vizual ta'lim jarayonini boyitadi, musiqa asarini qayta-qayta tinglashni rag‘batlantiradi va o‘quvchilarni uzoq vaqt esda saqlashga yordam beradi.

Maktab repertuari o‘rgatish jarayonida multimedia loyihalari va o‘quv qo‘llanmalaridan foydalanish samarali bo‘ladi. Masalan, musiqa asarlarini tushuntirish paytida ko‘rsatiladigan yoki chop etish va tarqatma material sifatida o‘quvchilarga tarqatilishi mumkin bo‘lgan rasmlar va sxemalar bilan plakatlarni aytish mumkin.

Musiqiy kompyuter texnologiyalari vositasida nazariy bilim beruvchi dasturlarni ishlab chiqilishi ta’lim sifatini yaxshilash qaratilishi kerak. Ular o‘quvchilarga musiqiy kompozitsiyaning tamoyillari va qoidalarini va fundamental nazariy tushunchalarni tushunishga yordam berish uchun mo‘ljallangan bo‘lishi kerak. Ular odatda ko‘plab musiqiy atamalarni, musiqa savodxonligi va musiqa nazariyasi elementlarini tushuntiruvchi o‘yinga asoslangan va ta’lim bo‘limlarini hamda notalar, akkordlar va boshqalarni aniqlash uchun testlarni o‘z ichiga oladi.

Musiqiy eshitish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chqilishi ham foydali. Bularga intonatsiya ravshanligi, garmonik va melodik eshitish va boshqalarni rivojlantirish uchun turli trening mashg‘ulotlari kiradi.

Musiqa adabiyoti dasturlari. Bu kitoblar, entsiklopediyalar yoki turli musiqiy asarlar bo‘yicha kichik tasvirlangan ma’lumotnomalarni o‘z ichiga olishi mumkin. Bunday dasturlar yordamida turli mamlakatlar va

davrlar bastakorlarining ijodi bilan tanishish, ularning tarjimai hollarini o‘rganish, ular yaratgan musiqalar haqida ma’lumot olish, ma’lum parchalarni notalar bo‘yicha tahlil qilish, musiqa san’atining turli janrlari, taniqli qo‘shiqchilar va musiqachilar va musiqa asboblari haqida ma’lumot olish mumkin.

Maktab repertuarini innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda o‘qitish o‘quvchilarning faolligini oshirish uchun kuchli vositadir. U passiv yod olishni faol ijodiy jarayonga aylantiradi, materialni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Innovatsion yondashuv musiqa darslarida ta’lim jarayonining quyidagi tarkibiy qismlarini qamrab olishi kerak. Yangilik, birinchi navbatda, darsdagi hissiy (psixologik) muhitga murojaat qilishi kerak. O‘qituvchi va o‘quchilar o‘rtasidagi muloqot qulay bo‘lishi kerak. Bugungi kunda bunga o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi hamkorlik, do‘stona, hamkorlikda ijodiy munosabatlar orqali erishiladi. O‘qituvchi o‘quvchilarni darsga qiziqish bilan borishni yoqtiradigan odamga aylantirishi kerak. Musiqa fanini o‘qitishda “ustoz-do‘st” va “ustoz-sherik” formulalari eng samarali hisoblanadi. Bu holatda o‘qituvchining vazifasi avtoritar muloqot uslubini qabul qilish yoki ma’lumot tarqatuvchi o‘qituvchi bo‘lish emas, balki o‘quvchilarda musiqaga qiziqish uyg‘otadigan va ilhomlantiradigan o‘qituvchi bo‘lishdir.

Bu musiqiy materialning sifatiga ham, o‘quvchilar uni o‘zlashtirishi va tushunishi uchun qanday taqdim etilishiga ham tegishli. Bunday holda, o‘quvchilarga anchagina tanish bo‘lgan materialdan foydalangan holda yangi materialni o‘zlashtirish printsipi ishlashi kerak.

Innovatsion yondashuvning bir jihati repertuar tanlash jarayoni bilan bog‘liq bo‘lib, u o‘qituvchidan yosh avlodning ijtimoiy-madaniy kontekstini, ularning musiqaga bo‘lgan xohish-istaklarini va bugungi bolalar yangi texnologiyalar asrining bolalari ekanligini tushunishni talab qiladi. Musiqiy material yuqori sifatli uskunalarda, yuqorida ta’kidlab o‘tilgan yangi kompyuter texnologiyalari, multimedia va boshqalardan foydalangan holda taqdim etilishi kerak.

Bolalarni turli musiqiy shakllar, janrlar va uslublar bilan tanishtirishda o‘qituvchi ularni yangi usullarda taqdim etish, bolalar hayotidan va atrof-muhitdan ularga allaqachon tanish bo‘lgan usullardan foydalanishi kerak. Misol uchun, hamma biladiki, musiqa bolalarni hamma joyda - uyda, maktabda, ko‘chada o‘rab oladi. Bolalar doimo pleerda turli xil musiqalarni tinglashadi va ularning o‘ziga xos afzalliklari bor, bu esa ularni mumtoz muziqalardan uzoqlashtiradi.

Masalan, bolalarni mumtoz musiqa bilan tanishtirish, ularda bu janrga mehr uyg‘otish, mumtoz musiqani faqat konsert zallarida tinglash mumkin bo‘lgan musiqa ekanligini anglatmaslik kerak. Bu holda innovatsion yondashuv klassik krossover deb nomlanuvchi janrni ifodalovchi mumtoz, pop, rok va elektron musiqa kabi uslublar va janrlar elementlari kombinatsiyasini ifodalovchi asarlarni tanlashdan iborat bo‘ladi. Ushbu uslub tufayli bolalarni ritmlar, garmoniyalar, ularning ruhiga yaqin asboblar orqali klassik musiqa bilan tanishtirish imkoniyati mavjud bo‘ladi.

Asarning dastlabki taqdimoti aynan shunday bo‘lishi mumkin, keyin esa xuddi shu asar asl ijroda qanday jaranglashini ko‘rsatish zarurati tug‘iladi. Shunday qilib, bolalar materialni katta qiziqish bilan idrok etadilar va u ularning xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Ushbu turdagi taqdimotning ko‘plab misollarini keltirish mumkin, ammo hamma narsa o‘qituvchining kreativ ijodiga bog‘liq bo‘ladi.

Xulosa. Musiqa ta’limida innovatsion texnologiyalardan foydalanish zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda. Bunday texnologiyalar ta’lim samaradorligini oshirib, o‘quvchilarning musiqa madaniyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Interaktiv platformalar, multimediya vositalari, mobil ilovalar va o‘yin texnologiyalari orqali darslarni qiziqarli va ijodiy jarayonga aylantirish mumkin. Innovatsion texnologiyalar o‘quvchilarda ijodiy fikrlash, musiqiy eshitish qobiliyatlari va ijro etish malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Individual yondashuv va moslashuvchan ta’lim imkoniyatlari esa har bir o‘quvchining ehtiyojlariga javob beradigan muhit yaratishga imkon beradi.

Adabiyotlar:

1. Qosimova Z.H. Ta’lim texnologiyalari. –T.: Tafakkur qanoti, 2014.

2. Ishmuhamedov R. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.

3. Namozova D.T. Musiqa o‘qitish texnologiyalari va loyihalash. 0‘quv qollanma. - T.: “Barkamol fayz media”, 2019.

4. Murodov, S., Ahmedova, G. Pedagogik innovatsiyalar va zamonaviy ta’lim texnologiyalari. Buxoro: BuxDU nashriyoti. 2021

RAQAMLASHTIRILGAN TA’LIM

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA FLIPPED CLASSROOM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Azimova Dilnoza Axmedjonovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi
baxriddinfaxriddinov476@gmail.com

Mazkur maqolada raqamli ta’lim muhitida flipped classroom (teskari sinf) texnologiyasidan foydalanishning nazariy asoslari va amaliy imkoniyatlari tahlil qilinadi. Teskari sinf modeli orqali o‘quv materiallarini mustaqil o‘zlashtirish hamda dars jarayonida faol, interaktiv mashg‘ulotlarni tashkil etishning samaradorligi yoritiladi. Shuningdek, raqamli platformalar (jumladan, Moodle va Google Classroom) yordamida ta’lim jarayonini individuallashtirish, talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda ularning o‘quv faolligini oshirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida flipped classroom texnologiyasi raqamli ta’lim muhitida samarali pedagogik vosita sifatida asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: *raqamli ta’lim muhiti, flipped classroom, teskari sinf modeli, interaktiv ta’lim, masofaviy ta’lim, blended learning, ta’lim platformalari, Moodle, Google Classroom, pedagogik texnologiyalar, o‘quv faolligi, mustaqil ta’lim.*

USE OF FLIPPED CLASSROOM TECHNOLOGY IN A DIGITAL LEARNING ENVIRONMENT

This article analyzes the theoretical foundations and practical possibilities of using flipped classroom technology in a digital learning environment. The effectiveness of the flipped classroom model in enabling students to independently master learning materials and in organizing active, interactive classroom activities is highlighted. In addition, the study examines the use of digital platforms such as Moodle and Google Classroom to individualize the learning process, develop students’ independent thinking skills, and increase their learning engagement. The research substantiates that flipped classroom technology serves as an effective pedagogical tool in a digital learning environment.

Keywords: *digital learning environment, flipped classroom, inverted classroom model, interactive learning, distance learning, blended learning, educational platforms, Moodle, Google Classroom, pedagogical technologies, learning engagement, independent learning.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ «ПЕРЕВЁРНУТЫЙ КЛАСС» В ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

В данной статье анализируются теоретические основы и практические возможности использования технологии «перевёрнутый класс» в цифровой образовательной среде. Освещается эффективность модели перевёрнутого класса в самостоятельном освоении учебного материала учащимися и организации активных, интерактивных занятий в процессе обучения. Также рассматриваются вопросы индивидуализации образовательного процесса, развития самостоятельного мышления студентов и повышения их учебной активности с использованием цифровых платформ, таких как Moodle и Google Classroom. В результате исследования обосновано, что технология «перевёрнутый класс» является эффективным педагогическим инструментом в цифровой образовательной среде.

Ключевые слова: *цифровая образовательная среда, перевёрнутый класс, модель перевёрнутого обучения, интерактивное обучение, дистанционное обучение, смешанное обучение, образовательные платформы, Moodle, Google Classroom, педагогические технологии, учебная активность, самостоятельное обучение.*

Kirish. Hozirgi globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari ta’lim tizimiga tub o‘zgarishlar kiritib, o‘qitishning yangi shakl va metodlarini joriy etishni taqozo etmoqda. Xususan, raqamli ta’lim muhiti o‘quv jarayonini tashkil etishda innovatsion yondashuvlarni qo‘llash, ta’lim sifatini oshirish hamda talabalarning mustaqil o‘rganish kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Zamonaviy

axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida yaratilgan ta’lim platformalari, jumladan, Moodle va Google Classroom, o‘quv materiallarini yetkazish, nazorat qilish va tahlil etish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Shu bilan birga, an’anaviy dars o‘tish metodlari o‘rnini bosuvchi innovatsion yondashuvlardan biri sifatida *flipped classroom* (teskari sinf) texnologiyasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur modelda talabalar nazariy materiallarni darsdan tashqari vaqtda mustaqil o‘zlashtiradi, auditoriya mashg‘ulotlari esa amaliy faoliyat, muhokama va tahlilga yo‘naltiriladi. Bu esa talabalarning tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Raqamli ta’lim muhitida flipped classroom texnologiyasidan samarali foydalanish ta’lim jarayonining individuallashtirilishi, talabalarning faolligini oshirish hamda o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash imkonini beradi. Shu bois ushbu mavzu zamonaviy pedagogika va ta’lim amaliyotida dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. An’anaviy ta’lim o‘qituvchi odatda darsning asosiy yetakchisi, diqqat markazi va asosiy axborot manbayi hisoblangan ta’lim shakllarini o‘zida mujassalashtirilgan ta’lim jarayonidir. Unda, o‘qituvchi savollarga javob beradi, talabalar esa yo‘l-yo‘riq va fikr-mulohaza olish uchun bevosita unga murojaat qiladi. Ko‘plab an’anaviy metodlar ma’ruza shakliga asoslanib, talabalarning faolligini cheklaydi, ular asosan mustaqil yoki kichik guruhlarda o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi. O‘qituvchi sinf muhokamalarida markaziy rolni egallab, suhbat yo‘nalishini boshqaradi. Odatda bu uslubda talabalarga uyda darslik o‘qish yoki masalalar yechish kabi vazifalar beriladi.

Teskari sinf (flipped classroom) modeli esa ta’limni talabaga yo‘naltirilgan shakli sanaladi, talabalar yangi mavzular bilan dastlab darsdan tashqarida tanishadi, natijada sinf vaqti mavzuni chuqurroq o‘rganish va tahlil qilishga sarflanadi. Bu esa mazmunli va samarali o‘rganish imkoniyatlarini yaratadi. Mazmunni yetkazish turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin: ko‘pincha o‘qituvchi yoki boshqa manbalar tomonidan tayyorlangan videodarslar, shuningdek, onlayn muhokamalar, raqamli tadqiqotlar yoki matnli materiallar qo‘llaniladi.

Flipped classroom (teskari sinf) – o‘qitish strategiyasi va aralash (blended) ta’limning bir turi hisoblanadi. Uning maqsadi talabalarning darsga jalb etilganlik darajasi va o‘zlashtirish samaradorligini oshirishdan iborat bo‘lib, bunda talabalar uyda o‘qish materiallarini o‘zlashtiradi, dars vaqtida esa amaliy muammolarni birgalikda hal qiladi.

Flipped classroom texnologiyasining shakllanish tarixiga nazar tashlar ekanmiz, Militsa Nechkina noli rus flipped classroom (teskari sinf) modelini ilk bor 1984-yilda taklif qilgan. 1980–1990-yillarda Rossiyada o‘qituvchilar ushbu o‘qitish strategiyasini sinab ko‘rganlar. Nechkina teskari sinf haqida shunday yozadi: “…talabalarga maxsus ishlab chiqilgan darslikni mustaqil o‘qish orqali yangi bilimlarni egallash imkonini bering. So‘ng ular bu bilimlarni tahlil qilsinlar, maktabda o‘qituvchi bilan muhokama qilib, umumiy xulosaga kelsinlar” [6, 12-b].

1993-yilda Alison King “From Sage on the Stage to Guide on the Side” [8, B-30-35] nomli asarini chop etdi. Unda u dars vaqtini axborot uzatishdan ko‘ra, bilimni mazmunli o‘zlashtirishga yo‘naltirish muhimligini ta’kidlaydi. Garchi u bevosita “teskari sinf” tushunchasini izohlamagan bo‘lsa-da, uning ishlari faol o‘rganishga asoslangan yondashuvni shakllantirishga turtki bo‘lgan.

Garvard professori Eric Mazur flipped teaching (teskari o‘qitish) g‘oyalarining rivojlanishida muhim rol o‘ynagan. U “peer instruction” (o‘zaro o‘qitish) deb nomlangan metodni ishlab chiqdi va 1997-yilda shu nomdagi kitobini nashr etdi. Mazur o‘z yondashuvida axborotni yetkazishni darsdan tashqariga, uni o‘zlashtirishni esa dars jarayoniga olib kirib, o‘qituvchining ma’ruza o‘qishdan ko‘ra talabalarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishini ta’minlash mumkinligini isbotladi.

2000-yilda Lage, Platt va Treglia “Inverting the Classroom: A Gateway to Creating an Inclusive Learning Environment” nomli maqolani chop etdilar. Unda ular oliy ta’limdagi teskari sinf tajribalarini tahlil qilib, ma’ruza materiallarini sinfdan tashqariga (kompyuter yoki videolar orqali) ko‘chirish orqali dars vaqtini turli o‘quv uslublariga ega talabalar ehtiyojlariga moslashtirish mumkinligini ko‘rsatdilar. Shu davrda Wisconsin–Madison universiteti katta auditoriyali informatika kurslarida ma’ruzalarni videoyozuvlar bilan almashtirish tajribasini joriy etdi. 1990-yillarning oxirida J. Wesley Baker ham shu g‘oyalar ustida tajriba o‘tkazib, 2000-yilda ta’lim konferensiyasida “classroom flip” atamasini ilk bor qo‘llagan.

2007-yilda Kaw va Hess ATEM kursi doirasida to‘rtta o‘qitish usulini solishtirdilar: an’anaviy ma’ruza, aralash ta’lim (web bilan boyitilgan), to‘liq onlayn o‘zlashtirish va teskari sinf (onlayn o‘rganish + sinfda muhokama). Natijalar web-modullar bilan boyitilgan usul talabalarning natijadorligi va qoniqish darajasini oshirishini ko‘rsatdi.

Teskari sinf modelining mashhur targ‘ibotchilaridan biri – Salman Khan. U 2004-yilda talabasining iltimosiga ko‘ra videodarslar yozishni boshlagan. Keyinchalik u Khan Academy platformasiga asos solgan. Garchi bu videolar teskari sinfning faqat bir ko‘rinishi bo‘lsa-da, ular ushbu modelning keng tarqalishiga katta hissa qo‘shdi.

Wisconsin Collaboratory for Enhanced Learning markazi flipped va blended learningga yo‘naltirilgan maxsus o‘quv muhitlarini yaratdi. Bu yerda texnologiyalar bilan jihozlangan va hamkorlikka qulay sinf xonalari tashkil etilib, individual ta’limga e’tibor qaratilgan.

Talabalar qarshiligini kamaytirish maqsadida Clark, Kaw va Braga Gomes flipped classroom modelida darsdan oldingi tayyorgarlik bosqichida adaptiv o‘qitish texnologiyalaridan foydalandilar. Bu usul talabalar vaqtini tejash va bilimni puxta o‘zlashtirishga yordam berib, modelga ijobiy munosabatni oshirdi.

So‘nggi yillarda tadqiqotchilar COVID-19 pandemiyasi davrida gibrid (aralash) flipped classroom modelining ahamiyatini alohida ta’kidladilar. Ularning fikricha, ushbu yondashuv, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda onlayn ta’lim samaradorligini oshirish va kengroq talaba hamda o‘qituvchi auditoriyasini qamrab olish imkonini beradi.

Ushbu pedagogik yondashuvda an’anaviy ravishda uy vazifasi hisoblangan faoliyatlar sinf jarayoniga ko‘chiriladi. Teskari sinf modelida talabalar uyda onlayn ma’ruzalarni tomosha qiladi, onlayn muhokamalarda qatnashadi yoki tadqiqot olib boradi, sinfda esa o‘qituvchi rahbarligida faol tarzda bilimlarni qo‘llaydi.

Muhokama va natija. Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinib turibdiki, “flipped classroom” (teskari sinf) modeli zamonaviy ta’lim tizimida samarali pedagogik yondashuv sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bizning nazarimizda, an’anaviy ta’limdan tubdan farq qilib, o‘quv jarayonini o‘qituvchi markazidan talaba markaziga yo‘naltiradi. Bu esa ta’lim samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Teskari sinf yondashuvida nazariy bilimlarning darsdan tashqarida o‘zlashtirilishi va auditoriya vaqtining amaliy faoliyatga yo‘naltirilishi talabalarning dars jarayonidagi faolligini sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, talabalarning mustaqil o‘rganish, tanqidiy fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal etish ko‘nikmalarining shakllanishida bu modelning ahamiyati yuqori ekanligi kuzatiladi. Shu jihatdan, muallif teskari sinf modelini nafaqat o‘qitish usuli, balki talabani faol subyektga aylantiruvchi pedagogik tizim sifatida baholaydi.

Shuningdek, an’anaviy ta’limda o‘qituvchining asosiy axborot manbayi sifatidagi roli teskari sinf modelida o‘zgarib, u ko‘proq yo‘naltiruvchi va maslahatchi funksiyasini bajaradi. Bu esa o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi hamda ta’lim jarayonini individuallashtirish imkonini beradi. Natijada, har bir talabaning ehtiyoj va qobiliyatlarini hisobga olgan holda samarali o‘qitish tashkil etiladi.

Bundan tashqari, sinf ichidagi faoliyatlarning interaktiv va amaliy xarakterga ega bo‘lishi talabalarda yuqori darajadagi tafakkur ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Muallifning ta’kidlashicha, aynan shunday yondashuv orqali talabalar bilimni faqat qabul qiluvchi emas, balki uni yaratuvchi va qo‘llovchi subyektga aylanadi.

Umuman olganda, muallif flipped classroom modelini raqamli ta’lim muhitida qo‘llash o‘quv jarayonining sifatini oshiruvchi, talabalarning faolligini kuchaytiruvchi va zamonaviy kompetensiyalarni shakllantiruvchi samarali pedagogik yechim sifatida e’tirof etadi.

Yuqoridagi tahlillarga asoslanib aytish mumkinki, *flipped classroom* (teskari sinf) texnologiyasi zamonaviy ta’lim jarayonida yuqori samaradorlikka ega innovatsion yondashuv sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, dastlab talabalar ushbu modelga nisbatan ma’lum darajada ehtiyotkorlik va shubha bilan yondashsalar-da, amaliy ishtirok jarayonidan so‘ng ularning aksariyati teskari sinfni ma’qullaydi.

Shuningdek, teskari sinf (flipped classroom) texnologiyasi talabalarning mustaqil o‘rganish, muammolarni hal etish va hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq dastlabki bosqichda talabalar uchun yo‘naltiruvchi materiallarning yetarli darajada taqdim etilishi muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlanadi. Ayniqsa, teskari ta’lim texnologiyasi metodik vositalar o‘quv jarayonining muvaffaqiyatini ta’minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, teskari sinfning barcha komponentlari bir xil darajada samarali emas: ayrim elementlar (masalan, videodarslar) yordamchi vosita sifatida xizmat qilsa, boshqalari (masalan, aniq yo‘naltiruvchi ko‘rsatmalar) ta’lim sifatiga bevosita kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois flipped classroom texnologiyasini joriy etishda uning tarkibiy qismlarini puxta rejalashtirish va talabalar ehtiyojlariga moslashtirish zarur.

Xulosa. Raqamli ta’lim muhitida flipped classroom texnologiyasini o‘quv jarayoniga olib kirish talabalar motivatsiyasini oshiruvchi hamda zamonaviy kompetensiyalarni shakllantiruvchi samarali pedagogik model sifatida e’tirof etiladi. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, flipped classroom

(teskari sinf) texnologiyasi raqamli ta’lim muhitida o‘quv jarayonini samarali tashkil etishning muhim vositalaridan biridir. Ushbu yondashuv orqali talabalarning mustaqil o‘rganish ko‘nikmalari rivojlanadi, ularning dars jarayonidagi faolligi ortadi va bilimlarni chuqur o‘zlashtirish imkoniyati kengayadi.

Shuningdek, Moodle va Google Classroom kabi zamonaviy raqamli platformalardan foydalanish ta’lim jarayonini individuallashtirish, talabalarning ehtiyoj va qobiliyatlarini hisobga olish hamda samarali pedagogik hamkorlikni yo‘lga qo‘yishda muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada, flipped classroom texnologiyasini raqamli ta’lim muhitida qo‘llash ta’lim sifatini oshirish, zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirish va o‘quv jarayonini innovatsion asosda rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik yechim sifatida e’tirof etiladi.

Adabiyotlar:

1. Baybabayeva Shoiraxon Ismatovna. Flipped learning texnologiyasi asosida talablarning mustaqil ta'limini tashkillashtirishning nazariy asoslari. Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi. https://interscience.uz/index.php/home/article/download/2893/2571/7889

2. Baker, J.W. “The 'Classroom Flip”: Using Web course management tools to become the Guide by the Side.” In J. A. Chambers (Ed.), Selected papers from the 11th International Conference on College Teaching and Learning (2000), pp. 9–17.

3. Bishop, J. L., & Verleger, M. A. (2013). The flipped classroom: A survey of the research. ASEE National Conference Proceedings, Atlanta, GA.

4. Bergmann, J., & Sams, A. (2012). Flip your classroom: Reach every student in every class every day. International Society for Technology in Education.

5. Ирода Худойшукуровна Бердиева. Ўқитишнинг “Flipped classroom” модели: мазмуни, қўллаш талаблари ва имкониятлари // Academic research in educational sciences. 2021. №9.

6. Iacopo Falciani (2020). “Flipped classroom”. Europass Teacher Academy. Retrieved 2022-12-16.

7. Hamdan, N., McKnight, K., Miller, J., & F. M. (2013). A review of flipped learning. Flipped Learning Network.

8. King, Alison (1993). "From sage on the stage to guide on the side". College Teaching. 41 (1): 30–35.

9. Mason, G. S., Shuman, L. J., & Cook, K. (2013). Comparing the effectiveness of an inverted classroom to a traditional classroom in an upper-division engineering course. IEEE Transactions on Education, 56(4), 427-432.

10.Talib, M. A., & Arifin, S. R. M. (2018). Effectiveness of flipped classroom in teaching and learning. Journal of Education and Social Sciences, 10, 55-66.

11.Холмиров Бегали. Ўқув жараёнини тескари синф (flipped classroom) технологияси асосида такомиллаштириш [Матн]: методик қўлланма. – Т.: “Yetakchi nashriyoti”, 2024. – 32 б

12.https://interscience.uz/index.php/home/article/download/2893/2571/7889

13.https://in-academy.uz/index.php/zdift/article/download/57259/36221/63797

OLIY TA’LIM TIZIMIDA SUN’IY INTELLEKT: BIBLIOMETRIK VA KONTENT TAHLIL ASOSIDA ISTIQBOLLI TADQIQOT YO‘NALISHLARINI ANIQLASH

Jamolova Gulbanbegim Muzaffar qizi,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Pedagogika fakulteti dotsenti PhD,
Qarshi, O‘zbekiston.
gulbanbegimjamolova@gmail.com
ORCID ID: 0009-0008-5438-5045

Mazkur tadqiqot oliy ta’lim tizimida sun’iy intellekt texnologiyalarining integratsiyasini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, 2020–2026-yillar oralig‘ida chop etilgan ilmiy ishlar asosida rivojlanish tendensiyalari, yetakchi ilmiy markazlar, yuqori iqtibosli maqolalar hamda asosiy tematik yo‘nalishlarni aniqlashni maqsad qiladi.

Tadqiqotda bibliometrik va kontent tahlil metodlari qo‘llanilib, Scopus bazasidan olingan 100 dan ortiq ilmiy manbalar tahlil qilindi. Ko‘p so‘zli tahlil, iqtibos tahlili, hammualliflik tahlili va bibliografik bog‘liqlik usullari yordamida natijalar VOSviewer dasturi orqali vizualizatsiya qilindi.

Natijalar sun’iy intellekt bo‘yicha ilmiy faoliyatning jadal rivojlanayotganini ko‘rsatdi. Adaptiv ta’lim, prediktiv analitika va generativ sun’iy intellekt texnologiyalari asosiy tadqiqot yo‘nalishlari sifatida aniqlandi.

Tadqiqot natijalari ta’lim sifatini oshirish va boshqaruv jarayonlarini optimallashtirishda sun’iy intellektning muhim rolini tasdiqlaydi hamda kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, oliy ta’lim, bibliometrik tahlil, kontent tahlil, VOSviewer, adaptiv ta’lim, learning analytics, raqamli ta’lim, ilmiy hamkorlik, ta’lim samaradorligi*

ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN HIGHER EDUCATION: IDENTIFYING PROSPECTIVE RESEARCH DIRECTIONS BASED ON BIBLIOMETRIC AND CONTENT ANALYSIS

This study examines the integration of artificial intelligence technologies in higher education by identifying development trends, leading research institutions, highly cited publications, and key thematic areas based on studies published between 2020 and 2026.

The research applies bibliometric and content analysis methods, analyzing more than 100 scientific sources obtained from the Scopus database. Co-word analysis, citation analysis, co-authorship analysis, and bibliographic coupling were employed, with results visualized using VOSviewer.

The findings indicate a rapid growth of scientific research on artificial intelligence in higher education. Adaptive learning, predictive analytics, and generative artificial intelligence technologies have been identified as the main research directions.

The results confirm the significant role of artificial intelligence in improving educational quality and optimizing management processes, while also providing a foundation for future research in this field.

Keywords: *artificial intelligence, higher education, bibliometric analysis, content analysis, VOSviewer, adaptive learning, learning analytics, digital education, scientific collaboration, educational effectiveness*

ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ: ВЫЯВЛЕНИЕ ПЕРСПЕКТИВНЫХ НАПРАВЛЕНИЙ ИССЛЕДОВАНИЙ НА ОСНОВЕ БИБЛИОМЕТРИЧЕСКОГО И КОНТЕНТ-АНАЛИЗА

Данное исследование посвящено изучению интеграции технологий искусственного интеллекта в систему высшего образования с целью выявления тенденций развития, ведущих научных центров, наиболее цитируемых публикаций и ключевых тематических направлений на основе исследований, опубликованных в период 2020–2026 гг.

В работе применены методы библиометрического и контент-анализа, в рамках которых проанализировано более 100 научных источников, полученных из базы данных Scopus. Использованы ко-словный анализ, анализ цитирования, анализ соавторства и библиографическое сопряжение, результаты которых визуализированы с помощью программы VOSviewer.

Результаты исследования свидетельствуют о стремительном росте научной активности в области искусственного интеллекта в высшем образовании. В качестве основных направлений

выделены адаптивное обучение, предиктивная аналитика и генеративные технологии искусственного интеллекта.

Taklif etilgan arxitekturada eng ko‘p yuklangan komponentlar – Grading va Runner xizmatlari – mustaqil gorizontal masshtablanadi. Olimpiadaning pik yuklamalari paytida Kubernetes orkestratsiya platformasi yordamida faqat ushbu xizmatlarning nusxalari ko‘paytiriladi [13], boshqa komponentlar esa o‘z resurslarida barqaror ishlashda davom etadi. Asinxron hodisa modeli yuklamani vaqt bo‘yicha taqsimlash imkonini beradi va tizimning umumiy chidamliligini oshiradi.

Muhokama. Taklif etilgan avtomatlashtirilgan platforma arxitekturasi shuni ko‘rsatadiki, mikroservisli va hodisalarga yo‘naltirilgan yondashuvlarni uyg‘unlashtirish ushbu sinfdagi tizimlar uchun amaliy va asosli yechim hisoblanadi. Platformani domen servislariga dekompozitsiya qilish predmet sohasi tuzilmasini aniq aks ettirishga hamda monolit arxitekturalarga xos bo‘lgan ortiqcha yuklangan komponentlardan qochishga yordam beradi.

Taklif etilgan yechimning muhim afzalliklaridan biri — yechimlarni avtomatik tekshirish quyi tizimini mustaqil masshtablash imkoniyatidir. Olimpiadalarda hakamlik eng ko‘p resurs talab qiladigan jarayon bo‘lib, keskin pik yuklamalarga duch keladi. Tekshiruv orkestratori va ijro servislarini alohida mikroservislar sifatida ajratish, tizimning boshqa komponentlarini masshtablashga ehtiyoj bo‘lmasdan, aynan shu servislarning hisoblash resurslarini oshirish imkonini beradi.

Xabarlar brokeriga asoslangan hodisaviy o‘zaro aloqalar modeli qo‘shimcha ma‘lumot iste‘molchilarini integratsiya qilishni soddalashtiradi. Bunday yondashuv tizimning qisman nosozliklarga bardoshliligini ham oshiradi. Shu bilan birga, hodisalarga yo‘naltirilgan arxitektura eventual consistency modelini qabul qilishni talab qiladi; bu esa ma‘lumot oqimlarini loyihalash va ma‘lumot yangilanishidagi kechikishlarni qayta ishlash masalalariga alohida e‘tibor qaratishni taqozo etadi.

OpenID Connect asosidagi markazlashgan autentifikatsiya va Zero Trust tamoyillarini qo‘llash boshqariladigan hamda kengaytiriladigan kirish modeli uchun poydevor yaratadi. gVisor ni qo‘llash an‘anaviy konteynerlarni ishga tushirishga nisbatan hujum yuzasini sezilarli kamaytiradi, biroq operatsion murakkablik va qo‘shimcha xarajatlarni oshiradi.

Taklif etilgan yondashuvning cheklovlariga ekspluatatsiya murakkabligining ortishi kiradi. Mikroservisli arxitektura rivojlangan monitoring, loglash va konfiguratsiyalarni boshqarish vositalarini talab qiladi [8]. Bundan tashqari, Kafka va Kubernetes kabi komponentlarni joriy etish mos muhandislik tajribasiga ega bo‘lishni nazarda tutadi. Kichik musobaqalar yoki mahalliy olimpiadalar sharoitida bunday arxitektura sodda yechimlarga nisbatan ortiqcha bo‘lib qolishi mumkin.

DOMjudge va CMS kabi mavjud olimpiada tizimlari bilan solishtirganda [1], taklif etilgan arxitektura hakamlik va boshqaruv mantiqini ajratish bo‘yicha sinovdan o‘tgan tamoyillarni saqlab qoladi, shu bilan birga chuqurroq dekompozitsiya va zamonaviy infratuzilmaviy texnologiyalar hisobiga ularni kengaytiradi.

Xulosa. Ushbu ishda axborot texnologiyalari bo‘yicha olimpiadalarni raqamlashtirish uchun mikroservisli va hodisalarga yo‘naltirilgan yondashuvlarga asoslangan avtomatlashtirilgan platforma arxitekturasi ishlab chiqildi va tavsiflandi. Taklif etilgan yechim olimpiadani o‘tkazishning to‘liq siklini qamrab oladi – foydalanuvchilarni autentifikatsiya qilish va kontestlarni boshqarishdan tortib, yechimlarni avtomatik tekshirish, reytinglar jadvalini shakllantirish hamda bildirishnomalarni tarqatishgacha.

Ishning asosiy natijalari quyidagilardan iborat: platformani domen mikroservislariga asosli dekompozitsiya qilish; sinxron va asinxron o‘zaro aloqa mexanizmlarini uyg‘unlashtirish; hodisalarni uzatish uchun xabarlar brokeridan foydalanish; hodisalarni ishonchli nashr etish uchun Transactional Outbox naqshini qo‘llash; shuningdek OpenID Connect, OWASP tavsiyalari va Zero Trust tamoyilini o‘z ichiga olgan zamonaviy xavfsizlik amaliyotlarini integratsiya qilish. Alohida ravishda foydalanuvchi kodini bajarishni izolyatsiya qilishning muhimligi ta‘kidlandi va gVisor ni sandbox sifatida qo‘llash imkoniyati ko‘rsatildi.

Foydalanuvchi profillari domeni va musobaqa natijalari domenini ajratish ma‘lumotlarni boshqarishni yaxshilashi hamda tizimni masshtablashni soddalashtirishi ko‘rsatildi. Taklif etilgan arxitektura ta‘limiy va musobaqaviy ssenariylarda olimpiada platformalari hamda yechimlarni avtomatik tekshirish tizimlarini loyihalash uchun amaliy “referens” sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin.

Keyingi tadqiqot yo‘nalishlari sifatida tizim unumdorligini eksperimental baholash, arxitekturaning ekstremal yuklamalar ostidagi xatti-harakatini tahlil qilish, shuningdek izolyatsiyaning muqobil mexanizmlarini o‘rganish va ekspluatatsiya xarajatlarini optimallashtirish masalalari ko‘rib chiqilishi mumkin.

Adabiyotlar

1. Maggiolo S., Mascellani G., Raffaelli M. Introducing CMS: A Contest Management System // Olympiads in Informatics. – 2012. – Vol. 6. – P. 79–90.

2. Enström E., Kreitz G., Niemelä F., Söderman P., Kann V. Five Years with Kattis – Using an Automated Assessment System in Teaching // Proceedings of the IEEE Frontiers in Education Conference (FIE). – 2011. – P. 1–8.

3. Kreps J., Narkhede N., Rao J. Kafka: A Distributed Messaging System for Log Processing // Proceedings of the NetDB. – 2011.

4. Pautasso C., Zimmermann O., Leymann F. Microservices in Practice: A Survey Study // 2017 IEEE International Conference on Software Architecture Workshops. – 2017. – P. 7–10.

5. Newman S. Building Microservices: Designing Fine-Grained Systems. – 2nd ed. – Sebastopol: O’Reilly Media, 2021. – 558 p.

6. Richardson C. Microservices Patterns: With Examples in Java. – Manning Publications, 2018. – 520 p.

7. Fowler M. Patterns of Enterprise Application Architecture. – Boston: Addison-Wesley, 2002. – 533 p.

8. Bass L., Weber I., Zhu L. DevOps: A Software Architect’s Perspective. – 2nd ed. – Addison-Wesley, 2015. – 320 p.

9. Rose S., Borchert O., Mitchell S., Connelly S. Zero Trust Architecture (NIST Special Publication 800-207). – Gaithersburg: National Institute of Standards and Technology, 2020.

10. OWASP Foundation. OWASP Top Ten Web Application Security Risks. – 2021. – URL: https://owasp.org

11. OWASP Foundation. OWASP Application Security Verification Standard (ASVS). – 2023. – URL: https://owasp.org

12. OpenID Foundation. OpenID Connect Core 1.0 incorporating errata set 2. – 2014. – URL: https://openid.net

13. Burns B., Beda J., Hightower K. Kubernetes: Up and Running. – 3rd ed. – Sebastopol: O’Reilly Media, 2022. – 356 p.

14. Fowler M., Lewis J. Microservices: a definition of this new architectural term. – 2014. – URL: https://martinfowler.com/articles/microservices.html

15. Rustamov H.Sh. Development of tests for computer-based testing// Вестник интегративной психологии. –Ярославль, 2018. - №16. – P.303 -305

16.Rustamov H.Sh., Akramov O.I., Informatikadan olimpiada masalalarini rekursiv munosabatlardan foydalanib yechish. //Respublika ilmiy-amaliy konf. “Ta'lim sifatini oshirish: Muammo, yechim va istiqbol”. Tez. Dokl. –Buxoro. -2020. B.-246-249.

17. Rustamov H.Sh., Akramov O.I., Sinxrom va asinxrom jarayonlar.Ma’lumotlar ombori bilan ishlashda asinxrom jarayonlardan foydalanish tajribasi.//Abstracts international scientific and practical conference “Modern problems of applied mathematics and information technologies”. Bukhara. 2021, 15 Aprel, 418-421.

18. Rustamov H.Sh., Akramov O.I., Olimpiada masalalarini yechishda Sliding Window texnikasidan foydalanish.//Amaliy matematika va axborot texnologiyalarining zamonaviy muammolari. Buxoro. 2022,11-12 may, 423-426 b.

KIMYO DARSLARIDA SUN’IY INTELLEKT YORDAMIDA AVTOMATLASHTIRILGAN TOPSHIRIQLAR YARATISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Ergashov Mansur Yarashovich,
Buxoro davlat pedagogika instituti
Kimyo kafedrasi mudiri, kimyo fanlari nomzodi, professor
Soyibova Maftuna Iskandar qizi,
Buxoro davlat pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi (kimyo) mutaxassisligi I bosqich magistranti

Ushbu maqolada kimyo darslarini sun’iy intellekt yordamida yanada samarali, interaktiv shaklda o‘tkazish va o‘quvchilarning individual bilim darajasini oshirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Kimyo darslarida sun’iy intellekt yordamida avtomatlashtirilgan topshiriqlar yaratish metodikasi nafaqat pedagogik samaradorlikni oshiradi, balki o‘quvchilarning STEMM ko‘nikmalarini rivojlantirish va global ta’lim standartlariga moslashishda strategik ahamiyatga ega takliflar ishlab chiqish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: *Sun’iy intellekt, kimyo ta’limi, AI platformalari (ChatGPT, Bing Chat, Bard), avtomatlashtirilgan topshiriqlar, metodika, interaktiv , individualizatsiya, STEMM, global ta’lim, standart, strategik ahamiyat, kompyuter va laboratoriya simulyatorlari,* ***eksperimental sinov, analitik tadqiqot.***

УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ СОЗДАНИЯ АВТОМАТИЗИРОВАННЫХ ЗАДАНИЙ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА УРОКАХ ХИМИИ

Данная статья поможет проводить уроки химии более эффективно и интерактивно, используя искусственный интеллект, и повысить индивидуальный уровень знаний учащихся. Методология создания автоматизированных заданий на уроках химии с использованием искусственного интеллекта не только повышает педагогическую эффективность, но и позволяет разрабатывать стратегически важные предложения по развитию STEMM-навыков учащихся и адаптации к мировым образовательным стандартам

Ключевые слова: *искусственный интеллект, химическое образование, платформы ИИ, автоматизированные задачи, методология, интерактивность, индивидуализация, STEMM, глобальное образование, стандарт, стратегическое значение, компьютерные и лабораторные симуляторы, экспериментальное тестирование, аналитические исследования.*

IMPROVING THE METHODOLOGY FOR CREATING AUTOMATED TASKS USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN CHEMISTRY LESSONS

This article will help to conduct chemistry lessons in a more effective, interactive way using artificial intelligence and increase the individual knowledge level of students. The methodology of creating automated tasks in chemistry lessons using artificial intelligence not only increases pedagogical efficiency, but also allows us to develop strategically important proposals for developing students STEMM skills and adapting to global educational standards.

Keywords: *Artificial intelligence, chemistry education, AI platforms, automated tasks, methodology, interactive, individualization, STEMM, global education, standard, strategic importance, computer and laboratory simulators, experimental testing, analytical research.*

Kirish. Bugungi kunda ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning o‘rni tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, kimyo fanini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish darslarning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, STEMM fanlariga, jumladan kimyoga bo‘lgan e’tibor ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, kimyo darslarida sun’iy intellekt yordamida avtomatlashtirilgan topshiriqlar yaratish metodikasini takomillashtirish O‘zbekiston kontekstida quyidagi jihatlarda ahamiyatlidir.

Sun’iy intellekt yordamida yaratilgan avtomatlashtirilgan topshiriqlar o‘quvchilarning bilim darajasini individual baholash va moslashtirish imkonini beradi. Bu kimyo darslarining samaradorligini oshiradi, o‘quvchilarni murakkab nazariy tushunchalarni tezroq o‘zlashtirishga undaydi.

Sun’iy intellekt yordamida murakkab kimyoviy jarayonlarni modellashtirish, reaksiyalarni bashorat qilish va virtual tajribalar o‘tkazish imkoniyati yaratilmoqda. Kimyo darslarida sun’iy intellekt yordamida avtomatlashtirilgan topshiriqlar yaratish metodikasini takomillashtirish bir qator ilmiy yangiliklarni o‘zida

mujassam etadi. Ta’lim jarayonida inson intellekti talab qiladigan vazifalarni bajara oladigan kompyuter tizimlari yig‘indisi hisoblangan. Sun’iy intellekt- o‘rganish, mulohaza yuritish, muammoni hal qilish, idrok etish, tilni tushuntirish va qaror qabul qilish kabi vazifalarni o‘z ichiga oladi.

An’anaviy darslarda topshiriqlar ko‘pincha barcha o‘quvchilar uchun umumiy bo‘ladi. Sun’iy intellekt yordamida ishlab chiqilgan metodika o‘quvchilarning bilim darajasi, kognitiv qobiliyatlari va oldingi natijalariga moslashtirilgan topshiriqlar yaratish imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili. Kimyo ta’limida nazariy materiallarni o‘rganish jarayoni, zamonaviy pedagogik yondashuvlar doirasida o‘quvchilarning chuqur va ma’no bilan boy tushunishini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Sun’iy intellekt (SI) ushbu maqsadga erishishda kuchli vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Nazariy savollar uchun shakllantiruvchi baholash metodikasini takomillashtirish, o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashuvchan va tezkor muddatda tuzatish imkoniyatlari yaratib beradi . AI (sun’iy intellekt tizimi bo‘lib, u kompyuter yoki dasturlar orqali insonni fikrlash, o‘rganish, tahlil qilish va qaror qabul qilish qobilyatlarni tahlil qiladigan texnologiya hisoblanadi) yordamida avtomatlashtirilgan topshiriqlar metodikasining asosiy ustuvorliklari – bu o‘quvchilarning tushunish darajasini chuqurlashtirish va o‘qituvchilarning ish yukini kamaytirishdan iborat bo‘lsa-da, bu jarayon faqat texnik vositalarni qo‘llashdan iborat emas. Buning o‘rniga, unda Individualizatsiya va Adaptivlik nazariyalariga asoslangan mustahkam pedagogik ramka integratsiyasi zarur. Bu yondashuvda har bir o‘quvchining oldingi bilim darajasi, o‘rganish tezligi va qabul qilish usullariga mos ravishda moslashtirilgan o‘quv materiallari va topshiriqlar yaratiladi. AI yordamida yaratilgan formativ baholash vositalari o‘quv jarayonini dinamik ravishda kuzatish va o‘quvchilarning tushunmagan joylarini aniq aniqlash imkonini beradi. Masalan, ChatGPT kabi Generativ AI (GenAI) modeli orqali mavzu bo‘yicha testlar, kvizlar va izchillikni o‘rganish uchun savollar avtomatik ravishda yaratilishi mumkin. Masalan, Kimyo Konseptual inventarizatsiyasi (Chemistry Concert Inventory CCI) kabi psixometrik instrumentlardan foydalanib, AI o‘quvchilarning kimyoviy jarayonlar, atom tuzilishi va kimyoviy bog‘lanishlar haqidagi noaniqliklarini aniqlash uchun mo‘ljallangan testlar yaratishi mumkin.

№	Muammo nomi	Muammoning mazmuni
1	Pedagogik metodologiyaning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi	Sun’iy intellekt asosida topshiriqlar yaratish ko‘proq texnologik va dasturiy yondashuvda o‘rganilgan bo‘lib, pedagogik metodika, o‘quvchi ehtiyojlariga moslashuv, interaktivlik va ta’lim natijalarini baholash mexanizmlari yetarli darajada ilmiy asoslanmagan
2	O‘quvchilarning individual xususiyatlariga moslashtirishning cheklanganligi	Avtomatlashtirilgan topshiriqlarda murakkablik darajasi, o‘quvchining avvalgi bilimlari va kognitiv xususiyatlarini chuqur tahlil qiluvchi adaptiv metodlar yetarli emas, bu esa individual yondashuvni to‘liq ta’minlamaydi
3	Nazariy va amaliy materiallarni integratsiyalashning yetarli emasligi	Sun’iy intellekt asosan test va mashqlar generatori sifatida ishlatiladi, kimyoviy eksperimentlar, molekulyar modellash va real laboratoriya ko‘nikmalarini integratsiyalash metodikasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan
4	Mahalliy kontekst va resurslarga moslashuv yetishmasligi	O‘zbekiston va MDH mamlakatlarida texnik infratuzilma, internet tezligi va kompyuter resurslarining cheklanganligi global AI platformalari(ChatGPT, Bing Chat, Bard)ni to‘liq joriy etishni qiyinlashtiradi, regional moslashtirish masalalari yetarlicha o‘rganilmagan
5	Baholash va feedback tizimining optimallashtirilmaganligi	AI yordamida baholash ko‘pincha ball tizimi bilan cheklanadi, bilim bo‘shliqlarini aniqlash, individual tavsiyalar berish va qayta moslashtirilgan topshiriqlar yaratish algoritmlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan.
6	Etika va akademik halollik masalalari	AI tizimlarida noto‘g‘ri javoblar (hallucination), plagiarizm va o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatiga salbiy ta’sir qilish xavfi mavjud bo‘lib, bu masalalar bo‘yicha metodik va ilmiy tavsiyalar yetarli emas.

Tadqiqot metodologiyasi: An’anaviy metodikalarda ko‘pincha nazariy bilimlar va laboratoriya mashg‘ulotlari alohida o‘rganiladi. Takomillashtirilgan metodika nazariy konseptlarni amaliy tajribalar bilan uyg‘unlashtirishni ta’minlaydi. Shu orqali o‘quvchilarning eksperimental ko‘nikmalari va tahliliy fikrlash qobiliyati rivojlantiriladi.

- kimyo ta’limida zamonaviy axborot texnologiyalari va sun’iy intellektdan foydalanish holatini tahlil qilish;

- avtomatlashtirilgan topshiriqlarning pedagogik va didaktik xususiyatlarini aniqlash;
- sun’iy intellekt asosida kimyo fanidan topshiriqlar yaratish bosqichlarini ishlab chiqish;
- test va masalalarni avtomatik generatsiya qilish metodikasini asoslash;
- ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini tajriba-sinov ishlari orqali tekshirish.

Metodika sun’iy intellekt yordamida yaratilgan topshiriqlarda noto‘g‘ri ma’lumot (hallucination) xavfini kamaytirish, talabaning mustaqil fikrlashini qo‘llab-quvvatlash va akademik halollikni saqlash uchun nazariy asoslangan mexanizmlar taklif qiladi. Bu ilmiy novatorlik sifatida ahamiyatlidir.

Kimyo ta’limida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ta’lim sifatini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Raqamli simulyatsiyalar murakkab jarayonlarni oson va tushunarli shaklda ifodalash imkonini beradi.

Shu o‘rinda ba’zi muammolar mavjud. Avvalo, barcha maktab va oliy ta’lim muassasalarida texnik jihozlanish darajasi yetarli emas. Internet tezligi va zamonaviy kompyuterlar yetishmagan ayrim hududlarda AKT vositalaridan to‘liq foydalanishga to‘sqinlik qilmoqda. Sun’iy intellektdan foydalanish esa axborot xavfsizligi va maxfiylik alohida e’tibor talab qiladi. Shunga qaramay, bu texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish orqali kimyo ta’limini yangi bosqichga olib chiqish mumkin

Innovatsion kadrlar tayyorlash-Sun’iy intellekt yordamida topshiriqlarni o‘rganish jarayoni o‘quvchilarda tahliliy fikrlash, muammo yechish va eksperimental ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Bu esa kelajakda O‘zbekistonda ilmiy tadqiqotlar, sanoat innovatsiyalari va texnologik loyihalarni amalga oshirishda malakali kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

Kimyo darslarida sun’iy intellekt yordamida avtomatlashtirilgan topshiriqlar yaratish metodikasi yangi, innovatsion yo‘nalish bo‘lib, hozirgi kunda ham bir qator muammolar va yetarlicha o‘rganilmagan jihatlar mavjud.

O‘zbekiston va MDH mamlakatlari sharoitida texnik infratuzilma va resurslar cheklanganligini hisobga olgan holda, AI texnologiyalarini lokal ta’lim muhitiga moslashtirish alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, tadqiqot davomida AI tizimlaridan foydalanishda akademik halollik, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va tanqidiy tafakkurini saqlab qolish masalalariga e’tibor qaratish zarurligi asoslab berildi. Bu esa avtomatlashtirilgan topshiriqlarni nafaqat nazorat vositasi, balki rivojlantiruvchi va yo‘naltiruvchi pedagogik instrument sifatida qarashni taqozo etadi.

Natija. Kimyo darslarida sun’iy intellekt yordamida avtomatlashtirilgan topshiriqlar yaratish metodikasi zamonaviy ta’limning eng dolzarb kesishmasida: raqamli pedagogika, sun’iy intellekt va fanning o‘ziga xos didaktikasi. Keling, bu metodikani qanday tizimli ravishda takomillashtirish mumkinligini bosqichma-bosqich ko‘rib chiqamiz.

1. Muammoni to‘g‘ri tushunishdan boshlaymiz. Kimyo – abstrakt tushunchalar (atom tuzilishi, kimyoviy bog‘lar) va hisob-kitob masalalari (molyar massa, reaksiya tenglashmasi) hamda laboratoriya ko‘nikmalarini birlashtirgan murakkab fan. Shuning uchun “topshiriq yaratish” deganda biz bir xil narsani nazarda tutmaymiz – har bir topshiriq turi o‘ziga xos kognitiv yukga ega.

Bloom taksonomiyasi nuqtai nazaridan qaralganda, kimyo topshiriqlari olti pog‘onani qamrab olishi kerak: bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil qilish, baholash va yaratish. Sun’iy intellekt yordamida yaratilgan topshiriqlarning zaif tomoni – aksariyat hollarda faqat quyi pog‘onalar (bilish va tushunish) darajasida qolib ketishi. Metodikani takomillashtirish aynan shu kamchilikni bartaraf etishdan boshlanadi.

2. Sun’iy intellektdan foydalanishning to‘g‘ri arxitekturasi. Sun’iy intellektni topshiriq yaratishda “avtomat mashina” sifatida emas, balki pedagog yordamchisi sifatida ko‘rish kerak. Bu farq juda muhim. Quyidagi uch bosqichli yondashuv samarali natija beradi:

Birinchi bosqich — kontekstni to‘g‘ri berish (Prompt Engineering). Sun’iy intellektga topshiriq yaratishni so‘raganda, unga qanchalik aniq kontekst bersangiz, natija shunchalik sifatli bo‘ladi. Masalan, shunchaki “kimyo masalasi yarat” demang. Buning o‘rniga:

“10-sinf o‘quvchilari uchun, stoixiometriya bo‘yicha, Bloom taksonomiyasining qo‘llash darajasida, haqiqiy hayot kontekstida (oziq-ovqat sanoati yoki ekologiya) bitta hisob-kitob masalasi yarat. Masalada berilgan va topilishi kerak bo‘lgan kattaliklar aniq bo‘lsin”.

Bu yondashuv bilan siz sun’iy intellektni to‘g‘ri yo‘naltirasiz va pedagogik maqsadingizga mos natija olasiz.

Ikkinchi bosqich — differensiatsiya qatlamlarini qo‘shish. Zamonaviy inklyuziv ta’lim har xil o‘quv darajasidagi o‘quvchilarni hisobga olishni talab qiladi. Sun’iy intellektdan bir xil mavzu bo‘yicha uchta variantda topshiriq yaratishni so‘rash mumkin: oddiy (asosiy tushunchalar), o‘rta (qo‘llash), va murakkab (muammoni hal etish + tanqidiy fikrlash). Bu ayniqsa kimyo kabi faktorli fanda samarali ishlaydi.

Uchinchi bosqich – formativ va summativ baholash elementlarini qo‘shish. Topshiriq nafaqat savoldan iborat bo‘lishi, balki baholash rubrikasi, xato tahlili uchun ko‘rsatmalar va o‘z-o‘zini nazorat qilish imkoniyatini ham o‘z ichiga olishi kerak. Sun’iy intellektdan topshiriq bilan birga baholash mezonlarini ham yaratishni so‘rash juda oqilona yondashuv hisoblanadi.

3. Kimyo uchun maxsus topshiriq turlari va sun’iy intellekt strategiyalari. Kimyoning o‘ziga xos xususiyati shundaki, bu fanda vizual va simvolik tillar muhim rol o‘ynaydi. Sun’iy intellekt matn asosida ishlaydi, lekin uni kimyo uchun samarali qo‘llashning ayrim usullari mavjud:

Reaksiya tenglamalarini tenglashtirish masalalari uchun sun’iy intellektdan nafaqat masalaning o‘zini, balki umumiy xato turlarini va diagnostik savollar ro‘yxatini so‘rash foydali. Bu o‘qituvchiga sinfda qaysi tushunchalar muammoli ekanini aniqlashga yordam beradi.

Laboratoriya ishlarini tayyorlash uchun sun’iy intellektdan “pre-lab” va “post-lab” savollar to‘plamini yaratish mumkin — tajriba oldidan nazariy tayyorgarlikni va tajribadan keyin xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida.

Kimyoviy hisob-kitob masalalarida esa sun’iy intellektdan bosqichma-bosqich yechim yo‘l xaritasi bilan birga topshiriq so‘rash samaralidir. O‘qituvchi bu yo‘l xaritasini kerak bo‘lganda ko‘rsatmalar (scaffolding) sifatida ishlatishi mumkin.

4. Metodikani tizimli takomillashtirish uchun amaliy sikl. Eng samarali yondashuv – bu ADDIE modeliga o‘xshash interativ jarayon: Tahlil (o‘quvchi darajasi va o‘quv maqsadi), Loyihalash (topshiriq turini tanlash), sun’iy intellekt yordamida ishlab chiqish, Aprobatsiya (sinf sharoitida sinash) va baholash asosida takomillashtirish.

Bu sikl muhim, chunki sun’iy intellekt yaratgan topshiriqlar darhol “ideal” bo‘lmaydi. Kimyo o‘qituvchisi sifatida har doim:yaratilgan masalaning kimyoviy jihatdan to‘g‘riligini tekshirishingiz (sun’iy intellekt ba’zan noto‘g‘ri formulalar yoki reaksiyalar berishi mumkin), topshiriqning o‘quv dasturiga muvofiqligini baholashingiz va til hamda terminologiyani o‘zbek ta'lim standartlariga moslashtirmanishingiz zarur.

5. Kelajakdagi yo‘nalish: o‘quvchi javoblarini sun’iy intellekt bilan tahlil qilish. Metodikaning eng ilg‘or qatlami – bu faqat topshiriq yaratish emas, balki o‘quvchilarning javoblarini tahlil qilish uchun ham sun’iy intellektdan foydalanish. Masalan, o‘quvchi elektron konfiguratsiya topshirig‘ida noto‘g‘ri javob bersa, sun’iy intellekt bu xatoning qanday turdagi tushunchasidan kelib chiqishini aniqlashga yordam bera oladi. Bu diagnostik ta’lim deb ataladi va kimyo o‘qitishida hali juda kam qo‘llanilmoqda.

Xulosa. Mazkur tadqiqotda kimyo darslarida sun’iy intellekt yordamida avtomatlashtirilgan topshiriqlar yaratish metodikasini takomillashtirish masalasining dolzarbligini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslab berdi. Tadqiqot jarayonida hozirgi kunda AI texnologiyalari ta’lim jarayoniga faol joriy etilayotgan bo‘lsada, ularni kimyo fanining didaktik xususiyatlariga mos holda metodik jihatdan mukammal qo‘llash masalasi yetarlicha o‘rganilmagan. Umuman olganda, mazkur tadqiqot kimyo darslarida sun’iy intellekt yordamida avtomatlashtirilgan topshiriqlar yaratish metodikasini takomillashtirish ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini chuqurlashtirish hamda zamonaviy raqamli pedagogika talablariga mos innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. – Toshkent, 2020.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Ta’lim tizimini raqamlashtirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar to‘plami. – Toshkent, 2021.

3. Azizxo**‘yeva** N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.– Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyishmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006.

4.Xojayev B. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Sano-standart nashriyoti, 2017.

5.Anderson J. R. Cognitive Psychology and Its Implications. – New York: Worth Publishers, 2015.

6.Tursunov B.O. Kimyo ta’limida zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: “Fan”, 2020.

7. Zhang D., Nunamaker J. Powering E-Learning in the New Millennium. // *Information Systems Frontiers*, 2018. – Vol. 20. – P. 1–12.

8.Siemens G. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age. // *International Journal of Instructional Technology and Distance Learning*, 2005.

9. Holmes W., Bialik M., Fadel C. Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. – Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019.

UO’K 37.018.43:004.9

GOOGLE CLASSROOM PLATFORMASIDA MATEMATIKA FANIDAN TAYYORLOV KURSINI YARATISH

Rustamov Hakim Sharipovich,
Buxoro davlat universiteti, amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)
rhsh0405@gmail.com
Haqqulova Nazokat Sherali qizi,
Buxoro davlat universiteti, amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedrasi 1-bosqich magistranti
nazokathaqqulova@gmail.com
Muxtorov Javohirbek Zafar o‘g‘li,
Buxoro davlat universiteti, amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedrasi 1-bosqich magistranti
j.z.muxtorov@buxdu.uz

Ushbu maqolada Google Classroom platformasi asosida matematika fanidan tayyorlov kursini yaratish, o‘quvchilar faoliyatini samarali tashkil etish hamda masofaviy ta’lim imkoniyatlaridan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda o‘quvchilar faoliyatini samarali tashkil etish hamda zamonaviy masofaviy ta’lim sharoitida Google Classroom platformasi asosida tayyorlov kursini yaratish imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida masofaviy kurs modeli ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi hamda uning pedagogik samaradorligi eksperimental usullar orqali baholandi. Natijalar mazkur yondashuv o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish va mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda hamda ta’lim jarayonini individuallashtirishda samarali ekanligini ko‘rsatdi.

Kalit so’zlar*: masofaviy ta’lim, virtual sinfxona, Google Classroom, matematika ta’limi, tayyorlov kursi, pedagogik samaradorlik, mustaqil ta’lim faoliyati, ta’lim jarayonini individuallashtirish, raqamli texnologiyalari*

РАЗРАБОТКА И ВНЕДРЕНИЕ ДИСТАНЦИОННОГО КУРСА ПО МАТЕМАТИКЕ НА ПЛАТФОРМЕ GOOGLE CLASSROOM

В данной статье рассматриваются вопросы создания подготовительного курса по математике на основе платформы Google Classroom, эффективной организации учебной деятельности учащихся, а также рационального использования возможностей дистанционного обучения. В исследовании проанализированы возможности организации учебного процесса и разработки подготовительного курса на основе платформы Google Classroom в условиях современного дистанционного образования. В ходе исследования была разработана модель дистанционного курса, внедрена в практику и оценена её педагогическая эффективность с использованием экспериментальных методов. Полученные результаты показали, что данный подход способствует повышению уровня знаний учащихся, развитию навыков самостоятельной работы и индивидуализации образовательного процесса.

Ключевые слова: *дистанционное обучение, виртуальный класс, Google Classroom, математическое образование, подготовительный курс, педагогическая эффективность, самостоятельная учебная деятельность, индивидуализация образовательного процесса, цифровые технологии*

DESIGN AND IMPLEMENTATION OF A DISTANCE LEARNING MATHEMATICS COURSE BASED ON THE GOOGLE CLASSROOM PLATFORM

This article discusses the creation of a preparatory mathematics course based on the Google Classroom platform, the effective organization of students’ learning activities, and the efficient use of distance learning opportunities. In the context of modern distance education, the possibilities of using the Google Classroom platform for creating a preparatory course are analyzed. During the study, a distance learning course was developed and implemented, and its pedagogical effectiveness was evaluated based on

experimental results. The findings indicate that this approach improves students’ academic performance and enhances their independent learning skills.

Key words: *distance learning, virtual classroom, Google Classroom, mathematics education, preparatory course, pedagogical effectiveness, independent learning activity, individualization of the educational process, digital technologies*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimi jadal raqamlashtirish jarayonini boshdan kechirmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi natijasida ta’lim jarayonini tashkil etish shakllari tubdan yangilanib, an’anaviy o‘qitish usullari bilan bir qatorda masofaviy ta’lim modeli ham keng qo‘llanila boshladi. Ayniqsa, so‘nggi yillarda yuzaga kelgan global o‘zgarishlar ta’lim tizimida moslashuvchanlik, interaktivlik va individuallashtirish kabi omillarni ustuvor yo‘nalishga aylantirdi. Masofaviy ta’lim o‘quvchilarga bilimlarni mustaqil egallash, o‘zlashtirish sur’atini individual ravishda belgilash va ta’lim resurslaridan erkin foydalanish imkonini beradi. Shu bilan birga, u o‘qituvchidan ta’lim jarayonini yangi metodik yondashuvlar asosida tashkil etishni, zamonaviy platformalar va elektron resurslardan samarali foydalanishni talab etadi. Zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarni joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi [6].

Matematika fanini o‘qitish jarayoni o‘ziga xos murakkabliklarga ega bo‘lib, unda nazariy bilimlarni chuqur anglash, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish hamda masalalarni yechish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, matematika fanini o‘zlashtirish jarayonida o‘quvchilardan tizimli bilimga ega bo‘lish, tezkor fikrlash hamda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish talab etiladi. Biroq an’anaviy dars jarayonida barcha o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini to‘liq qondirish har doim ham imkoniyat bermaydi. Shu nuqtai nazardan, matematika fanini o’qitish jarayonida masofaviy ta’lim imkoniyatlaridan foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy elektron ta’lim muhitlari, xususan Google Classroom platformasi o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, o‘quv materiallarini tizimli joylashtirish, topshiriqlarni nazorat qilish va tahlil qilish imkoniyatini yaratadi [7]. Mazkur platforma yordamida virtual sinfxona tashkil etilib, unda o‘quvchilar bilan muntazam aloqani yo‘lga qo‘yish, ularning o‘zlashtirish darajasini monitoring qilish hamda mustaqil ta’lim faoliyatini rivojlantirish mumkin. Bugungi kunda matematika fanini o‘qitish jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish zarurati tobora ortib bormoqda. Bu esa o‘qituvchidan nafaqat bilim berishni, balki o‘quvchilarni mustaqil ta’limga yo‘naltirish, ularning faolligini oshirish hamda o‘quv jarayonini samarali boshqarishni talab etadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish hamda o‘quv jarayonini samarali tashkil etishda muhim omil hisoblanadi [1].

Mazkur maqolaning maqsadi. – Google Classroom platformasi asosida matematika fanidan tayyorlov kursini yaratish, uni amaliyotga joriy etish hamda ushbu yondashuvning pedagogik samaradorligini aniqlashdan iborat. Tadqiqot jarayonida masofaviy kurs modeli ishlab chiqilib, uning o‘quvchilar bilim darajasiga ta’siri tajriba-sinov ishlari orqali tahlil qilindi

Adabiyotlar tahlili. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda masofaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish masalasi keng yoritilib kelinmoqda. Xususan, matematika fanini o‘qitishda raqamli platformalardan foydalanish o‘quvchilarning bilim olish jarayonini samarali tashkil etish, ularning mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda o‘zlashtirish darajasini oshirishda muhim omil sifatida qaraladi [2, 7].

Mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda elektron ta’lim muhitlarining afzalliklari alohida ta’kidlanadi. Jumladan, pedagogik yondashuvlarda o‘quv jarayonini individuallashtirish, o‘quvchilar faoliyatini muntazam nazorat qilish va ta’lim resurslariga uzluksiz kirish imkoniyatini yaratish masalalari asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida ko‘rib chiqiladi [7, 8].

Pedagogik adabiyotlarda qayd etilishicha, matematika fanini samarali o‘qitish uchun nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlashtirish muhim ahamiyatga ega. Bu esa o‘quvchilarda mantiqiy tafakkur, tahlil qilish va muammoni yechish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mahalliy pedagog olimlarning ilmiy ishlarida ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda o‘qituvchining pedagogik mahorati, metodik yondashuvlarning to‘g‘ri tanlanishi hamda o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash muhimligi alohida ta’kidlanadi [1,4]. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faolligini oshirish va ularni mustaqil fikrlashga yo‘naltirish pedagogik samaradorlikni belgilovchi asosiy didaktik omillardan biri sifatida e’tirof etiladi [2].

Shuningdek, ilmiy manbalarda fanni o‘qitishda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish zarurligi ta’kidlanib, mazkur yondashuv o‘quvchilarda mantiqiy tafakkur hamda muammoli vaziyatlarni hal etish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishi asoslab berilgan [3].

So‘nggi yillarda Google Classroom kabi elektron platformalar ta’lim jarayoniga keng joriy etilib, ular orqali virtual sinfxonalarni tashkil etish imkoniyati paydo bo‘ldi. Ushbu platforma o‘qituvchi va o‘quvchi

o‘rtasidagi interaktiv aloqani ta’minlash, topshiriqlarni tizimli ravishda berish va ularni baholash, shuningdek, o‘quv jarayonini monitoring qilishda samarali vosita sifatida qaraladi [6, 7].

Shu bilan birga, ilmiy manbalarda masofaviy ta’limning ayrim muammolari ham qayd etilgan bo‘lib, ular orasida o‘quvchilarning motivatsiyasini saqlab qolish, mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish hamda nazorat tizimini samarali yo‘lga qo‘yish masalalari muhim o‘rin egallaydi [8,10]. Mazkur tadqiqot ushbu muammolarni hal etishda zamonaviy platformalardan foydalanish imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot doirasida matematika fanidan tayyorlov jarayonini masofaviy ta’lim asosida tashkil etish hamda uning samaradorligini aniqlash maqsadida bir qator ilmiy-pedagogik metodlar qo‘llanildi [2].Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlar qo‘llanildi: pedagogik kuzatuv, taqqoslash, tahlil va sintez, test sinovlari orqali baholash hamda eksperimental metod. Ushbu metodlar yordamida o‘quvchilarning bilim darajasi, o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari va mustaqil ishlash ko‘nikmalaridagi o‘zgarishlar aniqlab borildi. Tadqiqot obyekti sifatida umumta’lim maktabining 7-8-sinf o‘quvchilari tanlab olindi. Tadqiqot ikki asosiy bosqichda amalga oshirildi: dastlabki diagnostika bosqichida o‘quvchilarning matematika fanidan bilim darajasi aniqlanib, mavjud muammolar o‘rganildi. Keyingi bosqichda esa Google Classroom platformasi asosida ishlab chiqilgan masofaviy tayyorlov kursi amaliyotga joriy etildi(1-rasm).



1-rasm. Masofaviy ta’lim kursining interfeysi

Yaratilgan kurs quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo‘ldi: nazariy materiallar, mustaqil ishlash uchun topshiriqlar, test sinovlari hamda nazorat ishlari. Har bir mavzu bo‘yicha o‘quvchilarning bilimini baholash va monitoring qilish tizimi yo‘lga qo‘yildi (2-rasm).



2-rasm. Kursning tarkibiy qismi

Eksperiment davomida o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi muntazam ravishda tahlil qilinib, boshlang‘ich va yakuniy natijalar o‘zaro solishtirildi. Bu esa masofaviy ta’lim asosida tashkil etilgan kursning pedagogik samaradorligini aniqlash imkonini berdi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, matematika fanidan tayyorlov jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, xususan Google Classroom platformasidan foydalanish orqali o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish va ularning mustaqil ta’lim faoliyatini rivojlantirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi(3-rasm).



3-rasm. Kursning mavzulari

Natijalar. Boshlang‘ich diagnostika natijalariga ko‘ra, o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi o‘rtacha 64% ni tashkil etdi. Google Classroom platformasi asosida tashkil etilgan masofaviy tayyorlov kursi joriy etilgandan so‘ng, yakuniy test natijalari 93% ga yetgani aniqlandi(4-rasm).

4-rasm. Olingan natija

O‘quvchilar bilim darajasining o‘zgarishi:

Ko‘rsatkichlar	Boshlang‘ich (%)	Yakuniy (%)
Umumiy o‘zlashtirish	64%	93%
Yuqori daraja (4–5)	18%	39%
O‘rta daraja	48%	49%
Past daraja	34%	10%

Natijalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, yuqori darajadagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari oshdi va past darajadagi o‘quvchilar soni kamaydi.

Muhokama O‘tkazilgan tadqiqot natijalari matematika fanidan imtihonga tayyorlov jarayonini masofaviy ta’lim asosida tashkil etishning samarali ekanligini ko‘rsatdi. Xususan, Google Classroom

platformasi yordamida yaratilgan virtual sinfxona o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini tizimli ravishda boshqarish, ularning bilim darajasini muntazam nazorat qilish hamda individual yondashuvni amalga oshirish imkonini berdi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, masofaviy kurs orqali ta’lim olgan o‘quvchilarda mustaqil ishlash ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlandi. Bu holat ularning berilgan topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarishi, qo‘shimcha materiallardan foydalanishi hamda o‘zlashtirish darajasini oshirishga intilishi orqali namoyon bo‘ldi. Natijalar Rustamov Hakim tomonidan ilgari surilgan pedagogik qarashlar bilan hamohang bo‘lib, ya’ni o‘quvchilarni faollashtirish va mustaqil fikrlashga yo‘naltirish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligi yana bir bor tasdiqlandi. Shuningdek, Google Classroom platformasining qo‘llanilishi o‘quv materiallarini tizimli yetkazish, topshiriqlarni differensial tarzda berish va natijalarni tezkor tahlil qilish imkonini yaratdi. Bu esa o‘qituvchining pedagogik faoliyatini samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etdi. Biroq tadqiqot jarayonida ayrim muammolar ham kuzatildi. Jumladan, ayrim o‘quvchilarda masofaviy ta’limga moslashish qiyinchiliklari, internet bilan bog‘liq texnik muammolar hamda o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarining yetarli darajada shakllanmaganligi aniqlangan. Ushbu holatlar kelgusida masofaviy ta’limni yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, olingan natijalar matematika fanidan imtihonga tayyorlash jarayonida zamonaviy elektron ta’lim muhitlaridan foydalanish yuqori samaradorlikka ega ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchidan, matematika fanidan imtihonga tayyorlash jarayonini masofaviy ta’lim asosida tashkil etish o‘quvchilarning bilim darajasini oshirishda samarali vosita hisoblanadi.

Ikkinchidan, Google Classroom platformasi asosida yaratilgan virtual sinfxona o‘quvchilarning mustaqil ta’lim faoliyatini rivojlantirish, ularning o‘zlashtirish darajasini nazorat qilish hamda ta’lim jarayonini individuallashtirish imkonini beradi.

Uchinchidan, tadqiqot natijalari o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari sezilarli darajada oshganini, ayniqsa mustaqil ishlash va muammoli masalalarni yechish ko‘nikmalarining rivojlanganini ko‘rsatdi.

To‘rtinchidan, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash o‘qituvchining metodik faoliyatini takomillashtirishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, masofaviy ta’limni samarali tashkil etish uchun texnik sharoitlarni yaxshilash, o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish hamda ularning o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish zarur.

Yakuniy xulosa sifatida ta’kidlash mumkinki, matematika fanidan tayyorlov kurslarini zamonaviy elektron ta’lim platformalari asosida tashkil etish ta’lim sifatini oshirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi va uni amaliyotga keng joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Rustamov H.Sh. Use of digital technology in teaching mathematics // Вестник науки и образования. – 2021. – №17(120), Часть 2. – С. 90–93.

2. Rustamov H.Sh. Development of tests for computer-based testing // Вестник интегративной психологии. – Ярославль, 2018. – №16. – P. 303–305.

3. Xasanova M. O‘zbekistonda masofaviy ta’lim jarayonida pedagogik kommunikatsiya samaradorligini oshirish omillari // Qo‘qon universiteti xabarnomasi. – 2025. – №15. – B. 138–141.

4. Eshboyev I.I. Masofaviy ta’limda o‘qituvchilarning informatsion kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha tajriba-sinov natijalari va tahlili // Tadqiqotlar jurnali. – 2025.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktabrdagi 559-son qarori.

6. Google Classroom. Rasmiy qo‘llanma. – URL: https://classroom.google.com (murojaat qilingan sana: 20.03.2026).

7. Bates A.W. Teaching in a Digital Age. – Vancouver: BCcampus, 2019. – 520 p.

8. Alammary A., Sheard J., Carbone A. Blended learning models for introductory programming courses: A systematic review // Journal of Educational Technology & Society. – 2019.

9. Martín-Blas T., Serrano-Fernández A. The role of new technologies in the learning process: Moodle as a teaching tool in physics // Computers & Education. – 2017.

10. Trust T., Carpenter J.P. Learning to teach with technology: A systematic review of research // Journal of Technology and Teacher Education. – 2020.

11. Qodirova D.X. Raqamli ta’lim resurslari va ularning samaradorligini baholash mezonlari // O‘zbekiston pedagogik axborotnomasi. – 2023. – №2(78). – B. 60–65.

MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Suyarova Nigora Norbekovna,
KIUT Boshlang‘ich ta’lim 1-kurs magistranti
nigoranorquziyeva1@gmail.com
***Ilmiy rahbar**: Shirinov Muzaffar*

Ushbu maqola milliy qadriyatlar va innovatsion texnologiyalarni uyg‘unlashtirishning dolzarbligi va amaliy imkoniyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Maqolada innovatsion texnologiyalarning milliy madaniyat, ta’lim, iqtisodiyot va ijtimoiy hayotga integratsiyasi jarayonlari tahlil qilinadi. Shuningdek, milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishda raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt va blockchain kabi yangi texnologiyalarning roli ko‘rib chiqiladi.

***Kalit so‘zlar:** milliy qadriyatlar, innovatsion texnologiyalar, madaniy identitet, raqamli transformatsiya, ilmiy integratsiya.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ

Данная статья посвящена изучению актуальности и практических возможностей гармонизации национальных ценностей и инновационных технологий. В статье анализируются процессы интеграции инновационных технологий в национальную культуру, образование, экономику и общественную жизнь. Также рассматривается роль новых технологий, таких как цифровые технологии, искусственный интеллект и блокчейн, в сохранении и развитии национальных ценностей.

***Ключевые слова:** национальные ценности, инновационные технологии, культурная идентичность, цифровая трансформация, научная интеграция.*

THE USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES BASED ON NATIONAL VALUES

This article is devoted to studying the relevance and practical possibilities of harmonizing national values with innovative technologies. The article analyzes the processes of integrating innovative technologies into national culture, education, economy, and social life. It also examines the role of new technologies such as digital technologies, artificial intelligence, and blockchain in preserving and developing national values.

***Keywords:** national values, innovative technologies, cultural identity, digital transformation, scientific integration.*

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonlari va raqamli transformatsiya sharoitida jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari, sun’iy intellekt tizimlari, raqamli platformalar hamda virtual muhitlar inson faoliyatining barcha sohalariga chuqur kirib borib, ta’lim, madaniyat, iqtisodiyot va ijtimoiy hayotning yangi bosqichini shakllantirmoqda. Biroq texnologik rivojlanish jarayonida milliy o‘zlikni saqlab qolish, tarixiy merosni asrab-avaylash va ma’naviy qadriyatlarni yangi sharoitga moslashtirish dolzarb muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Milliy qadriyatlar har qanday jamiyatning ma’naviy asosi bo‘lib, ular xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlari, an’analari, til va madaniyati orqali shakllanadi. Aynan shu qadriyatlar insonlarning dunyoqarashi, axloqiy me’yorlari va ijtimoiy xulq-atvorini belgilaydi. Shu bois innovatsion texnologiyalarni joriy etish jarayonida milliy qadriyatlarga tayangan holda yondashuvni shakllantirish muhim ilmiy va amaliy vazifa hisoblanadi. Chunki texnologiyalar nafaqat rivojlanish vositasi, balki ma’naviy muhitga ta’sir etuvchi kuchli omil hamdir.

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar yordamida milliy madaniy merosni saqlash va targ‘ib qilish imkoniyatlari kengayib bormoqda. Masalan, virtual muzeylar, raqamlashtirilgan tarixiy manbalar, interaktiv ta’lim platformalari va sun’iy intellekt asosidagi tarjima tizimlari orqali milliy qadriyatlarni keng ommaga yetkazish samaradorligi sezilarli darajada oshmoqda. Statistik tahlillarga ko‘ra, innovatsion texnologiyalar qo‘llanilgan ta’lim jarayonlarida o‘quvchilarning bilimni o‘zlashtirish darajasi an’anaviy usullarga nisbatan

30–40 foizga yuqori bo‘lishi kuzatilgan. Shuningdek, madaniy merosni raqamlashtirish loyihalari orqali tarixiy obyektlar va an’anaviy san’at namunalarini saqlash samaradorligi 35 foizgacha oshgani aniqlangan.

Milliy qadriyatlar asosida innovatsion texnologiyalardan foydalanish nafaqat madaniy merosni asrash balki yosh avlodni ma’naviy jihatdan barkamol etib tarbiyalashda ham muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy yoshlar raqamli muhitda faol bo‘lib, ular uchun milliy qadriyatlarni innovatsion shaklda taqdim etish orqali ta’lim va tarbiya jarayonini yanada samarali tashkil etish mumkin. Shu nuqtayi nazardan mobil ilovalar, gamifikatsiya elementlari va interaktiv platformalar orqali milliy qadriyatlarni singdirish metodlari alohida ilmiy tadqiqot obyekti sifatida qaralmoqda.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, bugungi kunda texnologik taraqqiyot va milliy identitet o‘rtasida muvozanatni ta’minlash zarurati tobora kuchayib bormoqda. Innovatsion texnologiyalarni milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish orqali nafaqat texnik rivojlanish balki barqaror ijtimoiy va madaniy taraqqiyotga erishish mumkin. Shu bois mazkur maqolada milliy qadriyatlar asosida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari keng qamrovda tahlil qilinadi hamda ularning jamiyat rivojiga ta’siri ilmiy asosda yoritiladi.

Tahlil va muhokama. Zamonaviy jamiyatning global raqobatbardosh rivojlanishi innovatsion texnologiyalarni samarali qo‘llashni talab qiladi. Shu bilan birga, milliy qadriyatlarni saqlash va targ‘ib qilish davlat va jamiyat barqarorligi uchun strategik ahamiyatga ega. So‘nggi 10 yil ichida raqamli platformalar, virtual va kengaytirilgan haqiqat, suniy intellekt va IoT kabi texnologiyalar ta’lim, madaniyat va ijtimoiy sohalarda keng qo‘llanmoqda. Masalan, O‘zbekiston shaharlarida 2022–2025-yillarda 45 ta maktab va oliy ta’lim muassasasida VR/AR platformalar orqali tarix va madaniyat darslari o‘tkazilgan. Shu bilan birga, milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirilmagan texnologik yechimlar yosh avlodning milliy identitetini zaiflashtirish xavfini tug‘diradi. Shu bois, innovatsion texnologiyalarni milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish amaliy va ilmiy nuqtayi nazardan dolzarb masala hisoblanadi[1].

Har bir xalqning qadriyat tizimi o‘ziga xos bo‘lib, ijtimoiy, madaniy, siyosiy va iqtisodiy hayotni shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi. Milliy qadriyatlar jamiyatda birlik va barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ular insonlarning o‘zaro munosabatlarini tartibga soladi, jamiyat a’zolari uchun ijtimoiy me’yor va axloqiy standartlarni belgilaydi. Shu bilan birga, qadriyatlar milliy identitetni shakllantiradi va xalqning o‘zligini anglashiga xizmat qiladi. Masalan, hurmat, sadoqat, mehr va muhabbat kabi qadriyatlar jamiyatda o‘zaro ishonch va hamjihatlikni oshiradi[3].

6. Фрайссин Ж. Обучение в цифровых сетях: кооперативное обучение, коллаборативное обучение и педагогические инновации // *Непрерывное образование: XXI век*. – 2016. – Вып. 4(16). – С. 1–18.
7. Великова Т.Г. Способы организации коллаборативного обучения в цифровой среде // *Сборник материалов педагогического форума «Качество образования в АТО Гагаузия: опыт, проблемы, перспективы»*. – Комрат, 2020. – С. 262–267.
8. Зохидова М.Х. Использование современных онлайн платформ для образовательного процесса // *Экономика и социум*. – 2025. – № 6(133)-1. – С. 1090–1094.
9. Isroilova L.S., Komilova Sh.R. Modern Approaches to Utilizing Online Collaborative Platforms in Organizing the Educational Process in Higher Education // *Integration of Innovative Education and Training*. – 2026. – Vol. 2, Issue 2. – P. 29–37.
10. Akbarova H.K. Onlayn ta’lim jarayonida foydalanadigan platformalar // *Conference Proceedings*. – 2024. – P. 399–402.
11. Karimov F.R. Ta’lim jarayonida interaktiv ta’lim platformalarning qo‘llanishi tahlili // *Miasto Przyszłości*. – 2024. – Special Issue. – P. 299–302.
12. Tuxtasinova N.I. Zamonaviy elektron platformalar orqali interaktiv va refleksiv ta’lim muhitini yaratish // *Inter Education & Global Study*. – 2025. – Vol. 3, № 10(1). – B. 273–280.

SUN’IY INTELLEKTNING AKSIOLOGIK NEYTRALLIGI SHAROITIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA QADRIYATLARNI DEKODLASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Maqsudov Odiljon Xusanovich,
Andijon davlat pedagogika instituti
Matematika va informatika kafedrasi o‘qituvchisi
Saliyeva Sevara Ma’mirbek qizi,
Andijon davlat pedagogika instituti
Matematika va informatika kafedrasi o‘qituvchisi
Botirova Mavluda To‘xtasin qizi,
Andijon davlat pedagogika instituti
Matematika va informatika kafedrasi o‘qituvchisi

Maqola sun’iy intellekt (SI) tizimlarining „aksiologik neytrallik" da’vosi bilan ularning yashirin qadriyatlarni translyatsiya qilish mexanizmi o‘rtasidagi ziddiyatni tahlil qiladi. Tadqiqotning maqsadi – bo‘lajak o‘qituvchilarda SI generatsiya qilgan kontentdagi yashirin aksiologik kodlarni aniqlash, tahlil qilish va milliy-pedagogik qadriyatlar bilan integratsiyalash ko‘nikmasini shakllantirish zaruriyatini ilmiy asoslashdir. Maqola SI vositalarini ta’lim jarayoniga joriy etishda nafaqat texnik savodxonlik, balki qadriyatlarni filtrlash ko‘nikmasini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyatini ochib beradi. Olingan natijalar pedagogika oliy ta’lim dasturlarini yangilash va o‘qituvchilar malakasini oshirish tizimiga tatbiq etilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, aksiologik neytrallik, qadriyatlarni dekodlash, aksiologik refleksivlik, bo‘lajak o‘qituvchi, ijtimoiy-pedagogik kompetentlik, yashirin qadriyatlar.*

РАЗВИТИЕ КОМПЕТЕНТНОСТИ ДЕКОДИРОВАНИЯ ЦЕННОСТЕЙ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ В УСЛОВИЯХ АКСИОЛОГИЧЕСКОЙ НЕЙТРАЛЬНОСТИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

В статье анализируется противоречие между декларируемой «аксиологической нейтральностью» систем искусственного интеллекта (ИИ) и их скрытым механизмом трансляции ценностей. Цель исследования – научно обосновать необходимость формирования у будущих педагогов компетенции по декодированию скрытых аксиологических кодов в ИИ-генерируемом контенте и их интеграции с национально-педагогическими ценностями. Статья раскрывает социально-педагогическую значимость развития не только технической, но и ценностно-фильтрующей грамотности при внедрении ИИ в образовательный процесс. Результаты могут быть использованы для модернизации программ педагогического высшего образования и системы повышения квалификации учителей.

Ключевые слова: *искусственный интеллект, аксиологическая нейтральность, декодирование ценностей, аксиологическая рефлексивность, будущий учитель, социально-педагогическая компетентность, скрытые ценности.*

DEVELOPING FUTURE TEACHERS’ VALUE-DECODING COMPETENCE IN THE CONTEXT OF THE AXIOLOGICAL NEUTRALITY OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE

This article examines the paradox between the proclaimed “axiological neutrality” of artificial intelligence (AI) systems and their underlying mechanism of value transmission. The study aims to scientifically substantiate the socio-pedagogical necessity of developing prospective teachers’ competence in decoding hidden axiological codes within AI-generated content and integrating them with national pedagogical values. The study highlights that integrating AI into education requires not only technical literacy but also value-filtering competence. The findings can be applied to modernize teacher education programs and professional development frameworks.

Keywords: *artificial intelligence, axiological neutrality, value decoding, axiological reflexivity, prospective teachers, socio-pedagogical competence, hidden values.*

Kirish. Sun’iy intellekt tizimlari ko‘pincha “aksiologik jihatdan neytral vosita” sifatida taqdim etilsada, ularning trening ma’lumotlari bazasi, algoritmik me’yorlari va ishlab chiquvchilarning madaniy-ijtimoiy konteksti tufayli yashirin qadriyatlarni translyatsiya qilish xususiyatiga ega. Bu holat AI generatsiya qilgan

kontentda ma’lum g‘oyaviy yo‘nalishlar, tijoriy manfaatlar yoki madaniy stereotiplarning noaniq shaklda aks etishiga olib keladi. Natijada, sun’iy intellektning „neytrallik" da’vosi bilan uning amaldagi qadriyaviy yuklamasi o‘rtasida jiddiy aksiologik ziddiyat yuzaga keladi. Ushbu paradoks bo‘lajak o‘qituvchilarning professional qadriyatlari shakllanishiga, o‘quv jarayonining ma’naviy-axloqiy muhitiga va milliy pedagogik me’yorlarga bevosita ta’sir ko‘rsatgani sababli, uning ijtimoiy-pedagogik tahlili dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Sun'iy intellektning ta’limdagi integratsiyasi va uning aksiologik-o‘quv ta’siri so‘nggi yillarda xalqaro ilmiy hamjamiyat e'tibor markazida qolmoqda. UNESCO [1], OECD [2] va Yevropa Komissiyasining [3] hujjatlarida AI tizimlari „texnik jihatdan neytral vosita" sifatida qaralsa-da, tanqidiy tadqiqotlar ularning trening ma’lumotlari, algoritmik arxitekturasi va ishlab chiquvchilar kontekstida yashirin qadriyaviy og‘ishlar mavjudligini empirik asoslab bermoqda [4, 5]. Pedagogika sohasida AI bo‘yicha olib borilgan ishlar asosan raqamli savodxonlikni oshirish [6], kontent generatsiyasi samaradorligi [7] va akademik halollik masalalariga [8] qaratilgan. O‘zbekiston ilmiy maktabida bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli kompetentligi [9] hamda milliy-ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish yo‘llari [10] o‘rganilgan, biroq AI generatsiya qilgan ta’limiy materiallardagi „yashirin aksiologik kodlar"ni tanib olish, ularni milliy pedagogik me'yorlar bilan solishtirish va professional qaror qabul qilish jarayoni (aksiologik refleksivlik) yetarli darajada nazariy va amaliy jihatdan yoritilmagan. Shu sababli, mavjud tadqiqotlardagi ushbu bo‘shliqni to‘ldirish va „aksiologik neytrallik" paradoksini bo‘lajak o‘qituvchilar tayyorlash kontekstida ijtimoiy-pedagogik tahlil qilish zarurati yuzaga kelmoqda.

Tadqiqotning metodologik poydevori postnonklassik ilmiy paradigmaga tayangan bo‘lib, tizimli, aksiologik, kompetentlikli va refleksiv yondashuvlarning dialektik uyg‘unligi asosida qurilgan. Ushbu yondashuvlar majmuasi sun’iy intellekt (SI) tizimlarining ta’lim muhitiga integratsiyasi natijasida yuzaga kelayotgan qadriyaviy transformatsiyalarni nafaqat texnik, balki ijtimoiy-pedagogik va ma’naviy-axloqiy nuqtayi nazardan tahlil qilish imkonini beradi.

Tizimli yondashuv (L. Bertalanfy, V.G. Afanasyev, zamonaviy pedagogik sistemologiya) doirasida SI vositalari, o‘quv jarayoni, bo‘lajak o‘qituvchi shaxsi va milliy qadriyatlar yagona pedagogik tizim sifatida qaraladi. Bu yondashuv AI ning „neytral instrument" sifatidagi tashqi ko‘rinishi bilan uning ichki algoritmik arxitekturasi, trening ma’lumotlari bazasi va ishlab chiquvchilarning madaniy-ijtimoiy konteksti o‘rtasidagi murakkab o‘zaro bog‘liqlikni ochib berishga xizmat qiladi. Tizimli tahlil orqali SI ning ta’limdagi roli nafaqat „kontent manbai", balki „qadriyaviy muhit shakllantiruvchi omil" sifatida modellashtiriladi.

Aksiologik yondashuv ta’lim jarayonidagi qadriyatlarni shakllantirish, uzatish va himoya qilish mexanizmlarini o‘rganishga qaratilgan. Zamonaviy SI tizimlari o‘z generatsiyalarida g‘arb markazli individualizm, tijoriy pragmatizm yoki ma’lum madaniy stereotiplarni „obyektiv fakt" sifatida taqdim etish xususiyatiga ega ekanligi [11, 12] aksiologik nuqtayi nazardan yashirin ta’lim dasturi (hidden curriculum) fenomeni sifatida talqin qilinadi. Shu bois, tadqiqotda milliy-ma’naviy qadriyatlarni saqlash va ularni raqamiy muhitga integratsiyalash muammosi aksiologik filtr mexanizmi orqali yechim topadi.

Kompetentlikli yondashuv (R.E. Boyatzis, F.E. Weinert, Yevropa DigCompEdu ramkasi) asosida „qadriyatlarni dekodlash" (aksiologik refleksivlik) kompetentligining strukturaviy tarkibi aniqlandi. Ushbu kompetentlik nafaqat SI dan foydalanish texnik ko‘nikmalarini, balki uning kontentidagi yashirin qadriyaviy kodlarni taniq, tanqidiy baholash va pedagogik amaliyotda maqsadli qo‘llash qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Boyatzisning „ ko‘p qirrali kompetensiya modeli" va Weinertning „kontekstual kompetentlik" tushunchasi bo‘lajak o‘qituvchilarning professional identifikatsiyasi bilan AI muhiti o‘rtasidagi dinamik muvozanatni tushunishda asosiy metodologik tayanch bo‘ldi.

Refleksiv yondashuv D. Schönning „reflektiv amaliyotchi" nazariyasi va P. Freirening „tanqidiy ong" (critical consciousness) konsepsiyasiga tayanadi. Freire ta’limni „neytral bilim uzatish" emas, balki „realitetni tanqidiy o‘zgartirish jarayoni" deb hisoblagan bo‘lsa [13], zamonaviy SI muhitida bu g‘oya yangi mazmun kasb etadi: bo‘lajak o‘qituvchi AI generatsiya qilgan materiallarni passiv qabul qiluvchi emas, balki ularning aksiologik yuklamasini tahlil qiluvchi, milliy pedagogik me’yorlar bilan solishtiruvchi va o‘z professional qarori bilan integratsiyalovchi subyekt sifatida shakllanishi kerak. V.E. Davidovning rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasi esa ushbu jarayonda o‘quvchida (va bo‘lajak o‘qituvchida) nazariy fikrlash va qadriyaviy xulq-atvor me’yorlarini ichki ehtiyojga aylantirish mexanizmini pedagogik jihatdan asoslab beradi [14].

Critical AI Studies yo‘nalishi (S. Noble, R. Benjamin, B. Mittelstadt) tadqiqotning metodologik qirrasini zamonaviy texno-siyosiy kontekstga bog‘laydi. Noble „Algorithms of Oppression" asarida qidiruv tizimlari va AI modellarining ijtimoiy-madaniy stereotiplarni mustahkamlashini, Benjamin esa „Race After Technology"da texnologik „neytrallik"ning aslida mavjud ijtimoiy tengsizliklarni raqamlashtirish vositasi ekanligini ko‘rsatadi [15, 16]. Mittelstadtning AI etikasi bo‘yicha ishlari esa algoritmik qaror qabul

qilishdagi „qadriyaviy og‘ish" (value alignment problem) ni aniq metodologik ko‘rsatkichlar bilan tavsiflaydi [17]. Ushbu ilmiy an’analar O‘zbekiston pedagogik maktabining milliy qadriyatlarni himoya qilish va yosh avlodni ma’naviy jihatdan barkamol shaxs sifatida tarbiyalash g‘oyalari bilan uyg‘unlashtirildi.

Ijtimoiy-pedagogik modellashtirish usuli tadqiqotning amaliy-quruvchi qismini tashkil etadi. Model tizimli tahlil, aksiologik filtr va refleksiv integratsiya prinsiplari asosida qurilib, bo‘lajak o‘qituvchilarning AI bilan o‘zaro ta’sirida yuzaga keladigan qadriyaviy ziddiyatlarni oldini olish va ularni konstruktiv-pedagogik yo‘nalishga burishga xizmat qiladi. Modelning uch bosqichli tuzilishi (aniqlash → tanqidiy tahlil → pedagogik integratsiya) yuqoridagi metodologik yondashuvlarning amaliy sintezi sifatida ishlab chiqildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda sun’iy intellektning “aksiologik neytrallik” paradoksi hamda bo‘lajak o‘qituvchilarda qadriyatlarni dekodlash kompetentligini rivojlantirish masalasi kompleks pedagogik hodisa sifatida o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida nazariy, tahliliy hamda prognostik xarakterdagi ilmiy metodlardan foydalanildi. Metodlarning tanlanishi tadqiqot mavzusining ko‘p qirrali va integrativ xususiyatga ega ekanligi bilan izohlanadi.

Avvalo, analiz va sintez metodlari yordamida sun’iy intellektning aksiologik mohiyati, uning ta’lim jarayoniga ta’siri hamda pedagogik faoliyatdagi o‘rni bo‘yicha mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar o‘rganildi. Ushbu metod orqali sun’iy intellekt texnologiyalarining neytral axborot manbai sifatida talqin qilinishi bilan real algoritmik ta’sir mexanizmlari o‘rtasidagi tafovutlar aniqlashtirildi. Shuningdek, aksiologiya, media pedagogika, raqamli etika va kompetensiyaviy yondashuvga oid ilmiy qarashlar umumlashtirilib, tadqiqotning nazariy asoslari shakllantirildi. Sintez jarayonida esa turli ilmiy yondashuvlar bir-biri bilan integratsiyalashgan holda yagona konseptual tizimga keltirildi.

Tadqiqot davomida qiyosiy tahlil metodidan ham keng foydalanildi. Mazkur metod orqali an’anaviy media vositalari hamda generativ sun’iy intellekt tizimlarining inson tafakkuri va qadriyatlariga ta’sir etish mexanizmlari o‘zaro taqqoslandi. Xususan, televideniye, matbuot va internet nashrlaridagi ochiq ideologik ta’sir shakllari bilan sun’iy intellekt platformalaridagi yashirin algoritmik ta’sir mexanizmlari o‘rtasidagi farqlar tahlil qilindi. Natijada generativ SI tizimlari ko‘pincha obyektiv va xolis axborot manbai sifatida qabul qilinsada, aslida ular ma’lum ijtimoiy, madaniy va mafkuraviy qadriyatlarni o‘zida aks ettirishi aniqlandi.

Shuningdek, tadqiqotda kontent-tahlil metodidan foydalanildi. Ushbu metod asosida turli sun’iy intellekt platformalarida shakllanuvchi matnlar, tavsiyalar, javoblar va virtual muloqot namunalaridagi aksiologik elementlar o‘rganildi. Tahlil jarayonida sun’iy intellekt javoblarida uchraydigan stereotiplar, madaniy ustuvorliklar, tilga oid dominant qarashlar hamda yashirin ideologik yo‘nalishlarga e’tibor qaratildi. Kontent-tahlil orqali SI tizimlarining nafaqat texnologik mahsulot, balki ma’lum qadriyatlarni uzatuvchi raqamli-kommunikativ vosita sifatida ham faoliyat yuritishi asoslandi.

Bundan tashqari, pedagogik prognostika metodi yordamida kelajak ta’lim tizimida sun’iy intellekt texnologiyalarining o‘rni va pedagog kadrlarga qo‘yiladigan yangi kompetensiyaviy talablar istiqboli baholandi. Ushbu metod orqali bo‘lajak o‘qituvchilarda qadriyatlarni dekodlash kompetentligini shakllantirishning ijtimoiy zarurati, uning kasbiy faoliyat samaradorligiga ta’siri hamda pedagogik ta’limdagi istiqbolli yo‘nalishlari prognoz qilindi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, yaqin kelajakda pedagoglardan nafaqat raqamli savodxonlik, balki algoritmik va aksiologik tafakkur ham talab qilinishi mumkinligi aniqlandi.

Tadqiqotning metodologik asosini aksiologik yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv hamda raqamli pedagogika konsepsiyalari tashkil etdi. Aksiologik yondashuv orqali ta’lim jarayonidagi qadriyatlar tizimi, shaxsning ma’naviy rivojlanishi va sun’iy intellektning aksiologik ta’siri o‘rganildi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida esa bo‘lajak o‘qituvchilarda qadriyatlarni dekodlash, tanqidiy tahlil qilish hamda raqamli axborotni ongli ravishda baholash ko‘nikmalarini shakllantirish masalalari yoritildi. Raqamli pedagogika konsepsiyasi esa sun’iy intellekt texnologiyalaridan pedagogik maqsadlarda foydalanishning zamonaviy shakllari va ularning ta’lim sifatiga ta’sirini tahlil qilish imkonini berdi.

Mazkur metodlarning o‘zaro uyg‘un holda qo‘llanilishi tadqiqot mavzusini har tomonlama yoritish, muammoning nazariy va amaliy jihatlarini kompleks tahlil qilish hamda ilmiy asoslangan xulosalarga kelish imkonini berdi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari sun’iy intellekt tizimlarining mutlaq neytral axborot manbai emasligini ko‘rsatdi. Tahlillar asosida aniqlandiki, har qanday sun’iy intellekt modeli uni yaratishda foydalanilgan ma’lumotlar bazasi, algoritmik tanlovlar, dasturlash paradigmalari hamda ishlab chiquvchilarning ijtimoiy-madaniy qarashlari ta’sirida shakllanadi. Shu sababli SI tizimlari tashqi ko‘rinishda obyektiv va xolis axborot taqdim etayotgandek tuyulsa-da, aslida ular muayyan aksiologik elementlarni o‘zida mujassamlashtiradi [11].

Kontent-tahlil natijalari generativ sun’iy intellekt platformalarida quyidagi aksiologik holatlar bilvosita namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi:

madaniy stereotiplarning takrorlanishi;

ayrim tillarning ustuvor kommunikativ vosita sifatida aks etishi;

global axborot makonidagi dominant mafkuraviy qarashlarning kuchliroq ifodalanishi;

gender rollari va ijtimoiy me’yorlarga oid yashirin qarashlarning uchrashi.

Masalan, ayrim SI tizimlari tomonidan shakllantirilgan javoblarda G‘arb madaniyatiga xos individualistik qadriyatlarning ustunligi yoki ayrim kasblarning gender stereotiplari bilan bog‘lanishi kuzatildi. Bu esa sun’iy intellekt tizimlari nafaqat texnologik vosita, balki ma’lum ma’noda ijtimoiy-madaniy ta’sir mexanizmi sifatida ham faoliyat yuritishini ko‘rsatadi [12].

Shuningdek, tadqiqot davomida bo‘lajak pedagoglarning sun’iy intellekt mahsulotlariga nisbatan munosabati ham tahlil qilindi. Natijalar ko‘rsatishicha, aksariyat talabalar SI tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarni tayyor va obyektiv axborot sifatida qabul qilishga moyil. Ularning katta qismi algoritmik tizimlar tarkibidagi yashirin aksiologik qatlamlarni anglash va tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalariga yetarli darajada ega emasligi aniqlandi. Ayniqsa, generativ SI vositalaridan foydalanishda ma’lumotning manbasi, qadriy yo‘nalishi va mafkuraviy ta’siri chuqur tahlil qilinmasligi kuzatildi [13].

Tahlillar asosida “qadriyatlarni dekodlash kompetentligi”ning asosiy tarkibiy komponentlari aniqlashtirildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, mazkur kompetentlik quyidagi elementlardan tashkil topadi:

Aksiologik sezgirlik — axborot tarkibidagi yashirin qadriyatlarni sezish va anglash qobiliyati;

Tanqidiy tafakkur — SI tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarni tahliliy baholash va shubha bilan yondashish ko‘nikmasi;

Media va algoritmik savodxonlik — algoritmik tizimlarning ishlash tamoyillarini tushunish hamda media mahsulotlarni ongli ravishda tahlil qilish qobiliyati;

Etik refleksiya — sun’iy intellektdan foydalanish jarayonidagi axloqiy mas’uliyatni anglash;

Madaniy interpretatsiya qobiliyati — turli madaniy kontekstlarda shakllangan axborotni to‘g‘ri talqin qila olish kompetensiyasi [14].

Tadqiqot natijalari yana bir muhim jihatni ko‘rsatdi: zamonaviy pedagogik ta’lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanishga katta e’tibor qaratilayotgan bo‘lsa-da, sun’iy intellektning aksiologik va etik jihatlarini o‘rgatishga yetarli darajada e’tibor berilmayapti. Natijada bo‘lajak pedagoglar texnologik vositalardan foydalanishni o‘rganayotgan bo‘lsalar-da, ularning ijtimoiy-mafkuraviy ta’sir mexanizmlarini tahlil qilishga doir kompetensiyalar yetarlicha shakllanmay qolmoqda [15].

Olingan natijalar asosida pedagogik oliy ta’lim muassasalarida quyidagi yo‘nalishlarni kuchaytirish zarurligi aniqlandi:

sun’iy intellekt etikasi;

algoritmik tafakkur asoslari;

media aksiologiyasi;

raqamli tanqidiy tafakkur;

algoritmik xolislik va diskriminatsiya muammolari;

raqamli madaniyat hamda axborot xavfsizligi.

Mazkur yo‘nalishlarning o‘quv dasturlariga integratsiya qilinishi bo‘lajak o‘qituvchilarning nafaqat texnologik, balki aksiologik va etik kompetentligini ham rivojlantirishga xizmat qiladi [16].

Mazkur yo‘nalishlarning pedagogik ta’lim mazmuniga integratsiya qilinishi bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini yangi bosqichga olib chiqadi. Ayniqsa SI etikasi va media aksiologiyasiga oid bilimlar pedagoglarda algoritmik tizimlarning yashirin ta’sir mexanizmlarini anglash imkonini beradi. Raqamli tanqidiy tafakkur esa sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan axborotni mustaqil tahlil qilish, dalillarni tekshirish va manipulyativ elementlarni aniqlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari yana shuni ko‘rsatdiki, qadriyatlarni dekodlash kompetentligiga ega pedagog o‘quvchilarda ham tanqidiy va mustaqil fikrlashni shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bunday pedagog sun’iy intellekt mahsulotlarini shunchaki texnologik vosita sifatida emas, balki ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida tahlil qiladi. U o‘quvchilarga raqamli axborotni ongli qabul qilish, manipulyativ ta’sirlarni aniqlash hamda turli mafkuraviy oqimlarga nisbatan mustaqil pozitsiya shakllantirishda yordam beradi.

Shuningdek, qadriyatlarni dekodlash kompetentligining rivojlanishi pedagogning professional refleksiyasini ham kuchaytiradi. Chunki zamonaviy o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi mutaxassis, balki o‘quvchilarning axborot madaniyati va ma’naviy immunitetini shakllantiruvchi shaxs ham hisoblanadi. Shu sababli sun’iy intellekt sharoitida pedagogik ta’limning ustuvor vazifalaridan biri — bo‘lajak o‘qituvchilarda algoritmik tafakkur, aksiologik sezgirlik va raqamli etik madaniyatni rivojlantirishdan iboratdir.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari sun’iy intellektning ta’limdagi roli tobora kengayib borayotgan hozirgi davrda pedagogik ta’lim tizimida aksiologik va etik kompetensiyalarni rivojlantirish strategik ahamiyat kasb etishini ko‘rsatdi. Chunki kelajak jamiyatida raqamli texnologiyalar bilan ishlovchi pedagog nafaqat texnik bilimga, balki chuqur ma’naviy-aksiologik tafakkurga ham ega bo‘lishi zarur.

Xulosa. Sun’iy intellektning “aksiologik neytrallik” paradoksi zamonaviy pedagogika oldiga mutlaqo yangi ilmiy-nazariy va amaliy vazifalarni qo‘ymoqda. Bugungi kunda sun’iy intellekt tizimlari texnologik jihatdan obyektiv, tezkor va samarali vosita sifatida namoyon bo‘layotgan bo‘lsa-da, ularning ichki algoritmik tuzilmasi, ma’lumotlar bazasi hamda ishlash mexanizmlarida muayyan qadriyatlar, mafkuraviy qarashlar va madaniy ustuvorliklar aks etishi mumkin. Shu sababli sun’iy intellektni faqat texnik vosita sifatida emas, balki ijtimoiy-aksiologik ta’sir mexanizmi sifatida ham o‘rganish zarurati ortib bormoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, generativ sun’iy intellekt vositalarining ta’lim jarayoniga chuqur kirib kelishi pedagog faoliyatining mazmunini ham o‘zgartirmoqda. Endilikda pedagogdan nafaqat raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmasi, balki ular uzatayotgan axborotning yashirin aksiologik qatlamlarini anglash, tahlil qilish va baholash kompetentligi ham talab etiladi. Ayniqsa bo‘lajak o‘qituvchilarda qadriyatlarni dekodlash kompetentligini rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor ijtimoiy-pedagogik vazifalaridan biriga aylanmoqda.

Mazkur kompetentlik pedagogning tanqidiy tafakkurini, media va axborot savodxonligini, etik refleksiyasini hamda raqamli madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, u pedagogning sun’iy intellekt mahsulotlarini ongli ravishda tahlil qilishi, algoritmik manipulyatsiyalarni aniqlashi va o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishiga imkon yaratadi. Qadriyatlarni dekodlash kompetentligiga ega bo‘lgan pedagog axborotni shunchaki qabul qiluvchi emas, balki uni tanqidiy tahlil qiluvchi va ma’naviy jihatdan baholovchi subyekt sifatida faoliyat yuritadi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, sun’iy intellekt sharoitida pedagogik ta’lim tizimi oldida yangi kompetensiyaviy talablar shakllanmoqda. Jumladan, bo‘lajak o‘qituvchilarda:

algoritmik tafakkur;
media aksiologiyasi;
raqamli etik madaniyat;
axborot xavfsizligi;
tanqidiy va refleksiv fikrlash

kabi kompetensiyalarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki kelajak jamiyatida axborot oqimining asosiy qismi aynan sun’iy intellekt vositalari orqali shakllanishi kutilmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, pedagogik oliy ta’lim muassasalarida sun’iy intellekt etikasi, raqamli aksiologiya, media savodxonlik va algoritmik xolislikka oid integrativ o‘quv modullarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bunday modullar bo‘lajak pedagoglarni faqat texnologik jihatdan emas, balki ma’naviy-axloqiy va aksiologik jihatdan ham tayyorlash imkonini beradi.

Bundan tashqari, tadqiqot natijalari pedagogik ta’limda insonparvarlik va milliy-ma’naviy qadriyatlarni saqlab qolish masalasi sun’iy intellekt rivojlanayotgan davrda yanada muhimlashayotganini ko‘rsatdi. Chunki texnologiyalar qanchalik rivojlanmasin, ta’limning asosiy maqsadi komil insonni tarbiyalash bo‘lib qolaveradi. Shu sababli sun’iy intellektdan foydalanish jarayonida pedagogik faoliyatning insonparvarlik mohiyatini saqlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash strategik vazifa hisoblanadi.

Umuman olganda, sun’iy intellektning “aksiologik neytrallik” paradoksi bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash tizimiga yangi yondashuvlarni joriy etishni talab etmoqda. Kelgusida mazkur yo‘nalishda olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar sun’iy intellekt va pedagogik aksiologiya integratsiyasining nazariy asoslarini chuqurlashtirish, shuningdek, qadriyatlarni dekodlash kompetentligini rivojlantirishning samarali metodik mexanizmlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. UNESCO. (2023). AI and education: Guidance for policy-makers. Paris: UNESCO Publishing. https://doi.org/10.54675/UNESCO.2023.AI.EDU
2. OECD. (2022). Digital education outlook 2021: Pushing the frontiers with AI, blockchain and robots. Paris: OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/589a8088-en
3. European Commission, High-Level Expert Group on AI. (2019). Ethics guidelines for trustworthy AI. Brussels. https://digital-strategy.ec.europa.eu/en/library/ethics-guidelines-trustworthy-ai

4. Bender, E. M., Gebru, T., McMillan-Major, A., & Shmitchell, S. (2021). On the dangers of stochastic parrots: Can language models be too big? Proc. of the 2021 ACM FAccT, 610–623. https://doi.org/10.1145/3442188.3445922

5. Mittelstadt, B. (2023). The ethics of AI: A critical review and future directions. AI & Society, 38(2), 567–589. https://doi.org/10.1007/s00146-022-01489-1

6. Chassignol, M., Khoroshavin, A., Kapova, A., & Loumouam, A. (2022). AI competencies for educators: A systematic review. Computers & Education: AI, 3, 100087. https://doi.org/10.1016/j.caeai.2022.100087

7. Hwang G. J., & Chang C. Y. (2023). A review of opportunities and challenges of chatbots in education. Computers & Education, 195, 104715. https://doi.org/10.1016/j.compedu.2023.104715

8. Cotton D. R. E., Cotton P. A., & Shipway J. R. (2023). Chatting and cheating: Ensuring academic integrity in the era of ChatGPT. Innovations in Education and Teaching International, 61(2), 228–239. https://doi.org/10.1080/14703297.2023.2190148

9. Karimov A. M., & Rahimov B. T. (2022). Bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamiy kompetentligini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari. O‘zbekiston milliy universiteti axborotnomasi, (5), 45–52.

10. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. (2021). Milliy qadriyatlar asosida yoshlarni tarbiyalashning nazariy va amaliy masalalari. Toshkent: O‘zbekiston.

11. Floridi L. Ethics of Artificial Intelligence. — Oxford University Press, 2021.

12. UNESCO. Guidance for Generative AI in Education and Research. - Paris, 2023.

13. Selwyn N. Education and Technology: Key Issues and Debates. - Bloomsbury Publishing, 2017.

14. Eubanks V. Automating Inequality. — St. Martin’s Press, 2018.

15. Muslimov N.A. Pedagogik kompetentlik va innovatsion faoliyat asoslari. - Toshkent, 2015.

16. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. - Toshkent, 2020.

THE IMPACT OF DIGITAL READING ON READING COMPREHENSION AND CRITICAL THINKING SKILLS

Norboyeva Shahnoza Jo‘rabekovna,
Student at Bukhara State Pedagogical Institute
Faculty of Languages, group 1XTA-23

This article explores the impact of digital reading on reading comprehension and critical thinking in modern education. Drawing on recent research and a small observational study, it examines how students engage with digital and printed texts differently. The findings suggest that print reading often supports deeper understanding, while digital reading can enhance skills such as comparing ideas and analyzing information when used effectively. The article also highlights the importance of reading strategies and attention in shaping learning outcomes.

Key words: *Digital reading, reading comprehension, critical thinking, reading strategies, digital literacy, academic reading, attention, information analysis, education technology*

RAQAMLI O‘QISHNING MATNNI TUSHUNISH VA TANQIDIY FIKRLASH KO‘NIKMALARIGA TA’SIRI

Ushbu maqola zamonaviy ta’limda raqamli o‘qishning matnni tushunish va tanqidiy fikrlashga ta’sirini o‘rganadi. So‘nggi tadqiqotlar hamda kichik kuzatuv tadqiqotiga tayangan holda, unda talabalarning raqamli va bosma matnlar bilan turlicha ishlashi tahlil qilinadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, bosma shaklda o‘qish ko‘pincha chuqurroq tushunishni qo‘llab-quvvatlaydi, raqamli o‘qish esa to‘g‘ri qo‘llanganda g‘oyalarni taqqoslash va axborotni tahlil qilish kabi ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Shuningdek, maqolada o‘qish strategiyalari va diqqatning o‘quv natijalarini shakllantirishdagi ahamiyati ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: *raqamli o‘qish, matnni tushunish, tanqidiy fikrlash, o‘qish strategiyalari, raqamli savodxonlik, akademik o‘qish, diqqat, axborotni tahlil qilish, ta’lim texnologiyalari.*

ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВОГО ЧТЕНИЯ НА ПОНИМАНИЕ ТЕКСТА И НАВЫКИ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ

В данной статье рассматривается влияние цифрового чтения на понимание текста и критическое мышление в современном образовании. Опираясь на последние исследования и небольшое наблюдательное исследование, автор анализирует, как студенты по-разному взаимодействуют с цифровыми и печатными текстами. Результаты показывают, что чтение печатных материалов чаще способствует более глубокому пониманию, тогда как цифровое чтение при эффективном использовании развивает навыки сравнения идей и анализа информации. В статье также подчеркивается важность стратегий чтения и концентрации внимания в формировании образовательных результатов.

Ключевые слова: *цифровое чтение, понимание текста, критическое мышление, стратегии чтения, цифровая грамотность, академическое чтение, внимание, анализ информации, образовательные технологии.*

Reading has always been central to learning, yet its nature is evolving rapidly in the digital age. With the rise of smartphones, tablets, and online platforms, students increasingly engage with texts in digital formats rather than traditional print. This shift raises an important question: Does digital reading affect comprehension and critical thinking differently from print reading?

Recent educational discourse highlights that reading comprehension and critical thinking are deeply interconnected cognitive processes. According to research, comprehension is not merely understanding text but involves analysis, inference, and evaluation—core elements of critical thinking . This suggests that any change in reading medium could potentially influence higher-order thinking skills. However, the debate remains unresolved. Some studies suggest that digital reading weakens comprehension due to superficial reading habits, while others argue that it can enhance engagement and analytical thinking when used effectively. A large-scale meta-analysis of 37 studies found no overall significant difference between digital and print reading comprehension, though outcomes varied depending on context and reader behavior . The issue is not whether digital reading is better or worse, but how it reshapes the cognitive processes involved in

reading, and aims to explore that transformation in detail, focusing on two key aspects: reading comprehension and critical thinking.

To investigate the impact of digital reading on comprehension and critical thinking, a mixed-method design was employed, combining a structured review of recent empirical studies with a small-scale observational study. This approach was selected to ensure both theoretical grounding and practical relevance, as relying solely on secondary data may limit the applicability of findings to real educational contexts.

The literature review focused on peer-reviewed studies published between 2020 and 2024, with particular attention given to experimental and meta-analytic research. For instance, a large-scale meta-analysis by Delgado et al. (2022), which included over 170,000 participants, reported that reading comprehension tended to be slightly higher in print than in digital formats, especially when texts exceeded one page in length. Importantly, this difference was attributed not to cognitive limitations but to behavioral factors: digital readers were found to read more quickly and underestimate task difficulty, resulting in reduced depth of processing. This insight informed the design of the observational component.

The observational study involved 42 upper-secondary students with comparable academic backgrounds and familiarity with both print and digital reading. Participants were assigned an expository text of approximately 1,200 words addressing the effects of social media on attention span. The topic was selected to require interpretation and evaluation rather than simple recall, thereby allowing differences in comprehension and critical thinking to emerge more clearly.

Students were divided into two groups. One group read the text in printed form, while the other accessed it via tablets. The digital version included common features such as scrolling and visible hyperlinks in order to reflect authentic reading conditions. Simplified or controlled interfaces were intentionally avoided, as such conditions would not accurately represent real-world digital reading environments. Comprehension was assessed through a combination of multiple-choice and open-ended questions. For example, one question required students to identify the main argument of the text, while another asked them to explain the author’s comparison between social media use and multitasking. The latter required inferential reasoning and integration of ideas across the text.

Critical thinking was evaluated through tasks that required analysis and evaluation. In one instance, students were asked to identify a weakness in the author’s argument and propose a way to strengthen it. This task was designed to move beyond basic understanding and assess the ability to engage critically with the text. In addition, reading behavior was observed throughout the task. Patterns such as re-reading, skipping sections, and signs of distraction were recorded. These observations were considered essential, as digital reading involves interaction with a dynamic environment that may influence cognitive processing.

The results indicate that differences between print and digital reading are not absolute but are shaped by reading behavior and task demands. In terms of comprehension, students in the print condition demonstrated slightly stronger performance on tasks requiring deeper understanding. Their responses to open-ended questions were generally more detailed and analytically developed. For example, when asked to explain the author’s comparison between social media and multitasking, many print readers were able to articulate that both lead to reduced sustained attention and superficial processing, often supporting their explanations with references to multiple sections of the text. In contrast, responses from the digital group tended to be shorter and less elaborated. Answers such as “social media is distracting” were common.

Table 1. Comprehension performance in print and digital Reading

COMPREHENSION ASPECT	PRINT READING	DIGITAL READING	KEY OBSERVATIONS
Factual Understanding	High	High	Students performed similarly on multiple-choice questions
Inferential Understanding	Slightly higher	Lower	Print readers gave longer, more detailed explanations; digital readers often gave brief, surface-level answers
Depth of Integration	Strong	Moderate	Print readers referenced multiple text sections; digital readers’ integration improved with deliberate strategies
Strategic Reading	Natural /Effective	Requires deliberate use	Print readers naturally followed linear progression; digital readers benefited from re-reading or highlighting

As shown, differences in comprehension are influenced by reading behavior and task demands rather than the reading medium alone. Strategic behaviors such as re-reading or highlighting helped digital readers

achieve comprehension levels comparable to print readers. While these responses reflected basic understanding, they often lacked the depth and integration required for higher-level comprehension. This pattern is consistent with findings from Singer and Alexander (2017), which continue to be supported by more recent studies, indicating that digital readers may perform similarly on factual questions but less effectively on inferential tasks. However, variation within the digital group was observed. Students who engaged in behaviors such as slowing down, re-reading sections, and using highlighting tools performed at a level comparable to print readers. This observation aligns with research by Clinton (2019), which has been reinforced in later studies, demonstrating that strategic reading can significantly reduce differences between formats.

The results related to critical thinking revealed a more complex pattern. Students in the digital condition showed stronger performance in tasks requiring comparison of ideas. For instance, when asked to identify contradictions within the text, digital readers more frequently referred to multiple sections and demonstrated an ability to navigate between ideas. This finding is consistent with research by Salmerón et al. (2023), which suggests that digital environments can support intertextual and comparative thinking. At the same time, print readers demonstrated greater coherence and structure in their evaluative responses. When asked to critique the author’s argument, some print readers provided detailed analyses, such as noting the reliance on anecdotal evidence and suggesting the inclusion of experimental data to strengthen the argument. In contrast, responses from digital readers were often more general, for example stating that “there is not enough evidence” without further elaboration.

Observational data provided additional insight into these differences. Digital readers were more likely to scroll rapidly, skip sections, and shift attention between parts of the text. Even in the absence of external distractions, the format appeared to encourage fragmented reading patterns. Print readers, in contrast, tended to follow a more linear progression and spent longer periods focused on individual sections. These behavioral differences are consistent with cognitive research highlighting the role of sustained attention in deep comprehension. The findings suggest that digital reading does not inherently diminish comprehension or critical thinking, but rather alters the conditions under which these processes occur.

One key observation is that digital reading promotes efficiency and flexibility. Readers are able to navigate texts quickly, locate information, and move between ideas with ease. In tasks requiring comparison or synthesis of multiple perspectives, this flexibility may provide a distinct advantage. This is reflected in the stronger performance of digital readers on tasks involving identification of contrasting ideas within the text. However, this efficiency appears to come at the cost of depth. Faster reading is often associated with reduced reflection and weaker integration of ideas. The results indicate that digital readers are more likely to engage in surface-level processing unless deliberate strategies are applied. This supports findings from Delgado et al. (2022), which emphasize the role of reading behavior rather than medium alone.

Another important issue identified is overconfidence in comprehension. Several students in the digital condition completed the task quickly and reported that the text was easy, yet their responses revealed gaps in understanding. This pattern is consistent with research by Ackerman and Lauterman (2012), which demonstrated that digital readers tend to overestimate their comprehension. Such misjudgment may reduce the likelihood of re-reading or critical evaluation. At the same time, it is important to recognize the potential of digital environments to support critical thinking. Unlike print, digital texts can incorporate interactive features, access to multiple sources, and tools for annotation and reflection. A recent study demonstrated that students who used a digital platform with embedded prompts for questioning and reflection showed significantly higher critical thinking performance than those reading without guidance. This suggests that the effectiveness of digital reading is strongly influenced by design and instructional support.

The findings therefore indicate that the impact of digital reading depends on the interaction between medium, reader behavior, and task demands. Focusing solely on the format oversimplifies a complex process. From an educational perspective, these results highlight the need for explicit instruction in digital reading strategies. Skills such as regulating reading pace, actively questioning the text, and using digital tools effectively are essential for maintaining depth of comprehension. Without such strategies, digital reading may encourage passive and fragmented engagement.

An important implication of this study is the need to reconsider how reading is taught in contemporary education. As digital texts become increasingly dominant, it is no longer sufficient to assume that traditional reading skills will transfer automatically to digital contexts. Instead, students must be explicitly guided in how to read effectively in digital environments, including how to manage attention, evaluate information critically, and use digital tools productively.

In conclusion, digital reading should not be viewed as a replacement for traditional reading, but as an evolving form of literacy that requires adaptation. Its effectiveness depends on the interaction between the

reader, the task, and the design of the reading environment. With appropriate support and instruction, digital reading has the potential not only to maintain but also to extend students’ comprehension and critical thinking skills in meaningful ways.

References:

1. Ackerman, R., & Lauterman, T. (2012). Taking reading comprehension exams on screen or on paper? A metacognitive analysis of learning texts under time pressure. Computers in Human Behavior, 28(5), 1816–1828.

2. Clinton, V. (2019). Reading from paper compared to screens: A systematic review and meta-analysis. Journal of Research in Reading, 42(2), 288–325.

3. Delgado, P., Vargas, C., Ackerman, R., & Salmerón, L. (2022). Don’t throw away your printed books: A meta-analysis on the effects of reading media on comprehension. Educational Research Review, 35, 100434.

4. Salmerón, L., García, A., & Vidal-Abarca, E. (2023). The role of digital environments in supporting multiple-text comprehension. Learning and Instruction, 84, 101720.

5. Singer, L. M., & Alexander, P. A. (2017). Reading on paper and digitally: What the past decades of empirical research reveal. Review of Educational Research, 87(6), 1007–1041.

6. Qo‘ldosheva N.A. Boshlang‘ich sinf ingliz tilidarslarida o‘quvchilarning muloqot madaniyati ko‘nikmalarini shakllantirish strategiyalari //Академические исследования в современной науке. Volume 3 Issue 14, [47-53], 2024.

7. Qo‘ldosheva N.A. Ingliz tili darslarida dialoglardan foydalanib o‘quvchilarining muloqot madaniyati ko‘nikmasini shakllantirish usullari // “Zamonaviy dunyo ta’limi: yangi davr muammolari-yangi yechimlar” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman, Andijon.: Andijon davlat universiteti, 17-may 2024-yil, 246-251 b.

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA MUSIQA O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Hojiyev Mirshod Jalilovich,
Buxoro davlat pedagogika instituti “Musiqa va tasviriy san’at” kafedrasi o‘qituvchisi
hojiyev.mirshod@mail.ru
khadjayevmirshod@gmail.com

Ushbu maqolada raqamli ta’lim muhiti sharoitida musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashning zamonaviy yondashuvlari, ularning pedagogik va metodik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar, multimedia vositalari hamda interaktiv platformalarning musiqa ta’limi jarayoniga integratsiyalashuvi o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishdagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, raqamli ta’lim muhitida ijodiy fikrlash, innovatsion metodlar va masofaviy ta’lim imkoniyatlaridan samarali foydalanish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari musiqa o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonini zamonaviylashtirish va ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *raqamli ta’lim, musiqa ta’limi, o‘qituvchi tayyorlash, pedagogik texnologiyalar, multimedia, innovatsion yondashuv, kasbiy kompetensiya, interaktiv ta’lim, masofaviy ta’lim.*

MODERN APPROACHES TO TRAINING MUSIC TEACHERS IN A DIGITAL LEARNING ENVIRONMENT

This article analyzes modern approaches to training music teachers in a digital learning environment. It highlights the role of digital technologies, multimedia tools, and interactive platforms in enhancing the pedagogical and methodological competencies of future music educators. The study also examines effective ways of integrating creative thinking, innovative teaching methods, and distance learning opportunities into music education. The findings aim to contribute to the modernization of music teacher training and the improvement of education quality in the context of digital transformation.

Keywords: *digital education, music education, teacher training, pedagogical technologies, multimedia, innovative approach, professional competence, interactive learning, distance learning.*

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ПОДГОТОВКЕ УЧИТЕЛЕЙ МУЗЫКИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ

В данной статье рассматриваются современные подходы к подготовке учителей музыки в условиях цифровой образовательной среды. Анализируется роль цифровых технологий, мультимедийных средств и интерактивных платформ в развитии педагогических и методических компетенций будущих учителей музыки. Также изучаются способы эффективной интеграции творческого мышления, инновационных методов обучения и возможностей дистанционного образования в процесс музыкального обучения. Результаты исследования направлены на модернизацию подготовки учителей музыки и повышение качества образования в условиях цифровой трансформации.

Ключевые слова: *цифровое образование, музыкальное образование, подготовка учителей, педагогические технологии, мультимедиа, инновационный подход, профессиональная компетентность, интерактивное обучение, дистанционное обучение.*

Kirish. So‘nggi o‘n yillikda ta’lim tizimida sodir bo‘layotgan global o‘zgarishlar, ayniqsa raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, barcha fanlar qatori musiqa ta’limi sohasiga ham tubdan yangicha yondashuvlarni olib kirmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) keng joriy etilishi natijasida ta’lim jarayoni an’anaviy “o‘qituvchi–o‘quvchi” modelidan interaktiv, ko‘p funksiyali va raqamli platformalarga asoslangan tizimga o‘tmoqda. Bu esa musiqa o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonini ham zamonaviy talablar asosida qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Musiqa ta’limi o‘zining ijodiy va estetik xususiyati bilan boshqa fanlardan farq qiladi. Unda nafaqat nazariy bilimlar, balki eshitish, ijro etish, tahlil qilish va ijodiy fikrlash ko‘nikmalari ham muhim o‘rin tutadi. Shu sababli raqamli ta’lim muhiti musiqa o‘qituvchilariga keng imkoniyatlar yaratadi: audio va video materiallar, virtual musiqa laboratoriyalari, nota yozuvlarini o‘rganish uchun maxsus dasturlar, onlayn ijro

platformalari hamda sun’iy intellekt asosidagi o‘quv vositalaridan foydalanish ta’lim sifatini sezilarli darajada oshiradi.

Bugungi kunda musiqa o‘qituvchisi faqatgina ijrochi yoki nazariy bilim beruvchi emas, balki raqamli pedagogik muhitni boshqara oladigan, multimedia resurslarini yaratadigan va ularni dars jarayoniga samarali tatbiq eta oladigan zamonaviy mutaxassis bo‘lishi zarur. Shu jihatdan, ularning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish, interaktiv ta’lim metodlarini o‘zlashtirish va innovatsion pedagogik yondashuvlardan foydalanish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, masofaviy ta’lim tizimining rivojlanishi musiqa ta’limida ham yangi imkoniyatlar yaratdi. Onlayn darslar, virtual ustaxonalar va elektron ta’lim platformalari orqali o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlik yanada moslashuvchan va samarali bo‘lmoqda. Bu jarayon o‘qituvchilardan yuqori darajadagi texnologik savodxonlikni, ijodiy yondashuvni hamda pedagogik moslashuvchanlikni talab etadi.

Raqamli ta’lim muhiti sharoitida musiqa o‘qituvchilarini tayyorlash nafaqat kasbiy bilimlarni shakllantirish, balki ularning innovatsion fikrlashini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Bu esa kelajak avlodni zamonaviy talablarga javob beradigan, ijodkor va raqobatbardosh mutaxassislar sifatida tarbiyalashga imkon yaratadi.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur maqolada raqamli ta’lim muhiti sharoitida musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashning zamonaviy yondashuvlari, ularning pedagogik, metodik va texnologik jihatlari hamda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi o‘rni ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari musiqa ta’limi tizimini modernizatsiya qilish va o‘qituvchilarni tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlar tahlili. Raqamli ta’lim muhiti sharoitida musiqa o‘qituvchilarini tayyorlash muammosi zamonaviy pedagogika va metodika sohasida keng o‘rganilayotgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu masala bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarni qo‘llash, o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish hamda interaktiv o‘qitish metodlarini takomillashtirishga qaratilgan.

Tadqiqot davomida Zoom, Google Meet, Moodle, Microsoft Teams, Padlet, Canva hamda AI asosidagi platformalardan foydalanildi. Ushbu texnologiyalar ta’lim jarayonining interaktivligini oshirish, kommunikativ hamkorlikni kuchaytirish va individual ta’limni tashkil etishda samarali vosita sifatida namoyon bo‘ldi. Zoom va Google Meet platformalari orqali tashkil etilgan virtual muloqotlar talabalarning og‘zaki nutq faolligini oshirishda muhim didaktik vosita sifatida xizmat qildi. Ayniqsa, videokonferensiya shaklidagi mashg‘ulotlarda talabalar o‘z fikrlarini erkin ifodalash, auditoriya oldida chiqish qilish va real vaqt rejimida kommunikativ vazifalarni bajarish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bu esa ularda pedagogik muloqot madaniyati hamda kasbiy nutq ko‘nikmalarining shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Moodle platformasi esa kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda mustaqil ta’limni tashkil etish vositasi sifatida qo‘llanildi. Platformada audio-video materiallar, forumlar, interaktiv topshiriqlar va refleksiv faoliyat elementlari joylashtirildi. Talabalar ushbu materiallar asosida mustaqil ravishda nutqiy faoliyatni amalga oshirdilar, o‘zaro fikr almashdilar va kommunikativ vaziyatlarni tahlil qildilar. Padlet va Canva platformalari talabalarning kreativ kommunikativ faoliyatini rivojlantirishda alohida samaradorlik ko‘rsatdi. Ushbu platformalar yordamida talabalar multimedia taqdimotlari, virtual loyihalar, podkastlar va videomateriallar tayyorladilar. Bu jarayon nafaqat og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirdi, balki talabalarning ijodiy fikrlashi, vizual kommunikatsiya va jamoaviy hamkorlik kompetensiyalarini ham shakllantirdi. Tadqiqot davomida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari ham o‘rganildi. AI asosidagi platformalar talabalarning nutqiy faoliyatini avtomatik tahlil qilish, talaffuzdagi xatolarni aniqlash va individual tavsiyalar berish imkonini yaratdi. Natijada ta’lim jarayonida individual yondashuvni amalga oshirish hamda har bir talabaning kommunikativ rivojlanish dinamikasini monitoring qilish imkoniyati kengaydi.

Tajriba-sinov ishlari va natijalar tahlili. Mazkur tadqiqot doirasida bo‘lajak o‘qituvchilarning og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishda raqamli pedagogik texnologiyalarning samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari tashkil etildi. Tajriba-sinov ishlari pedagogika yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar ishtirokida olib borildi hamda unda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning an’anaviy va raqamli texnologiyalar asosidagi metodlari o‘zaro qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqotning asosiy maqsadi raqamli pedagogik texnologiyalar yordamida tashkil etilgan mashg‘ulotlarning talabalar og‘zaki nutq faolligi, kommunikativ mustaqilligi va kasbiy muloqot kompetensiyasiga ta’sirini aniqlashdan iborat bo‘ldi. Tajriba-sinov ishlari uch bosqichda amalga oshirildi: diagnostik bosqich, shakllantiruvchi bosqich va yakuniy tahlil bosqichi. Diagnostik bosqichda talabalar kommunikativ kompetensiyasining dastlabki holati o‘rganildi. Bu jarayonda maxsus ishlab chiqilgan diagnostik mezonlar asosida talabalar nutqiy faoliyati tahlil qilindi. Baholash mezonlari sifatida nutq ravonligi, muloqotga kirishish faolligi, kasbiy terminlardan foydalanish darajasi, auditoriya bilan kommunikativ aloqa o‘rnatish ko‘nikmasi hamda fikrni mantiqiy ifodalash sifati belgilandi.

Dastlabki tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ko‘plab talabalar nazariy bilimlarga ega bo‘lishiga qaramay, real kommunikativ vaziyatlarda o‘z fikrini erkin ifodalashda qiyinchilikka duch kelmoqda. Ayniqsa, auditoriya oldida chiqish qilish, munozaralarda faol qatnashish, spontan savollarga javob qaytarish hamda kasbiy kommunikativ vaziyatlarda muloqotni davom ettirish ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanmaganligi kuzatildi. Bu holat an’anaviy ta’lim metodlarida talabalar nutqiy faolligining yetarli darajada ta’minlanmayotganligi bilan izohlandi. Shakllantiruvchi bosqichda tajriba guruhi talabalari bilan raqamli pedagogik texnologiyalar asosida maxsus metodik tizim ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi. Nazorat guruhi esa an’anaviy metodlar asosida ta’lim olishda davom etdi. Tajriba guruhi mashg‘ulotlarida interaktiv platformalar, videokonferensiyalar, virtual debatlar, multimedia taqdimotlari, podkast tayyorlash, onlayn loyiha ishlari hamda AI asosidagi kommunikativ mashqlar tizimli ravishda qo‘llanildi.

Tajriba davomida Zoom va Google Meet platformalarida tashkil etilgan virtual munozaralar talabalarning kommunikativ faolligini oshirishda yuqori samaradorlik ko‘rsatdi. Talabalar kichik guruhlarga bo‘linib, turli pedagogik muammolar yuzasidan debatlar tashkil etdilar. Ushbu faoliyat davomida talabalar o‘z fikrlarini asoslash, dalillar keltirish, auditoriya bilan muloqot qilish va bahs-munozara madaniyatini shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ham tajriba jarayonining muhim komponentlaridan biri bo‘ldi. AI asosidagi platformalar talabalar nutqidagi talaffuz xatolari, grammatik kamchiliklar va kommunikativ uzilishlarni avtomatik aniqlash imkonini berdi. Talabalar individual tavsiyalar asosida o‘z nutqiy faoliyatini mustaqil ravishda takomillashtirish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bu esa individual yondashuvning samaradorligini oshirdi. Shuningdek, flipped classroom texnologiyasi asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar ham yuqori natijalarni ko‘rsatdi. Talabalar nazariy

materiallarni mustaqil ravishda video va elektron resurslar orqali o‘rganib kelganliklari sababli auditoriya mashg‘ulotlari asosan kommunikativ amaliyotga yo‘naltirildi. Natijada dars vaqtining katta qismi interaktiv muloqot, munozara va nutqiy mashqlarga ajratildi. Tajriba-sinov natijalari qiyosiy tahlil asosida o‘rganilganda tajriba guruhi talabalarida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Xususan:

- nutq ravonligi oshdi;
- kommunikativ faollik kuchaydi;
- kasbiy terminlardan foydalanish sifati yaxshilandi;
- auditoriya bilan muloqot madaniyati rivojlandi;
- mustaqil fikr bildirish ko‘nikmasi shakllandi;
- pedagogik vaziyatlarda erkin kommunikativ faoliyat olib borish malakasi takomillashdi.

Nazorat guruhida esa bunday o‘zgarishlar nisbatan past darajada qayd etildi. Bu esa raqamli pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan metodik tizimning samaradorligini tasdiqladi. Tajriba davomida talabalar motivatsiyasining oshgani ham kuzatildi. Zamonaviy raqamli vositalar, multimedia elementlari va interaktiv metodlar talabalar uchun ta’lim jarayonini qiziqarli va faol tusga keltirdi. Ayniqsa, gamifikatsiya elementlari va virtual kommunikativ vaziyatlar talabalarni faol nutqiy ishtirokga undadi. Shuningdek, tajriba davomida ayrim muammolar ham kuzatildi. Jumladan, ayrim talabalar raqamli platformalardan foydalanishda texnik qiyinchiliklarga duch keldilar. Internet sifati, texnik vositalarning yetarli emasligi hamda ayrim pedagoglarning raqamli kompetensiyasi pastligi ta’lim samaradorligiga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatdi. Shu sababli raqamli pedagogik texnologiyalarni ta’lim tizimiga samarali integratsiyalash uchun pedagoglarning AKT kompetensiyasini rivojlantirish zarurligi aniqlandi. Umuman olganda, tajriba-sinov ishlari natijalari bo‘lajak o‘qituvchilarning og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishda raqamli pedagogik texnologiyalar yuqori didaktik samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. Mazkur texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni kommunikativ faoliyatni faollashtirish, kasbiy nutq kompetensiyasini shakllantirish hamda talabalarni zamonaviy pedagogik faoliyatga tayyorlashda muhim metodik mexanizm sifatida namoyon bo‘ldi.

Xulosa. Bugungi globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari ta’lim tizimiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Zamonaviy pedagog endilikda faqat o‘z fanini mukammal biluvchi mutaxassis emas, balki rivojlangan kommunikativ kompetensiyaga ega, innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanuvchi hamda interaktiv pedagogik faoliyatni tashkil eta oluvchi shaxs sifatida shakllanishi zarur. Shu nuqtai nazardan bo‘lajak o‘qituvchilarning og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish bugungi pedagogik ta’limning ustuvor vazifalaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur tadqiqot davomida bo‘lajak o‘qituvchilarning og‘zaki kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda raqamli pedagogik texnologiyalarning didaktik imkoniyatlari ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilindi hamda ularning pedagogik samaradorligi asoslab berildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli texnologiyalar kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda nafaqat texnik vosita, balki innovatsion didaktik mexanizm sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Nazariy tahlillar asosida kommunikativ kompetensiya bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligining asosiy komponentlaridan biri ekanligi aniqlandi. Chunki pedagogik faoliyatning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan o‘qituvchining og‘zaki nutq madaniyati, auditoriya bilan samarali muloqot qila olishi, fikrni aniq va ta’sirchan ifodalashi hamda pedagogik hamkorlikni tashkil eta olishiga bog‘liqdir. Shu sababli kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish pedagogik ta’limning markaziy vazifalaridan biri sifatida qaralishi lozim. Tadqiqot davomida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning metodologik asoslari sifatida kompetensiyaviy yondashuv, kommunikativ yondashuv, faoliyatga asoslangan ta’lim va raqamli pedagogika konsepsiyalari tahlil qilindi. Ushbu yondashuvlarning integratsiyasi bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ faoliyatini samarali tashkil etish uchun metodik asos bo‘lib xizmat qilishi aniqlandi. Raqamli pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiyalash kommunikativ faoliyatni yangi bosqichga olib chiqishi tadqiqot natijalarida yaqqol namoyon bo‘ldi. Zoom, Google Meet, Moodle, Padlet, Canva hamda AI asosidagi platformalar yordamida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarning nutqiy faolligini sezilarli darajada oshirdi. Ayniqsa, virtual debatlar, multimedia prezentatsiyalar, podkastlar va interaktiv loyihalar talabalarning og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishda yuqori samaradorlik ko‘rsatdi.

Adabiyotlar:

1. Dell Hymes. On communicative competence. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1972. – 293 p.

2. Lev Vygotsky. Thought and Language. – Cambridge: MIT Press, 1986. – 287 p.

3. Noam Chomsky. Aspects of the Theory of Syntax. – Cambridge: MIT Press, 1965. – 251 p.

4. Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. – Москва: Просвещение, 1991. – 223 с.

5. Зимняя И.А. Педагогическая психология. – Москва: Логос, 2010. – 384 с.

6. Полат Е.С. Современные педагогические и информационные технологии в системе образования. – Москва: Академия, 2015. – 368 с.

7. Леонтьев А.А. Психология общения. – Москва: Смысл, 2008. – 365 с.

8. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. – Москва: Народное образование, 1998. – 256 с.

9. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – 261 b.

10. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Nihol, 2017. – 279 b.

11. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013. – 312 b.

12. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2006. – 192 b.

13. Ахмедов, Х.У 2025 “ Использование мультимодальных методик обучения для обучения навыкам чтения и письма на русском языке у учащихся младшего возраста”. Qo‘qon davlat pedagogika instituti ilmiy xabarlari (2025-yil 5-son).

14. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. – Cambridge: Cambridge University Press, 2020. – 389 p.

15. Richards J.C. Communicative Language Teaching Today. – New York: Cambridge University Press, 2006. – 119 p.

16. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. – London: Pearson Education, 2015. – 448 p.

ЦИФРОВАЯ ЗРЕЛОСТЬ МЕДИЦИНСКИХ УНИВЕРСИТЕТОВ КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ СИСТЕМЫ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Акрамова Нозима Акрамовна,
PhD, Expert consulting group Ташкент, Узбекистан
ORCID: https://orcid.org/0000-0002-6155-5793
nozima.akramova@gmail.com

В условиях ускоренной цифровизации экономики и здравоохранения система высшего медицинского образования сталкивается с необходимостью комплексной цифровой трансформации. Одним из ключевых показателей успешности данной трансформации является уровень цифровой зрелости университетов, отражающий готовность образовательных организаций эффективно внедрять цифровые технологии в образовательную, научную и управленческую деятельность. Цель исследования - анализ факторов формирования цифровой зрелости медицинских вузов и выявление ключевых направлений ее развития. В исследовании использованы методы анализа научной литературы, сравнительного анализа международного опыта и институционального анализа моделей цифровой трансформации университетов. Результаты исследования показывают, что цифровая зрелость медицинских университетов формируется через развитие цифровой инфраструктуры, внедрение информационных систем, формирование цифровых компетенций преподавателей и студентов, а также развитие системы управления данными. Особое значение приобретают симуляционные технологии, цифровые образовательные платформы и аналитические инструменты управления образовательным процессом. Полученные результаты могут быть использованы при разработке стратегий цифровой трансформации медицинских университетов.

Ключевые слова: *цифровая зрелость, цифровая трансформация, медицинское образование, цифровая образовательная среда, высшее образование, цифровые компетенции.*

TIBBIYOT UNIVERSITETLARINING RAQAMLI YETUKLIGI OLIY TA’LIM TIZIMINING BARQAROR TRANSFORMATSIYASI OMILI SIFATIDA

Iqtisodiyot va sog‘liqni saqlash sohalarining jadal raqamlashtirilishi sharoitida tibbiyot oliy ta’lim tizimi kompleks raqamli transformatsiyani amalga oshirish zarurati bilan yuzma-yuz kelmoqda. Mazkur transformatsiyaning muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri universitetlarning raqamli yetuklik darajasi bo‘lib, u ta’lim muassasalarining ta’lim, ilmiy va boshqaruv faoliyatiga raqamli texnologiyalarni samarali joriy etishga tayyorligini aks ettiradi. Tadqiqotning maqsadi — tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida raqamli yetuklikni shakllantiruvchi omillarni tahlil qilish hamda uni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, xalqaro tajribani qiyosiy tahlil qilish hamda universitetlarning raqamli transformatsiyasi modellarini institutsional tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tibbiyot universitetlarining raqamli yetukligi raqamli infratuzilmani rivojlantirish, axborot tizimlarini joriy etish, professor-o‘qituvchilar va talabalarning raqamli kompetensiyalarini shakllantirish, shuningdek ma’lumotlarni boshqarish tizimini rivojlantirish orqali shakllanadi. Ta’lim jarayonini boshqarishda simulyatsion texnologiyalar, raqamli ta’lim platformalari va analitik boshqaruv vositalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Olingan natijalardan tibbiyot universitetlarining raqamli transformatsiya strategiyalarini ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Kalit so‘zlar: *raqamli yetuklik, raqamli transformatsiya, tibbiy ta’lim, raqamli ta’lim muhiti, oliy ta’lim, raqamli kompetensiyalar.*

DIGITAL MATURITY OF MEDICAL UNIVERSITIES AS A FACTOR OF SUSTAINABLE TRANSFORMATION OF THE HIGHER EDUCATION SYSTEM

In the context of the accelerated digitalization of the economy and healthcare, the system of higher medical education faces the necessity of comprehensive digital transformation. One of the key indicators of the success of this transformation is the level of digital maturity of universities, reflecting the readiness of educational institutions to effectively integrate digital technologies into educational, scientific, and administrative activities. The purpose of this study is to analyze the factors influencing the formation of digital maturity in medical universities and to identify the key directions for its development. The research methods include the analysis of scientific literature, comparative analysis of international experience, and institutional analysis of university digital transformation models. The results of the study demonstrate that the digital maturity of medical universities is formed through the development of digital infrastructure,

implementation of information systems, development of digital competencies among faculty members and students, as well as the advancement of data management systems. Particular importance is attached to simulation technologies, digital educational platforms, and analytical tools for managing the educational process. The findings of the study may be used in developing digital transformation strategies for medical universities.

Keywords: *digital maturity, digital transformation, medical education, digital educational environment, higher education, digital competencies.*

Введение. Цифровая трансформация является одним из ключевых трендов развития современного общества, затрагивающим практически все сферы экономической и социальной деятельности. Особое значение данный процесс приобретает в сфере высшего образования, где цифровые технологии формируют новые модели обучения, управления университетами и взаимодействия с внешней средой.

Цифровая трансформация высшего образования представляет собой комплексный процесс интеграции цифровых технологий во все аспекты образовательной деятельности — от организации учебного процесса до управления университетом и проведения научных исследований.

В условиях реализации государственной стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030» цифровая трансформация системы высшего образования становится одним из ключевых направлений модернизации образовательной политики страны. В последние годы в Узбекистане активно внедряются цифровые платформы, электронные образовательные ресурсы, системы дистанционного обучения и технологии управления образовательным процессом, что особенно актуально для медицинских вузов, ориентированных на подготовку кадров нового поколения.

Согласно данным Министерства высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан, уровень охвата высшим образованием вырос с 9 % в 2016 году до 42 % в 2023 году, а число высших образовательных учреждений увеличилось с 77 до 224, что свидетельствует о масштабной трансформации образовательной среды [12].

Одновременно цифровизация образования рассматривается как важный инструмент повышения качества подготовки специалистов, развития цифровых компетенций и интеграции вузов в международное образовательное пространство. Исследования показывают, что внедрение цифровых технологий в университетах Узбекистана способствует повышению качества образовательных услуг, улучшению доступа к цифровым ресурсам и формированию инновационной образовательной среды.

Так, более 83% участников исследования в вузах Узбекистана отметили положительное влияние цифровых технологий на качество образования. При этом государственная политика цифровой трансформации направлена не только на технологическую модернизацию, но и на развитие цифровой инфраструктуры, электронного управления и цифровых сервисов в государственном секторе, включая сферу образования [11].

В медицинском образовании данный процесс имеет особую специфику. Подготовка медицинских специалистов традиционно считается одной из наиболее консервативных областей образовательной системы, поскольку значительная часть обучения связана с практической подготовкой и клинической практикой. Однако развитие цифровых технологий, включая симуляционные платформы, системы дистанционного обучения и технологии анализа данных, существенно изменяет традиционные модели подготовки медицинских кадров.

В условиях цифровой экономики важным индикатором успешности цифровой трансформации образовательных организаций становится уровень цифровой зрелости университета, который отражает степень интеграции цифровых технологий в образовательные и управленческие процессы.

Цифровая зрелость университетов рассматривается как комплексный показатель, характеризующий готовность образовательной организации эффективно внедрять цифровые технологии и использовать их для повышения качества образовательных услуг.

Несмотря на растущий интерес исследователей к проблеме цифровой трансформации образования, вопросы оценки и формирования цифровой зрелости медицинских университетов остаются недостаточно изученными.

Цель исследования. Определить ключевые факторы формирования цифровой зрелости медицинских университетов и выявить основные направления ее развития в условиях цифровой трансформации образования.

Материалы и методы. Методологическую основу исследования составили современные научные работы, посвященные цифровой трансформации высшего образования и цифровизации

медицинского образования. В исследовании использованы методы анализа научной литературы, сравнительного анализа международного опыта цифровой трансформации университетов, институционального анализа цифровых моделей развития образовательных организаций.

В качестве концептуальной основы исследования использована модель оценки цифровой зрелости университетов, включающая пять ключевых направлений развития: цифровые сервисы, информационные системы, управление данными, цифровая инфраструктура, кадровый потенциал

Подобный подход применяется при оценке цифровой трансформации университетов и позволяет определить уровень их цифровой зрелости.

Результаты. Проведенный анализ научной литературы, позволил выявить основные структурные элементы цифровой зрелости университетов, а также определить специфические особенности в подготовке медицинских кадров.

В результате систематизации и обобщения научных подходов к исследованию цифровой трансформации высшего образования была выявлена структура цифровой зрелости университетов, включающая ряд взаимосвязанных компонентов. К ключевым элементам данной структуры относятся цифровая инфраструктура университета, цифровая образовательная среда, цифровые образовательные технологии, цифровые компетенции преподавателей и студентов, а также системы управления образовательными данными. Совокупность указанных компонентов формирует институциональную основу цифровой трансформации образовательной организации и определяет уровень ее готовности к эффективному использованию цифровых технологий в образовательной и управленческой деятельности.

Кроме этого, анализ современных практик цифровизации медицинских университетов показал, что наиболее активно в образовательный процесс внедряются цифровые технологии, обеспечивающие интеграцию образовательных ресурсов, симуляционного обучения и аналитических инструментов управления образовательными процессами. К числу наиболее распространенных технологических решений относятся системы управления обучением (Learning Management Systems), виртуальные клинические симуляторы, цифровые лаборатории, платформы дистанционного обучения, а также системы цифровой медицинской аналитики. Использование данных технологий позволяет расширить возможности подготовки медицинских специалистов, обеспечивая формирование профессиональных компетенций студентов в условиях цифровой образовательной среды.

Наряду с этим, проведенный анализ научных источников позволил выделить ключевые факторы, определяющие уровень цифровой зрелости медицинских университетов.

Первым и базовым фактором является развитие цифровой инфраструктуры образовательной организации. Современная цифровая инфраструктура включает высокоскоростные сети передачи данных, облачные вычислительные сервисы, цифровые образовательные платформы, а также системы хранения и обработки больших объемов данных. Развитая цифровая инфраструктура создает технологическую основу для внедрения цифровых образовательных решений.

Вторым важным фактором является внедрение цифровых образовательных технологий. К ним относятся онлайн-курсы, гибридные модели обучения, симуляционные медицинские технологии и виртуальные лаборатории. Использование данных технологий позволяет повысить доступность образовательных ресурсов и обеспечить более гибкую организацию образовательного процесса.

Третьим фактором формирования цифровой зрелости является развитие цифровых компетенций преподавателей и студентов. Цифровизация здравоохранения формирует новые требования к профессиональной подготовке медицинских специалистов. В связи с этим будущие врачи должны обладать навыками работы с медицинскими информационными системами, анализа медицинских данных и использования цифровых диагностических технологий.

На основе проведенного анализа была разработана модель цифровой зрелости медицинского университета, отражающая ключевые элементы цифровой трансформации образовательной организации. Представленная модель демонстрирует, что цифровая зрелость университета формируется на основе взаимосвязанного развития технологической инфраструктуры, образовательных технологий и цифровых компетенций участников образовательного процесса.

Компонент цифровой зрелости	**Основное содержание**	**Результат**
Цифровая инфраструктура	облачные сервисы, высокоскоростные сети, цифровые платформы	доступность цифровых ресурсов

Цифровая образовательная среда	LMS, электронные библиотеки, образовательные платформы	интеграция цифрового обучения
Цифровые образовательные технологии	VR/AR, медицинские симуляторы, дистанционное обучение	развитие практических навыков
Управление образовательными данными	learning analytics, системы мониторинга обучения	персонализация образовательных траекторий
Цифровые компетенции	цифровая грамотность преподавателей и студентов	готовность к цифровой медицине

Результаты исследования позволили предложить концептуальную модель цифровой трансформации медицинского университета отражающую последовательность развития цифровой трансформации медицинских университетов, которую можно использоваться в качестве основы для разработки стратегий цифрового развития образовательных организаций:

Цифровая инфраструктура

↓

Цифровая образовательная среда

↓

Цифровые образовательные технологии

↓

Формирование цифровых компетенций

↓

Цифровая зрелость университета

↓

Повышение качества медицинского образования

В основе данной модели лежит последовательная логика развития цифровой образовательной среды.

Этап 1. Развитие цифровой инфраструктуры. Создание технологической базы университета, включающей цифровые платформы, облачные сервисы и системы управления данными.

Этап 2. Формирование цифровой образовательной среды. Интеграция цифровых образовательных ресурсов, онлайн-курсов и электронных образовательных платформ.

Этап 3. Внедрение цифровых образовательных технологий. Использование симуляционных технологий, виртуальных лабораторий и дистанционных форм обучения.

Этап 4. Развитие цифровых компетенций. Формирование цифровых навыков преподавателей и студентов.

Этап 5. Достижение цифровой зрелости университета. Создание устойчивой цифровой экосистемы университета, обеспечивающей повышение качества медицинского образования.

Обсуждение. Цифровая трансформация университетов представляет собой системный процесс институциональных изменений, затрагивающий образовательную, исследовательскую и управленческую деятельность. В последние годы исследования показывают, что уровень цифровой зрелости университетов становится ключевым фактором их конкурентоспособности и способности адаптироваться к быстро меняющимся условиям цифровой экономики.

Современные исследования демонстрируют, что внедрение цифровых технологий в образовательный процесс приводит к трансформации традиционной модели высшего образования, формируя новую парадигму Education 4.0, ориентированную на персонализированное обучение, гибкие образовательные траектории и интеграцию цифровых технологий в учебный процесс. Согласно результатам систематического обзора исследований цифровой трансформации высшего образования, успешность цифровых инициатив университетов во многом зависит от стратегического лидерства, институциональной поддержки и развития цифровой инфраструктуры [1].

В медицинском образовании цифровая трансформация имеет особое значение, поскольку современная система здравоохранения активно интегрирует цифровые технологии, включая телемедицину, электронные медицинские карты, системы анализа медицинских данных и технологии искусственного интеллекта. В связи с этим медицинские университеты должны готовить специалистов, обладающих не только клиническими знаниями, но и цифровыми компетенциями, необходимыми для работы в условиях цифрового здравоохранения [2].

Исследования показывают, что внедрение цифровых образовательных технологий способствует развитию новых форм обучения, включая симуляционное обучение, виртуальные клинические среды и дистанционные образовательные платформы. Такие технологии позволяют студентам медицинских вузов

приобретать практические навыки в безопасной виртуальной среде, что особенно важно для подготовки медицинских специалистов [3].

Одним из ключевых факторов успешной цифровой трансформации университетов является развитие цифровых компетенций преподавателей и студентов. Цифровизация здравоохранения формирует новые требования к профессиональной подготовке медицинских работников, включая навыки работы с цифровыми медицинскими системами, анализ медицинских данных и использование цифровых диагностических технологий [3].

При этом многие университеты сталкиваются с рядом барьеров цифровой трансформации, включая недостаточную цифровую инфраструктуру, ограниченные финансовые ресурсы и недостаточный уровень цифровой грамотности преподавателей. Эти факторы могут существенно замедлять процесс цифровой трансформации университетов и снижать эффективность внедрения цифровых технологий.

Важным направлением повышения цифровой зрелости медицинских университетов является развитие цифровой образовательной среды, которая включает совокупность информационных систем, цифровых платформ, сервисов и аналитических инструментов, обеспечивающих поддержку образовательного процесса и управления университетом [4].

Таким образом, цифровая зрелость медицинских университетов следует рассматривать как комплексную характеристику уровня интеграции цифровых технологий в образовательные и управленческие процессы, обеспечивающую повышение качества подготовки медицинских специалистов и устойчивое развитие образовательной системы.

Заключение. Цифровая зрелость медицинских университетов является важнейшим показателем успешности цифровой трансформации системы высшего образования. Результаты исследования показывают, что формирование цифровой зрелости университетов требует комплексного развития следующих направлений: цифровой инфраструктуры, цифровых образовательных технологий, систем управления образовательными данными, цифровых компетенций преподавателей и студентов.

Внедрение цифровых технологий в медицинское образование позволяет существенно повысить качество подготовки медицинских специалистов и обеспечить адаптацию образовательных программ к требованиям цифровой экономики. Перспективным направлением дальнейших исследований является разработка моделей оценки цифровой зрелости медицинских университетов и формирование стратегий их цифровой трансформации.

Вклад авторов: Все авторы внесли равный вклад в подготовку статьи, участвовали в анализе материалов и одобрили окончательный вариант рукописи.

Литература:

1. Bisri, A., Putri, A., Rosmansyah, Y. (2023). A Systematic Literature Review on Digital Transformation in Higher Education: Revealing Key Success Factors. International Journal of Emerging Technologies in Learning (iJET), 18(14), pp. 164–187. https://doi.org/10.3991/ijet.v18i14.40201
2. Указ Президента Республики Узбекистан УП-6079 «Об утверждении Стратегии «Цифровой Узбекистан-2030» и мерах по ее эффективной реализации», от 05.10.2020 г.
3. Rajalampi, V., & Sorila, S. (2023). Digital competence of healthcare professionals
4. Ларионов В. Г., Шереметьева Е. Н., Горшкова Л. А. Цифровая трансформация высшего образования: технологии и цифровые компетенции // Вестник Астраханского государственного технического университета. Серия: Экономика. 2021. №2. С.61–69. DOI: 10.24143/2073-5537-2021-2-61-69.
5. Althubaiti A., Tirksstani J., Alsehaibany A., Aljedani, R., Mutairii, A., & Alghamdi, N. (2022). Digital transformation in medical education: Factors that influence readiness. Health Informatics Journal, 28(1).
6. Benavides L., Tamayo P., Arango M., Branch J., & Burgos, D. (2020). Digital transformation in higher education institutions. Sustainability, 12(5).
7. Bond M., Bedenlier, S., Marín, V., & Händel, M. (2021). Emergency remote teaching in higher education. Educational Technology Research and Development, 69.
8. Bisri A., Putri, A., & Rosmansyah, Y. (2023). A systematic literature review on digital transformation in higher education. International Journal of Emerging Technologies in Learning
9. Gkeredakis E., Lifshitz-Assaf, H., & Barrett, M. (2021). Crisis as opportunity, disruption and exposure. Information and Organization.
10. Lazarenco V., Gavrilyuk V., & Khamidulina M. (2024). Digital transformation of a medical university.
11. Abdurashidova, M., Balbaa, M. E., Nematov, S., Mukhiddinov, Z., & Nasriddinov, I. (2023). The impact of innovation and digitalization on the quality of higher education: A study of selected universities in Uzbekistan. *Journal of Intelligent Systems*, 32, 20230070. https://doi.org/10.1515/jisys-2023-0070
12. Kuldosheva, G. (2021). Challenges and opportunities of digital transformation in the public sector in transition economies: Examination of the case of Uzbekistan. *ADBI Working Paper Series*, No. 1248.

MA‘NAVIYAT VA TARBIYA

TALABALARNI MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA MADANIY-MA’RIFIY TADBIRLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZIMLARI

Omonova Madina Obidovna,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, 1 - kurs magistranti

Mazkur maqolada talabalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash jarayonida madaniy-ma’rifiy tadbirlarning pedagogik imkoniyatlari hamda ularning samaradorligini oshirish mexanizmlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida madaniy-ma’rifiy faoliyatning tarbiyaviy mazmuni, talaba shaxsida axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy mas’uliyat va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishdagi o‘rni asoslab beriladi. Shuningdek, maqsadli rejalashtirish, ta’lim jarayoni bilan mazmuniy integratsiya, interfaol metodlardan foydalanish hamda monitoring va baholash mexanizmlarining tarbiyaviy jarayondagi ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida madaniy-ma’rifiy tadbirlarni tizimli tashkil etish orqali talabalar ma’naviy-axloqiy tarbiyasini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar. *ma’naviy tarbiya, madaniy-ma’rifiy tadbirlar, talabalar, tarbiyaviy faoliyat, oliy ta’lim.*

МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ КУЛЬТУРНО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ МЕРОПРИЯТИЙ В ДУХОВНО-МОРАЛЬНОМ ВОСПИТАНИИ УЧАЩИХСЯ

В данной статье анализируются педагогические возможности культурно-просветительской деятельности в процессе духовно-нравственного воспитания учащихся и механизмы повышения ее эффективности с научной, теоретической и практической точек зрения. Исследование обосновывает образовательное содержание культурно-просветительской деятельности и ее роль в формировании у учащихся моральных ценностей, социальной ответственности и гражданской позиции.Это также подчеркивает важность целенаправленного планирования, осмысленной интеграции с образовательным процессом, использования интерактивных методов, а также механизмов мониторинга и оценки в образовательном процессе.Результаты исследования имеют научное и практическое значение, поскольку способствуют совершенствованию духовно-нравственного воспитания студентов посредством систематической организации культурно-образовательных мероприятий в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: *духовное воспитание, культурно-образовательные мероприятия, студенты, образовательная деятельность, высшее образование.*

MECHANISMS FOR INCREASING THE EFFECTIVENESS OF CULTURAL AND EDUCATIONAL EVENTS IN THE SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF STUDENTS

This article analyzes the pedagogical possibilities of cultural and educational activities in the process of spiritual and moral education of students and the mechanisms for increasing their effectiveness from a scientific, theoretical and practical perspective. The research substantiates the educational content of cultural and educational activities and their role in the formation of moral values, social responsibility, and civic position in the student.It also reveals the importance of targeted planning, meaningful integration with the educational process, the use of interactive methods, and monitoring and evaluation mechanisms in the educational process.The results of the research are of scientific and practical importance as they serve to improve the spiritual and moral education of students through the systematic organization of cultural and educational events in higher education institutions.

Keywords: *spiritual education, cultural and educational events, students, educational activities, higher education.*

Kirish. Zamonaviy ijtimoiy taraqqiyot sharoitida shaxsning har tomonlama kamol topishi, ayniqsa uning ma’naviy-axloqiy fazilatlari jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlovchi muhim omillardan biri sifatida tobora dolzarblashib bormoqda. Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, raqamli axborot

makonining keskin kengayishi hamda turli madaniy va mafkuraviy oqimlarning faol kirib kelishi yoshlar ongiga kuchli ta’sir ko‘rsatib, ularning qadriyatlar tizimi, ijtimoiy munosabatlarga bo‘lgan qarashlari va axloqiy me’yorlarni anglash darajasida sezilarli o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Bunday murakkab ijtimoiy sharoitda shaxsning ma’naviy immunitetini mustahkamlash, axloqiy barqarorlikni ta’minlash hamda ongli fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish muhim pedagogik vazifaga aylanmoqda.

Shu nuqtayi nazardan oliy ta’lim muassasalari jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqib, nafaqat malakali va raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash, balki talabalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan, ijtimoiy mas’uliyat va axloqiy yetuklikni o‘zida mujassam etgan barqaror ma’naviy dunyoqarashni shakllantirish vazifasini ham amalga oshiradi. Talabalarning ijtimoiy faolligi, fuqarolik ongining rivojlanishi, jamiyat hayotidagi jarayonlarga ongli munosabat bildirish hamda axloqiy qarorlar qabul qilish qobiliyatini mustahkamlash oliy ta’lim tizimida tarbiyaviy faoliyatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Mazkur jarayon ta’lim va tarbiyaning uzviy birligi asosida tashkil etilishini, tarbiyaviy ta’sirning tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishini talab etadi.

Mazkur jarayonda madaniy-ma’rifiy tadbirlar talabalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali, ta’sirchan va amaliy pedagogik vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadbirlar orqali talabalar milliy madaniyat, tarixiy meros, adabiyot va san’at namunalarini chuqur anglash, shuningdek, zamonaviy ijtimoiy-madaniy jarayonlarga nisbatan ongli va mas’uliyatli munosabat bildirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Madaniy-ma’rifiy faoliyat talabalarning shaxsiy tajribasini boyitib, axloqiy qadriyatlarni faqat nazariy bilimlar darajasida emas, balki real hayotiy vaziyatlar orqali amaliy asosda o‘zlashtirishiga xizmat qiladi. Biroq amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, mazkur tadbirlar ko‘pincha tizimsiz, maqsadsiz yoki formal xarakterda tashkil etilishi natijasida ularning tarbiyaviy samaradorligi yetarli darajada namoyon bo‘lmayapti. Shu sababli madaniy-ma’rifiy tadbirlarni ilmiy asoslangan yondashuv asosida maqsadli rejalashtirish, ularni ta’lim jarayoni bilan uzviy integratsiya qilish, talabalarning faol ishtirokini ta’minlash hamda natijalarni monitoring va baholash mexanizmlari orqali tahlil qilish dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Talabalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash masalasi pedagogika, falsafa, sotsiologiya hamda madaniyatshunoslik fanlari doirasida kompleks yondashuv asosida keng tadqiq etilgan bo‘lib, mazkur jarayon shaxs kamolotining muhim tarkibiy qismi sifatida talqin etiladi. Ilmiy adabiyotlarda ma’naviy-axloqiy tarbiya shaxsda axloqiy ong, ijtimoiy qadriyatlar, mas’uliyat hissi va ongli xulq-atvorni shakllantirishga yo‘naltirilgan uzluksiz va tizimli pedagogik jarayon sifatida izohlanadi [1, 3]. Jumladan, I.A. Karimov ma’naviyatni jamiyat taraqqiyotining asosiy tayanchi sifatida baholab, yosh avlod tarbiyasida axloqiy barqarorlik va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirish muhimligini ta’kidlaydi [1]. Tadqiqotchilar ushbu jarayonning samaradorligi ta’lim muhiti, tarbiyaviy faoliyat mazmuni, pedagogik yondashuvlar hamda talabaning shaxsiy tajribasi o‘rtasidagi o‘zaro uyg‘unlikka bevosita bog‘liq ekanligini qayd etadilar [3, 4]. Ayniqsa, oliy ta’lim bosqichida yoshlarning dunyoqarashi, ijtimoiy pozitsiyasi va axloqiy qarorlar qabul qilish qobiliyati shakllanishida tarbiyaviy ta’sirning maqsadga yo‘naltirilganligi va izchilligi muhim omil sifatida ko‘rsatib o‘tiladi.

Pedagogik va ijtimoiy-pedagogik tadqiqotlarda madaniy-ma’rifiy tadbirlar ma’naviy-axloqiy tarbiyaning samarali shakllaridan biri sifatida e’tirof etilib, ularning shaxsga kompleks va ko‘p qirrali ta’sir ko‘rsatish imkoniyatlari alohida tahlil qilingan [3,7]. Ilmiy manbalarda madaniy-ma’rifiy faoliyat talabalarning estetik didini rivojlantirish, tarixiy xotirani mustahkamlash, milliy o‘zlikni anglash hamda ijtimoiy faollikni oshirishda muhim vosita ekanligi asoslab beriladi [2, 7]. Shu bilan birga, mazkur tadbirlar orqali talabalarda axloqiy me’yorlarga ongli munosabat, jamiyat manfaatlariga daxldorlik hissi, vatanparvarlik va fuqarolik mas’uliyati shakllanishi ta’kidlanadi [1, 2]. Tadqiqotchilar madaniy-ma’rifiy tadbirlarning tarbiyaviy samaradorligi ularning mazmunan boyligi, talabalarning yosh va psixologik xususiyatlariga mosligi hamda tashkil etilish shakliga bevosita bog‘liqligini qayd etadilar [4, 6].

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishda tizimli, kompetensiyaviy va integrativ yondashuvlarning ustunligi alohida ko‘rsatib o‘tiladi [3, 5]. Xususan, madaniy-ma’rifiy tadbirlarni ta’lim jarayoni bilan uzviy bog‘lash, ularni o‘quv fanlari mazmuni va tarbiyaviy maqsadlar bilan integratsiya qilish orqali tarbiyaviy ta’sirni kuchaytirish mumkinligi ilmiy jihatdan asoslangan [5, 7]. J. Dewey ta’lim jarayonida faol ishtirok va tajribaga asoslangan yondashuv shaxsning axloqiy kamolotini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi [5]. Interfaol metodlardan foydalanish, muhokama, ijodiy faoliyat va refleksiya elementlarini tadbirlarga singdirish talabalarni tarbiyaviy jarayonning passiv ishtirokchisidan faol subyektiga aylantirishga xizmat qilishi qayd etiladi [6].

Shuningdek, bir qator tadqiqotlarda madaniy-ma’rifiy tadbirlarning samaradorligini baholash va tahlil qilish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan [6, 7]. Ilmiy manbalarda monitoring, tahlil va refleksiya mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmaganligi tarbiyaviy faoliyatning natijadorligini pasaytiruvchi

omil sifatida ko‘rsatiladi. Shu bois madaniy-ma’rifiy tadbirlarni rejalashtirish, amalga oshirish va ularning natijalarini baholashni o‘z ichiga olgan kompleks pedagogik mexanizmlarni ishlab chiqish zarurligi ta’kidlanadi [3, 7]. Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, talabalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda madaniy-ma’rifiy tadbirlar katta pedagogik salohiyatga ega bo‘lsa-da, ularning samaradorligini oshirish mexanizmlarini chuqur, tizimli va ilmiy asosda tadqiq etish hanuz dolzarb ilmiy muammo bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot talabalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda madaniy-ma’rifiy tadbirlar samaradorligini oshirish mexanizmlarini ilmiy asosda o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, unda tizimli va kompleks metodologik yondashuv asos qilib olindi. Tadqiqot jarayonida shaxs rivoji va tarbiya jarayonining o‘zaro bog‘liqligini tushuntiruvchi gumanistik va ijtimoiy-pedagogik konsepsiyalar metodologik asos sifatida qabul qilindi. Ushbu yondashuvlar talaba shaxsini tarbiyaviy jarayonning markaziy subyekti sifatida ko‘rib, uning ma’naviy-axloqiy kamolotini ijtimoiy muhit va pedagogik ta’sirlar uyg‘unligida tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqotda nazariy va empirik metodlar uyg‘un holda qo‘llanildi. Nazariy tahlil jarayonida ma’naviy-axloqiy tarbiya, madaniy-ma’rifiy faoliyat hamda tarbiyaviy samaradorlik masalalariga oid ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va pedagogik konsepsiyalar tahlil qilindi. Qiyosiy va tizimli tahlil metodlari yordamida mavjud yondashuvlar o‘rganilib, madaniy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etishning ustuvor yo‘nalishlari aniqlashtirildi. Umumlashtirish va mantiqiy xulosa chiqarish metodlari tadqiqot natijalarini nazariy jihatdan asoslashda qo‘llanildi.

Empirik bosqichda pedagogik kuzatuv, suhbat va anketa metodlaridan foydalanildi. Pedagogik kuzatuv orqali madaniy-ma’rifiy tadbirlarning tashkil etilish shakllari, talabalarning faol ishtiroki va ularning munosabatlari tahlil qilindi. Suhbatlar talabalarning ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, madaniy faoliyat va tarbiyaviy tadbirlarga bo‘lgan qarashlarini aniqlashga xizmat qildi. Anketalar yordamida esa madaniy-ma’rifiy tadbirlarning talaba shaxsiga ta’siri, tarbiyaviy samaradorlik darajasi va mavjud muammolar haqida ma’lumotlar to‘plandi.

Tadqiqot jarayonida olingan empirik ma’lumotlar sifat va miqdoriy tahlil metodlari asosida qayta ishlanib, ularning ishonchliligi va xulosalarning asoslanganligi ta’minlandi. Monitoring va refleksiya elementlari orqali tadbirlarning tarbiyaviy natijalari baholandi hamda samaradorlikni oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Mazkur metodologik yondashuv tadqiqot maqsadiga erishish, ilgari surilgan ilmiy farazlarni asoslash hamda madaniy-ma’rifiy tadbirlar samaradorligini oshirish mexanizmlarini aniqlashga xizmat qildi.

Natijalar va ularning tahlili. Tadqiqot jarayonida olingan natijalar talabalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda madaniy-ma’rifiy tadbirlarning muhim pedagogik salohiyatga ega ekanligini tasdiqladi. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, mazkur tadbirlarning tarbiyaviy samaradorligi faqat ularning mavjudligi bilan emas, balki maqsadli rejalashtirish, ta’lim jarayoni bilan mazmuniy integratsiya hamda monitoring mexanizmlarining izchil qo‘llanilishi bilan bevosita bog‘liqdir [1, 3]. Ilmiy yangilik sifatida madaniy-ma’rifiy faoliyatni alohida tarbiyaviy tadbirlar majmui sifatida emas, balki oliy ta’lim muassasasining yagona va uzviy tarbiyaviy tizimi tarkibiy qismi sifatida tashkil etish zarurligi asoslab berildi. Ushbu yondashuv tarbiyaviy jarayonning uzluksizligi va barqarorligini ta’minlashga xizmat qilishi bilan ajralib turadi.

Tadqiqot natijalari asosida madaniy-ma’rifiy tadbirlar samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi asosiy pedagogik mexanizmlar umumlashtirildi. Ushbu mexanizmlar quyidagi jadvalda tizimli ravishda keltirilgan.

1-jadval.

Madaniy-ma’rifiy tadbirlar samaradorligini oshirish mexanizmlari

№	Mexanizm	Mazmuni	Kutilayotgan natija
1	Maqsadli rejalashtirish	Tadbirlarning aniq tarbiyaviy maqsad asosida tashkil etilishi	Tarbiyaviy yo‘nalishning aniqligi oshadi
2	Ta’lim jarayoni bilan integratsiya	Tadbirlarni o‘quv fanlari va tarbiyaviy maqsadlar bilan bog‘lash	Nazariya va amaliyot uyg‘unlashadi
3	Interfaol metodlardan foydalanish	Munozara, trening, ijodiy loyiha va sahna ko‘rinishlari asosida tashkil etish	Talabalarning faol ishtiroki kuchayadi
4	Talaba faolligini ta’minlash	Talabalarni tashabbuskor va hamkor sifatida jalb qilish	Ichki motivatsiya va mas’uliyat ortadi
5	Monitoring va baholash	Tadbir natijalarini kuzatish, tahlil qilish va baholash	Samaradorlik darajasi aniqlanadi

Manba: *muallif tomonidan ishlab chiqilgan.*

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, madaniy-ma’rifiy tadbirlarning samaradorligi ularni oddiy tashkiliy faoliyat sifatida emas, balki maqsadli rejalashtirilgan, interfaol yondashuvga asoslangan hamda monitoring va refleksiya elementlari bilan boyitilgan yaxlit pedagogik tizim sifatida tashkil etish bilan ta’minlanadi.

Pedagogik kuzatuvlar asosida olingan empirik ma’lumotlar interfaol yondashuv asosida tashkil etilgan madaniy-ma’rifiy tadbirlar talabalarning axloqiy ongini rivojlantirishda an’anaviy, passiv shakllarga nisbatan yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi [5, 6]. Ilmiy yangilik sifatida talabalarning faol subyekt sifatida ishtiroki ularning axloqiy qadriyatlarni tashqi talab yoki nazorat emas, balki ichki ehtiyoj va shaxsiy e’tiqod darajasida qabul qilishiga xizmat qilishi aniqlandi. Natijada tarbiyaviy ta’sir tashqi rag‘batlantirish bilan cheklanmay, shaxsning ichki motivatsiyasi orqali mustahkamlanishi kuzatildi, bu esa ma’naviy-axloqiy barqarorlikni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

Anketa va suhbat natijalari madaniy-ma’rifiy tadbirlarning mazmuniy boyligi hamda ularning ta’lim jarayoni bilan integratsiyalashuvi talabalarda ijtimoiy mas’uliyat, fuqarolik pozitsiyasi va axloqiy barqarorlikning shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ilmiy jihatdan asoslab berdi [2, 7]. Tadqiqot davomida ilk bor madaniy-ma’rifiy tadbirlar samaradorligini baholashda talabalarning reflektiv munosabatlari muhim mezon sifatida ajratib ko‘rsatildi. Ushbu yondashuv tarbiyaviy natijalarni faqat tashqi xulq-atvor ko‘rsatkichlari orqali emas, balki talabalarning ichki munosabatlari, qadriyatlar tizimi va ongli baholashlari orqali aniqlash imkonini beradi.

Monitoring va tahlil natijalari asosida ishlab chiqilgan mexanizm madaniy-ma’rifiy tadbirlarning samaradorligini oshirishda uzluksizlik va izchillik hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi [3, 6]. Ilmiy yangilik sifatida tarbiyaviy faoliyatni rejalashtirish, amalga oshirish va baholash bosqichlarini yagona tizimga birlashtiruvchi kompleks mexanizm taklif etildi. Mazkur mexanizm asosida tashkil etilgan tadbirlar talabalarning ijtimoiy faolligi, axloqiy mas’uliyati va fuqarolik pozitsiyasida barqaror ijobiy dinamikani ta’minlagani bilan ajralib turadi.

Aslini olganda, tadqiqot natijalari madaniy-ma’rifiy tadbirlarning talabalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashdagi samaradorligini oshirish mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslab, ushbu yo‘nalishda yangi yondashuvlarni taklif etadi. Olingan ilmiy yangiliklar oliy ta’lim muassasalarida tarbiyaviy faoliyatni tizimli tashkil etish, uning natijadorligini oshirish hamda barqaror ma’naviy-axloqiy muhitni shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega [1, 2, 7].

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari talabalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash jarayonida madaniy-ma’rifiy tadbirlarning muhim pedagogik ahamiyatga ega ekanligini ilmiy jihatdan tasdiqladi. Tadqiqot davomida madaniy-ma’rifiy faoliyat talabalarda axloqiy ong, ijtimoiy mas’uliyat va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali tarbiyaviy vosita ekanligi aniqlandi. Shu bilan birga, mazkur tadbirlarning tarbiyaviy ta’siri ularning tasodifiy yoki formal tashkil etilishida emas, balki tizimli, maqsadga yo‘naltirilgan va ilmiy asoslangan mexanizmlar asosida amalga oshirilishida namoyon bo‘lishi asoslab berildi.

Tadqiqot natijalari madaniy-ma’rifiy tadbirlar samaradorligini oshirishda maqsadli rejalashtirish, ta’lim jarayoni bilan mazmuniy integratsiya, interfaol yondashuv hamda monitoring va baholash mexanizmlarining hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Ilmiy tahlillar asosida tarbiyaviy faoliyatni rejalashtirish, amalga oshirish va natijalarni baholash bosqichlarini yagona tizimga birlashtiruvchi kompleks mexanizm taklif etildi. Ushbu mexanizm talabalarning ma’naviy-axloqiy kamolotida barqaror ijobiy o‘zgarishlarni ta’minlash, ularning ijtimoiy faolligi va axloqiy mas’uliyatini oshirish imkonini berishi bilan ajralib turadi.

Umuman olganda, tadqiqot davomida olingan xulosalar oliy ta’lim muassasalarida madaniy-ma’rifiy tadbirlarni tarbiyaviy faoliyatning muhim tarkibiy qismi sifatida tizimli tashkil etish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi. Mazkur tadqiqot natijalari va ilgari surilgan yondashuvlar talabalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash jarayonini takomillashtirish, tarbiyaviy faoliyat samaradorligini oshirish hamda oliy ta’lim muassasalarida barqaror ma’naviy-axloqiy muhitni shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligi bilan tavsiflanadi.

Shu asosda quyidagi **amaliy tavsiyalar**ni ilgari surish mumkin:

1. Oliy ta’lim muassasalarida madaniy-ma’rifiy tadbirlarni yagona tarbiyaviy konsepsiya asosida tizimli rejalashtirish va ularni ta’lim jarayoni bilan integratsiya qilish maqsadga muvofiq.
2. Madaniy-ma’rifiy faoliyatni tashkil etishda interfaol metodlar, muhokama, ijodiy loyihalar va refleksiya elementlaridan keng foydalanish talabalarning faol ishtirokini ta’minlaydi.
3. Tarbiyaviy tadbirlarning natijadorligini oshirish maqsadida monitoring va baholash tizimini joriy etish hamda talabalarning reflektiv munosabatlarini tahlil qilish mexanizmlarini amaliyotga tatbiq etish zarur.

Adabiyotlar:

1.Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
3. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. - Toshkent 2017.
4. Ананев Б.Г. Человек как предмет познания. - Москва: Наука, 2001.
5. Dewey J. Democracy and Education. - New York: Macmillan, 1916.
6. Кузмина Н.В. Профессионализм личности преподавателя. - Москва: Высшая школа, 1990.
7. UNESCO. Global Citizenship Education: Topics and Learning Objectives. - Paris: UNESCO Publishing, 2015.

TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA MA’NAVIY-AXLOQIY FAZILATLARNING AHAMIYATI

Raxmonova Gullola Shavkatovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti, umumiy pedagogika kafedrasi
katta o‘qituvchisi, p.f.f.d.,(PhD)
https://orcid.org/0000-0002-7202-0129

Ushbu maqolada talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida ma’naviy-axloqiy fazilatlarning o‘rni va ahamiyati tahlil etiladi. Xususan, talaba-yoshlarni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashga xizmat qiluvchi turli pedagogik texnologiyalar, ularning turlari hamda o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish nafaqat nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni egallashni, balki yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishni ham talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, ma’naviy-axloqiy tarbiya oliy ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish, avvalo, shaxsning mas’uliyat, halollik, vatanparvarlik, ijtimoiy faollik kabi fazilatlari bilan bevosita bog‘liqdir. Shuningdek, ma’naviy-axloqiy fazilatlar talabalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, ajdodlar merosiga sadoqat, fan va madaniyat yutuqlarini qadrlash kabi kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida, ularning nafaqat malakali kadr, balki barkamol shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *fazilat, an’ana, tarbiya, tamoyil, pedagogik texnologiya texnologiya, ma’naviy-axloqiy, ta‘lim-tarbiya, kompetensiyaviy yondashuv.*

ЗНАЧЕНИЕ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ

В данной статье анализируется роль и значение духовно-нравственных качеств в процессе развития профессиональных компетенций студентов. В частности, рассматриваются различные педагогические технологии, направленные на духовно-нравственное воспитание студенческой молодежи, их виды и специфические особенности. Формирование профессиональных компетенций у студентов предполагает не только овладение теоретическими знаниями и практическими навыками, но и развитие высоких духовно-нравственных качеств. С этой точки зрения духовно-нравственное воспитание выступает одной из приоритетных задач системы высшего образования. Это обусловлено тем, что успешность профессиональной деятельности напрямую связана с такими личностными качествами, как ответственность, честность, патриотизм и социальная активность. Кроме того, духовно-нравственные качества являются важным фактором развития у студентов компетенций, связанных с уважением к национальным и общечеловеческим ценностям, преданностью наследию предков, а также с осознанием значимости достижений науки и культуры. В свою очередь, это способствует формированию не только квалифицированного специалиста, но и гармонично развитой личности.

Ключевые слова: *качество, традиция, воспитание, принцип, педагогическая технология, духовно-нравственное воспитание, образование, компетентностный* ***подход.***

THE IMPORTANCE OF MORAL AND ETHICAL QUALITIES IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS’ PROFESSIONAL COMPETENCIES

This article analyzes the role and significance of moral and ethical qualities in the process of developing students’ professional competencies. In particular, it examines various pedagogical technologies aimed at fostering students’ moral and ethical development, as well as their types and specific features. The formation of professional competencies in students requires not only the acquisition of theoretical knowledge and practical skills, but also the development of high moral and ethical qualities.

From this perspective, moral and ethical education is considered one of the priority tasks of the higher education system. This is because success in professional activity is directly related to personal qualities such as responsibility, honesty, patriotism, and social activity.

Furthermore, moral and ethical qualities play an important role in developing students’ competencies related to respect for national and universal values, commitment to ancestral heritage, and appreciation of achievements in science and culture. In turn, this contributes to the formation of not only a qualified specialist but also a well-rounded individual.

Keywords: *quality, tradition, education, principle, pedagogical technology, moral and ethical education, teaching and learning, competency-based approach.*

Kirish. XX asr kishilik jamiyati taraqqiyoti tarixidan fan va texnika sohasida yuz bergan inqiloblar davri sifatida joy oldi. Ilm-fan va texnika rivojida katta o zgarishlar ro‘y berdi. Ta’lim texnologiyasi nazariyasining umumiy asoslari mohiyati xususida so‘z yuritish uchun “ta’lim texnologiyasi”tushunchasi kirib keldi.

“Texnologiya”, “pedagogika texnologiyasi” tushunchalarini talqin qilishning ko‘plab variantlari mavjud, ularning tahlili bizga ushbu hodisaning zarur belgilari quyidagilardan iborat deb hisoblashimizga imkon beradi.

Ayniqsa, yoshlar orasida bu jarayonning ancha o‘ziga xos tarzda kechatotganligini ko‘rish mumkin. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapdi. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”.

Shaxsni tarbiyalash uzluksiz tarbiyaning muhim bosqichidir. Bu bosqichda shaxsning hayotiy dunyoqarashi shakllanishi va ongli ravishda o‘z o‘zini tarbiyalash davri hisoblanadi. Shu sababdan ta’lim muassasalarida tarbiya jarayonini yo‘lga qo‘yish tizimli yondashuvga amal qilish, ta’lim va tarbiya jarayonini bo‘lajak talabalarning ilmiy tayyorgarligi bilan uyg‘unlashgan holda amalga oshirish talab etiladi.

Demak, yuksak ma’naviyat bilan jamiyat hayotining tanasi bo‘lgan iqtisodiyot vujudiga jon, ruh kiradi, unga tiriklik, tengsiz yaratuvchi qudrat baxsh etiladi.

Negaki ma’naviyat va ma’rifat barcha zamonlarda tengsiz qudrat, baxt-saodat, tinchlik, bunyodkorlik, hamjihatlik mezoni, ruhiy poklanish va qalbni yuksaltiruvchi ne’mat bo‘lib kelgan. Chunki u millatni, xalqni, demakki, insonlarni yuksak fazilatlar, kamolotga yo‘llovchi axloqiy mezonlar asosida yashashga, xudbinlik, g‘aflat asiriga aylanmay hamisha yaxshilik yo‘lida bedor bo‘lishga, bu olamni obod qilishga, go‘zallikka burkashga chorlagan.

Endilikda, “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorda ta’kidlanganidek, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarni jaholat soyasidan asrash, tinimsiz chiranib yotgan ma’naviy tahdidlardan himoya qilish uchun tashkiliy-amaliy va ilmiy-tadqiqot ishlarini yangi talablar asosida yo‘lga qo‘yish, bu yo‘nalishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda xususiy sektorning ijtimoiy hamkorligini mustahkamlash borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko‘taradi.

Mavjud muammolarni hal etish yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishda ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samarasi va ta’sirchanligini oshirish ko‘lami va miqyosini yanada kengaytirish, mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida Vatanimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, sohadagi ishlarni muvofiqlashtirish bo‘yicha yagona tizim yaratish, yoshlarning ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirishni talab etadi.

Bu borada nafaqat respublikamiz, balki jahon ta’lim tizimida yoshlarning ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash mexanizmi, yoshlarning axloqiy sifatlarini rivojlantirishning amaliy pedagogik tizimi, o‘qitish modellari texnologik taraqqiyot g‘oyalari bilan uyg‘unlashtirilgan interfaol dasturlar ta’lim jarayoniga tatbiq etilgan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining “XXI asrning Oliy ta’limi” Butunjahon deklaratsiyasi, UNESCOning “Oliy ta’limni isloh qilish va rivojlantirish” dasturiy hujjatlarida dunyo miqyosida ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirishga, modulli ta’limni tashkil etishga, o‘qitishning zamonaviy usullarini joriy etish orqali talaba-yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash metodikasini yanada takomillashtirishga alohida e’tibor berilgan.

Jahon oliy ta’lim tizimida yoshlarni kasbiy ijtimoiylashtirish, ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish, ijtimoiy faolligi va tashabbuskorligini tarbiyalash metodikasini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Germaniya, AQSH, Rossiya, Fransiya, Xitoy, Koreya kabi rivojlangan mamlakatlarda talaba-yoshlarning tafakkurini o‘stirish, qobiliyatlarini erta aniqlash, ma’naviy-axloqiy tarbiyalash mexanizmlari samaradorligini oshirish metodikasini takomillashtirishda modulli o‘qitish, “blended learning” (aralash o‘qitish), mahorat darslari, vebinarlar tashkil etilib kelinmoqda.

Tadqiqot metodi. Respublikamizda ko‘pgina olimlar tomonidan ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonining turli jihatlari o‘rganilgan hamda ushbu tadqiqotlar natijalarini ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llash imkoniyatlari tavsiya etilgan. Bu tadqiqotlarning ba’zilari keng qamrovli bo‘lgan ma’naviy-axloqiy tarbiya

jarayonining ma’lum bir qirrasini tahlil etishga qaratilgan bo‘lsa, boshqalari ta’lim-tarbiya jarayonida ma’naviy-axloqiy tarbiyaning mazmunini boyitishga va turli o‘quv kurslarida yangi usullarini qo‘llashga yo‘naltirilgan, ta’lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar tizimini takomillashtirish masalalari joriy etilgan.

Bo‘lajak talabalarning ma’naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirishda o‘tmish axloqiy merosini, ayniqsa, buyuk mutafakkirlarning fikrlarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Chunki ularning ilm-ma’rifat, ta’lim-tarbiya sohasidagi fikrlari, axloqiy qarashlari bugungi taraqqiyot uchun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Ularning hayot yo‘li, axloq haqidagi fikrlari har bir o‘quvchini axloqiy madaniyatini shakllantirishda muhim o‘rin egallaydi. Sharq allomalarining axloqiy qarashlari talabalar qalbida insoniylikni shakllanishiga yordam beradi.

Butun dunyoda, jamiyatda axloqiy tarbiyaning ahamiyati ortib borayotganini, lekin shu bilan birga ommaviy axborot vositalari, keng jamoatchilik, turli soha mutaxassislari hayotning turli sohalarida axloqiy normalarni pasayishi kuzatilayotganligi haqida fikr bildirilayotganini kuzatishimiz mumkin. Nima uchun aynan yoshlar, bolalar orasida axloqiy normalarni buzilish holatlari kuzatilmoqda? Ushbu savolning javobi axloqiy tarbiyaning asosini tashkil etadi.

Ma’naviy-axloqiy tarbiyaviy faoliyat deganda, ta’lim bilan yaxlit aloqadorlikda bo‘lgan maqsadli hamda tizimli faoliyat nazarda tutiladi. Bu faoliyat bo‘lajak talabalardagi ijtimoiy ahamiyatli sifat va qadriyatlarni shakllantirish, har tomonlama ma’naviy, aqliy va jismoniy rivojlanishi uchun munosib sharoitlarni yaratish, uning o‘z ustida mustaqil ishlashi hamda o‘z shaxsiyatini ijodiy namoyon eta olishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Shaxsning axloqiy sifatlariga xushmuomalalik, axloqlilik, mehnatsevarlik, kamtarlik, mehribonlik. rahmdillik, saxovatlilik, oqko‘ngillilik, bag‘rikenglik, vatanparvarlik, baynalmilallik, sabrlilik, bilimlilik, e’tiqodlilik, adolatparvarlik, haqiqatgo‘ylik, o‘zgalarni tushuna olish, muhtojlarga yordam ko‘rastish kattalarni hurmat qilish, kichiklarga izzat ko‘rsatish, intizomlilik v.b. Maktabda, oliy ta’limda, oilada axloqiy tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgandagina shaxsga xos quyidagi salbiy axloqsizlik, odobsizlik, manmanlik, kibrlilik, dangasalik, maqtanchoqlik, ko‘ngli qoralik, xasislik, vatanfurushlik, sabrsizlik, bilimsizlik, e’tiqodsizlik, adolatsizlik, yolg‘onchilik, qahri qattiqlik, berahmlik, kattalarni hurmat qilmaslik, kichiklarga izzat ko‘rsatmaslik, intizomsizlik kabi axloqiy sifatlarni shakllanishining oldini olinishiga erishiladi. Axloqiy tarbiya umuminsoniy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi sanaladi. Axloqiy tarbiya talabalar ongi, hayoti, turmush tarziga muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo‘lgan tartib, odob, o‘zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarni singdirish jarayoni. Ushbu tarbiya asosini ijtimoiy axloqiy me’yorlar hamda shaxsni ulardan xabardor etish tashkil qiladi. Axloqiy me’yor jamiyat tomonidan tan olingan bo‘lib, unda yashovchi kishilar tomonidan bajarilishi majburiy-ixtiyoriy bo‘lgan qoida hisoblanadi.

Axloq axloqiy tarbiyaning asosiy kategoriyasi sanaladi. Hatto, Aristotel, I. Kant, N.A. Berdyaev asarlarida insonning axloqiy va ma’naviy qadriyatlari muammosi ko‘tarildi. Mashhur olimlar V.A. Slastenina, O.S. Bogdanova, N.I. Boldireva axloqni rivojlantirish muammosini tahlil qilishni o‘rganib chiqdi. Bu borada o‘zimizda ham qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Masalan, O.Musurmonova, M.Ochilov, Sh.Olimov, S.Annamuratova, S.Fayzulina, O.Musurmonova, M.Quronov, N.X.Oripova, Z.Q.Ismoilova, N.A.Muslimov, N.M.Ochilov, Y.P.Azarov, N.E.Azimovalarning ilmiy ishlarida oliy ta‘lim tizimida ma‘naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish hamda bo‘lajak o‘qituvchilarning ma‘naviy-kasbiy tayyorgarligi muammosi tahlil qilingan. Sharq mutafakkirlari Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Farg‘oniy, Imom Ismoil al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Nahshband, Amir Temur, Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek, Abdurahmon Jomiy, Sa’diy Sheroziy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalarning axloq haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o‘z ifodasini topgan. Amir Temur – yaxshi xulqlar egasi bo‘lgan. U oqil va tadbirli hukmdor sifatida kishilarni turli lavozimlarga tayinlash va vazifasidan ozod etishda ham shoshma-shosharlik va adolatsizlikka yo‘l qo‘ymagan, balki yetti o‘lchab, bir kesgan.

Imom Ismoil al-Buxoriy «Axloqning yaxshi bo‘lishi, taomning pokizaligi, rostlik va omonatga xiyonat qilmaslik – mana shu to‘rt xislatni Alloh taolo senga bergan bo‘lsa, dunyoviy ishlardan chetda qolgan bo‘lsang ham, zarari yo‘qdir», degan edi.

Demak, axloqiy tarbiya barkamol inson tarbiyasida yetakchi bo‘g‘in, insoniy sifatlarni yaratuvchi, shakllantiruvchi, mukammalikka erishtiruvchi vosita hisoblanadi. Abdulla Avloniy ta’kidlaganidek, axloqiy tarbiya insonlarni yaxshilik-ka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir omildir. Yaxshi xulqlarning yax-shiligi, yomon xulqlarning yomonligini dadil va misollar bilan bayon qiladurg‘on kitobdir. Axloq kishining xulq-atvori, e’tiqod-imoni, yurish-turishi, fikr-mulohazalari, mushohada va muloqotida namoyon bo‘ladi. Axloqli inson o‘zini qattiq hurmat qiladi, intizomli bo‘ladi. Suhbatdoshning ko‘ngliga qarab gapiradi, kishi dilini og‘ritmaydi, muloqot odobiga rioya qiladi.

Tadqiqot muhokama va natijasi. Tahlillar asosida yoshlarning ijtimoiy faolligi va tashabbuskorligi asosida ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirishda ma’naviy-axloqiy bilimlar, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, ma’naviy-axloqiy fazilatlar, ma’naviy faoliyat kabi komponentlarni o‘z ichiga olishi aniqlandi.

Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning tarkibi sifatida ma’naviy-axloqiy bilimlarning shakllanishi natijasida talaba-yoshlarda baxt, vijdon, burch, adolat, or-nomus, muhabbat, ezgulik, shon-sharaf, e’tiqod, sadoqat kabi bir qancha axloqiy kategoriyalar shakllanadi. Ma’naviy-axloqiy bilimlarni o‘zlashtirgan talaba-yoshlarda tashabbuskorlik, ijtimoiy faollik, vatanparvarlik, halollik, mehnatsevarlik, kamtarlik, fidoyilik kabi fazilatlar qaror topa boshlaydi. Ushbu fazilatlarga ega yoshlar axloqiy me’yorlar talablarini ongli bajaradi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar sanalmish ma’naviy meros, urf-odat va an’analarga nisbatan hurmatda bo‘ladi. Ammo ma’naviy-axloqiy me’yorlar haqida bilimga ega bo‘lish, uni tushunish, ezgu fazilatlarni tarkib toptirish hali yoshlarning ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalanganini anglatmaydi. Insoniylik fazilatlari qachonki hayotiy tajribalarda aks etib, shaxsning munosabatlarga kirishish faoliyatida yorqin namoyon bo‘lsa, bu uning tarbiyalanganlik darajasini belgilaydi.

Jamiyat taraqqiyoti uchun, avvalo, ma’naviy-axloqiy kompetentli, ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalash, shuningdek, asosiy e’tiborni yoshlarning tarbiyalanganlik darajasini oshirish masalasiga qaratish zarur.

Talabalarda ma’naviy-axloqiy komptentlikni shakllantishida dastlabki qadami talabalarga vatanimizning milliy boyliklariga, meroslariga ehtiyotkorona mnosabatda bo’lish, ularni avaylab-asrash, tariximizdan faxr va iftixor tuyg’ularini rivojlantirib, xalqimizning milliy urf-odat va an’analariga sodiqlik ruhida tarbiyash lozim. Ma’naviy-axloqiy me’yorlar asosida talabalarda nunosabatga kirishish madaniyatini, jamoa orasida, jamiyat insonlari bilan to’g’ri munosabatni o’rnata olishga erishish lozim. Ma’naviy-axloqiy tarbiyanini talabalar mazmun-mohiyatini chuqur anglab yetishlari ularning ijtimoiy hayotda o’zlarini qanday tartibda tutganliklari bilan baholanadi.

Sinfdan tashqari ishlar tizimi maqsadli, individual-guruhiy, muntazam-vaqtinchalik va faoliyat komponentlaridan iborat. Maqsadli komponent ma’naviy-axloqiy tarbiya ishlari jarayonida amalga oshiriladigan bunday ishlarning maqsadini, auditoriyadan tashqari ishlar tizimida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan va keyingi o'quv-tarbiyaviy mashg'ulotlarida davom etadigan har bir mashg'ulotning maqsad va vazifalarini o'z ichiga oladi. Individual-guruhiy komponenti o'qituvchilar va talabalar, ta’lim va tarbiyaning boshqa ishtirokchilarining hamkorligi va hamjihatligini ifodalaydi. Muntazam-vaqtinchalik komponentiga predmet-moddiy muhit, ta’lim muhiti, ta’lim muassasasi xodimlarining shahar va viloyat madaniyat muassasalari va ijodiy jamoalari bilan aloqalari va munosabatlari kiradi. Faoliyat komponenti tizimni tashkil etuvchi faoliyat turini, qo'shma faoliyat va aloqalarni tashkil etish shakllari va usullarini o'z ichiga oladi.

Yoshlarda ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish o‘ziga xos bosqichlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.Talabalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda, eng avvalo, millatimiz tarixi va ma’naviyati ildizlariga e’tibor qaratish taqozo etiladi. Vatanimizda azal-azaldan inson ma’naviy kamoloti, axloqiy fazilatlar tarbiyasi ajdodlarimiz diqqat markazida bo‘lib kelganini yoshlarning tafakkuriga singdirishga erishish zarur.

Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning individual shakliga barcha darsdan tashqari mashg'ulotlar, o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi muloqot kiradi. Ishning individual shakllariga quyidagilar kiradi: suhbat, maslahatlashuv, fikr almashish, qo‘shma topshiriqni bajarish, muayyan ishda individual yordam ko‘rsatish, muammo yoki topshiriqning echimini birgalikda izlash. Talabani o‘ziga jalb qilish, uni ochiq-oydin bo‘lishga undash, ishonchni qozonish, o‘qituvchi bilan o‘z fikrlari va shubhalarini baham ko‘rish istagini uyg‘otish muhimdir. Yurakdan suhbat talaba uchun bir nechta jamoaviy faoliyatdan ko‘ra foydaliroq bo‘lishi mumkin.

Xulosa. Tarbiyadan ko‘zlangan asosiy maqsad – har tomonlama barkamol insonni tarbiyalashdir. Ta’lim muassasalarning asosiy vazifasi bo‘lajar talabalarning aqliy, ma’naviy, axloqiy, mehnat va jismoniy rivojlanishiga ko‘maklashish, umuminsoniy qadriyatlarga oshno bo‘lishi uchun zamin hozirlash, o‘z-o‘zini rivojlantirish, ichki imkoniyatlari va ijodiy qobiliyatlarini namoyon qilish, muvaffaqiyatlarga erishish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iboratdir.

Bo‘lajak talabalarda ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishning qator tamoyillari, jumladan, uzluksizlik, demokratiklik, altruizm, bag‘rikenglik, hamkorlik va individuallashtirish tamoyillari ishlab chiqilib, ularga asoslangan holda ma’naviy-ma’rifiy ishlar amalga oshirildi.

Talabalarda ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishga doir shaxsga yo‘naltirilgan, kommunikativ, faoliyatga yo‘naltirilgan va aksiologik yondashuvlar mavjud bo‘lib, ta’lim-tarbiya jarayonida mazkur yondashuvlarni hisobga olish muhimligi aniqlandi.

Bo‘lajak talabalarda ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan shakl, metod va vositalari ishlab chiqilib, ular auditoriya mashg‘ulotlari hamda auditoriyadan tashqari ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni samaradorligini oshirishga xizmat qildi.

Bo‘lajak talabalarda ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda psixoterapevtik yondashuvga asoslangan artterapiya, hayotiy muammolarni hal etishning maxsus tashkillashtirilgan psixodrama (sotsiodrama), shaxsiy rivojlanish, muloqot treninglari alohida ahamiyat kasb etishi aniqlandi.

Bo‘lajak talabalarda ijodiy fikrlashga o‘rgatish, yangi yechimlarni topish va muammolarni hal qilishda kreativlik, ehtiyotkorlik va ishonchni o‘rgatish, o‘zlarining so‘zlari va harakatlari bilan boshqalarga zarar yetkazmaslik va vaqtni boshqarishni o‘rgatish ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam berishiga e’tibor qaratish.

Bo‘lajak talabalarda ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda motivlarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, ularda yuksak ma’naviy fazilatlarni egallashga bo‘lgan ijobiy motivlarni shakllantirish, ijodiy muhitni yaratish, hamkorlikka asoslanib, ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda tizimli va refleksiv yondashuv imkoniyatlarini hisobga olish orqali natijaviylikka erishish. Bo‘lajak talabalarda ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishning sifati va samaradorligini baholashning obyektiv mexanizmini joriy etishdan iborat. Ma’naviy-axloqiy tarbiya tizimida axloqiy his-tuyg‘ular talabalar tomonidan

Demak, axloqiy tarbiya barkamol insonni tarbiyalashda yetakchi bo‘g‘in, insoniy sifatlarni yaratuvchi, shakllantiruvchi, mukamallikka erishuvchi vosita hisoblanadi. Axloqiy tarbiya asosini ijtimoiy axloqiy me’yorlar hamda shaxsni ulardan xabardor etishni tashkil qiladi. Axloqiy me’yorlar jamiyat tomonidan tan olingan bo‘lib, unda yashovchi kishilar tomonidan bajarilishi majburiy-ixtiyoriy bo‘lgan qoida hisoblanadi. Axloq kishilarning xulq-atvori, e’tiqod-iymoni, yurish-turishi, fikr-mulohazalari, mushohada va muloqotida namoyon bo‘ladi. Axloqli inson ma’naviyatli, o‘zini va o‘zgalarni hurmat qiladi, intizomli bo‘ladi. Suhbatdoshining ko‘ngliga qarab gapiradi, kishi dilini og‘ritmaydi, muloqot odobiga rioya qiladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonida talabalar ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tiklash, uni asrab-avaylash masalasini kun tartibiga qo‘yish zaruratining yuzaga kelishi, ma’naviy-axloqiy his-tuyg‘ularini tarbiyalash, ularda xulq-atvor ko‘nikma va odatlarini tarkib toptirish, manaviy-axloqiy tarbiya mohiyatiga inson ongining jamiyat bilan aloqadorligi, jamiyat oldida burchi ekanligi, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy me’yorlarga rioya qilishi, talabalar tomonidan ma’naviy-axloqiy xulq-atvor jamiyat a’zolariga bo‘lgan hurmat-e’tiborini namoyon etuvchi mezonlardan iborat.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir.- Toshkent: O‘zbekiston. 2018. 2-tom,–B. 491.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023- yil 11- sentabrdagi PF–158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi Farmoni (https://lex.uz/pdfs/6600413)
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907 qarori.
4. Рахмонова Г. Ш. Технологии Развития Духовно-Нравственной Компетентности Студентов //Miasto Przyszłości. – 2024. – Т. 45. – С. 306-309.
5. Sh R. G. The role of spiritual and moral education in the spiritual formation of students. – 2021.
6. Shavkatovna R. G., Bobirovna A. V. Umuminsoniy axloqiy madaniyatni shakllantirishda va rivojlantirishda oilaviy tarbiyaning o‘rni //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 1450-1454.
7. Raxmonova G. S., Abdunabiyeva F. N. Maktabgacha ta’lim tashkiloti va oila hamkorligi //Educational Research in Universal Sciences. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 729-734.
8. Рахмонова Г. Ш. Содержание и характер духовно-нравственной воспитательной работы в высших учебных заведениях //Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences. – 2024. – Т. 3. – №. 6. – С. 5-8.
9. Shavkatovna R. G. Oilada bolalarni axloqiy tarbiyalash shakllari //Proceedings of International Educators Conference. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 53-56.
10. Valerievna I. G., Shavkatovna R. G. The Content and Characteristics of Spiritual and Moral Education Works in Higher Education Institutions //Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education (2994-9521). – 2024. – Т. 2. – №. 5. – С. 340-342.
11. Рахмонова Г. Ш. Духовно-нравственное воспитание основа будущего //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 12. – С. 276-278.

ALISHER NAVOIYNING TARBIYA HAQIDAGI QARASHLARI VA ULARNING BUGUNGI TA’LIM TIZIMIDAGI AHAMIYATI

Temirov Nodirbek Ashur o‘g‘li,
Buxoro innovatsiyalar universiteti “Pedagogika nazariyasi va tarixi (faoliyati turlari bo‘yich) yo‘nalishi II bosqich magistri,
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati yordamchisi
nodirbektemirov13777@gamil.com

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning komil inson tarbiyasi haqidagi pedagogik qarashlari, ularning falsafiy ildizlari va amaliy ahamiyati chuqur tahlil qilingan. Mutafakkirning ma’naviy komillik, ilm, odob, halollik, axloqiy poklik va ustoz-shogird an’anasiga asoslangan ta’limiy qarashlari Yangi O‘zbekiston ta’lim-tarbiya tizimi bilan uzviy bog‘liq holda yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy pedagogika konsepsiyalari, milliy qadriyatlar va innovatsion ta’lim yondashuvlari asosida komil inson tarbiyasini shakllantirishning nazariy-amaliy asoslari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: *Alisher Navoiy, komil inson, ma’naviy tarbiya, ilm-ma’rifat, ustoz-shogird, Yangi O‘zbekiston, ta’lim islohotlari, milliy qadriyatlar, zamonaviy pedagogika, barkamol avlod.*

ВЗГЛЯДЫ АЛИШЕРА НАВОИ НА ОБРАЗОВАНИЕ И ИХ ЗНАЧЕНИЕ В СОВРЕМЕННОЙ СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

В данной статье глубоко анализируются педагогические взгляды Алишера Навои на воспитание совершенной личности, их философские корни и практическое значение. Образовательные взгляды мыслителя, основанные на духовном совершенстве, знаниях, порядочности, честности, нравственной чистоте и традиции «учитель-ученик», освещаются в неразрывной связи с системой образования Нового Узбекистана. Также раскрываются теоретические и практические основы формирования воспитания совершенной личности на основе современных педагогических концепций, национальных ценностей и инновационных образовательных подходов.

Ключевые слова: *Алишер Навои, совершенная личность, духовное воспитание, наука и просвещение, учитель-ученик, Новый Узбекистан, образовательные реформы, национальные ценности, современная педагогика, гармоничное поколение.*

ALISHER NAVOI'S VIEWS ON EDUCATION AND THEIR SIGNIFICANCE IN TODAY'S EDUCATION SYSTEM

This article deeply analyzes Alisher Navoi's pedagogical views on the upbringing of a perfect person, their philosophical roots and practical significance. The thinker's educational views based on spiritual perfection, knowledge, decency, honesty, moral purity and the tradition of the teacher-student are highlighted in an inextricable connection with the education system of New Uzbekistan. Also, the theoretical and practical foundations of the formation of a perfect person's upbringing based on modern pedagogical concepts, national values and innovative educational approaches are shown.

Keywords: *Alisher Navoi, perfect person, spiritual upbringing, science and enlightenment, teacher-student, New Uzbekistan, educational reforms, national values, modern pedagogy, harmonious generation.*

Kirish. Sharq mumtoz adabiyoti va ma’naviy tafakkur taraqqiyotida Alisher Navoiy alohida o‘rin egallaydi. Uning boy ilmiy-adabiy merosi nafaqat badiiy qiymati, balki chuqur pedagogik va axloqiy g‘oyalari bilan ham ahamiyatlidir. Navoiy asarlarida inson tarbiyasi, uning ma’naviy kamoloti, axloqiy pokligi va jamiyatdagi o‘rni masalalari keng va har tomonlama yoritilgan.

Bugungi globallashuv va ma’naviy qadriyatlar transformatsiyasi sharoitida yosh avlod tarbiyasi masalasi dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Shu nuqtayi nazardan, buyuk mutafakkirlarning pedagogik qarashlarini o‘rganish va ularni zamonaviy ta’lim tizimiga tatbiq etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Navoiy ilgari surgan komil inson g‘oyasi, halollik, adolat, mehr-shafqat kabi yuksak insoniy fazilatlar bugungi yoshlar tarbiyasida muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Alisher Navoiyning tarbiya haqidagi qarashlari tahlil qilinib, ularning zamonaviy ta’lim tizimidagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, mutafakkir merosidagi pedagogik g‘oyalarni bugungi kun ta’lim jarayoniga integratsiya qilish imkoniyatlari ham ko‘rib chiqiladi.

Navoiy o‘z asarlarida komil inson obrazini talqin etadi. Uning asar qahramonlari jismonan ko‘rkam, go‘ zal bo‘lish bilan birgalikda ma’nan yetuk, ahloqan barkamol shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Navoiy o‘zining badiiy asarlarida komil inson obrazlarini yaratib, ta’lim-tarbiya to‘g‘risidagi fikrlarini ifodalagan bo‘lsa, ta’limiy-axloqiy asarlarida esa komil insonni shakllantirishning mazmuni, yo‘llari, usullarini bayon etdi. U o‘z davrining ilg‘or, ma’rifatparvar allomasi sifatida islomdagi ta’lim-tarbiya aqidalari, o‘zidan ilgari o‘tgan mutafakkirlarning qarashlarini an’anaviy tarzda davom ettirdi. Ayniqsa, inson kamolotida ilm-fanning o‘rni, aql-idrokning ahamiyati, aqiy tarbiyaning mohiyatini yoritib berdi. Navoiy tasavvurlaridagi komil insonga xos bo‘lgan eng yuksak fazilatlarga: ijodkorlik, qobiliyat, ilm-fanga muhabbat kiradi. Chunki, baxtli hayotga intilgan Navoiy fikricha, oqil, qobiliyatli, dono inson o‘zining kuch-quvvatiga, aqlu zakovatiga ishonadi. Shuning uchun Navoiy ilm-fanning ahamiyatini yoritib berar ekan, ilmni qorong‘ilikni yoritadigan chiroq, hayot yolini nurafshon etadigan quyosh, odamlarning haqiqiy qiyofasini ko‘rsatadigan omil sifatida ta’riflaydi. Navoiy orzu qilgan komil inson faqat ilmli bo‘lish bilan qanoatlanib qolmasligi, balki u yana sabr-toqat, saxiylik, himmatli, to‘g‘rilik, rostgo‘ylik, tavoze', adab, ishq va vafo hamda shu singari fazilatlarga ham ega bo‘lishi lozimligini bir necha bor ta’kidlagan edi. Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida o‘zining axloqiy qarashlarini bayon qilgan. U haqiqiy insonni - sof vijdonli, pok, mehnatsevar, saxovatli, insofli, odobli, kamtar, xayoli, muruvvatli shaxs deb hisoblaydi. Bunday xislatlarni odamlarda tarkib toptirish uchun esa ularda ana shu olijanob xislatlani tarbiyalash lozim deydi. Asarda Navoiy mamlakatda tinchlik, osoyishtalik, obodonchilik bo‘lishi uchun podshoh adolatli bo‘lishi lozim, deb ta’kidlaydi, shundagina xalq ham shohga qarab insof bilan ish yuritadi, deb uqtirdi. Navoiy insonning axloqiy xislatlari, yaxshi xulq-atvor xususida to‘xtalib o‘tar ekan, avvalo har bir insoniy fazilatning ta’rifini beradi. U yaxshi fe'llarga qanoat, sabr, tavoze' va adab, ishq va vafo, saxovat, himmat, karam, muruvvat, yumshoq ko‘ngillilik (hilm) kabi xislatlarni kiritib, har birining ta’rifidan so‘ng tanbeh va hikoyatlar vositasida o‘z fikrini to‘ldiradi. Navoiy yuqorida zikr qilib o‘tilgan xislatlarga ta’rif berish bilan birga ularga qarama-qarshi bo‘lgan yomon illatlar to‘g‘risida so‘z yuritadi va ulardan qutilish yo‘llarini ham bayon qiladi. Alloma axloqlilikning eng muhim mezoni sanalgan odob haqida fikr yuritar ekan: “Adab kichik yoshdagilarni ulug‘lar duosiga sazovor etadi va u duo barokati bilan umrbod bahramand bo‘ladi. Adab kichkinalar mehrini ulug‘lar ko‘ngliga soladi va u muhabbat ko‘ngilda abadiy qoladi”. Alisher Navoiy asarlarida ilm odobi, jamiyat boshgaruv odobi, adolatli boshliq odobi masalalari yuqori o‘rinda turgan. Ta’lim jarayonida Navoiy asarlaridan foydalanish natijasida talabalarda barcha ijobiy axlogiy fazilatlar yuksaltirish mumkin. Alisher Navoiy o‘zbek ma’naviyati, madaniyati va pedagogik tafakkurining eng yuksak namoyandalaridan biridir. Uning asarlari nafaqat adabiy durdona, balki inson tarbiyasi, axloqiy komillik va ma’naviy yetuklikning mukammal dasturi sifatida qadrlanadi. Navoiy asarlarida komil inson tarbiyasi masalalari markaziy o‘rinda bo‘lib, mutafakkir tarbiyani insonni jamiyatga foydali, ma’rifatli, halol, vijdonli, adolatli qilib tarbiyalash jarayoni sifatida talqin qiladi. Navoiyning pedagogik qarashlarining asosini ilmga bo‘lgan hurmat tashkil etadi. Uning fikricha, ilm insonni jaholatdan xalos etadi, qalbni yoritadi va jamiyat taraqqiyoti uchun poydevor bo‘ladi. “Mahbub ul-qulub” asarida Navoiy: “Ilm insonga sharaf, jaholat esa uyat keltirur”, — deb ta’kidlaydi. Bu fikr bugungi zamonaviy ta’lim konsepsiyasida ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Ilmning yuksak qadrlanishi Yangi O‘zbekiston ta’lim islohotlarining ham asosiy tamoyillaridan biridir. Navoiyning pedagogik qarashlarida odob va axloq tarbiyasi alohida o‘rin tutadi. U insonning komillikka erishuvi uchun avvalo odobli, pok niyatli, to‘g‘ri so‘zli bo‘lishi zarurligini qayd etadi. Uningcha, odob — inson kamolotining mezoni, tarbiyaning eng muhim ko‘rsatkichidir. “Xamsa” dostonlarida keltirilgan ibratli hikoyatlar orqali u yoshlarni halollik, sabr, adolat, rostgo‘ylik, insof kabi fazilatlarga chorlaydi. Mutafakkirning tarbiya konsepsiyasida ustoz-shogird an’anasi alohida baholanadi. Unga ko‘ra, tarbiya jarayoni – avlodlar davomiyligini ta’minlovchi muqaddas omil bo‘lib, ustoz ma’naviy yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi, shogird esa ilm olishga intiluvchi, ma’naviy yetuklikka erishuvchi shaxsdir. Navoiyning ustozlarga bo‘lgan hurmati va ularni yuksak maqomda ko‘rsatishi bugungi pedagogik etikada ham muhim ahamiyatga ega. Yangi O‘zbekiston ta’lim-tarbiya tizimi ham Navoiyning komil inson haqidagi qarashlari bilan uzviy bog‘liq ravishda rivojlanmoqda. Bugungi ta’lim islohotlari yoshlarni intellektual, ma’naviy, axloqiy jihatdan rivojlantirishni, ularni mustaqil fikrlovchi, ijodkor, bilimli shaxs sifatida shakllantirishni maqsad qilgan. Prezident huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish agentligi tomonidan belgilangan standartlar, maktab va oliy ta’lim tizimida innovatsion metodlar joriy etilishi, “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g‘oyasi ta’lim siyosatining mazmunini belgilab bermoqda. Zamonaviy pedagogika ilmiga ko‘ra, ta’lim jarayoni — shaxsning intellektual rivoji bilan birga, uning ma’naviy va axloqiy dunyosini boyitishga qaratilgan uzviy tizimdir. Bu tamoyillar Navoiy asarlarida yuksak darajada o‘z

ifodasini topgan. Mutafakkirning har bir fikri, nasihat va ibratli misollarida bugungi barkamol avlod tarbiyasiga mos pedagogik g‘oyalar mujassamdir. Shuning uchun ham hozirgi O‘zbekistonda Navoiy merosi ta’lim dasturlariga keng tatbiq qilinmoqda. Milliy qadriyatlar bilan zamonaviy innovatsion ta’lim yondashuvlarining uyg‘unligi — bugungi pedagogikaning eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ta’lim jarayonida interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar, kompetensiya asosidagi yondashuvlar qo‘llanilayotgani bilan birga, Navoiy merosidagi ma’naviy fazilatlar, odob-axloq mezonlari va tarbiyaviy tamoyillar yoshlar qalbiga singdirilmoqda. Bu birlik komil inson tarbiyasi uchun ideal metodologik asosdir.Alisher Navoiy o‘zining bebaho adabiy va ma’rifiy merosi bilan nafaqat o‘zbek xalqi, balki butun Sharq ma’naviyati taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan mutafakkirlardan biridir. Uning inson tarbiyasiga oid qarashlari bugungi kunda ham o‘z qiymatini yo‘qotmagan bo‘lib, komil insonni shakllantirishga qaratilgan ilmiy-pedagogik konsepsiya sifatida ahamiyat kasb etadi. Navoiy o‘z asarlarida insonning kamolotga erishishi faqat tashqi ta’lim bilan emas, balki qalb tarbiyasi, axloqiy poklik, aql-idrokni charxlash, ma’naviy fazilatlarni egallash orqali amalga oshishini ta’kidlaydi. Uning fikrlariga ko‘ra, tarbiya — insonni jamiyatga nafi tegadigan, xulqi pok, ilmli, odobli va mas’uliyatli qilib yetishtirishga qaratilgan uzviy jarayondir. Mutafakkirning ta’limotida ilm-ma’rifatning o‘rni benihoya yuksak baholanadi. Navoiy ilmni shaxsning eng ulug‘ ziynati, jamiyatni rivojlantiruvchi ichki kuch sifatida talqin qilib, jaholatni insoniyatning eng katta dushmani sifatida ko‘rsatadi. Bu g‘oya zamonaviy O‘zbekiston ta’lim siyosatida ham o‘z aksini topgan bo‘lib, bugungi islohotlarning asosiy maqsadi ham yoshlarni zamonaviy bilimlarga ega, ijodkor va fikrlaydigan shaxs qilib tarbiyalashdan iborat. Ta’lim tizimining raqamlashtirilishi, yangi o‘quv dasturlarining joriy etilishi, xalqaro baholash tizimlariga mos kompetensiyaviy yondashuv — bularning barchasi Navoiy ilgari surgan ilmga intilish ruhining amaliy ko‘rinishidir.

Navoiy axloqiy fazilatlarni inson komilligining mezoni deb biladi. U halollik, sabr, to‘g‘rilik, adolat, vijdon, insof kabi fazilatlarni insonning ma’naviy qiyofasini belgilovchi asosiy sifatlar sifatida talqin qiladi. Mutafakkirning fikricha, ilmsiz axloq bo‘lmaganidek, axloqsiz ilm ham insonni haqiqiy komolotga eltmaydi. Bu fikr bugungi ta’lim tizimida ham muhim o‘rin tutadi. Xususan, maktablar va oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarning kengaytirilishi, tarbiya fanlarining yangilanishi, yoshlar bilan ma’naviy ishlarda klassik merosga tayangan holda yondashuvlar ishlab chiqilayotgani Navoiy qarashlari bilan bevosita uzviy bog‘liqdir. Global axborot makonida yoshlarning ma’naviy immunitetini mustahkamlash uchun bunday qadriyatlarning ta’siri yanada muhimdir.

Ustoz-shogird an’anasi Navoiy merosining eng ko‘p qadrlanadigan jihatlaridan biridir. Mutafakkir ustozni bilim beruvchi emas, balki shogirdning qalbiga ma’naviy yo‘l ochuvchi murabbiy, tarbiyachi sifatida tasvirlaydi. Ustozning har bir amali, har bir so‘zi shogirdning dunyoqarashiga, xulqiga, hatto hayotiy maqsadlariga bevosita ta’sir qiladi. Shuningdek, Navoiy shogirdning ustozga hurmati, unga sodiqligi, ilm olishdagi matonatini alohida tarannum qiladi. Bugungi O‘zbekiston ta’lim islohotlarida o‘qituvchilarning jamiyatdagi mavqeyini oshirish, ularga keng imkoniyatlar yaratish, malaka oshirish dasturlarini takomillashtirish kabi chora-tadbirlar aynan shu qadriyatlarning davomidir. Ta’lim sifatini oshirish, pedagoglar nufuzini yuksaltirish yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlar Navoiy ta’limotining bugungi kun bilan uyg‘unlashganini ko‘rsatadi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston ta’lim tizimi chuqur islohotlarning yangi bosqichiga kirgan bo‘lib, unda zamonaviy pedagogika tamoyillari bilan milliy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash strategik vazifa sifatida belgilangan. Interfaol ta’lim metodlari, raqamli platformalar, STEAM ta’limi, kreativ va tanqidiy fikrlashga asoslangan dars jarayonlari joriy etilayotgani bilan birga, o‘quvchilarning ma’naviy dunyosini boyitish, ularda milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usini kuchaytirish borasida Navoiy merosi muhim manba vazifasini o‘tamoqda. Yoshlarning dars jarayonida nafaqat bilim olishi, balki axloqiy, ma’naviy, vatanparvarlik fazilatlarini egallashi komil inson tarbiyasining zamonaviy talqini bo‘lib, bu yo‘nalishda Navoiyning asarlari o‘quv-tarbiyaviy jarayonning ajralmas qismiga aylanmoqda.

Umuman olganda, Alisher Navoiyning komil inson haqidagi qarashlari bugungi Yangi O‘zbekiston ta’lim tizimining ma’naviy asosini tashkil etadi. Mutafakkirning ilmga intilish, odob-axloqning ustuvorligi, ustoz-shogird munosabatlariga oid g‘oyalari zamonaviy pedagogikaning negizini boyitib, yoshlar tarbiyasiga yangi mazmun baxsh etmoqda. Navoiyning ma’rifiy merosini bugungi ta’lim-tarbiya jarayoniga chuqur tatbiq etish, yoshlarni ma’naviy yetuk, ijodkor, mustaqil fikrlaydigan, barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qilib, jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta’minlashda muhim omil bo‘lib qolaveradi.

Buyuk mutafakkir, davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiy qoldirgan ma’naviy meros nafaqat xalqimizning, balki butun insoniyatning ma’naviy mulkiga aylangan. Chunki, hazratning insonparvarlik g‘oyalari millatidan, jinsidan, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar umuminsoniyatning manfaatiga xizmat qilmoqda.

Navoiy ijodining markazida inson turadi. Allomaning nazaridagi inson ijodkor, qobiliyatli, bilimli, sabr-qanoatli, rostgo‘y adolatli, halol, insofli mehnatsevar va kamtarlik kabi insoniy fazilatlarga ega bo‘lgan shaxs.

Navoiyning fikricha, Allohning irodasi bilan tog‘u toshlar, o‘simliklar dunyosi, dengiz va okeanlar, bir so‘z bilan aytganda butun borliq yaratilgan.

Ammo hazrati inson bu mo‘jizalarning eng asosiysidir. Shu tufayli dunyodagi barcha noz-ne'matlar, yaxshi narsalar inson uchun yaratilgan. Aql-farosat sohibi bo‘lgan inson bu imkoniyatlardan oqilona foydalanishi lozim. Boshqacha aytganda, inson aql farosati, tafakkuri, muomala madaniyati, o‘zini tutishi, tevarak-atrofga bo‘lgan munosabati bilan boshqa tirik mavjudotlardan farq qiladi.

Mutafakkir "Nasoyimul muhabbat" asarida avliyolarga xos bo‘lgan 16ta sifatga, ya’ni tavba, halol luqma bilan ovgatlanish, o‘z kasbi bilan kun o‘tkazish, shariatga rioya etish, tariqat odobini saqlash, kamsuqumlik, farzandlari va xizmatkorlariga qo‘pollik qilmaslik, chuchuk tilli, rahmdil, saxiy va mard bo‘lish, ilmlilik, xushxulqlik, rozi-rizolik bilan kun kechirish, sabrli, sadoqatli va vafoli bo‘lish, riyozat chekishdan qo‘rqmaslik xislatlariga alohida e’tibor qaratgan.

Alisher Navoiy insonga hayotdagi faoliyatiga, kasbi-koriga, foydali ishlariga qarab baho bergan. Allomaning barcha asarlarida komil insonga xos sifatlar yoritib berilgan. Jumladan, odob to‘g‘risidagi fikr-mulohazalari e'tiborga loyiq. Odobli kishi ochiq yuzli, xushmuomala, istarasi issiq va yoqimli bo‘ladi. Bunday inson doimo izzat-hurmatga loyiq. Yutuq va erishilgan natijalar odob orqali kelishi, obro‘ misqollab yig‘ilishi va botmonlab to‘kilishi mumkinligi hayotning sinovidan o‘tgan haqiqatdir. Shuningdek, mutafakkirning komil insonga xos g‘oyalaridan biri qo‘li ochiqlik, saxiylikdir. "Karam - bir jabrlanganning qattiqchilik yukini ko‘tarmoq va uni o‘sha qiyinchiliklardan qutqarmoq. Karam - birovning mashaqqat tikanining og‘irlig‘ini ko‘tarmoq va u tikan uchidan gulidek ochilmoq va o‘sha qilgan ishlarni tilga keltirmaslik, og‘ziga olmaslik, kishiga minnat qilmaslik va uni yuziga solmaslikdir".

Himmatli kishilar xalqning orasida obro‘ga sazovor bo‘ladi. Alloma odamlarni insofli, saxovatli, adolatli, ahil va karomatli bo‘lishga, bir-biriga yordam berishga da’vat etadi. Mutafakkir ehsonni ulug‘lab: "Ehson degan sifatni abadiy saodat bil. Kishilik bog‘ining ko‘ngilga yoqar daraxti ehsondir. Barcha maqbul sifatlar va holatlar ehsonga qarashlidir, bu sifat va holatlarni u o‘z ichiga olgan hamda shuning o‘zida voqeadir. U barcha ezguliklarni o‘zida to‘plagan va barcha yaxshiliklar haqiqatdan unga tegishlidir

Navoiyning fikricha, yaxshilikni o‘ziga maqsad qilib olgan odamlar saxiy va himmatli bo‘ladi. "Saxiylik kishilar bog‘ining hosildor daraxtidir, balki u daraxtning shirin mevasidir, odamgarchilik o‘lkasining to‘lqinli daryosi, balki u to‘lqinli daryoning asl gavharidir".

Navoiy odamlarga saxiylikni xalqqa, davlatga faqat mol-mulk bilan emas, balki o‘zidagi aql va bilim yordamida ularga ma’naviy ko‘mak ham berishi kerakligini aytadi. Shoir saxiylik himmatli bo‘lish bilan bog‘liq ekanini uqtirib shunday deydi: "Saxiylik odamning odobidir, himmat uning joni, himmat dunyoga yuz ming kushoyish bo‘lar, himmatsiz kishi er sendek emas, jonsiz badanli kishi tirik emas"

Navoiy komil insonga xos xislatlar tavoze, ishq, vafo, saxovat himmat, muruvvat, ilm, kamtarlik kabi fazilatlar ekanini aytadi. "Qanoat - bu buloqdir, suvini olgan bilan qurimaydi, xazinadir. Naqdisi sochgan bilan kamaymaydi, ekinzordir, urug‘i lazzat va shafqat mevasini beradi; daraxtdir, shoxi tortinchoqlik va hurmat mevasini yetkazadi", deb ifodalaydi. "Sabr achchigdir, ammo u foyda beruvchi, qattigdir, ammo zararni daf etuvchi. Sabr shodliklar kalitidir va bandlarni ochqichdir. Achchiq so‘zli nasihatchiday tabiat undan olinadi, lekin zaminida maqsad hosil bo‘ladi. Badxo‘r dori beruvchi tabibday kasal undan qiynaladi, ammo so‘ngida sog‘liq yuz beradi". Alisher Navoiyning fikricha, har bir inson xalqiga xizmat qilishi va foyda keltirishi kerak. O‘z manfaatini xalq manfaatidan yuqori qo‘ymasligi lozim. Xalqqa ish, so‘z va ko‘ngil bilan ham foyda keltirish kerak. El-yurt manfaati uchun kurashadigan kishilarni haqiqiy inson desa bo‘ladi. Hazratning insonga muhabbati vatanga muhabbati bilan bog‘lanib ketgan. "Hayratul abror" dostonida shoir Hirotning tabiatini, tiniq chashmalarni tog‘u toshlarni yuksak mehr-muhabbat bilan kuylaydi.

Asarda Hirot, Misr bilan bir qatorda Samarqandning tilga olinishi bu ko‘hna kentning dunyo tamaddunida o‘z o‘rni borligiga yana bir bor ishonch uyg‘otadi, qalblarimizni quvontiradi, Vatanga bo‘lgan sadoqat tuyg‘usini oshiradi.

Alisher Navoiy ilgari surgan xalgparvarlik, insonparvarlik g‘oyalaridan bugungi kunda ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida oqilona foydalanish oldimizda turgan asosiy vazifalardan biridir. Hazratning g‘oyasida so‘z va ishning birligiga amal qilish fikri ilgari surilgan.

U o‘z mablag‘idan xalq uchun masjidlar, madrasalar, hammomlar, shifoxonalar, hovuzlar, ko‘priklar, rabotlar qurdirgani tarixiy manbalarda o‘z aksini topgan.

Bugungi asosiy vazifamiz - mutafakkirning umrboqiy g‘oyalaridan, xayrli ishlaridan ibrat olish va uni hayotimizning mazmuniga aylantirish. Bu borada muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Navoiyning

ma’naviy merosini o‘rganish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda va uning asarlari qaytadan nashr etilmoqda.

2020-yil 19-oktyabrda Prezident Sh.M.Mirziyoyevning "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida"gi qarori qabul qilingan edi. Bu qarorda mutafakkirning asarlarida teran ifoda etilgan milliy va umuminsoniy g‘oyalarning jahon tamaddunida tutgan o‘rni va bu g‘oyalarning yoshlar qalbida yuksak axloqiy fazilatlarni tarbiyalashdagi ahamiyati nazarda tutilgan. Ulug‘ shoirning adabiy-ilmiy merosini yanada chuqurroq o‘rganish va targ‘ib qilish maqsadida tegishli vazifalar belgilab berilgan. Jumladan, qarorda "Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, Maktabgacha ta’lim vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi Alisher Navoiyning asarlarini uzluksiz o‘qitish konsepsiyasini ishlab chiqishi hamda 2021-2022-o‘quv yillarida barcha ta’lim muassasalarida shu asosida o‘qitish yo‘lga qo‘yilsin", deb ta’kidlangan. Qarorda "Navoiy va yoshlar" maxsus dasturini ishlab chigish, umumta’lim maktablarida "Navoiy vorislari" g‘azalxonlik tanlovini va Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarida "Navoiyni anglash" mavzusida insholar tanlovini o‘tkazish va g‘oliblami taqdirlash vazifasi belgilab berilgan edi. Bu vazifalar tizimli ravishda amalga oshirib kelinmogda.

O‘quvchi-yoshlarda ma’naviy, axloqiy, insonparvarlik sifatlarini shakllantirishda, Navoiy merosidan foydalanishni takomillashtirish uchun quyidagilarga e'tibor qaratilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar uchun Navoiy asarlaridagi maqolot, hikoyat va rivoyatlar asosida multimediyalar tayyorlansh;
- boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladigan tasviriy san'at, musiqa darslarining - imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanilsa;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun Navoiy asarlarining lug‘lati ishlab chiqilsa;
- umumta’lim maktablarida "Navoiyning til sandig‘i" tashkil etilsa;
- oliy ta’lim muassasalarida "Navoiy pedagogikasi" maxsus kurs yoki tanlov fan sifatida o‘qitilsa;
- kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida o‘qitiladigan ijtimoiy fanlardagi mavzularga Navoiyning insonparvarlik g‘oyalari singdirilib, ular tinglovchilarga yetkazilsa;
- Navoiyning bolaligi, o‘smirligi, o‘spirinligi va katta yoshdagi hayotiy faoliyati aks etgan seriallar tayyorlanib xalqimizga tagdim etilsa;
- mutafakkirning ijodi faqat tavallud kunida yoki bayramlarda emas, yil davomida tizimli ravishda o‘rganilsa millatimizning quyoshi bo‘lgan hazrat Navoiyning ruhiyati oldidagi ma’naviy burchimizni bajargan bo‘lamiz.

Davlatimiz rahbarining 2022-yil 28-yanvarda "Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida"gi farmoni qabul qilindi.

Bu farmonda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida yettita ustuvor yo‘nalishdan iborat "Yo‘l xaritasi" ishlab chigildi.

Taraqqiyot strategiyasida "Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib etish" belgilab berilgan. "Qadr - odamning odamlar orasida, xalqning xalqlar orasida topgan hurmati, o‘rni, obro‘ e'tiborini, nufuzini bildiradi. Inson qachon xor, baxtsiz bo‘ladi? Agarda el nazaridan qolsa yoki qadr-qimmati yerga urilsa, poymol qilinsa.

Mamlakatimizda "Inson qadri ustuvor bo‘lgan jamiyat va xalqparvar davlat" g‘oyasi asosida Yangi O‘zbekistonni barpo etishning zarur, siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma’rifiy asoslari yaratildi. Bundan sal kam olti asr oldin hazrat Navoiy ilgari surgan insonparvarlik g‘oyasining taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalar bilan hamohang ekanini ko‘rish mumkin.

Bu g‘oyalar mamlakatimizning kelajagiga, xalgimizning farovon va osoyishta hayot kechirishiga, inson qadr-qimmatining ulug‘lanishiga xizmat giladi.

Navoiyning ijod bulog‘idan suv ichgan bu g‘oyalar xalgimizni va mamlakatimizni porloq cho‘qqilar sari undayveradi.

Sharq xalqlarining adabiyoti ganchalik chuqur o‘rganilsa, bu xalqlar orasidagi adabiy aloqalar ham shunchalik ravshanroq ko‘rina boradi. Adabiy aloqalarning o‘rganilishi esa dohiy san'atkorlarning, adabiy maktab vakillarining ijodiy qudratini, ta’sir doirasini aniqlash uchun to‘laroq tasavvur beradi. Bu jihatdan Navoiy merosini o‘rganish alohida ahamiyatga egadir. Navoiy merosini o‘rganish yolg‘iz o‘zbek olimlarininggina vazifasi emas. Navoiy buyuk bir adabiy maktab boshlig‘i sifatida dohiy Nizomiy kabi bir qancha xalqlarning adabiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatganligidan uning ijodini o‘rganish ham keng bir sohani tashkil etadi. Dunyo sharqshunoslari Navoiy merosini o‘zbek xalgining adabiyotini o‘rganish maqsadida tekshirsalar, sharq xalqlari tadqiqotchilari butun hayotini xalq baxt-saodatiga bag‘ishlagan bu ulug‘ san'atkorning hayoti va ijodini o‘z madaniyatlarini o‘z adabiyotlari tarixini chuqur o‘rganish, o‘zaro

mushtaraklik tomonlarini aniqlash maqsadida o‘rganishgan. Chunki Navoiy tojik, eron, hind madaniyatida buyuk bir madaniyat homiysi sifatida mashhur bo‘lsa, ozarbayjon, turkman, qozoq, tatar, turk, qoraqalpoq xalqlari adabiyotida esa o‘zining kuchli ta’siririni ko‘rsatgan. Ma’ naviyat-inson ruhiy, aqliy olamini ifodalovchi tushuncha.

Buyuk alloma, shoir Alisher Navoiy umuminsoniy tarbiya sohasida bir butun asar yaratmagan bo‘lsa ham, o‘zining bu haqidagi fikrlarini turli ilmiy va adabiy asarlarida ifodalagan. Alisher Navoiy o‘zining umuminsoniy tarbiya to‘g‘risidagi fikrlarini badiiy asarlarida barkamol inson obrazini yaratish yo‘li bilan bayon etdi.

Alisher Navoiy odamlarni axloqli va odobli bo‘lishga da’vat etadi hamda axloqni bunday ta’riflaydi: "Ahloq shaxsning og‘ir baqolig‘ libosidir va libos jismning sangin debosi. Shuning bilan birga odamni bezaydigan ham axlogdir". Alisher Navoiyning fikricha, inson uchun toj, davlat va boshgalar emas, balki eng yaxshi fazilatlar har qanday boylikdan afzaldir. Alisher Navoiy xalqqa ish bilan ham, so‘z bilan ham foyda keltirish kerakligini aytadi. U xalq manfaati uchun ishlaydigan, xalqning baxt-saodati uchun kurashadigan kishilarni haqiqiy odam deb biladi: Odami ersang demagil odami, Onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami. Xalqqa yordam berishni istamaydigan, xudbin, qora ko‘ngil odamlarni Alisher Navoiy eng yomon odam, xalqqa zarar yetkazadi deb ta’riflaydi.

El qochsa birovdin el yomoni bil oni,
Ahvolida idbor nishoni bil oni.
Fe'l ichra ulus bolam joni bil oni,
Olam elining yomoni yomon bil oni.

Insonlar bir-birlari bilan do‘st-inoq va hamjihat bo‘lib yashamas ekanlar, o‘z orzu-niyatlariga yeta olmaydilar, yakkalik, yolg‘izlik bilan hech qanday ish qilib bo‘lmaydi, shuning uchun ham u hamma insonlarni do‘st bo‘lib yashashga chorlaydi. Alisher Navoiy do‘stlikni ulug‘laydi, shu bilan birga soxta, g‘araz bilan do‘st bo‘luvchi kishilarni qoralaydi. Navoiy ilm-ma’rifatni qadrlagan va unga homiylik qilgan. Shoir insonning ma’naviy kamolotini, avvalo, uning ilm va donish sohibi bo‘la olganligida deb biladi. Ilm o‘zidan o‘zi bo‘laydi, kishi faqat havas va ishtiyoq bilangina ilmga ega bo‘la oladi, deb hisoblaydi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Alisher Navoiyning tarbiya haqidagi qarashlari chuqur mazmun va yuksak ma’naviy qadriyatlarga asoslangan bo‘lib, ular bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Mutafakkir asarlarida ilgari surilgan komil inson g‘oyasi, axloqiy poklik, ilmga intilish, halollik va mehr-shafqat kabi fazilatlar zamonaviy ta’lim tizimining asosiy maqsad va vazifalari bilan uyg‘unlashadi.

Shuningdek, Navoiy merosida aks etgan pedagogik qarashlar yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Uning g‘oyalari nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy tarbiya jarayonida ham samarali qo‘llanish imkoniyatiga ega. Ayniqsa, ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalarida Navoiy merosidan foydalanish yoshlarning ongida milliy qadriyatlarga hurmat, Vatanga sadoqat va insoniylik tuyg‘ularini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning tarbiya haqidagi qarashlarini chuqur o‘rganish va ularni zamonaviy ta’lim tizimiga tatbiq etish bugungi kun pedagogikasining dolzarb vazifalaridan biridir. Bu esa barkamol, mustaqil fikrlovchi va yuksak ma’naviyatli shaxsni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. O.Sharafiddinov. Alisher Navoiy. Kitobda: Tanlangan asarlar.-T.: Fan, 1978:
2. Y. G‘ulomov. Alisher Navoiyning davrini o‘rganish hagida. Kitobda: "Ulug‘ o‘zbek shoiri". -T.:1948;
3. Bertels E.E. Navoiy. Opit tvorcheskoy biografii. -M,L.: 1948;
4. Oybek. Navoiyning tarjimayi holi. Kitobda: "Navoiy gulshani". -T.:1967;
5. S.G‘anieva. Alisher Navoiy. -T.:1968;
6. V.Abdullaev. Navoiy Samargandda. -T.: 1968;
7. Izzat Sulton. Navoiyning qalb daftari. -T.: G‘. G‘ulom nomidagi badily adabiyot nashriyoti, 1969;
8. V. Zohidov. Ulug shoir ijodining qalbi. -T.: O‘zbekiston, 1970;
9. A.Qayumov. Alisher Navoiy (ajoyib kishilar hayoti). -T.:1976;
10. S.Ayniy. Tanlangan ilmiy asarlar. - T.: Fan, 1978;
11. Fitrat. Navoyining forsiy shoirlig‘i va fors tilidagi asarlari to‘g‘risida. 12.Tanlangan asarlar. 2-jild. -1.: 2000;
12. M.Shayxzoda. G‘azal mulkining sultoni. Asarlar. Olti tomlik. T.4. -T.:1972;

13. Hamid Sulaymon. Alisher Navoiyning fors tilidagi poetik merosi tadqiqotidan. "O‘zbek tili va adabiyoti" jurn. 1965, Nº 5;
14. A.Rustamov. Navoiyning badiiy mahorati. -T.: 1979;
15. A.Hayitmetov. Navoiy lirikasi. -T.: 1961;
16. Yo.Ishoqov. Navoiy poetikasi. — T.:1984;
17. M.Hakimov. Navoiy asarlari qo lyozmalarining tavsifi. - T.: 1983).
18. B. Akrom. Fasohat mulkining sohibqironi. -T.:1991;
19. Z.Hamidov. Navoiy badiiy san' atlari. — T.: Universitet, 2001;
20. N.Bozorova. Alisher Navoiy g‘azallarida ko‘ngil obrazi. -T.: 2002; "Insoniyat hagida Navoiyning fikri. — T.: 1919;
21. Fitrat. "Farhodu Shirin" dostoni to‘g‘risida. Tanlangan asarlar. 2-jild. -T.: 2000;
22. T.Jalolov. "Xamsa" talqinlari. -T.: 1962;
23. S.Erkinov. Alisher Navoiyning "Farhodu Shirin"i va uning qiyosiy tahlili. — T.: Fan, 1971;
24. A.Qayumov. "Xayratul-abror" talqinlari. - T.: 1972;

JADIDLAR: MILLAT TAFAKKURINI UYG’OTGAN AVLOD

Turdiyeva Nigora Saidovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti
Maktabgacha va boshlang’ich ta’lim pedagogikasi
kafedrasi dotsenti, p.f.f.d (PhD)

Mazkur maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda yuzaga kelgan jadidchilik harakati va uning milliy uyg‘onishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Jadidlar faoliyati ta’lim islohotlari, matbuot, adabiyot, teatr va siyosiy harakatlar orqali millat tafakkurini uyg‘otishga qaratilgan. Shuningdek, jadidlar merosining bugungi zamon milliy taraqqiyot va davlatchilik g‘oyalari bilan uyg‘unligi ilmiy jihatdan ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *jadidchilik, ma’rifatparvarlik, milliy uyg‘onish, ta’lim islohotlari, teatr, matbuot, davlatchilik, Turkiston.*

ДЖАДИДЫ: ПОКОЛЕНИЕ, ПРОБУДИВШЕЕ НАЦИОНАЛЬНОЕ СОЗНАНИЕ

В данной статье анализируется джадидское движение, возникшее в Туркестане в конце XIX — начале XX века, а также его роль в процессе национального пробуждения. Деятельность джадидов была направлена на пробуждение национального сознания посредством реформ в сфере образования, развития печати, литературы, театра и политических инициатив. Кроме того, с научной точки зрения рассматривается соотнесённость наследия джадидов с современными идеями национального развития и государственности.

Ключевые слова: *джадидизм, просветительство, национальное пробуждение, образовательные реформы, театр, печать, государственность, Туркестан.*

JADIDS: THE GENERATION THAT AWAKENED NATIONAL CONSCIOUSNESS

This article analyzes the Jadid movement that emerged in Turkestan in the late 19th and early 20th centuries, as well as its significance in the process of national awakening. The activities of the Jadids were aimed at awakening national consciousness through educational reforms, as well as the development of the press, literature, theater, and political movements. Furthermore, the study examines, from a scholarly perspective, the relevance of Jadid heritage to contemporary ideas of national development and statehood.

Keywords: *Jadidism, enlightenment, national awakening, educational reforms, theater, press, statehood, Turkestan.*

Kirish. Jadidchilik (arabcha *jadid* – yangi) — XIX asr oxiri va XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim va Tataristonda rivojlangan ijtimoiy-siyosiy va ma’rifiy harakat bo‘lib, dastlab madaniyat sohasida faoliyat yuritgan. U taraqqiyot, turkiy tillarni rivojlantirish, adabiyot va dunyoviy ilmlarni o‘rganish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligini targ‘ib qilgan.

Harakat qadimiy Turon va Turkistonning chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishiga, mustamlakachilik zulmiga qarshi xalqning ozodlik va mustaqillik kurashlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida yuzaga kelgan. Turkiston ziyolilari milliy ongni oshirishni xalqning najot va istiqboli kaliti deb bilgan.

Birinchidan, ma’rifatni oshirmay, xalqning milliy ongini kuchaytirmay va uni g‘aflat uyqusidan uyg‘otmasdan mustaqillik va ozodlikka erishib bo‘lmasligini mintaqa ziyolilari yaxshi tushungan. Shu sababli, Vatan va xalqning kelajagi haqida qayg‘uradigan fidoiy yoshlar, xalqni kuchli va bir kuch sifatida oyoqqa turg‘azishni ilmu-ma’rifatdan boshlashga qaror qilganlar. Bu – ma’rifatparvarlik harakatining asosiy ijtimoiy-siyosiy sababi edi.

Ikkinchidan, chor hukumati o‘lkamizni egallagach, mahalliy aholini madaniyati, urf-odatlari, tarixiy merosi va milliy qadriyatlaridan mahrum etishga, ularning ma’naviy rivojlanishini cheklashga harakat qilgan.

Chor hukumati Turkistonni faqat iqtisodiy va siyosiy jihatdan emas, balki madaniy-ma’naviy jihatdan ham zaif va qaram holatda ushlab turishga intilgan. Shu maqsadda u o‘lkamiz xalqlari orasida jaholat, xurofot va bid’atni keng yoyib, ma’naviy va siyosiy qaramlikni mustahkamlashga harakat qilgan. Bosqinchilar Turkiston xalqining ma’rifat yo‘liga kirib, o‘z huquqlarini anglash va milliy ongini

oshirishiga kuch bilan qarshilik ko‘rsatgan. Buning yaqqol isboti sifatida general-gubernator Kuropatkinning “Biz tub, yerli xalqni taraqqiyotdan, maktabdan va rus madaniyatidan 50 yil orqada qoldirdik” degan so‘zlari yetarli.

Shu sharoitda, Turkistonda chor hukumatining mustamlakachilik siyosatiga qarshi ravishda ma’rifatparvarlik – jadidchilik harakati yuzaga keldi. Bu harakat vakillarining ijtimoiy-siyosiy, falsafiy va ma’naviy-axloqiy g‘oyalari murakkab tarixiy vaziyatda shakllanib, rivojlandi.

Mustaqillikka erishish uchun xalqning madaniy darajasini oshirish va uni yangi madaniyat va ma’rifatga chorlash jadidchilik harakatining asosiy maqsadi edi. Ular Yevropa madaniyati, fan-texnika yutuqlari bilan tanishtirib, bilimli va ma’naviyatli millat kuchini tushungan.

Ma’rifatchilikdan jadidchilik shakllanib, yangi maktablar, ta’lim-tarbiya, madaniy targ‘ibot va tashkilotchilik masalalari asosiy o‘ringa ko‘tarildi. Qoloqlik va konservatizmga qarshi kurashish, milliy g‘urur va tarixiy ongni kuchaytirish harakatning tamoyillari bo‘ldi. Shu bilan birga, jadidlar Turkiston xalqlarini mustaqillikka erishishda birlashtirishga alohida e’tibor qaratgan.

Jadidlar millat so‘zini xalq ma’nosida ishlatib, mustamlakachilik zulmi ostidagi odamlarni ma’rifat va bilimga chorlaganlar. Ular milliy ruh, e’tiqod, an’analar va hamjihatlikni mustahkamlash orqali erkin va mustaqil yashash zarurligini ta’kidlaganlar. Behbudiyning fikricha, din va millatni birlashtirib, ziyolilar va ulamolar birlashsa, xalq boshqalarga qaram bo‘lmaydi. Jadidlar taraqqiyotga tinch yo‘l va parlament orqali erishish tarafdori bo‘lgan, ularning asarlari millat va Vatan ozodligi tuyg‘ulari bilan boyitilgan.

Ma’rifatparvarlarning asosiy maqsadi xalqni bilimli qilish, g’aflatdan uyg’otish, jaholatdan saqlash va zamon hamda dunyo voqealari bilan tanishtirish orqali milliy mustaqillikka erishish edi. Jadidlik harakatini Maxmudxo’ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho’lpon, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Cho’pon, So’fizoda, Xamza, Sadriddin Ayniy, Tavallo kabi shoirlar, adiblar va davlat arboblari boshqargan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar qori, Abdulla Avloniyning yangi usul maktablarini tashkil etishdagi ma’rifatparvarlik xizmatlari жуда beqiyos.

Mahmudxo‘ja Behbudiy adabiyot, tarix fanlari qatori siyosatshunoslik bilan ham jiddiy shug‘ullandi. Gazeta va jurnallar orqali jahonda sodir bo‘layotgan siyosiy voqealar bilan yaqindan tanishib bordi. U Makkaga borish maqsadida arab tilini o‘rganib islom tarixi va nazariyasini bilan shug‘ullandi. U 1899-yilda hajga bordi va muftiy unvoniga ega bo‘lib qaytdi. Haj bahonasida Misr va Istanbul shaharlarida bo‘ldi. Bu yerda davom etayotgan islohotlar so‘zsiz uning dunyoqarashida burilish yasadi. So‘ngra Qozon va Ufa shaharlarida bo‘lib, Yevropa madaniyati bilan ham qiziqdi. O‘sha davrda Qozon va Orenburgda chiqadigan arab imlosidagi jurnal va gazetalar bilan hamkorlik qildi. Uning qator maqolalari ham mazkur nashrlarda chiqa boshladi. Maktab, maorif va madaniyat masalalari hamda ma’rifatparvarlik g‘oyalarining targ‘iboti ushbu maqolalarning markazida turdi.

Xususan, qrim tatar allomasi Ismoil Gaspirali (Gasperinskiy) va u bosh muharrir bo‘lgan “Tarjumon” gazetasi M.Behbudiyni buyuk ma’rifatchi va o‘zbek milliy jadidchilik yo‘nalishining otasi darajasiga ko‘tardi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy adabiyot va tarix fanlari bilan birga siyosatshunoslik bilan ham jiddiy shug‘ullandi. Gazeta va jurnallar orqali dunyoda sodir bo‘layotgan siyosiy voqealar bilan yaqindan tanishdi. Haj maqsadida arab tilini o‘rgandi, islom tarixi va nazariyasi bilan shug‘ullandi, 1899-yilda hajga borib muftiy unvoniga ega bo‘ldi. Haj bahonasida Misr va Istanbul shaharlarida bo‘lib, u yerda davom etayotgan islohotlar dunyoqarashida burilish yasadi. Keyin Qozon va Ufa shaharlarida bo‘lib, Yevropa madaniyati bilan qiziqdi, o‘sha davrda Qozon va Orenburgda chiqadigan arab imlosidagi jurnal va gazetalar bilan hamkorlik qildi. Uning maqolalari maktab, maorif, madaniyat va ma’rifatparvarlik g‘oyalarini targ‘ib qilishga xizmat qildi. Xususan, qrim tatar allomasi Ismoil Gaspirali va u bosh muharrir bo‘lgan “Tarjumon” gazetasi Behbudiyni o‘zbek milliy jadidchilik yo‘nalishining otasi darajasiga ko‘tardi.

1914-yilda Behbudiy Turkiya va Misrga borib, muhim kitoblar va o‘quv qo‘llanmalarini olib keladi, yangi usul maktab dasturi ustida ishlashni boshlaydi. Turli to‘siqlarga uchrab “jadidlar rahnamosi” deb e’lon qilinsa-da, u Ismoil Gaspiralining ma’rifatchilik ta’limotini qo‘llab-quvvatlab, o‘z o‘lkasida amalga oshirishga kirishadi va tez orada hurmat qozonadi. 1919-yil 25-martda Shahrisabzda qo‘lga olinib, Qarshida Said Olimxon farmoni bilan qatl qilinadi; bu voqea 1920-yil aprelida butun Turkistonni motamga soldi. Sadriddin Ayniy ta’rificha, Behbudiy 20 yil davomida xalqni erkin hayot va ma’rifatga chorlagan.

Behbudiy publitsist sifatida 1912-1913 yillarda Samarqandda “Samarqand” gazetasi va “Oyna” jurnalini tashkil qilgan, o‘zbek va fors tojik tillarida 200 dan ortiq maqola va asarlar yaratgan. U “Risolai asbobi savod” (1904), “Risolai jug‘rofiyai umroniy” (1905), “Kitob-ul-atfol” (1904), “Muxtarasi tarixi islom” (1904) kabi darslik va kitoblarni yozgan.

Behbudiy ta’lim-tarbiya targ‘ibotchisi sifatida “Padarkush” dramasini yaratib, yoshlarni ilmli va madaniyatli bo‘lishga chaqirgan. Asarda ta’lim-tarbiyaning bosh maskani oila ekanligi va fuqarolarning ma’naviy dunyosini boyitish zarurligi ta’kidlangan.

Uning xizmatlari yuksak e’tirof etilib, Qarshi shahri 1926-1937 yillarda Behbudiy nomi bilan atalgan, 1977-yilda “Saylanma” asarlari chop etilgan, maktab va ko‘chalar uning nomi bilan atalgan, 2006-yilda Samarqandda yodgorlik o‘rnatilgan, Tojikistonda Xo‘janddagi gimnaziya ham Behbudiy nomi bilan ataladi. Hozirgi kunda uning adabiy, madaniy va ma’rifiy merosi xalqning istiqloliga xizmat qilmoqda.

Munavvar Qorining “Adibi avval” kitobi 4 qismdan iborat bo‘lib, arabcha harflarni talaffuz va yozish qulayligiga qarab tartiblagan. Jami 105 raqamli matnlardan 75–88 raqamlari kundalik hayotga, 88–97 raqamlari esa axloqiy va ma’naviy mavzularga bag‘ishlangan. Kitob tarbiya, ta’lim mazmuni va o‘quv fanlarini tushuntiradi.

“Adibi Soniy” (“Ikkinchi muallim”) esa barcha hikoyalar bir muallif tomonidan yozilgan bo‘lib, mehnat, axloq va ta’limni shariat bilan bog‘lab tushuntiradi. 1911-yilda chop etilgan kitob 33 matndan iborat bo‘lib, xalq og‘zaki ijodidan foydalangan.

Kitobning afzalligi – har bir dars uchun uslubiy ko‘rsatmalar berilishi va mavzuga mos chizmalar bilan bezatilganligi, bu o‘quvchilarning bilimini tezroq va samaraliroq o‘zlashtirishini ta’minlagan.

Munavvar Qori “Adibi Soniy” darsligini “Usuli Savtiya Tadrijiya” asosida tuzib, o‘quvchilarning yosh va aqliy xususiyatlarini hisobga olib, oddiydan murakkabga o‘tish tamoyilini qo‘lladi. U 1908 yilda 3–4-sinf uchun “Yer yuzi” (Geografiya) darsligini yaratib, arab, fors va rus tillaridagi atamalarni o‘zbekcha so‘zlar bilan almashtirdi. Darslik 1929 yilgacha maktablarda asosiy kitob sifatida ishlatilgan.

Munavvar Qori “Geografiya” darsligida suv, hayvonot va o‘simlik dunyosi hamda tabiat boyliklari haqida muhim ma’lumotlarni berdi, bolalarda tabiatga ehtiyotkorlik va ekologik bilimlarni shakllantirdi. Bugungi kunda ham kitobning o‘zbekcha atamalari dolzarbligini yo‘qotmagan.

1908 yilda yozilgan “Havoyiji diniya” darsligi esa 3–4-sinf o‘quvchilariga diniy qoidalarni o‘rgatishga mo‘ljallangan bo‘lib, arab alifbosida, tushunarli tilda va ikki qismdan iborat (89 bet) shaklda nashr etilgan.

“Shariati islomiya” kitobining ikkinchi qismida yoshlar uchun shariatning axloqiy qoidalari bayon qilingan bo‘lib, ularning ahamiyati hanuzgacha saqlanib qolgan. Darslik islom qadriyatlarini tiklash va o‘quvchilarning tarbiyasida keng foydalanishga xizmat qiladi.

Munavvar Qori o‘quvchilardan nafaqat kuch-g‘ayrat, balki fikrlash qobiliyati va intilishlarini rivojlantirishni talab qilgan. Uning pedagogik tamoyillari jadidchilik davrida muhim bo‘lgani kabi, bugungi kunda ham dolzarbdir.

Abdulla Avloniyning pedagogik g’oyalari yangi usul maktablarini tashkil etishda katta rol o‘ynadi, u ta’lim-tarbiyaga innovatsion yondashuvlarni joriy qilib, o‘quvchilarda milliy ong va ma’rifat ruhini shakllantirishga xizmat qildi. 1904 yildan boshlab uning ijodiy faoliyatida keskin o’zgarishlar vujudga keldi. У Mirobod mahallasida yangi usul maktabini ochadi, maktabda o’quvchilar jamoasini tuzib, sinf - dars tartibini joriy etadi. Bolalarning savodini tezda chiqarishga harakat qilib, jug’rofiya, tarix, adabiyot, til, hisob, handasa, hikmat (fizika) kabi fanlardan ma’lumotlar beradi, bilimlarini aniqlash maqsadida imtihon joriy etadi.

Abdulla Avloniy bolalarning sinfiy ongini rivojlantirish maqsadida yangi usuli jadid maktablari uchun bir qator darsliklar yaratdi, jumladan: “Muallimi Avval” (1911), “Muallimi Soniy” (1912), “Turkiy Guliston yoxud Axloq” (1913), “Adabiyot yoxud Milliy She’rlar” (1909–1917), “Maktab Guliston” (1915).

1907-yilda u “Shuhrat” (“Osiyo”) gazetasini tashkil qilib, xalq manfaatlarini targ‘ib qildi. 1895-yildan ijodiy faoliyatini boshlagan Avloniy she’r, hikoya, fel’eton va dramatik asarlar yaratib, jaholat va bilimsizlikni tanqid qildi.

1913-yilda Yevropa usulidagi ”Turon” teatr truppasini tashkil etdi. Uning barcha asarlarida inson tarbiyasi, axloqiy go‘zallik va ma’naviy boylik targ‘ib qilindi.

Adib “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida “Tarbiya – «Pedagogiya», ya’ni bola tarbiyasining fani demakdur. Ilmi axloqning asosi tarbiya. Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtidan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o‘rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o‘sdurmakdur. Tarbiya qilguvchilar tabib kabidurlar, deb ta’riflaydi. Tarbiyani - tarbiyaning zamoni, badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi, axloq tarbiyasiga ajratadi.

“Yaxshi xulqlar” (31 fazilat) va “Yomon xulqlar” (20 illat) kabi qismlarga bo‘ladi. Xulq esa kishida o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Ularning shakllanishi uchun ma’lum sharoit va tarbiya kerak. Kishilar tug‘ilishidan yomon bo‘lib tug‘ilmaydilar, ularni muayyan sharoit yomon qiladi. Har bir millatning rivojlanishi, qudratli bo‘lishi avlodlar tarbiyasiga bog‘liqdir. Vatan dardi bilan yashamoq, uning baxtidan quvonmoq, u bilan faxrlanmoq kerak. Uni qadrlash, e'zozlash, shodlik va quvonchiga sherik

bo‘lish, g‘amlarini baham ko‘rish-farzandning muqaddas burchidir. Tilga, madaniyatga muhabbat har bir kishining xalqiga bo‘lgan muhabbatidir. Avloniyning uqtirishicha, bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurg‘on oyinayi hayoti til va adabiyotidur.

Fikr tarbiyasi. Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko‘p zamonlardan beri taqdir qilinub kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, g‘ayratli bo‘lishiga sabab bo‘ladur. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so‘ng daraja muhtojdurki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog‘lidur. Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo‘lsa ham, ikkisi bir-biridan oyilmaydurgan, birining vujudi birig boylangan jon ila tan kabidur.

Avloniy 1927 yilda “Mehnat qahramoni unvoni bilan taqdirlandi. 1930 yilda unga “O‘zbekiston xalq maorifi zarbdori” faxriy unvoni berildi.

Abdurauf Fitrat (taxallusi; asl ism-sharifi Abdurauf Abdurahim o‘g‘li) (1886, Buxoro - 1938 yil 4 oktabr, Toshkent) - yozuvchi, tarixchi, adabiyotshunos, tilshunos, san’atshunos va siyosatshunos olim, davlat va jamoat arbobi. Birinchi o‘zbek professori (1926). Mir Arab madrasasida tahsil ko‘rgan. 1902-03 yillarda haj safari. 1906—08 yillarda Moskva, Peterburg singari shaharlarda bo‘lgan. 1909—13 yillarda Istanbulda yashagan. Fitrat o‘sha vaqtda Turkiyada kuchaygan Yosh turklar harakati ta’sirida Turkiyadagi buxorolik yoshlar yordamida «Buxoro ta’limi maorif jamiyati»ni tuzadi. Jamiyat Buxoro va Turkiston maorifining olg‘a siljishiga doir muhim ishlarni amalga oshiradi. 1909 yili Istanbulda uning fors tilida yozgan “Munozara”, “Sayha” (“Na’ra”) she’riy majmuasi, 1912 yili esa “Sayyohi hindi” asarlari nashr etilgan. 1915 yildan esa Yosh buxoroliklar harakatining so‘l qanotiga boshchilik qildi. 1917 yil fevral voqealaridan keyin jadidlarning Buxoro amirligidagi ahvoli murakkablashgach, Fitrat Samarqandga ko‘chadi, 1917-18 yillarda “Hurriyat” gazetasida muharrir bo‘lib ishladi. Shu yillarda “Ittixodi taraqqiy” tashkiloti Eski Buxoro bo‘limining raisi, 1919—20 yillarda Afg‘onistonning Toshkentdagi vakolatxonasida tarjimon, “Chig‘atoy gurungi” ma’rifiy-adabiy uyushmasini, shuningdek, «Tong» jurnalini tashkil etib, yosh ziyolilar avlodini millatparvarlik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga kirishib, jurnalining shiorini “Miya o‘zgarmaguncha boshqa o‘zgarishlar negiz tutmas!” deb nomlagan. Fitratning ma’rifiy-pedagogik qarashlarini shakllantirishda Islom dini namoyandalari katta rol o‘ynadi. U Al-Buxoriy, at-Termiziy, Ahmad Yassaviy va Bahauddin Naqshbandiyning asarlarini o‘rgandi. U ilgari surgan axloqiy talablar ko‘p jihatdan diniy ta'limotlarga asoslangan edi. U ta’lim va tarbiyaning birligi, aqliy rivojlanish nazariyasi, har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalash kabi g‘oyalarini ishlab chiqdi.

Fitrat Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hajib, Ahmad Yugnakiy, Abdurahmon Jomiy, Firdavsiy, Sa’diy, Bedil, Umar Xayyom, Navoiy va Boburlar ijodini o‘rgangan va qadrlagan, Amir Temurni xalqning faxri deb hisoblagan. . O‘tmish merosini chuqur va puxta o'rganish Fitratga vatanparvarlik tushunchasiga millatning rivojlanishi va farovonligi uchun shart-sharoit sifatida qarashlarini rivojlantirishga imkon berdi.

Fitratning fikricha, vatanparvarlik quyidalarga asoslanadi:

1. Vatanga muhabbat, uni himoya qilishga tayyorlik.
2. O‘z xalqi bilan faxrlanish, o‘z taqdirini uning taqdiri bilan bog'lash istagi.
3. O‘z mamlakatining quvonchli va qayg'uli voqealarida faol ishtirok etish.
4. Vatanni butun dunyoga tanitgan arboblar va qahramonlarni ulug‘lash.
5. O‘tmishning madaniy, ilmiy, adabiy va diniy merosini hurmat qilish va ularni chuqur o‘rganish.

Fitrat xalq ma’rifati sohasidagi faoliyatini quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirdi:

Ma’rifiy g‘oyalar:

- xalqni o‘qishga chaqirdi, bu haqda ilk asarlari “Munozara”, “Hind sayyohi”da yozgan;
- Buxoro shahridagi maktablarda o‘qituvchi bo‘lib, yangi usul maktablarining o‘quv-tarbiya jarayonini takomillashtirishda, darslik va qo‘llanmalar yaratishda ishtirok etdi;
- o‘qituvchining jamiyatdagi rolini ta’kidladi, o‘qituvchilik kasbini hurmat qilishga chaqirdi;
- ma’rifat rolini gazeta va jurnallar orqali targ‘ib qildi, Turkistonning "Sadoi Turkiston", “Oyna”, “Alanga”, “Buxoroi sharif”, “Turon”, ”araqqiy”, ”urshid”, “Hurriyat” gazetalari va jurnallarini chop etishda faol ishtirok etdi.
- o‘tmishdagi adabiy va madaniy meros bo‘yicha materiallar to‘plab, ularni o‘rganishni tizimlashtirildi; xalq og‘zaki ijodini o‘rganish uchun “Chig‘atoy gurungi” adabiyotchilar ittifoqini tuzdi;
- turli ta’lim muassasalarida faoliyat yuritdi, o‘qituvchi va olimlar tayyorlashda ishtirok etdi;

Madaniy-ma’rifiy faoliyati:

- Buxoroda teatr tashkil etish va ochishda ishtirok etgan;
- o‘z vatani uchun milliy kadrlar tayyorlashga rahbarlik qilgan - Buxoro xalq respublikasi maorif vaziri (1921-1923) bo‘lib, mahalliy millatdagi o‘g‘il va qizlarni chet elga o‘qishga yuborgan.

Fitrat maktabni xalq o‘rtasida bilim va madaniyatni tarqatishning asosiy bo‘g‘ini va muhim vositasi deb hisoblagan. U an’anaviy Buxoro maktab va madrasalarini tanqid qilib, ularda qo‘llanilayotgan ta’lim usullarining qoloqligini ta’kidladi.

Shu bilan birga, u yangi usul maktablarida ta’lim-tarbiya ishlarini tashkil etish tarafdori bo‘ldi. Shuningdek, uning rahbarligida Buxoro (1908 y.), Shahrisabz, Kesh (1913-1914) va boshqa shaharlarda maktablar ochildi.

Ushbu maktablarda bolalar qisqa muddatda savod chiqarishardi. Darslarda kartalar, globuslar va boshqa ko‘rgazmali qurollardan foydalanilardi. Ta’lim 4-6 yil davom etardi. Ulardan tashqari, matematika, geometriya, ona tili, geografiya, tarix, tabiiy ta’lim fanlar kiritildi.

Xulosa. Jadidlar — millat tafakkurini uyg‘otgan avlod, millatning ma’naviy-intellektual avangardidir. Ular:

1. Millatni ilm va ma’rifat orqali uyg‘otdilar.
2. Milliy o‘zlikni asrab-avayladilar.
3. Erkin fikr va ijtimoiy faollikni targ‘ib qildilar.
4. Milliy davlatchilik g‘oyasini ilgari surdilar.

Jadidchilik harakati milliy tarixda muhim burilish bo‘lib, bugungi O‘zbekiston taraqqiyoti uchun ham ilmiy va ma’naviy asosni ta’minlaydi.

Shu bilan, jadidlar merosi avlodlar uchun faqat tarixiy xotira emas, balki ma’naviy yo‘l-yo‘riq hamdir. Ular boshlagan ma’naviy uyg‘onish bugun ham davom etmoqda.

Adabiyotlar:

1. G‘aspirali I. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2006. – 320 b.
2. Behbudiy M. Asarlar to‘plami. – Toshkent: Fan, 1999. – 280 b.
3. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 144 b.
4. Fitrat A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2010. – 400 b.
5. Munavvarqori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2003. – 256 b.

OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARIDA VATANGA SADOQAT TUYG‘USINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI

Baboyev A’lomirza To‘lamirzayevich,
Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalari talabalarida Vatanga sadoqat tuyg‘usini rivojlantirishning mazmuni ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Vatanga sadoqat tuyg‘usi talabaning ma’naviy-axloqiy kamoloti, milliy o‘zlikni anglash, fuqarolik mas’uliyati hamda ijtimoiy-kasbiy faolligi bilan uzviy bog‘liq fundamental qadriyatlardan biri sifatida tavsiflanadi. Maqolada Vatanga sadoqat tuyg‘usini rivojlantirish mazmunining tarkibiy qismlari – kognitiv, qadriyatli-motivatsion, hissiy-irodaviy va xulq-atvor komponentlari, ularning o‘zaro aloqadorligi, oliy ta’lim sharoitida amalga oshirish bosqichlari va pedagogik shart-sharoitlari yoritiladi. Shuningdek, talabalarda vatanparvarlik ongini shakllantirishning samarali metod, vosita va shakllari, milliy g‘oya, ma’naviy-ma’rifiy meros, fuqarolik va huquqiy ong, raqamli savodxonlik bilan uyg‘unlikda tashkil etilishi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarining ma’naviy-tarbiyaviy ishlarini takomillashtirishga, talabalarning vatanparvarlik ongi va ijtimoiy-fuqarolik faolligini oshirishga xizmat qiluvchi amaliy tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: *oliy ta’lim, talaba, Vatanga sadoqat, vatanparvarlik tarbiyasi, milliy qadriyatlar, ma’naviy-axloqiy kamolot, fuqarolik ongi, milliy g‘oya, pedagogik shart-sharoitlar, tarbiya mazmuni.*

THE CONTENT OF DEVELOPING A SENSE OF PATRIOTISM AMONG STUDENTS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

This article provides a scientific and pedagogical analysis of the content of developing a sense of loyalty to the Motherland among students of higher education institutions. The sense of loyalty to the Motherland is described as one of the fundamental values of a student’s personality, organically connected with spiritual and moral development, national self-awareness, civic responsibility, and socio-professional activity. The article highlights the structural components of the content of developing loyalty to the Motherland – cognitive, value-motivational, emotional-volitional and behavioral components – their interrelations, the stages and pedagogical conditions of their implementation in the higher education environment. It also analyzes effective methods, means and forms of forming patriotic consciousness in students, organized in unity with the national idea, spiritual and educational heritage, civic and legal awareness, and digital literacy. The results of the research include practical recommendations aimed at improving the spiritual and educational work of higher education institutions and enhancing students’ patriotic consciousness and civic-social activity.

Keywords: *higher education, student, loyalty to the Motherland, patriotic education, national values, spiritual and moral development, civic consciousness, national idea, pedagogical conditions, content of education.*

СОДЕРЖАНИЕ РАЗВИТИЯ ЧУВСТВА ПРЕДАННОСТИ РОДИНЕ У СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

В данной статье научно-педагогически анализируется содержание развития чувства преданности Родине у студентов высших образовательных учреждений. Чувство преданности Родине рассматривается как одна из фундаментальных ценностей личности студента, органически связанная с духовно-нравственным становлением, национальным самосознанием, гражданской ответственностью и социально-профессиональной активностью. В статье освещаются структурные компоненты содержания развития преданности Родине – когнитивный, ценностно-мотивационный, эмоционально-волевой и поведенческий, их взаимосвязь, этапы и педагогические условия реализации в условиях высшего образования. Также анализируются эффективные методы, средства и формы формирования патриотического сознания студентов, организованные в единстве с национальной идеей, духовно-просветительским наследием, гражданско-правовым сознанием и цифровой грамотностью. Результаты исследования включают практические рекомендации, направленные на совершенствование духовно-воспитательной работы вузов и повышение патриотического сознания и гражданско-социальной активности студентов.

Ключевые слова: *высшее образование, студент, преданность Родине, патриотическое воспитание, национальные ценности, духовно-нравственное становление, гражданское сознание, национальная идея, педагогические условия, содержание воспитания.*

Kirish. Vatanga sadoqat tuyg‘usi insonning o‘z xalqi, yurti, tili, tarixi va ma’naviy merosiga bo‘lgan chuqur muhabbati, mas’uliyati va burch hissi asosida shakllanadigan oliy ijtimoiy-ma’naviy fazilatdir. Bu tuyg‘u jamiyat barqarorligi, davlat mustaqilligi, milliy taraqqiyot va ijtimoiy hamjihatlikning ma’naviy poydevorlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalari talabalari – mamlakatning kelajakdagi yetakchi mutaxassislari, ilmiy-ijodiy salohiyat sohiblari va fuqarolik faolligining tashuvchilari sifatida – Vatanga sadoqat tuyg‘usi yuksak darajada rivojlangan shaxslar bo‘lib shakllanishi davlat va jamiyat manfaatlariga to‘la mos keladi.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy islohotlar, “O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha bo‘lgan davrda ta’lim sohasini rivojlantirish konsepsiyasi”, “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” hamda “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi” oliy ta’lim tizimi oldiga talabalarni nafaqat kasbiy, balki vatanparvarlik, fuqarolik va ma’naviy-axloqiy jihatdan ham yuksak shaxslar etib tarbiyalash vazifasini qo‘ymoqda. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, har bir yoshning qalbida Vatan tuyg‘usi mustahkam o‘rin egallashi, milliy g‘urur va o‘zlikni anglash hissi bilan boyitilishi mamlakat kelajagining mustahkam tayanchidir.

Talabalarda Vatanga sadoqat tuyg‘usini rivojlantirish jarayonida uning *mazmuni* alohida ahamiyat kasb etadi. Mazmun – tarbiya jarayonining metodologik o‘zagi bo‘lib, u nimaga o‘rgatish, qaysi qadriyatlarni shakllantirish va qanday ma’naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirish kerakligini belgilab beradi. Vatanga sadoqat tuyg‘usini rivojlantirish mazmunini ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan asoslash, uning tarkibiy qismlarini aniqlash va oliy ta’lim sharoitida tatbiq etishning samarali metodlarini ishlab chiqish zamonaviy pedagogikaning dolzarb vazifalaridan biridir.

Hozirgi globallashuv, axborot oqimining kuchayishi, raqamli muhitning kengayishi va turli mafkuraviy ta’sirlar sharoitida talabalarning ongi va dunyoqarashi kuchli tashqi omillar ta’siri ostida shakllanmoqda. Bu esa oliy ta’lim muassasalarida vatanparvarlik tarbiyasini yangi metodologik asosda, ilmiy yondashuv bilan tashkil etish zaruratini keltirib chiqaradi. Talabaning Vatanga sadoqati endi faqat hissiy-emotsional tuyg‘u sifatida emas, balki ongli, mafkuraviy mustahkam, qadriyatlarga asoslangan, faol-ijodiy fuqarolik pozitsiyasi sifatida shakllantirilishi lozim.

Shu nuqtayi nazardan oliy ta’lim muassasalari talabalarida Vatanga sadoqat tuyg‘usini rivojlantirishning mazmunini tizimli o‘rganish, uning tarkibiy qismlarini, bosqichlarini va pedagogik shart-sharoitlarini ilmiy asoslash bugungi pedagogik tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Mazkur maqolada aynan shu masala – oliy ta’lim muassasalari talabalarida Vatanga sadoqat tuyg‘usini rivojlantirishning mazmunli-tarkibiy negizlari nazariy va amaliy jihatdan tahlil etiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Vatanga sadoqat tuyg‘usini rivojlantirish muammosi pedagogika, psixologiya, falsafa, ijtimoiyot va siyosatshunoslik fanlari kesishmasida o‘rganilgan ko‘p qirrali muammodir. Mazkur muammoga oid adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, vatanparvarlik tarbiyasi shaxsning ma’naviy-axloqiy kamoloti, milliy ongi, fuqarolik mas’uliyati va kasbiy yetukligining muhim tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi. K.D. Ushinskiy, A.S. Makarenko, V.A. Suxomlinskiy kabi mashhur pedagoglarning ilmiy merosida vatanparvarlik tarbiyasi shaxs shakllanishining oliy bosqichi sifatida e’tirof etilgan. Suxomlinskiyning fikricha, “Vatan tuyg‘usi tarbiyaning eng noziq, ayni paytda eng qudratli vositasidir”, va u inson hayotining barcha bosqichlarida izchil shakllantirilishi lozim[1].

Milliy pedagogikamiz tarixida Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Cho‘lpon kabi mutafakkirlar asarlarida Vatanga muhabbat, millat oldidagi burch, ma’naviy poklik va ilm-ma’rifat bilan qurollanish g‘oyalari boy va chuqur talqin etilgan. Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari bugungi kunda ham milliy-ma’naviy tarbiyaning klassik manbai sifatida o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Bu asarlarda tarbiyaning ibrat, namuna, axloqiy suhbat, hikmatli so‘z va milliy meros orqali amalga oshirilishi metodologik jihatdan asoslangan bo‘lib, ular bugungi oliy ta’lim sharoitida talabalarda Vatanga sadoqat tuyg‘usini rivojlantirishning mazmunli negizini boyitishga xizmat qiladi[2].

O‘zbek olimlari M. Quronov, B. Ziyomuhammadov, O. Musurmonova, Sh. Sharipov, R. Mavlonova, Q. Ismailov, X. Ibragimov, A. Jabborovlarning tadqiqotlarida vatanparvarlik tarbiyasining nazariy-metodologik asoslari, milliy g‘oya va milliy mafkura bilan uzviyligi, oliy ta’lim sharoitida talabalarda milliy ong va ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishning pedagogik modellari atroflicha o‘rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda vatanparvarlik tarbiyasi shaxsning ma’naviy-axloqiy rivojlanishining markaziy yo‘nalishi

sifatida talqin qilinib, uning mazmuni milliy-tarixiy an’analar, ma’naviy qadriyatlar va umuminsoniy tamoyillar uyg‘unligida ochib beriladi[3].

Xorijiy pedagogik manbalarda vatanparvarlik tarbiyasi (patriotic education, civic education, character education) nazariyalari T. Lickona, L. Kohlberg, J. Rest, R. Bellah, J. Westheimer, J. Kahne kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. Bu yondashuvlarda fuqarolik ongi, qadriyatli yo‘nalganlik, axloqiy mas’uliyat, davlat va jamiyat oldidagi burch hissini shakllantirish ta’limning eng muhim ijtimoiy vazifalaridan biri sifatida talqin qilinadi. AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur, Turkiya, Xitoy oliy ta’lim tizimlarida vatanparvarlik va fuqarolik ta’limi (citizenship education) alohida o‘quv-tarbiya yo‘nalishi sifatida tashkil etilgan bo‘lib, talabalarda davlat ramzlariga hurmat, milliy meros va tarixga sadoqat, fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirishga qaratilgan[4].

Psixologik nuqtayi nazardan, Vatanga sadoqat tuyg‘usi shaxsning yuksak ijtimoiy-ma’naviy hissi, qadriyatli yo‘nalganligi va ongli motivatsion-irodaviy pozitsiyasi sifatida o‘rganiladi. L.S. Vygotskiy, S.L. Rubinshteyn, A.N. Leontyev, B.G. Ananyev nazariyalariga ko‘ra, bunday tuyg‘ular shaxsning faol faoliyati, ijtimoiy munosabatlari va shaxsiy tajribasi jarayonida shakllanadi. O‘zbek psixologlari E. G‘oziyev, B. Qodirov, V. Karimova, M. Davletshinlarning tadqiqotlarida milliy o‘zlikni anglash, milliy g‘urur va qadriyatli yo‘nalganlikning vatanparvarlik tuyg‘usi bilan uzviy bog‘liqligi ochib berilgan. Bu yondashuv talabalarda Vatanga sadoqat tuyg‘usini rivojlantirish mazmunini hissiy-irodaviy va motivatsion jihatlari bilan boyitishga zamin yaratadi.

Tadqiqotning metodologik asosini falsafiy-ma’rifiy yondashuv, tizimli-faoliyat yondashuvi, qadriyatga yo‘naltirilgan (aksiologik) yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan, kompetentlikka asoslangan va madaniyatga yo‘naltirilgan yondashuvlar tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida nazariy metodlardan ilmiy-pedagogik, falsafiy va psixologik adabiyotlarni tahlil qilish, umumlashtirish, qiyosiy tahlil, modellashtirish, tizimli tuzilmaviy tahlil; empirik metodlardan pedagogik kuzatish, anketa so‘rovi, suhbat, intervyu, ekspert baholash, pedagogik eksperiment va matematik-statistik tahlil qo‘llanildi. Talabalarda Vatanga sadoqat tuyg‘usining rivojlanganlik darajasini aniqlash uchun “milliy o‘zlikni anglash”, “qadriyatlarga yo‘nalganlik”, “fuqarolik mas’uliyati”, “Vatan oldidagi burch hissi”, “ma’naviy-axloqiy barqarorlik” kabi mezonlar bo‘yicha diagnostik metodikalardan foydalanildi[5].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim muassasalari talabalarida Vatanga sadoqat tuyg‘usini rivojlantirish – murakkab, ko‘p qirrali pedagogik jarayon bo‘lib, u falsafiy-mafkuraviy, psixologik-pedagogik, ijtimoiy-madaniy va metodik asoslarning uyg‘unligini taqozo etadi. Bu yondashuv tadqiqot ishining metodologik negizini mustahkamlashga, mazmun komponentlarini ilmiy aniqlashga va amaliy tavsiyalarni asoslashga imkon beradi.

Natijalar. O‘tkazilgan nazariy tahlillar va empirik tadqiqotlar asosida oliy ta’lim muassasalari talabalarida Vatanga sadoqat tuyg‘usini rivojlantirish mazmunining tarkibiy qismlari aniqlanib, tizimlashtirildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bu mazmun bir-biri bilan dialektik bog‘langan to‘rtta asosiy komponentni o‘z ichiga oladi: **kognitiv** (bilim-tushuncha), **qadriyatli-motivatsion**, **hissiy-irodaviy** va **xulq-atvor (faoliyat) komponenti**. Bu komponentlarning har biri o‘zining mustaqil mazmuni va tarbiyaviy vazifalariga ega bo‘lib, ularning yaxlit tizim sifatida amal qilishi vatanparvarlik tarbiyasining samaradorligini ta’minlaydi.

Birinchidan, kognitiv komponent. Vatanga sadoqat tuyg‘usini rivojlantirishning kognitiv mazmunini talabalarning O‘zbekiston tarixi, davlatchilik an’analari, milliy madaniyat, til, adabiyot, san’at, ilm-fan rivoji, milliy qahramonlar merosi, mustaqillik yutuqlari va “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasi haqidagi tizimli bilimlari tashkil etadi. Bu komponent talabalarning konstitutsiyaviy huquq va burchlari, milliy g‘oya va davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari, mamlakatning xalqaro maydondagi o‘rni va istiqbollari haqidagi tushunchalarini ham o‘z ichiga oladi. Tadqiqot ko‘rsatdiki, talaba o‘z xalqi va Vatanini chuqur bilgan sayin uning ongida sadoqat tuyg‘usi mustahkamroq shakllanadi. Bilim asosida shakllangan tuyg‘u – ongli, asosli va barqaror bo‘ladi.

Ikkinchidan, qadriyatli-motivatsion komponent. Bu komponent talabaning ichki ma’naviy yo‘nalganligi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tizimida o‘zini topishi, hayotiy maqsad va qadriyatlarini Vatan, xalq, jamiyat manfaatlari bilan uyg‘unlashtirishini ifodalaydi. Mazmun jihatdan u milliy g‘urur, milliy o‘zlikni anglash, halollik, mas’uliyat, ezgulik, adolat, mehr-oqibat, ona tilga muhabbat, davlat ramzlariga hurmat, ajdodlar merosiga sadoqat kabi qadriyatlarni tarbiyalashni qamrab oladi. Tajriba ishlari shuni ko‘rsatdiki, talabada milliy-ma’naviy qadriyatlarga yo‘nalganlik qanchalik chuqur bo‘lsa, uning Vatanga sadoqat tuyg‘usi shu darajada motivatsion barqaror, ya’ni ichki ehtiyojga aylangan tuyg‘u sifatida namoyon bo‘ladi.

Uchinchidan, hissiy-irodaviy komponent. Vatanga sadoqat tuyg‘usining hissiy-irodaviy mazmuni talabaning Vatani, xalqi, milliy madaniyatiga nisbatan chuqur muhabbati, milliy faxr, ona zamin va ona tilga

nisbatan emotsional bog‘liqlik, ajdodlardan meros tarixiy xotira, hamda milliy manfaatlarni himoya qilishga bo‘lgan irodaviy tayyorgarlikni o‘z ichiga oladi. Bu komponent talabani Vatan oldidagi javobgarlikni hissan idrok etishga, milliy yutuqlardan faxrlanishga, qiyinchiliklarni yengib o‘tishga, mafkuraviy va axloqiy jihatdan barqaror pozitsiyani saqlashga undaydi. Hissiy-tajribaviy mazmun tarbiyaviy tadbirlar – muzeylarga tashriflar, milliy bayramlar, ma’naviy-ma’rifiy uchrashuvlar, badiiy-ijodiy faoliyat va volontyorlik harakatlari orqali boyitiladi.

To‘rtinchidan, xulq-atvor (faoliyat) komponenti. Vatanga sadoqat tuyg‘usining eng yuqori va asosiy ko‘rinishi – uning amaliy faoliyatda namoyon bo‘lishidir. Bu komponent talabaning ijtimoiy faolligi, kasbiy mas’uliyati, fuqarolik tashabbuskorligi, jamoat ishlarida ishtiroki, volontyorlik harakatlarida, milliy va xalqaro ilmiy-amaliy loyihalarda qatnashishi, ekologik, ma’naviy-ma’rifiy va xayriya tashabbuslarida faol o‘rin egallashi orqali ifodalanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, talaba qachonki o‘zini “Vatan uchun nimadir qila olaman” degan ichki ishonch bilan his qilganidagina, uning Vatanga sadoqat tuyg‘usi haqiqiy, hayotiy va ijodiy mazmun kasb etadi[6].

Tadqiqot, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida Vatanga sadoqat tuyg‘usini rivojlantirish mazmunining qator pedagogik shart-sharoitlarini aniqladi: a) o‘quv-tarbiya jarayonini milliy-ma’naviy qadriyatlar bilan boyitish; b) talabalarning ilmiy-tadqiqot, ijtimoiy-loyiha va ijodiy faoliyatga keng jalb etilishi; v) auditoriya ichi va auditoriyadan tashqari faoliyatlarning tizimli uyg‘unligi; g) oliy ta’lim muassasasi, oila va mahalla hamkorligini mustahkamlash; d) raqamli ta’lim resurslari, ijtimoiy tarmoqlar va media-loyihalardan vatanparvarlik tarbiyasi maqsadlarida samarali foydalanish; e) o‘qituvchilarning shaxsiy namunasi va ma’naviy-axloqiy yetukligi.

Tajriba-sinov ishlarining yakuniy bosqichida tajriba va nazorat guruhlari natijalari qiyosiy o‘rganildi. Tajriba guruhida ishlab chiqilgan mazmun komponentlariga asoslangan pedagogik model qo‘llanilganidan so‘ng talabalarda milliy o‘zlikni anglash mezoni bo‘yicha 27–32 foizga, qadriyatlarga yo‘nalganlik bo‘yicha 25–30 foizga, fuqarolik mas’uliyati bo‘yicha 24–29 foizga, Vatan oldidagi burch hissi bo‘yicha 28–33 foizga ijobiy o‘sish qayd etildi. Bu natijalar oliy ta’lim sharoitida Vatanga sadoqat tuyg‘usini rivojlantirish mazmunini ilmiy-pedagogik asosda tizimlashtirishning amaliy samaradorligini tasdiqlaydi.

Muhokama. Olingan natijalar pedagogik nuqtayi nazardan muhokama qilinganda, oliy ta’lim muassasalari talabalarida Vatanga sadoqat tuyg‘usini rivojlantirish faqat ayrim o‘quv predmetlari yoki tarbiyaviy tadbirlar doirasida hal etiladigan masala emasligi yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu jarayon butun ta’lim-tarbiya muhitini, ilmiy-ijodiy faoliyatni, ijtimoiy-madaniy hayotni va shaxslararo munosabatlarni qamrab oluvchi yaxlit, integrativ pedagogik fenomendir. Aynan shu sababli mazkur tuyg‘uni rivojlantirish mazmuni ham yaxlit – kognitiv, qadriyatli, hissiy va xulq-atvor jihatlarining uyg‘unligi sifatida tashkil etilishi lozim.

Muhokama jarayonida aniqlandiki, Vatanga sadoqat tuyg‘usining mazmunli komponentlari yakka-yakka emas, balki o‘zaro funksional bog‘liqlikda ishlaydi. Kognitiv komponent qadriyatli-motivatsion komponentga ma’naviy mazmun beradi; qadriyatli-motivatsion komponent hissiy-irodaviy komponentni ichki energiya bilan to‘yintiradi; hissiy-irodaviy komponent xulq-atvor komponentini ijodiy va faol harakatga aylantiradi; xulq-atvor komponenti esa o‘z navbatida talabaning ongiga, qadriyatlariga va hissiy tajribasiga qaytib ta’sir ko‘rsatib, yangi sifat bosqichida ularni mustahkamlaydi. Bu dialektik bog‘liqlik mazmunni faqat “qism”lar yig‘indisi sifatida emas, balki dinamik tizim sifatida tushunish zaruratini taqozo etadi.

Muhokama qilingan yana bir muhim jihat – oliy ta’lim sharoitining o‘ziga xosligidir. Talabalik davri shaxsning mafkuraviy, qadriyatli va kasbiy o‘zlikni anglash bosqichi bo‘lib, aynan shu davrda Vatanga sadoqat tuyg‘usi ongli, ilmiy asoslangan va kasbiy mazmun bilan boyitilgan shaklga aylanadi. Talaba avvalgi maktab davridagi hissiy-empirik vatanparvarlikdan ongli, ilmiy va kasbiy faoliyatga asoslangan vatanparvarlikka o‘sib o‘tadi. Bu o‘sish jarayonini pedagogik jihatdan boshqarish va ilmiy-tadqiqot, ijtimoiy-loyiha, ijodiy faoliyat, mutaxassislik kompetensiyasi bilan uyg‘unlashtirish – oliy ta’lim pedagogikasining muhim vazifasi sifatida muhokama qilindi.

Shuningdek, muhokama jarayonida o‘qituvchi-pedagogning shaxsi va vatanparvarlik pozitsiyasining alohida ahamiyati ta’kidlandi. Talaba o‘zi hurmat qiladigan, ilmiy-kasbiy yetuk, ma’naviyatli, fuqarolik pozitsiyasi mustahkam o‘qituvchini ongli ravishda ideal sifatida qabul qiladi va undan ibrat oladi. Pedagog-olim, professor-o‘qituvchining ilmiy salohiyati, mafkuraviy yetukligi, milliy madaniyat va qadriyatlarga sadoqati talabalarda Vatanga sadoqat tuyg‘usini ham bilim, ham hissiy tajriba orqali shakllantiradi. Bu jihat oliy ta’lim sohasida pedagog kadrlarning ma’naviy-mafkuraviy tayyorgarligini takomillashtirish vazifasini dolzarb qiladi.

Muhokama natijalariga ko‘ra, zamonaviy raqamli muhitda yashayotgan talabalar uchun an’anaviy auditoriya darslari bilan bir qatorda yangi shakldagi tarbiyaviy ishlar – multimedia loyihalari, ijtimoiy

tarmoqlardagi ma’naviy-ma’rifiy kontentni yaratish, milliy tarix va madaniyatga oid raqamli mahsulotlarni ishlab chiqish, virtual muzey ekskursiyalari, onlayn-munozaralar, “talaba media-laboratoriyalari” faoliyati alohida samaradorlik bermoqda. Bu vositalar talabaga Vatanga sadoqat tuyg‘usini passiv qabul qiluvchi sifatida emas, balki uning faol yaratuvchisi va tarqatuvchisi sifatida his qilish imkonini beradi.

Pedagogik shart-sharoitlar tizimi muhokama qilinganda quyidagilar maqsadga muvofiq topildi: a) o‘quv jarayonining mazmunini milliy-ma’naviy qadriyatlar va milliy g‘oya tamoyillari bilan boyitish; b) ijtimoiy-gumanitar fanlarning vatanparvarlik tarbiyasidagi ahamiyatini kuchaytirish; v) tarbiyaviy tadbirlarning kompleks va tizimli rejalashtirilishi; g) talabaning shaxsiy faolligi, ijodiy tashabbuslari va liderlik xususiyatlarini rivojlantirish; d) oila, mahalla, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari hamkorligini mustahkamlash; e) raqamli muhitdan maqsadli foydalanish; j) o‘qituvchilarning kasbiy va ma’naviy-mafkuraviy malakasini doimiy oshirib borish.

Nihoyat, muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, Vatanga sadoqat tuyg‘usini rivojlantirish – bu nafaqat tarbiyaviy, balki strategik-ijtimoiy vazifa hamdir. Yosh mutaxassis Vatanga sadoqat tuyg‘usida mustahkam bo‘lsagina, u kasbiy faoliyatida halol, ijtimoiy-fuqarolik munosabatlarida mas’uliyatli, milliy va davlat manfaatlarini himoya qilishda barqaror, jamiyatning ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga ijobiy hissa qo‘shadigan yetuk shaxs sifatida shakllanadi. Bu esa, o‘z navbatida, Yangi O‘zbekistonni qurish, milliy taraqqiyotni ta’minlash va xalqimizning kelajagini mustahkamlashning ma’naviy-pedagogik garovidir.

Xulosa. O‘tkazilgan nazariy va empirik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim muassasalari talabalarida Vatanga sadoqat tuyg‘usini rivojlantirish mazmuni – bu pedagogik, psixologik, ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy-madaniy va kasbiy omillar uyg‘unligida amalga oshiriluvchi murakkab, tizimli va dinamik fenomen hisoblanadi. Uning asosiy tarkibiy qismlarini kognitiv (bilim), qadriyatli-motivatsion, hissiy-irodaviy va xulq-atvor (faoliyat) komponentlari tashkil etadi. Bu komponentlarning yaxlit tizimda tarbiya jarayoniga tatbiq etilishi talabalarda milliy o‘zlikni anglash, qadriyatlarga yo‘nalganlik, fuqarolik mas’uliyati va Vatan oldidagi burch hissini sezilarli darajada rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot pedagog-o‘qituvchining shaxsiy namunasi, oliy ta’lim muassasasi-oila-mahalla hamkorligi, ilmiy-ijodiy va ijtimoiy-loyiha faoliyati, raqamli muhitdan maqsadli foydalanish va mafkuraviy tayyorgarlikning samarali pedagogik shart-sharoitlar sifatidagi ahamiyatini tasdiqladi. Mazkur yondashuv asosida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar oliy ta’lim muassasalarining ma’naviy-tarbiyaviy ishlari samaradorligini oshirishda, talabalarning vatanparvarlik ongi va fuqarolik faolligini rivojlantirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030-yilgacha bo‘lgan davrda ta’lim sohasini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni. – Toshkent, 2019.
2. Suxomlinskiy V.A. Yurak bolalarga beriladi. – T.: O‘qituvchi, 1981.
3. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
4. Musurmonova O. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik asoslari. – Toshkent: Fan, 2015.
5. Quronov M. Milliy tarbiya. – Toshkent: Ma’naviyat, 2018.
6. Sharipov Sh. Talaba-yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi pedagogikasi. – Toshkent: Tafakkur, 2019.
7. Lickona T. Educating for Character: How Our Schools Can Teach Respect and Responsibility. – New York: Bantam Books, 1991.
8. Westheimer J., Kahne J. What Kind of Citizen? The Politics of Educating for Democracy // American Educational Research Journal. – 2004. – Vol. 41. – No. 2. – P. 237–269.
9. G‘oziyev E. Umumiy psixologiya. – Toshkent: Universitet, 2010.
10. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012.
11. Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008.

TA’LIM VA ZIYORAT TURIZMI: MA’NAVIY HAMDA ILMIY TARAQQIYOT OMILI

Bayramova Muattar Naimzoda,
Buxoro xalqaro universiteti mustaqil tadqiqotchisi
muattarbayramova2@gmail.com

Bugungi globallashuv davrida ta’lim va ziyorat turizmi jamiyatning ma’naviy hamda ilmiy rivojlanishida muhim omillardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ayniqsa, tarixiy-madaniy merosni o‘rganish va ilmiy tajriba almashish jarayonlari ushbu yo‘nalishning ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Mazkur maqolada ta’lim va ziyorat turizmining jamiyat ma’naviyati hamda ilmiy taraqqiyotdagi o‘rni tahlil qilinadi. Unda ziyorat maskanlari va tarixiy obidalar yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirish, milliy qadriyatlarni mustahkamlash hamda madaniy merosni asrashdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, ta’lim turizmi orqali ilmiy almashinuv, xorijiy tajribalarni o‘rganish va innovatsion bilimlarni rivojlantirish masalalari yoritiladi. Maqolada O‘zbekistondagi ziyorat va ta’lim turizmi salohiyati, ularni rivojlantirishning zamonaviy usullari hamda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish istiqbollari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar*: ta’lim, ziyorat, turizm, ma’naviyat, ilmiy taraqqiyot, madaniy meros, innovatsion ta’lim.*

ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ И ПАЛОМНИЧЕСКИЙ ТУРИЗМ: ФАКТОР ДУХОВНОГО И НАУЧНОГО РАЗВИТИЯ

В современную эпоху глобализации образовательный и паломнический туризм признается одним из важных факторов духовного и научного развития общества. В частности, процессы изучения историко-культурного наследия и обмена научным опытом еще больше повышают значимость этого направления.

В данной статье анализируется роль образовательного и паломнического туризма в духовном и научном развитии общества. Подчеркивается важность мест паломничества и исторических памятников в формировании духовного мировоззрения молодежи, укреплении национальных ценностей и сохранении культурного наследия. Также освещаются вопросы научного обмена, изучения зарубежного опыта и развития инновационных знаний посредством образовательного туризма. В статье анализируется потенциал паломнического и образовательного туризма в Узбекистане, современные методы его развития и перспективы использования возможностей цифровых технологий и искусственного интеллекта.

Ключевые слова*: образование, паломничество, туризм, духовность, научное развитие, культурное наследие, инновационное образование.*

EDUCATIONAL AND PILGRIMAGE TOURISM: A FACTOR OF SPIRITUAL AND SCIENTIFIC DEVELOPMENT

In the modern era of globalization, educational and pilgrimage tourism is recognized as a key factor in the spiritual and scientific development of society. In particular, the study of historical and cultural heritage and the exchange of scientific experience further enhance the importance of this area.

This article analyzes the role of educational and pilgrimage tourism in the spiritual and scientific development of society. It emphasizes the importance of pilgrimage sites and historical monuments in shaping the spiritual worldview of youth, strengthening national values, and preserving cultural heritage. It also addresses issues of scientific exchange, the study of international experience, and the development of innovative knowledge through educational tourism. The article analyzes the potential of pilgrimage and educational tourism in Uzbekistan, modern methods of its development, and prospects for harnessing the power of digital technology and artificial intelligence.

Keywords: *education, pilgrimage, tourism, spirituality, scientific development, cultural heritage, innovative education.*

Kirish. Bugungi globallashuv davrida turizm nafaqat iqtisodiy daromad manbai, balki jamiyatning ma’naviy va ilmiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ayniqsa, ta’lim va ziyorat turizmi inson tafakkurini boyitish, tarixiy xotirani tiklash, ilmiy dunyoqarashni kengaytirish hamda turli xalqlar o‘rtasida madaniy aloqalarni mustahkamlashda katta ahamiyatga ega. Ta’lim turizmi yoshlarning xorijiy tajriba almashinuvi, xalqaro universitetlar bilan hamkorlik, ilmiy tadqiqotlar va akademik

mobilitetni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ziyorat turizmi esa inson qalbida ma’naviy poklanish, tarixiy shaxslar merosini o‘rganish va diniy bag‘rikenglikni shakllantirishga yordam beradi.

O‘zbekiston qadimiy sivilizatsiyalar chorrahasida joylashgan bo‘lib, boy tarixiy-madaniy meros, muqaddas qadamjolar va ilm-fan markazlariga ega davlat hisoblanadi. Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz kabi tarixiy shaharlarda joylashgan me’moriy obidalar, buyuk allomalar merosi hamda diniy maskanlar nafaqat sayyohlarni, balki tadqiqotchilar va talabalarni ham o‘ziga jalb etmoqda.

Mazkur maqolada ta’lim va ziyorat turizmining mohiyati, ularning ma’naviy hamda ilmiy taraqqiyotdagi o‘rni, O‘zbekistonda ushbu yo‘nalishlarni rivojlantirish imkoniyatlari hamda zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi.

Asosiy qism.

Ta’lim turizmining mohiyati va ahamiyati. Ta’lim turizmi bu insonlarning bilim olish, malaka oshirish, ilmiy tajriba almashish yoki xorijiy ta’lim tizimlarini o‘rganish maqsadida amalga oshiriladigan sayohatlar majmuasidir. Ushbu turizm turi bugungi kunda jahon miqyosida tez rivojlanayotgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Ta’lim turizmi quyidagi asosiy yo‘nalishlarga bo‘linadi:

- akademik ta’lim turizmi;
- ilmiy-amaliy konferensiyalar;
- talabalar almashinuvi;
- qisqa muddatli o‘quv kurslari;
- madaniy-ma’rifiy ekskursiyalar.

Ta’lim turizmining asosiy maqsadi yoshlarning ilmiy salohiyatini oshirish, innovatsion bilimlarni egallash va xalqaro tajribalarni o‘rganishdan iboratdir. Ayniqsa, rivojlangan davlatlarning oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlik qilish ilmiy integratsiyani kuchaytiradi[3;34].

Bugungi kunda dunyoning ko‘plab universitetlari xalqaro talabalarni jalb qilish orqali ta’lim eksportini rivojlantirmoqda. Bu esa davlat iqtisodiyotiga ham sezilarli daromad keltiradi[2;55]. Misol uchun, AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Turkiya va Janubiy Koreya ta’lim turizmi bo‘yicha yetakchi davlatlar hisoblanadi [2;56].

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda xalqaro universitetlar filiallarining ochilishi, akademik almashinuv dasturlarining kengayishi ta’lim turizmini rivojlantirish uchun muhim zamin yaratmoqda.

Ta’lim turizmi iqtisodiy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Xorijiy talabalar oqimi mehmonxona, transport, ovqatlanish va boshqa xizmat ko‘rsatish sohalarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ziyorat turizmining ma’naviy ahamiyati. Ziyorat turizmi insoniyat tarixida qadimdan mavjud bo‘lib, diniy va ma’naviy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu turizm turi inson qalbida ruhiy xotirjamlik, ma’naviy poklanish va tarixiy xotirani tiklash hissini uyg‘otadi.

O‘zbekistonda Imom Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Imom Termiziy, Burhoniddin Marg‘inoniy hamda “Yetti pir” nomi bilan dynyoga tanilgan valiylar va buyuk allomalar qadamjolari mavjud bo‘lib, ular musulmon dunyosining muhim ziyorat maskanlari hisoblanadi [7;27]. Ziyorat turizmi orqali insonlar diniy bilimlarini oshiradi, tarixiy meros bilan tanishad, milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalanadi, turli madaniyatlar bilan yaqindan tanishadi.

Bugungi kunda ziyorat turizmi nafaqat diniy safar, balki ma’rifiy va madaniy tajriba almashinuviga ham aylangan. Ko‘plab davlatlar ushbu yo‘nalishni rivojlantirish orqali xalqaro qiyofasi, yani imijini mustahkamlamoqda[9;35].

Ta’lim va ziyorat turizmining o‘zaro integratsiyasi haqida fikrlaydigan bo‘lsak, so‘nggi yillarda ta’lim va ziyorat turizmini integratsiyalashgan holda rivojlantirish tendensiyasi kuchaymoqda. Bu yondashuv orqali talabalar va sayyohlar nafaqat tarixiy joylarni ziyorat qiladilar, balki ilmiy seminarlar, ma’naviy suhbatlar va madaniy tadbirlarda ham ishtirok etadilar.

Masalan, Buxoro va Samarqand shaharlarida tashkil etilayotgan xalqaro forumlar tarix, islom sivilizatsiyasi va madaniy meros bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Ziyorat turizmining asosiy ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- milliy va diniy qadriyatlarni asrash;
- yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash;
- tarixiy merosni targ‘ib qilish;
- xalqaro madaniy aloqalarni rivojlantirish;
- insonlarning ma’naviy ehtiyojlarini qondirish.

Ta’limiy ekskursiyalar orqali yoshlar o‘z tarixini chuqurroq anglaydi, ajdodlar merosiga hurmat bilan qarashni o‘rganadi. Shu bilan birga, turizm sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash imkoniyati ham kengayadi[6;23].

Ilmiy taraqqiyotda turizmning rolini ochib beradigan bo`lsak, turizm ilmiy tadqiqotlar uchun muhim platforma hisoblanadi. Arxeologiya, etnografiya, tarix, ekologiya va madaniyatshunoslik kabi fanlar turizm bilan uzviy bog‘liqdir. Ilmiy ekspeditsiyalar davomida olimlar tarixiy obidalarni o‘rganadilar, madaniy merosni hujjatlashtiradilar, yangi ilmiy ma’lumotlarni to‘playdilar, ekologik monitoring olib boradilar. Turizm orqali xalqaro ilmiy hamkorlik rivojlanadi. Turli davlat olimlari qo‘shma loyihalar yaratib, ilmiy konferensiyalar va seminarlar tashkil etadilar. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar, virtual reallik va sun’iy intellekt ziyorat hamda ta’lim turizmida keng qo‘llanilmoqda. Masalan, virtual muzeylar va 3D ekskursiyalar insonlarga masofadan turib tarixiy joylarni o‘rganish imkonini bermoqda. Buning yorqin misoli sifatida 2026 - yil mart oyida Toshkent shahrida ochilgan Islom Sivilizatsiyasi markazini e’tirof etish mumkin. Mazkur markaz dunyo bo`yicha e’tirof etilgan virtual va 3D muzeylar qatoridan o`rin olib, Ginneslar kitobidan joy olib ham ulgurdi [1;45].

Shu o`rinda **Respublikamizda ziyorat va ta’lim turizmini rivojlantirish istiqbollari** haqida shuni ta’kidlash mumkinki, O‘zbekiston Markaziy Osiyoning muhim turistik markazlaridan biri sifatida tan olingan. Darhaqiqat, u boy tarixiy-madaniy merosga ega. So‘nggi yillarda hukumat tomonidan turizm infratuzilmasini rivojlantirish, vizasiz rejimlarni kengaytirish va xalqaro marketing strategiyalarini kuchaytirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Aytish joiz, ziyorat va ta’lim turizmini rivojlantirish uchun quyidagi yo‘nalishlar muhim hisoblanadi:

1. Zamonaviy infratuzilmani rivojlantirish;
2. Raqamli platformalarni keng joriy etish;
3. Xalqaro universitetlar bilan hamkorlikni kuchaytirish;
4. Turizm sohasida innovatsion ta’lim dasturlarini yaratish;
5. Yoshlar uchun ilmiy va ma’naviy ekskursiyalarni ko‘paytirish.

Shuningdek, sun’iy intellekt asosida turistik oqimlarni tahlil qilish, sayyohlar ehtiyojlarini prognozlash va personalizatsiyalashgan xizmatlarni yaratish imkoniyati ham ortib bormoqda. Barqaror rivojlanish va madaniy merosni asrash Turizmni rivojlantirish jarayonida ekologik va madaniy barqarorlikni ta’minlash muhim vazifa hisoblanadi. Haddan tashqari turistik oqim tarixiy obidalarga zarar yetkazishi mumkin. Shu sababli “barqaror turizm” konsepsiyasiga amal qilish talab etiladi. Barqaror ziyorat turizmi quyidagilarni nazarda tutadi:

- tarixiy obidalarni muhofaza qilish;
- mahalliy aholi manfaatlarini himoya qilish;
- ekologik muvozanatni saqlash;
- milliy an’analarni qo‘llab-quvvatlash kabi vazifalar.

Ta’lim tizimida ham talabalarni ekologik mas’uliyat va madaniy merosni asrash ruhida tarbiyalash dolzarb ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, “Ziyorat turizmi haftaligi”, xalqaro forumlar va ilmiy konferensiyalar tashkil etilishi mamlakatning turistik imijini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, ziyorat va ta’lim turizmini rivojlantirish bo‘yicha qator dasturlar amalga oshirilmoqda.

Quyidagi omillar ushbu sohaning rivojlanishiga xizmat qilmoqda:

- vizasiz rejimning kengaytirilishi;
- transport infratuzilmasining yaxshilanishi;
- mehmonxona xizmatlarining rivojlanishi;
- tarixiy obidalarni restavratsiya qilish;
- xalqaro hamkorlikning kuchayishi [5;56].

Zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar ham bunda juda dolzarb. Bugungi raqamli davrda turizm sohasiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt va raqamli platformalar sayyohlarga qulay xizmat ko‘rsatishda samarali vosita hisoblanadi.

Chunonchi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari turizm sohasida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Mobil ilovalar, virtual gidlar, QR kodli ekskursiyalar va sun’iy intellekt asosidagi tavsiya tizimlari sayyohlar uchun qulaylik yaratmoqda. Ta’lim turizmida esa online kurslar, virtual seminarlar, raqamli kutubxonalar, sun’iy intellekt asosidagi tarjima tizimlari keng qo‘llanilmoqda. Bu texnologiyalar ilmiy va ma’naviy bilimlarni ommalashtirishda katta imkoniyat yaratadi.

Quyidagi texnologiyalar turizm rivojiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda:

- virtual reallik (VR);
- kengaytirilgan reallik (AR);
- onlayn bron qilish tizimlari;
- AI-gid dasturlari;

- elektron xaritalar va mobil ilovalar.

Masalan, virtual ekskursiyalar orqali xorijiy sayyohlar O‘zbekistonning tarixiy obidalari bilan masofadan turib tanishish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Bu esa mamlakat turistik salohiyatini targ‘ib qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Sun’iy intellekt yordamida sayyohlarning qiziqishlari tahlil qilinib, ularga individual turpaketlar tavsiya etilishi mumkin. Bu xizmat sifati va turistlar oqimini oshirishga yordam beradi.

Shu o`rinda aytish joizki, davlat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri bu **ta’lim va ziyorat turizmining ijtimoiy-iqtisodiy ta’siri** hisoblanadi. Ta’lim va ziyorat turizmi nafaqat iqtisodiy foyda, balki ijtimoiy rivojlanishga ham xizmat qiladi[4;56].

Ularning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ta’siri esa quyidagilar quyidagilardan iborat:

- yangi ish o‘rinlari yaratish;
- xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish;
- mahalliy hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlash;
- hududlar infratuzilmasini yaxshilash;
- xalqaro imijni mustahkamlash.

Ayniqsa, ziyorat maskanlari joylashgan hududlarda kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik rivojlanmoqda. Bu esa aholining daromad manbalarini kengaytirishga xizmat qiladi[1;34].

Xulosa. Ta’lim va ziyorat turizmi insoniyat taraqqiyotining muhim ijtimoiy-madaniy hodisalaridan biri sifatida jamiyatning ilmiy, ma’naviy va intellektual rivojlanishida beqiyos o‘rin tutadi. Bugungi globallashuv va axborotlashuv jarayonida ushbu turizm yo‘nalishlari davlatlar o‘rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlash, ilmiy tajriba almashish hamda xalqlarning o‘zaro hamjihatligini ta’minlashda muhim vositaga aylanmoqda. Ta’lim turizmi orqali yoshlar xorijiy oliy ta’lim muassasalari, ilmiy markazlar va innovatsion texnologiyalar bilan yaqindan tanishib, o‘z bilim va ko‘nikmalarini boyitish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa zamonaviy raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, ilm-fan rivojiga hissa qo‘shish hamda mamlakatning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Ziyorat turizmi esa insonning ma’naviy kamoloti, ruhiy poklanishi va tarixiy xotirasini tiklashda alohida ahamiyat kasb etadi. Muqaddas qadamjolar, tarixiy obidalar va buyuk allomalar merosi bilan tanishish inson qalbida milliy g‘urur, ajdodlarga hurmat hamda ezgu qadriyatlarga sodiqlik tuyg‘ularini shakllantiradi. Ayniqsa, buyuk mutafakkirlar merosi asosida shakllangan ziyorat maskanlari nafaqat diniy-ma’rifiy markaz, balki ilmiy va madaniy muloqot o‘chog‘i sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan qaraganda, ziyorat turizmi yosh avlodning ma’naviy immunitetini mustahkamlash, milliy o‘zlikni anglash va umuminsoniy qadriyatlarni targ‘ib qilishda katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Shunday ekan, ta’lim va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish, ularning ilmiy-ma’rifiy imkoniyatlaridan samarali foydalanish hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Zero, ma’naviy barkamol, bilimli va keng dunyoqarashga ega avlodni tarbiyalashda ta’lim va ziyorat turizmi kelajak taraqqiyotining mustahkam poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi. *Turizm sohasiga oid rasmiy materiallar va statistik ma’lumotlar*. Toshkent, 2024.

2. UNESCO. *UNESCO Cultural Heritage Reports*. Paris: UNESCO Publishing, 2024. (ЮНЕСКО)

3. Kotler F. *Marketing for Hospitality and Tourism*. 7-nashr. Harlow: Pearson Education, 2017.

4. Greg Richards. *Cultural Tourism: Global and Local Perspectives*. New York: Routledge, 2007.

5. UNWTO. *UNWTO Tourism Education Guidelines*. Madrid: World Tourism Organization (UNWTO), 2022. ISBN: 978-92-844-2393-4. (mekongtourism.org)

6. Islom sivilizatsiyasi markazi. *Islom sivilizatsiyasi va madaniy meros bo‘yicha ilmiy maqolalar to‘plami*. Toshkent, 2023.

7. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent: “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2000-2006y.

8. Sustainable Tourism Development. *Sustainable Tourism Development Research Papers*. London: Springer Nature, 2021y.

9. Pedagogika. *Zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo‘yicha ilmiy Tadqiqotlar*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2022 y.

10. Digital Tourism and Artificial Intelligence. (*Raqamli turizm va sun’iy intellekt bo‘yicha xalqaro tadqiqotlar)*. Berlin: Springer International Publishing, 2024. (transition-pathways.europa.eu)

ZAMONAVIY PEDAGOGIK PARADIGMADA MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYANING MAZMUNIY-MOHIYATLI TRANSFORMATSIYASI

Ne’matov Oybek Erkin o‘g‘li,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti,
“Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi” kafedarasi assistent o‘qituvchisi
oybek.nematov1991@gmail.com

Ushbu maqolada zamonaviy pedagogik paradigma sharoitida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning mazmuni-mohiyatli transformatsiyasi masalalari ilmiy-tahliliy jihatdan o'rganiladi. Muallif ma'naviy-axloqiy tarbiyaning an'anaviy va zamonaviy yondashuvlar o'rtasidagi farqlarni, transformatsiyaning mohiyatini, mazmuniy yangilanishlarini va ularning amaliyoti tadbiq etilish yo'llarini ko'rib chiqadi. Maqola pedagogik tadqiqotchilar, o'qituvchilar va tarbiyachilar uchun qiziqish uyg'otishi mumkin.

Kalit so'zlar: *pedagogik paradigma, ma'naviy-axloqiy tarbiya, mazmuni-mohiyatli transformatsiya, tarbiyaviy jarayon, axloqiy qadriyatlar, ma'naviy kamolot.*

THE CONTENT-SUBSTANTIVE TRANSFORMATION OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION IN THE MODERN PEDAGOGICAL PARADIGM

This article provides a scientific and analytical study of the content-essential transformation of spiritual and moral education within the framework of the modern pedagogical paradigm. The author examines the differences between traditional and modern approaches to spiritual and moral education, the essence of transformation, substantive updates, and the ways of their practical implementation. The article may be of interest to pedagogical researchers, teachers, and educators.

Keywords: *pedagogical paradigm, spiritual and moral education, content-essential transformation, educational process, moral values, spiritual perfection.*

СОДЕРЖАТЕЛЬНО-СУЩНОСТНАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ В СОВРЕМЕННОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПАРАДИГМЕ

В данной статье научно-аналитически исследуются вопросы содержательно-сущностной трансформации духовно-нравственного воспитания в условиях современной педагогической парадигмы. Автор рассматривает различия между традиционными и современными подходами к духовно-нравственному воспитанию, суть трансформации, содержательные обновления и пути их реализации на практике. Статья может представлять интерес для исследователей в области педагогики, учителей и воспитателей.

Ключевые слова: *педагогическая парадигма, духовно-нравственное воспитание, содержательно-сущностная трансформация, воспитательный процесс, нравственные ценности, духовное совершенство.*

Kirish. Xalqaro hamjamiyat XXI asrni axloqiy inqiroz, qadriyatlar keskin o'zgarishi va insoniyatning ma'naviy qayta qurilishi davri deb baholamoqda. Bu jarayon ta'lim-tarbiya sohasiga, xususan, ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. An'anaviy pedagogik paradigmada ma'naviy-axloqiy tarbiya asosan normativ-didaktik yondashuvga asoslangan bo'lib, o'quvchilarga tayyor axloqiy qoidalar, qonun-qoidalar va me'yorlarni o'rgatishga qaratilgan edi. Biroq zamonaviy dunyoning murakkablashuvi, axborot texnologiyalarining rivojlanishi, global miqyosdagi madaniy almashinuvlar va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar an'anaviy tarbiyaviy yondashuvlarning yetarli emasligini ko'rsatmoqda.

Zamonaviy pedagogik paradigma insonning shaxs sifatida shakllanishini, uning ma'naviy-axloqiy yetukligini, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishni asosiy maqsad qilib oladi. Bu esa ma'naviy-axloqiy tarbiyaning mazmunini, shakllari va usullarini tubdan o'zgartirishni, ya'ni mazmuni-mohiyatli transformatsiyani talab qiladi.

Mazmuni-mohiyatli transformatsiya tushunchasi pedagogikada nisbatan yangi bo'lib, u tarbiyaviy jarayonning nafaqat tashqi shakllarini, balki uning ichki mohiyatini, mazmunini va maqsadini o'zgartirishni anglatadi. Bu transformatsiya ma'naviy-axloqiy tarbiyani mexanik qoidalar yig'indisidan insonning ichki dunyosini boyitish, uning axloqiy ongini va axloqiy tajribasini shakllantirishga qaratilgan mazmunli jarayonga aylantirishni nazarda tutadi.

Shu munosabat bilan ushbu maqolada quyidagi masalalar yoritiladi: zamonaviy pedagogik paradigmaning xususiyatlari va ma'naviy-axloqiy tarbiyaga qo'yilayotgan talablar; mazmuni-mohiyatli transformatsiyaning nazariy asoslari; ma'naviy-axloqiy tarbiya mazmunining transformatsiyasi yo'nalishlari; transformatsiyani amaliyotga tadbiq etishning pedagogik shart-sharoitlari.

Pedagogik paradigma tushunchasi va uning o'zgarish dinamikasi. Pedagogik paradigma ma'lum bir tarixiy davrda pedagogik fikr va amaliyotda hukmron bo'lgan dunyoqarash, qadriyatlar, tamoyillar va usullar tizimidir. U o'z ichiga ta'lim-tarbiyaning maqsadlari, mazmuni, uslublari va texnologiyalarini oladi. Paradigma o'zgarishi jamiyatdagi katta o'zgarishlarning pedagogik sohadagi aksidir.

XX asr oxiridan boshlab postindustrial jamiyat shakllanishi, axborotlashtirish, globalizatsiya va madaniy pluralizm jarayonlari yangi pedagogik paradigmaning shakllanishiga olib keldi. Bu paradigma quyidagi asosiy belgilar bilan ajralib turadi:

Inson markazliliging (antropotsentrizm) kuchayishi. Agar an'anaviy paradigma bilim markazli (kognitotsentrik) bo'lsa, zamonaviy paradigma o'quvchi shaxsining rivojlanishiga, uning ehtiyojlari, qiziqishlari va imkoniyatlariga yo'naltirilgan. Shaxsning ma'naviy-axloqiy kamoloti endi uning tashqi muhitga moslashishidan ko'ra, ichki potensialini ro'yobga chiqarish jarayoni sifatida qaraladi.

Ta'lim-tarbiyaning integrativ xarakteri. Zamonaviy paradigmada bilim, ko'nikma va malakalar bilan bir qatorda shaxsiy sifatlar, dunyoqarash, qadriyatlar yagona tizimda shakllanadi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya endi alohida fan yoki tadbirlar to'plamidan, balki barcha ta'lim jarayonlarining ajralmas qismiga aylanadi.

Tarbiyaning faolligi va ijodiy xususiyati. An'anaviy paradigmadagi passiv qabul qilish o'rniga zamonaviy paradigma o'quvchining faol ishtirokini, mustaqil fikrlashini, o'z qarorlarini qabul qilish va ularning oqibatlari uchun javobgarlikni talab qiladi.

Madaniy-madaniy yondashuv. Har bir o'quvchi o'zining madaniy, milliy, diniy va shaxsiy xususiyatlari bilan e'tirof etiladi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya universal qadriyatlarni o'rgatish bilan birga, milliy va madaniy an'analarni hurmat qilishga ham qaratiladi.

Hayotga yo'naltirilganlik (pragmatizm). Ta'lim-tarbiya natijalari o'quvchining real hayotda duch keladigan vaziyatlarda qo'llash imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Ma'naviy-axloqiy tarbiya ham faqat nazariy bilimlarni emas, balki amaliy axloqiy tajribani shakllantirishga qaratilishi lozim.

Zamonaviy paradigma sharoitida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yangi talablari. Yuqorida bayon etilgan paradigma xususiyatlari ma'naviy-axloqiy tarbiyaga quyidagi yangi talablarni qo'yadi:

Tarbiyaning sub'ekt-sub'ekt xarakteri. An'anaviy paradigmadagi "tarbiyachi-tarbiyalanuvchi" munosabatlari o'rniga "tarbiyachi va tarbiyalanuvchi" o'rtasidagi hamkorlik, o'zaro hurmat va tenglik munosabatlari shakllanishi kerak. Bu o'quvchining axloqiy tanlov qilish erkinligini va javobgarligini ta'minlaydi.

Qadriyatlar ko'p qirraliligi. Globalizatsiya sharoitida turli madaniyatlar, dinlar va dunyoqarashlarning uchrashuvi o'quvchilarning qadriyatlar dunyosini boyitadi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya endi faqat bitta "to'g'ri" qadriyatlar tizimini o'rgatish emas, balki turli qadriyatlarni tahlil qilish, ularni tanlash va o'z hayotida qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilishi lozim.

Refleksivlik. O'quvchi nafaqat axloqiy qoidalarni bilishi, balki o'z xatti-harakatlarini, motivlarini va qadriyatlarini tahlil qilish, o'zini-o'zi baholash va o'zini takomillashtirish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Kontekstualilik. Ma'naviy-axloqiy tarbiya abstrakt qoidalardan uzoqlashib, konkret hayotiy vaziyatlarga, ijtimoiy haqiqatlarga, zamonaviy muammolarga bog'liq bo'lishi kerak.

Protsessuallik. Ma'naviy-axloqiy tarbiya bir martalik tadbir yoki dars emas, balki uzluksiz jarayon bo'lib, hayotning barcha sohalarida, ta'limning barcha bosqichlarida amalga oshirilishi lozim.

Bu talablar ma'naviy-axloqiy tarbiyaning mazmuni-mohiyatli transformatsiyasining zarurligini asoslaydi.

Mazmuni-mohiyatli transformatsiya tushunchasining pedagogik talqinlari. "Transformatsiya" lotincha "transformare" so'zidan olingan bo'lib, "shaklni o'zgartirish, aylantirish" degan ma'noni anglatadi. Pedagogikada bu tushuncha tarbiyaviy jarayonning tubdan o'zgarishini ifodalash uchun ishlatiladi. "Mazmuni-mohiyatli" sifatli transformatsiya esa bu o'zgarishning nafaqat tashqi, balki ichki, mohiyatga taalluqli ekanligini ko'rsatadi.

Pedagogikada mazmun va mohiyat tushunchalari o'rtasida farq qilinadi. Mazmun — bu ma'lum bir ta'lim yoki tarbiya jarayonida o'quvchiga yetkaziladigan bilimlar, qadriyatlar, g'oyalar va tajribalar tizimi. Mohiyat esa bu mazmunning chuqurroq, asosiy ma'nosi, uning inson shaxsiga, jamiyatga va hayotga taalluqli haqiqiy ahamiyatidir.

Masalan, "halollik" qadriyati mazmun jihatidan "o'zgarning mol-mulkini ruxsatsiz olmaslik" qoidasi sifatida tushuntirilishi mumkin. Ammo uning mohiyati — bu insonning o'ziga va boshqalarga nisbatan samimiyligi, ochiqligi, so'zlari va ishlari o'rtasidagi muvofiqligi, ishonchli shaxs sifatida shakllanishidir.

Mazmuni-mohiyatli transformatsiya shuni anglatadiki, ma'naviy-axloqiy tarbiya nafaqat yangi mazmuniy elementlarni o'z ichiga oladi, balki bu elementlarning o'quvchi shaxsida qanday ichki o'zgarishlarni keltirib chiqarishi, uning ma'naviy-axloqiy dunyosini qanday boyitishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqacha aytganda, transformatsiya "nima o'rgatish"dan "qanday inson shakllantirish"ga qaratiladi.

Transformatsiyaning nazariy asoslari. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning mazmuni-mohiyatli transformatsiyasi bir qator pedagogik va psixologik nazariyalarga asoslanadi:

Gumanistik psixologiya (A. Maslow, K. Rogers). Bu nazariya insonning o'z-o'zini amalga oshirish, shaxsiy o'sish va ma'naviy kamolotga intilish ehtiyojlarini ta'kidlaydi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya o'quvchining ichki potensialini ochishga, uning axloqiy tanlovlari erkinligini hurmat qilishga qaratilishi kerak.

Madaniy-tarixiy nazariya (L. Vygotskiy). Shaxsning rivojlanishi ijtimoiy-madaniy muhit bilan uzviy bog'liq. Ma'naviy-axloqiy tarbiya o'quvchining "yaqin rivojlanish zonasi"ni hisobga olishi, ya'ni uning hozirgi axloqiy tajribasi va keyingi rivojlanish imkoniyatlari o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlashi lozim.

Qadriyat yondashuvi (M. Rokeach, S. Schwartz). Qadriyatlar inson xatti-harakatlarining asosiy motivatorlari hisoblanadi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya qadriyatlarni mexanik o'rgatish emas, balki ularni tahlil qilish, o'zlashtirish va hayotda qo'llash jarayoni bo'lishi kerak.

Axloqiy rivojlanish nazariyasi (L. Kolberg). Axloqiy rivojlanish bir necha bosqichlardan o'tadi. Zamonaviy tarbiya o'quvchining axloqiy rivojlanish bosqichlarini hisobga olishi, uni keyingi bosqichlarga o'tishga yordam berishi lozim.

Kompetentsiyalik yondashuv. Zamonaviy ta'limda natija nafaqat bilim, balki kompetentsiya — bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlar yagona tizimi sifatida qaraladi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya ham shunga mos ravishda axloqiy kompetentsiyalarni shakllantirishga qaratilishi kerak.

Mazmuni-mohiyatli transformatsiya quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

Maqsad transformatsiyasi. Maqsad an'anaviy paradigmadagi "axloqiy qoidalar va me'yorlarni o'rgatish"dan "axloqiy kompetentsiyali, ma'naviy yetuk shaxsni shakllantirish"ga o'zgaradi.

Mazmun transformatsiyasi. Mazmun yangi qadriyatlar (inson huquqlari, ekologik axloq, axborot axloqi, global fuqarolik), zamonaviy axloqiy muammolar (korruptsiya, ekstremizm, narkomaniya) va ularning yechim yo'llarini o'z ichiga oladi.

Usul transformatsiyasi. Didaktik usullar (suhbat, hikoya, tushuntirish) faol usullar (muammoli o'qitish, loyiha ishi, rolli o'yinlar, keystlar) bilan to'ldiriladi va almashtiriladi.

Texnologiya transformatsiyasi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, multimedia, virtual muhit va ijtimoiy tarmoqlar tarbiyaviy jarayonga integratsiya qilinadi.

Baholash transformatsiyasi. Baholash nafaqat bilimni, balki axloqiy tajribani, qadriyatlar tizimini, xatti-harakatlarni ham qamrab oladi. Bu formativ baholash, o'zini-o'zi baholash va o'zaro baholashni o'z ichiga oladi.

Muhit transformatsiyasi. Tarbiyaviy muhit nafaqat maktab binosi va sinf xonasi, balki butun maktab hayoti, oila-maktab hamkorligi, ijtimoiy hamkorlik va axborot muhitini ham qamrab oladi.

Qadriyatlar mazmunining transformatsiyasi. Qadriyatlar ma'naviy-axloqiy tarbiyaning markaziy elementi hisoblanadi. Zamonaviy paradigma sharoitida qadriyatlar mazmuni quyidagi o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda:

Milliy va universal qadriyatlar uyg'unlashuvi. Globalizatsiya davrida milliy qadriyatlar (Vatan, oila, mehnat, ilm-fan) bilan universal insoniy qadriyatlar (inson huquqlari, erkinlik, adolat, tinchlik) o'rtasidagi uyg'unlik ta'minlanishi kerak. Bu o'quvchida o'z millati va vatani uchun faxrlanish hissi bilan birga, butun insoniyatning qadriyatlarini hurmat qilish ko'nikmasini shakllantiradi.

Dunyoviy va diniy qadriyatlar dialogi. Zamonaviy jamiyatda dunyoviy va diniy qadriyatlar o'rtasidagi dialog muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya o'quvchida turli din va dunyoqarashlarga hurmat, bag'rikenglik va dialog qilish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilishi lozim.

Yangi qadriyatlarning paydo bo'lishi. Axborot jamiyatida axborot axloqi, kiberxavfsizlik, raqamli madaniyat, ekologik axloq, tolerantlik va multikulturalizm kabi yangi qadriyatlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu qadriyatlar an'anaviy tarbiya mazmuniga kiritilishi va o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi kerak.

Qadriyatlar ierarxiyasining o'zgarishi. An'anaviy paradigmadagi qat'iy qadriyatlar ierarxiyasi o'rniga zamonaviy paradigma o'quvchining shaxsiy qadriyatlar tizimini shakllantirishga imkon beradi. Bu o'quvchining o'ziga xos qadriyatlar dunyosini shakllantirishiga, lekin shu bilan birga universal insoniy qadriyatlarga sodiqligini saqlashiga yordam beradi.

Axloqiy bilimlar mazmunining transformatsiyasi. An'anaviy paradigmadagi axloqiy bilimlar asosan axloqiy qoidalar, qonunlar, diniy buyruqlar va ma'naviy-axloqiy tushunchalarni o'z ichiga olardi. Zamonaviy paradigma sharoitida axloqiy bilimlar mazmuni quyidagicha boyitiladi:

O'quvchi nafaqat axloqiy qoidalarni bilishi, balki ularning kelib chiqishini, ijtimoiy funktsiyalarini, zamonaviy sharoitdagi qo'llanilishini tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Bu unga murakkab axloqiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish imkonini beradi.

Zamonaviy hayotda ko'p hollarda aniq "to'g'ri" yoki "noto'g'ri" javob yo'q. O'quvchi axloqiy dilemmalarni tahlil qilish, turli variantlarning oqibatlarini ko'rib chiqish va o'z qarorini asoslash bilimlariga ega bo'lishi lozim.

Zamonaviy fuqarolik jamiyatida axloq va huquq o'rtasidagi bog'liqlikni tushunish muhimdir. O'quvchi o'z huquqlari va burchlarini bilishi, huquqiy madaniyatga ega bo'lishi kerak.

Turli dinlar haqidagi bilimlar o'quvchida diniy bag'rikenglikni shakllantiradi, ekstremizm va radikallikka qarshi turishga yordam beradi.

Atrof-muhitni asrash, barqaror rivojlanish va ekologik axloq zamonaviy ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ajralmas qismi bo'lib qoldi.

Axloqiy tajriba mazmunining transformatsiyasi. Bilim va qadriyatlardan tashqari, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning muhim komponenti axloqiy tajribadir. Bu o'quvchining o'z xatti-harakatlarida, munosabatlarida va faoliyatida axloqiy qadriyatlarni qo'llash tajribasidir.

Zamonaviy paradigma sharoitida axloqiy tajriba mazmuni quyidagicha boyitiladi:

Ijtimoiylashuv tajribasi. O'quvchi turli ijtimoiy guruhlarda (sinf, jamoa, oila, mahalla) ishtirok etish orqali hamkorlik, o'zaro yordam, mas'uliyat va rahbarlik qilish tajribasini orttiradi.

Xayriya va ko'ngillilik tajribasi. Ijtimoiy foydali ishlar, ko'ngillilik harakatlarida ishtirok etish o'quvchida mehribonlik, g'amxo'rlik va jamoat fikri uchun javobgarlik hislarini shakllantiradi.

Madaniy tajriba. Milliy va dunyo madaniyati bilan tanishish, san'at asarlarini anglash, madaniy tadbirlarda ishtirok etish o'quvchining ma'naviy dunyosini boyitadi.

Axborot tajribasi. Axborot muhitida axloqiy tanlov qilish, haqiqatni yolg'ondan ajratish, axborot xavfsizligini ta'minlash tajribasi zamonaviy sharoitda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ekologik tajriba. Tabiatni asrash, ekologik toza hayot tarzini qo'llash tajribasi o'quvchida ekologik mas'uliyatni shakllantiradi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya nafaqat aqliy, balki hissiy jarayon hamdir. Zamonaviy paradigma sharoitida his-tuyg'ular mazmuni quyidagicha boyitiladi:

Empatiya. Boshqalarning holatini tushunish, ularning his-tuyg'ularini anglash va ularga mos ravishda munosabatda bo'lish qobiliyati. Bu zamonaviy jamiyatda muhim axloqiy sifat hisoblanadi.

Ma'naviy hissiyotlar. Go'zallikni anglash, hayratlanish, minnatdorchilik, kechirim so'rash va kechirish kabi yuqori ma'naviy hissiyotlar o'quvchining ichki dunyosini boyitadi.

Axloqiy qayg'u. O'z xatolari, jamiyatdagi adolatsizliklar, insoniy azob-uqubatlar haqidagi qayg'u o'quvchida axloqiy faollikni uyg'otadi.

Faxr hissi. O'z millati, vatani, oilasi va o'zi uchun faxrlanish hissi o'quvchining shaxsiy va ijtimoiy identifikatsiyasini mustahkamlaydi.

Javobgarlik hissi. O'z xatti-harakatlari, so'zlari va qarorlari uchun javobgarlikni anglash va his etish axloqiy yetuklikning muhim belgisidir.

Tarbiyaviy jarayon shakllarining transformatsiyasi

An'anaviy paradigmadagi ma'naviy-axloqiy tarbiya asosan darslar, sinf soatlari, yig'ilishlar va tadbirlar shaklida amalga oshirilar edi. Zamonaviy paradigma sharoitida yangi shakllar qo'shilmoqda:

Loyiha faoliyati. O'quvchilar ma'naviy-axloqiy mavzularda (masalan, "Bizning mahallamizning ma'naviy an'analari", "Ekologik muammolar va bizning burchimiz") loyihalar ishlab chiqishadi. Bu ularning mustaqil fikrlash, hamkorlik qilish va amaliy natijalarga erishish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Keyst-texnologiyalar. Haqiqiy hayotdan olingan murakkab axloqiy vaziyatlar (keystlar) o'quvchilarning tahlil qilish, munozara o'tkazish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Rolli o'yinlar va simulyatsiyalar. O'quvchilar turli ijtimoiy rollarni (siyosatchi, jurnalist, ota-ona, fuqaro) ijro etish orqali turli nuqtai nazarlarni tushunadi va axloqiy tanlovlarni tajribadan o'tkazadi.

Virtual ekskursiyalar va onlayn-tadbirlar. Axborot texnologiyalari yordamida o'quvchilar turli madaniyatlar, dinlar va ijtimoiy institutlar bilan virtual tanishadi.

Oila-maktab hamkorligi. Ota-onalar faol tarzida tarbiyaviy jarayonga jalb etiladi, oilaviy qadriyatlar va maktab qadriyatlari o'rtasidagi uyg'unlik ta'minlanadi.

Ijtimoiy hamkorlik. Mahallalar, nodavlat tashkilotlar, diniy markazlar va boshqa ijtimoiy institutlar bilan hamkorlik tarbiyaviy imkoniyatlarni kengaytiradi.

Tarbiyaviy usullarning transformatsiyasi

Usullar transformatsiyasi ma'naviy-axloqiy tarbiyaning samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi:

O'quvchiga murakkab axloqiy muammolar taqdim etiladi va ularni mustaqil yoki guruhda hal qilish talab qilinadi. Bu tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi.

Turli nuqtai nazarlarning ifodalanishi, ularning tahlili va bahslashish o'quvchida o'z fikrini asoslash va boshqalarning fikrini hurmat qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Kundalik yozish, o'zini-o'zi tahlil qilish, portfoliyo yuritish o'quvchining o'z rivojlanishini kuzatishiga va baholashiga imkon beradi.

Teatr, kino, san'at asarlari, ijtimoiy tajribalar orqali axloqiy qadriyatlar yanada ta'sirchan yetkaziladi.

Ta'limiy o'yinlar, biznes-o'yinlar, raqobatbardosh o'yinlar o'quvchilarning faolligini oshiradi.

Multimedia taqdimotlar, interaktiv dasturlar, ijtimoiy tarmoqlar va bloglar zamonaviy o'quvchilar uchun qiziqarli va samarali tarbiyaviy vositadir.

Tarbiyaviy muhitning transformatsiyasi

Muhit transformatsiyasi ma'naviy-axloqiy tarbiyaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishining muhim shartidir:

Psixologik muhit. Sinfxonada va maktabda hurmat, ishonch, qo'llab-quvvatlash va xavfsizlik muhiti yaratilishi kerak. Bu o'quchilarning ochiq fikrlashiga va axloqiy tajriba almashishiga imkon beradi.

Madaniy-muhit. Maktab binosi va hududi ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni ifodalovchi ko'rgazmalar, buyumlar, matnlar va san'at asarlari bilan boyitilishi lozim.

Axborot muhiti. Maktab axborot resurslari (kutubxona, veb-sayt, ijtimoiy tarmoq sahifalari) ma'naviy-axloqiy tarbiyaga qaratilgan bo'lishi kerak.

Ijtimoiy muhit. Maktabning ijtimoiy hayoti (klublar, to'garaklar, o'quvchilar kengashi, volontyorlik harakatlari) ma'naviy-axloqiy tarbiyani qo'llab-quvvatlashi lozim.

Transformatsiyani amaliyotga tadbiq etishning pedagogik shart-sharoitlari. Pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish

Mazmuni-mohiyatli transformatsiyani amalga oshirish uchun pedagog kadrlar yangi kompetentsiyalarga ega bo'lishi kerak:

O'qituvchi nafaqat fan o'qituvchisi, balki tarbiyachi, maslahatchi, mediator va hamkor sifatida faoliyat yuritishi kerak. U zamonaviy tarbiyaviy texnologiyalarni, faol o'qitish usullarini va refleksiv amaliyotlarni bilishi lozim.

O'qituvchi o'zi ma'naviy-axloqiy yetuk shaxs bo'lishi, o'z qadriyatlarini namoyish etishi va o'quvchilar uchun namuna bo'lishi kerak.

Turli madaniyatlar, dinlar va dunyoqarashlar vakillari bilan muloqot qilish, dialog o'tkazish va nizolarni hal qilish qobiliyatlari.

Axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish, raqamli tarbiyaviy resurslarni yaratish va qo'llash.

Pedagog kadrlarning malakasini oshirish tizimi doimiy ravishda yangilanishi, zamonaviy tarbiyaviy yondashuvlar va texnologiyalar o'rganilishi kerak.

O'quv dasturlari va darsliklarning transformatsiyasi

O'quv dasturlari va darsliklar zamonaviy talablarga javob berishi lozim:

Integrativ yondashuv. Ma'naviy-axloqiy tarbiya elementlari barcha fanlarning o'quv dasturlariga integratsiya qilinishi kerak. Har bir fan o'qituvchisi o'z fanida ma'naviy-axloqiy tarbiyaviy imkoniyatlarni qo'llab-quvvatlashi lozim.

Faollik va amalliylik. Darsliklar va qo'llanmalar o'quvchining faol ishtirokini ta'minlovchi vazifalar, mashqlar va tajribalar bilan boyitilishi kerak.

Zamonaviylik. Darsliklarda zamonaviy axloqiy muammolar, voqealar va vaziyatlar yoritilishi, o'quvchining hayotiy tajribasi bilan bog'liqligi ta'minlanishi lozim.

Ko'p madaniyatlilik. Darsliklar turli madaniyatlar, dinlar va dunyoqarashlarni hurmat qiluvchi, pluralistik yondashuvni aks ettirishi kerak.

Oila va jamiyatning ishtiroki

Mazmuni-mohiyatli transformatsiya faqat maktabning ichki ishi emas, balki butun jamiyatning ishtirokini talab qiladi:

Oila-maktab hamkorligi. Ota-onalar tarbiyaviy jarayonga faol jalb etiladi, oilaviy tarbiya va maktab tarbiyasi o'rtasidagi uyg'unlik ta'minlanadi. Ota-onalar uchun ma'naviy-axloqiy tarbiya bo'yicha treninglar va maslahatlar tashkil etiladi.

Ijtimoiy hamkorlik. Mahalla qo'mitalari, nodavlat tashkilotlar, yoshlar tashkilotlari, diniy markazlar va boshqa ijtimoiy institutlar bilan hamkorlik tarbiyaviy imkoniyatlarni kengaytiradi.

Ommaviy axborot vositalari va internet. OAV va ijtimoiy tarmoqlar ma'naviy-axloqiy tarbiyani qo'llab-quvvatlovchi kontent bilan to'ldirilishi, bolalar uchun xavfsiz axborot muhiti yaratilishi kerak.

Davlat siyosati. Davlat ma'naviy-axloqiy tarbiyani davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qo'llab-quvvatlashi, tegishli dasturlar va loyihalarni moliyalashtirishi lozim.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning samaradorligini baholash an'anaviy baholash usullaridan farq qiladi:

Kompleks baholash. Baholash nafaqat bilimni, balki qadriyatlar, hissiyotlar, xatti-harakatlar va tajribani ham qamrab olishi kerak.

Formativ baholash. O'quvchining rivojlanish jarayoni doimiy kuzatiladi, unga yo'naltirilgan fikr-mulohazalar beriladi.

O'zini-o'zi baholash va o'zaro baholash. O'quvchi o'zining axloqiy rivojlanishini o'zi baholaydi, hamkasblarining fikrlarini tinglaydi.

Portfoliyo. O'quvchining ma'naviy-axloqiy rivojlanishini aks ettiruvchi ishlari, tajribalari va yutuqlari to'plangan portfoliyo yuritiladi.

Standartlashtirilmagan baholash. Axloqiy rivojlanishni standart testlar bilan o'lchash qiyin. Shuning uchun kuzatish, suhbat, tahlil va refleksiya kabi standartlashtirilmagan usullar qo'llaniladi.

Transformatsiyaning zamonaviy muammolari va ularning yechim yo'llari.

Asosiy muammolar

Mazmuni-mohiyatli transformatsiya jarayonida bir qator muammolar yuzaga kelmoqda:

An'anaviy va zamonaviy yondashuvlar o'rtasidagi ziddiyat. Ko'p hollarda an'anaviy normativ-didaktik yondashuv hali ham hukmron bo'lib, yangi yondashuvlarni qabul qilish qiyin kechmoqda.

Pedagog kadrlarning tayyorgarligi yetishmasligi. Ko'plab o'qituvchilar zamonaviy tarbiyaviy texnologiyalarni, faol usullarni va refleksiv amaliyotlarni yetarlicha bilishmaydi.

Axborot muhitining salbiy ta'siri. Internet va OAV orqali tarqalayotgan zo‘ravonlik, ekstremizm, pornografiya va boshqa salbiy axborot o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga tahdid solmoqda.

Qadriyatlar pluralizmi va nisbiyatchilik. Zamonaviy jamiyatda turli va hatto ziddiyatli qadriyatlar mavjudligi o'quvchilarning qadriyatlar tizimini shakllantirishni qiyinlashtirmoqda.

Oila institutining zaiflashuvi. Ajrashishlar sonining oshishi, oilaviy qadriyatlarning pasyayishi, ota-onalarning bandligi va etiborsizligi ma'naviy-axloqiy tarbiyaga salbiy ta'sir qilmoqda.

Ta'limning bilim markazliligi. Hali ham ko'p hollarda ta'lim asosan bilim berishga qaratilgan bo'lib, tarbiyaviy funksiya ikkinchi o'rinda qolmoqda.

Yuqoridagi muammolarni hal qilish uchun quyidagi choralarni ko'rish lozim:

Pedagogik fikrning yangilanishi. Pedagogik tadqiqotlar, ilmiy konferensiyalar va nashrlar orqali zamonaviy paradigma g'oyalini tarqatish, an'anaviy va zamonaviy yondashuvlarning uyg'unlashuvini ta'minlash.

Kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish. Pedagogika oliy o'quv yurtlarida va malaka oshirish kurslarida zamonaviy tarbiyaviy kompetentsiyalarga e'tibor qaratish, amaliy mashg'ulotlarni kengaytirish.

Axborot xavfsizligini ta'minlash. O'quvchilarga axborot savodxonligini o'rgatish, bolalar uchun xavfsiz internet muhitini yaratish, OAVni nazorat qilish.

Qadriyatlar ta'limi. O'quvchilarga qadriyatlarni tahlil qilish, tanlash va o'zlashtirish ko'nikmalarini o'rgatish, universal insoniy qadriyatlarga asoslangan mustahkam qadriyatlar poydevorini shakllantirish.

Oila institutini qo'llab-quvvatlash. Oila uchun ijtimoiy yordam, psixologik maslahat, ota-onalar uchun treninglar va ta'lim dasturlarini tashkil etish.

Ta'lim-tarbiya integratsiyasini kuchaytirish. Barcha fanlar o'qituvchilarini tarbiyaviy funksiyani bajarishga tayyorlash, maktab hayotining har bir lahzasida tarbiyaviy imkoniyatlarni qo'llash.

Xulosa. Zamonaviy pedagogik paradigma sharoitida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning mazmuni-mohiyatli transformatsiyasi ta'lim-tarbiya sohasining eng dolzarb muammolaridan biridir. Bu transformatsiya nafaqat tarbiyaviy jarayonning tashki shakllarini, balki uning ichki mohiyatini, maqsadlarini, mazmunini, usullarini va baholash tizimini ham qamrab oladi.

Transformatsiyaning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, maqsad transformatsiyasi — axloqiy qoidalar va me'yorlarni o'rgatishdan axloqiy kompetentsiyali, ma'naviy yetuk, tanqidiy fikrlaydigan va javobgar shaxsni shakllantirishga o'tish.

Ikkinchidan, mazmun transformatsiyasi — yangi qadriyatlar (inson huquqlari, ekologik axloq, axborot axloqi, multikulturalizm), zamonaviy axloqiy muammolar va ularning yechim yo'llarini o'z ichiga olgan boyitilgan mazmun.

Uchinchidan, usul transformatsiyasi — didaktik usullardan faol, muammoli, refleksiv va axborot texnologiyalariga asoslangan usullarga o'tish.

To'rtinchidan, muhit transformatsiyasi — psixologik, madaniy, axborot va ijtimoiy muhitning ma'naviy-axloqiy tarbiyani qo'llab-quvvatlovchi tarzda shakllantirilishi.

Beshinchidan, baholash transformatsiyasi — natijaviy baholashdan formativ, kompleks va o'z-o'zini baholashga o'tish.

Mazmuni-mohiyatli transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun pedagog kadrlarning yangi kompetentsiyalarga ega bo'lishi, o'quv dasturlarining zamonaviy talablarga javob berishi, oila va jamiyatning faol ishtiroki, axborot muhitining xavfsizligi va davlatning qo'llab-quvvatlashi ta'minlanishi kerak.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning mazmuni-mohiyatli transformatsiyasi — bu uzluksiz jarayon bo'lib, u jamiyatning rivojlanishi, yangi muammolar va imkoniyatlar paydo bo'lishi bilan doimiy yangilanib boradi. Shuning uchun pedagogik hamjamiyat bu transformatsiyani doimiy kuzatishi, tadqiq qilishi va takomillashtirishi lozim.

Kelajakda ma'naviy-axloqiy tarbiya insonning shaxs sifatida shakllanishining eng muhim sharti bo'lib qoladi. Zamonaviy paradigma sharoitida bu tarbiya o'quvchining ichki erkinligi, ijodiy potensiali va ma'naviy yetukligini ro'yobga chiqarishga qaratilgan bo'lishi kerak. Faqat shundagina biz ma'naviy-axloqiy yetuk, jamiyat va davlat foydasiga ijodkor shaxslarni tarbiyalay olamiz.

Adabiyotlar:

1. Abdullayev A.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. — Toshkent: Fan, 2020.
2. G'ofurov G'.G'. Pedagogika nazariyasi. — Toshkent: O'qituvchi, 2019.
3. Kolberg L. Psixologiya moral'nogo razvitiya. — M.: Progress, 2018.
4. Maslow A. Motivatsiya i lichnost'. — SPb.: Piter, 2019.
5. Rogers K. Vzglyad na psixoterapiyu. Stanovlenie cheloveka. — M.: Eksmo, 2017.
6. Rokeach M. The Nature of Human Values. — New York: Free Press, 2019.
7. Schwartz S.H. Universals in the Content and Structure of Values: Theoretical Advances and Empirical Tests in 20 Countries // Advances in Experimental Social Psychology. — 2020. — Vol. 25.
8. Vygotskiy L.S. Sobranie sochineniy: v 6 t. — M.: Pedagogika, 2018.
9. Zimnyaya I.A. Klyuchevye kompetentsii kak rezul'tativno-tselevaya osnova kompetentnostnogo podkhoda v obrazovanii // Narodnoe obrazovanie. — 2021. — № 2.
10. Xudoyqulov S.X. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning nazariy va amaliy muammolari. — Toshkent: Akademnashr, 2022.
11. Yuldashev N.Y. Zamonaviy tarbiyashunoslik. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
12. G'iyosov B.G'. O'quvchilar ma'naviyatini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari // Pedagogika fanlari axborotnomasi. — 2020. — № 3.
13. Xayrullayev M. Milliy qadriyatlar va zamonaviy tarbiya. — Toshkent: Sharq, 2019.

RAQAMLI DAVR TALABASI AXLOQIY-ESTETIK MADANIYATINI AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI

Bannaqulov Mexroj Furqat o‘g‘li,
Samarqanda davlat pedagogika instituti
musiqa ta’limi kafedrasi assistenti

Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib borayotgan hozirgi davrda oliy ta’lim muassasasi talabalarining axloqiy-estetik madaniyatini takomillashtirishning dolzarb pedagogik muammolari aksiologik yondashuv nuqtai nazaridan keng va chuqur tahlil etilgan. Maqolada axloqiy-estetik madaniyat fenomenining falsafiy va pedagogik mohiyati, aksiologik yondashuvning ta’lim-tarbiya jarayonidagi o‘rni va ahamiyati, raqamli muhitning talabalar shaxsiga ko‘p qirrali ta’siri, mavjud muammolarning sabablari va ularni bartaraf etishning samarali pedagogik yo‘l-yo‘riqlari ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqot natijalari oliy ta’lim sohasidagi amaliyotchi pedagog va metodistlar uchun amaliy qo‘llanma bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: *axloqiy-estetik madaniyat, aksiologik yondashuv, qadriyat, raqamli davr, talaba, oliy ta’lim, shaxs tarbiyasi, estetik did, axloqiy ong, raqamli muhit, ma’naviyat, milliy qadriyatlar, pedagogik texnologiya.*

ПРОБЛЕМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ НРАВСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ НА ОСНОВЕ АКСИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

В данной статье с педагогической точки зрения анализируются актуальные проблемы совершенствования нравственно-эстетической культуры студентов высших учебных заведений в условиях стремительного развития цифровых технологий на основе аксиологического подхода. Раскрывается философская и педагогическая сущность феномена нравственно-эстетической культуры, роль и значение аксиологического подхода в учебно-воспитательном процессе, многогранное влияние цифровой среды на личность студента, причины существующих проблем и эффективные педагогические пути их решения. Результаты исследования могут служить практическим руководством для педагогов-практиков и методистов в сфере высшего образования.

Ключевые слова: *нравственно-эстетическая культура, аксиологический подход, ценность, цифровая эпоха, студент, высшее образование, воспитание личности, эстетический вкус, нравственное сознание, цифровая среда, духовность, национальные ценности, педагогические технологии.*

PROBLEMS OF IMPROVING THE MORAL-AESTHETIC CULTURE OF STUDENTS IN THE DIGITAL AGE BASED ON THE AXIOLOGICAL APPROACH

This article analyzes the current pedagogical problems of improving the moral and aesthetic culture of students of higher educational institutions in the era of rapid development of digital technologies from the perspective of the axiological approach. The philosophical and pedagogical essence of the phenomenon of moral and aesthetic culture, the role and significance of the axiological approach in the educational process, the multifaceted influence of the digital environment on students’ personalities, the causes of existing problems and effective pedagogical ways to solve them are scientifically substantiated. The research results can serve as a practical guide for practitioners and methodologists in the field of higher education.

Key words: *moral-aesthetic culture, axiological approach, value, digital age, student, higher education, personality upbringing, aesthetic taste, moral consciousness, digital environment, spirituality, national values, pedagogical technologies.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida yoshlarni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatni shakllantirish ustuvor vazifalar qatorida belgilab berilgan [1]. Ushbu strategik hujjat nafaqat iqtisodiy-ijtimoiy, balki ma’naviy-tarbiyaviy sohalarda ham keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirishning yo‘l xaritasini belgilab berdi. Mazkur strategik yo‘nalish raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi kunda yanada katta ahamiyat kasb etmoqda,

yoshlar ongiga turli yo‘llar bilan ta’sir ko‘rsatishga urinayotgan salbiy kuchlar ham tobora kuchayib bormoqda.

Zamonaviy talaba raqamli makon bilan chambarchas bog‘liq holda yashaydi, ta’lim oladi va muloqot qiladi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli media va virtual haqiqat texnologiyalari talabalar ongi, axloqi va estetik didiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu jarayon bir tomondan ta’lim-tarbiya imkoniyatlarini beqiyos kengaytirsa, ikkinchi tomondan axloqiy-estetik madaniyatni shakllantirishda yangi muammo va ziddiyatlar keltirib chiqarmoqda. Pedagog-olimlar va jamoatchilik vakillari bu masalaga alohida e’tibor qaratmoqda, zero mamlakatimiz kelajagi bo‘lmish yoshlarning ma’naviy qiyofasi ko‘p jihatdan bugungi kun ta’lim-tarbiyasiga bog‘liqdir.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, talabalar axloqiy-estetik madaniyatini raqamli davr sharoitida aksiologik yondashuv vositasida takomillashtirish masalasi bugungi pedagogika fanining eng dolzarb muammolaridan biriga aylandi. Aksiologik yondashuv - ta’lim-tarbiya jarayonini qadriyatlar asosida qurishga yo‘naltiruvchi pedagogik konsepsiya sifatida – ushbu muammoni hal etishda muhim metodik vosita bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur maqolada ushbu muammoning nazariy asoslari, raqamli muhitning ta’siri va aksiologik yondashuvning amaliy pedagogik imkoniyatlari atroflicha o‘rganiladi.

Tadqiqotning maqsadi: raqamli davr sharoitida talabalar axloqiy-estetik madaniyatini aksiologik yondashuv asosida takomillashtirishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish. Maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi: axloqiy - estetik madaniyat tushunchasining falsafiy va pedagogik mohiyatini ochib berish; aksiologik yondashuvning pedagogik ahamiyatini asoslash; raqamli muhitning talabalar axloqiy-estetik madaniyatiga ta’sirini tahlil qilish; takomillashtirish yo‘llari va pedagogik shartlarini aniqlash.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. “Axloqiy-estetik madaniyat” tushunchasi pedagogika fanida shaxsning axloqiy va estetik sifatlarining yaxlit birligi sifatida talqin etiladi. Bu tushunchani to‘g‘ri anglash uchun avvalo uning tarkibiy qismlarini alohida-alohida tahlil etish zarur. Axloq (yunoncha “ethos” - odat, xarakter) - insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi me’yorlar, qoidalar va qadriyatlar tizimi bo‘lib, u jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor standartlarini ifodalaydi. Estetika (yunoncha “aisthetikos” - his etish, sezish) esa go‘zallik, san’at va insonning estetik his-tuyg‘ularini o‘rganuvchi fan bo‘lib, dunyoni badiiy idrok etish va go‘zallikni anglash bilan bog‘liq.

Tadqiqotchi N.Sh.Shodiyev ta’kidlaganidek, axloqiy-estetik madaniyat insonning jamiyatdagi xulq-atvori, muloqot madaniyati, go‘zallikni his etish va baholash qobiliyati hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga munosabatini o‘zida mujassam etadi [2]. Bu ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, axloqiy-estetik madaniyat shaxsning bir tomonlama emas, balki ko‘p qirrali rivojlanishini nazarda tutadi. U bilish, his etish va faoliyat jihatlarini o‘z ichiga oladi.

Pedagog olim M.X.Lutfullayev o‘zining tadqiqotlarida axloqiy va estetik sohalarning o‘zaro aloqadorligini shunday izohlaydi: go‘zallikni his etish qobiliyati insonni axloqiy yuksalishga undaydi, o‘z navbatida yuksak axloqli inson har doim go‘zallikka intiluvchi bo‘ladi. Bu ikki soha bir-birini to‘ldiradi va shaxsning yaxlit ma’naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishda birgalikda ishtirok etadi [3]. Shu sababli axloqiy tarbiya bilan estetik tarbiyani bir-biridan ajratib o‘rganish mantiqan noto‘g‘ri bo‘lur edi.

Axloqiy-estetik madaniyatning tarkibiy tuzilishi masalasida olimlar turlicha yondashuvlarni ilgari surmoqdalar. Bizning tadqiqotimizda ushbu madaniyatning quyidagi asosiy tarkibiy qismlari ajratib ko‘rsatiladi: birinchidan, axloqiy ong - axloqiy bilimlar, tasavvurlar, e’tiqodlar va me’yorlar to‘plami; ikkinchidan, axloqiy his-tuyg‘ular - vijdon, mas’uliyat, mehr-oqibat, vatanparvarlik, insonparvarlik; uchinchidan, estetik did - go‘zallikni anglash, san’atga muhabbat, badiiy idrok etish qobiliyati; to‘rtinchidan, xulq-atvor madaniyati - muloqot madaniyati, raqamli xulq-atvor, ijtimoiy mas’uliyat va vatanparvarlik amallari.

Xorijiy tadqiqotchilar ham bu masalaga katta e’tibor berishgan. Rus pedagog-olimi V.A.Suxomlinsiy insonni tarbiyalashda go‘zallik va axloqning birligi g‘oyasini ilgari surib, “go‘zal go‘zallikni yaratadi” degan mashhur pedagogik tamoyilini asoslagan. Uning fikricha, bola qalbiga go‘zallikni singdirish orqali axloqiy kamolotga ham erishish mumkin. Ingliz faylasufi va pedagogi J.Dyui esa estetik tajribani shaxs rivojlanishining asosi deb hisoblagan va ta’limda san’at va hayotning birligi tamoyilini ilgari surgan [4]. Bu g‘oyalar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.

O‘zbek milliy pedagogikasida axloqiy-estetik madaniyatning shakllanishi milliy qadriyatlar tizimi bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi. Navoiy, Ulug‘bek, Beruniy, Ibn Sino kabi buyuk ajdodlarimiz ilmiy va badiiy merosida axloq va go‘zallikning uyg‘unligi g‘oyasi markaziy o‘rinni egallaydi. Xususan, Alisher Navoiy o‘zining she’riyatida insoniy go‘zallikning asosi axloq ekanligini, to‘g‘ri axloqli inson qalbining go‘zalligi esa tabiat go‘zalligidan ham ulug‘ligi g‘oyasini o‘rtaga tashlagan [5]. Bu an’ana bugungi o‘zbek pedagogikasida davom ettirilmoqda.

Aksiologiya (yunoncha “axios” - qadriyat, “logos” - ta’limot) qadriyatlar haqidagi falsafiy fan bo‘lib, u insonning olam va jamiyatga munosabatini qadriyat prizmasi orqali o‘rganadi. Falsafa fanida qadriyat masalasi antik davrdan beri muhokama qilinib kelinadi. Qadimgi yunonlar “Agaton” (yaxshilik) va “kalon” (go‘zallik) tushunchalari orqali qadriyatlar dunyosini tavsiflashga harakat qilganlar. O‘rta asrlarda diniy qadriyatlar ustuvor bo‘lgan bo‘lsa, Uyg‘onish davridan boshlab insoniy qadriyatlar - aql, erkinlik, go‘zallik, mehnat - markaziy o‘rinni egallay boshlagan [6].

Zamonaviy aksiologiya fani qadriyatlarni ikki katta guruhga ajratadi: moddiy va ma’naviy qadriyatlar. Ma’naviy qadriyatlar o‘z navbatida axloqiy, estetik, diniy, siyosiy va boshqa turlarga bo‘linadi. Pedagogikada aksiologik yondashuv ta’lim-tarbiya jarayonini qadriyatlarga yo‘naltirish, ya’ni bilim va ko‘nikmalar emas, balki insoniy qadriyatlar ta’lim-tarbiyaning asosi va maqsadi sifatida qabul qilinishi demakdir. Rus pedagog-olimlari V.A.Slastenin va G.I.Chijikova aksiologik yondashuvni shaxsni qadriyatlar subyekti sifatida ko‘rish, uning qadriyatli munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirish jarayoni sifatida tavsiflaydilar [7].

O‘zbek pedagogikasida aksiologik yondashuv milliy qadriyatlar - vatanparvarlik, insonparvarlik, oila muqaddasligi, mehnatsevarlik, mehr-oqibat, milliy an’analar va umuminsoniy axloqiy me’yorlar bilan boyitilgan holda qo‘llaniladi. O‘zbekistoning birinchi Prezidenti I.A.Karimovning ”Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch” asarida ta’kidlanganidek, milliy qadriyatlarga asoslanmagan tarbiya o‘z ildizidan uzilgan daraxtga o‘xshaydi - u meva berolmaydi [8]. Bu g‘oya aksiologik yondashuvning milliy pedagogikamizga muvofiqligini yanada chuqurroq asoslaydi.

Aksiologik yondashuvning ta’lim-tarbiya jarayonidagi pedagogik ahamiyati bir necha jihatda namoyon bo‘ladi. Birinchi jihati - motivatsion: talabalar nima uchun o‘qishi, nima uchun yaxshi bo‘lishi kerakligini qadriyatlar orqali anglaydi. Ikkinchi jihati - integrativ: axloqiy, estetik, intellektual, jismoniy tarbiyani yaxlit bir butun sifatida ko‘rish imkonini beradi. Uchinchi jihati - shaxsiy: har bir talabani o‘ziga xos qadriyatlar dunyosiga ega bo‘lgan noyob shaxs sifatida qabul qilish va uning qadriyatli munosabatlarini rivojlantirish imkonini beradi. To‘rtinchi jihati - ijtimoiy: talabalarni jamiyat qadriyatlari bilan uyg‘un holda tarbiyalash va ularni jamiyatga foydali fuqaro sifatida shakllantirishni ta’minlaydi.

Aksiologik yondashuvni amalga oshirishda o‘qituvchining o‘zi muhim rol o‘ynaydi. Zero, qadriyatlarni faqat so‘z bilan emas, balki shaxsiy namuna orqali ham ko‘rsatish mumkin. O‘qituvchi o‘zi axloqan yetuk, estetik didi rivojlangan, milliy qadriyatlarga sadoqatli shaxs bo‘lsa, u holda talabalarga bu qadriyatlarni ko‘chirish ancha oson kechadi. Bu borada faylasuf Sokrat ta’limoti hali ham o‘z dolzarbligini saqlab kelmoqda: o‘qituvchi avvalo o‘zi yaxshi inson bo‘lishi kerak [9].

Bugungi kunda O‘zbekistonda internet foydalanuvchilari soni 32 milliondan oshib ketdi, ularning katta qismi 18-30 yoshdagi yoshlar, jumladan talabalar tashkil etadi. Tadqiqotlarga ko‘ra, yoshlar sutkasiga o‘rtacha 6-8 soat vaqtlarini raqamli makon - ijtimoiy tarmoqlar, video platformalar, onlayn o‘yinlar va messenjerlar bilan o‘tkazmoqdalar [10]. Bu holat ta’lim, madaniyat va tarbiya sohasida jiddiy o‘zgarishlarni vujudga keltirmoqda.

Raqamli muhitning ijobiy imkoniyatlarini inkor etib bo‘lmaydi. Internet orqali dunyo kutubxonalariga, eng yaxshi o‘quv materiallariga, badiiy asarlar va san’at namunalariga erkin kirish mumkin. Onlayn ta’lim platformalari bilim olishni demokratlashtirdi - bugun Samarqanddagi talaba Harvardning eng yaxshi ma’ruzachisini eshitishi mumkin. Raqamli texnologiyalar yaratuvchanlikni ham kengaytirdi - talabalar raqamli san’at, musiqa, video kontent yaratish orqali o‘z ijodiy qobiliyatlarini namoyon eta oladilar. Tadqiqotchi D.A.Isayeva ta’kidlaganidek, raqamli media zamonaviy ta’limda falsafiy jihatdan muhim o‘rin egallaydi va uni to‘g‘ri yo‘naltirilgan holda ishlatish ta’lim samaradorligini sezilarli oshiradi [11].

Biroq raqamli muhitning salbiy ta’sirlari ham yetarlicha kuchli. Birinchidan, axloqiy me’yorlarning relativlashishi muammosi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Raqamli makon ko‘pincha axloqiy me’yorlardan xoli yoki ularni nisbiylashtiruvchi makon sifatida namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy tarmoqlardagi anonim muloqot talabalarning axloqiy javobgarlik hissini susaytirishi, hatto yo‘qotishi mumkin. Kimdir «trolling», kiberbullying (raqamli tahqirlash) kabi ko‘rinishlarda boshqalarga ozor berishni odat qilib olishi xavfi mavjud.

Ikkinchidan, estetik didning buzilishi muammosi tobora keskinlashmoqda. Raqamli media tezkor va ko‘ngilochar kontentni ustuvor qiladi - bu esa chuqur badiiy-estetik idrokni rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi. Ijtimoiy tarmoqlarda soniyalar ichida ko‘rilgan, aqlga o‘ylamasdan like bosilgan minglab rasmlar va videoroliklar talabalar estetik sezgisini o‘tmaslashtirib qo‘yishi mumkin. Tadqiqotchi S.K.Yazdonova ta’kidlaganidek, kibermakonning reklama va ko‘ngilochar kontent bilan to‘lib toshishi yoshlardagi estetik didga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda [12].

Uchinchidan, milliy qadriyatlardan uzoqlashish va madaniy globallashtirish xavfi kuchaymoqda. Global raqamli makon - birinchi navbatda ingliz tilida yaratilgan va G‘arb qadriyatlari hamda madaniy

mezonlarini targ‘ib qiluvchi kontent - o‘zbek talabalarining milliy axloqiy-estetik an’analardan begonalashishiga zamin yaratishi mumkin. Yoshlar o‘z ona tili, milliy kiyim-kechak, milliy musiqa va san’atdan uzoqlashib, global pop-madaniyatni o‘zlashtirish xavfi olimlarning e’tiborini tortmoqda.

To‘rtinchidan, raqamli bog‘liqlik va e’tibor tarqoqligi muammosi kuchayib bormoqda. Talabalar ijtimoiy tarmoqlar va raqamli o‘yinlarga haddan ziyod bog‘liq bo‘lib qolishi (raqamli qaramlik) ularning ma’naviy, intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu holat nafaqat o‘qish samaradorligini pasaytiradi, balki haqiqiy hayotdagi muloqot madaniyatini ham yo‘qotib qo‘yishi mumkin. Psixolog olimlar fikricha, raqamli gadjetlarni haddan ziyod ishlatish empatsiya - boshqalarning his-tuyg‘ularini seza bilish qobiliyatini ham susaytirar ekan [13].

Beshinchidan, axborot xurujlari va mafkuraviy ta’sir muammosi o‘ta dolzarbdir. Internet tarmog‘i orqali yoshlarga qaratilgan turli mafkuraviy ta’sirlar, ekstremistik g‘oyalar, soxta axborotlar keng tarqalmoqda. Bu sharoitda talabalarda axborotni tanqidiy tahlil qilish, manbasini tekshirish va raqamli muhitda fikrga tayanib ish yuritish ko‘nikmalarini shakllantirish davlat miqyosidagi vazifaga aylanmoqda.

Pedagogika fanida “pedagogik shartlar” deganda, ta’lim-tarbiya maqsadlariga erishishni ta’minlovchi, jarayonni samarali tashkil etishga zamin yaratuvchi omillar va sharoitlar yig‘indisi tushuniladi. Bizning tadqiqotimizda raqamli davr talabasi axloqiy-estetik madaniyatini aksiologik yondashuv asosida takomillashtirish uchun zarur bo‘lgan quyidagi pedagogik shartlar aniqlandi.

Birinchi pedagogik shart - ta’lim jarayonini qadriyatlar asosida loyihalash. Bu shart ta’lim muassasasining strategik maqsadlaridan tortib, har bir dars rejasigacha barcha darajalarda qadriyat yo‘nalishini ustuvor qilishni taqozo etadi. Har bir fan doirasida o‘quv materialini axloqiy-estetik jihatdan boyitish, talabalar uchun qadriyatli munosabatlarni rivojlantirishga imkon beradigan vaziyat va topshiriqlar yaratish zarur. O‘qituvchi har bir darsda qandaydir qadriyatni - to‘g‘rilik, mehnat, go‘zallik, insonparvarlik - namoyish etishi va mustahkamlashi kerak.

Ikkinchi pedagogik shart - raqamli media savodxonligi va axloqiy raqamli xulq-atvor ko‘nikmalarini shakllantirish. Bugun “raqamli savodxonlik” tushunchasi nafaqat gadjetlardan foydalanishni bilishni, balki raqamli muhitda axloqiy, mas’uliyatli va ongli harakat qilishni ham o‘z ichiga oladi. Oliy ta’lim muassasalarida “Raqamli axloq va media savodxonligi” kabi maxsus o‘quv modullarini joriy etish, talabalarni ijtimoiy tarmoqlardagi axborotni tanqidiy baholash, ma’lumot filtrlash va raqamli muhitda axloqiy munosabat ko‘rsatish ko‘nikmalariga o‘rgatish zarur.

Uchinchi pedagogik shart - milliy san’at, adabiyot va madaniy meros bilan talabalarni faol tanishtirish. Bu shart amalda teatr, muzey, badiiy ko‘rgazmalarga tashriflar, xalq ustalari va san’atkorlari bilan uchrashuvlar, milliy musiqa va raqs ansambllari ijrolari orqali amalga oshirilishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasida o‘tkazilayotgan “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali, Xalqaro maqom san’ati anjumanlari, “Boysun bahori» folklor festivali kabi tadbirlardan talabalar tarbiyasida keng foydalanish lozim. Bu tadbirlar talabalar estetik didini shakllantirish, milliy qadriyatlarga muhabbatni kuchaytirish va turli xalqlar madaniyatiga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

To‘rtinchi pedagogik shart - ijodiy loyihalar, tanlov va festivallar orqali talabalar qadriyatli faolligini oshirish. Talabalar o‘zlari faol ishtirok etgan, mustaqil ijod qilgan faoliyatda qadriyatlarni chuqurroq o‘zlashtiradilar. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni targ‘ib etuvchi badiiy-ijodiy tanlovlar, ko‘rgazmalar, she’riyat oqshomlari, musiqa bayramlari va boshqa tadbirlarni tizimli ravishda o‘tkazish zarur. Alohida e’tibor qaratilishi kerak bo‘lgan jihat - talabalarning o‘zlari raqamli kontent yaratuvchilari sifatida milliy qadriyatlarni raqamli makon orqali targ‘ib etishlari uchun sharoit yaratish.

Beshinchi pedagogik shart - pedagoglar, ota-onalar va jamoatchilik hamkorligi. Talabalarning axloqiy-estetik madaniyati faqat oliy ta’lim muassasasida emas, balki oila va jamiyat muhitida ham shakllanadi. Shu sababli universitet, oila va mahalla hamkorligini mustahkamlash, ota-onalar uchun ham raqamli madaniyat va axloqiy tarbiya bo‘yicha ma’rifiy ishlarni olib borish zarur. O‘qituvchilarning o‘zlari esa aksiologik yondashuvning amaliy metodologiyasiga ega bo‘lishlari uchun malaka oshirish kurslarini muntazam ravishda o‘tkazish lozim.

Aksiologik yondashuvni oliy ta’lim muassasasida amalda joriy etish uchun o‘quv jarayonini qayta ko‘rib chiqish, yangi shakl va metodlarni qo‘llash zarur. Bu borada quyidagi amaliy yo‘nalishlar samarali ekanligini ilmiy tadqiqotlar va amaliyot tasdiqlamoqda.

Ta’lim jarayonida qadriyatga yo‘naltirilgan suhbat va muloqot metodidan keng foydalanish tavsiya etiladi. Bunday suhbatlar doirasida talabalar turli axloqiy-estetik muammolarni muhokama etadilar, o‘z qarashlari va e’tiqodlarini ifodalaydilar, boshqalarning fikrlarini tinglab o‘rganadilar. Sokrat metodiga asoslangan bu yondashuv talabalar axloqiy-estetik ongini faollashtiradi va ularning shaxsiy qadriyatlarini aniqlashtirishga yordam beradi. Dars jarayonida “Nima uchun bu go‘zal?», “Bu axloqiy jihatdan to‘g‘rimi?”,

“Milliy qadriyatimiz bu masalada nima deydi?” kabi savollarni ko‘tarish talabalar fikrlashini chuqurlashtiradi.

Badiiy-estetik faoliyat usullarini ta’lim-tarbiya jarayoniga integratsiya qilish ham katta ahamiyat kasb etadi. San’at asarlari tahlili, musiqani tinglash va muhokama qilish, adabiy asarlarni axloqiy-estetik nuqtai nazardan o‘rganish, rassom va haykaltaroshlar bilan uchrashuvlar tashkil etish - bularning barchasi talabalar estetik didini o‘stiradi va axloqiy his-tuyg‘ularini boyitadi. O‘zbek klassik adabiyoti - Navoiy, Bobur, Muqimiy, Hamza asarlarida axloqiy va estetik qiymatlar uyg‘un holda mujassamlashgan bo‘lib, ularni zamonaviy raqamli usullar bilan talabalar ongiga yetkazish imkoniyati katta.

Loyiha asosida o‘qitish (Project Based Learning) usuli ham aksiologik yondashuvni amalga oshirishda samarali metodlardan biridir. Masalan, “Milliy qadriyatlarimizni raqamli makon orqali targ‘ib etish” mavzusida talabalar jamoaviy loyiha ustida ishlashlari mumkin - ular videorolik, blog yozuvi, podcast yoki infografika yaratib, milliy san’at, an’ana va axloqiy qadriyatlarni keng ommaga yetkazadilar. Bu usul talabalarning ijodiy qobiliyatlarini, jamoada ishlash ko‘nikmalarini va raqamli savodxonligini bir vaqtda rivojlantirishga imkon beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-noyabrdagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda yoshlar siyosatini amalga oshirish konsepsiyasi”da yoshlarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish, ularda milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘usini mustahkamlash ustuvor vazifalar qatorida belgilab qo‘yilgan [14]. Ushbu hujjatning talablari aksiologik yondashuvni oliy ta’lim muassasalarida joriy etish zaruratini yanada kuchaytiradi va ushbu yo‘nalishdagi pedagogik izlanishlar uchun huquqiy-me’yoriy asos yaratadi.

Chet el tajribasida ham aksiologik yondashuvni ta’lim-tarbiyada qo‘llashning qator samarali namunalari mavjud. Finlandiya ta’lim tizimida qadriyatlarni asosiy fanlar doirasida o‘qitish keng amaliyotga kirgan - masalan, tarix fani nafaqat faktlarni beradi, balki adolat, hurmat, mas’uliyat kabi qadriyatlarni ham tarbiyalaydi. Yaponiya ta’lim tizimida “tokkatsu” deb ataladigan maxsus faoliyat doirasida o‘quvchilar jamoada ishlash, bir-biriga yordam berish, tartibni saqlash kabi axloqiy-estetik qadriyatlarni amalda o‘rganadilar. Bu tajribalardan o‘zimizga mos elementlarni tanlab, milliy ta’lim tizimimizga kiritish mumkin.

Natijalar va muhokama. Ushbu tadqiqot doirasida Samarqand davlat pedagogika instituti talabalarining axloqiy-estetik madaniyati darajasini aniqlashga qaratilgan so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnomada 140 nafar talaba ishtirok etdi. Olingan natijalar quyidagi manzarani ko‘rsatdi: talabalarning 67 foizi o‘zlarining sutkasiga 5 soatdan ortiq vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazishini qayd etdi; 54 foizi milliy san’at va adabiyot asarlari bilan mustaqil ravishda muntazam tanishishmasligini bildirdi; 43 foizi raqamli muhitda noo‘rin xulq-atvor holatlari bilan to‘qnash kelganini aytdi; 72 foizi axloqiy-estetik madaniyat mavzusida maxsus darslar yoki seminarlar o‘tkazilishini xohlashini bildirdi.

Ushbu natijalar raqamli muhitning talabalar hayotidagi ulkan o‘rnini va shu bilan birga, axloqiy-estetik tarbiya sohasidagi jiddiy kamchiliklarni ochiq ko‘rsatmoqda. Talabalarning milliy san’at va madaniyatdan yetarlicha bahramand bo‘lmasligining asosiy sabablari qatorida raqamli makonning kuchli raqobati, milliy san’at va adabiyotni yoshlar uchun jozibali tarzda taqdim etishning zaif ekanligi, shuningdek mavjud o‘quv dasturlarida axloqiy-estetik tarbiyaga yetarlicha o‘rin ajratilmaganligini ko‘rsatish mumkin.

Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan aksiologik yondashuv asosidagi tarbiya modelini tajriba-sinov guruhlarga joriy etish ham amalga oshirildi. Nazorat va tajriba guruhlarida 12 hafta davomida kuzatuv o‘tkazildi. Tajriba guruhlarida aksiologik yondashuvga asoslangan maxsus darslar, loyiha ishlari va madaniy tadbirlar o‘tkazildi. Natijada tajriba guruhidagi talabalar axloqiy-estetik madaniyati darajasi ko‘rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori chiqqanligi aniqlandi. Bu holat taklif etilayotgan pedagogik modelning amaliy samaradorligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari bo‘yicha oliy ta’lim muassasalariga quyidagilar tavsiya etiladi: o‘quv dasturlariga axloqiy-estetik tarbiya va raqamli media savodxonligiga oid maxsus modullarni kiritish; talabalar uchun milliy san’at va madaniyat tadbirlariga faol ishtirokni tashkil etish va rag‘batlantirish; o‘qituvchilarni aksiologik yondashuv metodologiyasida malaka oshirish; ota-onalar va jamoatchilik bilan hamkorlikni kuchaytirish; talabalar raqamli ijodiyotini milliy qadriyatlar yo‘nalishida rag‘batlantirish.

Xulosa. Raqamli davr talabalar axloqiy-estetik madaniyatini shakllantirishda beqiyos imkoniyatlar bilan birga ulkan muammolar ham keltirib chiqarmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng yoyilishi, raqamli makonning yoshlar hayotidagi tobora o‘sib boruvchi o‘rni axloqiy me’yorlarning relativlashishi, estetik didning buzilishi, milliy qadriyatlardan uzoqlashish va raqamli bog‘liqlik kabi jiddiy pedagogik muammolarni kun tartibiga qo‘ymoqda.

Bu muammolarni hal etishda aksiologik yondashuv - ta’lim-tarbiya jarayonini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida qurishga yo‘naltirilgan pedagogik konsepsiya - muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Aksiologik yondashuv faqat bilim berish emas, balki shaxsni qadriyatlar subyekti sifatida

shakllantirish, uning axloqiy ongini, estetik didini va qadriyatli munosabatlarini rivojlantirishni maqsad qilib qo‘yadi.

Tadqiqot natijasida aniqlangan beshta pedagogik shart - ta’limni qadriyatlar asosida loyihalash; raqamli media savodxonligi; milliy madaniy meros bilan faol tanishtirish; ijodiy loyiha va tadbirlar; pedagog-ota-ona-jamoatchilik hamkorligi - bu muammoni kompleks hal etish uchun yetarli zamin yaratadi. Ushbu shartlarni izchil va tizimli amalga oshirish raqamli davr talabalarini nafaqat bilimli, balki axloqan yetuk, estetik didi rivojlangan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatli shaxs sifatida tarbiyalash imkonini beradi.

Mazkur tadqiqot oliy ta’lim muassasalarida aksiologik yondashuvni amalda joriy etish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi, shuningdek, bu yo‘nalishda keyingi ilmiy izlanishlar uchun yo‘l ko‘rsatishi mumkin. Kelajakda axloqiy-estetik madaniyatni baholashning aniqroq mezonlari va ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish, shuningdek raqamli muhitda aksiologik yondashuvni amalga oshirishning yangi texnologiyalarini o‘rganish muhim ilmiy vazifalar sifatida qolmoqda.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. –Toshkent: “O‘zbekiston”, 2022. - 148 b.

2. Shodiyev N.Sh. Talabalar ma’naviy-axloqiy tarbiyasining nazariy asoslari. - Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020. - 184 b.

3. Lutfullayev M.X. Estetik tarbiyaning pedagogik asoslari. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2019. - 210 b.

4. Dyui J. Tajriba va ta’lim. –Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2018. - 156 b.

5. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: “G‘afur G‘ulom”, 2016. - 304 b.

6. Yaxshiliqov J.Y. Aksiologiya va ta’lim falsafasi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021. - 178 b.

7. Slastenin V.A., Chijikova G.I. Aksiologiya i pedagogika. – Moskva: Akademiya, 2007. - 256 s.

8. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: “Ma’naviyat”, 2008. - 176 b.

9. Nishonova S.T. Pedagogika falsafasi. –Toshkent: “Turon-Iqbol”, 2019. - 192 b.

10. O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi “Raqamli O‘zbekiston –2030” dasturi hisoboti. –Toshkent, 2023.

11. Исаева Д.А. Возможности цифровых медиа в контексте современного образования: философское осмысление // SamDU Ilmiy axborotnomasi. - 2023. - 2-son. - B. 42-47.

12. Yazdonova S.K. Kibermakonning iqtisodiy tendensiyalari (ta’lim va tarbiya jarayoniga ta’siri misolida) // SamDU Ilmiy axborotnomasi. - 2023. - 2-son. - B. 139-145.

13. Kushakova G. Yoshlarda tolerantlik tafakkurini shakllantirish texnologiyasi: ped.f. bo‘yicha PhD diss. avtoreferati. –Samarqand, 2020. - 22 b.

14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-noyabrdagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda yoshlar siyosatini amalga oshirish konsepsiyasi” to‘g‘risidagi 689-son Qarori.

15. Mirzahmedov X. Yoshlarning tolerantlik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishning sotsiologik tahlili: PhD diss. avtoreferati. - Toshkent, 2022. - 22 b.

16. Bobomurodova L.E. Texnologiya ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy-metodik ijodkorligini takomillashtirish // SamDU Ilmiy axborotnomasi. - 2023. - 2-son. - B. 53-58.

17. Xoliqova A., Shodiyev N. Raqamli muhitda talabalar axloqiy-estetik madaniyatini shakllantirish muammolari // Zamonaviy ta’lim. - 2023. - №6. - B. 38-44.

18. Abdullayeva B. Oliy ta’limda milliy qadriyatlar asosida tarbiya: nazariya va amaliyot. - Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022. - 144 b.

PEDAGOGIK TA’LIMOTLAR TARIXI

UO‘K 37.035:172.15

JADID MA’RIFATCHILIGI TIZIMIDA VATANPARVARLIK TARBIYASI

Abduvositov Husniddin Faxriddin o‘g‘li,
Harbiy ta’lim fakulteti kursanti Farg‘ona davlat universiteti
ORCID 0009-0008-4723-3668
abduvositovhusniddin86@gmail.com

Mazkur maqolada jadid ma’rifatchiligi tizimida vatanparvarlik tarbiyasining mazmuni, maqsadi va ijtimoiy-ma’naviy ahamiyati tahlil qilinadi. Jadid mutafakkirlarining milliy uyg‘onish, ma’naviy taraqqiyot va yosh avlodni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash borasidagi pedagogik hamda ijtimoiy-falsafiy qarashlari yoritiladi. Shuningdek, jadidlarning ta’lim-tarbiya tizimida milliy o‘zlikni anglash, fuqarolik mas’uliyati, ma’naviy qadriyatlar va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishga qaratilgan g‘oyalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida jadid ma’rifatchiligi merosining zamonaviy ta’lim jarayonida yoshlarning vatanparvarlik ruhini rivojlantirishdagi ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: *jadidchilik, jadid ma’rifatchiligi, vatanparvarlik tarbiyasi, milliy uyg‘onish, ma’naviy qadriyatlar, yoshlar tarbiyasi, fuqarolik mas’uliyati, milliy o‘zlikni anglash.*

ВОСПИТАНИЕ ПАТРИОТИЗМА В СИСТЕМЕ ДЖАДИДСКОГО ПРОСВЕТИТЕЛЬСТВА

В данной статье анализируются содержание, цели и социально-духовное значение патриотического воспитания в системе джадидского просветительства. Освещаются педагогические и социально-философские взгляды джадидских мыслителей на вопросы национального возрождения, духовного развития общества и воспитания молодого поколения в духе преданности Родине. Особое внимание уделяется идеям джадидов, направленным на формирование национального самосознания, гражданской ответственности, духовных ценностей и патриотических чувств в системе образования и воспитания. В результате исследования обосновывается значение наследия джадидского просветительства в развитии патриотического сознания молодежи в условиях современного образования.

Ключевые слова: *джадидизм, джадидское просветительство, патриотическое воспитание, национальное возрождение, духовные ценности, воспитание молодежи, гражданская ответственность, национальное самосознание.*

PATRIOTIC EDUCATION IN THE SYSTEM OF JADID ENLIGHTENMENT

This article analyzes the content, objectives, and socio-spiritual significance of patriotic education within the system of Jadid enlightenment. It examines the pedagogical and socio-philosophical views of Jadid thinkers regarding national awakening, spiritual development of society, and the education of the younger generation in the spirit of devotion to the Motherland. Particular attention is paid to the ideas of the Jadids aimed at fostering national identity, civic responsibility, moral values, and patriotic feelings within the educational system. The study substantiates the importance of the Jadid enlightenment heritage in strengthening patriotic consciousness among youth in the context of modern education.

Keywords: *Jadidism, Jadid enlightenment, patriotic education, national awakening, moral values, youth education, civic responsibility, national identity.*

Kirish. XXI asr globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan bir davrda yosh avlodni milliy qadriyatlarga sodiq, Vatanga muhabbat va fidoyilik ruhida tarbiyalash masalasi dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Har bir jamiyatning barqaror rivojlanishi, uning milliy o‘zligini saqlab qolishi hamda kelajak avlodning ma’naviy barkamolligi ko‘p jihatdan vatanparvarlik tarbiyasining mazmuni va samaradorligiga bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, tarixiy-ma’rifiy merosni, xususan, jadid ma’rifatchiligi g‘oyalarini o‘rganish va ularni zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimiga tatbiq etish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy hayotida yuzaga kelgan jadidchilik harakati milliy uyg‘onish, ma’rifatparvarlik va ijtimoiy taraqqiyot g‘oyalarini ilgari surgan muhim ma’naviy-ma’rifiy harakat sifatida tarixga kirgan. Jadid ma’rifatchilari jamiyatni taraqqiy ettirishning asosiy omili sifatida ilm-fan, ta’lim-tarbiya va ma’naviy uyg‘onishni e’tirof etganlar. Ularning qarashlarida yosh avlodni milliy o‘zlikni anglash, Vatanga sadoqat, fuqarolik mas’uliyati va ma’naviy barkamollik ruhida tarbiyalash muhim o‘rin egallagan.

Jadid mutafakkirlari ta’lim-tarbiya tizimini yangilash orqali xalqning ongini yuksaltirish, milliy o‘zlikni tiklash hamda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan ma’rifatli, vatanparvar shaxsni shakllantirishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘yganlar. Ular tomonidan ilgari surilgan pedagogik g‘oyalar, xususan, maktab va madrasalarni isloh qilish, yangi usuldagi ta’limni joriy etish, milliy ong va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishga qaratilgan qarashlar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Shu bois jadid ma’rifatchiligi tizimida vatanparvarlik tarbiyasining mazmun-mohiyatini ilmiy jihatdan tahlil qilish, uning nazariy asoslarini ochib berish hamda zamonaviy ta’lim jarayonida qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganish muhim ilmiy vazifa hisoblanadi. Mazkur maqolada jadid ma’rifatchiligi tizimida vatanparvarlik tarbiyasining asosiy g‘oyalari, uning ijtimoiy-pedagogik mohiyati hamda yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati yoritiladi.

Asosiy qism. XX asr boshlarida jadid ma’rifatchilari milliy ong va vatanparvarlikni uyg‘otishga alohida e’tibor qaratdilar. Harbiy tarbiya milliy uyg‘onish g‘oyasi bilan uyg‘unlashdi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston hududida yashab, faoliyat ko‘rsatgan jadidlar harakati o‘zining ta’lim sohasidagi ilg‘or va yangicha qarashlari bilan nafaqat o‘sha davr ma’naviy-madaniy hayotining yangilanishiga, balki jamiyatni yangi ruh va tafakkur asosida shakllantirishga ham salmoqli hissa qo‘shdi. Turkiston jadidlari ta’lim va tarbiya sohasida amalga oshirgan islohotlari orqali, ayniqsa, maktab tizimida an’anaviy diniy ta’limdan zamonaviy, dunyoviy bilimlarga asoslangan o‘qitish modeliga o‘tish jarayoniga yo‘l ochdilar. Ular jamiyatda yangi g‘oyalarni keng yoyish, milliy tafakkurni uyg‘otish va mustaqillik ruhini shakllantirishga alohida e’tibor qaratdilar. Mazkur maqolada Turkiston jadidlarining ma’rifiy faoliyatining tarixiy ahamiyati, ularning vatanparvarlik tarbiyasiga qo‘shgan hissasi hamda innovatsion g‘oyalarining madaniy yangilanishdagi o‘rni tahlil etiladi.

Turkiston jadidlarining ma’rifatparvarlik faoliyati, ayniqsa XIX asr oxiri – XX asr boshlarida, o‘sha davr jamiyati uchun nihoyatda muhim ahamiyat kasb etdi. Ularning ilgari surgan g‘oyalari va amalga oshirgan ishlari faqat o‘z zamoni doirasida qolib ketmay, bugungi kunda ham milliy ta’lim tizimi va madaniyat rivojiga, shuningdek, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayoniga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatib kelmoqda. Jadidlar harakati o‘zining yangicha ta’lim konsepsiyasi bilan faqatgina an’anaviy diniy maktablarga muqobil yo‘l taklif etish bilangina cheklanib qolmay, balki jamiyat taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqishni maqsad qildi. Harakatning bosh g‘oyasi yoshlarni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish, ularda mustaqil fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish, yangi dunyoqarashni qaror toptirish va ularni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashdan iborat edi.

Jadidchilik harakati ta’lim sohasidagina emas, balki ijtimoiy hayotning boshqa jabhalarida ham sezilarli o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Ta’limni isloh qilish orqali ular yoshlarni ilm-fan, madaniyat va siyosiy jarayonlarga yangicha nazar bilan qarashga undadilar. Bu esa o‘sha davr siyosiy tuzumi, diniy qarashlari va ijtimoiy qatlamlarida ustuvor bo‘lgan an’anaviy me’yorlar bilan ma’lum darajada ziddiyatga kirishdi. Shu bilan birga, jadidlar yangi ma’naviy, ilmiy va madaniy asoslarni shakllantirishga intilib, yoshlarni vatanparvarlik va milliy ong ruhida tarbiyalash masalasida qator murakkab vazifalarga duch keldilar.

Turkistonda jadidlar harakati asosan XIX asrning so‘nggi choragida shakllandi. Ularning asosiy maqsadi diniy va eskicha ta’lim tizimini tanqidiy qayta ko‘rib chiqish, yosh avlodni zamonaviy fan yutuqlari bilan tanishtirish, mustaqil tafakkur va ijtimoiy yangilanish g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdan iborat edi. Jadidlar o‘z faoliyatini turli yo‘nalishlarda olib bordilar. Ular ma’naviy asos sifatida faqat an’anaviy arab-islomiy ta’lim tizimiga tayanib qolmay, balki Yevropa ta’lim tajribasining ilg‘or jihatlarini o‘zlashtirishni maqsad qildilar.

Jadidlarning ma’rifiy faoliyatidagi asosiy qadamlar ta’lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan bo‘lib, ular ilgari surgan yangi metodlar va pedagogik yondashuvlar Turkiston jamiyatining turli qatlamlarini taraqqiyot sari yetaklashga xizmat qildi. Ular ta’limni shunchaki ilmiy ma’lumot berish jarayoni sifatida emas, balki ijtimoiy ongni shakllantirish, erkin va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, shaxsda mustaqillik tuyg‘usini qaror toptirish vositasi sifatida talqin etdilar. Xususan, O‘rta Osiyo jadidchilik harakatining yetakchi namoyandalaridan biri, uning asoschilaridan deb e’tirof etiladigan Mahmudxo‘ja Behbudiy doimo xalq taqdiri va ona yurt istiqboli haqida qayg‘urib yashagan. U o‘zining ko‘plab maqolalari va chiqishlarida yosh avlodga murojaat qilib, ularni ogohlikka, birdamlikka hamda Vatanga sidqidildan xizmat qilishga da’vat etgan. Behbudiy uchun yurt ravnaqi va millat kelajagi eng oliy maqsad bo‘lib, u har bir fuqaroning bu yo‘ldagi mas’uliyatini alohida ta’kidlagan. Jumladan, u “Xurshid gazetasi” sahifalarida, sovetlar hokimiyat

tepasiga kelishidan avval e’lon qilgan maqolalaridan birida sotsialistlar dasturini tahlil qilib, uning oqibatlari haqida ogohlantiradi. Behbudiyning fikricha, sotsialistlar ilgari surayotgan g‘oyalar islomiy qadriyatlarga zid bo‘lib, musulmon mehnatkashlar bu siyosiy oqimdan yiroq bo‘lishlari lozim edi. U mazkur dastur amaliy hayotdan uzilgan, hozirgi sharoitda amalga oshishi qiyin bo‘lgan xayoliy qarashlarga asoslanganini qayd etadi. Hatto, agar ularning g‘oyalari ro‘yobga chiqsa, jamiyat uchun og‘ir oqibatlar yuzaga kelishi mumkinligini ta’kidlab, Turkiston aholisi va ayniqsa yoshlarni hushyorlikka, Vatan manfaatlarini asrab-avaylashga chorlaydi.

Jadidchilik harakatining yana bir yirik vakili, o‘zbek publisistikasi va ma’rifatparvarlik an’anasining yorqin namoyandasi Abdulla Avloniy ham o‘zining ta’limiy-axloqiy asarlari hamda maqolalarida Vatanga muhabbat va sadoqat g‘oyasini keng targ‘ib qilgan. U nafaqat yoshlarni, balki jamiyatning barcha qatlam vakillarini hamjihatlik va yakdillikka da’vat etadi. Avloniy Vatanni inson tug‘ilib voyaga yetgan maskan, uning hayoti va taqdiriga chambarchas bog‘liq muqaddas makon sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, har bir inson o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurtni jonidan aziz biladi. Qanday tabiiy sharoitda yashashidan qat’i nazar, har bir xalq o‘z diyorini sevadi: arablar issiq sahrolarini, eskimoslar esa sovuq va muzlik o‘lkalarini boshqa hududlardan ustun qo‘yadilar. Agar inson o‘z vatanini sevmasa edi, qulayroq va yashash uchun osonroq joylarga ko‘chib ketgan bo‘lur edi.

Munavvarqori Abdurashidxonov qarashlarida vatanparvarlik g‘oyalari jadid ma’rifatchiligining muhim tarkibiy qismi sifatida shakllangan bo‘lib, u yosh avlodni milliy ong, ijtimoiy mas’uliyat va ma’rifat orqali tarbiyalash bilan chambarchas bog‘liqdir. Avvalo, Munavvarqori vatanparvarlikni faqat Vatanni sevish hissi bilan cheklamay, uni amaliy faoliyatlardan ilm olish, jamiyatni rivojlantirish va millat ravnaqi yo‘lida xizmat qilish bilan bog‘laydi. Uning fikricha, haqiqiy vatanparvar inson o‘z xalqining taraqqiyoti uchun bilimli, ongli va fidoyi bo‘lishi kerak.

Olim ta’limni vatanparvarlik tarbiyasining asosiy vositasi sifatida ko‘radi. Munavvarqori tashkil etgan yangi usul maktablarida o‘quvchilarga nafaqat savod o‘rgatilgan, balki ularda milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotira va milliy g‘urur hissi shakllantirilgan. Bu esa vatanparvarlikni ongli va barqaror qadriyatga aylantirishga xizmat qilgan.

Munavvarqori Abdurashidxonov qarashlarida millat ravnaqi va Vatan ozodligi o‘zaro uzviy bog‘liq tushunchalar sifatida talqin etiladi. U mustamlakachilik sharoitida yashagan bo‘lsa-da, yoshlarni erkin fikrlashga, milliy qadriyatlarni asrab-avaylashga va kelajak uchun mas’uliyatni his qilishga undagan. Shu jihatdan uning vatanparvarlik haqidagi qarashlari ijtimoiy uyg‘onish g‘oyalari bilan uyg‘unlashadi. Shuningdek, u matbuot va jamoatchilik faoliyati orqali ham vatanparvarlikni targ‘ib qilgan. Uning maqola va chiqishlarida millatning orqada qolish sabablari tahlil qilinib, ularni bartaraf etish yo‘li sifatida ma’rifat, birlik va faollik ilgari suriladi.

Munavvarqori Abdurashidxonov qarashlarida vatanparvarlik bu milliy o‘zlikni anglash, ilm-ma’rifatga intilish, jamiyat oldidagi mas’uliyatni his etish va Vatan taraqqiyoti uchun faol xizmat qilish kabi g‘oyalar majmui sifatida namoyon bo‘ladi. Bu qarashlar bugungi kunda ham yoshlar tarbiyasida muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Shu tariqa, M.Behbudiy, A.Avloniy va M.Abdurashidxonov qarashlarida Vatanga sadoqat, milliy birlik va ogohlik g‘oyalari markaziy o‘rin egallab, yosh avlodni ma’naviy yetuk, mas’uliyatli hamda yurt taqdiriga befarq bo‘lmagan shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qilgan.

Natijalar va muhokama. Mazkur tadqiqotda Jadidchilik ma’rifatchiligi tizimida vatanparvarlik tarbiyasining mazmuni, shakllari va samaradorligi tahlil qilindi. O‘rganishlar natijasida quyidagi asosiy holatlar aniqlandi:

Birinchidan, jadid ma’rifatchilari tomonidan yaratilgan ta’lim tizimi o‘quvchilarda milliy ong, o‘zlikni anglash va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Xususan, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy va Munavvarqori Abdurashidxonov asarlarida yoshlarni Vatanni sevishga, uni rivojlantirishga xizmat qilishga undovchi g‘oyalar yetakchi o‘rin egallaydi.

Ikkinchidan, jadid maktablarida joriy etilgan yangi usuldagi darslar orqali o‘quvchilarga tarix, geografiya va adabiyot fanlari asosida milliy qadriyatlar singdirilgan. Bu esa vatanparvarlik tarbiyasining nazariy emas, balki amaliy asosda shakllanishiga xizmat qilgan.

Uchinchidan, jadid adabiyoti va matbuoti (gazeta va jurnallar) orqali jamiyatda vatanparvarlik g‘oyalarining keng targ‘ib etilgani aniqlangan. Bu omil nafaqat yoshlar, balki keng jamoatchilik ongiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, jadid ma’rifatchiligi tizimi vatanparvarlik tarbiyasini kompleks yondashuv asosida ta’lim, adabiyot va ijtimoiy faoliyat uyg‘unligida amalga oshirgan.

Olingan natijalar Jadidchilik ma’rifatchiligining nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega tizim bo‘lganini tasdiqlaydi. Jadidlar tomonidan ilgari surilgan vatanparvarlik tarbiyasi bugungi kun

ta’lim tizimi uchun ham dolzarb metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Avvalambor, tadqiqot natijalari jadidlarning vatanparvarlikni faqat hissiy tushuncha sifatida emas, balki bilim, tafakkur va ijtimoiy mas’uliyat bilan bog‘liq kompleks fenomen sifatida talqin qilganini ko‘rsatadi. Bu jihat zamonaviy ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv bilan uyg‘unlashadi. Abdulla Avloniy tomonidan ilgari surilgan “tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot masalasidir” degan g‘oya bugungi globallashuv sharoitida milliy o‘zlikni saqlash nuqtai nazaridan yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, jadidlar faoliyatining tarixiy sharoitlari bilan bugungi mustaqillik davri o‘rtasidagi farqlarni hisobga olish zarur. Shunga qaramay, ularning yondashuvlari milliy o‘zlikni anglash, ma’rifat orqali jamiyatni rivojlantirish va yosh avlodni ijtimoiy faollikka undash hozirgi davrda ham samarali model sifatida qo‘llanishi mumkin.

Natijalar boshqa tadqiqotlar bilan qiyoslanganda, jadid ma’rifatchiligining o‘ziga xosligi uning integrativ xususiyatida, ya’ni ta’lim, madaniyat va ijtimoiy islohotlarning yagona tizimda uyg‘unlashganidadir. Shu bois, mazkur tizim asosida ishlab chiqilgan vatanparvarlik tarbiyasi modeli zamonaviy pedagogik tadqiqotlar uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Umuman olganda, tadqiqot natijalari jadid ma’rifatchiligi tizimida vatanparvarlik tarbiyasi chuqur ilmiy asosga ega bo‘lib, uni zamonaviy ta’lim tizimiga moslashtirish istiqbolli yo‘nalishlardan biri ekanini ko‘rsatadi.

Xulosa. Jadid ma’rifatchiligi tizimida vatanparvarlik tarbiyasi masalasi millat taraqqiyoti, jamiyatning ma’naviy yangilanishi va yosh avlodni komil inson sifatida shakllantirish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan muhim pedagogik va ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, jadid ma’rifatchilari vatanparvarlikni faqatgina siyosiy yoki harbiy tushuncha sifatida emas, balki milliy ong, ma’naviy qadriyatlar, ilm-ma’rifat va ijtimoiy mas’uliyat bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan keng qamrovli tarbiyaviy tizim sifatida talqin etganlar. Ularning fikricha, haqiqiy vatanparvarlik shaxsning o‘z xalqiga, tiliga, madaniyatiga, tarixiga va milliy an’analariga bo‘lgan chuqur hurmati hamda jamiyat ravnaqi yo‘lida fidoyilik bilan xizmat qilishida namoyon bo‘ladi.

This article extensively covers current issues of organizing the process of spiritual education of students in higher educational institutions and innovative methods for its improvement. In particular, the role and importance of modern pedagogical technologies, interactive methods, project-based learning (Project-Based Learning), digital platforms, and the mentoring system in the process of spiritual education are analyzed. Based on the scientific and theor etical analysis and practical approaches presented in the article, proposals and recommendations have been developed that serve to increase the effectiveness of spiritual education in the higher education system. The results of this study are of great importance in the formation of students as spiritually and morally mature, socially responsible, and competitive individuals.

Key words: *Spiritual education, higher education system, innovative pedagogical technologies, interactive methods, educational process design, project-based learning, digital educational platforms, information and communication technologies, mentoring system, personality-oriented approach, spiritual and moral development of students, social activity, independent thinking skills, creative approach, KPI (key performance indicators), educational effectiveness, modern educational methods, assessment and monitoring of the educational process.*

Kirish. Hozirgi globallashuv va axborotlashuv jarayonlari jadallashib borayotgan bir sharoitda jamiyat taraqqiyoti bevosita inson kapitalining sifati, ayniqsa yosh avlodning ma’naviy-axloqiy yetukligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu nuqtayi nazardan, oliy ta’lim muassasalarida talabalarni nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirish, balki ularni yuksak ma’naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, ijtimoiy faol va mas’uliyatli shaxs sifatida tarbiyalash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda an’anaviy ta’lim va tarbiya usullari zamon talablariga to‘liq javob bermayapti. Shu sababli ta’lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, interfaol metodlardan keng foydalanish hamda talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’limni tashkil etish zarurati ortib bormoqda. Ayniqsa, ma’naviy tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda zamonaviy yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta’lim tizimida ma’naviy tarbiya jarayonini loyihalash, uni ilmiy asosda tashkil etish va baholash mexanizmlarini ishlab chiqish bugungi pedagogika fanining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Bu jarayonda interfaol metodlar, loyiha asosida ta’lim, raqamli texnologiyalar, mentorlik tizimi kabi innovatsion usullarning qo‘llanilishi talabalar shaxsining har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi — oliy ta’lim muassasalarida talabalarni ma’naviy tarbiyalash jarayonini tashkil etishning innovatsion usullarini tahlil qilish hamda ularning samaradorligini ilmiy asosda yoritishdan iborat.

Asosiy qism. Mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan va kasb-hunarlarni puxta egallagan, o‘z yurti, o‘z xalqiga fidoyi, har tomonlama sog‘lom avlodni tarbiyalash har bir tarbiya beruvchining eng muhim vazifasidir. Oliy ta’lim pedagogidan yuksak bilim, ulkan mahorat, zamonaviy ilm-fanning yutuqlaridan xabardor bo‘lish, xorijiy tillarni puxta egallash, kompyuter texnologiyalaridan, internetdan maqsadli foydalanish ko‘nikmalariga hamda yuqori malakaga ega bo‘lishni talab etmoqda. Uzluksiz tarbiya tizimining oldida turgan eng muhim va dolzarb vazifalardan biri – bu ma’naviy tarbiya jarayonida innovasion tarbiya texnologiyalaridan keng foydalanish, ularni tarbiya jarayoniga tatbiq etish va jahon standartlari talablariga bilimli, mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish - ta’lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasidir.

Ma’naviy tarbiyaning markaziy muammosi - tarbiyalanuvchi shaxsini rivojlantirish orqali tarbiya jarayonini maqsadiga erishishni ta’minlashdan iborat. Ma’naviy tarbiyaning samaradorligini oshirish va bilim, ko‘nikma, malakalarni to‘la egallashlariga erishish, shaxsning tarbiya jarayonini diqqat markazida bo‘lishini va tarbiyalanuvchilarni ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish ta’minlash uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol metodlarni biladigan, ulardan tarbiyaviy mashg‘ulotlarni tashkil etishda foydalana oladigan o‘qituvchilar kerak. Ushbu vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishi ma’naviy tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishni taqozo etadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta’lim-tarbiya jarayonining bir tizimga solingan ilmiy-nazariy va metodik asoslangan yangi shakl, usul va vositalarining majmuidir, bunda yangi mazmun, shakl, usul va vosita uyg‘unligida maqsad, vazifa, faoliyat va pedagogik natija yaxlitligi ta’minlanadi hamda o‘quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan o‘quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv, eng avvalo, tasvirlash emas, balki loyihalashtirilgan natijalarni amalga oshirish imkonini beruvchi amaliy ko‘rsatmali tuzilmada o‘z ifodasini topadi.

Hozirgi kunda tarbiya jarayonida interfaol metodlar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ma’naviy tarbiyaning samaradorligini ko‘tarishga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Tarbiyachi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va ma’naviy tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan birga, boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Ma’naviy tarbiya jarayonida innovasion pedogogik texnologiyalarning to‘g‘ri joriy etilishi tarbiyalanuvchilarning bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa, tarbiyalanuvchilardan ko‘proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi.

Innovatsion pedagogik texnologiya asosida o‘tkazilgan mashg‘ulotlar tarbiyalanuvchining muhim hayotiy yutuq va muammolariga o‘z munosabatlarini bildirishlariga intilishini qondirib, ularni fikrlashga, o‘z nuqtayi nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi. Bugungi kunda respublika oliy ta’lim muassasalarida interfaol ta’limni tashkil etishda quyidagi eng ommaviy texnologiyalar qo‘llanilmoqda: “Interfaol metodlar:

«Keys-stadi» (yoki «O‘quv keyslari»), «Blis- so‘rov», «Modellashtirish», «Ijodiy ish», «Munosabat», «Reja», «Suhbat» va boshqalar. Ma’naviy tarbiya jarayoni bevosita interfaol metodlari yordamida tashkil etiladi, jumladan, tarbiyaning interfaol metodlardan foydalanishda tarbiyalanuvchi intellektual, erkin fiklashni rivojlantirish, o‘z fikrini asoslab berishga intilishi, o‘zgalar fikrini tinglay olishi, muammolar yechimini topishga harakat qilishi, ijodiy va axloqiy taraqqiyoti jarayonlariga samarali ta’sir etadi.

Talabalarni ma’naviy tarbiyalash jarayonini loyihalashning innovatsion shakllari – bu zamonaviy pedagogik usullar va texnologiyalar asosida talabalar ongiga ijtimoiy, madaniy va axloqiy qadriyatlarni singdirishga qaratilgan pedagogik jarayonni yaratish usullaridir. Quyida ma’naviy tarbiyalashni innovatsion shakllar asosida amalga oshirishning ba’zi usullari keltiriladi:

1. Interfaol pedagogik texnologiyalar.

Mashg‘ulotlar va treninglar. Talabalarni ma’naviy qadriyatlar va axloqiy tushunchalar bilan yaqindan tanishtirish maqsadida interfaol mashg‘ulotlar va treninglar o‘tkaziladi. Bunday mashg‘ulotlarda talabalar turli axloqiy vaziyatlarni muhokama qiladilar, yechimlar topadilar, o‘z fikrlarini ifoda etadilar.

Debatlar va munozaralar. Ma’naviy mavzularda talabalar o‘rtasida munozaralar tashkil etish orqali ularning mulohaza yuritish, bahslashish va axloqiy qadriyatlarni himoya qilish qobiliyatlari rivojlantiriladi. Talabalarni ma’naviy qadriyatlar va axloqiy tushunchalar bilan yaqindan tanishtirish maqsadida interfaol mashg‘ulotlar va treninglar o‘tkazish, zamonaviy pedagogik jarayonda muhim ahamiyatga ega. Bu usul talabalar o‘rtasida faol muloqotni rivojlantirishga, ularning fikrlarini ifoda etish qobiliyatlarini oshirishga, shuningdek, ma’naviy va axloqiy qadriyatlarni amaliyotda qo‘llashga yordam beradi. Quyida talabalarni ma’naviy tarbiyalash jarayonini interfaol mashg‘ulotlar asosida loyihalash jarayonini ko‘rib chiqamiz:

“Ma’naviyat soatlari”da interfaol metodlarni qo‘llash – bu talabalarning faol ishtirokini talab qiluvchi va ularning fikr almashishiga imkon beruvchi mashg‘ulot hisoblanadi. Ushbu mashg‘ulot quyidagi asosiy elementlardan iborat:

Guruh bo‘lib ishlash. Talabalar kichik guruhlarga bo‘linib, ma’lum mavzu yuzasidan fikr almashadilar. Bu ularning muloqot va jamoaviy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Rolli o‘yinlar. Talabalar turli rollarni o‘ynab, axloqiy dilemmani hal qilish yoki biron-bir vaziyatni muhokama qilishda ishtirok etadilar. Bu ularning axloqiy qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Muhokama va munozaralar. Talabalar o‘rtasida erkin muhokama olib borish uchun imkoniyat yaratish. Bunda talabalar o‘z fikrlarini ifoda etish, boshqalarni tinglash va argumentlar keltirish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

*Axloqiy masalalarni muhokama qilish. O‘*quv jarayonida axloqiy savollarni muhokama qilish orqali talabalar o‘z fikrlarini shakllantirishga va ularning axloqiy qarashlarini kengaytirishga yordam beradi.

Case study (vaziyatlarni o‘rganish). Muayyan axloqiy muammolar yoki ijtimoiy vaziyatlarni o‘rganish. Talabalar bu vaziyatlar bo‘yicha yechimlar ishlab chiqadilar va bu jarayonda o‘z fikrlarini asoslaydilar.

Treninglar. Treninglar ma’naviy tarbiyani rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Ular bir necha asosiy jihatlardan iborat:

Maqsadli mashg‘ulotlar. Har bir trening aniq maqsadlarga ega bo‘lishi kerak. Misol uchun, axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish, empatiya, muloqot ko‘nikmalarini oshirish kabi maqsadlar belgilanishi mumkin.

Amaliy mashg‘ulotlar. Talabalar amaliy mashg‘ulotlarda qatnashish orqali nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Masalan, amaliy vaziyatlarni ko‘rish va ularga yechimlar taklif qilish.

Psixologik yordam va qo‘llab-quvvatlash. Treninglar davomida talabalar o‘z hissiyotlari va fikrlari bilan bo‘lishadilar, shuningdek, psixologik yordam olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu ularning o‘z-o‘zini anglashiga yordam beradi.

Muvaffaqiyatli misollarni tahlil qilish. Boshqa davlatlar yoki jamoalarda muvaffaqiyatli axloqiy tarbiya dasturlarini tahlil qilish. Talabalar ularning tajribalaridan o‘rganishlari mumkin.

Interfaol mashg‘ulotlar va treninglar talabalarni nafaqat ma’naviy, balki shaxs sifatida ham rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida muvaffaqiyatli bo‘lishlariga zamin yaratadi.

Loyiha asosida ta’lim (PBL - Project-Based Learning). Talabalar ma’lum bir axloqiy yoki ma’naviy mavzuni o‘rganish uchun loyihalar yaratadilar. Masalan, milliy qadriyatlar yoki madaniy meros haqida loyiha ishlab chiqish orqali ular o‘zlari o‘rgangan qadriyatlarni amaliyotda qo‘llashni o‘rganadilar. Bu usul ular orasida mas’uliyat hissini kuchaytiradi.

Talabalar ma’lum bir axloqiy yoki ma’naviy mavzuni o‘rganish uchun loyihalar yaratish jarayoni, ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, hamkorlikni kuchaytirish va ma’naviy qadriyatlarni amaliyotda qo‘llashga yordam beruvchi muhim pedagogik usul hisoblanadi. Loyihalar orqali talabalar turli mavzularni

chuqurroq o‘rganish, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Oliy ta’lim muassasalarida talabalarni ma’naviy tarbiyalashda raqamli platformalar va texnologiyalarning o‘rni katta bo‘lib, ular quyidagi shakllda tashkil etiladi:

Online kurslar va webinarlar. Ma’naviy tarbiyaga oid mavzularda onlayn darslar va seminarlar tashkil etish. Bular orqali talabalar o‘zlari uchun muhim bo‘lgan ma’naviy qadriyatlarni kengroq o‘rganish imkoniga ega bo‘ladilar.

Virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR), VR va AR texnologiyalari yordamida tarixiy va madaniy joylarga sayohatlar tashkil qilish orqali talabalar milliy madaniyat va qadriyatlar bilan yaqindan tanishadilar.

Ma’naviy tarbiyalashda raqamli platformalar va texnologiyalar qo‘llanilishi, zamonaviy ta’lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishda muhim rol o‘ynaydi. Raqamli texnologiyalar yordamida talabalarning ma’naviy qadriyatlarni o‘rganishi, ularga axloqiy tushunchalarni tushuntirish va tarbiyalash jarayonini yanada interaktiv va qiziqarli tarzda olib borish mumkin.

Raqamli platformalar talabalarga ma’naviy tarbiyani qo‘llab-quvvatlash va ta’lim jarayonini yengillashtirish uchun bir qator imkoniyatlar taqdim etadi.

Raqamli platformalar va texnologiyalar yordamida ma’naviy tarbiyalash jarayonida quyidagi natijalarga olib kelishi mumkin:

Axloqiy qadriyatlarning chuqurlashuvi. Talabalar ma’naviy va axloqiy mavzularni o‘rganish orqali o‘zlarining axloqiy qarashlarini kengaytiradilar.

Faol ishtirok etish. Raqamli texnologiyalar talabalarga ta’lim jarayonida faol ishtirok etishga va o‘z fikrlarini erkin ifoda etishga yordam beradi.

Yana ko‘proq ma’lumot olish. Talabalar raqamli platformalar orqali turli manbalardan ma’lumot olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa, ularning bilimlarini kengaytiradi. Ma’naviy tarbiyalashda raqamli platformalar va texnologiyalar zamonaviy ta’lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi. Bu usullar talabalarni nafaqat ma’naviy va axloqiy qadriyatlar bilan tanishtirish, balki ularni ijodiy fikrlash va mas’uliyatli fuqarolar sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Ma’naviyat soatlarida talabalarni ma’naviy rivojlantirishda mentorlik tizimi orqali axloqiy yetakchilar yoki ustozlardan bilim olish usuli muhim bo‘lib, mentorlik dasturlari orqali talabalar tajribali insonlardan ma’naviy ko‘nikmalarni amaliyotda o‘rganadilar.

Mentorlik dasturlari — bu tajribali mutaxassislar yoki professionallar (mentorlar) yangi boshlovchilar yoki kam tajribaga ega bo‘lgan shaxslar (mentilar) bilan ishlash orqali ularga o‘z bilim va tajribalarini o‘rganish, rivojlanish va muvaffaqiyatga erishishda yordam berishga qaratilgan tizimlardir. Ushbu dasturlar ko‘pincha ta’lim muassasalarida, ish joylarida yoki ijtimoiy tashkilotlarda amalga oshiriladi.

1. Mentorlik dasturlarining maqsadi

Mentorlik dasturlarining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

Tajribani o‘rganish. Mentorlar mentilarga o‘z sohalaridagi tajribalarini, bilimlarini va ko‘nikmalarini o‘rganishga yordam beradilar.

Raqobatbardoshlikni oshirish. Talabalar yoki yangi xodimlar ish bozorida raqobatbardosh bo‘lishlari uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantiradilar.

Shaxsiy rivojlanish. Mentorlik dasturlari mentilarning shaxsiy va professional rivojlanishlariga ko‘maklashadi.

Tarmoq yaratish. Mentorlik orqali mentilar yangi aloqalar o‘rnatish, mutaxassislar bilan tanishish va professional tarmoqlarini kengaytirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Zamonaviy ta’lim jarayonida talabani nafaqat bilim olishga, balki uning ma’naviy tarbiyasiga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Ma’naviy tarbiya yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantirish, ularda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish jarayonidir. Bu jarayonda ko‘rsatkichlar tizimi, xususan, KPI (Key Performance Indicators) muhim rol o‘ynaydi. KPI — bu maqsadlarga erishish darajasini baholash uchun ishlatiladigan ko‘rsatkichlar to‘plamidir.

KPI ta’lim va tarbiya jarayonini monitoring qilish va baholashning samarali usuli hisoblanadi. Ma’naviy tarbiya sohasida KPI ko‘rsatkichlari talabaning ma’naviy qobiliyatlari, axloqiy holati va uning jamiyatdagi roli bilan bog‘liq bo‘lgan mezonlar asosida belgilanadi. Bu ko‘rsatkichlar ta’limning samaradorligini baholash va kerakli o‘zgarishlar kiritish imkoniyatini yaratadi.

Ma’naviy tarbiya jarayonida KPIni kiritish quyidagi afzalliklarni beradi:

1. Aniqlik va o‘lchanish imkoniyati. Talabaning ma’naviy rivojlanishidagi o‘zgarish ko‘rsatkichlar orqali aniqlanadi.

2. Jarayonni boshqarish. KPI orqali ta’lim jarayoni nazorat qilinib, talabaning ma’naviy rivojlanishini monitoring qilish imkonini beradi.

3. Xolis baholash. KPI tizimi nafaqat o‘quv dasturlari samaradorligini baholashga, balki talabalar o‘rtasidagi ma’naviy rivojlanishdagi farqlarni aniqlashga yordam beradi.

4. Motivatsiya yaratish. Talabalar o‘zlarining ma’naviy rivojlanishlari bo‘yicha aniq ko‘rsatkichlar bilan tanishib, o‘zlarini rivojlantirishga turtki oladilar.

Ma’naviy tarbiya jarayonida KPI (kalit natijaviy ko‘rsatkichlar)ning qo‘llanishi aniq mezonlar asosida shakllantiriladi. Ushbu mezonlar talabaning ma’naviy-axloqiy rivojlanishini baholash uchun ishlatiladi. KPI ko‘rsatkichlari ma’naviy tarbiyaning har bir bosqichida farq qilishi mumkin. Lekin ular bir nechta asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

1. *Axloqiy ong va e'tiqod*. Bu ko‘rsatkich talabaning axloqiy normalarga, qadriyatlarga bo‘lgan hurmati va e'tiqodiga asoslanadi. KPI o‘lchovlari sifatida talabaga axloqiy qadriyatlarni qanchalik chuqur o‘zlashtirgani, ularni hayotida qo‘llay olish darajasi kiritiladi. Ushbu ko‘rsatkichlar talaba o‘zining kundalik faoliyatida o‘zini qanday tutayotgani, ijtimoiy muammolarga qanday javob berayotgani orqali baholanadi.

2. *Ijtimoiy mas'uliyat*. Talabani ijtimoiy faolligi va jamoat tadbirlarida ishtirok etishi orqali baholanishi mumkin. Masalan, talaba qanchalik ko‘p jamoat ishlarida, xayriya tadbirlarida ishtirok etishi, universitet va mahalla hayotida faol bo‘lishi ushbu ko‘rsatkichga kiradi. KPI bu jarayonda talabani qanday tashkilotchilik qobiliyatlari va yetakchilik fazilatlariga ega ekanini o‘lchaydi.

3. *Shaxsiy rivojlanish va o‘zini o‘zi baholash*. Ushbu ko‘rsatkich talabaning o‘z ustida ishlashi, o‘z shaxsiy maqsadlarini aniqlab, ularga erishish qobiliyatini baholaydi. KPI o‘lchovlari sifatida talabaning ma’naviy rivojlanishga qiziqishi, o‘z bilimi va axloqiy darajasini oshirish yo‘nalishidagi faoliyati, o‘zini baholash darajasi ham olinadi. Bu jarayon orqali talabaning o‘ziga nisbatan tanqidiy yondashuvi va intizomi aniqlanadi.

4. *Madaniy va estetik dunyoqarash*. Talabaning madaniyatga, san'atga bo‘lgan qiziqishi va ularni qadrlash qobiliyati ushbu ko‘rsatkich orqali baholanadi. KPI o‘lchovlari sifatida talabalar orasida madaniyat va san'at tadbirlarida ishtirok etish, adabiy tadbirlarda, badiiy loyihalarda qatnashish kabilar baholanadi.

KPI ko‘rsatkichlarini aniqlash uchun quyidagi usullar qo‘llaniladi:

Anketa so‘rovnomalari. Talabaning ma’naviy dunyoqarashini, qadriyatlarini baholash uchun so‘rovnomalar o‘tkaziladi.

Kuzatish va tahlil. Talabaning ijtimoiy hayotdagi faoliyati, jamiyatdagi xulq-atvori kuzatilib, tahlil qilinadi.

Baholash tizimi. Shaxsiy rivojlanish dasturlari orqali talabaning ma’naviy rivojlanishi uchun aniq natijalar baholanadi.

Talabani ma’naviy tarbiyalash jarayonida KPI tizimining qo‘llanishi ta’limning samaradorligini oshirishga katta hissa qo‘shadi. Ma’naviy qadriyatlarni o‘zlashtirish, ijtimoiy faoliyat va shaxsiy rivojlanish kabi mezonlar asosida KPI ko‘rsatkichlarini belgilash, talabaning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlashga yordam beradi. Shu bilan birga, KPI tizimi orqali ma’naviy tarbiya jarayonini optimallashtirish, uni muntazam ravishda tahlil qilish va takomillashtirish imkoniyati mavjud.

Talabalar ma’naviy tarbiyasi jarayonida KPIni qo‘llash jarayonning samaradorligini oshirishga yordam beradi. Bunda o‘qituvchilar va ma’naviyat targ‘ibotchilari talabalarga qo‘yilgan maqsadlarni aniq belgilab berishlari va KPI ko‘rsatkichlari orqali ularning rivojlanish yo‘nalishini tahlil qilishlari mumkin. KPI tizimi ma’naviy-axloqiy ta’limda quyidagi o‘zgarishlarni kiritishga imkon beradi:

Rivojlanish monitoringi. Talabalar ma’naviy tarbiya jarayonidagi rivojlanishini aniq baholash uchun vaqtincha mezonlar joriy etiladi. Bu esa, talabalarni doimiy ravishda rivojlanish va o‘z faoliyatini baholashga undaydi.

Qiyosiy tahlil. KPI ko‘rsatkichlari orqali talabalar o‘rtasida rivojlanish farqlari aniq ko‘rinadi va qaysi talaba qanday yutuqlar yoki kamchiliklar bilan rivojlanayotgani tahlil qilinadi.

Individuallashtirilgan yondashuv. KPI tizimi orqali talabalarning ma’naviy rivojlanish jarayoni to‘g‘ri boshqarilishi va har bir talaba uchun individual yondashuvni qo‘llash mumkin bo‘ladi. Har bir talabaning ma’naviy ehtiyojlari, qobiliyatlari va yondashuv usullari hisobga olinadi.

KPI ko‘rsatkichlari talabalar ma’naviy tarbiyasi jarayonida aniq va o‘lchanadigan natijalarga erishish uchun muhim vosita hisoblanadi. Ma’naviy qadriyatlarni o‘zlashtirish, ijtimoiy faollik, shaxsiy rivojlanish va madaniy dunyoqarash kabi yo‘nalishlar orqali KPI ko‘rsatkichlarini belgilash, talabalarning ma’naviy rivojlanishini tizimli ravishda baholash imkonini yaratadi. Natijada, ma’naviy tarbiya jarayoni yanada samaraliroq va natijador bo‘lib, bu talabalarni jamiyatga, madaniyatga va axloqiy qadriyatlarga hurmat bilan qaraydigan shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, oliy ta’lim muassasalarida talabalarni ma’naviy tarbiyalash jarayoni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etilishi zarur. An’anaviy usullar bilan cheklanib qolmasdan, innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, loyiha asosida ta’lim, raqamli

platformalar va mentorlik tizimidan samarali foydalanish talabalar shaxsining har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydi.

Ma’naviy tarbiya jarayonida talabalarning mustaqil fikrlashi, ijtimoiy faolligi, axloqiy ong va madaniy dunyoqarashini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Shu bois, ta’lim jarayonida talabaning faolligini oshirishga qaratilgan metodlardan foydalanish pedagogik samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi.

Shuningdek, ma’naviy tarbiya natijadorligini baholashda KPI (kalit natijaviy ko‘rsatkichlar) tizimini joriy etish muhim vosita hisoblanadi. Ushbu tizim orqali talabalarning ma’naviy rivojlanish darajasi monitoring qilinadi, tahlil qilinadi va zarur hollarda ta’lim jarayoniga tegishli o‘zgartirishlar kiritiladi.

Umuman olganda, oliy ta’lim tizimida ma’naviy tarbiyani innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib, bu jarayon talabalarning ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk, ijtimoiy mas’uliyatli va raqobatbardosh shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023. – 120 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-637-son. 23.09.2020. – T.: 2020. – 75 b. //https://lex.uz/docs/5013007
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. Toshkent. 2017 yil. 28 iyul. // Xalq so‘zi. 2017 yil. 28 iyul № 148 .
4. Mirziyoyev Sh. Ta’lim va ma’rifat-tinchlik va bunyodkorlik sari yo‘l. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. Toshkent. O‘zbekiston 2017. – 592 b.
5. Odamiylik mafkurasi. Yangi O‘zbekiston, № 21 (277), 2021 yil, 30 yanvar.
6. Olimov Sh.Sh. Ma’naviy-axloqiy tarbiya asoslari. (Monografiya). – T.: “Fan va texnologiya”, 2015. - 228 b.

BURHONIDDIN ZARNUJIYNING ILM, USTOZ, SHERIK TANLASH HAQIDAGI G’OYALARI VA ZAMONAVIY DIDAKTIK JARAYONGA MUTANOSIBLIGI

Qaxxarova Nazira Nuridillo qizi,
Qarshi davlar universiteti pedagogika nazariyasi.
Pedagogik ta’limotlar tarixi mutaxassisligi doktoranti

Ushbu maqolada Burhoniddin Zarnujiyning g’oyalari aks etgan "Ta’lim al-muta’allim" asarida ilmning mohiyati, ilm olish , ilm olishda ustozni to’g’ri tanlay olish va sherik tanlash haqida keltirilgan fikrlar hamda mazkur g’oyalarning hozirgi zamon didaktik jarayoniga nechog’lik bog’liqligi pedagogik jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: *ilm, ustoz, sherik tanlash, ilm vaqti, “Ta’lim al-muta’allim tariq at-ta’allum”, g’oya, axloq, mentorlik, tyutorlik, akademik rahbarlik,* **mashvarat, ongli o‘zlashtirish**

ИДЕИ БУРХАНИДДИНА ЗАРНУДЖИ О НАУКЕ, УЧИТЕЛЕ, ВЫБОРЕ ПАРТНЕРА И ИХ АКТУАЛЬНОСТЬ ДЛЯ СОВРЕМЕННОГО ДИДАКТИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА.

В данной статье анализируются идеи Бурхониддина Зарнуджи из его труда «Та'лим аль-мута'аллим» о сущности знания, приобретении знания, выборе правильного учителя и партнера в обучении, а также педагогическая значимость этих идей для современного дидактического процесса.

Ключевые слова: *знание, наставник, выбор партнера, время познания, «Ta’lim al-muta’allim tariq at-ta’allum», идея, этика, наставничество, обучение, академическое лидерство, консультация, осознанное мастерство*

BURHANIDDIN ZARNUJI'S IDEAS ON SCIENCE, TEACHER, PARTNER CHOICE, AND THEIR RELEVANCE TO THE MODERN DIDACTIC PROCESS

This article analyzes the ideas of Burhoniddin Zarnuji in his work "Ta'lim al-muta'allim" about the essence of knowledge, acquiring knowledge, choosing the right teacher and partner in learning, and the pedagogical relevance of these ideas to the modern didactic process.

Keywords: *knowledge, mentor, partner selection, time of knowledge, “Ta’lim al-muta’allim tariq at-ta’allum”, idea, ethics, mentorship, tutoring, academic leadership, consultation, conscious mastery*

Kirish. Insoniyat taraqqiyoti davomida ta’lim va tarbiya masalasi jamiyatning ijtimoiy-madaniy rivojlanishida hal qiluvchi omil bo‘lib kelgan. O‘tmish allomalari tomonidan ilgari surilgan ilmiy, falsafiy va pedagogik qarashlar zamonaviy ta’lim tizimining shakllanishida beqiyos o‘rin tutadi. Shu nuqtayi nazardan, Sharq uyg‘onish davrining atoqli mutafakkirlaridan biri sanalmish Burhoniddin Zarnujiyning ilmiy merosi alohida e’tiborga loyiqdir. Uning mashhur pedagogik risolasi – «Ta’lim al-muta’allim tariq at-ta’allum» (“O‘quvchi ta’limi, ta’lim olish yo‘llari”) asari islom ta’lim falsafasining yuksak namunasi sifatida nafaqat o‘rta asr Sharq ilmiy tafakkurida, balki bugungi globallashuv sharoitida ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan asardir.[1;45-b]

Zarnujiyning mazkur asari nafaqat diniy-ma’rifiy ta’limot namunasi, balki pedagogik qo‘llanma sifatida ko‘riladi. Unda ilm olishning ma’naviy, axloqiy, ruhiy va metodologik asoslari chuqur tahlil qilingan. Alloma ilm talab qiluvchining shaxsiy mas’uliyati, ta’lim jarayonida ustozning o‘rni, ilmdan maqsad, niyatning pokligi, ilmning foydasi va amaliy ahamiyati haqida fundamental g‘oyalarni ilgari suradi.[2;121-b] Bugungi kunda ilmiy jarayonning qadri pasayib borayotgan sharoitda, ayniqsa ta’lim tizimida ma’naviy inqiroz kuchaygan bir paytda Zarnujiy merosini qayta o‘rganish katta ijtimoiy ahamiyatga ega.

Shu ma’noda, mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligi bir necha omillar bilan belgilanadi. Avvalo, bugungi avlodning ta’limiy-axloqiy yetukligini ta’minlashda milliy va diniy-ma’naviy merosdan foydalanish zarurati ortib bormoqda. Ikkinchidan, ta’lim jarayonining faqat texnologik jihatlarga yo‘naltirilishi, insoniylik, vijdon, axloq kabi qadriyatlarning sustlashib borishi jiddiy pedagogik muammolardan biridir.[3;33-b] Shu sababli ta’lim nazariyasini qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirgan mutafakkirlar ilmiy merosini o‘rganish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlar tahlili. Muallif ilm olish jarayoni va bunda ustozni va sherikni to’g’ri tanlay bilish haqida asarning uchinchi bobida fikr mulohazalarini bayon etadi.

Asaradagi uchinchi fasl ta’lim jarayonining tashkiliy va subyektiv omillarini yoritishga bag’ishlangan bo’lib, unda ilm egallash samaradorligini belgilovchi uch asosiy komponent – ilm mazmuni, ustoz shaxsi va ta’lim muhiti ya’ni sherik tanlash o’zaro bog’langan holda tahlil qilinadi hamda yagona pedagogik tizim sifatida ko’riladi.

Zarnujiy, avvalo, talabaning ilm tanlashda mezonsiz harakat qilmasligi lozimligini ta’kidlab, ilmni uning **ijtimoiy, axloqiy va ma’naviy natijadorligi** nuqtayi nazaridan baholash zarurligini ilgari suradi. Tavhid va aqida ilmlariga ustuvorlik berilishi muallif tomonidan bilimning faqat ma’lumotlar majmui emas, balki shaxs dunyoqarashini shakllantiruvchi omil ekanini ko‘rsatadi. Ayniqsa, muqallidlik tanqid qilinib, bilimning dalil va asosga tayanishi zarurligi qayd etilishi Zarnujiyning **ongli o‘zlashtirish** va **intellektual mas’uliyat** masalalariga katta e’tibor berganini ko‘rsatadi.

Bu faslda ustoz shaxsi asosiy o’ringa qo’yiladi. Muallif ustozni faqat bilim beruvchi sifatida emas balki tarbiyaviy ta’sir subyekti sifatida talqin qiladi. Alloma ustoz tanlash jarayonida quyidagi sifatlarga ega bo’lgan ustozni tanlamoq maqsadga muofiq hisoblaydi. .[4;26-b] 1-rasm.

“Ta’lim al-muta’allim” asarida keltirilgan ustoz tanlash me’zonlari

T/r	**Mezon**	**Tavsif**
1	Ilmiy saviya	Ilmda chuqur bilimli bo‘lishi
2	Taqvo	Halol, pok axloqli
3	Tajriba	Ta’lim berishda tajribaga ega
4	Halollik	Dunyoviy maqsadlardan holi
5	Mehribonlik	Shogirdlarga samimiy bo‘lishi

Imom Abu Hanifaning ustoz tanlash tajribasi orqali Zarnujiy ta’lim jarayonida **barqaror pedagogik munosabat**ning ahamiyatini asoslaydi.Ustozni noto’g’ri tanlash bu ilmdan sovishga va vaqtni befoyda sarflashga olib keladi, bu esa ilm barakasini yo’qolishiga olib keluvchi omil sifatida talqin etiladi. Bu yerda bir sir bor ilminingni bebaraka bo’lishi ustozingni ranjitib uni tark etishingda. Sen ustozingni shunday tanlaginki sen uni tark etish va darsdan qolishga ehtiyoj sezmagin.

Alloma ta’lim jarayonida **mashvarat** va maslahatlashuv tamoyilini muhim pedagogik mexanizm sifatida ko‘rsatadi. Talabaning o‘z fikriga ega bo‘lishi bilan birga, boshqalarning fikrini tinglashi va baholashi barkamol shaxs tarbiyasining muhim sharti sifatida talqin qilinadi. Shu orqali muallif talabaning ijtimoiy-intellektual yetukligini shakllantirishga urg‘u beradi.

Zarnujiy ta’limotida ustoz-shogird munosabatlari alohida o‘rin egallaydi. Uning fikricha, haqiqiy ustoz – ilm manbai bo‘lib, talabaning faqat bilim egallashida emas, balki uni ma’naviy kamolot sari yetaklashda yo‘lboshchi vazifasini bajaradi.[5;76-78-b] Ustozning qalbi pok, ilmi barakali, odobi go‘zal bo‘lmog‘i shart. Aks holda, u tarbiya beruvchi emas, faqat ma’lumot yetkazuvchi bo‘lib qoladi. Bu g‘oya zamonaviy pedagogikadagi “pedagogning kasbiy mahorati va shaxsiy fazilatlari” haqidagi nazariyalar bilan uyg‘undir.Mazkur ta’limotning yana bir muhim jihati – ilm egallash metodlari haqidagi qarashlaridir. Uning fikricha, ilmni egallashda muvaffaqiyatga erishish uchun to‘rt asosiy omil zarur: to‘g‘ri metod, tartib, sabr va ustoz ko‘rsatmasiga amal qilish. U ilmni bosqichma-bosqich o‘rganishni, har bir darsni puxta o‘zlashtirishni, tushunilmagan masalani ustozdan so‘rashni, muntazam takrorni ta’lim jarayonining zaruriy qismi sifatida qayd etadi. Bu fikr bugungi pedagogikada tizimlilik, izchillik, kuzatiluvchanlik va mustahkamlash didaktik tamoyillariga mos keladi.

Bundan tashqari asarda savol-javob, bahs-munozara, muloqot orqali o‘rgatish kabi metodlar ta’kidlanadi.[6;132-134-b] Alloma ta’limni faqat yod olishga emas, balki fikrlashga, anglashga asoslashni talab qiladi. Asarda “ilm faqat eslab qolish emas, uni anglash va hayotda qo‘llashdir” degan g‘oya ilgari suriladi. Bu esa hozirgi zamon ta’limida qo‘llanilayotgan interfaol metodlar, muammoli ta’lim, dialogik ta’lim kabi yondashuvlarning tarixiy ildizlari Sharq pedagogikasida mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi.

Zarnujiy ilm egallashda axloqiy muhitning ta’sirini ham chuqur tahlil qiladi. U ilmni o‘rganish uchun yaxshi muhit, yaxshi do‘st, yaxshi ustoz bo‘lishini zarur deb biladi. Chunki ilmning barakasi insonning kimlar bilan suhbatda bo‘lishiga ham bog‘liqdir. “Yomon do‘st – jaholatga eltadi, yaxshi do‘st – ilmga yetaklaydi”, deydi u. Bu borada u talabaning ijtimoiy muhitini shakllantirishga e’tibor qaratadi, bu esa bugungi pedagogikada ham “ijtimoiy ta’lim muhiti” tushunchasi bilan bog‘liqdir.

Natija. Faslda sabr, sabot va qanoat ta’lim jarayonining ichki harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin qilinadi. Zarnujiy sabr qanoatli, chidamli bo’lishni bajarayotgan ishini komil egallashda asos hisoblaydi va quyidagi to’rtlik bilan aniqlashtirishga harakat qiladi.

Oliylikka intilganga darkor harokat, ammo
Kishilarda kam uchraydur sabotu matonat.

Asarda muallif fikrini yanada to’ldirish maqsadida «Bir soat sabr qilmoq shijoatdur» deganlar.

Bir fanni mukammal egallashda bir bosqichni tugatmasdan turib ikkinchisiga o’tish, zarurat bo’lmasa boshqa shaharga ko’chish hatto mumkin emasligini ta’kidlaydilar. Zero bu holatlar insonni ilmdan chalg’ituvchidir deya uqtiradilar. Ilm mevasiga erishish uchun har bir ilmga talabgor sabrli bo’lishi va havoyi nafsdan ham o’zini cheklay olishi kerakligini aytib quyidagi donishmandlar so’zi bilan yanada chuqurroq tushuntiradi.

Donishmandlar deydi: «Orzu umidlarga erishish qop-qop mehnat va imtihonlar ustidadir».[4;32-b]

Bir fanni mukammal egallamasdan boshqasiga o‘tish, ustozni tez-tez tark etish, ta’lim jarayonida parokandalik keltirib chiqaruvchi omillar sifatida keskin tanqid qilinadi. Bu fikrlar ilm egallashni uzoq muddatli, tizimli va qat’iyat talab qiladigan jarayon sifatida tushunilganini ko‘rsatadi.

Hazrat Ali (raziyallohu anhu)ning aytishlaricha quyidagilarga amal qilsagina o’rganilayotgan ilm fayzu ravnaq topadi. Zakovvat-ziyraklik, ilmga chanqoqlik, sabru qanoat, ustoz yo’llanmasi va uzoq vaqt.;

Bu fikrlar ilm egallashni uzoq muddatli, tizimli va qat’iyat talab qiladigan jarayon sifatida tushunilganini ko‘rsatadi.

Ustozni tanlashda u o‘quvchiga yakuniy qaror qabul qilishdan oldin kuzatish va maslahatlashishni tavsiya qilgan. Diqqat, tirishqoqlik va davomiylik unsurlari fan va ustozni tanlashdan oldin kuzatish va maslahatlashish bilan amaliy bog‘liq. Bir marta tanlov qilinsa, o‘quvchi ustozini va fanini almashtirmasligi kerak.

Shuning uchun, o‘quvchi to‘g‘ri tanlov qilishi juda muhimdir. Agar o‘quvchi fan va ustoz bo‘yicha noto‘g‘ri tanlov qilganini tushunsa, u vaqtini behuda sarflaydi, qiziqishi va motivatsiyasini yo‘qotadi, bu esa beqarorlik, qiziqish yo‘qolishi va diqqatni jamlay olmaslikga olib keladi. Shuning uchun fan va ustozni tanlashda to‘g‘ri qaror qabul qilish eng muhim bo‘lib, o‘quvchi tezda qaror qabul qilmasligi, kuzatishi va tajribali odamlardan maslahat olishi kerak.

Sherik va ijtimoiy muhit tanlash masalalariga ham alohida ahamiyat qaratib, sherikning tirishqoq, jiddiy, parhezkor, taqvodor, mustahkam irodali, xulqi o’zgarmaydigan, fahm-farosatli, tushunadigan va tushuntira oladiganini tanlashni tavsiya etadi. Har qanday holatda bo’lsangda dangasa bilan do’stlashma deb quyidagicha o’xshatish qiladilar bunaqa insonlar bilan do’stlashish kul ichiga qo’yilgan cho’g’ kabidir, kul esa cho’g’ning o’chib qolishiga sababchi bo’ladi. Ya’ni sen ham bir cho’g’ kabisan u esa seni maqsadingga yetkazmay o’chiradi.

Ta’lim insonning ruhiyati, intellekti, ratsional ongi, hissiyotlari va sezgi a’zolarini tarbiyalash orqali uning shaxsiyatini har tomonlama va muvozanatli rivojlantirishni maqsad qiladi. Shunday ekan, ta’lim insonning ma’naviy, intellektual, tasavvufiy, jismoniy, ilmiy va lingvistik (tili) o‘sishiga, ham yakka tartibda, ham jamoaviy shaklda xizmat qilishi, uni yaxshilik va mukammallikka undashi lozim. Alloma ta’lim jarayonida niyyatga ham alohida ahamiyat beradi.

Munozara. Bu faslni zamonaviy pedagogika nuqtaiy nazardan tahlil qilganda ustoz shaxsiga berilgan yuksak baho o’qituvchinin professional va axloqiy kompetensiyalari bilan uyg’unlashadi. Muallif tomonidan ilgari surilgan ustoz shogird munosabatlari bugungi ta’limda qo’llanilayotgan mentorlik, tyutorlik va akademik rahbarlik modellarining ta’rixiy-pedagogik ildizlarini tashkil etadi.

Mashvarat tamoyili esa zamonaviy didaktikada hamkorlikda o’qitish, kollegial ta’lim muhiti va demokratik pedagogika go’yalari bilan mos keladi. Zarnujiyning sabr va sabot haqidagi qarashlari zamonaviy pedagogikadagi akademik chidamlilik, ta’lim jarayonida barqarorlikni saqlash, masadga sodiqlik bugungi ta’lim samaradorligining muhim shartlaridan biri albatta.

Sherik va muhit tanlashga oid qarashlar zamonaviy ta’limdagi ta’lim muhiti nazariyasi, ijtimoiy ta’sir va o’rganishda tengdoshlar roli haqidagi ilmiy qarashlar bilan uyg’unlashadi.

Alloma talabaga katta ahamiyat bergandek ko‘rinishi mumkin, lekin u o‘rganish faoliyatining ijtimoiy tabiatini ham ko‘rsatgan. Shu sababli talabalarga boshqalar bilan maslahatlashishni va o‘qituvchilar va do‘stlarni tanlashda diniy omillarni kuzatishni tavsiya qilgan, hamda jismoniy va aqliy sog‘lomlik o‘rtasidagi yaqin aloqani ta’kidlagan. Sog‘lom tana, sog‘lom aql, shijoatli va jonli faoliyat, o‘rganish faoliyatlarida xilma-xillik — bularning barchasi ilm izlovchi uchun zarur vositalardir.

Niyat insonning ichki (psixologik) elementi sifatida ilm izlash majburiy ibodat ekanligiga kuchli motivatsiya bo‘la oladi. Muhammad Usmon an-Najotiy aytadi:

«Motivatsiya — jonli mavjudotning faolligini oshiradigan, xulq-atvorni uyg‘otadigan va uni muayyan maqsad yoki marra sari yo‘naltiradigan harakatlantiruvchi kuchdir».

Zamonaviy psixiatrlar motivatsiyani ikki asosiy qismga ajratadilar:

1. Psychological drive (Psixofiziologik ehtiyoj): Ochlik, chanqoqlik kabi jismoniy ehtiyojlar.

2. Social motives (Ijtimoiy motivlar): Boshqa odamlar bilan bog‘liq bo‘lgan estetik, axloqiy va doim yaxshilik qilish istagi kabi intilishlar.

Motivatsiyaning asosiy komponentlari:

- Harakatga keltirish: Insonni harakat qilishga undovchi kuch yaratish.
- Yo‘naltirish: Xulq-atvorni aniq maqsad sari yo‘naltirish.

Quvvatlash: Atrofdagi muhit va ichki intilish yordamida harakatni davomiy saqlab turish.

Bundan tashqari, Zarnujiy ta’limida qat’iy intizom va ruhiy qadriyatlar zamonaviy ta’limdagi talaba markazli yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirilishi lozim. Bu talabaning shaxsiy erkinligi va ijodiy imkoniyatlarini cheklamaydi, balki ularni ruhiy va intellektual rivojlanishiga yordam beradi.

Ustoz tanlash borasida esa eng ilmli, eng solih va eng tajribali shaxsni tanlash kerak. Masalan, Abu Hanifa uzoq o‘ylab, Hamad ibn Abu Sulaymanni ustoz sifatida tanlagan. U o‘z ustozlari haqida shunday deydi: «Men ustozim bilan keksa yoshimda uchrashdim, u barcha ishlarida xushmuomala va sabrli edi. Men Hamad ibn Abu Sulayman huzurida o‘qidim va ulg‘aydim»

Ustozni hurmat qilish haqida yana bir olim shunday deydi: Ustoz shogirdga dedi: «Ey shogird! Sabr qiluvchi! Meni hurmat qil, odobingni saqlashga harakat qil, shunda nasihatlar qilinadi. Ey inson, sening dunyo ishlaring, oxiring, kelajaging mening xizmatim ostida, shuning uchun sen bunga erishasan, ishlaringning oqibatini o‘ylaysan, va ular senga bunday ko‘rsatmalar bermaydi. Agar ularga xiyonat qilsang va ularni jahling bilan xafa qilsang, sabr qil, o‘z og‘rigingga sabr qil yoki o‘z-o‘ziga rozilik bilan yondash». [4;36-b]

Xulosa. Az-Zarnujiy bo‘yicha ta’limning maqsadi: Allohga ixlos bilan ibodat qilish, dunyo va oxirat baxtiga erishish, jaholatni tugatish, Islom ta’limotining davomiyligini ta’minlash hamda aql va salomatlik ne’mati uchun shukr qilishni o‘z ichiga oladi. Bu maqsadlar ta’limning barcha jihatlarini — intellektual, jismoniy, ruhiy, shaxsiy va ijtimoiy sohalarni qamrab oladi. Bunday yondashuv zamonaviy ta’lim maqsadlari bilan hamohangdir. Zero, bugungi kunda ham ta’lim nafaqat shaxs xarakterini shakllantirish, balki uning jamiyatdagi ijtimoiy pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda allomaning bu faslda bayon etilgan pedagogik qarashlari ilmiy –pedagogik jihatdan puxta tizimlashtirilgan bo’lib, u zamonaviy ta’lim nazariyasining asosiy tushunchalari bilan konseptual uyg’unlikka ega. Ilm mazmunining maqsadga yo’naltirilishi, ustoz shahsining yetakchi roli, maslahatlashuvga asoslangan faoliyat, barqarorlik va ijtimoiy muhitning ta’siri haqidagi qarashlar Zarnujiy an’anaviy alloma emas, balki ta’lim jarayonini tizimli anglagan pedagogik mutafakkir sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. Ergashev Q. Islom sivilizatsiyasi va pedagogik meros. – T.: Fan, 2018. – 45-b.
2. Qosimov B. Forobiy va sharq ta’lim tizimi. – T.: Universitet, 2016. – 121-b.
3. Abdullayeva N. Pedagogik qadriyatlar nazariyasi. – T.: Fan, 2019. – 33-b.
4. Imom Zarnujiy. Ilm olish sirlari Toshkent-2022, 26, 32-b
5. Is’hoqov, A. Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005. – B. 76–78.
6. Hakimov, N. Pedagogika tarixi. – Toshkent: Tafakkur, 2019. – B. 132–134.

“PEDAGOGIK MAHORAT” JURNALI UCHUN MAQOLALARNI RASMIYLASHTIRISH TALABLARI

“PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy jurnali mualliflari diqqatiga!

1. “**PEDAGOGIK MAHORAT**” ilmiy jurnali ilmiy maqolalarni o‘zbek, rus va ingliz tillarida chop etadi.

2. E’lon qilinadigan maqolalarga bo‘lgan asosiy talablar:

- ✓ishning dolzarbligi va ilmiy yangiligi;
- ✓maqolaning hajmi: adabiyotlar ro‘yxati, chizma va jadvallar inobatga olingan holatda 4-8 betgacha;
- ✓maqola nomi, annotatsiya (80-90 ta so‘z) va tayanch so‘zlar (8-10 ta) ingliz, o‘zbek va rus tillarida keltiriladi.

3. Maqola boshida UDK (udc.online internet saytidan olishingiz mumkin), mavzu, muallifning F.I.O. (to‘liq yozilishi kerak), mualliflar bir nechta bo‘lsa, ularning har biri haqida to‘liq ma’lumotlar berilishi shart, tashkilot, shahar, mamlakat, muallifning e-maili ko‘rsatiladi. Matnda kirish qismi, tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar, olingan natijalar va ularning tahlili, xulosa, adabiyotlar ro‘yxati, albatta, keltiriladi. Maqolada keyingi 10-15 yilda e’lon qilingan adabiyotlarga havola qilinishi tavsiya etiladi.

4. Matn uchun: Microsoft Word; Times New Roman, 11 shrift, maqola nomi bosh harflarda, intyerval 1,0; abzas 1,0 sm, yuqori va pastki tomon 2 sm, chap va o‘ng tomon 2 sm.

5. Agar maqolaga rasm, jadval, diagramma, sxema, chizma, turli grafik belgilar kiritilgan bo‘lsa, ular aniq va ravshan tasvirlanishi, qisqartmalarning to‘liq izohi yozilishi lozim. Formulalar matnga maxsus kompyuter dasturlarida kiritilishi kerak.

6. Iqtibos olingan yoki foydalanilgan adabiyot satr osti izohi tarzida emas, balki maqola oxirida asosiy matndagi ketma-ketligi asosida umumiy ro‘yxatda ko‘rsatiladi. Matn ichidagi ko‘chirmadan so‘ng iqtibos olingan asarning ro‘yxatdagi tartib raqami va sahifasi kvadrat qavs ichida beriladi. Bu o‘rinda kitob, to‘plam, monografiyalar uchun mualliflarning ism-familiyalari, manbaning to‘liq nomi, nashr ko‘rsatkichi (shahar, nashriyot va nashr yili) ko‘rsatiladi. Jurnal maqolalari va boshqa davriy nashrlar uchun mualliflarning ism-familiyalari, maqola nomi, jurnal nomi, yili va soni, sahifa nomyeri ko‘rsatiladi.

7. Maqola matni kamida 70-80 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim. Topshirilgan maqolalar “Antiplagiat” tizimi yordamida tekshiriladi.

8. Tahririyatga taqdim qilingan maqolalar tahririyat tomonidan taqrizga beriladi. Maqola taqrizdan qaytgach, agar zarur bo‘lsa, barcha savol va e’tirozlar bo‘yicha muallifga qayta ishlash uchun taqdim etiladi. Maqola nusxalari qaytarilmaydi.

9. Tahririyat maqolani taqrizga yuboradi, taqriz ijobiy bo‘lsa maqola jurnalda chop etish uchun qabul qilinadi. Jurnalda anjuman tezislari va ma’ruzalari chop etilmaydi. **E’lon qilingan materiallarning haqqoniyligiga va ko‘chirilmaganligiga shaxsan muallif javobgardir.**

10. Tahririyat maqolaga ayrim kichik o‘zgartirishlarni kiritishi mumkin. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqilmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

11. Ijobiy taqriz berilgan maqola tahririyat tomonidan qabul qilingan sanaladi. Jurnal tahririyati maqola matnini qisqartirish va unga tahririy o‘zgartirishlar kiritishga haqlidir.

12. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan qabul qilinmaydi va ko‘rib chiqilmaydi.

Manzil: O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro viloyati, 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy, bosh bino, 2-qavat, 219-xona.

Web site: www.buxdu.uz

E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

Telegram raqami: +998 (94) 837-18-38.



Buxoro davlat universiteti muassisligidagi
“PEDAGOGIK MAHORAT”
ilmiy-nazariy va metodik jurnali
barcha ta’lim muassasalarini
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali maktab, kollej, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo‘llanma sifatida xizmat qilishi, shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o‘tamiz, maqola qo‘lyozmalari universitet tahririy-nashriyot bo‘limida qabul qilinadi.

Manzilimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 219-xona

Tahririyat rekvizitlari:
Moliya vazirligi g‘aznachiligi
23402000300100001010
MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275
BuxDU 40011086006401709410035005

Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlantiramiz!

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

2026-yil 4-son (127)

2001-yil iyul oyidan chiqa boshlagan.

OBUNA INDEKSI: 3070

Buxoro davlat universiteti nashri

Jurnal oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan.

Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.

Nashr uchun mas’ul:
Nigora SAYFULLAYEVA
Muharrir: Mexrigiyo SHIRINOVA
Musahhih: Sarvinoz RAXIMOVA

Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.

Bosishga ruxsat etildi 29.04.2026
Bosmaxonaga topshirish vaqti 30.04.2026
Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8
Tezkor bosma usulda bosildi.
Shartli bosma tabog‘i – 20,6
Adadi – 100 nusxa
Buyurtma № 21
Bahosi kelishilgan narxda.

“BUKHARAHAMD PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Buxoro shahri, J.Ikromiy MFY, Hofiz tanish Buxoriy ko‘chasi, 190 B-uy.